O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“YOSHLARNI ILM-FAN VA INNOVATSIYALARGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY KASBLARGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI”

mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



24–25–APREL

2026

Namangan 2026

Tahririyat hay'ati: U.D.Turaxanov, M.A.Maxsudova,
Z.B.Kurbanova, G.R.Mansurova.

Ma'sul muharrirlar: M.A.Maxsudova, G.R.Mansurova.

Taqrizchilar: **S.M.Tuychiyeva-** Amaliy fanlar universiteti Psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor

D.D.Oribboyeva- Namangan davlat pedagogika instituti kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori

Anjuman globallashuv sharoitida yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarib borayotganligi yangi O'zbekistonda o'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashga o'rgatish, zamonaviy kasblarni o'zlashtirishlari uchun shart-sharoit yaratish bilan bog'liq dolzarb muammolarni aniqlash va ularning yechimlari, mazkur yo'nalishdagi xalqaro tajribani o'rganish, hamkorlik aloqalarini o'rnatish, iqtidorli mutaxassislarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarining ilmiy asoslarini muhokama qilishga qaratiladi. Jahon talablariga mos innovatsion kasblar va texnologiyalarni boshqara oladigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash orqali xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat samaradorligini oshirishdan iborat.

Konferensiya sho'balarida Yangi O'zbekistonda yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga yo'naltirishning asosiy tendensiyalari, raqamli texnologiyalar davrida kasblar transformatsiyasi, kasbiy ta'limda o'zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari yoshlarni zamonaviy kasblarga qiziqish va qobiliyatlarini tashxis qilish hamda rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarida olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqot natijalari aks etgan.

Ushbu konferensiya to'plami mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, talaba va magistrantlar uchun foydali bo'ladi.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari ma'suldirlar. Ushbu konferensiyasi materiallari Namangan davlat universiteti Kengashining 2026 - yil apreldagi ___sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.

SO‘Z BOSHI

“Yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga yo’naltirishning psixologik mexanizmlari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2023-yil 4-iyuldagi PQ - 200 Qarorining 9-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-sonli buyrugi bilan tasdiqlangan konferensiyalar ro‘yxatiga kiritilgan.

Anjumanda Respublikamizdagi psixologiya fani sohalarida olib borilayotgan ilmiy- tadqiqot ishlarini tahlil qilish, zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga yo‘naltirishning psixologik xususiyatlari, uni tashkil etish jarayonidagi muammolar va ularning yechimi, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimidagi innovatsiyalar, yoshlarni kasbga yo‘naltirish ishlari samaradorligini oshirishga turli ijtimoiy omillar ta‘sirini aniqlash va ularni tadqiq etish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari keng muhokama qilindi va natijalari umumlashtirildi.

Kasbiy muammoga kompleks holda ijtimoiy-iqtisodiy, psixofiziologik, psixologik-pedagogik qarashlarni qo‘shib olib borgan holda yondashish kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy yondashish jamiyatning turli kasblarga bo‘lgan ehtiyoji, uning ravnaqi va kelajagini tahlil qilishga qaratilgan. Lekin, buning o‘zi yetarli emas. Har bir fuqaro qobiliyatiga qarab mehnat qilishi kerak. Xuddi shunday har bir o‘quvchi ham o‘ziga xos psixofiziologik xususiyatlarga moyillik va xarakterga ega bo‘ladi. Noto‘g‘ri kasb tanlash ma’naviy qoniqmaslik, faollikning yo‘qolishi, salomatlikning buzilishigacha olib kelishi mumkin. To‘g‘ri tanlangan kasb psixofiziologik xususiyatlarni takomillashuvini tezlashtiradi.

Anjumanda хорижlik mutaxassislar, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari ва respublikамизning turli viloyatlaridagi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, lmiy-tadqiqot institutlari ilmiy xodimlari, doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar va iqtidorli talabalar ishtirok etishdi.

1-SHO‘BA: YANGI O’ZBEKISTONDA YOSHLARNI ILM-FAN VA INNOVATSIYALARGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY KASBLARGA YO‘NALTIRISHNING ASOSIY TENDENSIYALARI

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI

Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Psixologiya” kafedrasi mudiri,
p.f.d DSC, professor

Annotatiya. *Ushbu maqola bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligining dinamik rivojlanishida shaxs ijtimoiylashuvi va faolligining namoyon bo‘lishi muammolariga bag’ishlangan bo‘lib, unda oliy ta’lim tizimida talaba shaxsini mutaxassis sifatida sharkllanishiga ta’sir etuvchi omillarga e’tibor qaratilga. Maqolada psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova va boshqa olimlarining ushbu muammoga doir qarashlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy shart-sharoit, malaka va ko‘nikmalar, differensial yondashuv, mutaxassis shaxsi, ta’lim jarayoni, oliy ta’lim tizimi, kasbiy kompetentlik, dinamik rivojlanish.*

Аннотация. *Данная статья посвящена проблемам социализации и проявления активности личности в динамическом развитии профессиональной компетентности будущих специалистов, в которой уделяется внимание факторам, влияющим на формирование личности студента как специалиста в системе высшего образования. В статье представлены взгляды на данную проблему доктора психологических наук, профессора В.М. Каримовой и других ученых.*

Ключевые слова: *профессиональная подготовка, социальные условия, квалификация и навыки, дифференцированный подход, личность специалиста, образовательный процесс, система высшего образования, профессиональная компетентность, динамическое развитие.*

Abstract. *This article addresses the issues of socialization and the manifestation of individual activity in the dynamic development of professional competence among future specialists. It focuses on the factors influencing the development of student identities as specialists in higher education. The article presents the views of V.M. Karimova, Doctor of Psychology, and other scholars.*

Keywords: *professional training, social conditions, qualifications and skills, differentiated approach, specialist personality, educational process, higher education system, professional competence, dynamic development.*

Oliy ta’lim tizimi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon o‘ta murakkab hamda ko‘p bosqichlidir. Bu jarayon ustida doimiy ishlash va uni takomillashtirib borish muhim. Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova [1]oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligining psixologik xususiyatlarini o‘rganish sohasida olib borgan tadqiqotlarida bo‘lg‘usi pedagoglarni kasbiy tayyorlash, ularda mutaxassis shaxsi va faoliyatiga xos zaruriy sifat va fazilatlarning shakllanishida ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy xususiyatlar muhim o‘rin egallashini e’tirof etadi. Jahonda raqobatbardosh, har tomonlama etuk mutaxassislarni tayyorlash, ularning shaxsiy,

kasbiy kompetentlilik darajasini oshirish, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy mavqeini tarkib toptirish, o‘z-o‘ziga bahoni shakllantirish, o‘z ustida ishlashga yo‘naltirish va kasbiy rivojlantirish, asosiy kasbiy hard skilss hamda ijtimoiy egiluvchan, moslashuvchan soft skills ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish dolzarb muammolarda biri bo’lib kelmoqda.

Jahonda ilm-fan va texnika rivojlanib kasbiy faoliyat jabhalarining kengayishi, davlat ta’lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta’lim tashkilotlarining ta’lim jarayonidagi faolligi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi o‘zgarishlar kasbiy faoliyat psixologiyasi va raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash masalasiga jiddiy e’tibor ustivor vazifa bo‘lib kelmoqda. Global Creativity Index (GCI)ning hisobotida keltirilishicha san’at, ijod va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash yuqori bo‘lgan mamlakatlarda yoshlarda ijodkorlikni, Soft skills ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish ko‘rsatkichi o‘sganligi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan psixologiya sohalarining kengayishi, fanning nazariy asoslarini yaratish bilan bir qatorda amaliy asoslariga zamin yaratuvchi, psixologiya va pedagogik soha mutaxassislarini amaliy kasbiy faoliyatini nafaqat rivojlantirish, balki amaliyotini tashkil etishning ilmiy asoslarini tarkib toptirish zarurligini hayotni o‘zi ko‘rsatmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti muvaffaqiyatining zamini yaxshi mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Kadrlarga ta’lim berish, ularni kasbiy tayyorlash, kelajakda ulardan nima kutilayotganini ular tomonidan anglab etish zarurligini singdirish mutaxassis tayyorlash tizimini takomillashtirish, samarali jarayonni tashkil etish va boshqarish kundan-kunga murakkablashib borayotganini anglash qiyin bo‘lmay qoldi. Butun dunyo mutaxassislarda Hard skills va Soft skills amaliy ko‘nikma va malakalarning shakllanganligiga e’tiborni qaratgan. Bu amaliy ko‘nikmalar faoliyatning va shaxslararo munosabatlar muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Bo‘lajak mutaxassislarda amaliy kasbiy ko‘nikma va malakalarni nafaqat tarkib toptirish, shakllantirish va rivojlantirish, balki unga ilmiy asosli yondashuvni ishlab chiqish, empirik material hamda ularni ilmiy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha doimiy ravishda tadqiqotlarni olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi samarali bo‘lishida V.M.Karimovaning fikricha saboq oluvchilarning erkinligini oshirish va ijodiy ishlashlari (fikrlashlari) uchun zaruriy ijtimoiy shart-sharoitni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Olima o‘z tadqiqotlarida talabalarda mustaqil fikr yuritish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish uchun, avvalo talaba va mutaxassis o‘zaro munosabatlarini tubdan o‘zgartirishlari, talabani ta’lim jarayonining faol sub’ektiga aylantirish lozimligini ko‘rsatadi. Buni samarali tashkil etishning bir qator psixologik shartlari va omillari mavjudligini ta’kidlaydi. Bular:

- ta’lim beruvchi talabalarni qanday bo‘lsa shundayligicha-iqtidori, layoqati va boshqa imkoniyatlari bilan idrok qilishga, tabiiy tarzda qabul qilishga o‘rgantish;
- har bir ta’lim muassasasi amalda yoshlarga differensial yondashuvni tashkil qilish va ulardagi psixologik imkoniyatlarni e’tiborga olish;
- ta’lim muassasasida o‘qitishning yangicha texnologiyasi va yoshlar aqliy faoliyatidan foydalanishning demokratik turlarini joriy etish. Bunda asosiy jihat

o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, uning har bir fikri va yuksalishiga e’tibor bilan qarash;
- ta’lim jarayonida guruhda pedagogikaning faol va boshqa interfaol metodlaridan keng va o‘rinli foydalanish talabaga ko‘proq o‘z fikrlarini izhor qilish uchun imkoniyat yaratatish;
-erkin va mustaqil fikrlash uchun psixologik “fazo” va “makon” tushunchalarining ahamiyatini hisobga olib, guruhda ishlash qonunlari va ijtimoiy psixologik mezonlarni to‘la inobatga olish zarurligini alohida qayd etadi.

Kasbiy mahorat va kompetentlik nafaqat o‘quv jarayonda, balki mutaxassisni o‘z ustida ishlashi hamda ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirishiga ham bog‘liqdir [94]. Muxamedova D.ning fikricha, bugun zamonaviy oliy ta’lim jahon talablari va standartlariga mos keluvchi ijodkor, kompetent, mas’uliyatli, o‘z kasbining ustasi, innovatsiyalarni tadbiq etishga tayyor bo‘lgan mutaxassisni talab etmoqda [3].

Mitina L. kasbiy tayyorgarlik faoliyati o‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyili bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, oliy ta’lim bosqichida mutaxassisni o‘z-o‘zini namoyon qilishga olib keladi degan fikrni bildiradi [4]. Har qanday kasb kognitiv va emotsional zaminga ega bo‘lgani sababli shaxsning qadriyatlari va individual anglash tizimini o‘zgartirishi mumkin.

Shaxsning har bir taraqqiyot bosqichida etakchi faoliyat uning faolligi, muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydi. Muxamedova D.ning ta’kidlashicha, faoliyatning etakchilik xususiyati shaxsda quyidagi psixologik xarakteristikalarni ifodalaydi:
- shaxsni emotsional qamrab oladi;
- extiyojlar yorqin, kuchli his-hayajonli holatlarda kechadiki, bu o‘z o‘rnida insonning emotsional hayotini boyitadi;
- etakchi faoliyatda erishilgan yutuqlar hayotiy yutuqlar sifatida qabul qilinadi;
- natijada charchash holatlari ko‘tarinki ruh, engillik, qoniqish hislari orqali zo‘riqishni engadi;
- shaxsning mukrakkab ijtimoiy munosabatlari takomillashadi;
- hayotdan to‘la qoniqishga erishiladi [9,4].

Bundan shunday fikriga kelishimiz mumkinki, kasbiy takomillashuv davridagi etakchi faoliyat malaka oshirish shaxsning faoliyatdagi integrativ rivojlanishidir. Ushbu jarayonda mavjud bilim, malaka va ko‘nikmalar qayta ko‘rib chiqilib, taxlil qilinib, yangi, murakkabroq ingrativ jarayonga o‘tadi.

Samarali kasbiy o‘zlikni anglash uchun quyidagilar zarur:
- kasb tanlashda o‘zining sifatlarini qiyosiy baholash;
- kasblar olamini o‘rganish, kasblar haqida qiyosiy tasavvurni shakllantirish;
- kasb tanlashda o‘zi uchun muhim omilni aniqlash, ya’ni shakllantirish va tanlangan kasbga mas’ullik va mas’uliyat bilan yondashish.

Boshlagan ishimiz, rejalashtirgan xatti-harakatlarimiz muvaffaqiyat bilan tugasa, xursand bo‘lamiz. Lekin ishlarimiz o‘xshamasa, muvaffaqiyatsizlikka uchrasak tushkunlikka tushamiz, qaytib shu ishni qilishdan qo‘rqamiz yoki undan qochamiz. Shunday vaziyatga tushgan bo‘lajak mutaxassislarga qanday maslahatlarni berish mumkin? Eng avvalo, inson hamma narsa uning qo‘lida

ekanligini unutmasligi lozim. Insonlar o‘zgalar va o‘z fikrlari asosida o‘zgaradilar. Birinchi navbatda biz o‘z fikrlarimiz va so‘zlarimiz xo‘jayini bo‘lishga harakat qilishimiz va shuni shakllantirishimiz lozim.

Tadqiqotimizda adaptiv intellect bilan bog’liq kasbiy qobiliyatlarni ham ahamiyatlilik darajasiga ko‘ra baholashni talabalarimizga taqdim etgan edik. Pedagogik-psixologik faoliyat jarayonida zarur bo‘ladigan adaptive intellect bilan bog’liq qobiliyatlar ahamiyatlilik darajasi bo‘lajak mutaxassislar tomonidan belgilanib, olingan natijalarda muhim ahamiyatga ega qobiliyatlar sifatida shaxslararo o‘zaro muloqot o’rnatish (1), psixikani tadqiq eta olish (2) psixologik yordam berish qobiliyat(individual va guruhli psixologik maslaha) (3) belgilanib, bu talabalarning kasbiy yo’nalishi doirasida amalga oshirishi kerak bo‘lgan ish faoliyatiga yordam beradigan qobiliyatlarni anglab etayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga kasbiy rivojlanish dinamikasi bevosita ta’sir etuvch qobiliyatlar professional korreksion va diagnostik (7), olingan natijalarni maxfiyligini ta'minlash (8), tadqiqot va tahliliy (ishlash ma'lumot, qiyinchiliklarni) qobiliyatlar etarli darajada muhimliligini anglash mavjud emasligi talabalarni kasbi bilan bog’liq fanlar, maxsus kurslarni hali otmagani va ular haqida etarli ma’lumotga ega emasligidan dalolat beradi.

Talabaning ijtimoiy faolligi shaxsning ikki timoni bilan bog’liq. Birinchi tomondan shaxsning ichki resurslari, extiyojlari, ustanovkalari va ikkinchi tomondan tashqi omillar. Talabaning faolligi bu ikki tomonning uyg’unligi. Ijtimoiy faollik hayotimizning har jabhasida namoyon bo‘ladi. Talabaning ijtimoiy faoologi o‘quv- amaliy faoliyatda ifodalanadi. Rus tadqiqotchisi O.P. Eliseeva shaxsning ijtimoiy faolligini bir necha tiplarga bo‘lgan.

1. Moslashuvchan tip. Bu tipdagi shaxs faolligi ichiga yo‘naltirilgan. Tichliksevar, tashqi omillat ta’sirida faolligi oshadi. Tashqi ta’sirlarga berijuvchan, topshiriqlarni raxbar boshchiligida bajarishga moyil. O’ta muloqotchan emas.
2. Raqobatshi tip. Tashqi olamga yo‘nalgan. Obro‘, mansab, e’tibor, xukmronlik kabi sifatlar bu tipga xos. Muloqotchan, tashabbuskor. Maqsad sari intiluvchan va raqobatni sevuchidir.
3. O‘z- o‘zini aktuallashtiruvchi tip. Yuqori tta’limiy motivatsiyaga ega, o‘z ustida ishlashdan to‘xtamaydigan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga intiluvchan tip.
4. Bunyodkor tip. Yangilik yaratishga, g’oyalarni hayotga tadbiq etishga, kasbiy faoliyatda ijodiy yondashishga intilgan tipdir.

Xulosa. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘quv faoliyatda yuqorida qayd etilgan tiplar sof holatda uchramaydi. Ular yug’un faziyat bilan bog’liq holda turlicha namoyon bo‘ladi. Yuqorida qayd etilgan xarakteristikalardan kelib chiqqan holda, talaba ijtimoiy faolligini belgilovchi sifatlarga: kirishimlilik, ijtimoiy faolligini, faoliyatni anglaganlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijtimoiy muloqotshanlik, o’z ijtimoiy faoliyatidan qoniqqanlik kabilarni kiritish mumkin.

Demak, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talaba doim faol shaxs va u har qanday faoliyatda inson u yoki bu darajada o‘z harakatlarining maqsadini aniqlaydi, uning yakuniy natijasini xayol qiladi, vaziyatlarni baholaydi, ularning ketma-ketligini ta’minlash haqida fikr yuritadi, diqqatini yo‘naltiradi, irodasiga zo‘r beradi, boshqalar faoliyatini kuzatadi.

Adabiyotlar

1. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi. Psixol. fan. dokt. ...dissertatsiyasi. Farg‘ona. 1994.-310 b.67;68.
2. Karimova V.M. Psixologiya.- T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
3. Мухамедова Д.Г. Совершенствование социально психологических технологий развития подготовки менеджера образования к инновационной деятельности. Диссерт.доктора психол.наук.-Т: 2015 год.
4. Митина Л. М. Психология профессионального развития учителя.-М.: Флинта. МПСИ-1998.

KASBIY NIYAT BO‘LAJAK MUTAXASSIS KASBIY KAMOLOTINING ASOSI SIFATIDA

N.I.Xalilova
Renessans ta’lim universiteti
“Pedagogik ta’lim va psixologiya” kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. *Maqolada kasbiy niyatni bo‘lajak mutaxassis shaxsida shakllantirishning psixologik mexanizmlarini ochib berishga qaratilgan. Dastavval niyat va kasbiy niyat tushunchalarining psixologik mazmunlari, xarakterli jihatlari yoritib berildi. Shuningdek, xorij olimlari tadqiqotlarida kasbiy niyat masalasi borasidagi nazariy yondashuvlar ma’lumotlarning mohiyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *niyat, kasbiy niyat, kasbiy shakllanish, kasbga yo‘naltirish, kasbiy faoliyat, kasbni tanlash, shaxsning kasbiy ijtimoiylashuv, kasbiy o‘zini o‘zi anglash, kasbiy tayyorgarlik.*

Аннотация. *Статья направлена на раскрытие психологических механизмов формирования профессионального намерения в личности будущего специалиста. Вначале были освещены психологическое содержание, характерные аспекты понятий намерения и профессионального намерения. Также в исследованиях зарубежных ученых проанализирована сущность теоретических подходов к вопросу профессионального намерения.*

Ключевые слова: *намерение, профессиональное намерение, профессиональное становление, профессиональная ориентация, профессиональная деятельность, выбор профессии, профессиональная социализация личности, профессиональное самосознание, профессиональная подготовка.*

Abstract. *The article is aimed at revealing the psychological mechanisms of forming professional intention in the personality of a future specialist. First, the psychological content and characteristic aspects of the concepts of intention and professional intention were highlighted. Additionally, the essence of theoretical approaches to the issue of professional intent in the research of foreign scholars is analyzed.*

Keywords: *intention, professional intention, professional formation, vocational guidance, professional activity, choice of profession, professional socialization of the individual, professional self-awareness, professional training.*

Ma’lumki, kasbiy ta’lim davrida o‘zining kelajakdagi faoliyatini loyihalashtirishning faol jarayoni sodir bo‘ladi. Jumladan, talabalar kvazifaoliyatda

o‘zlarini sinab ko‘radilar va namoyon etadilar, nafaqat rivojlanish salohiyatini, faolligini, o‘zini o‘zgartirish va o‘z faoliyatini o‘zgartirishga tayyorligini namoyish etadilar, balki o‘zlari o‘zlashtirayotgan kelajakdagi kasbiy faoliyat mazmuniga nisbatan o‘z pozisiyasini ham shakllantiradilar. Aynan talabalik yoshida jamiyat va madaniyat tomonidan tarqatiladigan tasavvurlarni anglash sodir bo‘ladi. Ijtimoiy tasavvurlar ijtimoiy hayotning turli unsurlari - hodisalar va voqealarning mazmuniy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish va tavsiflash imkonini beradi. Ta’lim dasturining mazmuni shunday tuzilganki, birinchi va ikkinchi kurslarda mutaxassislik fanlari yetarli darajada taqdim etilmagan: aksariyat qismi universal va umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan fanlar bilan ifodalangan. Shu bilan birga, talabalar ta’lim yo‘nalishini tanlashda (oliy ta’lim muassasasiga kirish paytida) qiziqish va kasbiy niyatlarini namoyon etib, darhol kasbiy tayyorgarlikka jalb etilishini kutishadi.

“Niyat” tushunchasi birinchi marta psixologik adabiyotlarda XX asrda murakkab inson xulq-atvorining xususiyatlaridan biri sifatida paydo bo‘ladi. Uning muallifi K.Levin bu aktni o‘ziga xos irodaviy akt deb ta’riflaydi. Bunda ataylab qilingan irodaviy harakat mazkur akt vositasida yuzaga kelgan vaziyatlarga javoban shartli-reflektor harakat bilan almashtiriladi. Natijada, inson tashqi stimullar ta’siriga tayanishi mumkin. Ya’ni niyat ehtiyojni amalga oshirish uchun narsalarning bevosita talabi bilan belgilanadigan harakatni yaratishga asoslanadi. Misol tariqasida esa u “xatni pochta qutisiga tashlash” harakati orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan “xatni adresatga jo‘natish” ehtiyojini keltiradi. Dyemak, buning uchun insonning o‘zi “xat - pochta qutisi” shartli-reflektor aloqasini yaratadi.

E.F. Zyeyer niyatni “insonning xulq-atvori va faoliyatini rag‘batlantirish va rejalashtirish vazifasini bajaruvchi” ongli qaror sifatida ta’riflaydi. U inson xulq-atvorini tashkil etadi, unga o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida ixtiyoriy harakat qilish imkonini beradi [6].

Niyat – bu inson psixik sohasining rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan va bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan intellektual hamda affektiv komponentni o‘z ichiga olgan funksional yangilanishdir. Niyatning shakllanishi har doim uzoq, kelajakda erishish mumkin bo‘lgan maqsad mavjud bo‘lganda sodir bo‘ladi.

Hayotimizda niyatlar juda muhim undovchi rol o‘ynaydi: aynan ular insonda harakat qilish, xatti-harakatlar sodir etish istagini uyg‘otadi. Shu jumladan kasbiy sohada ham; ammo ularning ta’siri har doim bilvosita bo‘ladi. Unda vaqt bo‘yicha cho‘zilgan bo‘lib, o‘z-o‘zidan bunday rag‘batlantiruvchi kuchga ega bo‘lmagan oraliq maqsadlarga erishish orqali belgilangan maqsad sari harakatni ifodalaydi [6].

Kasbga yo‘naltirishning rivojlanishi ko‘plab xorij psixologlar tomonidan kasbiy niyatlar mavzusini o‘rganishga qiziqish paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Shu bilan birga, turli mualliflar kasbiy niyatlar tushunchasini turli tuzilmalarga kiritganlar: V.F. Saxarov, S.N. Chistyakova va boshqalar kasbiy yo‘nalganlik tuzilmasiga; T.V. Kudryavsev, A.D. Sazonov - shaxsning kasbiy shakllanishiga; I.S.Kon, A.V.Mudrik - shaxsning kasbiy ijtimoiylashuviga; S.N.Ikonnikova, V.T.Lisovskiy – kasbiy o‘zini o‘zi aniqlashi kabi masalalariga e’tibor qaratadi.

Jumladan, T.V. Kudryavsyev shaxsning kasbiy shakllanishi jarayonidagi birinchi bosqich sifatida kasbiy niyatlarning paydo bo‘lishi va shakllanishini ajratib ko‘rsatgan.

Turli mualliflar A.D.Sazonov, V.D.Simonenko va boshqalar kasbiy niyatlar tushunchasini ko‘rib chiqar ekanmiz, yetakchi tarkibiy qismni aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan uning tavsifida fikrlar birligining yo‘qligiga duch kelamiz. L.I. Bojovich, K.K. Platonov, S.L. Rubinshteyn, L.S. Slavina, B.M. Teplov kasbiy niyatlarni irodaviy faollikning ikki asosiy harakat bosqichiga ega bo‘lgan turi sifatida ta’riflaydilar: tayyorgarlik (maqsadni qo‘yish, qaror qabul qilishdan iborat) va yakunlovchi (muayyan kasbni tanlash to‘g‘risidagi qarorni bajarish).

P.P.Blonskiy, O.A.Zimovina, N.D.Levitov, V.N.Myasishevlarning ishlarida kasbiy niyatlar shaxsning barqaror intilish, bilish faolligi yoki shakllangan hayotiy reja orqali kasbiy tanlovni amalga oshirishga yo‘naltirilganligining (motivlar tizimi orqali) tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi.

G.V. Rezapkina “kasbiy niyatlar” tushunchasini “kasbning maqsadi haqidagi bilimlarni, kasbni tanlash va tegishli ta’lim olishga intilishni o‘z ichiga olgan kasbiy faoliyatning ma’lum bir turiga ongli munosabat” deb ta’riflaydi [9].

Talaba-psixologlarning kasbiy vazifalarni hal qilishga kasbiy tayyorgarligini tadqiq etishning dolzarbligi ta’limning birinchi bosqichidan boshlab kasbiy niyatlarni rivojlantirish va kasbga sho‘ng‘ish zarurati, shuningdek, ta’lim davrida kasbiy rivojlanishni boshqarish jarayonining yetarli darajada tashkil etilmaganligi bilan belgilanadi.

Ko‘rib chiqilayotgan kontekstga qarab kasbiy faoliyatga tayyorgarlikda quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: a) turli xil xususiyatlar: tayyorgarlik [7], shaxsning faolligi [2], alohida hissiy holati [3], shaxs xususiyatlari majmui [16], bo‘lajak faoliyatga moyillik [14], motivatsiya [11], kasbiy mahorat darajasi [12]; b) komponentlar [11]. Ijtimoiy tasavvurlarning tuzilishi nuqtai nazaridan tayyorgarlik “ishonch, qat’iylik, sobitqadamlik, shubhalarning yo‘qligi bilan tavsiflanadigan, xotirjamlik hissi, qaror qabul qilish yoki harakatni amalga oshirish istagi va intilishi bilan birga keladigan holat, shuningdek, shaxsning yig‘ilganligi, e’tiborining yo‘naltirilganligi, faolligi, ma’lum bir tayyorgarlik darajasini, maqsadni belgilash va unga erishish qobiliyatini nazarda tutuvchi holat” sifatida qaraladi [4].

Ushbu maqolada psixolog-talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi asosiy mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq kasbiy faoliyat vazifalarini hal etish uchun bilim, ko‘nikma va tajribalar majmui sifatida ko‘rib chiqiladi: ta’lim dasturlarini amalga oshirishni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muhitining qulayligi va xavfsizligini psixologik ekspertiza qilish, ta’lim sub’yektlariga psixologik maslahat berish va ma’rifat berish, bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar olib borish, bolalarni psixologik diagnostika qilish, psixoprofilaktika. Shu bilan birga, talabalarning ushbu funksiyalarni bajarishga bo‘lgan kasbiy niyatlari biz uchun muhimdir. Kasbiy niyat deganda, psixologning kasb vazifasi haqidagi tasavvurlarda aks etadigan kasbiy faoliyatiga ongli munosabatini tushunamiz.

Oliy ta’lim muassasasida o‘qish davri ta’lim sohasidagi psixologning kasbiga va kasbiy faoliyati mazmuniga bo‘lgan munosabatda namoyon bo‘ladigan kasbiy

niyatning shakllanishiga yordam beradi. Talabalarning kasbiy niyatlari, birinchidan, nazariy ta’lim, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini o‘tash jarayonida olingan bilim, ko‘nikma va tajribalardan, ikkinchidan, psixologning mehnat faoliyati mazmuni va funksiyalari haqidagi tasavvurlari va unga bo‘lgan munosabatidan, uchinchidan, ushbu faoliyatga qo‘shilish uchun o‘zining tayyorligidan kelib chiqib shakllanadi. Kasbiy ta’lim jarayonida o‘qituvchi-psixologning mehnat vazifalarini bajarish ko‘nikmalarini ishlab chiqish va tajribaga ega bo‘lish jarayonida talabalarda o‘z kasbiy rivojlanish maqsadlari va niyatlariga tuzatish kiritiladi.

Talabalarning kasbiy niyatlari ta’lim bosqichiga qarab o‘zgarib boradi. Birinchi kurs talabalarining tasavvurlari yuqori ambitsiyalar va oshirib yuborilgan talablar bilan bog‘liq ekanligi qayd etilgan [15]; tasavvurlarning asosiy birliklari talabalar o‘zlarini ko‘radigan faoliyat sohalari hisoblanadi [15]. V.A.Fokin talaba-psixologlarning psixolog faoliyati haqidagi tasavvurlari tizimining norealligini asoslaydi va buni aniq sohalarni bilmaslik hamda uni ideallashtirish bilan bog‘laydi [13]. Ta’lim jarayonida tasavvurlarning o‘zgarishi ijobiy - muvaffaqiyatli (faoliyat haqidagi bilimlarning kengayishi) yoki salbiy - muvaffaqiyatsiz (kasbiy faoliyatga tayyor emaslik) bo‘lishi mumkin. Tasavvurlar tizimi asosiy ta’lim dasturini o‘zlashtirish jarayoni, xususan, talabalarning kasbiy rivojlanishini boshqarish xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [10]. Kasbiy niyatlar kasbiy yutuqlarni amalga oshirish va faoliyat natijalarini e’tirof etish uchun shart-sharoitlar yaratilganda amalga oshirilishi asoslangan [8].

Talabalar tasavvurlarining tuzilishini aniqlashda biz kasbiy niyatlar motivatsiya, kasbda o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik bilan bog‘liq ekanligidan kelib chiqdik [1]. Kasbiy niyatlarning muhim omillari orasida - kasb tanlashning to‘g‘riligiga ishonch, hayotdan qoniqish, shaxs xususiyatlari, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi [5] - o‘quv-kasbiy faoliyatni tashkil etish omili yetarlicha o‘rganilmagan. Bizning fikrimizcha, kasbiy niyatlar dinamik bo‘lib, ta’lim jarayonida ular faoliyatning turli shakllariga jalb etilishi, kasbiy hamjamiyat vakillari bilan o‘zaro ta’sir natijasida o‘zgaradi. Bu esa faoliyat mazmuni haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lishga yordam beradi va tasavvurlar tuzilishini belgilaydi. Ushbu tadqiqotning maqsadi pedagog-psixolog haqidagi tasavvurlar tarkibida psixolog-talabalarning kasbiy niyatlarini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Tasavvurlarning shakllanishiga talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatini tashkil etish xususiyatlari, darsdan tashqari o‘zaro aloqalari va amaliy tayyorgarligi ta’sir ko‘rsatadi. Ular birinchi kursdan boshlab kasbiy faoliyat vazifalarini hal qilishda dastlab ta’lim tashkiloti psixologi bilan “yonma-yon”, so‘ngra “birgalikda”, to‘rtinchi kursda esa mustaqil ravishda ishtirok etadilar. Shu bilan birga, tasavvurlar tuzilmasidagi kasbiy niyatlar jamiyatning psixologlarga bo‘lgan munosabati, ular tomonidan ko‘rsatiladigan yordam va kasbiy psixologik hamjamiyatga qo‘shilish, shuningdek, o‘quv-kasbiy faoliyat jarayonida o‘z resurslari va mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni tushunish bilan bog‘liq. Tasavvurlarning shaxsiy resurslar (shu jumladan, psixologik va hissiy) xususiyatlari va kasbiy kompetensiyalar ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligini o‘rganish istiqbolli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Александрова Г. Г., Пучкова И. М. Профессиональные намерения студентов как фактор развития психологической готовности к деятельности. Текст: электронный // Казанская наука. 2014. № 11. С. 248–250.
2. Ахмадеева Е. В. Психологическая готовность к самопредъявлению студентов в диалогическом взаимодействии // Вестник Башкирского университета. 2021. № 4. С. 1187–1191.
3. Бубнова И. С. Психологическая готовность педагогов к организации исследовательской деятельности обучающихся. Текст: электронный // Личность и вызовы современности: интерпретация проблем различными научными школами: материалы междунар. науч. конф. Майкоп; Краснодар, 2020. С. 326–329.
4. Гоголь С. С. Особенности социальных представлений студенческой молодежи о готовности, компетентности и самоэффективности. Текст: электронный // Известия Саратовского университета. Серия «Философия. Психология. Педагогика». 2022. Т. 22, вып. 3. С. 309–315.
5. Григорьева М. В., Шамионов А. Д. Психологические факторы и структура профессиональных намерений педагогов-психологов на этапе обучения в вузе. Текст: электронный // Вектор науки Тольяттинского государственного университета. Серия «Педагогика, психология». 2011. № 1. С. 48–52.
6. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Садовникова Н.О. Профориентология: Теория и практика:учеб.пособ.для высшей школы. - М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга. 2004 - 192 с.
7. Киселева Д. Е., Кацеро А. А. Формирование психологической готовности старшеклассников к самостоятельной жизни // Colloquium Journal. 2020. № 10. С. 140–142.
8. Кудина М. В. Особенности профессиональных намерений в структуре карьерного роста специалиста образования // Омский научный вестник. 2007. № 5. С. 197–200.
9. Резапкина Г.В. Как помочь детям найти свое место в жизни. Стратегии воспитательной работы в школе: научно-методические материалы. – М.: Федеральный институт развития образования, 2013 – 64 с.
10. Резниченко М. А. Риски профессионализации студентов бакалавриата. Текст: электронный // Научный результат. Педагогика и психология образования. 2016. Т. 2, № 2. С. 34–39.
11. Санжаева Р. Д. Готовность и ее психологические механизмы. Текст: электронный // Вестник Бурятского государственного университета. Образование, личность, общество. 2016. № 2. С. 6–16.
12. Скорова Л. В., Качимская А. Ю. Готовность педагогов к обеспечению психологической безопасности в условиях дистанционного обучения // Ученые записки Забайкальского государственного университета. 2020. Т. 15, № 4. С. 145–152.

YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBGA YO'NALTIRISHDA UQUVCHANLILKNING YANGI BILIMLARNI O'ZLASHTIRISHIGA TA'SIRI

Nizomii nomidagi O'zMPU
Psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi
L. S. Tursunov

Anotatsiya: *Uquvchanlilkni bola kognitiv rivojlanishiga ta'siri hamda bilimlarning o'zlashtirishdagi roliga qaratilgan ushbu maqolada kichilk maktab yoshidagi bolalar ruhiyontogeneziga alohida urg'u berilgan.*

Kalit so'zlar: *uquvchanlilk, uquvsizlilk, tafakkur, idrok, xayol, xotira, filkr, ontogenez, faoliyat, ongsizlilk, onglililk, bilim, taqlid, qiziqish, qobiliyat.*

Аннотация: *В данной статье, посвященной влиянию разума на когнитивное развитие ребенка, а также роли знаний в приобретении знаний, особое внимание уделяется психическому онтогенезу детей младшего школьного возраста.*

Ключевые слова: *разум, не разумность, созерцание, восприятие, фантазия, память, мышление, онтогенез, активность, бессознательность, осознанность, знание, подражание, интерес, способность.*

Abstract: *In this article, devoted to the influence of reason on the cognitive development of a child, as well as the role of knowledge in the acquisition of knowledge, special attention is paid to the mental ontogenesis of primary school children.*

Keywords: *mind, non-intelligence, contemplation, perception, fantasy, memory, thinking, ontogenesis, activity, unconsciousness, awareness, knowledge, imitation, interest, ability.*

SHaxsni ilmiy asosda tahlil etuvchi fanlarning tadqiqot natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kurrai zaminimizda yashayotgan milliardlab Odam Ato zurriyotlari ichida ilkkita bir xilini uchratish mumkin emas ekan. Ana shu nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, biz quyida filkr yuritmoqchi bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan uquvchanlilk alohida diqqatga sazovordir. Uquvchanlilkni qadimdan xalqimiz tomonidan ulug'lanib kelingan shaxsning xususiyati bo'lib, uni "Uqigan o'qdan oshar, uqimagan turtkidan oshar", "O'qigan – o'qigan emas, uqigan – o'qigan", "O'qib bilmaganni uqib bilsa bo'ladi" kabi maqollarida aks ettirgan.

Bolaning biror bir faoliyat turiga nisbatan moiylligi asosida faoliyatni tez o'zlashtirib olishi va ana shu faoliyatini muvaffaqiyatli yakunlashi uquvchanlilkni namoyon qilishi hisoblanadi. Uquvchanlilk har bir shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida ta'riflanadi.

Umuman olganda, bolaning uquvchanligi namoyon bo'lishi uchun barcha kognitiv jarayonlar o'z faolligini namoyon etishi bilan bir qatorda bolani o'ziga xos bo'lgan psixik xususiyatlari ham o'z ta'sir kuchiga ega.

Professor E.G'.G'oziev uquvchanlilkni tavsiflab quyidagi aniq filkrni ilgari surganlar.

"Psixologiya fanida o'quvchi tafakkurining faollashuvi bilan bog'liq bo'lgan "uquvchanlilk" darajasi hamma o'quvchilarda bir xilda rivojlanmagan bo'lishligi ko'rsatilgan. Uquvchanlilk kishining intellektual xususiyatlari yig'indisidan iborat bo'lib, unga barcha teng sharoitlarda materialning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishida muayyan rol o'ynaydigan filkrlash faoliyati xususiyatlarining faollashuvi demakdir. Mana shunga binoan uquvchanlilk darajasi yuqori hisoblangan o'quvchilar zaruriy bilimlarni mustaqil ravishda tez va chuqur egallab olish imkoniyatiga egadirlar. Albatta, bunday o'quvchilarning o'qishga munosabatlari har xil bo'lishi mumkin. Agar o'qishga ijobiy munosabatda bo'lsalar, bu holat ularning diqqatida, qiziqish xususiyatlarida, his-tuig'usida va o'zlashtirish jarayondagi irodaviy zo'r berishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi" [1].

Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ong oldi va ong osti faoliyat turkumida bo'lganligi uchun ham aksari bolalarda bir faoliyat ob'ektiga nisbatan uquvchanligi yuqori darajada bo'lsa, boshqa bir faoliyat turkumiga nisbatan uquvchanligi sust darajada bo'lishi mumkin. Mazkur holat kichilk maktab yoshidagi bolalarning o'qish faoliyatda ham yaqqol kuzatiladi. Misol uchun, matematilkaga uquvchanligi yuqori bo'lgan bolani o'qishi va imlosiga bo'lgan uquvchanligi sust bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi.

Uquvchanlilk xususiyatiga ega bo'lgan o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilimlari bilan yangi berilayotgan bilimlarni tezda qiyoslab xulosa chiqaradilar va yangi bilimni qanday egallaganlilklarini namoyon eta oladilar. Bola tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirishlari uchun undan oldin berilgan bilimlarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Demak, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarga berilayotgan ma'lumotlarni qanday qabul qilayotganlilklarini nazorat qilish bilan birga o'zlashtirish qiyinbo'lgan bolalarni uquvchanligi yuqori bo'lgan bolalarga yetib olishlarga e'tibor qaratishlari lozim bo'ladi.

"Uquvchanlilk darajasi past bo'lgan o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishga xohishlari kuchli, o'qishga munosabatlari esa aksariyat hollarda samarali uslublarini egallamaganlilklaridandir. Ular ko'p jihatdan hali xotira shakldagi o'quv faoliyati usullari yordamida bilimlarni egallashga intiladilar. Mustaqil filkrlashlarga nisbatan qo'iiladigan talablarning tobora ortib borishiga qaramasdan, ular ta'lim jarayonida juda sust bo'ladilar. Ular, o'qituvchi hamisha o'quv materialini to'liq tushuntirib beradi, degan qabilida o'quv faoliyatda xotirjam qatnashadilar. Uquvchanlilk darajasi past bo'lgan o'quvchilar o'zlarining asosiy vazifalari o'quv qo'llanmalarida berilgan va o'qituvchi tomonidan tushuntiriladigan axborotlar yoki ma'lumotlarni esda olib qolish, o'tilgan mavzular bo'iicha mashqlarni takrorlashdan iborat deb tushunadilar" [1].

Mazkur tavsifdan ham ko'rinib turibdilki, uquvchanlilk bevosita va bilvosita kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liq ravishda takomillashib boradi.

Aksari g’arb psixologlari kichilk maktab yoshidagi o’quvchilar o’qish faoliyatining dastlabki bosqichida ongsizlilk holatida bo’ladilar, faqat jamoaviy harakatlar asosida o’qish faoliyatiga qatnashadilar, shu sababli ular tomonidan bilimlarni o’zlashtirishga erkin ixtiyorii harakatlarga imkon berish kerakligini ilgari suradilar. Darhaqiqat, “o’iin faoliyati” hali tugallanmagan bir vaqtda “o’qish faoliyati”ga majburlash ham ijobiy natijaga olib kelmaydi. Aksincha, mazkur holat bolani ongsizlilk holatiga tushib qolishi natijasida o’qish faoliyatidan bezish, zerilkish va qo’rquvni keltirib chiqaradi. Ushbu holda o’quvchiga o’qituvchisi tomonidan beriladigan salbiy tanbehlar boladagi tushkunlilkni yanada orttirib, o’qish faoliyatidan sovib ketishiga turtki vazifasini o’taydi.

Uquvsizlilk qanchalilk yuqori darajada bo’lishidan qat’iy nazar unga nisbatan mos keladigan uslubiy ta’sir mavjud bo’ladi. Ana shu kalitni topish va bolani imkoniyatlarini ochish orqali yashirin qobilyatini yuzaga chiqarish pedagog va ota-onaning vazifasi hisoblanadi.

Taniqli rus psixologi N.A.Menchinskaya bo’sh o’zlashtiruvchi va barqaror o’zlashtirmovchi o’quvchilar toifasi (tipi) to’g’risida quyidagi filkrni ilgari suradi. Uning filkricha, bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilar tipining vujudga kelishi ularning bo’sh o’zlashtirishlarida ustunlilk rolini bajaradi hamda kompleks shaxs xususiyatlariga bog’liq bo’lishi mumkin. O’quv faoliyati motivlari, intellektual qobiliyatlarining rivojlanmaganligi, o’quv faoliyati uchun zarur hisoblangan ko’nilkma va malakalarining yetarli darajada hosil bo’lmaganligi shunday xususiyatlar qatoriga kiradi. Bular bir-birlari bilan yaqindan aloqada bo’lishiga qaramasdan, haqiqatdan ham bularning biri bo’sh o’zlashtirishning sababchisi rolini o’inashi mumkin [2].

YAna bir rus psixologi N.I.Murachkovskiyning aniqlashicha, shaxsning ilkki xil toifali xususiyatlari o’zlashtirmovchililkning kelib chiqishiga ta’sir etadi:

a) o’quvchining filkr yuritish faoliyati xususiyatlari;

b) o’quvchi shaxsining yo’nalishida namoyon bo’ladi.

O’qishga munosabatlar “o’quvchining ichki mavqei” hisoblanadi. O’quvchi shaxsining bu ilkki tomonini ko’rsatuvchi xususiyatlar bilan bog’liq ravishda bo’sh o’zlashtiradigan bolalarning muayyan tiplari paido bo’ladi, hozircha ularning quyidagi tiplari mavjud:

1. O’qishga munosabatlari ijobiy, lekin uquvchanligi past bo’lgan o’quvchilar;
2. O’qishga munosabatlari salbiy, ammo uquvchanlilk imkoniyatlari yuqori bo’lgan o’quvchilar;
3. O’qishga munosabatlari salbiy hamda uquvchanlilk imkoniyatlari past bo’lgan o’quvchilar.

Kichilk maktab yoshidagi uquvchanlilk xususiyatlarining tahliliga e’tibor qaratgan uzoq va yaqin xorij psixologlari aksar hollarda, o’quvchini “men”ligi va kognitiv jarayonlariga e’tibor qaratmasdan ko’proq ijtimoiy muhit ta’siriga urg’u berishga harakat qiladilar. Mulohaza bilan qaraladigan bo’lsa, o’qish faoliyati kattalar faoliyatini o’zlashtirishdan iborat bo’lgan faoliyat hisoblanadi. Ana shu jihatdan aksariyat xorij psixologlari kichilk maktab yoshidagi bolaning dastlabki o’qish faoliyatiga nisbatan ongsiz faoliyat sifatida qarab keladilar.

Kognitiv psixologiyada uquvchanlilk xususiyati ko’proq diqqatning ixtiyorii yo’nalganligi bilan bog’liq holda boshqa bilish jarayonlarining faolligi ta’sirida yuzaga kelishi tahlil etiladi. Boshlang’ich ta’lim tizimdagi bolalarda diqqatni yo’naltirish va bir ob’ekt ustida to’plab turish murakkab bo’lganligi uchun ham uquvchanlilk yaqqol ko’zga tashlanmaidi. SHu sababli ham boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari ko’proq bola diqqatining yo’nalganligiga e’tibor qaratishlari kerak bo’ladi. Diqqatning yo’nalganligi asosida o’quvchi yangi bilimlarni idrok etib, tafakkurida umumlashtirib, xotirasiga muhrlab boradi. YAngi o’zlashtirgan bilimlarini avvalgi bilimlari bilan xayolan qiyoslashi asnosida o’z filkrini ilgari sura oladi.

Uquvchanlilk xususiyatini shakllantirish va rivojlantirish mumkin faqat buning uchun o’qituvchi hamda ota-onalarning aniq reja asosidagi hamkorlilkda faoliyatlari kerak bo’ladi.

“O’qituvchi bo’sh o’zlashtiruvchi boshlang’ich sinf o’quvchilariga nisbatan individual yondashganda quyidagi talablarga amal qilishi shart:

1) bo’sh o’zlashtiruvchi o’quvchilarning o’ziga xos psixologilk xususiyatlari va aqlii imkoniyat darajasini bilish;

2) ularga interfaol ta’sir ko’rsatish usullari va metodlarini to’g’ri tanlash va ularni tatbiq etishda individual xususiyatlarini hisobga olish;

3) o’quvchi bilan o’qituvchi muomalasi oqibatini oldindan sezish” [1].

Ota-ona sust o’zlashtiruvchi, ya’ni uquvchanlilk darajasi past bo’lgan farzandlari bilan o’qituvchi tomonidan farzandlariga berilgan vazifani bajarishda maslahatchi sifatida yondashishlari lozim bo’ladi. Imkon darajasida ijobiy yo’l-io’riqlar orqali farzandlarining yangi bilimlarni egallashlariga yordam berishlari kerak.

Uquvchanlilk va uquvsizlilk har bir o’quvchida bo’lishi tabiiy hol hisoblanadi, uni to’g’ri talqin eta bilishga esa hamma pedagog hamda ota- onalarning bilimlari yetmasligi sir emas. Ainiqsa, bola ontogenezidagi tanglilk (krizis) holatlarida bolada uquvsizlilk yanada ortib ketish mumkin.

YUqoridagi filkrlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlashimiz mumkinki, bolada uquvchanlilk va uquvsizlilkni yuzaga keltiruvchi omillar nihoyatda ko’p bo’lishidan qat’iy nazar uni aniqlab o’quvchini bilimlarni egallashiga ko’maklashish uni qurshab turgan jamoaga katta mas’uliyat yuklaidi.

Foidalanilgan adabiyotlar

1. G’oziev E. G’. Ontogenez psixologiyasi. – T. “Noshir”, 2010.

2. Менчинская Н.А. Психологическая проблемы активности личности в обучении**.** **–** М.: “Наука”, 1998.

3**.** Мурачковский Н.И. Типы неиспеваемости школьников. – М.: “Редагогика”, 1999. – №7.

БОЛОЧОК КЕСИПТИК ОКУТУУ ПЕДАГОГДОРУНУН ДИДАКТИКАЛЫК КОМПЕТЕНТТҮҮЛҮГҮН КАЛЫПТАНДЫРУУНУН ПЕДАГОГИКАЛЫК ШАРТТАРЫ.

Касымбеков Эркин Аскарбекович
п.и.к., доцент
Ош мамлекеттик педагогикалык университети
Касымбекова Айгүль Аскарбековна
Окутуучу.КӨЭАУ
Исмаилова Суусаркан Жумабековна
Мугалим.№17 Ю.А.Гагарин

Аннотация: *Бул макалада болочок кесиптик окутуу педагогдорунун дидактикалык компетенттүүлүгүн калыптандыруунун педагогикалык шарттары илимий-теориялык жана практикалык аспектиде каралат. Азыркы билим берүү системасында компетенттүүлүккө негизделген мамиле алдыңкы орунга чыгып, кесиптик окутуу педагогдорун даярдоодо алардын дидактикалык даярдыгын сапаттуу деңгээлде камсыз кылуу актуалдуу маселе болуп саналат. Изилдөөнүн максаты – болочок кесиптик окутуу педагогдорунун дидактикалык компетенттүүлүгүн калыптандыруунун натыйжалуулугун жогорулатуучу педагогикалык шарттарды аныктоо жана негиздөө.*

Ачкыч сөздөр*: Кесиптик окутуу педагогдору, дидактикалык компетенттүүлүк, инновациялык окутуу, чыгармачыл ишмердүүлүк.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются педагогические условия формирования дидактической компетентности будущих педагогов профессионального обучения в научно-теоретическом и практическом аспектах. В современной системе образования компетентностный подход занимает ведущее место, и обеспечение качественного уровня дидактической подготовки будущих педагогов профессионального обучения является актуальной проблемой. Цель исследования – определить и обосновать педагогические условия, способствующие повышению эффективности формирования дидактической компетентности будущих педагогов профессионального обучения.*

Ключевые слова: *Педагоги профессионального обучения, дидактическая компетентность, инновационное обучение, творческая деятельность.*

Abstract*: This article examines the pedagogical conditions for the formation of didactic competence of future vocational education teachers from scientific-theoretical and practical perspectives. In the modern education system, the competency-based approach occupies a leading position, and ensuring a high-quality level of didactic training for future vocational education teachers is a relevant issue. The purpose of the study is to identify and substantiate pedagogical conditions that contribute to increasing the effectiveness of forming the didactic competence of future vocational education teachers.*

Keywords*:. Vocational education teachers, didactic competence, innovative teaching, creative activity.*

Дидактика – бул окутуунун жана билим берүүнүн теориясын изилдеген педагогиканын бөлүмү. Ал «эмнени окутуу керек?», «кантип окутуу керек?», «эмне үчүн окутуу керек?» деген суроолорго жооп берет.

Дидактика бул же тигил окуу предметтеринин мазмундук өзгөчөлүктөрүнө көңүлбурбастан, окутуу жана билим берүү маселелерин жалпы дидиактикалык шартта гана иштеп чыгат. Ал эми айрым предметтерди

окутуунун жана үйрөтүүнүн ал предметке тиешелүү өзгөчөлүктөрүнүн назарияттык негизин жекече методикалар (жекече дидактикалар) изилдешет.

Дидактика жана жекече методикалар бири-бири менен өтө тыгыз байланышта. Бир жагынан жекече методикалар жалпы дидактикалык негизге таянып, түрдүү предметтерди окутуу маселелеринин назарияттык жана методологиялык биримдигин камсыз кылса, экинчи жагынан өз назарияттарын тыянактоодо жекече методикалардын натыйжаларына таянуу аркылуу дидактика изилдөөлөрүнүн так жана жандуу болушун камсыз кыла алат.

Жаш муундарды окутуу, билим берүү, тарбиялоо маселелери ар түрдүү өлкөлөрдө ар бир тарыхый кырдаалын жана мезгилдин шарттарында кантип иштелип чыккандыгын изилдөөдө дидактика тарыхый илимге таянат. Бул дидактиканын тарых илими менен тыгыз байланышта экендигинин белгиси. Ошондой эле дидактика жалпы психология, жаш курак жана педагогикалык психология илими менен да тыгыз байланышкан. Бул байланыш дидактиканы инсандын психикалык касиеттеринин калыптануу мыйзам ченемдүүлүктөрү жана анын таанып билүү жараяндары, сезимдик, эрктик ишмердүүлүктөрүнүн мыйзам ченемдүүлүктөрү жөнүндөгү илим менен куралдандырат. Жогорку нерв иш – аракеттери, шарттуу рефлекстер, убактылуу нерв байланыштары, биринчи жана экинчи сигналдык системанын бири – бири менен байланыш аракеттери жана биримдиги, байланыш рефлексиясы жөнүндөгү материалисттик назарият окутуу жараянынын табигый илимий негизи болуп эсептелет. Дидактика илими элдик педагогика менен да элдик маданияты, адабияты менен да, элдик салт – санаа, үрп – адат менен да элдик оюндар, элдик фольколорлор менен да өтө тыгыз байланышта.

Өз проблемаларын изилдөөдө дидактика адамзаттын тиричилик турмушту кечирүүдөгү бай тажрыйбасына таянат.

Дидактикалык окутуу – бул билим берүү процессиндеги теориялык жана практикалык билимди системалаштыруу, педагогдун кесиптик көндүмдөрүн калыптандыруу жана окутуунун сапатын жогорулатууга багытталган методикалык система. Анын негизги максаты – окутуучунун компетенциясын өнүктүрүү жана кесиптик билимдин эффективдүүлүгүн камсыздоо.

Дидактикалык окутуунун мазмуну билим, көндүм жана тажрыйба компоненттерин камтыйт. Ал педагогдун теориялык билимин практикалык көндүмдөр менен айкалыштырат, окуучунун өз алдынча таанып-билүүсүнө шарт түзөт жана кесиптик процессинде жоопкерчиликти арттырат. Мазмунунда билим берүү багыттары, окутуу методдору, технологиялар жана баалоо ыкмалары интеграцияланат [2, 10-12]

Болочок кесиптик окутуу педагогдорунун дидактикалык компетенттүүлүгүн калыптандыруу — кесиптик билим берүү системасында негизги маселелердин бири болуп эсептелет. Бул компетенттүүлүк педагогдун окутуу процессин уюштуруудагы методикалык, технологиялык жана психологиялык тажрыйбасын, ошондой эле студенттердин билим деңгээлин жогорулатууга багытталган иш-аракеттерди бириктирген кесиптик жөндөмдүүлүк катары бааланат. Дидактикалык компетенттүүлүк педагогдун

сабакты натыйжалуу өткөрүүсүн, окуу материалдарын туура пландап, ар бир студентке ылайыкташтырып иштөөнү камсыздайт. Педагогдун профессионалдык дараметин өнүктүрүүдө педагогикалык шарттарды түзүү маанилүү роль ойнойт. Педагогикалык шарттар комплекси ар түрдүү компоненттерди камтыйт. Алардын негизги бөлүгү методикалык шарттар болуп саналат. Методикалык шарттар педагогдун сабакты пландаштырууда жана методикалык материалдарды түзүүдө колдонгон ыкмаларын жана стратегияларын өзүнө камтыйт. Бул шарттарда педагог сабактын максаттарын так аныктап, ар бир сабактын структурасын логикалык жана дидактикалык принциптерге ылайык түзүшү керек. Ошондой эле методикалык шарттар студенттердин окуу процесстеги жетишкендиктерин баалоо жана анализдөө ыкмаларын камтыйт. Педагог методикалык шарттардын жардамы менен сабактын натыйжалуулугун жогорулатып, студенттердин чыгармачылык жана интеллектуалдык жөндөмдөрүн активдүү түрдө өнүктүрө алат. Технологиялык шарттар педагогдун дидактикалык компетенттүүлүгүнүн өнүгүүсүнө өзгөчө таасир тийгизет. Бул шарттар заманбап маалыматтык-коммуникациялык технологияларды колдонуу менен байланыштуу. Компьютердик программалар, мультимедиялык каражаттар, виртуалдык лабораториялар, онлайн платформалар жана электрондук баалоо системалары педагогдун сабакты интерактивдүү өткөрүүсүнө жана студенттерди активдүү катыштырууга мүмкүндүк берет. Мисалы, практикалык сабактарды виртуалдык чөйрөдө өткөрүү студенттерге чыныгы кесиптик кырдаалды талдоого жана чечим кабыл алууга мүмкүнчүлүк түзөт. Бул процесс педагогдун өзүнүн дидактикалык компетенттүүлүгүн практикалык жол менен бекемдөөгө шарт түзөт. Психологиялык-педагогикалык шарттар студенттердин жана педагогдун эмоционалдык абалына жана окуу мотивациясына байланыштуу болуп, дидактикалык компетенттүүлүктүн өнүгүшүндө маанилүү роль ойнойт. Ыңгайлуу окуу чөйрөсү студенттерге өз алдынча иштөөгө, суроолорду эркин берүү жана пикир алмашууга мүмкүнчүлүк берет. Педагог өзүнүн сабактарын өткөрүүдө студенттердин психологиялык абалын эске алып, чыгармачылыгын колдоп, мотиватор катары иштей алса, анын дидактикалык компетенттүүлүгү жогорулайт. Ошондой эле педагогдун өзүнүн кесиптик мотивациясы, инновациялык идеяларды колдонууга даярдыгы жана методикалык жаңылыктарга кызыгуусу ошол шарттын маанилүү бөлүгү болуп саналат. Социалдык шарттар да педагогдун компетенттүүлүгүнө чоң таасир тийгизет. Бул шарттар педагогдун кесиптик чөйрөсүндө тажрыйба алмашууга, ментордук жана коучинг программаларга катышууга, кесиптик коомчулуктарга интеграцияланууга мүмкүнчүлүк берет. Жаш педагогдор тажрыйбалуу кесиптештер менен бирге иштеп, алардын тажрыйбасынан пайдаланып, өзүнүн дидактикалык көндүмдөрүн өнүктүрө алат. Мындан тышкары, кесиптик билим берүү стандарттары, окуу программалары жана институттук саясат педагогдордун компетенттүүлүк деңгээлин аныктоочу маанилүү факторлор болуп саналат.Дидактикалык компетенттүүлүктү өнүктүрүү процессинде педагог практикалык, интерактивдүү жана рефлексивдик методдорду колдонушу

зарыл. Практикалык методдор студенттерди чыныгы кесиптик кырдаалдарга окшоштуруп, көндүмдөрүн бекемдөөгө багытталат. Интерактивдүү методдор ой жүгүртүүнү өнүктүрөт жана студенттерди өз алдынча иштөөгө түрткү берет. Рефлексивдик методдор педагогдун өзүнүн ишмердүүлүгүн анализдөө жана өркүндөтүү жөндөмдүүлүгүн жогорулатат. Педагог окуу процессинде теориялык билимди практика менен айкалыштырып, өзүнүн дидактикалык компетенттүүлүгүн туруктуу түрдө өнүктүрө алат.Болочок кесиптик окутуу педагогдорунун дидактикалык компетенттүүлүгүн калыптандыруу методикалык, технологиялык, психологиялык жана социалдык шарттарды системалуу түзүү аркылуу ишке ашат. Бул шарттар педагогго өзүнүн кесиптик потенциалын максималдуу деңгээлде ишке ашырууга, студенттердин билим сапатын жогорулатууга жана кесиптик билим берүү сапатын жогорку деңгээлде камсыз кылууга мүмкүндүк берет. Педагогикалык шарттарды түзүү жана алардын эффективдүүлүгүн системалуу баалоо кесиптик билим берүүнүн өнүгүүсү үчүн маанилүү стратегикалык багыт болуп эсептелет.

Компетенттүүлүк мамиленин негизинде билим берүү - бул максаттарды аныктаганга, мазмунду тандоого, билим берүү процесстерин уюштурууга, билим берүү технологияларын, билим берүүнүн жыйынтыктарын, окуу жайлардын бүтүрүүчүлөрүнүн билим алуусунун натыйжаларынын актуалдуу биргелешкен компетенциялары түрүндө жана бул компетенциялардын тиешелүү деңгээлинин калыптанышынын жыйынтыктарын көргөзүүгө негизделген баалоону тандоо. Бул окутуунун жыйынтыктарын моделдештирүү жана аларды билим берүүнүн сапаттарынын нормасы катарында көргөзүү усулу. Компетенттүүлүк мамиленин негизинде билим берүү деген акырындык менен билим берүүдөгү басымдуулук кылган билимдерди трансляциалоо парадигмасынан учурдагы көп факторлуу социалдык-саясий, базар экономикалык, мейкиндиктин ашкере жыш маалыматтык жана коммуникациянын Бүгүнкү күндүн шарттарында бүтүрүүчүнүн жашап кетүүгө жана туруктуу жашоо ишмердүүлүгүнө болгон жөндөмүнүн потенциалын белгилеген компетенттүүлүктүн комплексине ээ болуу үчүн шарттарды түзүүгө көндүмдөрдү калыптандыруу менен багытын өзгөртүү болуп саналат .

Компетенттүүлүк багытта билим берүүнүн негизги шарттары жана талаптары болуп төмөнкүлөр эсептелинет:

-сабактарда жагымдуу маанай тартуулаган климатты түзүү;

-окутуунун активдүү формаларын колдонуу, мугалимдин студенттер менен өз ара аракеттеринин формалары;

- өз алдынчалыктын деңгээлинин өсүшү менен практикалык иштердин татаалдыгынын өсүшү;

-ар бир практикалык сабактын аягына чыгышы;

-окуу маалыматына тиешелүү болгон бардык иштердин жана милдеттердин ишке ашыруу жолдорунун так аныкталгандыны эсептелинет.

Компетенттүүлүк багыты, А.А.Вербицская, Э.Ф.Зеер, И.А.Зимняя жана башкалардын пикири боюнча, кесиптик билим берүү аспектисинде жаш адистин инсандык, кесиптик жана социалдык мүнөздөмөсүнүн, бул

жашоонун керектөөсүнө адистин өзүнүн, өндүрүштүн жана коомдун керектөөлөрү камтылган дал келүүсүн көргөзгөн билим берүүнүн жаңы сапатына жетишүүнүн ыкмасы болуп эсептелинет [3]. Ушуга байланыштуу кесиптик окутуу педагогун даярдоодо окутуу процессинде “компетенттүүлүк” жана “компетенциялар” катары аныкталган өзгөчөлөнгөн субөекттик сапаттарды калыптандыруу актуалдуу болуп саналат.

Компетенттүүлүктү кандайдыр бир деңгээлде тиешелүү компетенциялар тобуна ээ экендиги жөнүндө күбөлөндүргөн инсандын субьекттик мүнөздөмөсү катары карашкан окумуштуулардын (С.Я. Батышев, Б.С Гершунский, Э.Ф.Зеер, И.А.Зимняя, А.К.Маркова Л.М.Митина ж.б) позицияларын талдоо аркылуу биз компетенттүүлүк катары курчап турган дүйнө менен тиги же бул тармакта натыйжалуу өз ара аракеттердин мүмкүнчүлүгүн камсыздаган жана бул үчүн зарыл компетенцияларга көз каранды болгон комплекстүү инсандык ресурсту (билим, билгичтик жана көндүм, инсандык сапаттардын системасы) түшүнөбүз, ал эми компетенция катары инсандын белгилүү бир билимдердин, билгичтиктердин, көндүмдөрдүн, практикалык тажрыйбанын жана инсандык сапаттардын биримдигине негизделген инсандын ишмердүүлүктү аткарууга жөндөмүн жана даярдыгын түшүнөбүз.

Кесиптик-педагогикалык компетенттүүлүк кесиптик-педогогикалык ишмердүүлүктөгү тажрыйбада актуалдаштырылган компетенциялардан турат жана ишмердүүлүктү чыгармачылык аңдап-түшүнүүгө жараша компоненттик структурага ээ болот.

Компетенция - бул адистин кандайдыр бир кесиптик маселелердин классын чечкен инсандык жөндөмү. Компетенциялар түшүнүгүнө:

- ✓ билим жана түшүнүү (академиялык тармактагы теориялык билим, билүү жана түшүнүү жөндөмдүүлүгү);
- ✓ билим аракет кылуу катары (билимди конкреттүү кырдаалдарга практикалык жана оперативдик түрдө колдонуу);
- ✓ билим болуу катары (баалуулуктар социалдык контекстте башкалар менен жашоо жана кабыл алуу ыкмасынын ажырагыс бөлүгү катары) кирет. [4, 26-29]

Бүгүнкү күндө кесиптик билим берүү системасынын сапаты педагогдордун профессионалдык компетенттүүлүгүнө түздөн-түз байланыштуу. Педагогдун дидактикалык компетенттүүлүгү — бул окутуу процессинде билим берүү максаттарына жетүү үчүн керектүү билим, көндүм жана тажрыйбаларды эффективдүү колдонуу жөндөмдүүлүгү. Бул компетенттүүлүк педагогдун окутуунун натыйжалуулугун камсыз кылуудагы, студенттердин билим деңгээлин жана чыгармачылыгын жогорулатууга багытталган маанилүү аспект болуп саналат.

Дисадактикалык компетенттүүлүк педагогдун теориялык билимди практика менен интеграциялоо жөндөмүн, окутуу процессин пландаштыруудагы методикалык чечимдерди, студенттердин билим деңгээлин системалуу баалоо жана өз алдынча ой жүгүртүүсүн колдоону камтыйт. Ошондуктан болочок кесиптик окутуу педагогдорунун

компетенттүүлүгүн өнүктүрүүдө педагогикалык шарттарды түзүү маанилүү роль ойнойт. Педагогикалык шарттардын негизги максаты — педагогго окутуунун бардык этаптарында эффективдүү иштөөгө, инновациялык технологияларды колдонууга жана студенттердин кесиптик даярдыгын максималдуу деңгээлде камсыз кылууга мүмкүнчүлүк берүү. Дидактикалык компетенттүүлүк педагогдун окутуу процессин уюштурууда жана башкарууда керектүү билим, көндүм жана тажрыйбаларды интеграциялап колдонуу жөндөмдүүлүгүн билдирет. Бул компетенттүүлүк бир нече негизги компоненттен турат. Биринчиден, билим компоненттери педагогдун предметтик жана методикалык билимдерин камтыйт. Педагог предметтин теориялык негиздерин терең билүү менен студенттердин суроолоруна жооп берип, окуу материалын туура уюштурат. Экинчиден, көндүмдөр компонентинде педагог сабактарды пландаштыруу, ар кандай методикалык материалдарды түзүү жана баалоо иштерин натыйжалуу жүргүзүү жөндөмдүүлүгүнө ээ болушу керек. Үчүнчүдөн, кесиптик тажрыйба компонентинде педагог практикалык сабактарды өткөрүү, студенттердин чыгармачылык жөндөмдөрүн өнүктүрүү жана инновациялык педагогикалык ыкмаларды колдонуу тажрыйбасына ээ болушу зарыл.

Дисадактикалык компетенттүүлүктүн функциялары педагогдун окуу процессиндеги ролун так аныктайт. Бул компетенттүүлүк педагогго сабакты методикалык жактан уюштуруп, студенттердин билим алууда активдүү катышуусун камсыз кылууга, инновациялык технологияларды окутууга интеграциялоого жана өзүнүн кесиптик тажрыйбасын рефлексиялоо аркылуу өркүндөтүүгө мүмкүнчүлүк берет. Мисалы, кесиптик мектептин окутуучусу лабораториялык сабактарды өткөрүүдө студенттерди топторго бөлүп, практикалык тапшырмаларды аткарууга жетектейт жана алардын ар биринин ишин методикалык жактан баалайт.

Болочок кесиптик окутуу педагогдорунун дидактикалык компетенттүүлүгүн калыптандыруу методикалык, технологиялык, психологиялык жана социалдык шарттарды системалуу түзүү аркылуу ишке ашат. Бул шарттар педагогго өзүнүн кесиптик потенциалын максималдуу деңгээлде ишке ашырууга, студенттердин билим сапатын жогорулатууга жана кесиптик билим берүү сапатын камсыз кылууга мүмкүндүк берет. Педагогикалык шарттарды түзүү жана алардын эффективдүүлүгүн системалуу баалоо кесиптик билим берүүнүн өнүгүүсү үчүн маанилүү стратегиялык багыт болуп саналат. Практикалык мисалдар жана педагогикалык тажрыйба педагогдордун компетенттүүлүгүн жогорулатууда негизги көрсөткүчтөр катары кызмат кылат.

Адабияттар

1. Бекбоев И.Б. Инсанга багыттап окутуу технологиясынын теориялык жана практикалык маселелери / И.Б. Бекбоев. - Бишкек: 2004. -384 б.
2. Бекембай А. Жалпы дидактиканын негиздери
3. Мамбетакунов, Э. М., & Сияев, Т. М. (2018). *Педагогиканын негиздери*. Бишкек: Жусуп Баласагын атындагы Кыргыз Улуттук Университети.

4. Добаев К.Д. Государственный образовательный стандарт КР. «СПО – Кыргызстан» №2. – Бишкек, 2008 г. С. 14-44.
5. Касымбеков Эркин Аскарбекович Проблема дидактической подготовки п. педагогов профессионального обучения на компонентной основе В мире образования № 2 . с. 27-29. 2012. Казахстан.

ILK O‘SPIRIN YOSHLAR (16-18 YOSH) DUNYOQARASHIDAGI NOILMIY TASAVVURLARNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Professor **- Jabborov A. M.** (QarDU),
Mustaqil tadqiqotchi-**Xudoynazarov Q. A**.(QarDU)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘spirin yoshlar dunyoqarashidagi salbiy tasavvurlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va unga ta’sir etadigan tabiiy, ijtimoiy-madaniy, milliy-psixologik va tarbiyaviy omillarning ahamiyati haqida so‘z boradi.*

Tayanch so‘z va iboralar: *o‘spirin, globallashuv, axborot, dunyoqarash, salbiy tasavvurlar, real voqelik, diniy, ilmiy, ong, tafakkur, bilim.*

Аннотация: *В этом статье рассматриваются педагогические и психологические закономерности формирования мировоззрения подростков и важность влияющих на него природных, социокультурных, национально-психологических и воспитательных факторов.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, глобализация, информация, мировоззрение, негативное восприятие, объективная реальность, религиозное, научное, сознание, мышления, знание.*

Abstract: *This article discusses the socio-psychological characteristics of negative perceptions in the worldview of adolescents and the importance of natural, socio-cultural, national-psychological, and educational factors that influence them.*

Key words: *adolescence, globalization, information, worldview, negative perceptions, real reality, religious, scientific, consciousness, thinking knowledge.*

Axborotning globallashuv jarayoni bugungi kunga kelib, mamlakatlarning iqtisodiyot va moliyaviy hayot doirasidan chiqib, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy va axloqiy hayot doiralarini ham qamrab oldi. Ayniqsa, g‘oyaviy- psixologik urush ko‘rinishida yoshlar aqliga, ongiga va ma’naviyatiga yo‘nalgan tahdidlarning internet va boshqa zamonaviy axborot vositalari orqali yoshlar hayotiga kirib, ularning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi o‘spirinlarning yo‘nalganligida, dunyoqarashida, tafakkuri va ongida salbiy o‘zgarishlarni namoyon qilayotganligi ota-onalar, o‘qituvchilar va keng jamoatchikni tashvishga solmoqda.

Biz olib borayotgan ilmiy izlanishlarimizda o‘spirinlar dunyoqarashiga salbiy ta’sir etadigan zamonaviy axborot tahdidlarining ko‘rinishlari, yuzaga kelish xususiyatlari, yo‘nalganligi, maqsadi va ularni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy manbalarni o‘rganib, ularning mohiyatini tarbiyaviy-psixologik me’yorlar asosida baholashga harakat qildik. Shunga tayanib, biz mazkur maqolada o‘spirinlar dunyoqarashining shakllanganlik holatini hamda ular dunyoqarashi shakllanishiga ta’sir etadigan ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy-psixologik omillar, shart- sharoitlar ta’sirini o‘rganishni tadqiqotimizning muhim maqsadi sifatida belgiladik.

Dastlab, biz o‘spirinlar dunyoqarashidagi salbiy ko‘rinishlarni aniqlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy psixologik so‘rovnoma (IPS) dan foydalandik (muallif prof. A.Jabborov). Ular dunyoqarashini aniqlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy psixologik so‘rovnoma (IPS) quyidagicha ilmiy-uslubiy tuzilishga ega:

Quyida sizga berilayotgan savollarga o‘ylab, o‘zingiz to‘g‘ri deb bilgan tushuncha, tasavvur hamda bilimlaringizga tayanib javob berishingizni so‘raymiz. Javoblaringiz hayotiy va real voqelikka asoslanib, ilmiy nuqtai nazardan baholanadi.

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma (IPS) o‘spirinlar dunyoqarashi holatini aniqlash va atroflicha o‘rganishga yo‘naltirilgan savollardan tarkib topgan bo‘lib (1-jadval), ular hayotida dunyoqarashning qaysi shakli (mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, turmush bilan bog‘liq (kundalik) dunyoqarash, falsafiy-ilmiy dunyoqarash) yetakchilik qilishi o‘rganiladi. So‘rovnoma shunday tuzilganki, uni tashkil etgan savollar insonni o‘rab turgan butun voqelik – borliq, tabiat, jamiyat, inson va uning ongi-shuurining mushtarakligi, undagi taraqqiyot qonuniyatlari, shart-sharoitlari, taraqqiyotni harakatga keltiruvchi, o‘zgartiruvchi muhim omillarning mohiyati o‘spirinlar tomonidan qanday anglanishi, o‘zida shakllangan tushuncha, tasavvur, bilim va dunyoqarashiga tayanib baholashlari asosida o‘rganildi.

Natijalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilayotgan o‘spirinlarning dunyoqarashida mifologik dunyoqarash tamoyillari ustunlik qilayotganlar 5 % ni, dunyoqarashida diniy dunyoqarash tamoyillari ustunlik qilayotgan shaxslar 27 % ni, dunyoqarashida turmush bilan bog‘langan (kundalik) dunyoqarash tamoyillari ustunlik qilayotgan respondentlar 28 % ni, dunyoqarashida falsafiy-ilmiy dunyoqarash tamoyillari ustunlik qilayotgan yigit-qizlar 40 % ni tashkil etdi.

O‘spirinlar dunyoqarashini o‘rganib, yuqoridagicha baholagan bo‘lsak-da, mifologik dunyoqarashga tayanadigan yoshlar (5%) bilan diniy dunyoqarashga tayanadigan ishtirokchilarning (27 %) fikr va qarashlarida bir-biriga yaqin tushuncha va tasavvurlar, mazmun-mohiyati bilan o‘xshash fikriy yo‘nalganlik mavjudligi kuzatildi.

Turmush bilan bog‘langan (kundalik) dunyoqarash ustunlik qiladigan o‘spirinlarning (28 %) fikr va qarashlarida bir tomondan diniy dunyoqarash bilan bog‘langanlik kuzatilsa, boshqa tomondan falsafiy (ilmiy) dunyoqarashga bog‘langanlikka (tayanishga) xos yondashuvlar ham mavjudligi aniqlandi.

Dunyoqarashida falsafiy-ilmiy dunyoqarash tamoyillari ustunlik qilayotgan o‘spirinlarda (40 %) insonni o‘rab turgan butun voqelik – borliq, tabiat, jamiyat va insonning (uning tafakkuri, ongi) o‘zaro mushtarakligi, ulardagi taraqqiyot qonuniyatlari va zarur shart-sharoitlarning uzviyligi, taraqqiyotni harakatga keltiruvchi, o‘zgartiruvchi muhim omillarning mohiyati to‘g‘risidagi fikr va qarashlarida, ilmiy tushuncha, tasavvur va bilimlarga asoslanishi, ilmiy va hayotiy yechimlar hamda real voqelikka tayanib baho berishlari kuzatildi. Shunday bo‘lsa-da, falsafiy-ilmiy dunyoqarash ustunlik qilayotgan o‘spirinlarning fikr va qarashlarida turmush bilan bog‘langanlik (kundalik) dunyoqarashga yaqinlik yondashuvlari ham ifodalandi.

Mazkur jadvalda bayon qilingan tasdiqlarga javoblar tahlili bizga o‘spirinlar dunyoqarashining shakllari va yo‘nalganligini aniqlash maqsadida yaqqol tasavvurga ega bo‘lishimiz uchun zarur edi.

Ularning 5% ida mifologik dunyoqarash yoki hayoliy obrazlar va afsonalarga tayanuvchi dunyoqarash yetakchilik qilayotganligi, aynan shu shaxslar oilasida tarbiyaviy jarayonlarga yengil-yelpi qarab, tarbiyaviy jarayon yaxshi kechmaganligi, oilaviy tarbiyada mifologik qarashlar ustunlik qilganligi (jumladan, shu mazmundagi filmlarni ko‘rish, kitoblarni o‘qish), oiladan keyingi ta’lim tizimida ana shunday yoshlar tarbiyasiga va uning dunyoqarashiga tarbiyachilar, o‘qituvchilar va keng jamoatchilik e’tiborsizlik bilan qaraganligi oqibati deb baholash mumkin.

Mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida amaldagi ta’lim tizimida aynan shu yoshlarning boshqa tengdoshlari uchun bu holatlar salbiy ta’siri bilan qator muammolarning shakllanishiga olib kelish ehtimoli mavjud. Chunki, mifologik dunyoqarash voqelik haqidagi xayoliy obrazlar va afsonalarga tayanuvchi bilimlardan to‘plangan va tizimga solingan bir davrda (shunday muhit shakllangan oila va boshqa joylarda) vujudga keladi. Aslida bu holat borliqning inson ongidagi hayoliy in’ikosi sifatida qadimgi davr kishilari uchun xos bo‘lgan. Ular voqelikni turli rivoyatlar va afsonalar asosida tasvirlab, uni qahramon xaloskorlar, yovuz va ezgu kuchlarni ifodalovchi obrazlar tarzida bilishgan. Tabiatdagi jonsiz jismlarni jonlantirib, olov, suv, havo, tabiat hodisalarini ham muayyan jonli obrazlarning namoyon bo‘lishi deb hisoblashgan. Hozirgi yoshlar ularni rivoyatlar va afsonalar sifatida qabul qilib, ilm-fan rivojlangan hozirgi davrda ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslanishlari o‘rinlidir.

Dunyoqarashida diniy tushuncha va tamoyillar ustunlik qilayotgan o‘spirinlar 27 % ni tashkil qilayotganligi ham oilaviy va oiladan keyingi ta’lim-tarbiya tizimiga alohida e’tibor bilan qarashni taqoza etadi. Oilaviy munosabatlarda diniy e’tiqod va dunyoqarashlarning ustunligi hamda bu holatning oiladagi tarbiya muhitiga singishi yoshlarning hayotda yo‘nalganligi va ilmiy dunyoqarashining shakllanishi uchun eng xavfli omillar sifatida xizmat qiladi. Diniy e’tiqod va diniy dunyoqarashga asoslangan tarbiya yetakchilik qilgan joyda yoshlarda ilmiy-falsafiy dunyoqarashning rivojlanishiga imkoniyat qoldirmaydi. Aslida diniy tarbiya yoshlarni har tomonlama barkamol shakllanishiga xizmat qilishi, ularda insonga xos zarur sifat va fazilatlarni kamol toptirishga, jamiyatda amalda hukum surayotgan milliy-madaniy me’yorlar va qadriyatlarni o‘rganish hamda amal qilishga yo‘nalgan bo‘lishi lozim. Chunki, diniy ta’limotning asosi bo‘lgan muqaddas kitoblar – Qur’oni karim va muqaddas hadislarda faqat inson kamolotini ta’minlashga yo‘nalgan ezgu- g‘oyalarni uchratishimiz mumkin.

Bugungi kunda din niqobi ostida yurib, din va musulmonlar xaloskori sifatida diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm g‘oyalarini, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlarini irodasi bo‘sh, tafakkuri zaif, ongida tarbiyaviy bo‘shliq mavjud bo‘lgan yoshlar orasida targ‘ib qilib, o‘sha manfur kimsalar o‘z maqsadlari va manfaatlari yo‘lida astoydil ish olib bormoqdalar.

Demak, o‘z-o‘zidan ayonki, dunyoqarashida mifologik dunyoqarash (5 %) va diniy dunyoqarash (27 %) tamoyillari yetakchilik qilayotgan o‘spirinlarning mazkur

nuqtai nazari noto‘g‘ridir. Ular o‘zlarini o‘rab turgan- voqelik, tabiat, jamiyat va insonning yaralishi, insonning ongli mavjudot sifatida rivojlanish qonuniyatlari, bosqichlari va uning yaratuvchanlik imkoniyatlarini ilmiy-falsafiy nuqtai –nazardan tushunib baholay olmaydilar. Bu holat, ular bilan bog‘liq keyingi o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni tubdan o‘zgartirishni taqoza etadi.

Turmush bilan bog‘langan (kundalik) dunyoqarash tamoyillari ustunlik qilayotgan o‘spirinlar (28 %) bilan ham yanada ko‘proq ishlash lozimligi ko‘rinib turibdi. Ularning dunyoqarashida kundalik turmush bilan bog‘liq aqlga sig‘adigan tasavvurlar, olam va odam to‘g‘risidagi oddiy an’anaviy qarashlar yetakchilik qiladi. Ularni butun borliq, tashqi olam, tabiat, jamiyat, inson ongi va tafakkurining mushtarakligi hamda ularda kechadigan umumiy (ichki) qonuniyatlarni chuqurroq anglashga intellektual imkoniyatlari yetarli shakllangan deb bo‘lmaydi.

Dastlabki tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, hozirgi o‘spirin yoshlarning 40% idagina ilmiy-falsafiy dunyoqarash barqaror shakllanganligi, ular atrof voqelikni, tabiat , jamiyat va inson mohiyatini, ularning o‘zaro mushtarakligini ilmiy baholashda ular o‘zlarining bilimi, aqliy imkoniyati, axloq-odobi bilan tengdoshlariga nisbatan ancha afzalliklari aniqlandi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘spirinlar dunyoqarashida salbiy o‘zgarishlar yuzaga kelishining muhim omillari o‘rganilganda, ular ongi va dunyoqarashini belgilaydigan bilimlari, ularda qaror topgan intellektual taraqqiyot darajalari har doim ham to‘g‘ri ilmiy-metodologik yo‘nalishga mos kelavermasligi aniqlandi. O‘spirinlarning yarmidan ko‘pi (60%) – dunyoqarashida mifologik dunyoqarash tamoyillari ustunlik qiladigan (5 %), diniy dunyoqarash tamoyillari yetakchilik qiladigan (27 %), turmush bilan bog‘liq (kundalik) dunyoqarashga ko‘proq amal qiladigan (28 %), ular butun borliq o‘zaro mushtarakligini, ya’ni - tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri o‘rtasida kechadigan eng umumiy qonuniyatlarni ilmiy-falsafiy jihatdan to‘g‘ri baholay olmadilar.

O‘spirinlar 32% ining (5%+27%) dunyoqarashidagi yanglish tasavvurlarni vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq shart-sharoitlarni tubdan o‘zgartirish va qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. O‘spirinlarning 28 %i o‘zlaridagi mavjud dunyoqarashni tuzatib, borliqni ilmiy-falsafiy tushunish darajasiga erishish uchun bilimlarini chuqurlashtirishi va metodologik yondashuvlarini tuzatishlari lozim. Ularning 40 %i o‘zlarida mavjud bo‘lgan ilmiy-falsafiy dunyoqarash yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq manbalarni aniq hamda yaqqol tasavvur qilayotganliklari yoshlarni har tomonlama barkamol tarbiyalash uchun yanada muhimdir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 3-tom, Toshkent, -704 b.
3. Jabborov A.M. Milliy psixologiyaning shakllanish manbalari. Qarshi.: 2017 y., - 72 b.

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS FILOGENEZISIGA ETNOPSIXOLOGIK YONDOSHUV

O'zbekiston Xalqaro
Islomshunoslilk
Akademiyasi din psixologiyasi va
pedagogika kafedrasi
dots, p. f.n. L.S. Tursunov

Annotatsiya: *maqolada jahon hamjamiyati tomonidan keng muhokamalarga sabab bo'layotgan avlodlar nazariyasiga e'tibor qaratilgan. Avlodlar nazaryasiga ijtimoiy va etnopsixologiya fanlari nuqtaii nazardan yondoshish orqali zamonaviy yoshlarni xulq – atvoriga hamda kognitiv rivojlanishiga urg'u berilgan.*

Kalit so'zlar: *avlod, avlodlar, jim avlod, Bebi bumerlar, "X" avlod, "I" avlodi, zoomerlar, alfa avlod, betta avlod, kognitiv, ontogenez.*

Аннотация: *В данной статье уделяется внимание теории поколений, которая в настоящее время является предметом широких обсуждений в мировом научном сообществе. В работе акцент делается на анализ теории поколений с позиций социальной и этнопсихологии, а также рассматриваются особенности поведения и когнитивного развития современной молодёжи, что представляет особый научный интерес.*

Ключевые слова: *поколение, поколения, молчаливое поколение, бэби-бумеры, поколение X, поколение Y, зумеры, поколение Альфа, поколение Бетта, когнитивное развитие, онтогенез.*

Abstract. *This article focuses on the theory of generations, which has become a subject of extensive discussion within the global academic community. The paper examines the theory of generations from the perspectives of social and ethnopsychology and emphasizes the behavioral characteristics and cognitive development of modern youth, which is of particular scientific interest.*

Keywords: *generation, generations, Silent Generation, Baby Boomers, Generation X, Generation Y, Zoomers, Generation Alpha, Generation Beta, cognitive development, ontogenesis.*

SHaxsning kognitiv ontogenezni anglash uchun insoniyatning filogeneziga nazar tashlab mulohaza yuritish xayrli ekanligi isbot talab etmaydigan xaqiqat desak xato bo'lmaydi. Bashariyat bosib o'tgan davrlarga e'tibor qaratiladigan bo'lsak, barcha zamonlarda ham kelajak avlodni tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelinganligini sababi katta avlod yoshlar ramzida kelajakni aks ettira olganlar. Ammo shuni ham takidlash lozimki, yoshlar o'z ehtiyoj va davr talabidan kelib chiqib o'zlarining yo'nalishlarini belgilab borganlar.

Har bir millatning kelajagi avlodlar o'rtasidagi rishtaning samaradorligiga va qadriyatlarning davrga muttanosib uzatilishi hamda saqlanishiga bog'liq. Avlodlar nazaryasi o'zining murakkab tuzilmasiga ega bo'lishidan qattiy nazar uni quyidagicha tavsilash ijtimoiy psixologiyada amalga oshiriladi. Nazariyaning mohiyati shundaki, har bir avlod turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda moslashadi va o'z qadriyatlarini rivojlantiradi. Bir avlod vakillari keyingi avloddan 20 yoki 25 yilga ajralib turadi. SHuning uchun har bir avlod yangi sharoitlarda ijtimoiy – psixologilk rivojlanishni bosib o'tadi.

Jamiyatning katta yoshdagi a'zolari o'z yoshlilklarida milliy qadriyatlarga amal qilganlilklarini maqtab, hozirgi yoshlarning kamchililklarini topib, uni

bo’rttirib urg’u berishlarishlarini tez – tez guvoh bo’lishimiz bejiz emas. Aksar xollarda qariyalar “zamon o’zgardi”, “hozirgi avlodni tushunib bo’lmaydi”, degan filkrlarini mulohaza qilish maqsadga muttanosibligini unitmasililk lozim. Mazkur filkrlarni talqini asosida avlod nazariyani tushunish bizga ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar vaqt o’tishi bilan qanday o’zgarishini ko’rish imkonini beradi. Avlodlar nazariyasi qanday ishlashini va har bir avlod boshqalardan qanday farq qilishini tushuntiradi.

Jaxon insonshunoslilk va jamiyatshunoslilk fanlari vakillarinning mazkur masalaga munosabatiga e’tiborimizni qaratadigan bo’lsak.

So’ngi yillarda keng jamotchililk tomonidan e’tirof etib kelinayotgan “avlodlar nazariyasi” amerilkalilk yozuvchilar Nil Xou va Uilyam Strauss tomonidan ishlab chiqilgan. 1991 - yilda ular Qo’shma SHtatlar tarixini taniqli shaxslarning tarjimai hollari orqali kuzatib tahlil etib, "Avlodlar Amerilkaning kelajagi tarixi, 1584-yildan 2069-yilgacha" deb nomlangan kitobini nashr etishdi. Unda mualliflar “avlod” nazariyasining poidevoriga ta’mal toshini qo’yishdi va uni 1997-yilda nashr etilgan "To’rtinchi burilish " kitoblarida kengaitirdilar.

Rus sotsiologi, Mintaqaviy tadqiqotlar markazi direktori Dmitriy Loboilko Lenta.ru nashriga bergan intervyusida avlodlar nazariyasi “O’rta yo’l nazariyasi”ning klassilk namunasidir, bu fan va ommabop psixologiya o’rtasidagi nafis muvozanat bo’lib, u ilkki tomonni ham juda ko’p bezovta qilmaidi”.

Avlodlar nazariyasi "yakunii haqiqat" emas. Strauss va Home akademilk tadqiqotchilardan ko’ra ko’proq publitsistlardir va ularning kontseptsiyasi haddan tashqari umumlashtirilganligi va empirilk tasdiqlanmaganligi uchun tanqid qilingan.

Nil Xou va Uilyam Strauss tomonidan tavsiya etilgan “avlodlar nazaryasi” ma’lum bir tarixiy davr davomiligi bilan bog’lab izohlashga harakat qilganlilklari diqqatga sazovorligini unitmaslilk kerak.

Mazkur nazariyani tushunish bizga ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar vaqt o’tishi bilan qanday o’zgarishini ko’rish imkonini beradi. Avlodlar nazariyasi qanday ishlashini va har bir avlod boshqalardan qanday farq qilishini anglashga yordam beradi.

Avlodlar nazariyasi o’zining stereotiplari va millonlab odamlarni turli shaxsiyatlar, tarixlar, ma’lumotlar va qadriyatlar bilan uyg’unlilkni yuzaga keltirishga urinishlari uchun tanqid qilinga, chunki ular bir vaqtning o’zida yuzaga kelgan. SHunga qaramai, bu nazariya bizga odamlarga texnologiya, geosiyosat, iqtisodiy yuksalishlar va pasayishlar, ota - onalilk me’yorlari, ta’lim falsafalari, ommaviy axborot vositalari hamda ular o’sgan mashhur madaniyat qanday ta’sir qilishini ko’rishimiz imkonini yaratadi.

Sotsiolog Dimitiriy Loboilkoning ta’kidlashicha, avlodlar nazaryasi qat’iy ilmiy tushuncha emas, baki jamiyat qanday o’zgarib borayotganini kuzatish natijasi ekanligini unitmaslilk lozim. Nazariyaga tanqidiy nuqtai nazar bilan qarash va avlodlarning o’ziga xos o’zgarishlar, madaniy xususiyatlari va o’ziga xos qadiriyatlari borligini hisobga olish kerak.

Avlodlar nazaryasi qiziqarli yondashu, ammo shuni yodda tutish kerakki, har bir avlod turli xil shaxslar mavjud. SHaxs hayotining xususiyatlari va sharoitlari qat’iy tipologiyalariga to’liq mos kelmaydi.

Avvaolo shuni unitmaslilk lozimki, “Avlodlar” nazariyasi bu – turli avlodlarning nima uchun paydo bo’lishini, ularni nima birlashtirishini va qanday o’zgarishini tasvirlaidigan tadqiqot yondoshuvi.

O’rta asr faylasuflari “otalar va o’g’illar” o’rtasidagi farqlar haqida mulohaza yuritishgan va avlodlar o’zgarishi masalasi XIX – asrda jiddiy ko’rib chiqilgan. Olimlar odamlarning avlodga birlashishining asosiy xususiyati umumiy qadriyatlar va hayot tajribalari to’plami bo’lishi mumkinligiga ishonishgan. Agar odamlar yirik ijtimoiy yoki ommaviy voqeani – urush yoki inqirozni boshidan kechirgan bo’lsala, bu ularning xatti – harakatlari va filkrlash tarzi ta’siri qilganligini takidlashgan.

O’zbekistonda etnopsixologiya fanining ta’mal toshini qo’ygan zabardast olimlardan M.M.Mamatov: “Har bir avlodni va davlatning ijtimoiy - iqtisodii, tabiiy - sharoitiga mos bo’lib tushadigan va uni o’zida aks ettiradigan yosh avlodi bo’ladi. Odamzot ongli hayot kechira boshlaganidan buyon vujudga kelgan urf - odatu marosimlar, udumlarni yashovchanligi yosh avlod uni qanday aks ettirishi hamda amal qilishiga bog’liq bo’ladi”.

Xususan mamlakatimiz yetakchi psixologlaridan professor N.SH.Umarova takidlaganidek: “Jumladan, bir avlodga ta’sir qiladigan asosiy voqeyalar butun dunyo bo’ylab (yoki) mamlakatlarga ta’siridan keskin farq qilishi mumkin. Bunga sabab mamlakatning rivojlanish tendientsiyalari turli vaqtlar oralig’ida bo’lishi mumkin”.

SHuni alohida takidlash lozimki, quyida keltiriladigan avlodlar nazariyasi bir davlat tarixiga asoslangan va u boshqa mamlakatlarga mutanosib emas, har bir millat o’z madaniy kodi va har bir mamlakatni o’z tarixi borligini inobatga olish kerakligini unitmaslilk lozim.

Aksari insonshunoslilk bilan tadqiqot olib boradigan mutaxasislarni filkriga ko’ra, quyida keltirilgan avlodlarni davrii bosqichlari asosan AQSH mamlakatidagi avlodlariga mutanosib hisoblanadi.

Jim avlod — 1928 va 1945 yillar oralig’ida tug’ilgan odamlar — intizom va mehnatsevarlilk bilan ajralib turardi va ular bolalilk va o’smirlilk davrlarini o’tkazgan qiyin tarixii sharoitlarni aks ettiruvchi barqarorlilkka intilishardi. Buyuk Depressiya bu avlodga ta’sir ko’rsatdi va Ikkinchi Jahon urushi ularga yuqori darajada ta’sir etgan.

"Bu avlodning ko’plab vakillari qashshoqlilk va resurslar tanqisligi sharoitida tarbiyalangan, bu esa tejamkorlilk va amaliylik uchun asos yaratgan. Ular mehnatni juda qadrlashdi va uni maqsadlariga erishishning eng muhim vositasi deb bilishdi", dedi RUDN universiteti iqtisodiyot fakulteti mutaxassisi Mariya Kormilitsina (Lenta.ru) nashriga.

Bu avlod vakillari davlatga xizmat qilishni va oila oldidagi majburiyatlarni zarurat deb bilishgan va qiyinchiliklarga qaramai, o’z ishlariga sodiq qolishgan.

Bebi-bumerlar 1946 va 1964-yillar oralig’ida tug’ilgan odamlardir. Ikkinchi jahon urushidan keyin tug’ilish darajasi keskin o’sishni boshladi, shuning uchun bu avlod o’z nomini oldi.

Uning a’zolari iqtisodiy o’sish, ijtimoiy o’zgarishlar va texnologik taraqqiyot davrida ulg’ayishdi, bu esa "bebi-bumer" avlod vakillariga nisbatan barqaror moddiy farovonlilkdan bahramand bo’lish imkonini berdi.

Bebi-bumer avlodini belgilovchi qadriyatlar ambitsiya va ta'limdir. Ular odatda o'zini rivojlantirishga qiziqishadi va ta'limni jamoaviy maqsadlarga erishish yo'lidagi qadam sifatida ko'rishadi.

Iqtisodiy o'sish va ta'lim olish imkoniyati tufaili o'rta sinf sezilarli darajada kengaydi va bu bebi-bumerlar uchun ko'proq imkoniyatlar ochdi. Iste'mol shakllari o'zgardi: odamlar turmush tarzi va shaxsiy zavqlarga e'tibor qaratishni boshladilar.

YOrqin kelajakka ishonib, ular uy –joy ta'limga faol sarmoya kiritdilar, bu esa iqtisodiyotning ayrimlarni rivojlagtirishga hissa qo'shdi. Voyaga yetgan sari babi – bumerlar barqarorlilk, an'analarni qadrlashadi va o'zlari yaratgan hayot tarzini himoya qilishadi.

YOshligida ular ishtiyoqli va jasur bo'lib, o'rnatilgan hayot tarzini buzadilar. Voyaga yetganlarida esa, aksincha ular barqarorlilkni va o'zlari uchun tanlagan turmush tarzini faol himoya qiladilar.

"X" avlod, shuningdek, "Xers" yoki "yo'qolgan avlod" nomi bilan ham tanilgan, taxminan 1965 va 1980 yillar oralig'ida tug'ilgan odamlarni o'z ichiga oladi. Ular raqamli inqilob va globallashuvning boshlanishini boshidan kechirdilar, bu esa ularning ishga va hayotga bo'lgan yondashuviga ta'sir ko'rsatdi.

Ularning mustaqillilkka intilishi, ish va shaxsiy hayot o'rtasidagi muvozanat va natijaga yo'naltirilgan yondashuv ularnni zamonaviy mehnat madaniyatini shakllantirishda ta'sirchan kuchga aylantirdi.

1980 – yillarning oxiri va 1990 – yillarning boshlarida boshlangan globallashuv to'lqini dunyoni yanada o'zaro bog'liq qildi. Mamlakatlar o'rtasida savdo, sayohat va aloqa osonlashdi va tezlashdi.

"X" avlod bu jarayonning boshida edi. An'anaviy Bebi – bumerlardan pragmatizim va individualizm bilan farq qiladi. Ular moddiy boylilk va mustaqillilkni qadrlashadi.

Ming yillilklar "I" avlodi sifatida ham tanilgan ming yilliklar 1980 – yillarning boshlari va 1990 – yillarning o'rtalari orasida tug'ilgan odamlar guruhidir. Ular yangi ming yillilkka o'smir yoki bolalilk davrida kirishdi. Ming yillilklar ba'zan smartfon va planshetlarda xabarlarni bir qo'li bilan yozish qobilyati uchun "bosh barmoq avlod" deb atalgan.

Bu avlod tez texnologik taraqqiyot va globallashuv muhitda shakllandi. Ular texnologiyani yaxshi biladigan, ochiq fikrli va martabaga yo'naltirilgan.

Doimiy ravishda o'zini takomillashtirish, bag'rilkenglilk va atrof – muhitni muhofaza qilish ularning qadriyat tizimda yuqori o'rin tutadi. Ular kurs, treninglar va seminarlarda faol qatnashib, malakalarini doimiy ravishda oshirish va yangi ko'nilkmalarni rivojlantirishga intilishadi.

Bu avlod odamlari eski hayot tarzining yo'q qilinishi va yangi turmush tarzining qurilishi davrida ulg'aygan, shuning uchun ular erta yetuk bo'lishadi. "X"lar pragmatistlar va individualistlardir. Ular moddiy qadriyatlarni yuqori baholaydilar va ko'pincha boshqalarning his-tuig'ulari va filkrlarini e'tiborsiz qoldirib, o'z maqsadlariga intilishadi.

"Zoomerlar" - "Z" avlod ming yillikning boshida (1997 – 2010) tug'ilgan va tom ma'noda raqamli dunyoda ulg'aygan. SHuni bilish kerakki, ular internet, ijtimoiy tarmoqlar va smartfon o'yinlari ongli hayotlarining doimiy qismi bo'lgan

birinchi avlod edi – bu jarayon ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va xatti – harakatlarida chuqur iz qoldirdi.

“Z” avlodi texnologiyadan foidalanishda qulay va undan intuitiv ravishda qanday foidalanishni biladi.

“Zumerlar tezkor axborot oqimiga va vazifalarni doimiy ravishda almashtirishga o’rganib qolgan. Ular bir vaqtning o’zida messenjerlarda suhbatlashadilar, faol o’yinlar o’ynaydilar va uy vazifalarni bajaradilar. Ular uchun bir nechta vazifani bajarish odatiy hol”, deb ta’kiddadi, Mariya Kormilitsina

“Z” avlodi zamonaviy jamiyatning kelajagi. Ular global muammolarni hal qilish uchun yangi g’oyalar, texnoglogiyalar va yondashuvlarni olib kelishadi. Ularning ochiqligi, bir – biri va boshqa avlodlar bilan hamkorlilk qili tayyorligi va texilk ko’nilkmalari ular jamiyat rivojlanishi uchun kuchli kuchga aylantiradi.

SHu bilan birga, ba’zilar Zoomerlarning bilim va xotira turiga yondashuvi o’zgarayotganiga ishonishadi: ular ma’lumotning o’ziga emas, baki uni olish usulini – masalan, uni internetda qanday topishni eslab qolishini afzal ko’rishadi.

SHu bilan birga, ba’zilar Zoomerlarning bilim va xotira turiga yondashuvi o’zgarayotganiga ishonishadi: ular ma’lumotning o’zini emas, baki uni olish usulini – masalan, uni internetda qanday topishni eslab qolishini afzal ko’rishadi.

Alfa avlod odatda 2011 va 2024 yillar oralig’ida tug’ilgan odamlarni o’z ichiga oladi, deb hisoblanadi. Bu yosh avlod endigina shakllana boshlamoqda. Avlodlar o’zgarishi nazaryasida u raqamli texnologiyalarga to’liq ketishi bilan ajralib turadi.

“Alfa” nomi marketolog Mark Mak Krindli tomonidan o’ylab topilgan bo’lib, u bu atamani yangi davr boshlanishining ramzi bo’lgan yunon alifbosining birinchi harfidan keyin yaratgan. Bu avlodning asosiy istiqbollari texnologilk taraqqiyot, global o’zgarishlar va ota – onalilk va ta’limning yangi modellari bilan bog’liq.

Ijtimoiy tarmoqlar va xabar almashish ilovalari ularning asosiy maqsadli auditoriyasi – bolalar uchun asosiy aloqa vositasiga aylanib bormoqda. Ular ekranlar orqali dunyo bilan muloqot qilishni o’rganmoqdalar, bu esa ularning ijtimoiy ko’nilkmalari va muloqot haqidagi tasavvurlariga ta’sir qiladi.

Bolalar gadjetlar va ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo’lib qolish xavfi mavjud, bu ularning hayot va muloqot sifatini pasaytiradi, natijada narsizm hamda egoizmga olib keladi. YUzma – yuz muloqotni virtual muloqat bilan almashtirish shaxslararo ko’nilkmalar va empatiyani zaiflashtirishi mumkin.

“Muvaffaqiyatli rivojlanish va ta’lim texnologiyalardan foydalanishga muvozanatli yondashuvni ota – onalar va bolalar o’rtasidagi tushinishni va to’liq jismoniy hamda ijtimoiy rivojlanish uchun sharoit yaratishni talab qiladi”, deb takidlaidi Mariya Kormiltsina.

“Beta avlod”. Bu 2025 va 2039 yillar oralig’ida tug’ilgan bolalar avlodiga berilgan nom. Ular to’liq raqamlashtirilgan dunyoda, algoritmlar va virtual sotsializatsiya dunyosida yashaidilar. Masofaviy ish odatiy holga aylangan haqiqatda, onlayn munosabatlar oflain muloqat kabi muhim bo’ladi.

YAngi avlod, ehtimol, neyron tarmoqlari va suniy intellekt kundalilk hayotning bir qismiga aylangan davrda ulg’ayadi – madaniyatdan tortib sog’liqni saqlash va ta’limgacha suniy intellekt tasarrufida bo’lishi mumkin. Ammo bu odamlarga qanday ta’sir qilishini hech kim taxmin qila olmaydi.

Avlodlarni jahon fan texnikasi taraqqiyoti va ijtimoiy o'zgarishlar nuqtaiy nazardan nomlashga qarshi bo'lmagan xolda o'zbek Milliy mentalitetni o'ziga xosligi jihatlaridan yondoshish maqsadga muvofiqligini takidlash ham lozim unitmaslilk lozim.

O'zbek xalqi avlodlarining so'ngi asrlardagi bosib o'tgan tarixiga nazar tashlasak avlod sulolasini bog'lab turuvchi xalqaning naqadar mustahkamligini guvohi bo'lamiz. Har bir avlodni xulq – atvori jamiyatdagi tizimni tub o'zgarishlarini yoshlar ongida aks ettirilishi va unga nisbatan moslashishida aks etadi. Ana shu nazariyadan kelib chiqib o'zbek avlodlarini bosib o'tgan tarixiy davr talalabidan kelib chiqib quyidagicha nomlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaimiz.

1875- yil CHor Rossiyasi bosqini, bo'yin sindirilish davri avlodi;
1917- yildan boshlab dahriylikka qarshi kurashish davri avlodi;
1938- yildan boshlab repretsiya, ehtiyotkorlilk davri avlodi;
1961- yildan boshlab turg'unlilk, taqlidchanlilk davri avlodi;
1991- yildan boshlab erkin filkr va mustaqillilk davri avlodi;
2017- yildan boshlab yangilanayotgan dunyo qarash davri avlodi.

O'zbek xalqi avlodlarini tarixan bosib o'tgan davrlarida ijtimoiy qarashlari inobatga olgan xolda ilgari surilgan yuqoridagi avlodlar tizimi bosqichlariga berilgan dastlabki tavsiflardan biri hisoblanib kelgusida ko'p ilmiy munozaralar asosida mukammalashtirilishi tabiiy hol hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.M.Mamatov. "Etnopsixologiya". T. "Mumtoz so'z". 2019 i 75 -s
2. G.M. Andreeva. Ijtimoiy psixologiya: Oliy ta'lim muassasalar uchun darslilk. Aspekt nashiryoti; 2009 y. 363 s
3. A.V.Gavrilova. "YAngi avlod" mentalitetning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari". Udmurt unversiteti axborotnomasi. Falsafa seriyasi. Psixologiya. Pedagogilka 2016 y. 26 jild. №2.58 62 s
4. G.L Lebedeva. "Zamonaviy rus jamiyatida avlodlar davomiligining ijtimoiy instutsional asoslari" Ural Fedral universitetining axborot nomasi. 3 - seriya: Ijtimoiy fanlar 2017 yil №4 (170) 57-68 -s
5. N.SH.Umarova "SHaxs iqtisodiy - ijtimoiylashuvi jarayonining transformattsiyalashuvi: avlodlar nazaryasidan amaliyot sari". Zamonaviy ta'lim №8 (117) 2022i. Ilmiy – ommabop jurnal. 18 -s.

YOSHLARNI KASB TANLASHIDA OILANING O'RNI

X.A.Raxmatova
Namangan davlat universiteti,
pedagogika kafedrasi professori,
p.f.n.

Annotatsiya: *oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, bir-birini tushunish, qo'llab-quvvatlash, mehr-muhabbatga asoslangan munosabatni qaror toptiradi. Ijobiy mazmunga ega bu munosabat ota-onalar va oilaning katta yoshli vakillari (buva-buvilar) tomonidan farzandlar tarbiyasini to'g'ri, oqilona yo'lga qo'yish imkonini beradi. Farzandlar tarbiyasini tashkil qilishda,ularni kasb tanlashida har bir ota-ona o'z oilasining tarbiyaviy imkoniyatini baholay olishi zarur. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash uning darajasi to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lishni ta'minlaydi. Maqolada shu haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar*: oila, tarbiya, imkoniyat, tarbiyaviy imkoniyat, oilaning tarbiyaviy imkoniyati, tashxislash, oilaning tarbiyaviy imkoniyatini tashxislash.*

Аннотация: *в семье царят отношения, основанные на взаимном уважении, понимании, поддержке и любви друг к другу.При организации воспитания детей, выборе ими профессии необходимо, чтобы каждый родитель мог оценить образовательные возможности своей семьи. Диагностика воспитательных возможностей семьи обеспечивает получение информации о ее уровне. В статье речь пойдет именно об этом.и. Диагностика воспитательных возможностей семьи обеспечивает получение информации о ее уровне. В статье речь пойдет именно об этом.*

Ключевые слова: *семья, воспитание, возможность, воспитательная возможность, воспитательная возможность семьи, диагностика, диагностика воспитательной возможности семьи.*

Abstract: *family members establish relationships based on mutual respect, understanding, support, and affection. This positive attitude allows parents and older family members (grandparents) to properly and rationally raise their children. When organizing the upbringing of children and helping them choose a profession, every parent should be able to assess the educational potential of their family. Diagnosing the educational potential of a family provides information about its level. The article discusses this.*

Keywords: *family, upbringing, opportunity, educational opportunity, family educational opportunity, diagnosis, diagnosis of family educational opportunity.*

Oila har bir inson hayotida muhim o'rin tutadigan qadriyat sanaladi. Zero,oilada insonning moddiy, ma'naviy va reproduktiv ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi mehr-muhabbat, muloqot,bir-birini tushunish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, bir - biriga g'amxo'rlik ko'rsatish kabi ruhiy omillar mavjud. Shaxsning oila a'zosi sifatida nafaqat ma'naviy, shu bilan birga moddiy ehtiyojlarini qondira olishi imkoniyatiga ko'ra oila o'ziga xos tarbiya maskani, muhiti sanaladi. Binobarin, "oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq- atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi" [3, 196-b.].

Oilaning tarbiyaviy imkoniyati murakkab tuzilmaga, tuzilmaning o'zi esa muhim tarkibiy qismlarga egaligida aks etadi. Mavjud qismlar oilaning pedagogik, ijtimoiy-psixologik, madaniy va qadriyatli, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va gigienik

hamda demografik xarakterga ega imkoniyatini yoritadi. Ularning barchasi oilada farzandni har tomonlama sog‘lom qilib voyaga yetkazish uchun zarur bo‘lgan sharoitlar sanaladi.

Farzandlar tarbiyasida muvaffaqiyata erisha olish uchun oila ma’lum tarbiya mexanizmlariga ega bo‘lishi zarur.

Oilaviy tarbiya mexanizmlari –individual tarbiyaviy imkoniyatlari asosida oila tomonidan farzand tarbiyasini samarali tashkil etishda qo‘llaydigan vosita va usullari.

Oila deb atalmish muqaddas dargohni mustahkam bo`lishi jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda istiqlol yillarida oila institutini yanada takomillashtirish, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash masalalariga davlat siyosati darajasida e’tibor berildi. Mamlakatimizda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi – yani, yolg`iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo`lib qolgan va mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaqtinchalik O`zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a’zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan darig` emas. SHu ma’noda oila – inson o`z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o`zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir. [5, 3-s.]

Ota-onalarning vakolatlari, oilaviy ta’lim uslublari, oilaviy an’analar, bo‘sh vaqtni tashkil etish uslubi oilaviy tarbiyaning asosiy mexanizmlari hisoblanadi.

Oila an’analari (yoki oilaviy an’analar) *– oilaning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, avloddan avlodga meros sifatida o‘tish orqali oila a’zolarining ma’naviy shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-madaniy* hodisa [4, 118-b.].

Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (to‘y, yangi uyga ko‘chish marosimlari), sayillar, oilaviy an’analar (tug‘ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus hamda oliy ma’lumotga egalik to‘g‘risidagi attestat va diplom, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar oilaviy an’analarning o‘ziga xos ko‘rinishlari

bo‘lib, farzand tarbiyasini tashkil qilishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.


Farzandlarni oilaviy an’ana, qadriyat, urf-odatlari bilan tanishtirish orqali ularning bu jarayonlarda ishtirok etishi uchun sharoit yaratilsa, u holda oilaviy an’analarning tarbiyaviy ta’siri sezilarli darajada oshadi.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatini o‘rganish va tahlil qilish mazkur muhitda farzandlar tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi talablarni inobatga olish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi: ota-onalarning o‘z farzandlari, ularning xulq-atvori, ruhiyati, xarakteri to‘g‘risida yetarli bilimlarga ega bo‘lishi; farzandlarni ularning yosh, psixologik hamda fiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda oilaviy munosabatlar va faoliyat tizimida doimiy, faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish; ota-onalarning o‘zlarini o‘zlari, shuningdek, oilaviy munosabatlarni takomillashtirib borishi; farzandlarni ular balog‘atga yetishishdan boshlab, oilaviy hayotga tayyorlab borish.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini baholaganda, bolalarning xulq-atvori va ta’limini kuzatish, ota-onalarning tarbiyaviy faoliyati, oilalarga tashrif buyurish, oilalar va ularning o‘quvchilari bilan individual suhbatlar, bolalarni nazorat qilish va tekshirish, ota-onalar, shuningdek, bolaning yondashuvi nuqtai nazridan oilaviy munosabatlar mazmunini rasmlarda aks ettirish, ota-onalar va bolalarga “Tugallanmagan jumlalar” metodi bilan ishlashni taklif qilish kabi usullaridan foydalanish tavsiya etiladi [1].

Farzandlarning jismoniy, ruhiy va ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lib kamol topishlarida oilaning iqtisodiy ta’minlanganligi, ota-onalar hamda oilada yashovchi keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligi, oila a’zolarining o‘zaro va atrofdagilar (qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar, hamkasblar, tengdoshlar) bilan o‘zaro samimiy munosabati, ota-onalarning o‘z farzandlarining hayotiy intilishlari, xohish-istaklarini tushuna olishi, shuningdek, ularning muayyan qobiliyatga egaliklarini o‘z vaqtida anglashi, oilada mehnat taqsimotining to‘g‘ri, oqilona tashkil etilganligi, ota-onalar va keksa avlod vakillarining farzandlarga teng huquqlilik asosida munosabatda bo‘lishi, yoshligidan farzandlarni oilaviy hayotga har tomonlama tayyorlay olishi, ularda oila xo‘jaligini yuritish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratishi muhim ahamiyatga ega.

O‘z mohiyatiga ko‘ra oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari tashxislash quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi (1-rasm):



1-rasm. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini tashxislash yo‘nalishlari

topganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sog‘lom psixologik muhit mavjud bo‘lgan oila odatda “sog‘lom oila” deb nomlanadi.

Sog‘lom oilalarda, odatda, uning a’zolari bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi, har bir sub’ektning qiziqishlari, xohish-istaklaridan xabar bo‘linadi, ijobiy mazmunga ega hayotiy intilishlari o‘zaro qo‘llab-quvvatlanadi. Qolaversa, farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan oila an’analari shakllanadi. Oilaviy qadriyatlar ota-onalar, farzandlar, keksa yoshli oila a’zolari o‘rtasida hamjihatlik, ahillikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shaxslararo munosabatlar ma’naviy-axloqiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunday oilada har qanday zo‘ravonlik, kamsitish, huquqiy tengsizlik, kimgadir alohida imtiyoz berish kabi holatlar inkor qilinadi. Aksincha, oilaga taalluqli bo‘lgan barcha masalalar imkon qadar ota-onalar, oilaning keksa yoshli a’zolari o‘rtasida, ayrim holatlarda farzandlar ishtirokida o‘zaro maslahat asosida hal qilinadi. Odatda, sog‘lom oilaning a’zolari ijtimoiy jihatdan ham faol bo‘ladi. Eng muhimi, sog‘lom oilaning a’zolari ularning axloqan yetuk, jismonan, ruhan tetik bo‘lishlariga yordam beradigan odatlarni o‘zlashtiradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Kurbatova E.I. Vospitatelniy potensial semi // https://urok.1sept.ru/articles/ 412578.
2. Oila psixologiyasi / Prof. G‘.B.Shoumarov tahriri ostida. G‘.B.Shoumarov va b. – T.: “Sharq”, 2008. – 47-62-s.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / Darslik. M.X.Toxtaxodjayeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahr.ostida. – T.: “Moliya-iqtisod”, 2007. – 196-s.).
4. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met.qo‘ll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. – T.: TDPU, 2012. – 118-s.
5. Maxsudova M.A. Oila psixologiyasi. Namangan. O’quv qo’llanma. 2025 yil. 335-s

KASBIY MASLAHAT ZAMONAVIY KASBLARGA YO‘NALTIRISHNING MUHIM BOSQICHI SIFATIDA

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada kasb tanlashga yo‘naltirishning eng muhim bosqichi sifatida kasbiy maslahatning o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyati, maqsad va vazifalari, kasbiy maslahatni tashkil etishning asosiy bosqichlari, uni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbga yo‘naltirish, kasbiy maslahat, qiziqish, qobiliyat, dastlabki kasb-hunarga oid maslahat, axborot-ma’lumot maslahat, boshlang‘ich shakllantiruvchi maslahat, muvofiqlashtiruvchi maslahat, nazorat maslahati*

Аннотация: *В статье представлены мнения о специфике, важности, целях и задачах профориентационного консультирования как важнейшего этапа профессиональной ориентации, основных этапах организации профориентационного консультирования и требованиях к его организации.*

Ключевые слова: *профориентация, профориентационное консультирование, интерес, способность, первичное профориентационное консультирование, информационное консультирование, первичное формирующее консультирование, координационное консультирование, супервизорское консультирование.*

Abstract: *The article presents opinions on the specific features, importance, goals and objectives of career counseling as the most important stage of career guidance, the main stages of organizing career counseling, and the requirements for its organization.*

Keywords: *career guidance, career counseling, interest, ability, initial career counseling, informational counseling, initial formative counseling, coordinating counseling, supervisory counseling*

Yoshlarni kasbga yo‘naltirish shaxsning qiziqishlari, qobiliyati, jismoniy mkoniyatlarini hisobga olgan holda yoshlarning o‘z-o‘zini professional mahoratini aniqlashga qaratilgan – ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik-pedagogik va tiibbiy tadbirlar yig‘indisidir. Zamonaviy maktablarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni faol ijtimoiy mehnat faoliyatga va ongli kasb tanlashga tayyorlashdan iboratdir.

Kasbiy muammoga kompleks holda ijtimoiy-iqtisodiy, psixofiziologik, psixologik-pedagogik qarashlarni qo‘shib olib borgan holda yondashish kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy yondashish jamiyatning turli kasblarga bo‘lgan ehtiyoji, uning ravnaqi va kelajagini tahlil qilishga qaratilgan. Lekin, buning o‘zi yetarli emas. Har bir fuqaro qobiliyatiga qarab mehnat qilishi kerak. Xuddi shunday har bir o‘quvchi ham o‘ziga xos psixofiziologik xususiyatlarga moyillik va xarakterga ega bo‘ladi. Noto‘g‘ri kasb tanlash ma’naviy qoniqmaslik, faollikning yo‘qolishi, salomatlikning buzilishigacha olib kelishi mumkin. To‘g‘ri tanlangan kasb psixofiziologik xususiyatlarni takomillashuvini tezlashtiradi.

Kasbiy maslahat kasbga yo‘llashning mohiyatini inson ongiga chuqurroq singdirish uchun, shaxsning ishtiyoqi va qobiliyatlariga mos kasb – hunar (ixtisos) tanlashi uchun muhim ob’yektiv va sub’yektiv shart-sharoit yaratish jarayonidir. Kasb egallovchi (tanlovchi) ehtiyoji, o‘qituvchining kasbiy mas’uliyatidan kelib chiqqan holda ilmiy – amaliy xususiyatli yo‘llanmalar berish jarayonidir. Maslaxat o‘zining maqsadga yo‘nalganligi, izchilligi, ob’yektivligi, axborotlar bilan to‘yinganligi bilan boshqa asosiy qsmlardan keskin ajralib turadi.

Kasbiy maslahat individual tabiatga ega bo‘lib, ayrim talabalarga ular egallamoqchi bo‘lgan kasbning xususiyatlari va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri anglashga ko‘maklashishni nazarda tutadi. O‘quvchilarga kasb tanlash yuzasidan pedagog, shu soha (kasb) mutaxassis, shifokor, psixolog maslahat berishi mumkin. O‘quvchilar kasbiy maslahat olish chog‘ida nafaqat kasb to‘g‘risida, balki o‘z organizmi, o‘z xarakteri haqida ham mahlumotga ega bo‘ladi.

Kasbga yo‘naltirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari: kasblar to‘g‘risida ma’lumot, dastlabki kasbiy tashhis, kasb tanlashga oid maslahatlar, kasb-hunarga saralab olish, ijtimoiy-kasbiy muvofiqlik, kasbiy tarbiya kabilardan iborat.

Kasblar to‘g‘risida axborot berish o‘quvchilarni turli xil mehnat turlari, kasblar shajarasi, kasblarning o‘ziga xos xususiyatlari, xalq xo‘jaligi jumladan, ular yashayotgan hududning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlari, eng yaqin joylashgan kasb-hunar kollejlari va ularda tayyorlanayotgan mutaxassisliklar tavsifi bilan tanishtirishni o‘z ichiga oladi. Kasblar haqida tartibsiz ma’lumot bermaslik uchun o‘quvchilar oladigan bilimlarni ma’lum bir tizimga solish lozim. Kasblar haqida axborot berish o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.

Kasbga oid maslahatlarning maqsadi o‘quvchilarga o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim turini tanlashlariga yordam berishdan iborat bo‘lib, ularning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va boshqa xususiyatlarini o‘rganishga tayanadi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Dastlabki kasb-hunarga oid maslahatni sinf rahbari, o‘qituvchilar, psixolog-pedagoglar, mehnat ta’limi o‘qituvchilari amalga oshiradilar. Ular o‘quvchilarning

kasb-hunar tanlashga oid dastlabki mulohazalari bilan tanishadilar. Bu boradagi niyatlar o‘quvchilarning shaxsiy layoqatlari, qobiliyatlari, sog‘liqlariga qay darajada mos kelish-kelmasligini muhokama qiladilar. Muhokama xulosasi yakkama-yakka suhbat paytida o‘quvchilarga ma’lum qilinadi. Niyatning to‘g‘riligi ma’qullanadi yoki kasblarga oid axborot-ma’lumot natijalarini o‘rganish haqida maslahat beriladi.

Kasblarga oid axborot-ma’lumot maslahat dastlabki maslahat natijalariga qarab beriladi. Mazkur ma’lumotlar quyidagi yo‘nalishlarni o‘zida jamlaydi: kasblar tasnifi, kasblar ‘rofessiogrammalari, psixogrammalar, hududning qaysi kasblarga ehtiyoji borligi to‘g‘risidagi axborotlar. O‘quvchi ushbu ma’lumotlar asosida o‘zini qiziqtirgan, jamiyat uchun zarur bo‘lgan kasbni tanlaydi.

Kasbga oid boshlang‘ich shakllantiruvchi maslahatda o‘quvchining bundan oldingi bosqichlarga oid olgan bilimlari, mehnat va kasb ta’limiga doir dastlabki ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi va zarur maslahatlar beriladi.

Kasbga oid muvofiqlashtiruvchi maslahatda oldingi bosqichlarda o‘tkazilgan tadqiqot, tashhis natijalari va individual psixofiziologik xususiyatlariga qarab o‘quvchi tomonidan noto‘g‘ri tanlangan kasbiy ta’lim turidan uning shaxsiy ko‘rsatkichlari, kasb-hunarga yaroqliligi, layoqatiga mos kasb ta’limiga muvofiqlashtirish maslahatlari beriladi.

Kasbga oid shakllantiruvchi maslahat shaxsning kasb ta’limi turidan olayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni davom ettirish, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi yo‘nalishini tanlash va ma’lum bir mutaxassislikni egallash mazmuniga ega bo‘ladi.

Kasbga oid nazorat maslahatida yuqorida keltirilgan maslahat bosqichlari to‘g‘ri amalga oshirilgan-oshirilmaganligi, asosiy konsultatsiyada shakllantirilgan ko‘nikma va malakalar ixtiyoriy va majburiy ta’limda (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida) davom etayotganligi, ya’ni shu soha bo‘yicha ta’lim olayotganligi nazorat qilinadi. Agar soha bo‘yicha ixtiyoriy-majburiy ta’lim davom etmayotgan bo‘lsa, sabablari o‘rganilib, tahlil qilinadi va amaliy xulosalar chiqariladi.

Tadqiqotlarda shu narsa aniqlanganki, maktab o‘quvchilarining 50 foizi yakka tartibdagi kasb maslahatiga muhtoj bo‘ladilar. Bunday o‘quvchilarni quyidagilar tashkil qiladi:

- u yoki bu sabab bilan mustaqil kasb tanlay olmagan o‘quvchilar;
- ota-onalari bilan ziddiyat paydo bo‘lgan o‘quvchilar;
- o‘zi tanlagan kasb yo‘lining to‘g‘riligini isbot qilish istagida bo‘lgan o‘quvchilar;
- o‘sib-ulg‘ayishi va xulq-atvori murakkab tavsifiy xarakterga ega bo‘lgan o‘quvchilar.

Kasbga yo‘naltirishning tarkibiy qismlaridan biri kasb-hunarni tanlab olish, ya’ni biror kasbni nisbatan yaxshi o‘zlashtiradigan va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajaradigan shaxsni saralab olishdir.

Kasblar bo‘yicha maslahat berishning bir necha xillari mavjud bo‘lib ular bir biridan farq qiladi.

Ma’lumot-axborot beruvchi maslahatlar kasbni mazmuni bilan iloji boricha chuqurroq tanishtirishga qaratilgandir. U o‘quvcilarni o‘sha kasbni shaxsga nisbatan

qanday talablar qo‘yishi bilan tanishtiradi, bu kasbni qayerda, qanday qilib o‘rganish yo‘llarini, ishga joylashish imkoniyatlarini tushuntirib beradi.

Diagnostik kasb maslahati berish kishini har tomonlama o‘rganish asosida undagi qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan ayrim sifatlarni aniqlab o‘rganishga qaratilgandir. Diagnostik kasb maslahatini psixologlar o‘tkazadilar. Ular shaxsni o‘rganishning anketa to‘ldirish, testlar bilan sinash singari har xil metodlarini qo‘llaydilar.

Tibbiy kasb maslahati odamning salomatligi u tanlagan kasb talablariga qay darajada muvofiq kelishini aniqlab olishga yordam beradi. Agar inson mo‘ljallayotgan kasb qandaydir bir sabab bilan uning sog‘lig‘igiga to‘g‘ri kelmaydi, deb topilgudek bo‘lsa, u holda shifokor unga boshqa bir kasbni, ya’ni uning qiziqishi va salomatligiga zarar yetmaydigan kasbni tanlashga tavsiya qiladi.

Tuzatish kirituvchi kasb maslahati odam bir kasbni tanlasa-yu, lekin uning real imkoniyatlari va qobiliyatlariga o‘sha kasb muvofiq kelmagan hollarda bunday maslahat zarur bo‘ladi. Bunday vaziyatda kasbiy rejani qaytadan ko‘rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish zarur bo‘lib qoladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish o‘quvcilarni shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqishlari asosida hamda jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashga tayyorlash bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan, integral xususiyatga ega ilmiy-amaliy faoliyat sifatida kasbiy maslahat ishlari mazmun-mohiyatini zamonaviy innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirishni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зеер Э.Ф. Психология профессии. М., 2021,118 с
2. Kurbanova Z. Oribboyeva D. Mehnat va muhandislik psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. Namangan.”Usmon Nosir media” Namangan-2022, 220 b.
3. Салоҳиддинова М. Исхакова Г:.Меҳнат психологияси. Самарқанд-2021.78 б.

SHAXS KAMOLOTIDA HAYOTIY MAQSAD VA MA’NOGA INTILISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI VA ULARNING YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLARGA YO‘NALTIRISHDAGI ROLI

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna
Psixologiya kafedrasi
(PhD) katta o’qituvchi
Abdullayev Komronbek Ismoil o’g’li
Namangan davlat universiteti
1-kurs talabasi

Annotatsiya*: ushbu maqolada shaxs rivojlanishida hayotiy maqsad va ma’noga intilishning o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda insonning ruhiy salomatligi, shaxsiy o‘sishi va "ekzistensial vakuum" holatidan chiqishda hayot mazmunining ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Viktor Frankl va Abraham Maslou nazariyalari asosida shaxs kamolotining motivatsion asoslari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: shaxs kamoloti, hayot ma’nosi, logoterapiya, ekzistensial inqiroz, o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya, qadriyat, psixologik barqarorlik.*

Аннотация*: в данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль стремления к жизненной цели и смыслу в развитии личности. В исследовании рассматривается значение смысла жизни для психического здоровья, личностного роста и выхода из состояния «экзистенциального вакуума». Также на основе теорий Виктора Франкла и Абрахама Маслоу освещаются мотивационные основы развития личности.*

Ключевые слова*: развитие личности, смысл жизни, логотерапия, экзистенциальный кризис, самопознание, мотивация, ценность, психологическая устойчивость.*

Abstract*: This article analyzes the role of striving for life purpose and meaning in personality development from a scientific and theoretical perspective. The study examines the importance of the meaning of life for mental health, personal growth, and overcoming the "existential vacuum" state. Furthermore, the motivational foundations of personality development are highlighted based on the theories of Viktor Frankl and Abraham Maslow.*

Keywords*: personality development, meaning of life, logotherapy, existential crisis, self-awareness, motivation, value, psychological stability.*

Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan globallashuv va jadal texnologik taraqqiyot davrida insoniyat nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki chuqur psixologik muammolarni ham boshdan kechirmoqda. Axborot oqimining cheksizligi va ijtimoiy tarmoqlar yaratayotgan sun’iy turmush tarzi ko‘p hollarda yoshlarda "ichki bo‘shliq" va maqsadsizlik hissini keltirib chiqarmoqda. Zamonaviy psixologiya fanida shaxs kamoloti masalasi faqatgina bilimlarni egallash yoki ijtimoiy mavqega erishish bilan emas, balki insonning o‘z mavjudligini anglagan holda muayyan bir g‘oya yoki oliy maqsad atrofida birlashishi bilan izohlanadi.

Hayotning ma’nosi tushunchasi insoniyat tarixida har doim markaziy o‘rinni egallab kelgan. Biroq, bugungi kunda bu tushuncha shunchaki falsafiy mulohaza emas, balki shaxsning ruhiy immun tizimini mustahkamlovchi va uni turli ekzistensial inqirozlardan asrovchi fundamental psixologik omil sifatida qaralmoqda. Shaxs kamoloti jarayonida insonning o‘z "Mening"ini anglashi va hayotiy yo‘nalishlarini aniq belgilab olishi uning ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi. Mazkur maqolada shaxs rivojlanishining motivatsion asoslari, xususan, hayot ma’nosiga intilishning psixologik determinantlari gumanistik va ekzistensial psixologiya nazariyalari asosida keng tahlil etiladi.

Viktor Frankl va Logoterapiya nazariyasi. psixologiya fanida hayot ma’nosi masalasini tizimli ravishda tadqiq etgan olimlardan biri Viktor Frankl hisoblanadi. U o‘zining "logoterapiya" (ma’no orqali davolash) nazariyasida inson tabiatiga xos bo‘lgan fundamental intilishni ochib bergan. Franklning fikricha, insonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi Z. Freyd aytganidek "rohatlanishga intilish" yoki A. Adler ta’kidlaganidek "hokimiyatga intilish" emas, balki aynan "ma’noga intilish"dir.

Frankl konsepsiyasiga ko‘ra, hayotiy ma’no inson tomonidan kashf etilishi kerak bo‘lgan reallikdir. Inson hayotida ma’noni uchta asosiy yo‘l orqali topishi mumkin:

1. Ijodiy faoliyat: Inson biror narsa yaratishi, mehnat qilishi yoki o‘z faoliyati orqali jamiyatga foyda keltirishi.
2. Hissiy tajribalar: Tabiat go‘zalligidan bahramand bo‘lish, san’at asarlarini his qilish yoki boshqa bir shaxsni sevish orqali ma’no topish.

3. Matonat va munosabat: Inson o‘zgartira olmaydigan qiyinchiliklar, azob-uqubatlar yoki taqdir zarbalariga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishi orqali ichki ma’noni kashf etishi.

Ushbu yo‘nalishlar shuni ko‘rsatadiki, hatto eng og‘ir vaziyatlarda ham inson o‘z hayoti uchun ma’no topishga qodir. Shaxs kamoloti aynan mana shu mas’uliyatni his qilish va hayotning har bir onidan mazmun qidirish jarayonida shakllanadi.

Abraham Maslou: Ehtiyojlar Iyerarxiyasi va Samorealizatsiya

Gumanistik psixologiyaning yirik vakili Abraham Maslou inson kamolotini uning ehtiyojlari qondirilishi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, insonning quyi darajadagi fiziologik va xavfsizlik ehtiyojlari qisman bo‘lsa-da qondirilgandan so‘ng, unda oliy darajadagi ehtiyoj - o‘z-o‘zini namoyon qilish (samorealizatsiya) ehtiyoji yuzaga keladi.

Samorealizatsiya - bu shaxsning o‘z salohiyatini, iste’dodi va imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishga intilishidir. Maslou tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, samorealizatsiya darajasiga yetgan shaxslar hayotiy maqsadlari aniqligi, ijodkorligi, o‘ziga va o‘zgalarga nisbatan yuqori darajadagi bag‘rikengligi bilan ajralib turadilar. Maqsadga intilish jarayoni inson faoliyatini tartibga solibgina qolmay, uning ichki resurslarini ham faollashtiradi. Shaxs kamoloti bu doimiy o‘sish jarayoni bo‘lib, unda hayotiy maqsad insonni yangi cho‘qqilar sari undovchi asosiy motiv bo‘lib xizmat qiladi.

Ekzistensial Vakuum va Shaxsning Psixologik Barqarorligi. Inson o‘z hayotida mazmun va maqsadni yo‘qotgan taqdirda "ekzistensial vakuum" (ichki bo‘shliq) holatiga tushib qoladi. Bu holat bugungi kun yoshlari orasida ko‘pincha apatiya, loqaydlik, tushkunlik va agressiv xulq-atvor ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, hayotiy maqsadga ega bo‘lmagan insonlar tashqi stress omillariga nisbatan o‘ta zaif bo‘ladilar.

Aksincha, o‘z hayotida aniq maqsad va ma’noga ega bo‘lgan shaxslar psixologik jihatdan barqarorroq bo‘lib, hayotiy qiyinchiliklarni muammo sifatida emas, balki shaxsiy o‘sish uchun imkoniyat sifatida qabul qiladilar. Psixologik barqarorlikning asosi ham aynan hayotning mazmun bilan to‘lib-toshganligidadir.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aniq maqsadga ega bo‘lgan yoshlar kasb tanlashda ongli va mas’uliyatli yondashadi. Ular o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari hamda jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda zamonaviy va istiqbolli kasblarni tanlashga moyil bo‘ladi. Aksincha, hayotiy maqsadi yetarli darajada shakllanmagan yoshlar ko‘pincha tasodifiy yoki noto‘g‘ri kasb tanlash holatlariga duch keladi.

Hayotiy ma’no izlash jarayoni esa shaxsning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu esa yoshlarning ilm-fanga, texnologiyalarga va innovatsion faoliyatga qiziqishini oshiradi. Shu jihatdan, mashhur psixolog Viktor Frankl ta’kidlaganidek, inson hayotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi – bu ma’no izlashdir. Aynan shu omil shaxsni faol, izlanishga moyil va rivojlanishga intiluvchan etadi.

Shunday qilib, yoshlarni zamonaviy kasblarga samarali yo‘naltirish uchun ularning hayotiy maqsadlarini shakllantirish, o‘zini anglash darajasini oshirish va

ichki motivatsiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim tizimida psixologik yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Muloqot uslublari: Birinchi uslub asosini pedagogning yuqori kasb etikasi (axloqi) tashkil etadi. Bu uslub haqida M.O. Knebel, I.P. Volkov, V.F. Shatalovlar o‘z fikrlarini bildirganlar. Ulaming fikricha, bolalar bilan bo‘ladigan munosabat va pedagogik hissiyotlar mana shu uslub asosida shakllanadi.

Ikkinchi uslub asosan do'stona munosabatlar, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Do'stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta’minlaydi. Maroqlilik bilan do'stona munosabat birgalikda rivojlanadi. Pedagog bir tomondan bolalar uchun yaqin o‘rtoq, ikkinchi tomondan birgalikdagi faoliyat qatnashchisi bo'lishi lozim. Uchinchi uslub, ya’ni masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Pedagog bilan o'quvchi o'rtasida muayyan masofa bo'lishi kerak. Masofa juda uzoq bo'lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchilik kuchayib, ijodiylik muhiti shakllanmaydi. Pedagog masofani saqlasa obro‘-e’tibori ortadi.

To‘rtinchi uslub - qo'rqitish asosidagi muloqot bo‘Iib, bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba’zi pedagoglar o‘quvchilarni qo'rqitish orqali muloqotda bo‘ladilar. Chunki ularda pedagogik mahorat yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Ayniqsa, katta auditoriyada ma’ruza o'qiydigan ma’nizachilar auditoriyani shu uslub asosida boshqaradilar. Juda qattiq turib, tinglovchilarni qo‘rqitib pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshiraman, deb hisoblovchilar yanglishadi. Bu o'zaro tushunishga to'sqinlik qiladi. Beshinchi uslub - soxta obro‘-e’tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo'lib, yosh o'qituvchilar malakasi yetarli bo'lmagani uchun yolg'on ishlatadilar. Bu bilan o'qituvchi o‘quvchi bilan tezroq muloqotda bo‘lib olishga harakat qiladi [4,899-s]

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, shaxs kamoloti to‘g‘ridan-to‘g‘ri hayotiy ma’no va maqsadning aniqligi bilan bog‘liq. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ko‘p hollarda inson uchun hayot ma’nosi tayyor bir yechim emas, balki aynan ma’noni izlash jarayonining o‘zidir. Bu izlanish shaxsni doimiy harakatga, o‘z-o‘zini anglashga va ichki kamolotga undovchi asosiy kuch bo‘lib xizmat qiladi. Maqsad inson faoliyatini tartibga soladi, unga kuch beradi va shaxsni tashqi muhitning salbiy ta’sirlaridan himoya qiladi. Kelajakda ushbu mavzu doirasida talabalar o‘rtasida empirik so‘rovnomalar o‘tkazish orqali amaliy natijalarni yanada boyitish ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Frankl V. E. Man’s Search for Meaning. (Insonning **ma’no** izlashi) – Boston: Beacon Press, 2006. - 165 p. (b.).
2. Маслоу А. Мотивация и личность. (Motivatsiya va shaxsiyat) – М.: "Питер", 2013. - 448 с. (b.).
3. Karshibaeva G.A. Psixologiya tarixi. - T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – 256 b.
4. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1961. - 448 p. (b.).
5. Turgunboeva Azizakhon, Mahsudova Mutabarhon,Vaxabova Nasibaxon, Badritdinova Madina, Makhmudov Abdurasul// Ethnic stereotypes, cognitive style and mutual classification of national characteristics of an individual// International Journal of Early Childhood Special Education

NOGIRONLIGI BO‘LGAN O‘SPIRINLARNI KASB-HUNARGA YO’NALTIRISH

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti
Xolmatjonova Muattarxon Nurmuhammad qizi
NamDU psixologiya yo‘nalishi 4 kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlarni zamonaviy kasblarga qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan o‘spirinlarning shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni kasb-hunarga yo’naltirishning psixologik xususiyatlari yoritilgan. Kasbga yo‘naltirish mexanizmlari, motivatsiya va ijtimoiy moslashuv omillari ko‘rib chiqilgan hamda tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*. zamonaviy kasblar, qiziqish, qobiliyat, psixologik tashxis, kasbiy yo‘naltirish, nogironlik, o‘spirinlar, shaxsiy salohiyat, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv*

Аннотация. *В данной статье рассматриваюця теоретические и практические аспекты выявления и развития интересов и способностей молодежи к современным профессиям. Также анализируюця психологические особенности реализации личностного потенциала подростков с ограниченными возможностями. В ходе исследования освещены методы психологической диагностики, механизмы профессиональной ориентации, факторы мотивации и социальной адаптации, а также предложены научно-практические рекомендации.*

Ключевые слова*. молодежь, современные профессии, интерес, способности, психологическая диагностика, профессиональная ориентация, инвалидность, подростки, личностный потенциал, мотивация, социальная адаптация*

Annotation. *This article examines the theoretical and practical aspects of identifying and developing young people’s interests and abilities for modern professions. It also analyzes the psychological characteristics of realizing the personal potential of adolescents with disabilities. The study covers psychological diagnostic methods, career guidance mechanisms, factors of motivation and social adaptation, and provides relevant scientific and practical recommendations.*

Keywords. *modern professions, interest, abilities, psychological assessment, career guidance, disability, adolescents, personal potential, motivation, social adaptation*

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti yoshlarimizning kasbiy yo‘nalishini to‘g‘ri tanlashi, ularning qobiliyat va qiziqishlarini aniqlash hamda rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, zamonaviy kasblarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir davrda yoshlarning individual xususiyatlarini o‘rganish va yo‘naltirish hamda yonaltirish mobaynida yoshlarning nafaqat individual xususiyatlarini qoshimcha qilib salohiyati rivojlantirishda sog`ligi sharoitlarini ham inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan o‘spirinlarning ham shaxsiy salohiyatini ochib berish, ularni jamiyatga moslashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Yoshlarning zamonaviy kasblarga qiziqishini shakllantirishda avvalo ularning psixologik xususiyatlarini tashxis qilish muhim ahamiyatga ega . Bunda psixologik testlar, kuzatuv va diagnostic, suhbat metodlardan foydalaniladi. Har bir yoshning qobiliyati, temperament tipi, qiziqish doirasi va intellektual salohiyati aniqlanib, unga mos kasb tanlash tavsiya etiladi. Zamonaviy kasblar, xususan, marketing,

dizayn, muhandislik kabi yo‘nalishlar yoshlar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Va nogironli bolgan yoshlarda inkuliziv talim dasturida talim oluvchi imkoniyati cheklangan yoshlarimiz ortasida IT va shu kabi zamonaviy kasblarni rivojlantirish zarur. Bu o`rganishlar kasblar nogironligi bo‘lgan o‘spirinlarga jamiyatga qoshlishi o`z kelajagini qurishida yordam beradi. Shuning uchun bugungi kunda yoshlarimiz xususan nogironligi bo‘lgan imkoniyati cheklangan yoshlarimizni qobilyatlaridan kelib chiqib sog`lom jamiyat hayotiga qoshishimiz lozim, buning uchun ularning qobilyatlarini, imkoniyat darajalarini keng va chuqur organishimiz, bacha zarur sharoitlarni yaratishimiz lozim bo’ladi.

Qobiliyatlarni rivojlantirish esa uzluksiz jarayon bo‘lib, bunda ta’lim tizimi, oila va ijtimoiy muhit asosiy muhim rol o‘ynaydi. Amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, kasbiy yo‘naltiruvchi dasturlar yoshlarning o‘z ustida ishlashiga yordam beradi. Ayniqsa, kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Nogironligi bo‘lgan o‘spirinlarda esa bu jarayon yanada nozik yondashuvni talab etadi. Ularning psixologik holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, motivatsiyasi alohida e’tiborni talab qiladi. Ko‘pincha bunday o‘spirinlarda o‘zini past baholash, ijtimoiy cheklanish hissi kuzatiladi. Shu sababli ularga psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv dasturlari va individual yondashuv zarur. O’spirinda o’zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati hamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. O’z xulq-atvorini jilovlash, his-tuyg’ulari hamda ichki kechinmalarini tushunish ishtiyoqi vujudga kela boshlaydi. O’spirin o’zining ezgu niyatini baholashga jamoada o’z o’rnini belgilash nuqtai nazardan yondashadi, chunonchi “O’zim tanlagan, mutaxassislikka yaroqlimanmi?” “ota-onamga munosib farzand bo’la olamanmi?” “Jamiyatning taraqqiyotiga o’z ulushimni qo’sha olamanmi?” degan savollarga javob qidiradi.

O’spirin o’quvchilarning o’zini o’zi tarbiyalashi maktabda jamoatchilik tashkilotlarining, pedagog va psixologlar jamoasining tarbiyaviy ta’siri doirasida amalga oshishi shart. Kunimizda bunday muammolar yechimi sifatida imkoniyati cheklangan shaxslar uchun inkluziv ta`lim birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo’lganlarga qoshimcha davlat grantlari, stependiyalar, ish orinlari joriy etilgan. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning maktabdan tashqari ta’limi bolalar, o‘smirlar ijodiyot saroylari, uylari, klublari va markazlarida, “Barkamol avlod” bolalar maktablarida, bolalar-o‘smirlar sport maktablarida, bolalar musiqa va san’at maktablarida, studiyalarda, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalarida amalga oshiriladi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning oliy ta’limi oliy ta’lim muassasalarida va tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Imkoniyati cheklangan nogironligi bo‘lgan shaxslarning oliy ta’limdan keyingi ta’limi oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda olinishi mumkin. Statsionar davolash-profilaktika yoki reabilitatsiya muassasalarida davolash kursini o‘tayotgan nogironligi bo‘lgan bolalar uchun mazkur muassasalarda o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etiladi. Vazirlar Mahkamasining 405-sonli Qaroriga muvofiq **2025-yil 1-iyundan boshlab** Ijtimoiy himoya davlat jamg‘armasidan har bir nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan yoki ushbu shaxslarni ishga qabul qilinishiga ko‘maklashgan tadbirkorlik subyektlariga subsidiya ajratilishi belgilangan. 2025-yil

1-iyundan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida ushbu subsidiya ajratilishi boshlangan. 2026-yil 1-yanvardan boshlab qolgan hududlarida ham subsidiya ajratilishi reja qilingan. Mehnat qonunchiligida nogironligi bo‘lgan xodimni rasman ishga qabul qilish tartibi, boshqa fuqarolarni ishga qabul qilish tartibidan farq qilmaydi. Faqat bunda alohida jihat shuki, ushbu shaxslar uchun qonunchilikda alohida imtiyozlar belgilangan. Ushbu imtiyozlardan foydalanish uchun, xodim ish beruvchiga barcha hujjatlar bilan bir qatorda nogironlik ma’lumotnomasini ham taqdim etishi lozim. Ayni usha hujjat asosida ish beruvchilar ushbu shaxsning mehnat qonunchiligida belgilangan imtiyozlardan foydalanishlarini ta’minlaydi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar va boshqa fuqarolar bilan tuziladigan mehnat shartnomasi muayyan muddatga (3 yilgacha bo’lgan davr uchun) va nomuayyan muddatga tuzilishi mumkin. Muayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi tuzish tartibi qonunchilikda belgilangan bo‘lib, alohida hollarda tuziladi. Shuningdek ish beruvchi va xodimning o‘zaro kelishuvi asosida muayyan muddatga tuzilishi mumkin. Muddat tugagach qonunchilikka asosan mehnat shartnomasi bekor bo‘ladi. Boshqa hollarda mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga tuziladi va mazkur shartnomani qonunda belgilangan tartiblardan tashqari ish beruvchi tashabbusi bilan bekor qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu o‘z navbatida nogironligi bo’lgan xodimlarning mehnat huquqlarini ta’minlashga qaratilgan.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalaning, oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so ‘ng o ‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta’minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson shakllanadi va bu shakillanish jarayonida psixolog ko’magi zarur

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni zamonaviy kasblarga qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida mehnat bozori talablari keskin o‘zgarib borayotganligi sababli, yoshlarning kasbiy yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik tashxis metodlari orqali yoshlarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va salohiyatini aniqlash imkoniyati mavjud. Shu asosda ularga mos kasbiy yo‘nalishlarni tavsiya etish va rivojlantirish samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan o‘spirinlarda shaxsiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun individual yondashuv, qo‘llab-quvvatlovchi muhit va maxsus psixologik treninglar muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar, kasbga yo‘naltirish dasturlari va amaliy mashg‘ulotlarni keng joriy etish yoshlarning zamonaviy kasblarga moslashuvini ta’minlaydi. Natijada, jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqara oladigan mutaxassislar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
2.G‘oziev E.G‘. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
3.Qodirov B.R. Kasb psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2010.

YANGI O‘ZBEKISTONDA TALABALARNI ILM-FAN VA INNOVATSION KASBLARGA YO‘NALTIRISHDA O‘QUV MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna
NamDU katta o’qituvchi (PhD)
Po’latov Jaxongir Avazbek o’g’li,
NamDU psixologiya yo’nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya*: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga yo‘naltirish jarayonida talabalar o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik asoslari tahlil qilinadi. Har bir o’quvchining talaba bo’lishidan avval uning hayotida motivlar kurashi yuzaga keladi. Ushbu kurashda uning qobilyati qiziqishi layoqati individual salohiyati o’zini ko’rsatib unga kasb hunar tallashdagi ustuvorlikni belgilab beradi.Tadqiqotda motivatsiya tushunchasining nazariy yondashuvlari, uning turlari hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, talabalarni ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatga jalb etishda ichki va tashqi motivatsiya omillarining o‘rni ochib beriladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi talabalarning o‘quv faoliyatidagi motivatsiyasini oshirish yo‘llarini aniqlash va psixologik yordam ko‘rsatish metodlarini tajribaviy sinashdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *o‘quv motivatsiyasi, psixologik yordam, innovatsiya, zamonaviy kasblar, ilm-fan, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, oliy ta’lim. treninglar, innovatsion metodlar*

Abstract: *This article analyzes the psychological foundations of developing students’ learning motivation in the process of guiding youth in New Uzbekistan toward modern professions based on science and innovation. Before becoming a student, each individual experiences a conflict of motives in their life. In this process, their abilities, interests, aptitudes, and individual potential manifest themselves and determine priorities in choosing a profession.The study examines theoretical approaches to the concept of motivation, its types, and its significance in the educational process. It also reveals the role of intrinsic and extrinsic motivational factors in engaging students in scientific, technical, and innovative activities. The aim of this research is to identify ways to enhance students’ motivation in learning activities and to experimentally test methods of providing psychological support.*

Keywords: *learning motivation, psychological support, innovation, modern professions, science, intrinsic motivation, extrinsic motivation, higher education, training sessions, innovative methods.*

Аннотация: *В данной статье анализируются психологические основы развития учебной мотивации студентов в процессе ориентации молодежи в Новом Узбекистане на современные профессии, основанные на науке и инновациях. До того, как стать студентом, каждый человек в своей жизни сталкивается с борьбой мотивов. В этом процессе проявляются его способности, интересы, склонности и индивидуальный потенциал, которые определяют приоритеты при выборе профессии. В исследовании рассматриваются теоретические подходы к понятию мотивации, ее виды и значение в образовательном процессе. Также раскрывается роль внутренних и внешних мотивационных факторов в привлечении студентов к научно-технической и инновационной деятельности. Целью данного исследования является выявление путей повышения мотивации студентов в учебной деятельности, а также экспериментальная апробация методов оказания психологической помощи.*

Ключевые слова: *учебная мотивация, психологическая поддержка, инновации, современные профессии, наука, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, высшее образование, тренинги, инновационные методы.*

Motiv - inson xulq atvorini ichki barqarorligi harakatga undovchi tushunchadir. Motivatsiya esa xulq atvorning psihologik va fiziologik boshqarishningdinamik jarayoni,motivlar yig'indisi bo'lib utashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab quvatlash kiradi. Yani motivatsiya insonni kelajakdagi hayotida kim bo'lishini ham belgilab beradi. Yosh hususiyatidan kelib chiqqan holda o'quv motivlari turli osh davrlarida turlicha bo'ladi bu esa har bir yoshga bog'liq yondashuvni talab etadi [1]. O'quv motivatsuiyasining manbalari ichki va tashqi manbalar bo'lib, bunda ichki manbalarinsonni tug'ma yoki ortirilgan extiyojlari bilan belgilanadi. Tashqi manbalar esa bu ijtimoiy shart sharoitlar bilan belgilanib keladi. Bu manbalardan yana biri shahsiy manbalar hisoblanib bushaxsning qadriyatlarga bo'lgab ustanovkalari, g'oyalaridir. V. A Krutetskiy o'smirlarda uchraydigan motivlarni quyidagicha belgilaydi:

a) biror o'quv faniga qiziqish
b) vatanga foyda keltirish istagi
c) shaxsiy qobilyatni ro'karch qilish
d) oilaviy ananalarga rioya qilish
e) do'st birodarlarga ergashish
f) moddiy taminlash va xokozolar.

Motivatsiyani rivojlantirish uchun quyidagi psixologik metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. Tajriba va amaliyot metodlari: amaliy mashg'ulotlar, mashq qilish va ishlab chiqarishga jalb qilish.
2. Ko'rgazmali namoyish metodlari: kuzatish va amaliyot o'tkazish.
3. Og'zaki so'z orqali ta'lim metodlari: tushuntirish, suhbat, ma'ruza, munozara va yo'l-yo'riqlar berish.
4. Kitob bilan ishlash: o'qish, sitatalarni tahlil qilish, referatlar yozish.
5. Video va kompyuter metodlari: kompyuterda mashqlar, testlar, internetdan foydalanish, o'quv filmlarini namoyish etish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu metodlar yordamida talabalarning o'quv motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi, ta'lim jarayonining samaradorligi kuchayadi. Shuningdek, motivatsiyani oshirishda talabalar qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir.

O'quv jarayonida talabaning motivatsiyasini yuqori darajada saqlash uni muvaffaqiyatga yetaklaydi. Ta'limning samaradorligi ko'pincha o'quvchining ichki motivatsiyasi bilan belgilanadi. Psixologik yordam berish orqali talabalar o'z ichki qobiliyatlarini anglab, maqsad sari intilish qobiliyatini oshiradilar. Psixologiya kasbi talabalar motivatsiyasini chuqur tahlil qilish, individual xususiyatlarni o'rganish va o'quv jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beradi. Kasbiy psixologik yordam esa talabalar bilan individual va guruh terapiya, maslahatlashuvlarni o'z ichiga oladi. Bu yordam ta'limdagi stress, bezovtalik kabi salbiy holatlarni kamaytiradi va rivojlangan o'z-o'zini boshqarish strategiyalarini shakllantiradi.

S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega:

Yo‘nalganlik – ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e’tiqodlar faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi. Bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar – hayot va faoliyat jarayonida egallanadi (7.28-s)

O‘z-o‘zini anglashning yana bir xususiyati shundan iboratki, uning ijtimoiylashuv jarayonida rivojlanishidir. Bunday rivojlanish nazorat etiladigan, faoliyat va muloqot diapozonining kengayishi sharoitida ijtimoiy tajribani muntazam egallash orqali aniqlashtirilib boriladigan jarayondir. O‘z-o‘zini anglash shaxsdagi chuqur, intim xarakteristikalariga mansub bo‘lib, uning rivojlanishi faoliyatdan tashqarida amalga oshmaydi. Shaxs faqat faoliyat jarayonidagina o‘zining o‘zi haqidagi tasavvurlar bilan atrofdagilarning u haqidagi tasavvurlarini taqqoslab boradi, kerak bo‘lsa, “korreksiyalaydi”. Shaxsning o‘z-o‘zini anglash sohasi – bu "Men" obrazining yil sayin o‘zgarib borish jarayoni bo‘lib, bu jarayon davomida shaxs dastlab o‘zining boshqalardan farqli jihatlarini anglash bilan birga, o‘zini ko‘rsatishga harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini ham anglashga harakat qiladi. Undan so‘ng, shaxsda o‘z-o‘zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, bular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. (7.44-s)

Bir qancha psixolog olimlar motiv va motivatsiya tushunchani ochib berishga harakat qildilar va bu borada turli izlanishlar olib borishdi. Jumladan, Z.Freyd motivning qonun-qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv – bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir. S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to‘g‘risida quyidagi mulohazalarni bildiradi: motivatsiya – bu psixika orqali hosil bo‘ladigan determinatsiyadir; motiv – bu shaxs xulq-atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog‘lovchi sub’ektiv tarzda aks etish demakdir.

Vigotskiyning motivatsiya va rivojlanish haqidagi fikrlari bolalarning o’qish va o’rganish jarayonida ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarni hisobga olish zarurligini ko’rsatadi. Uning nazariyasi bo’yicha, bola faqat o’zini rivojlantirish uchun imkoniyatga ega bo’lganda va bu rivojlanish ijtimoiy yordam bilan amalga oshirilganda eng yuqori motivatsiyaga erishadi. Bu bolalar uchun yangi maqsadlar va yutuqlarga erishishga ilhom beruvchi muhit yaratadi. Shuning uchun ham kichik maktab yoshi davrida bolani ota-onasi hamda ustozlari tomonidan qo’llab quvatlanishi ham kelajakdagi yutuqlarida juda muhim hisoblanadi.

S.L. Rubinshteyn motivning psixologik mohiyatini psixika orqali hosil bo’ladigan determinatsiya, ya’ni xulq-atvorning kognitiv jarayon orqali tashqi olam bilan bog‘lanishi deb ta’riflaydi. Bu ta’rif motivning ichki psixologik va tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasini aniq ko‘rsatadi.

L. Vigotskiyning nazariyasi motivatsiya va rivojlanishning ijtimoiy-madaniy kontekstda shakllanishini ko‘rsatadi. Bola motivatsiyasini oshirish uchun atrofdagi muhit, ota-ona va ustozlarning qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Vgotskiy fikricha, o’z-o’zini rivojlantirish imkoniyatlari berilganida bola eng yuqori motivatsiyani namoyon etadi. Shuning uchun maktab yoshidagi bolalarni ijtimoiy va psixologik jihatdan qo’llab-quvvatlash ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarurdir. Mashur nemes olimi Kurt Levin motivlar muammosini

shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasidakatta keng qamrovlitadqiqotlar olib boribshu narsani aniqladiki, har bir odamo'ziga xos tarzdau yoki bu vaziyatni idrok qilishva baxolashga moyil bo'ladi [2].

Tadqiqotda ko‘rsatilgan psixologik metodlar ham motivatsiyani oshirishda samarali hisoblanadi. Tajriba va amaliyot metodlari talabaning faol ishtirokini ta'minlab, o'z bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llashga imkon yaratadi. Ko‘rgazmali namoyish metodlari esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va tushunarli qiladi. Og'zaki so‘z orqali ta'lim metodlari (ma'ruza, suhbat, munozara) talabalarni fikr almashishga, tanqidiy mulohaza yuritishga undaydi. Kitob bilan ishlash esa mustaqil o'qish va tahlil qobiliyatlarini rivojlantiradi. Video va kompyuter metodlari zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga singdirib, motivatsiyani oshirishda samaradorlikni yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, motivatsiyani oshirishda talabalar qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish psixologik yordam samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari psixologik yondashuvlar va innovatsion metodlar yordamida o‘quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshirish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishiiz mumkinki Nishonova Z.T.ning «Rivojlanish psixologiyasi» asarida ta'kidlanganidek, motivatsiya — bu inson xulq-atvorini tashkil etuvchi ichki dinamik jarayon bo'lib, yosh xususiyatlariga qarab o'zgaradi va o‘quvchilarning talablariga moslashish zarur. V. A. Krutetskiyning motivlar toifalari esa yoshlar o‘rtasidagi motivatsiyaning asosiy omillarini aniq ko‘rsatadi, bu esa individual yondashuvni taqozo etadi.

Lev Vgotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi motivatsiya va rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi, bu esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ta'limda motivatsiyani oshirishdagi o‘rni muhimligini ko‘rsatadi. Kurt Levinning tadqiqotlari esa motivlarning shaxsiy ijtimoiy xulq bilan chambarchas bog‘liq ekanini isbotlaydi. Psixologik yordam shakllari sifatida treninglar, amaliy mashg‘ulotlar, ko‘rgazmali namoyishlar, og'zaki ta'lim metodlari, kitob bilan ishlash hamda video va kompyuter texnologiyalari samaradorligi tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Ushbu metodlar talabaning faolligini oshirib, o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, talabaning qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda motivatsiyani rivojlantirish psixologik yordam samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari trening va innovatsion metodlar yordamida motivatsiyani sezilarli darajada oshirish, ta'lim jarayonining sifatini kuchaytirish mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvlar ta'limda samaradorlikni oshirish va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi, shuning uchun jamiyat va ta'lim tashkilotlari uchun jiddiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagoik psixologiya, 478-bet.
2.F.I. Xaydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya darslik.
3.V.A. Krutetskiy. O‘smirlarning motivlari haqida ilmiy tadqiqotlar.L.S. Vgotskiy. Pedagogik psixologiya va rivojlanish nazariyasi.
4.Z.Qodirova, N.Vaxabova, D.Rahimova Oila pedagogikasi. //O'quv qo'llanma//Namangan-2023// b-214.

6. Ibragimova Sh.G., Muxammadjonova X.X. // SCIENTIFIC PREGRESS. Volume 2, 2021. Pp, 501-505.
7. Maxsudova M.A. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. Namangan. 2025 yil."Sunrise-Pro" nashriyoti.

PSIXOLOGLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YO'NALISHLAR

Mansurova Gulmira Rafaelovna
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
Jaloldinova Nigina Nodirbek qizi
Namangan davlat universiteti
Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada psixolog mutaxassislarni tayyorlash tizimida zamonaviy yondashuvlar, xususan kompetensiyaviy ta'lim modeli, raqamli texnologiyalar integratsiyasi, evidence-based training (dalillarga asoslangan tayyorgarlik), refleksiv va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim hamda transdisiplinar yondashuvlar tahlil qilinadi. Psixologlarni professional tayyorlash sifatini oshirishda xalqaro tajriba va zamonaviy pedagogik paradigmalarning o'rni yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *psixologlarni tayyorlash, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim, evidence-based training, refleksiv amaliyot, professional kompetensiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируются современные подходы в системе подготовки специалистов-психологов, в частности, модель компетентностного образования, интеграция цифровых технологий, evidence-based training (подготовка, основанная на доказательствах), рефлексивное и практико-ориентированное образование, а также трансдисциплинарные подходы. Освещается роль международного опыта и современных педагогических парадигм в повышении качества профессиональной подготовки психологов.*

Ключевые слова: *подготовка психологов, компетентностный подход, цифровое образование, evidence-based training, рефлексивная практика, профессиональная компетентность.*

Annotation: *This article analyzes modern approaches in the system of training psychological specialists, specifically the competency-based education model, digital technology integration, evidence-based training, reflexive and practice-oriented education, and transdisciplinary approaches. The role of international experience and modern pedagogical paradigms in improving the quality of professional training for psychologists is highlighted.*

Keywords: *training of psychologists, competency-based approach, digital education, evidence-based training, reflexive practice, professional competence.*

XXI asrda oliy ta'lim tizimining transformatsiyasi psixolog mutaxassislarni tayyorlash mazmuni va metodologiyasini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlari murakkablashib borayotgani, raqamli muhit kengaygani va psixologik xizmatlarga talab ortgani sababli an'anaviy bilim uzatishga asoslangan model zamonaviy talablarga to'liq javob bermay qolmoqda.

Bugungi kunda psixologni tayyorlash faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki professional kompetensiyalarni shakllantirish, amaliy faoliyatga tayyorlash, ilmiy fikrlash va refleksiv tahlilni rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Shu bois psixologik ta’limda innovatsion va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda [4].

Kompetensiyaviy yondashuv — zamonaviy tayyorlovning asosiy paradigmasi. So‘nggi yillarda psixologik ta’limda kompetensiyaviy model ustuvor metodologik yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu modelga ko‘ra, ta’lim natijasi o‘zlashtirilgan bilim emas, balki professional faoliyatni samarali bajarish qobiliyati bilan belgilanadi [1].

Amerika Psixologik Assotsiatsiyasi ishlab chiqqan competency benchmarks modelida quyidagi asosiy kompetensiyalar ajratiladi: diagnostik kompetensiya, konsultativ-intervensiya kompetensiyasi, etik kompetensiya, tadqiqot kompetensiyasi, madaniyatlararo kompetensiya, refleksiv va o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi.

Mazkur model talabalarni nazariy bilimlardan amaliy faoliyatga o‘tishga tayyorlash imkonini beradi.

Psixologlarni tayyorlashdagi muhim zamonaviy yo‘nalishlardan biri evidence-based training hisoblanadi. Bu yondashuv ilmiy jihatdan isbotlangan metod va texnologiyalar asosida mutaxassis tayyorlashni ko‘zda tutadi.

Raqamlashtirish psixologlarni tayyorlash jarayoniga tub o‘zgarishlar kiritmoqda. Onlayn simulyatorlar, virtual case-study, sun’iy intellekt vositalari va masofaviy trening platformalari o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda.

American Psychological Association ma’lumotlariga ko‘ra, digital competence bugungi psixologning bazaviy professional kompetensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ayniqsa pandemiyadan keyingi davr telepsixologiya bo‘yicha tayyorgarlikni psixologik ta’limning alohida yo‘nalishiga aylantirdi.

Zamonaviy psixolog kasbi tobora ko‘proq multidisiplinar xarakter kasb etmoqda. Shu sababli psixologlarni tayyorlashda quyidagi yo‘nalishlar bilan integratsiya muhim: neyropsixologiya, kognitiv fanlar, pedagogika, tibbiyot, psixometriya.

Ayniqsa big data, psixologik analytics va AI-assisted assessment kabi yo‘nalishlar yangi avlod psixologlarini tayyorlashda dolzarb bo‘lib bormoqda.

Transdisiplinar yondashuv mutaxassisning moslashuvchanligini va innovatsion salohiyatini oshiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy psixologik ta’limning asosiy tendensiyalari quyidagilar bilan tavsiflanadi:

-Bilim markazlashgan modeldan kompetensiyaga asoslangan modelga o‘tish;

-Nazariy tayyorlov va amaliyot integratsiyasining kuchayishi;

-Raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga kirib kelishi;

-Dalillarga asoslangan professional tayyorlovning kuchayishi;

-Global standartlar va mahalliy ehtiyojlarni uyg‘unlashtirish [3].

Bu tendensiyalar O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun ham dolzarb bo‘lib, psixologlarni tayyorlash standartlarini modernizatsiya qilishni talab qiladi.

Psixologlarni o‘qitishda zamonaviy yo‘nalishlar professional tayyorlov paradigmasining o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Kompetensiyaviy yondashuv, evidence-based training, raqamli texnologiyalar, refleksiv amaliyot va

transdisiplinar integratsiya bugungi psixologik ta’limning ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi [5].

Ushbu yondashuvlarni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish bo‘lajak psixologlarning kasbiy kompetentligini, moslashuvchanligini va ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мансурова Г. Р. Особенности я–концепции личности проявляющиеся в интернет–коммуникации //Ученый XXI века. – 2022. – №. 5-1 (86). – С. 52-54.
2. Dinara A. O’smirlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi ijtimoiy va psixologik omillar va ularni bartaraf etish //Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 165-170
3. Kaslow N. J. Competencies in professional psychology. *American Psychologist*, 2014, 59(8), 774–781.
4. Mashxura M. Psixolingvistik yondashuvlarga asoslangan o’qitish metodologiyasi //Innovations in technology and science education. – 2025. – Т. 4. – №. 34. – С. 125-131.
Nishonova Z. T., Davletshin M. G‘. Psixologiya fanlarini o’qitish metodikasi Toshkent., 2010-284 b.

YOSH O‘QITUVCHILARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA KASBIY IDENTIFIKATSIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Sotvoldiyeva Zebuniso Abbosbek qizi,
Namangan davlat universiteti doktoranti,
Qo’qon universiteti Andijon filiali ,
pedagogika , psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur tezisda yosh o‘qituvchilarda emotsional barqarorlik va kasbiy identifikatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning psixologik xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida emotsional barqarorlikning shaxsning affektiv holatini boshqarish, stress omillariga nisbatan chidamlilikni ta’minlash hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, kasbiy identifikatsiya jarayoni o‘qituvchining kasbiy “Men” konsepsiyasining shakllanishi, kasbiy qadriyatlar tizimini o‘zlashtirish va pedagogik faoliyatga ichki motivatsiyaning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq fenomen sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda ushbu ikki psixologik ko‘rsatkich o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik, ularning o‘zaro determinatsiya mexanizmlari hamda yosh o‘qituvchilarning kasbiy moslashuvi jarayoniga ta’siri ochib beriladi.*

Kalit so’zlar: *emotsional barqarorlik, stress, professionalizm, kasbiy kamolot, emotsional zo‘riqish.*

Аннотация: *В данной тезисной работе на основе теоретических и эмпирических подходов анализируются психологические особенности взаимосвязи между эмоциональной устойчивостью и профессиональной идентификацией у молодых учителей. В рамках исследования научно обосновывается роль эмоциональной устойчивости в регуляции аффективных состояний личности, обеспечении устойчивости к стрессовым факторам, а также в повышении эффективности педагогической деятельности. Кроме того, процесс профессиональной идентификации рассматривается как феномен, тесно связанный с*

формированием профессиональной «Я»-концепции учителя, усвоением системы профессиональных ценностей и развитием внутренней мотивации к педагогической деятельности. В исследовании раскрываются корреляционные связи между данными психологическими показателями, механизмы их взаимной детерминации, а также их влияние на процесс профессиональной адаптации молодых учителей.

Ключевые слова: *эмоциональная устойчивость, стресс, профессионализм, профессиональное развитие, эмоциональное напряжение.*

Abstract: *This thesis analyzes the psychological characteristics of the relationship between emotional stability and professional identification among young teachers based on theoretical and empirical approaches. The study scientifically substantiates the role of emotional stability in regulating an individual's affective states, ensuring resilience to stress factors, and enhancing the effectiveness of pedagogical activity. In addition, the process of professional identification is considered as a phenomenon closely related to the formation of the teacher's professional self-concept, the internalization of a system of professional values, and the development of intrinsic motivation for pedagogical activity. The study reveals the correlational relationships between these psychological indicators, the mechanisms of their mutual determination, and their influence on the process of professional adaptation of young teachers.*

Keywords: *emotional stability, emotional resilience, stress, professionalism, professional development , professional growth, emotional strain.*

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyati zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Yosh o‘qituvchilar o‘z faoliyatining dastlabki bosqichida turli psixologik qiyinchiliklarga duch keladilar: stress, ishga moslashish, pedagogik mahoratni rivojlantirish va o‘quvchilar bilan samarali munosabatni shakllantirish. Shu munosabat bilan emotsional barqarorlik va kasbiy identifikatsiya yosh pedagoglarning kasbiy faoliyatining sifatini belgilovchi asosiy psixologik omillar sifatida e’tiborga olinadi.

Emotsional barqarorlik shaxsning stressli vaziyatlarda hissiy xotirjamligini saqlash qobiliyatini, o‘z hissiyotlarini boshqarish va ishdagi muammolarni konstruktiv hal qilish imkoniyatini anglatadi. Kasbiy identifikatsiya esa shaxsning o‘z kasbiga, pedagogik vazifalariga va ta’lim jarayoniga bo‘lgan bog‘liqligi, shuningdek o‘zini o‘qituvchi sifatida qabul qilish darajasidir.

O‘qituvchining shaxsiy namunasi va obro‘-e’tibori ta’lim-tarbiya jarayonida bolada qat’iy nuqtayi nazarning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Kanadalik psixolog olim Djeyms Marsha yigit-qizlarning kasbiy tayyorgarlik davrini to‘rt bosqichga ajratadi:

1. Yoshlarda kasb haqidagi tasavvur va bilimlarning kamligi, hali noaniqligi bosqichi.
2. Muddatidan oldin aynan o‘xshashligini topish bosqichi. Shaxs o‘z kuchi, xohishi bilan emas, boshqaning fikri bilan, boshqa kishiga ergashib, tegishli munosabatlar tizimiga qo‘shilishi bilan xarakterlanadi.
3. Moratoriya bosqichi — shaxs o‘zligini aniqlashning krizisi jarayonidaligi bilan, rivojlanishning ko‘p variantlari orasidan o‘zi uchun eng maqbulini tanlashi bilan tavsiflanadi.
4. Erishilgan yutuqning aynanligi bosqichi. Tanlash mojarosi hal etilganligi, shaxs o'zligini namoyon etishga amalda kirishganligi bilan belgilanadi. [2, 583-b.].

Pedagog subyekt faoliyatining xususiyatiga qaysi psixofiziologik koʻrsatkichlar ta’sir qilishi mumkinligi haqidagi savolga V.S.Merlin maktabi talqinidagi temperamentning asosiy xususiyatlari asosida javob berish mumkin. Ma’lumki, bunday xususiyatlar qatoriga quyidagilar kiradi: senzitivlik, reaktivlik, faollik, reaktivlik va faollikning oʻzaro nisbati, reaksiya tezligi, plastiklik yoki rigidlik, emotsional qoʻzgʻaluvchanlik, ekstraversiya yoki introversiya.

Bunday koʻrsatkichlar qatoriga, shuningdek, emotsional barqarorlik yoki nevrotizm; idrokning analitik yoki sintetik turi; kognitiv uslubni belgilovchi maydonga bogʻliqlik yoki mustaqillik ham kiradi. Umuman olganda esa, garchi tavsifiy tarzda boʻlsa-da, temperament tipi oliy nerv faoliyati turining xulq-atvordagi namoyon boʻlishi sifatida qaraladi. Bu esa kuch — zaiflik, muvozanatlilik — nomuvozanatlilik, qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarining muvozanatga kelish tezligi kabi koʻrsatkichlar orqali ifodalanadi. [6, 143-b.].

Juda katta qiyinchiliklar emotsional regulyatsiyaning past darajasi (yoki muloqotda uning umuman yoʻqligi) tufayli yuzaga keladi. Bu holat muloqot ishtirokchilarining bir-biriga, matnga yoki butun kommunikativ vaziyatga nisbatan nazoratsiz reaksiyalarida namoyon boʻladi. Stress omili (stressor) faoliyatning oʻzi, muloqot sherigi yoki soʻzlovchining oʻzi ham boʻlishi mumkin.[6 , 353-b.].

Boshqa olimlar ham professionalizmni aniqlik, tezlik, toʻgʻrilik va kasbiy vazifalarni keng qoʻllay olish qobiliyati bilan bogʻlaydilar. Shu bilan birga, barcha oʻzgarishlarga qaramay, asosiy oʻrinda inson — bilim egasi va uni amaliyotda qoʻllovchi shaxs turadi. Shuning uchun uning shaxsiy sifatlari, jumladan emotsional barqarorlik alohida e’tiborni talab qiladi.

Emotsional barqarorlik tushunchasining turli ta’riflari mavjud boʻlib, ular bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu esa mazkur yoʻnalishning nisbatan yangi ekanligi bilan bogʻliq. Ba’zi olimlar emotsional barqarorlikni turli qiyinchiliklarga moslashgan holda bardosh bera olish qobiliyati deb hisoblaydi. Boshqalari esa uni shunday sifat sifatida koʻradi-ki, unda inson ogʻir vaziyatlarda ham ish qobiliyatini saqlab qoladi yoki hatto oshiradi. Umuman olganda, emotsional barqarorlik — bu shaxsning murakkab vaziyatlarda oʻz sogʻligʻi va ish faoliyatiga zarar yetkazmagan holda samarali faoliyat yurita olish qobiliyatidir. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, oʻqituvchining samarali faoliyati va uning oʻzini yaxshi his qilishi koʻp jihatdan emotsional barqarorlikka bogʻliq. Emotsional barqarorlik oʻqituvchi uchun muhim kasbiy sifat sifatida qaraladi. U sabr-toqat, barqaror qiziqishlar, xotirjamlik kabi xususiyatlarda namoyon boʻladi.

L. M. Mitina emotsional barqarorlikni “turli pedagogik va psixologik qiyinchiliklarga moslashuvni saqlagan holda qarshi tura olish qobiliyati” deb ta’riflaydi va bu sifatni pedagog faoliyati uchun kasbiy ahamiyatga ega deb hisoblaydi**.** [1, 157-b.].

V.M.Pisarenko esa shaxsning emotsional barqarorligini “keskin vaziyatlarga shunday javob bera olish qobiliyati-ki, bunda emotsional holatdagi oʻzgarish ish qobiliyatining pasayishiga emas, ortishiga olib keladi” deb tushuntiradi. [3, 55-b.].

K. K. Platonov fikricha, “pedagogik faoliyatga yaroqlilik ijobiy emotsional fon (emotsiyalarning faol, kuchli boʻlishi) mavjudligini talab qiladi”, bu esa oʻqituvchining emotsional barqarorligini koʻrsatadi. [4, 130-b.].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional barqarorlik shaxsning murakkab va stressli vaziyatlarda o‘z faoliyatini samarali tashkil eta olishi, emotsiyalarini boshqarishi va kasbiy vazifalarni yuqori darajada bajarishini ta’minlovchi integrativ sifatdir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Митина, Л. М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). — М.: Дело, 1994. 215с.
2.Z.T.NISHANOVA, N.G.KAMILOVA, D.U.ABDULLAYEVA, M.X.XOLNAZAROVA RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI. PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA Toshkent 2018, 602b
3. Писаренко, В. М. Устойчивость эмоционального состояния спортсмена в условиях соревнований // Пути достижения трудной цели в спорте. — М., 1964.
4. Платонов, К. К. Способности и характер // Теоретические проблемы психологии личности / под ред. Е. В. Шороховой. — М., 1974.
5.Сиротин, О. А. Экспериментальное исследование психофизиологической природы эмоциональной устойчивости: автореф. дис. ... канд. психол. наук. — М., 1972.
6. Зимняя, И. А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. Изд. второе, доп., испр. и перераб. — М.: Логос, 2002.
7. Чекалина, А. А. Гендерная психология: учебное пособие. — М.: Ось-89, 2006.

TALABALARNING OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Urayimova Muqaddam Komiljon qizi
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola oliy ta’lim tizimida talabaning institutsional o‘rni, akademik faoliyatdagi agentligi va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qiladi. Tadqiqot konseptual tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar sharhi va taqqosiy yondashuvga tayangan. Natijalar talaba markazli ta’lim, raqamli transformatsiya va kompetensiyaga yo‘naltirishning kuchayishini ko‘rsatdi. Ilmiy hissa talaba subyektivligi va tizimli boshqaruv mexanizmlarini uyg‘unlashtiruvchi model taklifidir.*

Kalit so‘zlar: *talaba agentligi, oliy ta’lim, kompetensiya, sifat kafolati, raqamli ta’lim, akademik moslashuv, institutsional boshqaruv*

Аннотация: *В данной статье анализируется институциональная роль студента в системе высшего образования, его агентство в академической деятельности и тенденции развития. Исследование опирается на концептуальный анализ, обзор нормативно-правовых актов и сравнительный подход. Результаты показали усиление ориентации на обучение, ориентированное на студента, цифровую трансформацию и компетенции. Научный вклад представляет собой модельное предложение, сочетающее субъективность студента и механизмы системного управления.*

Ключевые слова: *студенческое агентство, высшее образование, компетенция, гарантия качества, цифровое образование, академическая адаптация, институциональное управление*

Abstract: *This article analyzes the institutional role of the student in the higher education system, their agency in academic activities, and development trends. The study relied on conceptual analysis, a review of regulatory legal acts, and a comparative approach. The results*

demonstrated an increased focus on student-centered education, digital transformation, and competence. The scientific contribution is a model proposal that combines student subjectivity and systemic management mechanisms.

Keywords: *student agency, higher education, competence, quality assurance, digital education, academic adaptation, institutional management*

Oliy ta’lim tizimida talaba nafaqat ta’lim xizmatining “iste’molchisi”, balki bilim ishlab chiqarish, innovatsion madaniyatni shakllantirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlariga mos kadrlar resursini yaratishda faol ishtirok etuvchi subyektdir. Zamonaviy universitetlar missiyasining kengayishi, ta’lim natijalariga yo‘naltirilgan boshqaruv, xalqaro reytinglar va akkreditatsiya talablarining kuchayishi sharoitida talabaning o‘rni “auditoriya ishtirokchisi”dan “ta’lim jarayonining hamkor muallifi” darajasigacha ko‘tarilmoqda. Biroq ushbu o‘zgarishlar bir xil sur’atda va bir xil mazmunda kechmayapti: ayrim muassasalarda talaba markazli yondashuv haqiqiy pedagogik amaliyotga singib ketgan bo‘lsa, boshqalarida u tashkiliy hujjatlar doirasidagi deklarativ me’yor sifatida qolmoqda. Shunday sharoitda talabaning oliy ta’lim tizimidagi real institutsional o‘rnini, ushbu o‘rinni belgilovchi omillarni va rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi [1; 5].

Mavzuga oid adabiyotlarda oliy ta’limning ommaviylashuvi, boshqaruvning bozor mexanizmlariga yaqinlashuvi, sifat kafolatining institutsionallashuvi hamda raqamli transformatsiya kabi jarayonlar talaba tajribasini tubdan o‘zgartirayotgan omillar sifatida yoritiladi [6; 7]. Shu bilan birga, talaba subyektivligi, ya’ni talabaning tanlov qilish, o‘qish strategiyalarini qurish, akademik hamjamiyatda o‘z o‘rnini belgilash hamda ta’lim natijalarini birgalikda yaratish salohiyati ko‘pincha alohida konseptual ramka sifatida yetarlicha integratsiyalanmagan. Mintaqaviy tadqiqotlarda esa talaba omili ko‘proq ijtimoiy-psixologik moslashuv, motivatsiya yoki akademik muvaffaqiyat kabi natijalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar orqali tushuntiriladi, biroq bu natijalarni yuzaga keltirayotgan institutsional shartlar va boshqaruv mexanizmlari bilan bog‘lash doimo ham izchil emas [2; 8]. Natijada tadqiqot bo‘shlig‘i shundan iboratki, talabaning oliy ta’lim tizimidagi o‘rni ko‘p qatlamli fenomen sifatida, ya’ni pedagogik, tashkiliy, me’yoriy va raqamli muhitning o‘zaro ta’siri doirasida, tizimli konseptual model asosida yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi ko‘p manbali konseptual tahlilga tayandi va talaba o‘rnini “institutsional rol”, “o‘quv faoliyati agentligi” hamda “ta’lim natijalarini hamkorlikda yaratish” kategoriyalari orqali izohlashga yo‘naltirildi. Konseptual tahlil usuli oliy ta’lim sotsiologiyasi, ta’lim boshqaruvi va psixologik-pedagogik yondashuvlarda uchraydigan “talaba markazli ta’lim”, “kompetensiyaga asoslangan ta’lim” hamda “sifat kafolati” tushunchalarining mazmuniy chegaralarini aniqlash va ularni yagona analitik ramkaga birlashtirish uchun qo‘llandi [6; 7]. Ushbu usulning afzalligi shundaki, u turli fanlar kesishmasida joylashgan murakkab fenomenlarni ichki mantiqini buzmagan holda tizimlashtirish imkonini beradi.

Empirik baza sifatida ochiq manbalarda mavjud bo‘lgan oliy ta’lim siyosati hujjatlari, ta’lim standartlari va sifatni ta’minlashga doir konseptual hujjatlar sharhi amalga oshirildi. Bu yondashuv normativ-huquqiy va institutsional diskursning

talaba o‘rnini qanday belgilashini ko‘rsatish uchun zarur bo‘ldi, chunki talaba agentligi ko‘pincha aynan me’yoriy talablar, akademik qoidalar va baholash siyosatlari orqali cheklanadi yoki rag‘batlantiriladi [1; 5]. Shuningdek, taqqosiy tahlil elementi kiritilib, xalqaro adabiyotlarda keng muhokama qilinadigan tendensiyalar bilan mintaqaviy amaliyotlar orasidagi konseptual moslik va tafovutlar baholandi. Taqqosiy yondashuvning maqsadi “universal” sifatida taqdim etiladigan trendlarning mahalliy sharoitda qaysi mexanizmlar orqali ishlashini, qaysi nuqtalarda esa institutsional cheklovlar tufayli deformatsiyalanishini tushuntirishdan iborat bo‘ldi [3; 9].

Tahliliy metod sifatida mantiqiy-analitik rekonstruksiya qo‘llanib, talaba o‘rni va rivojlanish tendensiyalarini bog‘lovchi sabab-oqibat zanjirlari konseptual model ko‘rinishida tiklandi. Bunda dalillarni “tariflash” emas, balki ularni tushuntirishga xizmat qiladigan o‘zgaruvchilar va mexanizmlarni ajratish maqsad qilindi. Tadqiqot dizayni sifat jihatdan interpretativ bo‘lib, uning natijalari umumlashtiruvchi, lekin tekshiriladigan gipotezalar shaklida emas, balki tushuntiruvchi kategoriyalar va amaliy tavsiyalar ko‘rinishida ifodalandi. Tanlangan metodlar maqolaning maqsadiga mos, chunki mavzu talaba o‘rnining ko‘p darajali tabiati va ta’lim tizimidagi strukturaviy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lib, uni faqat bir o‘lchovli empirik o‘lchash orqali qamrab olish cheklangan natija beradi [2; 6].

Tahlil natijalari talabaning oliy ta’lim tizimidagi o‘rni uchta o‘zaro bog‘langan darajada shakllanishini ko‘rsatdi. Birinchi daraja pedagogik daraja bo‘lib, bunda talaba o‘qitish va o‘rganish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu darajada talabaning roli darsda qatnashish bilan cheklanmay, o‘quv maqsadlarini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya va teskari aloqani shakllantirish kabi amaliyotlar orqali kengayadi. Kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv kuchaygan sari baholash jarayonida yakuniy natijadan ko‘ra o‘rganish jarayonining izchilligi, vazifalar orqali shakllanadigan ko‘nikmalar va muammoli vaziyatlarda transfer qobiliyati ko‘proq ahamiyat kasb eta boshlaydi; bu esa talabaning passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘quv strategiyalarini tanlovchi subyekt bo‘lishini talab qiladi [6; 7].

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlarda ilgari surilgan talaba markazli ta’lim g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaydi, biroq uni amaliyotga tatbiq etishda “talaba faolligi”ni faqat interaktiv metodlar bilan tenglashtirish metodologik xatoga olib kelishini ko‘rsatadi. Biggs va Tang ta’kidlagan konstruktiv uyg‘unlik yondashuvida o‘qitish usullari, baholash va natijalar o‘zaro mos bo‘lmasa, talaba faoliyati yuzaki “ishtirok” ko‘rinishida qolib ketadi [6]. Bizning tahlilda ham talaba agentligi aynan baholash siyosati va o‘quv dizayni bilan bog‘liq bo‘lib, baholash jarayonining shaffofligi va formatif komponentning kuchayishi talaba o‘rnini sifat jihatdan o‘zgartirishi qayd etildi. Demak, talaba markazli yondashuvning ilmiy mazmuni auditoriyadagi metodik usullar bilan emas, balki institutsional logika va akademik amaliyotlarning uyg‘unligi bilan belgilanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda oliy ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalarida o‘quv rejalari, fan dasturlari va amaliyotga yo‘naltirishga urg‘u beriladi [1; 4]. Bu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, u mehnat bozori ehtiyojlarini inobatga oladi, ammo talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi va

akademik identiteti bilan bog‘liq nozik mexanizmlar ko‘pincha ikkinchi planda qoladi. Bizning konseptual model talaba o‘rnini faqat “tayyorlash obyekti” sifatida emas, balki o‘zini boshqaruvchi va refleksiv subyekt sifatida ko‘rishni taklif qiladi. Bu yerda gap individualizmni mutlaqlashtirishda emas, balki o‘quv faoliyati samaradorligining muhim sharti sifatida talabaning maqsad qo‘yish, resurslardan foydalanish va o‘z natijalarini baholash kompetensiyalarini rivojlantirishda.

Raqamli transformatsiya masalasida Selwyn raqamli texnologiyalar ta’limdagi tenglik, nazorat va me’yoriy tartibga solish bilan murakkab bog‘liqligini, ya’ni raqamli vositalar bir vaqtning o‘zida imkoniyat ham, yangi cheklov ham yaratishini ko‘rsatadi [7]. Bizning natijalarda ham shunga o‘xshash dualizm aniqlandi: gibrid format talabaning vaqt va makon bo‘yicha moslashuvchanligini oshiradi, biroq o‘qish jarayonini doimiy monitoring va ko‘rsatkichlar ta’qibiga aylantirish xavfini tug‘diradi. Shu nuqtada ilmiy yangilik sifatida talaba agentligini raqamli muhitda “izohlanadigan boshqaruv” tamoyili bilan bog‘lash mumkin: talaba o‘z o‘quv ma’lumotlari qanday yig‘ilishini, qanday talqin qilinishini va baholashga qanday ta’sir qilishini tushunmasa, raqamli tizim agentlikni emas, moslashuvchan itoatkorlikni kuchaytiradi.

Tinto tomonidan ishlab chiqilgan talabaning akademik va ijtimoiy integratsiyasi haqidagi yondashuv universitetda qolish va muvaffaqiyat ko‘rsatkichlarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib qolmoqda [10]. Bizning maqolada bu yondashuv talaba o‘rni muhokamasiga shuni qo‘shadiki, agentlik faqat individual xususiyat emas, balki integratsiya uchun yaratilgan imkoniyatlar natijasidir. Akademik integratsiya mentorlik, o‘quv resurslari va baholashning adolatliligi bilan, ijtimoiy integratsiya esa hamjamiyatlar, loyihaviy faoliyat va muloqot madaniyati bilan bevosita bog‘liq. Demak, talaba o‘rnini kuchaytirish bo‘yicha amaliy siyosat, bir tomondan, o‘qish jarayonining didaktik sifatini, ikkinchi tomondan esa universitet muhitining ijtimoiy kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak.

Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan Vygotskiy ta’kidlagan ijtimoiy vositachilik va yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasi ham talaba agentligini tushuntirishda dolzarb bo‘lib qoladi [3]. Talabaning mustaqilligi “yordam yo‘qligi”ni emas, balki maqsadli qo‘llab-quvvatlash bilan kengayadigan imkoniyatlar maydonini anglatadi. Shu bois tyutorlik, maslahat, akademik yozuv va tadqiqot metodlari bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash xizmatlari talabaning o‘rnini kuchaytiruvchi institutsional mexanizm sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuv talaba markazli ta’limni “o‘qituvchi chekinishi” sifatida noto‘g‘ri talqin qilishning oldini oladi va hamkorlik pedagogikasini ilmiy asoslaydi.

Maqolada talabalarning oliy ta’lim tizimidagi o‘rni pedagogik, institutsional va raqamli boshqaruv darajalarida shakllanadigan ko‘p qatlamli fenomen ekanligi asoslandi. Tahlil talaba markazli ta’lim, kompetensiyaga yo‘naltirish, sifat kafolati va raqamli transformatsiya talaba agentligini kuchaytirishi mumkinligini, biroq bu jarayonlar faqat shaffof baholash, barqaror akademik qo‘llab-quvvatlash va talaba fikrining qaror qabul qilish sikliga real integratsiyasi mavjud bo‘lganda samarali ishlashini ko‘rsatdi. Ilmiy hissa sifatida talaba o‘rnini “sharoit va mexanizm” munosabati orqali izohlovchi konseptual model taklif etildi; amaliy jihatdan esa

universitetlar uchun talaba ishtirokini monitoringdan ko‘ra dizayn va boshqaruvning faol komponentiga aylantirish, raqamli tizimlarda izohlanadigan boshqaruv tamoyillarini joriy etish hamda akademik yordam ekotizimini kuchaytirish zarurligi asoslandi. Kelgusidagi tadqiqotlar talaba agentligini o‘lchash indikatorlari, raqamli muhitda akademik farovonlik omillari va turli ixtisosliklarda kompetensiya dizaynining qiyosiy samaradorligini chuqurroq o‘rganishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraxmonov K. X. Oliy ta’lim iqtisodiyoti va boshqaruvi. Toshkent. Iqtisodiyot. 2019. 320 b.
2. G‘ofurov A. A. Pedagogik diagnostika va ta’lim sifatini baholash. Toshkent. Fan. 2020. 256 b.
3. Vygotskiy L. S. Tafakkur va nutq. Moskva. Labirint. 2018. 352 s.
4. Sayidaxmedov N. S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent. O‘qituvchi. 2017. 288 b.
5. Zimnyaya I. A. Pedagogik psixologiya. Moskva. Logos. 2019. 384 s.
6. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. London. McGraw-Hill Education. 2011. 389 p.
7. Selwyn N. Education and Technology. Key Issues and Debates. London. Bloomsbury Academic. 2016. 248 p.
8. Astin A. W. What Matters in College. Four Critical Years Revisited. San Francisco. Jossey-Bass. 1993. 512 p.
9. Kuzminov Ya. I., Yudkevich M. M. Universitetlar. Qanday boshqariladi va nima uchun. Moskva. HSE Publishing House. 2018. 360 s.
10. Tinto V. Leaving College. Rethinking the Causes and Cures of Student Attrition. Chicago. University of Chicago Press. 1993. 312 p.

ZAMONAVIY KASBLAR EVOLYUTSIYASI FONIDA OILADAGI PSIXOLOGIK MUHITNING BOLALAR KOGNITIV RIVOJIGA TA’SIR ETUVCHI MEXANIZMLARI

Ashuraliyeva Tursunoy
Namangan Davlat Universiteti
Psixologiya Kafedrasi Magistranti

***Annotatsiya**: ushbu maqolada raqamli texnologiyalar rivoji va zamonaviy kasblar transformatsiyasi sharoitida oiladagi psixologik muhitning bolalarning kognitiv rivojlanishiga ta’siri hamda ushbu jarayonning asosiy psixologik mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy munosabatlar sifati, emotsional qo‘llab-quvvatlash, kommunikativ muhit va tarbiya uslublarining bolalarning tafakkuri, xotirasi, diqqat va muammo yechish qobiliyatlariga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, raqamli muhitning kuchayib borayotgan ta’siri fonida bolalarda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishda oilaning o‘rni alohida asoslab beriladi. Maqolada zamonaviy kasblarga moslashuv jarayonida bolalarning intellektual rivojlanishi va psixologik tayyorgarligini ta’minlashda oilaviy muhitning ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: kognitiv rivojlanish, oilaviy psixologik muhit, raqamli texnologiyalar, zamonaviy kasblar, psixologik mexanizmlar, bolalar psixologiyasi, tarbiya uslublari, emotsional qo‘llab-quvvatlash*

Аннотация*: в данной статье анализируются психологические механизмы влияния семейной психологической среды на когнитивное развитие детей в условиях развития цифровых технологий и трансформации современных профессий. Особое внимание уделяется роли качества семейных отношений, эмоциональной поддержки, коммуникативной среды и стилей воспитания в формировании когнитивных процессов, таких как мышление, память, внимание и способность к решению проблем. Также рассматривается значение семьи в формировании когнитивных компетенций детей в условиях усиливающегося влияния цифровой среды. Обосновывается роль семейной среды в обеспечении интеллектуального развития и психологической готовности детей к современным профессиональным требованиям.*

Ключевые слова*: когнитивное развитие, семейная психологическая среда, цифровые технологии, современные профессии, психологические механизмы, детская психология, стили воспитания, эмоциональная поддержка*

Abstract *: this article analyzes the psychological mechanisms of the influence of the family psychological environment on children's cognitive development in the context of the rapid development of digital technologies and the transformation of modern professions. Special attention is paid to the role of family relationship quality, emotional support, communication environment, and parenting styles in shaping cognitive processes such as thinking, memory, attention, and problem-solving abilities. Furthermore, the study highlights the importance of the family environment in developing children's cognitive competencies under the increasing impact of the digital environment. The role of family in ensuring children's intellectual development and psychological readiness for modern professional demands is substantiated.*

Keywords: *cognitive development, family psychological environment, digital technologies, modern professions, psychological mechanisms, child psychology, parenting styles, emotional support*

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda, balki inson psixikasining shakllanish jarayonida ham sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar uchun raqamli muhit kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, bu holat ularning kognitiv rivojlanish xususiyatlarini tubdan o‘zgartirib bormoqda.

An’anaviy rivojlanish modelida bola bilimni asosan bevosita tajriba va ijtimoiy muloqot orqali o‘zlashtirgan bo‘lsa, bugungi kunda axborot oqimi ko‘proq virtual muhit orqali amalga oshmoqda. Natijada bolalarda tezkor axborotni qabul qilish, qisqa muddatli xotira orqali ishlash va vizual idrok ustunlik qilmoqda. Shu bilan birga, chuqur tahliliy fikrlash, uzoq muddatli diqqatni jamlash kabi klassik kognitiv ko‘nikmalarda ma’lum darajada o‘zgarish kuzatilmoqda.

O‘zbekistonda olib borilgan statistik kuzatuvlar ham ushbu tendensiyani tasdiqlaydi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilga kelib 10–17 yoshdagi bolalarning qariyb 72–75 foizi internetdan muntazam foydalanmoqda [1, 45-bet]. Bu ko‘rsatkichning yil sayin

ortib borayotgani raqamli muhitning bolalar psixikasiga ta’siri kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Psixologik nuqtai nazardan, raqamli muhitning kognitiv rivojlanishga ta’siri ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, interaktiv platformalar orqali bolalarda axborotni tez qayta ishlash, muammoli vaziyatlarga tez moslashish va ko‘p vazifalilik ko‘nikmalari rivojlanadi. Ikkinchi tomondan esa, ortiqcha axborot yuklamasi diqqatning tarqoqlashuvi, yuzaki fikrlash va analitik chuqurlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, raqamli muhitning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish va salbiy ta’sirlarini minimallashtirish masalasi dolzarb bo‘lib, bu jarayonda oilaviy psixologik muhit muhim regulyator sifatida namoyon bo‘ladi.

Oilaviy psixologik muhit bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Aynan oila doirasida bola ilk bor ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtiradi, nutq, tafakkur va hissiy reaktsiyalar shakllanadi. Shu boisdan ham oiladagi psixologik iqlim kognitiv rivojlanishning asosiy determinantlaridan biri sifatida qaraladi. Mashhur o‘zbek psixologi E.G‘oziyev o‘z ilmiy izlanishlarida shaxs rivojlanishida oilaning fundamental rolini alohida ta’kidlab, bolalik davrida shakllangan psixologik muhit keyingi intellektual faoliyatning mustahkam poydevorini yaratishini qayd etadi [2, 112-bet]. Shuningdek, B.R.Qodirov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oiladagi kommunikativ aloqalar sifati va tarbiya uslublari bolaning tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy asoslangan [3, 78-bet].

Oilaviy muhitning kognitiv rivojlanishga ta’siri quyidagi psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi:

Emotsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmi. Emotsional jihatdan barqaror va qo‘llab-quvvatlovchi muhitda ulg‘aygan bolalarda o‘ziga ishonch, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlash yuqori darajada rivojlanadi. Bunday bolalar yangi bilimlarni o‘zlashtirishda faol bo‘lib, muammoli vaziyatlardan qo‘rqmaydi. Aksincha, nizoli yoki sovuq muhitda ulg‘aygan bolalarda xavotir darajasi yuqori bo‘lib, bu esa ularning kognitiv faolligini pasaytiradi.

Kommunikativ muhit mexanizmi. Oiladagi muloqot sifati bolaning nutq rivoji va tafakkur darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Ota-onalar bilan muntazam va mazmunli muloqot qiladigan bolalarda tushunchalarni chuqur anglash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va tanqidiy fikrlash qobiliyati tezroq rivojlanadi.

Tarbiya uslublari mexanizmi. Demokratik tarbiya uslubi bolalarga mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi va ularning muammo yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Avtoritar uslub esa ko‘proq itoatkorlikni shakllantiradi, biroq mustaqil fikrlashni cheklashi mumkin.

Kognitiv stimulyatsiya mexanizmi. Oilada kitob o‘qish, intellektual o‘yinlar, savol-javoblar orqali bolaning tafakkuri faol rag‘batlantiriladi. Bu esa uning kognitiv rivojlanish sur’atini sezilarli darajada oshiradi. Global miqyosda kechayotgan raqamli transformatsiya mehnat bozorida yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Endilikda oddiy bilim va ko‘nikmalar emas, balki yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar — analitik tafakkur, kreativlik, muammolarni hal qilish va moslashuvchanlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, yaqin yillarda mehnat bozorida eng talabgir kasblar aynan yuqori intellektual salohiyatni talab qiladigan sohalarga to‘g‘ri keladi [4, 23-bet]. Bu esa bolalik davridayoq kognitiv rivojlanishga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy kasblar quyidagi kognitiv kompetensiyalarni talab qiladi:

- murakkab muammolarni tahlil qilish
- kreativ va innovatsion fikrlash
- tezkor qaror qabul qilish
- axborotni tanlash va qayta ishlash

Mazkur kompetensiyalar esa tabiiy ravishda shakllanmaydi, balki ular oilaviy muhitda yaratilgan psixologik sharoit orqali rivojlanadi. Raqamli texnologiyalar bolalarning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi, biroq nazoratsiz foydalanilganda bu imkoniyatlar xavfga aylanishi mumkin. Masalan, uzoq vaqt ekran qarshisida qolish bolalarda diqqatning pasayishi, uyqu buzilishlari va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, oilaviy nazorat va psixologik muhit muhim himoya omili sifatida namoyon bo‘ladi. Ota-onaning raqamli savodxonligi, farzand bilan birgalikdagi faoliyat va foydalanish vaqtini me’yorlash orqali salbiy ta’sirlar kamaytiriladi.

YUNISEF tadqiqotlariga ko‘ra, ota-onasi bilan faol muloqotda bo‘lgan va nazorat ostida raqamli texnologiyalardan foydalanadigan bolalarda kognitiv rivojlanish ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘ladi [5, 67-bet].

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar davrida bolalarning kognitiv rivojlanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda oilaviy psixologik muhit markaziy o‘rin egallab, u bolaning intellektual salohiyati va kelajak kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, sog‘lom emotsional muhit, samarali muloqot va zamonaviy tarbiya uslublari orqali bolalarda yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish mumkin. Bu esa ularning kelajakda zamonaviy kasblarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Axborotlashuv va raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2024. – 45-bet.
2. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 112-bet.
3. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2009. – 78-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi hisobotlari. – Toshkent, 2023. – 23-bet.
5. YUNISEF. Bolalar va raqamli texnologiyalar: global hisobot. – 2022. – 67-bet.

ZAMONAVIY KASBLARGA YO‘NALTIRISHDA O‘SMIRLARNING MOSLASHUV STRATEGIYALARINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Abduvohidova Malika Bahodirjon qizi
NamDU magistranti

Annotatsiya*: ushbu maqolada zamonaviy kasblarga yo‘naltirish jarayonida o‘smirlarning moslashuv strategiyalari (coping)ning psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kasb tanlash jarayoni o‘smirlar uchun murakkab va ko‘p omilli jarayonga aylangan. Maqolada o‘smirlarning stressli vaziyatlarga nisbatan munosabati, ularning psixologik barqarorligi hamda coping strategiyalarining kasbiy o‘zini aniqlashga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, samarali coping strategiyalarini rivojlantirish orqali o‘smirlarning zamonaviy mehnat bozoriga moslashuvini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, coping strategiyalar, kasb tanlash, zamonaviy kasblar, psixologik moslashuv, stress, kasbiy yo‘naltirish, raqamli muhit, shaxs rivoji*

Аннотация: *в данной статье рассматривается психологическая значимость стратегий совладания (coping) у подростков в процессе их ориентации на современные профессии. В условиях стремительного развития цифровых технологий процесс выбора профессии становится более сложным и многогранным для подростков. В статье анализируется отношение подростков к стрессовым ситуациям, их психологическая устойчивость, а также влияние coping-стратегий на профессиональное самоопределение. Кроме того, обосновываются возможности повышения адаптации подростков к современному рынку труда через развитие эффективных coping-стратегий.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, coping-стратегии, выбор профессии, современные профессии, психологическая адаптация, стресс, профориентация, цифровая среда, развитие личности.*

Abstract*: this article examines the psychological significance of adolescents’ coping strategies in the process of their orientation toward modern professions. In the context of rapidly developing digital technologies, career choice has become a complex and multifactorial process for adolescents. The study analyzes adolescents’ responses to stressful situations, their psychological resilience, and the influence of coping strategies on professional self-determination. Furthermore, the article highlights the possibilities of improving adolescents’ adaptation to the modern labor market through the development of effective coping strategies.*

Keywords: *adolescence, coping strategies, career choice, modern professions, psychological adaptation, stress, career guidance, digital environment, personal development.*

XXI asrda global ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar keskin jadallashib, jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi mehnat bozorining an’anaviy modelini butunlay yangilamoqda. Ilgari barqaror hisoblangan ko‘plab kasblar avtomatlashtirish jarayoniga uchrab, ularning o‘rnini mutlaqo yangi — texnologik va kreativ yondashuvni talab qiladigan kasblar egallamoqda. [1, 25-bet]. Masalan, bugungi kunda IT sohasidagi mutaxassislar, data-analitiklar, UX/UI dizaynerlar, kontent yaratuvchilar va raqamli marketing mutaxassislari mehnat bozorida yuqori talabga ega. Bu esa shuni anglatadiki, zamonaviy kasb egasi endilikda faqat bilimli bo‘lish bilan cheklanib qolmay, balki o‘zini doimiy ravishda rivojlantirib boradigan, o‘zgarishlarga tez moslasha oladigan shaxs bo‘lishi lozim.

Mazkur o‘zgarishlar kasblarning psixologik talablarini ham sezilarli darajada kuchaytirdi. Endilikda mutaxassisdan:

- noaniqlik sharoitida ishlash qobiliyati,
- kognitiv moslashuvchanlik,
- kreativ va tanqidiy fikrlash,
- yuqori darajadagi stressga chidamlilik talab etilmoqda [2, 14-bet].

Shu jihatdan qaraganda, kasb tanlash jarayoni endi faqat qiziqish va qobiliyatga asoslangan oddiy tanlov emas, balki shaxsning psixologik tayyorgarligi, ichki resurslari va moslashuv darajasi bilan chambarchas bog‘liq murakkab jarayonga aylanmoqda.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va ziddiyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda shaxs o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini baholash va kelajakdagi hayot yo‘lini belgilashga harakat qiladi. Bu jarayon Identifikatsiya jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘smirning “men kimman?” degan savolga javob izlash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi [3, 91-bet].

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlar ko‘pincha o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va ijtimoiy talablar o‘rtasida ichki ziddiyatni boshdan kechiradilar. Bir tomondan, ular mustaqil qaror qabul qilishni xohlasa, ikkinchi tomondan, ota-ona va jamiyatning kutishlari ularning tanloviga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, o‘smirlik davriga xos bo‘lgan:

- emotsional beqarorlik,
- o‘ziga baho berishning o‘zgaruvchanligi,
- tengdoshlar fikriga yuqori darajada bog‘liqlik,
- kelajakdan xavotir hissi

kasb tanlash jarayonini yanada murakkablashtiradi [4, 203-bet].

Natijada, ko‘plab o‘smirlar kasb tanlash jarayonida ishonchsizlik, ikkilanish va hatto psixologik bosimni boshdan kechiradilar. Bu esa ularning psixologik moslashuv strategiyalariga bo‘lgan ehtiyojini yanada oshiradi. Coping strategiyalari shaxsning stressli va muammoli vaziyatlarga qanday javob berishini ifodalovchi muhim psixologik mexanizmdir. Ushbu tushuncha Richard Lazarus va Susan Folkman tomonidan ishlab chiqilgan nazariyada asoslab berilgan bo‘lib, u shaxsning vaziyatni baholashi va unga mos ravishda javob berishini tushuntiradi [5, 150-bet]. Coping strategiyalarini chuqurroq tahlil qilganda, ular shaxsning ichki dunyosi, tajribasi va ijtimoiy muhitiga bevosita bog‘liq ekanligi ko‘rinadi.

Muammoga yo‘naltirilgan coping — eng samarali strategiyalardan biri bo‘lib, bunda shaxs muammoni hal etishga faol kirishadi. U vaziyatni tahlil qiladi, ma’lumot to‘playdi va optimal yechim topishga intiladi.

Emotsional coping esa ko‘proq shaxsning ichki holatini barqarorlashtirishga qaratilgan bo‘lib, stressni kamaytirish, o‘zini tinchlantirish va psixologik muvozanatni tiklashga xizmat qiladi. Qochish strategiyasi esa ko‘pincha noeffektiv hisoblanadi. Bunda shaxs muammodan qochadi, uni inkor etadi yoki virtual muhitga sho‘ng‘ib ketadi. Zamonaviy tadqiqotlar aynan o‘smirlar orasida ushbu strategiyaning keng tarqalayotganini ko‘rsatmoqda [6, 245-bet].

Kasb tanlash jarayoni o‘smir hayotidagi eng muhim qarorlardan biri bo‘lib, u nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini ham belgilaydi. Bu jarayon Kasbiy o‘zini aniqlash bilan bevosita bog‘liq [7, 82-bet].

Coping strategiyalari bu jarayonda ko‘p qirrali rol o‘ynaydi. Xususan:

- kognitiv darajada — o‘smir vaziyatni real baholaydi va o‘z imkoniyatlarini aniqlaydi;
- emotsional darajada — u stress va xavotirni boshqaradi;
- xulq-atvor darajasida — faol harakat qiladi, izlanadi va qaror qabul qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali coping strategiyalariga ega o‘smirlar kasb tanlashda kamroq xato qiladi, o‘z tanlovidan ko‘proq qoniqish hosil qiladi va yangi sharoitlarga tezroq moslashadi [8, 117-bet]. Aksincha, passiv yoki qochishga asoslangan coping strategiyalariga ega o‘smirlar ko‘pincha boshqalarning fikriga tayanadi yoki tasodifiy tanlov qiladi. Bu esa kelajakda kasbiy qoniqmaslik va stressga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — o‘smirlarni nafaqat bilim bilan, balki psixologik jihatdan ham hayotga tayyorlashdir. Shu nuqtai nazardan coping strategiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliy jihatdan quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- psixologik treninglar orqali stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali qaror qabul qilishni o‘rgatish;
- individual psixologik maslahatlar orqali shaxsiy muammolarni hal etish;
- kasbiy yo‘naltirish dasturlari orqali aniq va ishonchli ma’lumot berish.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar yoshlarning psixologik barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda [9, 2023-yil hisobot]. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy kasblarga yo‘naltirish jarayonida o‘smirlarning coping strategiyalari hal qiluvchi psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli transformatsiya sharoitida kasb tanlash jarayonining murakkablashuvi o‘smirlarning psixologik tayyorgarligini yanada muhimlashtirmoqda.

Samarali coping strategiyalariga ega bo‘lgan o‘smirlar:

- stressli vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmaydi,
- ongli va mustaqil qaror qabul qiladi,
- kasbiy yo‘nalishda barqarorlikka erishadi.

Shu bilan birga, coping ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan o‘smirlar ko‘pincha tashqi ta’sirlarga beriluvchan bo‘lib, kasbiy tanlovda xatolarga yo‘l qo‘yadi. Shu sababli, ta’lim tizimida coping strategiyalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik dasturlarni joriy etish, o‘smirlarni zamonaviy kasblarga tayyorlashning muhim sharti sifatida qaralishi lozim. Kelgusida ushbu yo‘nalishda empirik tadqiqotlarni kengaytirish va milliy psixologik model ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva, 2016. – 25-bet.
2. World Economic Forum Report. – 2023. – 14-bet.
3. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. – New York, 1968. – 91-bet.

4. Steinberg L. Adolescence. – New York, 2014. – 203-bet.
5. Lazarus R.S., Folkman S. – 1984. – 150-bet.
6. Carver C.S. – 2012. – 245-bet.
7. Klimov E.A. – 2004. – 82-bet.

YOSHLARNING KASBIY QIZIQISHLARINI ANIQLASHDA PSIXODIAGNOSTIK METODLARNING O‘RNI

Mamataliyev Bobirmirzo Nematillo o’g’li
Namangan Davlat Universiteti Sport va Sa’nat fakulteti
Psixologiya masovafiy ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada yoshlarning kasbiy qiziqishlarini aniqlashda psixodiagnostik metodlarning o‘rni yoritilgan. Kasb tanlashning zamonaviy sharoitdagi dolzarbligi, shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurati ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, amaliy tadqiqot sifatida differentsial-diagnostik so‘rovnoma yordamida o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlari o‘rganilib, natijalari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari psixodiagnostik metodlarning yoshlarni kasbga yo‘naltirishdagi muhim ahamiyatini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *kasb tanlash, psixodiagnostika, kasbiy qiziqish, yoshlar, qobiliyat, metodlar, o‘naltirish*

АННОТАЦИЯ. *В данной статье освещается роль психодиагностических методов в определении профессиональных интересов молодежи. На научной основе анализируется актуальность выбора профессии в современных условиях, необходимость учета индивидуальных особенностей человека. Также в качестве практического исследования были изучены профессиональные интересы студентов с использованием дифференциально-диагностического опросника, и результаты были проанализированы. Результаты исследования подтверждают важную роль психодиагностических методов в направлении молодежи к профессии.*

Ключевые слова: выбор профессии, психодиагностика, профессиональные интересы, молодежь, способности, методы, ориентация

ANNOTATION. *This article highlights the role of psychodiagnostic methods in determining the professional interests of young people. The relevance of choosing a profession in modern conditions, the need to take into account the individual characteristics of a person, is analyzed on a scientific basis. Also, as a practical study, the professional interests of students were studied using a differential diagnostic questionnaire and the results were analyzed. The results of the study confirm the important role of psychodiagnostic methods in guiding young people to a profession.*

Keywords: *career choice, psychodiagnostics, professional interest, young people, abilities, methods, orientation*

Hozirgi tezkor va ma’lumotlar tez o’zgaradigan zamonda kasb tanlash masalasi yoshlar hayotidagi eng muhim va murakkab qarorlardan biri hisoblanadi. Chunki insonning kelajakdagi hayoti, uning moddiy ta’minoti, jamiyatdagi o‘rni va shaxsiy farovonligi ko‘p jihatdan tanlagan kasbiga bog‘liq. Tez sur’atlarda rivojlanayotgan mehnat bozori, yangi kasblarning paydo bo‘lishi, iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi hamda raqobatning kuchayishi shaxsning o‘z imkoniyatlarini aniq baholashini talab qiladi.[1] Shunday sharoitda kasb tanlash masalasi faqat tashqi

omillar asosida emas, balki shaxsning individual xususiyatlari, qobiliyati intelektual salohiyati va psixologik jihatlarini chuqur tahlil qilish orqali amalga oshirilishi zarur.

Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida kasblar soni ortib, ularning talablari murakkablashib bormoqda. Yoshlar qaysi kasbni tanlash borasida ikkilanib ham qolmoqda. Shu sababli yoshlarning kasbiy yo‘nalishini to‘g‘ri aniqlashda psixodiagnostik metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixodiagnostika - shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o’lchash va aniqlash metodlarini ishlab chiquvchi psixologiya fani sohasi.[2]

Yoshlarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashda testlar, so‘rovnomalar, suhbat (intervyu), kuzatish metodlar keng qo‘llaniladi.

Ushbu metodlar yordamida shaxsning ichki imkoniyatlari yanada aniqroq ochib beriladi hamda ularni to‘g‘ri yo‘naltirish imkoniyati yaratiladi. O‘ziga mos bo‘lmagan kasbni tanlagan insonda motivatsiya pasayishi, kasbiy qoniqmaslik va mehnat samaradorligining kamayishi kuzatiladi.

Kasbiy qiziqish insonning fikrlash yo‘nalishida va ichki savollarida namoyon bo‘ladi. Masalan:

- “Bu qanday ishlaydi?” — texnika va muhandislik yo‘nalishiga qiziqish,
- “Bu qanday yashaydi?” — biologiya va tabiatga qiziqish,
- “Inson nega bunday o‘ylaydi?” — psixologiyaga moyillik,
- tizimlar, belgilar va shakllarni tahlil qilish — analitik yoki dizayn yo‘nalishlariga qiziqishni bildiradi.

Bu esa qiziqishlar inson tafakkurining tabiiy ifodasi ekanligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning iste’dodlarini ro‘yobga chiqarish hamda mustaqil hayotga tayyorlash maqsad qilingan.[3]

Ko‘pchilik yoshlar o‘z imkoniyatlarini faqat bitta yo‘nalish bilan cheklangan deb hisoblaydi. Aslida esa insonda bir nechta qobiliyat va qiziqishlar mavjud bo‘ladi. Shu sababli yoshlarni turli yo‘nalishlarda o‘zini sinab ko‘rishga undash muhim ahamiyatga ega.shundagina ularni asl imkoniyatlarin ko’rish mumkin bo’ladi.

Maktab psixologlari yoshlarning qobiliyatlarini aniqlash va ularni kasbga yo‘naltirishdagi muhim bosqich hisoblanadi. Ular nafaqat diagnostika o‘tkazishi, balki olingan natijalarni o‘quvchilarga sodda va tushunarli tarzda izohlab berishi ham zarur.

Zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan bir qatorda yoshlarning kasb tanlash jarayoniga sun’iy intellekt vositalari ham kirib kelmoqda. Biroq, sun’iy intellekt faqat yordamchi vosita bo‘lib xizmat qilishi kerak, yakuniy qarorni esa shaxsning o‘zi qabul qilishi muhimdir.

Meni o’ylashimcha yan bir muhim jihatlardan biri bu - jamiyatda nogironligi bo‘lgan yoshlarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash masalasidir.nogironligi bo’lgan yoshlar hamma bilan chin ko’ngildan muloqot qilavermaydi.Maktab psixologi nogiron yoshlarni xarakteri va temperamentidan kelib chiqib o’sha yoshlarga mos bo’lgan psixodiagnostik metodlardan foydlangan holda,nogironligi bo’lgan yoshlarni kasbiy qiziqishlarini aniqlashi kerak bo’ladi.

Na’muna tariqasida E.A. Klimov tomonidan ishlab chiqilgan differentsial-diagnostik so‘rovnoma asosida 16 yoshli maktab o‘quvchilarining kasbiy qiziqishlari o‘rganildi. Tadqiqotda jami 25 nafar o‘quvchi ishtirok etdi, ulardan 15 nafari qizlar va 10 nafari o‘g‘il bolalardir.

Natijalarga ko‘ra:

- “Odam – odam” (O–O) — 12 nafar
- “Odam – texnika” (O–TT) — 6 nafar
- “Odam – belgilar tizimi” (O–BT) — 6 nafar
- “Odam – tabiat” (O–TA) — 1 nafar
- “Odam – badiiy obraz” (O–BO) — 0 aniqlandi

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar orasida “odam–odam” yo‘nalishiga qiziqish ustunlik qiladi. Bu esa ularda kommunikativ faoliyat, insonlar bilan ishlashga moyillik yuqori ekanligini bildiradi.

“odam–belgilar tizimi” yo‘nalishida aniqlangan natijalar o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur va analitik faoliyatga nisbatan muayyan qiziqish shakllanayotganini ko‘rsatadi. Lekin texnik, ijodiy hamda analitik yo‘nalishlarga qiziqish o‘rtacha darajada namoyon bo‘lgan. “Odam–tabiat” yo‘nalishida past ko‘rsatkich qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning kasbiy qiziqishlarini aniqlashda psixodiagnostik metodlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ular orqali o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlari intelektual imkoniyatlari aniqlanadi hamda kelajakdagi egallamoqchi bo’lgan kasbilarini ongli ravishda tanlashlariga yordam berish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar orasida ijtimoiy yo‘nalishdagi kasblarga qiziqish ustunlik qiladi. Shu sababli ularni kasbga yo‘naltirish jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish, psixologik diagnostika metodlaridan samarali foydalanish hamda yoshlarning mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiraliyeva M.O. Kasbiy yo’nalishni tanlashda psixodiagnostika o’rni. https://journalss.org/ 76-son_1-to’plam_Dekabr-2025
2. S.X. Jalilova, N.A. G ‘ayibova. Umumiy psixodiagnostika. Toshkent-2008
3. Abdullaeva R.M. Nizomiy nomidagi TDPU, Umumiy psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi https.//www.oriens.uz/media/journalarticles/21_Abdullaeva_R.M._171-179.pdf
4. M.B.Abduhakimova. Sun’iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta’siri

YOSHLAR BANDLIGI VA KASBGA YO‘NALTIRISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Namangan davlat universiteti
Psixologiya yonalish 1-kurs talabasi
Isaqova Shohista

Annotatsiya *: Mazkur maqolada yoshlar bandligini ta’minlashda kasbga yo‘naltirish tizimining o‘rni, ahamiyati va dolzarbligi keng yoritilgan. Yoshlarni o‘z qobiliyati, qiziqishi hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda kasbga yo‘naltirish orqali ularning kelajakda muvaffaqiyatga erishishi, ijtimoiy faolligi oshishi va ishsizlik darajasining kamayishiga erishish mumkinligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim tizimi, davlat siyosati va jamiyatning bu boradagi o‘rni haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so’zlar : *yoshlar bandligi, kasbga yo‘naltirish, mehnat bozori, kasb tanlash, ta’lim tizimi, ishsizlik, raqobatbardoshlik, kasbiy rivojlanish, zamonaviy kasblar, ijtimoiy barqarorlik.*

Abstract: *This article extensively discusses the role, importance and relevance of the vocational guidance system in ensuring youth employment. It analyzes the possibility of future success, increased social activity and reduced unemployment by guiding young people to a profession in accordance with their abilities, interests and the requirements of the modern labor market. It also discusses the role of the education system, state policy and society in this regard.*

Keywords: *youth employment, career guidance, labor market, career choice, education system, unemployment, competitiveness, professional development, modern professions, social stability.*

Аннотация: *В данной статье подробно рассматривается роль, важность и актуальность системы профориентации в обеспечении занятости молодежи. Анализируется возможность достижения будущих успехов, повышения социальной активности и снижения безработицы путем направления молодых людей к профессиям в соответствии с их способностями, интересами и требованиями современного рынка труда. Также обсуждается роль системы образования, государственной политики и общества в этом контексте.*

Ключевые слова: *занятость молодежи, профориентация, рынок труда, выбор профессии, система образования, безработица, конкурентоспособность, профессиональное развитие, современные профессии, социальная стабильность.*

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar bandligini ta’minlash eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi. Har qanday davlatning kelajagi uning yoshlariga bog‘liq bo‘lib, ularning bilimli, malakali va ish bilan ta’minlangan bo‘lishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir. Shu sababli yoshlarni nafaqat ta’lim bilan qamrab olish, balki ularni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish ham dolzarb vazifaga aylangan. Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biridir. Chunki bu tanlov uning kelajakdagi hayot tarzini, daromadini va jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Buyuk mutafakkirlarning fikricha, inson o‘ziga mos kasbni tanlasa, u nafaqat moddiy, balki ma’naviy jihatdan ham yuksaladi. Mashhur faylasuf Konfutsiy shunday degan: “O‘zing sevgan ishni tanla va umr bo‘yi ishlashingga to‘g‘ri kelmaydi”. Bu fikr kasbga yo‘naltirishning naqadar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi [4].

Kasbga yo‘naltirish — bu yoshlarning qobiliyatlari, qiziqishlari, psixologik xususiyatlari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularga mos kasb

tanlashda yordam beruvchi tizimli jarayondir. Ushbu jarayon faqatgina maslahat berish bilan cheklanib qolmay, balki amaliy koʻnikmalarni shakllantirish, kasblar bilan tanishtirish va yoshlarni ongli tanlov qilishga yoʻnaltirishni ham oʻz ichiga oladi. Toʻgʻri yoʻnaltirilgan yosh kelajakda oʻz kasbining yetuk mutaxassisi boʻlib yetishadi. Aksincha, notoʻgʻri tanlangan kasb insonning oʻz ishidan qoniqmasligiga, motivatsiyasining pasayishiga va oxir-oqibat ishsizlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli kasbga yoʻnaltirish jarayoni maktab davridan boshlab yoʻlga qoʻyilishi zarur [1].

Yoshlar bandligi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim omildir. Ish bilan ta’minlangan yoshlar oʻz daromad manbaiga ega boʻlib, mustaqil hayot kechiradi, oilasini moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlaydi va jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Bandlik darajasining yuqori boʻlishi esa jinoyatchilikning kamayishiga, ijtimoiy muammolarning oldini olishga xizmat qiladi. Buyuk alloma Alisher Navoiy oʻz asarlarida mehnatning ahamiyatini alohida ta’kidlab, shunday degan: *“Hunar oʻrgan, chunki hunar insonni ulugʻlaydi.”* Bu fikr bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan [3].

Kasbga yoʻnaltirish va yoshlar bandligi bir-birini toʻldiruvchi tushunchalardir. Agar yoshlar oʻz qobiliyatiga mos kasbni tanlasalar, ular mehnat bozorida tezroq ish topadi va oʻz faoliyatida muvaffaqiyat qozonadi. Bu esa umumiy bandlik darajasining oshishiga olib keladi.Aksincha, kasb tanlashdagi xatoliklar yoshlar orasida ishsizlikning ortishiga sabab boʻladi. Shu bois kasbga yoʻnaltirish tizimini rivojlantirish orqali bandlik muammolarini hal etish mumkin. Bu borada davlat, ta’lim muassasalari va oilaning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim tizimi yoshlarni kasbga yoʻnaltirishda asosiy vosita hisoblanadi. Maktablarda kasbga yoʻnaltirish darslarini tashkil etish, oʻquvchilarning qiziqishlarini aniqlash, psixologik testlar oʻtkazish va turli kasblar bilan tanishtirish muhimdir. Shuningdek, kasb-hunar maktablari va oliy ta’lim muassasalari zamonaviy kasblar boʻyicha malakali mutaxassislarni tayyorlashi zarur. Bugungi kunda IT, marketing, dizayn, muhandislik kabi yangi kasblarga talab ortib bormoqda. Shu sababli yoshlar zamonaviy kasblarni oʻrganishga intilishi va oʻz ustida ishlashi kerak [2].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori tez oʻzgarib bormoqda. Ba’zi kasblar yoʻqolib borayotgan boʻlsa, yangi kasblar paydo boʻlmoqda. Bu esa yoshlardan moslashuvchanlik, doimiy oʻrganish va oʻz ustida ishlashni talab etadi.Shu bilan birga, ayrim yoshlar kasb tanlashda yetarli ma’lumotga ega emasligi, ota-onalar bosimi yoki jamiyatdagi stereotiplar sabab notoʻgʻri tanlov qilmoqda. Bu esa bandlik muammolarini keltirib chiqaradi. Shu sababli kasbga yoʻnaltirish tizimini yanada takomillashtirish zarur [5].

Xulosa qilib aytganda, yoshlar bandligi va kasbga yoʻnaltirish oʻrtasida kuchli va uzviy bogʻliqlik mavjud. Yoshlarni toʻgʻri kasbga yoʻnaltirish orqali ularning mehnat bozorida oʻz oʻrnini topishiga, iqtisodiy mustaqillikka erishishiga va jamiyat rivojiga hissa qoʻshishiga imkon yaratiladi.Kelajakda yoshlar bandligini oshirish uchun kasbga yoʻnaltirish tizimini rivojlantirish, ta’lim sifatini yaxshilash va zamonaviy kasblarga e’tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir

yosh o‘z qobiliyatini to‘g‘ri baholab, ongli ravishda kasb tanlasa, u albatta hayotda o‘z o‘rnini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari
2. “Pedagogika” – oliy ta’lim muassasalari uchun darslik 89-bet
3. “Kasbga yo‘naltirish nazariyasi va amaliyoti” o‘quv qo‘llanma 45-bet
4. Alisher Navoiy – “Mahbub ul-qulub” 104-bet
5. Abdurauf Fitrat – tanlangan asarlar 134-bet
6. Zamonaviy mehnat bozori va bandlik masalalariga oid ilmiy maqolalar

YOSHLARNI ERTA YOSHDAN KASBGA YO’NALTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Uzoqova Nigora
KIUT (Namangan filial) 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Yoshlarni erta kasbga yo‘naltirish bu dolzarb bo‘lib kelmoqda va o‘rta maktablarda bunga ayniqsa psixologlarimiz tomonidan ko‘plab tadbirlar, testlar, so‘rovnomalar o‘tkazilyabdiki, zero xar bir bola qaysi kasb- xunarga o‘z qiziqishi, moyilligi, qobilyati, shaxsiy sifatlari o‘rganilyabdi. Qolaversa, jamiyatda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ijtimoiy taraqqiyotga juda zarurdir. Zero, Yangi O‘zbekiston kelajagi, biz yoshlar qo‘lidadir.*

Kalit so‘zlar: *Kasbga yo‘naltirish, kasb tanlash, stereotip, qiziqish va moyilliklar, ongli tanlov, kasbiy rivojlanish, ijtimoiy muhit, oila.*

Аннотация: *Ранняя профориентация молодежи приобретает все большее значение, и в средних школах, особенно в этом отношении, наши психологи проводят множество мероприятий, тестов и анкет, поскольку каждый ребенок узнает, какая профессия его интересует, каковы его склонности, способности и личностные качества. Кроме того, подготовка высококвалифицированных специалистов в обществе крайне необходима для социального развития. Потому что будущее Великого Узбекистана в наших руках, молодежи.*

Ключевые слова*: Профориентация, выбор профессии, стереотипы, интересы и склонности, осознанный выбор, профессиональное развитие, социальная среда, семья..*

Abstract: *Early career guidance of young people is becoming increasingly relevant, and in high schools, especially in this regard, many events, tests, and questionnaires are conducted by our psychologists, because each child learns which profession he is interested in, his inclinations, abilities, and personal qualities. In addition, the training of highly qualified specialists in society is very necessary for social development. Because the future of Great Uzbekistan is in the hands of us, young people.*

Keywords: *Career guidance, career choice, stereotype, interests and inclinations, conscious choice, professional development, social environment, family.*

Kasbga yo'naltirish - bu ilmiy asoslangan va o'zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o'zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg'un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir [1].

Shuningdek, kasb tanlash — bu oddiy qaror emas, balki insonning butun kelajagini belgilab beradigan muhim bosqichdir. Menimcha, har bir yosh o‘z qiziqishi, orzulari va imkoniyatlarini inobatga olib kasb tanlashi kerak. Shu bilan

birga, jamiyatga foyda keltirish ham muhim deb o‘ylayman. Kasbga yo‘naltirish esa aynan shu yo‘lda to‘g‘ri tanlov qilishga yordam beradigan zarur jarayondir.

To‘g‘ri tanlangan kasb esa insonning hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab,hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so'ngra kasbga yo'llash kerak [1].

Chunki agar o‘quvchilar faqatgina o‘z xohishlariga qarab kasb tanlasalar, ba’zi sohalarda mutaxassislar ortib ketib, boshqa muhim yo‘nalishlarda kadrlar yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli mamlakat qaysi sohalarga ko‘proq ehtiyoj sezayotganini hisobga olish muhim.

Biroq bu jarayonda eng asosiy jihat — o‘quvchining shaxsiy qiziqishi va qobiliyatidir. Agar bola o‘ziga mos bo‘lmagan kasbga majburan yo‘naltirilsa, u na muvaffaqiyatga erishadi, na o‘z ishidan qoniqish oladi.

Yoshlarni erta kasbga yo‘naltirishning ilmiy-nazariy asoslari pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va iqtisodiyot fanlari tutashgan nuqtada shakllanadi. Yoshlarning erta kasbga yo‘naltirilishi — bu psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va kasbiy rivojlanish nazariyalariga asoslangan ko‘p qirrali jarayondir. Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, bu jarayon boshlang‘ich maktabdan — hatto undan ham erta bosqichdan boshlanishi kerak. Bu orqali gender stereotiplarini kamaytirish, kasblar haqida tushuncha hosil qilish va kelajakdagi orzu-intilishlarni tez o‘zgarib borayotgan mehnat bozori talablariga moslashtirish mumkin [2].

Yani stereotip bu odamlar ongida shakllanib qolgan, hammaga bir xil qo‘llanadigan to‘g‘ri bo‘lmagan tasavvur. Bugun jamiyatimizda kasb tanlash borasida ham bir qancha steriotiplarni ko’rishimiz mumkin. Masalan:

“Qizlar faqat o‘qituvchi bo‘lishi kerak”, “Pul topadigan kasb toppish kerak”, “Zotimizda raqqosa yuq”, “Erkak kishi tikuvchi bo’lmaydi” va h.k. Kattalar tomonidan mana shunday qaytariqlarni tez -tez qo’llanilishi va erta yoshdan shunday qoliplar bilan yoshlarni zaharlanishi kasb tanlashdagi ulkan xatolarimiz hisoblanadi.

Agar bola erta yoshdan o‘z qiziqishi va qobiliyatini bilsa, u jamiyatdagi tayyor “shablon” fikrlarga ergashmaydi va o‘ziga mos kasbni tanlaydi.

Yoshlarni erta kasbga yo‘naltirishning afzalliklari:

✓ Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy yo‘naltirishni erta boshlash muhim natijalar beradi:

✓ Motivatsiyani oshiradi: O‘quvchilar fanlarning kelajakdagi kasblar bilan bog‘liqligini tushunadi.

✓ Tengsizlikni kamaytiradi: Turli kasblar va rol modellari bilan tanishish imkonini beradi.

✓ O‘ziga ishonchni oshiradi: Bolalar kelajagini boshqarish qobiliyatiga ega ekanini his qiladi.

✓ Samarali erta kasbiy yo‘naltirish faqat nazariy emas, balki faol ishtirokni talab qiladi — o‘yinlar, ish joylariga tashriflar, mutaxassislar bilan muloqot orqali amalga oshiriladi.

Kasb tanlashning asosida **“Xohlayman — Qila olaman — Kerak”** formulasi yotadi. Bu formula insonning shaxsiy xususiyatlarini mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Kasb tanlashning asosiy ilmiy omillari

1. Qiziqish va moyilliklar (“Xohlayman”) - Shaxsiy motivlar, qiziqishlar va qadriyatlar (nima menga zavq beradi, nimaga qiziqaman)kabi savollar berish va tafakkur qilish lozim. Shuningdek ,kasbiy muhit turini belgilovchi shaxsiy sifatlar "men nima bilan yaxshi ishlayman" (masalan, odamlar bilan ishlash, texnika bilan ishlash, belgilar bilan ishlash)
2. Qobiliyat va psixofiziologik xususiyatlar (“Qila olaman”) - Kasb uchun muhim sifatlar: aql darajasi, xotira, diqqat, qobiliyatlar. Sog‘liq holati: ish sharoitlariga moslik yoki cheklovlar
3. Talab va ehtiyoj (“Kerak”) - Mehnat bozorini tahlil qilish: kelajak 5–10 yilda qaysi kasblar talabgir bo‘ladi Iqtisodiy omillar: maosh, karyera imkoniyatlari, obro‘.

Ilmiy omillarni e’tiborga olmaslik (masalan, faqat obro‘ uchun kasb tanlash) tezda qiziqish yo‘qolishiga, tushkunlikka va kasbiy muammolarga olib keladi. Ongli tanlov esa, aksincha, muvaffaqiyatli o‘zini namoyon qilish va hayot sifatini oshirishga yordam beradi.

Yoshlarning erta kasbiy yo‘naltirilishi rivojlanish psixologiyasi, kasbni shakllantirish nazariyasi va ijtimoiy-kognitiv nazariyalarga asoslanadi. Bu yondashuvlar kasbiy rivojlanish bolalikdan boshlanadigan va butun umr davom etadigan jarayon ekanligini ta’kidlaydi. Zamonaviy qarashlar kasb tanlashni bir martalik hodisa sifatida emas, balki ta’lim va amaliy tajriba orqali o‘zini anglash, ijtimoiy ko‘nikmalar va kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish jarayoni sifatida ko‘radi.

Kasb tanlashning yoshga bog’liq rivojlanish tendensiyasini ko’rib chiqishimiz lozim. Maktabgacha yosh (3–6 yosh): O‘yin orqali turli kasblarni o‘rganish (masalan, o‘qituvchi, shifokor, haydovchi rollari), mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish.[4]

Boshlang‘ich maktab (7–12 yosh): Qiziqishlarni rivojlantirish, “mehnatsevarlik hissi”ni shakllantirish va kasblar olami haqida kengroq tasavvur hosil qilish.

O‘rta maktab (13+ yosh): Kasbiy identifikatsiyani shakllantirish, o‘quv yutuqlari va shaxsiy qiziqishlar asosida aniq kasbiy maqsadlarni belgilash.

Maktab yoshidagi bolalarni kasbga o‘rgatishga yoshligidan boshlash kerak. Maktabni bitirayotganda u kursga bor, bu kursga bor ,ingliz tili o‘qi emas.Bola xali maktabga chiqmasdan 6 yoshda aniqlasa bo‘ladiki, xarflarni tez o’zlashtiyaptim yoki raqamlarni tez oson o’zlashtiryaptimi.Ya’ni matematikani tez o‘rganayotgan bolada miyasini chap qismi yaxshi ishlaydi. Bunday bolalar matematika, aniq fanlar, fizika, dasturchi, hisobchi, bank xodimi kabi kasblarda o’z o’rnini yaxshi topadi . So‘zlarni tez va oson yod olyaptimi, bu bolani miyasining o‘ng qismi yaxshi rivojlanadi. Bunday bolalardan esa tarixchi, adabiyotchi, til o‘qtuvchilari , jurnalistlar, filologlar qolaversa, biz kabi psixologlar xam chiqadi. O‘ng miyasi yaxshi rivojlangan bola matematika o‘rganolmaydimi , yo‘q o‘rgana oladi lekin chap miyasi yaxshi rivojlangan bola bilan solishtirsa natija chap miyasi yaxshi rivojlangan bolada kuchliroq bo‘ladi.[3]

Shuning uchun bolani qiziqishlarini qaysi sohaga moyilligi borligini erta yoshda aniqlab, bolani kamsitib, sindirib qo‘ymasdan tayyorlash kerak. Ertaga katta hayotga qadam qoyganda bolada aniq bitta sohaga maqsadi bo‘lish kerak. Yani "men maktabni bitirib mana bu yerga o‘qishga kiraman mana bu soxani yetuk mutaxassisi bo‘laman" degan. Ya’ni Bolani erta yoshdan boshlab qo‘shimcha bilimlarga berish kerakki , bola qancha ertaroq bo‘lg‘usi kasbi haqida aniq rejaga ega bo‘lsa, demak u o‘sha kasbini ongli ravishda tanlaydi.

Adabiyotlar.

1. K.R.Bekchanova,A. R. İsmoilovna. Yoshlarni kasbga yo‘naltirishning psixologik xususiyatlari. ACADEMIK RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 Scientific Journal Impact Factor(SJIF)2021 yil
2. A.Xolmatova. Yoshlarni kasb- hunarga yónaltirishning nazariy shart-sharoitlari. Hujjat24.uz 2025 yil
3. Z.Pulatova. Kasb tanlashda qanday yo‘naltirish kerak.

KASB TANLASHDAGI STRESS VA NOANIQLIK MUAMMOLARI.

Muroddillayeva Mahliyoxon Abdulnosirjon qizi
Namangan davlat universiteti
Psixologiya yo’nalish (Masofaviy ta’lim)1 -kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan stress va noaniqlik muammolari keng yoritilgan. Yoshlarning kasb tanlashdagi psixologik holati, ichki va tashqi omillar ta’siri, ijtimoiy muhitning roli hamda zamonaviy mehnat bozori talablari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasb tanlash, stress, noaniqlik, yoshlar psixologiyasi, kasbiy yo‘naltirish, qaror qabul qilish, motivatsiya, mehnat bozori.*

Abstract: *This article extensively covers the problems of stress and uncertainty that arise in the process of choosing a profession. The psychological state of young people in choosing a profession, the influence of internal and external factors, the role of the social environment, and the requirements of the modern labor market are analyzed. The article also develops scientifically based recommendations for eliminating problems that arise in the process of choosing a profession.*

Keywords*: career choice, stress, uncertainty, youth psychology, career guidance, decision-making, motivation, labor market.*

Аннотация: *В данной статье подробно рассматриваются проблемы стресса и неопределенности, возникающие в процессе выбора профессии. Анализируется психологическое состояние молодых людей при выборе профессии, влияние внутренних и внешних факторов, роль социальной среды и требования современного рынка труда. В статье также разработаны научно обоснованные рекомендации по устранению проблем, возникающих в процессе выбора профессии.*

Ключевые слова: *выбор профессии, стресс, неопределенность, психология молодежи, профориентация, принятие решений, мотивация, рынок труда.*

Kasb tanlash har bir inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlardan biridir. Bu jarayon shaxsning nafaqat kelajakdagi mehnat faoliyatini,

balki uning jamiyatdagi o‘rni, turmush darajasi va hayotdan qoniqish darajasini ham belgilab beradi. Ayniqsa, yoshlar uchun kasb tanlash bosqichi juda mas’uliyatli hisoblanadi, chunki aynan shu davrda ular o‘z hayot yo‘lini aniqlab olishga harakat qiladilar. To‘g‘ri tanlangan kasb insonning o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishiga, o‘zini rivojlantirishiga va jamiyatga foyda keltirishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda zamonaviy jamiyatda kasblarning xilma-xilligi tobora ortib bormoqda. Yangi texnologiyalar, innovatsiyalar va global o‘zgarishlar natijasida ilgari mavjud bo‘lmagan ko‘plab yangi kasblar paydo bo‘lmoqda. Bu esa yoshlar oldida keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, tanlov qilish jarayonini yanada murakkablashtirmoqda. Bundan tashqari, oliy ta’limga kirishdagi kuchli raqobat, yuqori natijalarga erishish zarurati va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar yoshlar ruhiyatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ota-onalar, qarindoshlar va atrof-muhitning fikri ham yoshlarning kasb tanlash jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Ko‘pincha yoshlar o‘z qiziqishlari va qobiliyatlariga emas, balki boshqalarning kutgan natijalariga moslashishga majbur bo‘ladilar. Bu holat esa ichki ziddiyatlarni, ikkilanishni va o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishini keltirib chiqaradi. Natijada kasb tanlash jarayoni ko‘plab yoshlar uchun stress va noaniqlik bilan kechmoqda. Ular kelajakda qanday yo‘l tutishni, qaysi kasbni tanlashni aniq bilmay, turli shubha va xavotirlar ichida qolib ketadilar. Shu sababli mazkur muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish, uning sabablarini aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi [1].

Shaxsning kasbiy shakllanishi va mutaxassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsningtaraqqiyotiga mos holda boradi.Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mutahasissining mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir. Kasb tanlash har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb nafaqat daromad manbayi, balki inson umrining asosiy qismini sarflaydigan faoliyat hamdir. Kasb tanlayotgan shaxs undan talab qilinadigan bir qator jihatlarga ham alohida e'tibor qaratishi lozim:-umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim darajalaridagi bilimga ega bo'lish;-kasb tushunchasining ta'rifini, tabiatini, xususiyatlarini, kasblar sonini va turlarini bilishi; -kasbni inson hayotida qanchalik muhim ekanini tushunishi, u haqda ma'lum bir tasavvurlarga ega bo'lishi; -kasb tanlashga kerak bo'lgan idrok va xohishning bo'lishi; -o'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olishi; -kelajagi haqida tasavvurga ega bo'lishi.

-kasb tanlashga kerak bo'lgan idrok va xohishning bo'lishi;

-o'z maqsadi va manfaatini to'g'ri anglab olishi;

-kelajagi haqida tasavvurga ega bo'lishi [2].

Kasb tanlashdagi stressning asosiy sabablaridan biri — noto‘g‘ri tanlov qilishdan qo‘rqishdir. Tadqiqotchi D. Super o‘zining kasbiy rivojlanish nazariyasida shuni ta’kidlaydiki, inson hayotining muayyan bosqichlarida kasb tanlash jarayoni uning o‘zini anglash darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Yoshlar ko‘pincha o‘z kelajagini aynan shu qarorga bog‘liq deb hisoblab, katta mas’uliyatni his

qiladilar. Natijada ularda xavotir, ishonchsizlik va ruhiy bosim yuzaga keladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasb tanlash jarayonida yuqori darajadagi xavotir qaror qabul qilish sifatini pasaytiradi va ikkilanishni kuchaytiradi. [3]

Ikkinchi muhim omil — ota-onalar va jamiyat ta’siridir. J. Hollandning kasbiy tanlov nazariyasiga ko‘ra, inson o‘z shaxsiyati va qiziqishlariga mos keladigan muhitni tanlagandagina muvaffaqiyatga erishadi. Biroq amaliyotda ko‘pincha yoshlar o‘z qiziqishlariga mos kasbni emas, balki ota-onasi yoki jamiyat tomonidan yuqori baholanadigan kasblarni tanlashga majbur bo‘ladilar. Bu esa ichki ziddiyatni keltirib chiqarib, keyinchalik kasbiy qoniqmaslikka olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tashqi bosim asosida tanlangan kasbda ishlayotgan insonlarda motivatsiya past bo‘ladi va ular tezroq kasbini o‘zgartirishga moyil bo‘ladilar.[4]

Noaniqlik muammosi ham kasb tanlashda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy dunyoda kasblar tez o‘zgarib bormoqda, yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Iqtisodiy va texnologik rivojlanish natijasida ayrim kasblar yo‘qolib, yangilari shakllanmoqda. Brown James ta’kidlaganidek, mehnat bozori dinamikasi yoshlarning kasb tanlash jarayonini murakkablashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Yoshlar esa qaysi kasb kelajakda dolzarb bo‘lishini aniqlashda qiynaladilar. Bundan tashqari, o‘z qobiliyat va qiziqishlarini yetarlicha bilmaslik ham noto‘g‘ri tanlovga sabab bo‘ladi. Psixologik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini anglash darajasi past bo‘lgan shaxslarda kasb tanlashdagi noaniqlik yuqori bo‘ladi [5].

Mazkur muammolarni hal etish uchun yoshlar o‘zini anglashga e’tibor qaratishi lozim. Qiziqishlar va qobiliyatlarni aniqlash, turli kasblar haqida ma’lumot to‘plash, mutaxassislar bilan suhbatlashish muhim ahamiyatga ega. Super nazariyasiga ko‘ra, kasbiy rivojlanishda o‘zini anglash markaziy o‘rin tutadi va bu jarayon ongli tanlov qilish imkonini beradi. Shuningdek, ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish zarur.[6] Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktab va oliy ta’lim muassasalarida kasbiy maslahat xizmatlarining mavjudligi yoshlarning to‘g‘ri kasb tanlash ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

Kasb tanlashdagi stress va noaniqlik zamonaviy yoshlar uchun dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mehnat bozorining o‘zgaruvchanligi, raqobat va ijtimoiy bosim yoshlarning to‘g‘ri qaror qabul qilishini qiyinlashtiradi. Shu sababli bu jarayonda psixologik qo‘llab-quvvatlash, kasbiy yo‘naltirish va yoshlarning o‘zini anglash darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

To‘g‘ri tanlangan kasb insonning nafaqat moddiy, balki ma’naviy qoniqishiga ham xizmat qiladi. O‘z qiziqishi va qobiliyatiga mos kasb tanlagan insonlar hayotda ko‘proq muvaffaqiyatga erishadi. Shuning uchun kasb tanlashga ongli va mas’uliyat bilan yondashish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent, 2008. 123-bet.
2. Yo‘ldoshev J., Xasanov S. Pedagogika va psixologiya asoslari. Toshkent, 2015. 59-bet.
3. Super D. Career Development Theory. New York, 1990. 109-bet.
4. Holland J. Vocational Choice Theory. New Jersey, 1997. 35-bet.
5. Brown D. Career Information and Resources. Boston, 2002. 70-bet.

SMARTFONLAR DAVRI: SHAKLLANISHI VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Namangan davlat universiteti Qo‘shma ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i **Sh. D. Ablakulov**

Anotatsiya. *Maqola hozirgi davrda smartfonlar va uning jamiyatdagi, inson hayotidagi muhim vosita ekanligi, shuningdek, inson ijtimoiy hayotida, asosan psixikasiga smartfonning ta’siri haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari smartfonlar va ulardan foydalanishning psixologik jihatlarini ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish katta ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: *axborot texnologiyalari, smartfon, smartfonlar davri, axborot almashinuvi, shaxs psixikasi, shaxsiy identitet, onlayn identitet.*

Аннотатsiя. *В статье рассматривается, что в современную эпоху смартфоны являются важным инструментом в обществе и жизни человека, а также анализируется их влияние на социальную жизнь человека, прежде всего на его психику. Кроме того, раскрывается значимость научного и практического изучения психологических аспектов смартфонов и их использования.*

Ключевые слова: *информатsионные технологии, смартфон, эпоха смартфонов, обмен информатsией, психика личности, личная идентичность, онлайн-идентичность.*

Abstract. *The article discusses that in the modern era smartphones are an important tool in society and human life, as well as examines their impact on a person’s social life, primarily on their psyche. In addition, it highlights the importance of scientific and practical study of the psychological aspects of smartphones and their use.*

Keywords: *information technology, smartphone, smartphone era, information exchange, individual psyche, personal identity, online identity.*

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya siyosati doirasida media savodxonlikni rivojlantirishga e’tibor kuchaymoqda. Biroq bu jarayon samarali kechishi uchun ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik va har bir fuqaroning faol ishtiroki muhimdir.

O'zlikni anglash, ko'pincha shaxsning o'zini qanday tushunishi, qayerdan kelgani va hayotdagi maqsadlarini qanday amalga oshirishiga asoslanadi. Shaxs o'zining psixologik va ijtimoiy rollarini anglab, ularni amalga oshirishga intiladi. O'zlikni anglash jarayoni insonning o'zini ideal va haqiqiy holatda qanday ko'rishini, o'zining imkoniyatlari va cheklovlarini tushunishini o'z ichiga oladi.

Shaxsning o'zlikni anglashining rivojlanishi, ijtimoiy identitetning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, o'zlikni anglash jarayonida shaxs, ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy normativlar asosida o'zini qanday ko'rishini tushunadi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy aloqalarini, o'zini boshqalar bilan qanday bog'lashini va o'zining ijtimoiy roli haqida qanday fikr yuritishini shakllantiradi.

XXI asr axborot texnologiyalari asri sifatida inson hayotining barcha jabhalarini tubdan o‘zgartirdi. Ayniqsa, smartfonlar paydo bo‘lishi va keng

ommalashuvi jamiyat hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi kunda smartfon nafaqat aloqa vositasi, balki o‘qish, ishlash, muloqot qilish, hordiq chiqarish va shaxsiy identitetni namoyon qilish vositasiga aylandi. Shu sababli smartfonlar davrini psixologik jihatdan o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Smartfonlar davri – bu insonning kundalik faoliyati raqamli qurilmalar orqali amalga oshiriladigan tarixiy bosqichdir. Bu davrning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

Tezkor axborot almashinuvi – bu ma’lumotlarning real vaqt rejimida, qisqa muddat ichida bir shaxsdan boshqasiga yoki keng auditoriyaga yetkazilish jarayonidir. Smartfonlar va internet texnologiyalari bu jarayonni maksimal darajada tezlashtirdi. Uning yordamida inson dunyoning istalgan nuqtasi bilan turi xildagi xavolalar orqali bir necha soniyada bog‘lana oladi.

Onlayn identitet – bu shaxsning internet makonida o‘zini qanday namoyon qilishi, taqdim etishi va boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishidir. Smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlar rivoji bilan insonning **“raqamli men”i** real hayotdagi identitetining muhim qismiga aylandi.

Identitet nazariy jihatdan shaxsning o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu tushuncha ilmiy muomalaga Erik Erikson tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, identitet – bu shaxsning o‘ziga xosligini anglash va ijtimoiy rollarni qabul qilish jarayonidir. Raqamli muhitda esa bu jarayon yangi shakl kasb etadi.

Doimiy bog‘liqlik holati – bu shaxsning internet va mobil qurilmalar orqali doimiy ravishda tarmoqqa ulangan holda bo‘lishi, axborot va ijtimoiy aloqalardan uzilmaslik holatidir. Smartfonlar, mobil internet va ijtimoiy tarmoqlar rivoji bilan bu holat zamonaviy turmush tarzining odatiy qismiga aylandi.

Raqamli ijtimoiylashuv – bu shaxsning internet va raqamli texnologiyalar vositasida jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy rollarni egallashi va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonidir. An’anaviy ijtimoiylashuv oila, maktab va tengdoshlar guruhi orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu jarayon virtual makonda ham faol davom etmoqda.

Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvori kuzatish va taqlid orqali shakllanadi. Raqamli muhitda esa kuzatish obyekti sifatida blogerlar, influencerlar va ommaviy shaxslar maydonga chiqadi.

Psixologik nuqtai nazardan smartfonlar inson ongida “raqamli kengaytma” (digital extension) vazifasini bajaradi. Inson xotirasining bir qismi, ijtimoiy aloqalari va hatto emotsional tajribasi smartfon orqali boshqariladi.

Smartfonlar yordamida inson bir vaqtning o‘zida bir nechta kommunikativ maydonda mavjud bo‘la oladi. Bu esa ko‘p vazifalilik (multitasking) illuziyasini yaratadi. Ammo tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, doimiy ravishda diqqatni bo‘lish kognitiv samaradorlikni pasaytiradi.

Smartfonlarning shaxs psixikasiga ta’sirini ilmiy tahlil qilish muhimdir. Smartfonlarning psixologik ta’sirini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin:

Kognitiv jarayonlarga ta’siri - diqqatning qisqarishi, uzoq muddatli xotiraning susayishi hamda tezkor, lekin yuzaki fikrlash

Emotsional holatga ta’siri - smartfon orqali ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish emotsional fonni keskin o‘zgartirishi mumkin. Masalan: taqqoslash sindromi, o‘z-o‘zini baholashning pasayishi va “FOMO” (Fear of Missing Out – biror narsani o‘tkazib yuborish qo‘rquvi).

Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal hayot tasvirlari shaxsda norozi kayfiyatni kuchaytirishi mumkin.

Qaramlik shakllanishi - smartfon qaramligi xulq-atvoriy (behavioral) qaramlik turiga kiradi. U quyidagi belgilar bilan namoyon bo‘ladi:

- Telefonsiz bezovtalik
- Doimiy tekshirish ehtiyoji
- Real hayotdagi faoliyatning kamayishi

Smartfonlarning shaxs psixikasiga ta’siri murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. U inson hayotini qulaylashtiradi, lekin noto‘g‘ri foydalanilganda kognitiv, emotsional va ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Asosiy vazifa – texnologiyani ongli ravishda boshqarish, ya’ni smartfon insonni emas, inson smartfonni boshqarishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sherry Turkle – Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other (2011).
2. Jean M. Twenge – iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious… (2017).
3. Nicholas Carr – The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains (2010).
4. Manuel Castells – The Rise of the Network Society (1996).
5. Adrian F. Ward ва бошқалар – “Brain Drain: The Mere Presence of One’s Own Smartphone Reduces Available Cognitive Capacity” (2017).

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA O‘SMIRLARNING KASBIY INTILISHLARIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
Namangan davlat universiteti dotsenti
Toshpo‘latova Ra'no Abduvohid qizi
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning kasbiy tanloviga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlar tahlil qilinadi. Texnologiyalar rivojlanishi natijasida an’anaviy kasblarning o‘zgarishi va yangi paydo bo‘layotgan sohalarning o‘smirlar dunyoqarashiga ta’siri yoritilgan.*

Shuningdek, raqamli muhitda kasbiy o‘zlikni anglashning ijtimoiy-psixologik jihatlari bo‘yicha ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli transformatsiya, o‘smirlik davri, kasbiy tanlov, psixologik mexanizmlar, ijtimoiy media, raqamli ko‘nikmalar.*

Аннотация: *В данной статье анализируются психологические особенности профессионального выбора подростков в условиях цифровой трансформации. Освещается влияние изменений традиционных профессий и появления новых сфер в результате*

развития технологий на мировоззрение подростков. Также представлены научные выводы по социально- психологическим аспектам формирования профессиональной идентичности в цифровой среде.

Ключевые слова: *цифровая трансформация, подростковый возраст, профессиональный выбор, психологические механизмы, социальные медиа, цифровые навыки.*

Annotation: *This article analyzes the psychological characteristics of career choice among adolescents in the context of digital transformation. It highlights the impact of changes in traditional professions and the emergence of new fields due to technological development on adolescents' worldview. Additionally, scientific conclusions are presented regarding the socio-psychological aspects of professional identity formation in the digital environment.*

Keywords: *digital transformation, adolescence, career choice, psychological mechanisms, social media, digital skill*

Bugungi shiddatli globallashuv va texnologik taraqqiyot asrida insoniyat jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan "To‘rtinchi sanoat inqilobi" (Industry 4.0) guvohiga aylanmoqda. Bu jarayonning markazida turgan raqamli transformatsiya nafaqat ishlab chiqarish yoki iqtisodiy munosabatlarni, balki inson psixologiyasi, uning qadriyatlar tizimi va kelajakka bo‘lgan intilishlarini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Ayniqsa, shaxs sifatida shakllanishning eng muhim va krizisli davri hisoblangan o‘smirlik bosqichida bo‘lgan yoshlar uchun raqamli muhit endi shunchaki yordamchi vosita emas, balki ularning hayot tarzi, muloqot maydoni va asosiy axborot manbaiga aylandi.O‘smirlik davri psixologiyasida kasbiy o‘zlikni anglash (professional self-determination) masalasi har doim markaziy o‘rinni egallab kelgan. Biroq, agar avvalgi avlodlar uchun kasb tanlashda oilaviy an’analar, ustozlar o‘giti yoki jamiyatdagi barqaror ijtimoiy status asosiy omil bo‘lgan bo‘lsa, bugungi o‘smirlar — "Z-avlod" va "Alfa avlod" vakillari mutlaqo boshqa psixologik reallikda qaror qabul qilmoqdalar. Ular uchun ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, TikTok, YouTube va boshqalar) nafaqat ko‘ngilochar maskan, balki yangi kasbiy modellarni taqdim etuvchi kuchli psixologik stimulyator vazifasini o‘tamoqda.Raqamli texnologiyalar davrida ko‘plab an’anaviy kasblarning transformatsiyaga uchrashi yoki butunlay yo‘qolib borishi o‘smirlarda o‘ziga xos "kasbiy xavotir"ni (vocational anxiety) keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi "muvaffaqiyatli hayot" obrazlari, bloggerlik, kontent-meykerlik yoki raqamli tadbirkorlik kabi yangi sohalarning jozibador ko‘rinishi o‘smirlarning kasbiy intilishlarida sub’ektiv tasavvurlarning ustunligiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa ko‘pincha real imkoniyatlar va virtual orzular o‘rtasidagi psixologik ziddiyatni chuqurlashtiradi.Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, raqamli transformatsiya jarayonida o‘smirlarning kasbiy qiziqishlarini to‘g‘ri tashxis qilish, ularning ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllangan yuzaki tasavvurlarini chuqur ilmiy-kasbiy motivatsiyaga aylantirish bugungi kun psixologiyasi oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. O‘smirlarning raqamli dunyodagi harakat strategiyalarini o‘rganish orqali biz nafaqat ularning shaxsiy kamolotiga, balki jamiyatning intellektual salohiyatini to‘g‘ri taqsimlashga ham erishamiz.

Psixologik nuqtayi nazardan, o‘smirlik "Men" konsepsiyasining qayta qurilish davridir. Bu bosqichda bola o‘zini kattalar dunyosida ko‘rishga harakat qiladi.

Raqamli dunyo o‘smirga turli "rollar"ni sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy tarmoqlardagi virtual shaxsiyat (avatar, profil) o‘smirning kasbiy intilishlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Agar o‘smir virtual olamda o‘z qobiliyatlarini namoyon qila olsa (masalan, videomontaj, grafik dizayn yoki blog yuritish), unda yangi avlod kasblariga nisbatan kuchli motivatsiya shakllanadi. Biroq, bu jarayon ko‘pincha real imkoniyatlar va virtual tasavvurlar o‘rtasidagi ziddiyatni keltirib chiqarishi bilan xavflidir.Ijtimoiy tarmoq algoritmlari o‘smirning qiziqishlarini "tor yo‘nalishga" (filter bubble) solib qo‘yadi. Agar o‘smir bir marta IT yoki kiber-sport haqida ma’lumot qidirsa, tarmoq unga doimiy ravishda shu mavzudagi kontentni uzatadi. Bu esa o‘smirda boshqa kasblar (masalan, fundamental fanlar, pedagogika, tibbiyot) haqida axborot tanqisligini keltirib chiqaradi. Psixologik jihatdan bu holat "kognitiv chalg‘ish"ga sabab bo‘lib, o‘smirning tanlov erkinligini cheklaydi va uni yuzaki jozibador ko‘ringan sohalarga yo‘naltirib yuboradi.Zamonaviy kasblar o‘smirdan nafaqat texnik bilimlarni (hard skills), balki yuqori darajadagi yumshoq ko‘nikmalarni (soft skills) ham talab qiladi. Raqamli muhitda muloqot qilish, jamoada virtual ishlash, kreativ fikrlash va muammolarni raqamli yechish qobiliyati o‘smirlar uchun eng muhim kompetensiyaga aylanmoqda. Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, raqamli texnologiyalar bilan faol shug‘ullanuvchi o‘smirlarda mantiqiy fikrlash tezlashadi, biroq emotsional intellekt (boshqalarni tushunish, yuzma-yuz muloqot) biroz sustlashishi mumkin. Bu esa kelajakda kasbiy faoliyatda moslashish (adaptatsiya) muammolarini keltirib chiqarishi ehtimoli bor.Raqamli transformatsiya davrida ota-ona va o‘qituvchi endi yagona "bilim manbai" emas. Ular endi "navigator" (yo‘l ko‘rsatuvchi) vazifasini o‘tashi kerak. O‘smirga raqamli dunyodagi axborotlarni saralashni, tanqidiy fikrlashni o‘rgatish — bugungi psixologik yordamning asosi bo‘lishi lozim. Maqsad o‘smirni texnologiyalardan uzish emas, balki texnologiyalar orqali o‘z iste’dodini kashf etishga ko‘maklashishdir.

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar va raqamli muhitning o‘smirlar psixologiyasiga ta’sirini o‘rganish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:Birinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida o‘smirlarning kasbiy intilishlari endi faqat an’anaviy ijtimoiy institutlar (oila va maktab) ta’sirida emas, balki global axborot makoni va ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari ostida shakllanmoqda. Bu jarayonda virtual identifikatsiya o‘smirning real hayotdagi kasbiy tanlovini belgilovchi asosiy psixologik drayverga aylanmoqda.Ikkinchidan, zamonaviy kasblar transformatsiyasi o‘smirlardan nafaqat yuqori texnologik bilimlarni, balki kognitiv moslashuvchanlik, kritik fikrlash va emotsional intellekt kabi "soft skills" ko‘nikmalarini ham talab etmoqda. Biroq, ijtimoiy tarmoqlardagi "oson muvaffaqiyat" vizualizatsiyasi o‘smirlarda kasbiy faoliyatning mehnat talab qiladigan jihatlari haqida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otib, ularda professional umidsizlik (fraustratsiya) xavfini oshirmoqda.Uchinchidan, o‘smirlarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirishning psixologik mexanizmlari tizimli yondashuvni talab etadi. Bunda psixologik diagnostika vositalari nafaqat o‘smirning bugungi qiziqishlarini, balki uning raqamli dunyodagi o‘zgarishlarga moslashish potensialini ham baholashi zarur.Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’lim tizimida media-psixologiya va kognitiv gigiyena elementlarini joriy etish, o‘smirlarga axborot oqimini saralashni o‘rgatish

hamda ularning raqamli qobiliyatlarini real mehnat bozori talablari bilan integratsiya qilish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifasidir. Raqamli dunyoda ongli ravishda qilingan kasbiy tanlov — o‘smirning kelajakdagi shaxsiy va professional kamolotining kafolatidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Baratov Sh.R. "Psixologik xizmat: nazariya va amaliyot". – Toshkent: "Zamin nashr", 2021.
3. Schwab K. "To‘rtinchi sanoat inqilobi". – Toshkent: "O‘zbekiston", 2020.
4. Ismoilova N. "O‘smirlarda kasbiy identifikatsiyani shakllantirishning psixologik xususiyatlari". – Ilmiy jurnal, Toshkent, 2023.

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС ВУЗОВ И ПРЕОДОЛЕНИЕ КОГНИТИВНОГО ДИССОНАНСА У СТУДЕНТОВ

Мансурова Гульмира Рафаэловна
преподаватель кафедры «Психология»
Наманганского государственного
университета

Аннотация: *В статье рассматривается влияние цифровых технологий на профессиональный образовательный процесс в вузах и механизмы преодоления когнитивного диссонанса у студентов. Показано, что цифровизация повышает гибкость, доступность и персонализацию обучения, но одновременно усиливает когнитивную нагрузку и может приводить к противоречию между цифровым поведением студента и реальными результатами его познавательной деятельности.*

Ключевые слова: *цифровизация, высшее образование, цифровые технологии, когнитивные функции, когнитивный диссонанс, метакогнитивная рефлексия, цифровая грамотность, гибридное обучение.*

Annotatsiya: *Maqolada raqamli texnologiyalarning oliy ta’lim muassasalaridagi kasbiy ta’lim jarayoniga ta’siri va talabalarda kognitiv dissonansni bartaraf etish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Raqamlashtirish ta’limning moslashuvchanligi, qulayligi va shaxsiylashtirilishini oshirishi, biroq bir vaqtning o‘zida kognitiv yuklamani kuchaytirishi va talabaning raqamli xulq-atvori bilan uning bilish faoliyatining haqiqiy natijalari o‘rtasidagi ziddiyatga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish, oliy ta’lim, raqamli texnologiyalar, kognitiv funksiyalar, kognitiv dissonans, metakognitiv refleksiya, raqamli savodxonlik, gibrid ta’lim.*

Abstract: *This article examines the impact of digital technologies on the professional educational process in higher education institutions and mechanisms for overcoming cognitive dissonance among students. It is shown that digitalization increases the flexibility, accessibility, and personalization of learning, but at the same time increases the cognitive load and can lead to a contradiction between a student's digital behavior and the actual results of their cognitive activity.*

Keywords: *digitalization, higher education, digital technologies, cognitive functions, cognitive dissonance, metacognitive reflection, digital literacy, hybrid learning.*

Цифровизация высшего образования является одной из ключевых тенденций современной образовательной политики, затрагивающей как содержательную, так и организационную сторону профессионального обучения в вузах. Внедрение LMS-систем, онлайн-курсов, интерактивных учебных платформ и цифровых сервисов изменяет структуру учебного процесса, делая его более гибким и доступным, но одновременно усиливает нагрузку на когнитивные функции обучающихся.

В этих условиях у студентов всё чаще возникает когнитивный диссонанс — психическое состояние, возникающее при несоответствии между их цифровым поведением (многозадачность, высокая скорость переключения, пассивное потребление контента) и реальными результатами познавательной деятельности (низкий уровень запоминания, сложности с синтезом и применением знаний). Цель статьи — на основе научно доказуемых исследований показать, как цифровые технологии влияют на профессиональный образовательный процесс вузов и какие механизмы педагогического сопровождения могут помочь преодолеть когнитивный диссонанс у студентов.

Цифровизация вузовского образования проявляется в широком использовании интегрированных цифровых платформ, таких как Moodle, интерактивных заданий, цифровых портфолио, подкастов и других онлайн-ресурсов. Эти инструменты позволяют переносить часть учебного процесса в виртуальное пространство, формируя смешанные и дистанционные форматы обучения, в которых сочетаются онлайн-компоненты и очные сессии.

Одновременно цифровизация меняет роль преподавателя: от «носителя знаний» к фасилитатору, организатору цифровой образовательной среды и настроителю метакогнитивных стратегий. В условиях цифрового обучения преподаватель проектирует учебный процесс так, чтобы цифровые инструменты способствовали не только передаче информации, но и развитию критического мышления, рефлексии и умения самостоятельно управлять познавательной деятельностью студента.

Цифровые среды обучения могут одновременно облегчать и усложнять когнитивную деятельность студентов. С одной стороны, цифровые технологии позволяют многократно повторять материал, выбирать индивидуальный темп и формат усвоения, а также получать своевременную обратную связь, что повышает эффективность обучения, особенно в профессиональных и иноязычных дисциплинах. С другой стороны, обилие уведомлений, постоянное переключение между вкладками и приложениями, а также высокая скорость подачи информации увеличивают когнитивную нагрузку и снижают устойчивость внимания.

Исследования, проведённые в контексте цифрового обучения, показывают, что пассивное потребление цифрового контента (например, просмотр видеолекций без активной репрезентации, рефлексии и практической работы) может приводить к снижению уровня запоминания и понимания материала, особенно в сложных профессиональных курсах. В этих

условиях студент формирует ощущение, что «формально выполнил задание» (просмотрел видео, прошёл тест), но внутренне не ощущает целостности знаний и не может уверенно применять их в практике.

Подобное расхождение между формальным выполнением учебных задач и реальным уровнем понимания и усвоения знаний становится одной из основ когнитивного диссонанса в цифровой среде. Студент ощущает противоречие между «знаю» и «не могу», между «выполнил в системе» и «не понимаю сути», что приводит к внутреннему напряжению и снижению мотивации.

Современная психология цифрового обучения связывает когнитивный диссонанс с противоречием между реальным уровнем познавательных возможностей студента и его самопониманием в цифровой среде («цифровой двойник»). В условиях активного использования цифровых ресурсов значительная часть учебной и социальной жизни переносится в онлайн-пространство, что требует дополнительных когнитивных усилий и усиливает переживание расхождения между реальным и виртуальным «я».

Это особенно заметно при лёгкой форме цифровой зависимости, когда студент постоянно переключается между мессенджерами, социальными сетями, учебными платформами и развлекательным контентом, что приводит к рассеянности внимания и снижению концентрации. В такой ситуации диссонанс усиливается: студент ощущает собственную компетентность в цифровой среде (умеет быстро находить информацию, переключаться между задачами), но при этом не может достигать стабильных результатов в обучении.

Для студентов с низким уровнем цифровой грамотности и саморегуляции когнитивный диссонанс может трансформироваться в эмоциональное напряжение, тревогу и снижение мотивации, что негативно сказывается на успешности обучения и адаптации к вузовскому ритму.

Для эффективного преодоления когнитивного диссонанса в вузовском образовательном процессе научные исследования выделяют несколько взаимосвязанных направлений педагогического сопровождения.

Включение цифровых инструментов, ориентированных на рефлексию (электронные дневники, цифровые портфолио, само- и взаимооценка), способствует осознанию студентом собственных стратегий мышления и учёбы. Экспериментальные данные показывают, что регулярная работа с цифровыми портфолио и формирующим оцениванием повышает уровень саморегуляции и снижает переживание противоречия между «знаю» и «умею». Рефлексивные практики помогают студенту выявлять собственные ошибки, планировать действия, оценивать результаты и корректировать стратегию обучения, что сглаживает когнитивный диссонанс.

Исследования подчёркивают, что положительный эффект цифровых инструментов в основном проявляется у студентов с уже развитыми цифровыми компетенциями; при слабой «цифровой готовности» диссонанс усиливается. Вузам целесообразно внедрять модули цифровой грамотности, в рамках которых студенты учатся эффективно управлять вниманием, планировать время, фильтровать поток информации и отбирать релевантные

цифровые ресурсы. Такой подход позволяет снизить когнитивную перегрузку, уменьшить цифровой стресс и повысить ощущение контроля над собственным обучением.

Сочетание онлайн-компонентов с очным обсуждением, проектной работой и синхронными интерактивными сессиями сохраняет эмоциональную и социальную сторону обучения, что снижает риск изоляции и социального диссонанса. Исследования показывают, что в условиях гибридного обучения студенты чаще отмечают ощущение целостности учебного процесса и снижение тревожности по сравнению с чисто дистанционными форматами. Личное взаимодействие с преподавателем и сверстниками помогает закрепить знания, уточнить непонятные моменты и снизить напряжение, связанное с противоречием между цифровым и реальным опытом обучения.

Современные концепции цифровой дидактики предлагают проектировать цифровые среды с учётом конкретных когнитивных задач: минимизировать визуальную неопределённость, ограничивать многозадачность, структурировать информацию по уровням сложности и заранее предусматривать этапы рефлексии. Такой подход позволяет снизить когнитивную нагрузку и предотвратить ситуацию, когда студент «перегружает» мозг потоком цифрового контента, не успевая перерабатывать его в систему знаний. Цифровая дидактика, основанная на научных данных, ориентирована на то, чтобы цифровые инструменты не только передавали информацию, но и поддерживали формирование устойчивых и осмысленных когнитивных структур.

Цифровые технологии стремительно трансформируют профессиональный образовательный процесс в вузах, повышая его гибкость, доступность и персонализацию, однако при отсутствии педагогически продуманной организации они могут усиливать когнитивную нагрузку и порождать когнитивный диссонанс у студентов. Научные исследования показывают, что ключом к преодолению этого диссонанса является сочетание цифровых инструментов с развитием метакогнитивных навыков, цифровой грамотности и гибридной образовательной модели, учитывающей как когнитивные, так и эмоциональные аспекты обучения.

Для вузов важным становится не просто внедрение цифровых платформ, а их интеграция в систему метадидактического проектирования учебного процесса, где цифровая среда становится поддержкой осмысленного и устойчивого усвоения знаний, а не источником дополнительного внутреннего напряжения для студентов.

Использованная литература:

1. Бурыкина М.Ю., Гладченкова С.В. и др. Влияние интеграции цифровых инструментов в образовательный процесс на развитие креативности и самостоятельности студентов // Управление образованием: теория и практика. 2024. № 9-2. DOI: 10.25726/p0057-8023-8669-n

2. Лисицына Л.С., Лямин А.В. и др. Проблема поддержки когнитивных функций в процессе электронного обучения // Научно-технический вестник информационных технологий, механики и оптики. 2014. № 6.

3. Мансурова Г. Р. Особенности я–концепции личности проявляющиеся в интернет–коммуникации //Ученый XXI века. – 2022. – №. 5-1 (86). – С. 52-54.
4. Войскунский А.Е. Информационная безопасность: психологические аспекты // Национальный психологический журнал. 2010. № 1(3).

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KO'NIKMALAR

Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi
Rustamova Turdixon Ne'matjonovna

Anotatsiya. *So'nggi yillarda butun dunyoda raqamli texnologiyalar hayotimizning har bir sohasiga chuqur kirib kelmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasi bu o'zgarishlardan chetda qolmayapti. O'quvchilarni raqamli asr talablari asosida tayyorlash, ularning bilim olish uslublarini moslashtirish va kasbiy tayyorgarlikni zamonaviylashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. O'zbekiston ham bu borada muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi asosida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ustuvor yo'nalishga aylangan.*

Anotation. *In recent years, digital technologies have deeply penetrated every sphere of our lives. The field of education, in particular, has not remained untouched by these changes. Preparing students in accordance with the requirements of the digital age, adapting their learning methods, and modernizing professional training are among today's pressing tasks. Uzbekistan is also implementing significant reforms in this area. Within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" program, the modernization of the education system, the introduction of innovative technologies, and the training of internationally competitive specialists have become priority directions.*

Аннотация. *В последние годы цифровые технологии глубоко проникают во все сферы нашей жизни. Особенно образование не остается в стороне от этих изменений. Подготовка учащихся в соответствии с требованиями цифровой эпохи, адаптация методов обучения и модернизация профессиональной подготовки — одни из актуальных задач сегодняшнего дня. Узбекистан также реализует важные реформы в этом направлении. В рамках программы «Цифровой Узбекистан – 2030» модернизация системы образования, внедрение инновационных технологий и подготовка конкурентоспособных кадров на международном уровне стали приоритетным направлением.*

Ushbu ilmiy ishda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoni va kasbiy ko'nikmalar shakllanishiga ta'sirini chuqur tahlil qilish maqsad qilingan. Shu asosda tadqiqotning metodologik yondashuvlari, usullari, ma'lumot yig'ish manbalari va ularni tahlil qilish yo'llari aniqlashtirildi.

1. Tadqiqotning metodologik asosi.

• Konstruktivizm nazariyasi – bilim o'quvchining faol ishtiroki orqali shakllanishi,

• Kompetensiyaga asoslangan ta'lim yondashuvi – bilim emas, balki amaliy ko'nikmalar asosiy maqsad bo'lishi,

Raqamli pedagogika nazariyasi – ta'lim jarayonini texnologik vositalar orqali optimallashtirishga tayangan holda yondashildi.

2. Tadqiqot metodlari va ularning qo'llanilishi

a) Tahliliy (analitik) usul

Raqamli texnologiyalar bo‘yicha xalqaro va milliy manbalar o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, strategik dasturlar (masalan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”) tahlil qilindi.

UNESCO, OECD, World Bank kabi xalqaro tashkilotlarning ta’limdagi raqamli transformatsiya haqidagi hisobotlari o‘rganildi.

b) Taqqoslash (komparativ) usuli

O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi Koreya Respublikasi, Singapur, Estoniya kabi ilg‘or mamlakatlar bilansolishtirildi.

Masalan, raqamli texnologiyalarni joriy etish sur’ati, o‘quvchilarning IKT bo‘yicha savodxonligi, o‘qituvchilarning tayyorgarligi ko‘rsatkichlari keltirildi.

d) Tajriba (empirik) usuli

Bir nechta o‘quv guruhlarida raqamli texnologiyalar (Zoom, Mentimeter, Quizizz, Canva, Padlet) yordamida dars o‘tildi. Shu darslardan keyin talabalar bilim darajasi va faol ishtirok darajasi kuzatildi. Raqamli usullarni qo‘llagan guruhda o‘quvchilarning motivatsiyasi va mustaqil ishlash darajasi sezilarli oshgani qayd etildi. Albatta! Quyida sizning maqolangiz uchun "Raqamli texnologiyalar davrida ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar" mavzusiga mos TAHLIL VA MUHOKAMA qismini ilmiy, asosli, dolzarb muammolar va yechimlar bilan boyitib yozib berdim. Bu qism maqolangizda asosiy bahs yuritiladigan va fikrmulohazalar bildiriladigan bo‘lim hisoblanadi.

Tahlil va Muhokama.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalarga ta’siri hozirgi kunda global miqyosda muhokama qilinayotgan eng dolzarb mavzulardan biridir.

Ushbu tadqiqot davomida bir nechta muhim jihatlar tahlil qilindi.

1. Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimida yangi imkoniyatlar yaratmoqda

Masofaviy va onlayn ta’limning rivojlanishi – talabalar istalgan joydan

turib o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Platformalar (Moodle, Coursera, EdX, Google Classroom, Zoom) orqali o‘qituvchilar interaktiv, qiziqarli darslar tashkil etmoqda.

O‘z-o‘zini o‘rgatish va mustaqil izlanish imkoniyatlari oshdi. Bu kasbiy ko‘nikmalar – muammo yechish, tanqidiy fikrlash, innovatsion yondashuv kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. O‘zbekistonda joriy etilgan loyihalar ijobiy natija bermoqda

“One Million Uzbek Coders”, ZiyoNET, IT Park, “Raqamli texnologiyalar maktabi” kabi tashabbuslar raqamli savodxonlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

2023-yil yakunlariga ko‘ra, 250 mingdan ortiq o‘quvchi dasturlash asoslarini o‘rgandi, bu esa kelajakda mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga aylanishi mumkinligini ko‘rsatmoqda.

3. Kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda amaliyotning roli

Raqamli texnologiyalar yordamida simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv mashqlar orqali kasbiy bilimlar mustahkamlanmoqda. Masalan, tibbiyotda virtual operatsiyalar, muhandislikda 3D model orqali mashq qilish, iqtisodda real vaqtli ma’lumotlar asosida tahlil qilish imkoniyatlari paydo bo‘ldi.

6. Muhokama va takliflar

O‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalarni oshirish kurslarini kengaytirish kerak. Bu kurslar nazariy emas, balki amaliy mashg‘ulotlar asosida bo‘lishi lozim.

Har bir hududda raqamli texnologiyalar markazlari tashkil etilishi kerak – talabalar uchun bepul internet, zamonaviy kompyuterlar va ustozlar bo‘lgan makon.

Kasbiy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni o‘qitishga oid alohida modullar joriy etilishi zarur (sun’iy intellekt asoslari, bulutli texnologiyalar, IT xavfsizlik va h.k.).

Raqamli texnologiyalar ta’lim va kasb-hunar yanada qulay, ochiq, innovatsion va samarali shaklga ega bo‘lmoqda. ga yo‘naltirish tizimida tub o‘zgarishlar olib kirmoqda. Ular yordamida o‘quv jarayonini tashkil etadi.Biroq bu imkoniyatlardan to‘liq foydalana olish uchun ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli madaniyat, texnik tayyorgarlik va kompetensiyalarni rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar nafaqat bilim olish, balki kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, ta’lim tizimini zamon bilan hamqadam qiluvchi texnologiyalarni joriy etish va ulardan to‘g‘ri foydalanish – zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning eng dolzarb yo‘nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Mikheev A., Serkina Y., Vasyaev A.Current Trends in the Digital Transformation of Higher Education Institutionsin Russia.Nashr yili: 2023 DOI: https://doi.org/10.1007/s10639-023-11828-z

2.Gromova N.S.Digitalization of Russian Highede Education.Nashr yili: 2020 DOI: https://doi.org/10.15405/epsbs.2020.10.03.121

3.Strekalova N.B.Risks of Introducing Digital Technologies in Education. Nashr yili: 2023DOI: https://doi.org/10.1051/bioconf/202308004

4.Kuzmenko M.V., Potasheva O.V.The Effective Use of Digital TechnologiesinEducation: Positive Experience of Regional Innovation Platforms.Nashr yili:2019DOI: https://doi.org/10.2991/mtde-19.2019.140

KIBERBULLINGNING BOLALARGA PSIXOLOGIK TA’SIRINING XUSUSIYATLARI

Axrorov Zohidjon Zokirjonovich
Namangan davlat universiteti San’at va sport fakulteti, Pedagogika kafedrasi o’qituvchisi
e-mail: zohidjonaxrorov@1gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur ishda kiberbullingning bolalar psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri, uning asosiy xususiyatlari va oqibatlari tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida bolalar o‘rtasida virtual muloqotning kengayishi bilan birga, kiberbulling muammosi ham dolzarb masalaga aylangan. Tadqiqotda kiberbullingning bolalarda stress, qo‘rquv, ishonchsizlik, ijtimoiy ajralish va depressiv holatlarga olib kelishi yoritiladi. Shuningdek, uning oldini olish yo‘llari va psixologik yordam mexanizmlari haqida fikrlar bildiriladi.*

Kalit so‘zlar: *kiberbulling, bolalar psixologiyasi, internet muhit, ruhiy bosim, stress, depressiya, ijtimoiy izolyatsiya, onlayn zo‘ravonlik, psixologik ta’sir, profilaktika*

Аннотация: *В данной статье анализируются особенности психологического воздействия кибербуллинга на детей, а также его основные характеристики и негативные последствия. В условиях стремительного развития информационно-коммуникационных технологий и расширения виртуального общения среди детей проблема кибербуллинга приобретает особую актуальность как социально-психологическое явление. В работе научно обосновывается, что кибербуллинг вызывает у детей стресс, страх, недоверие, социальную изоляцию и депрессивные состояния. Также рассматриваются пути профилактики данного явления и механизмы оказания психологической помощи.*

Ключевые слова: *кибербуллинг, детская психология, интернет-среда, психологическое давление, стресс, депрессия, социальная изоляция, онлайн-насилие, психологическое воздействие, профилактика.*

Abstract: *This article analyzes the psychological impact of cyberbullying on children, as well as its main characteristics and negative consequences. With the rapid development of information and communication technologies and the expansion of virtual communication among children, the problem of cyberbullying has become an urgent socio-psychological issue. The study demonstrates that cyberbullying leads to stress, fear, distrust, social isolation, and depressive states in children. It also discusses preventive measures and mechanisms for providing psychological support.*

Keywords: *cyberbullying, child psychology, internet environment, psychological pressure, stress, depression, social isolation, online violence, psychological impact, prevention*

Zamonaviy raqamli jamiyatda bolalar hayotining ajralmas qismiga aylangan internet va ijtimoiy tarmoqlar nafaqat imkoniyatlar, balki jiddiy xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Shunday muammolardan biri — kiberbulling bo‘lib, u bolalarning psixologik holatiga o‘ziga xos va murakkab ta’sir ko‘rsatadi. Kiberbullingning ta’siri an’anaviy bullingdan farqli ravishda bir qator xususiyatlarga ega. Bezorilik deganda, odatda, jamoa a’zolaridan birining boshqasi tomonidan, lekin ko‘pincha bir guruh shaxslar tomonidan tajovuzkor ta’qib qilinishi tushuniladi.

Keng ma’noda bezorilik — bu boshqa shaxsning qadr-qimmatini, masalan, maktabda, ish joyida, qamoqxonada, Internet orqali va hokazolarda tizimli, uzoq muddatli ta’qib qilish, haqorat qilish, kamsitishdir. Bezorilik paytida amalga oshiriladigan odatiy harakatlar — bu shaxs haqida bila turib yolg‘on ma’lumot (mish-mishlar va g‘iybatlar) tarqatish, masxara va provokatsiya, to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqorat va qo‘rqitish, ijtimoiy izolyatsiya (boykot va namoyishkorona johillik), shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi hujumlar, shuningdek, moddiy yoki jismoniy zarar yetkazuvchi shaxsdir.

Kiberbulling nima Kiberbulling (cyberbullying) — bu tajovuzkorlik shakli, elektron qurilmalar va Internet orqali odamni qasddan ta'qib qilish, qo'rqitish va kamsitish.Internetdagi ta’qiblar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin: to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqorat va tahdidlardan tortib, jabrlanuvchi nomidan soxta akkauntlar yaratish yoki uning shaxsiy ma’lumotlarini e’lon qilish kabi murakkab usullargacha. Kiberbulling misollari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: Messenjerlar, chatlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda tajovuzkor yoki haqoratomuz xabarlar yuborish. Shaxs haqida yolg‘on ma’lumot, mish-mish yoki tuhmat tarqatish.. Shaxsiy fotosuratlar, videolar yoki yozishmalarni roziligisiz e’lon qilish

yoki tarqatish (doksing). Muayyan shaxsni masxara qilish uchun soxta profillar yoki guruhlar yaratish. Onlayn hamjamiyatlardan, chatlardan yoki o‘yinlardan chetlashtirish (ostrakizm). Tarmoqda ta’qib qilish, doimiy nomaqbul xabarlar yuborish (kiberstalking). Salbiy izohlar yoki xabarlarni ommaviy yuborish (fluding, xeyting).Kiberbulling belgilari: uni qanday aniqlash mumkin Kiberbullingni aniqlash oson bo‘lmasligi mumkin, ayniqsa hujumga uchragan shaxs o‘zini chetga olsa va muammo haqida gapirishdan qo‘rqsa. Shunga qaramay, xulq-atvor va hissiy belgilar mavjud bo‘lib, ular biror narsa noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatishiQurilmalarga munosabat: Telefon yoki kompyuterga xabarlar kelganda yaqqol asabiylashish yoki qo‘rquv paydo bo‘lishi. Odam bildirishnoma ovozidan cho‘chib ketishi yoki ekranni atrofdagilardan yashirishga urinishi mumkin. Boshqa tomondan, u tarmoqda odatdagidan ancha ko‘p yoki aksincha, ancha kamroq vaqt o‘tkaza boshlashi mumkin.: uni qanday aniqlash mumkin Kiberbullingni aniqlash oson bo‘lmasligi mumkin, ayniqsa hujumga uchragan shaxs o‘zini chetga olsa va muammo haqida gapirishdan qo‘rqsa. Shunga qaramay, xulq-atvor va hissiy belgilar mavjud bo‘lib, ular biror narsa noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatishi mumkin. Ularga o‘z vaqtida e’tibor qaratish va yordam ko‘rsatish muhimdir. Kiberbulling belgilari va nimalarga e’tibor berish kerak: Hissiy o‘zgarishlar: Inson hech qanday sababsiz tushkun, xavotirli, asabiy yoki o‘zini chetga oladigan bo‘lib qoladi. U to‘satdan ilgari quvonch keltirgan sevimli mashg‘ulotlari va mashg‘ulotlarga qiziqishni yo‘qotishi mumkin. Qurilmalarga munosabat: Telefon yoki kompyuterga xabarlar kelganda yaqqol asabiylashish yoki qo‘rquv paydo bo‘lishi. Odam bildirishnoma ovozidan cho‘chib ketishi yoki ekranni atrofdagilardan yashirishga urinishi mumkin. Boshqa tomondan, u tarmoqda odatdagidan ancha ko‘p yoki aksincha, ancha kamroq vaqt o‘tkaza boshlashi mumkin.

Kiberbullingning xususiyatlari

Birinchi xususiyat — ta’sirning doimiyligi. An’anaviy bulling ko‘pincha maktab yoki muayyan muhit bilan cheklanadi, kiberbulling esa internet orqali istalgan vaqtda davom etishi mumkin. Bu esa bolada doimiy xavotir hissini shakllantiradi, u o‘zini hech qayerda xavfsiz his qilmaydi.

Ikkinchi muhim jihat — auditoriyaning kengligi. Onlayn makonda haqorat yoki masxara tezda ko‘plab odamlar orasida tarqaladi. Bu bolada kuchli uyat, izolyatsiya va ijtimoiy rad etilganlik hissini keltirib chiqaradi. Natijada bola jamiyatdan chekinishga moyil bo‘lib qoladi.

Uchinchi xususiyat — anonimlik omili. Kiberbulling qiluvchilar ko‘pincha o‘z shaxsini yashiradi, bu esa jabrlanuvchi bolada qo‘rquv va noaniqlik hissini kuchaytiradi. Kim tomonidan bosim o‘tkazilayotganini bilmaslik bolani yanada ruhiy bosim ostida qoldiradi.

To‘rtinchi jihat — nazoratning murakkabligi. Bolalar ko‘pincha internetdagi vaziyatni o‘zlari hal qila olmaydilar. Ular ota-onalarga murojaat qilishdan qo‘rqishlari yoki uyat his qilishlari mumkin. Bu esa muammoning yashirin davom etishiga olib keladi va psixologik zararni chuqurlashtiradi.

Kiberbullingning psixologik ta’siri turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Eng ko‘p uchraydigan holatlar — o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi, depressiv kayfiyat, xavotirlik va stressdir. Bola o‘zini yolg‘iz va tushunilmagan his qiladi. Ba’zi

hollarda u maktabga borishni xohlamaydi, o‘qishga qiziqishi kamayadi va ijtimoiy aloqalardan qochadi. Bundan tashqari, kiberbulling uzoq muddatli oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Bolalik davrida olingan ruhiy jarohatlar keyinchalik shaxsiy rivojlanishga, ijtimoiy moslashuvga va hatto kattalik davridagi psixologik barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli, kiberbullingning oldini olish va uning oqibatlarini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va pedagoglar bolalar bilan ishonchli munosabat o‘rnatishlari, ularning hissiy holatiga e’tibor berishlari zarur. Shuningdek, bolalarga onlayn muhitda o‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, kiberbullingning bolalarga psixologik ta’siri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning ruhiy salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Bu muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv va barcha ijtimoiy institutlarning hamkorligi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smith, P.K., Mahdavi, J., Carvalho, M., Fisher, S., Russell, S., & Tippett, N. (2008). Cyberbullying: its nature and impact in secondary school pupils. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 49(4), 376–385.
2. Kowalski, R.M., Giumetti, G.W., Schroeder, A.N., & Lattanner, M.R. (2014). Bullying in the digital age: A critical review and meta-analysis of cyberbullying research. *Psychological Bulletin*, 140(4), 1073–1137.
3. Hinduja, S., & Patchin, J.W. (2015). *Bullying Beyond the Schoolyard: Preventing and Responding to Cyberbullying*. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.
4. Tokunaga, R.S. (2010). Following you home from school: A critical review and synthesis of research on cyberbullying victimization. *Computers in Human Behavior*, 26(3), 277–287.
5. Livingstone, S., & Smith, P.K. (2014). Annual research review: Harms experienced by child users of online and mobile technologies. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 55(6), 635–654.
6. Olweus, D. (2012). Cyberbullying: An overrated phenomenon? *European Journal of Developmental Psychology*, 9(5), 520–538.

IT KASBLARGA YO'NALTIRILGAN YOSHLARDA INTERNET-DEVIANTLIK XAVFINI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI

Maxsudova Mu’tabar Abdusalomovna
NamDU professor v.b.
Raximjanova Dilshoda Alisher qizi
NamDU 2-kurs psixologiya yo’nalishi magistranti

Annotatsiya; u*shbu maqola xozirgi texnalogiyalar rivojlanib kelayotgan zamonda kasblarning ham transformatsiyasi yildan yilga yangilaniyotgan yillarda yoshlar orasida keng tarqalgan IT kasblari haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, yoshlarning IT bo’yicha tanlagan kasblari internet-deviantlik xolatini keltirib chiqarishini oldini olish, zamonaviy bulliying turlari*

va kiberxavfsizlikka oid ma'lumotlar hamda ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlardan iborat hisoblanadi.

Kalit so'z: *IT, kiberxavfsizlik, plagiat, kiberbulling, onlayn ta'qib, onlayn firibgarlik, anonim, ijtimoiy tarmoq, emotsional regulyatsiya, depressiya, xavotir.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу трансформации профессий в условиях стремительного развития современных технологий. В ней представлена информация о наиболее распространённых IT-профессиях среди молодёжи. Также рассматриваются вопросы предупреждения интернет-девиантного поведения, связанного с выбором IT-специальностей, современные виды буллинга, проблемы кибербезопасности и меры по их предотвращению.*

Ключевые слова: *информационные технологии, кибербезопасность, плагиат, кибербуллинг, онлайн-преследование, онлайн-мошенничество, анонимный, социальные сети, э**моциональная регуляция, депрессия, тревожность.***

Annotation: t*his article examines the transformation of professions in the context of rapidly developing modern technologies. It provides information about IT professions that are widely распространён (widely chosen) among young people. The article also addresses the prevention of internet deviant behavior associated with choosing IT careers, discusses modern types of bullying, cybersecurity issues, and measures aimed at preventing them.*

Keywords: *i*nformation Technology, Cybersecurity, *Plagiarism, Online harassment, scamming, anonim, social media, emotsional regulation, depression, anxiety.*

Hozirgi vaqtda yoshlar orasida zamonaviy kasb turlari ko'payib bormoqda. Jumladan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi jamiyatda shu sohani tushunadigan yoshlarga talabi ortishi bilan xarakterlanadi. Texlonogiyalarning yangilanishi sari ushbu sohaga oid kasblarning hma transformatsiyasi ya'ni yangi kasblarning vujudga kela boshlaydi. Bu esa IT kasblarining turlari ko'payishiga zamin yaratadi. Ammo IT kasblari ko'paygani sari internet tarmoqlaridagi ma'lumotni filtrlash ularni foydali, foydasiz, yaxshi yomonga ajratish ham qiyinlashib boradi. Noxush xolatlarni oldini olishda esa avvalo IT sohasiga qiziquvchi yoshlar hamda ushbu kasbni tanlab taxsil olaytgan o'quvchilarni internet-deviantlik xavfini aniqlash va uni oldini olishdagi usullarni o'rgatish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6-oktabr 2020-yildagi 4851-son ,,Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari'' to'g'risidagi qarorida IT kasblariga o'qitish bo'yicha chora tadbirlar ko'rish hamda ,,bir millon dasturchi'' loyihalarini boshlash hamda IT parklarni faoliyaini takomillashtirish borasidagi ishlar keltirib o'tilgan.[3] Bundan ko'rinib turibdiki IT sohasi bo'yicha kasblarni o'qitish va ularni rag'batlantirish hamda o'qish uchun sharoitlar qilib berish borasida ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ko'p qismini hozirgi vaqtda yoshlar tashkil etgani bois ular iste'mol qilayotgan turli xildagi kontentlarning filtrlanishi va uni nazorat qilishda ushbu kasb egalarining o'rni nihoyatda katta. Endi internet natijasida kelib chiquvchi turli xulqiy og'ishlar hamda deviant shakllarini ko'rib chiqamiz.

Internet tarmoqlarida turli xildagi axloqsiz materiallarnig tarqalishi va ularning natijasida o'sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashi va xulq-atvoriga o'z ta'siri o'tkazmasdan qolmaydi. Choi va Park o'z tadqiqotlarida shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqda foydalanuvchi shaxslar o'zlarining internet etikasi

darajasiga qarab onlayn muhitda turlicha shakl va darajadagi axloqsiz deviant xulq-atvorni namoyon qilishlari mumkin.

Onlayn axloqiy deviantlilik tarkibiga turli shakllarini kiritishimiz mumkin: Internet plagiati; Kiberbulling; Onlayn ta'qib (harassement); Onlayn firibgarlik; Internet trolling; Akademik nohaqlik va boshqalar.

Internet plagiati. Roig plagiatni shunday ta'riflaydi "Plagiat bu boshqa shaxsning intellectual mulkidan ruxsatisiz va halol bo'lmagan tarzda foydalanishdir." Bu tushuncha matn, jadvallar, grafik, tadqiqot metodologiyalari, nazariy konsepsiyalar, va boshqa intellektual jihatlarini o'z ichiga oladi. Plagiat qilishning sabalari turlicha bo'lishi mumkin. Memon va Mavrinak sabablarini turlicha shakllarini keltirib o'tgan: metodologiyani bilmaslik, xabardorlikning pastligi, iqtibos keltirish qoidalariga rioya qilmaslik, yetarli professional tayyorgarlikning bo'lmasligi, jazo choralarining yo'qligi va samara bermasligi, akademiy halollik me'yorlarining buzilishi, qudiruv ko'nikmalarining yetishmasligi, nashr qilish bosimi va boshqalar. Shunday ekan, internet plagiati - bu internetdan foydalanib, boshqalarning ishini va g'oyalarini o'zlashtirib o'ziniki qilib olish, ko'chirish, sotib olish, so'ng ularni o'zini shaxsiy ishi sifatida taqdim etish kabilar internet plagiatining o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

Internet trolling. Ataylab internetda provokatsion habarlar qoldirish, mavzuga aloqasi bo'lmagan yoki samimiy bo'lmagan habarlarni tarqatish orqali boshqalarda kuchli emotsiyalarni uyg'otish hamda odamlarni kamsitishga qaratilgan xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, trolling doim ham zararli emas, balki ba'zi vaqtlarda mojarolarni qo'zg'atish yoki boshqalarning reaksiyasini uyg'otishga qaratilgan bo'ladi.

Tadqiqotlarga qaraganda, trollingdan aziyat chekkan qurbonlar ko'pincha bezovtalik, ranjish va ga'zab kabi emotsiyalarni xis qiladilar. Shu boisdan ham internet trolling odatda haqoratli, zo'ravonlikka moyil va ataylab amalga oshiriladigan xatti-harakatlar sifatida bohalanadi.

Kiberbulling. Bu asosan raqamli vositalar orqali shaxs yoki guruh tomonidan boshqa bir shaxsga nisbatan ataylab, uzoq muddatli va takrorlanuvchi agressiv xatti-harakatlarni amalga oshirishga aytiladi. Ushbu ta'rif Smith tomonidan berilgan hisoblanib, u an'anaviy bulling tushunchasini moslashtirilgan shakli hisoblangan. Ushbu turning aosisy xarakterli tomoniga asosan qasddan xarakat qilish va takroriylik kiradi. Kiberbulling anonimlik, makon va vaqt bilan cheklanmaslik va hamda tez tarqalish o'ziga xos hususiyatlarga ega.

Kiberbullingda asosan nishonga olingan shaxsga zarar yetkazish hamda uni noqulay holatga solishdan iborat bo'lgan. Bundan tashqari tadqiqotlarda kiberbulliyingni zararli oqibatlari haqida ham bir qator firlar keltirilgan. Farrington va bi qator olimlar kiberbulling tashvish, depressiya, giyohvand moddalar iste'moli, o'z joniga qasd qilishga moyillik va o'qishdagi muvaffaqiyatsizlik kabi holatlargacha olib kelishi mumkin. shuningdek, keluch va boshqa olimlar ham kiberbulling stress, texnologik bosim, ishdagi charchoq, va motivatsiyaning pasayishini asosiy oqibatlari sifatida ko'rsatadi,

Onlayn ta'qib (harassement). Onlayn ta'qib qilishga oid tadqiqotlar asoslangan tadqiqotlar ijtimoiy- psixologik yonshadushlar asosida o'rganilgan. Summers fikriga

ko’ra, onlayn ta’qib keng qamrovli tushuncha sifatida izohlanib, unga yengil salbiy izohlar, keskin nafrat nutqi, va hatto tahdidlar kabi turli shakllarda bo’lishi mumkin. onlayn ta’qibning asosiy quyidagi xususiyatlari mavjud: anonimlik, uzoq muddatli ta’sir va keng ko’lamli salbiy oqibatlar.

Raqamli texnOlogiyalar atrorida o’smir o’quvchilarning emotsional regulyatsiya jarayonida katta ahamiyatga ega. Subrahmanyam va Smahelllarning ta’kidlashicha, o’smirlar nafaqat raqamli content istemol qiladilar balki o’zlarining emotsinal hamda ijtimoiylashuv ehtiyojlariga mos ravishda raqamli tajribalarni birga moslashtiradilar. Shu sabaBli ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ularning psixologik - ijtimoiy o’sishida muhim joy egallaydi. Emotsiyalar o’smirlarning raqamli muhitga kirishishi hamda moslashishida o’z ahamiyatiga ega. Onlayn platformalarning dizayni hamda ko’rinishi ko’pincha zo’ravonlik, tashvishli yangiliklar yokida muvaffaqiyatning real bo’lmagan shakllari kabi potensial zararli kontentlarga takroran duch kelishini rag’batlantiradi. Bu esa o’smirlar orasida emotsional ortiqcha yuklama yoki affektiv chalkashlikni keltirib chiqarishi mumkin [2].

Xulosa qilib aytganda, IT kasblarida taHsil olayotgan o’smir yoshidagi bolalarni internet-deviantlik turlari haqida Xabardor qilish, ularni Hozirgi kunda ko’payib borayotgan turlaridan saqlanish hamda ularni bartaraf etishning chora-tadbirlari haqida batafsil ma’lumot berish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ushbu jarayonda ularga avvalo emotsional jihatdan mustahkam bo’lishlari, internet ta’siriga tushib qolmasliklari va ushbu virusli bo’lgan turli kontentlarga ergashib ketmasliklari uchun ularda imunitet hosil qilish lozim. Ularni o’qitish davomida ularga internet deviantlik turlari haqida ma’lumot berib o’tish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xu Chen, Norzihani Saharuddin, Maizura Yasin and Meng Wan Online moral deviance: an integrative review of digital behaviors 24 July 2025;
2. Sonia Carcelén-García, Oliver Carrero Márquez, Myriam Durán Vilches Online risk behaviors among Adolescents: Identifying Areas of Digital Vulnerability 22 August 2025
3. https://lex.uz/ru/docs/-5032128?ONDATE=07.10.2020%2000
4. **https://www.researchgate.net/**
5. **https://scholar.google.com/**

RAQAMLI MUHITNING OG‘ISHGAN XULQLI O‘SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA COPING XULQ-ATVORIGA TA’SIRI

Maxsudova Mutabarxon
NamDU professor v.b.
Abduvohidova Malikajon
NamDU magistranti

Annotatsiya*:Mazkur maqolada raqamli muhitning og‘ishgan xulqli o‘smirlar psixologiyasiga ta’siri hamda ularning coping xulq-atvorini shakllantirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida*

o‘smirlar ongiga internet, ijtimoiy tarmoqlar va virtual kommunikatsiya vositalarining ta’siri tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, og‘ishgan xulq-atvorga ega o‘smirlar ushbu muhitga nisbatan yanada sezgir bo‘lib, bu ularning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va stressni yengish strategiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar**: raqamli muhit, og‘ishgan xulq-atvor, o‘smirlar psixologiyasi, coping strategiyalari, internetga qaramlik, kiberzo‘ravonlik, ijtimoiy moslashuv.*

***Аннотация:** в данной статье рассматривается влияние цифровой среды на психологические особенности подростков с девиантным поведением, а также её роль в формировании их копинг-стратегий. В условиях глобализации и цифровизации общества влияние интернета, социальных сетей и виртуальной коммуникации на подростков значительно возрастает. Подростки с девиантным поведением являются более уязвимой группой к воздействию цифровой среды, что отражается на их эмоциональном состоянии, социальной адаптации и способах преодоления стрессовых ситуаций.*

***Ключевые слова:** цифровая среда, девиантное поведение, подростковая психология, копинг-стратегии, интернет-зависимость, кибербуллинг, социальная адаптация.*

***Abstract**: this article examines the impact of the digital environment on the psychological characteristics of adolescents with deviant behavior, as well as its role in shaping their coping strategies. In the context of globalization and digitalization, the influence of the Internet, social networks, and virtual communication on adolescents is steadily increasing. Adolescents with deviant behavior are particularly vulnerable to the effects of the digital environment, which significantly affects their emotional state, social adaptation, and stress-coping mechanisms.*

***Keywords**: digital environment, deviant behavior, adolescent psychology, coping strategies, internet addiction, cyberbullying, social adaptation.*

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur singib bormoqda va bu jarayon ijtimoiy munosabatlar tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insonning kundalik faoliyati, muloqot shakllari va hatto tafakkur uslubi ham yangi ko‘rinishga ega bo‘ldi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va virtual kommunikatsiya platformalari bugungi kunda nafaqat axborot olish vositasi, balki shaxsiy identifikatsiya, ijtimoiy o‘zini namoyon qilish va emotsional ehtiyojlarni qondirish maydoniga aylangan.

Ayniqsa, o‘smirlar bu jarayonning eng faol ishtirokchilari hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 13–18 yoshdagi o‘smirlarning qariyb 95% internetdan foydalanadi[3], ularning katta qismi esa kuniga bir necha soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazadi. Bu holat raqamli muhitning o‘smirlar hayotidagi rolini oddiy kommunikatsiya vositasidan ko‘ra kengroq — ya’ni ularning psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir qiluvchi muhit sifatida qarash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

O‘smirlik davri psixologik rivojlanish nuqtai nazaridan eng muhim va ayni paytda murakkab bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsning “Men-konsepsiyasi” shakllanadi, ijtimoiy rollar o‘zlashtiriladi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Shu bilan birga, emotsional beqarorlik, yuqori sezuvchanlik, tashqi ta’sirlarga moyillik kabi xususiyatlar ham kuchayadi. Aynan shu jihatlar o‘smirlarni tashqi muhit ta’siriga, xususan raqamli axborot oqimiga nisbatan yanada ochiq va sezgir qiladi.

Raqamli muhitning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u real va virtual tajriba o‘rtasidagi chegaralarni nisbatan yo‘qotadi. O‘smirlar ijtimoiy tarmoqlar orqali

o‘zlarini boshqalar bilan solishtiradi, baholaydi va ko‘pincha idealizatsiya qilingan obrazlarga moslashishga harakat qiladi. Bu esa ularning o‘z-o‘zini baholash darajasiga, emotsional holatiga va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, virtual muloqotning anonimligi va nazoratning nisbatan pastligi ayrim hollarda agressivlik, kiberzo‘ravonlik va deviant xulq-atvorning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Og‘ishgan xulqli o‘smirlar esa ushbu jarayonda alohida e’tiborni talab etadi. Ularning xulqidagi normadan og‘ishlar ko‘pincha ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya va individual psixologik xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bunday o‘smirlar tashqi ta’sirlarga nisbatan yuqori sezuvchanlikka ega[4, 145-b]. Raqamli muhit esa bu omillar bilan o‘zaro ta’sirlashib, ba’zan mavjud muammolarni chuqurlashtiradi, ba’zan esa aksincha, kompensator mexanizm sifatida xizmat qiladi. Masalan, real hayotda ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelgan o‘smir virtual muhitda o‘zini erkinroq his qilishi, ammo shu bilan birga real ijtimoiy ko‘nikmalarning susayishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli muhitni faqat salbiy yoki ijobiy omil sifatida baholash bir tomonlama yondashuv bo‘lib, uni kompleks psixologik hodisa sifatida o‘rganish zarur. Ayniqsa, o‘smirlarning stressli vaziyatlarga moslashish mexanizmlari — ya’ni coping strategiyalarining shakllanishida raqamli muhitning roli alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki aynan ushbu davrda shakllangan coping usullari shaxsning keyingi hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Og‘ishgan xulq-atvor masalasi psixologiya va sotsiologiya fanlarida eng ko‘p muhokama qilinadigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Umumiy ma’noda u jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va xulqiy standartlardan chetga chiqish holatlarini anglatadi. Émile Durkheim bu hodisani jamiyatdagi normativ tizimning zaiflashuvi, ya’ni “anomiya” holati bilan izohlagan[1, 243-b]. Uning fikricha, ijtimoiy tartib izdan chiqqan sharoitda shaxs xulq-atvori ham barqarorlikni yo‘qotadi. Keyinchalik Robert K. Merton og‘ishgan xulqni yanada aniqroq ijtimoiy mexanizm orqali tushuntirib, uni jamiyat tomonidan qo‘yilgan maqsadlar va ularga erishish vositalari o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasi sifatida izohlaydi[2, 674-b]. Bu yondashuv ayniqsa o‘smirlar muhitida muhim ahamiyatga ega, chunki ular hali ijtimoiy rollarni to‘liq o‘zlashtirib ulgurmagan bo‘ladi va tashqi ta’sirlarga tez moslashadi yoki aksincha, qarshilik bildiradi. O‘smirlik davrida og‘ishgan xulqning shakllanishi ko‘pincha ichki psixologik ziddiyatlar, emotsional beqarorlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq holda kechadi. Aynan shu bosqichda shaxs o‘zini anglashga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Agar bu jarayon murakkab kechsa, o‘smir turli kompensator xulq shakllariga, jumladan deviant xatti-harakatlarga murojaat qilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda coping mexanizmlarining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Richard Lazarus va Susan Folkman tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga ko‘ra, coping — bu shaxsning stressli vaziyatlarni idrok etishi va ularga moslashish uchun qo‘llaydigan kognitiv hamda xulqiy strategiyalar majmuasidir[3, 46-b]. Muhimi shundaki, coping shunchaki reaksiyadan iborat emas, balki faol psixologik jarayon bo‘lib, unda shaxs vaziyatni baholaydi va unga mos strategiyani tanlaydi.

Mazkur yondashuv doirasida coping strategiyalari odatda uch asosiy yo‘nalishga ajratiladi.

— muammoga yo‘naltirilgan coping bo‘lib, bunda shaxs muammoni hal qilishga intiladi.

— emotsiyaga yo‘naltirilgan coping bo‘lib, unda asosiy e’tibor hissiy zo‘riqishni kamaytirishga qaratiladi.

— qochish yoki avoidant coping bo‘lib, bu holatda shaxs muammodan qochishga yoki uni inkor etishga moyil bo‘ladi.

Ilmiy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, og‘ishgan xulqli o‘smirlarda aynan qochish strategiyalari ko‘proq ustunlik qiladi[5]. Bu esa ularning real muammolarni konstruktiv hal qilish o‘rniga, vaqtinchalik “yengillik” beruvchi, ammo uzoq muddatda salbiy oqibatlarga olib keluvchi yo‘llarni tanlashiga sabab bo‘ladi. Masalan, virtual muhitga haddan tashqari sho‘ng‘ish, real ijtimoiy aloqalardan chekinish yoki agressiv xatti-harakatlar orqali ichki zo‘riqishni chiqarishga urinish shular jumlasidandir. Aynan shu nuqtada raqamli muhitning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli makon o‘smir uchun bir vaqtning o‘zida ham imkoniyatlar, ham xavf manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bir tomondan, u keng axborot resurslariga kirish, o‘zini erkin ifodalash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni topish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, nazoratning pastligi, anonimlik va cheksiz kontent oqimi o‘smir psixikasiga bosim o‘tkazishi mumkin.

Raqamli muhitning ijobiy jihatlari ko‘proq ijtimoiy integratsiya va psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq. Masalan, o‘smir o‘ziga o‘xshash qiziqishlarga ega bo‘lgan guruhlarni topishi, fikr almashishi va o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishi mumkin. Bu ayniqsa real hayotda ijtimoiy qiyinchiliklarga duch kelayotgan o‘smirlar uchun muhim resurs hisoblanadi.

Biroq salbiy jihatlar ham yetarlicha jiddiydir. Kiberzo‘ravonlik, ijtimoiy solishtirish, idealizatsiya qilingan obrazlar ta’siri hamda internetga qaramlik kabi omillar o‘smirning emotsional barqarorligini izdan chiqarishi mumkin. Bunday sharoitda coping strategiyalari noto‘g‘ri yo‘nalishda shakllanib, o‘smir muammodan qochish yoki agressiv reaksiyalarni tanlashi ehtimoli ortadi.

Shu sababli raqamli muhitni oddiy tashqi omil sifatida emas, balki o‘smir psixologiyasiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi kompleks tizim sifatida ko‘rib chiqish zarur. Ayniqsa, og‘ishgan xulqli o‘smirlar bilan ishlashda ushbu muhitning ta’sirini chuqur tahlil qilish va uni konstruktiv yo‘naltirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan xalqaro tadqiqotlar raqamli muhitning o‘smirlar psixologiyasiga ta’siri tobora kuchayib borayotganini tasdiqlamoqda. Xususan, turli manbalarga ko‘ra, o‘smirlarning qariyb 60% kamida bir marta kiberzo‘ravonlikka duch kelgan[6, 89-b]. Bu ko‘rsatkich raqamli kommunikatsiya muhitida agressiv xulq shakllarining keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, internetdan ortiqcha foydalanish bilan bog‘liq muammolar ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, 30–35% o‘smirda internetga qaramlikning turli darajadagi belgilari kuzatiladi[7, 125-b]. Bu holat nafaqat vaqtni boshqarish muammolariga, balki emotsional va ijtimoiy disbalansga ham olib keladi.

Ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanishning psixologik oqibatlari ham sezilarli. Ayrim tadqiqotlarda bunday holatlar depressiv simptomlar rivojlanish xavfini o‘rtacha 25–27% ga oshirishi aniqlangan[8][8, 71-b]. Buning asosiy sababi sifatida o‘smirlarning o‘zini boshqalar bilan solishtirishi, “ideal hayot” obrazlariga moslashishga urinishi va o‘z-o‘zini baholash darajasining pasayishi ko‘rsatiladi.

Og‘ishgan xulqli o‘smirlar orasida ushbu muammolar yanada keskinroq namoyon bo‘ladi. Statistik ma’lumotlar ularning agressiv xulqqa moyilligi o‘rtacha 40% yuqori ekanligini, ijtimoiy izolyatsiya holatlari esa 25% ko‘proq uchrashini ko‘rsatadi[9][9, 8-b]. Bu esa raqamli muhitning ushbu toifadagi o‘smirlarga ta’siri yanada chuqurroq ekanligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, mavjud statistik ma’lumotlar raqamli muhitni o‘smirlar psixologiyasiga befarq bo‘lmagan, balki faol ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi nazariy va statistik tahlillar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, raqamli muhit og‘ishgan xulqli o‘smirlar psixologiyasiga ko‘p qirrali va murakkab ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir bir tomondan yangi imkoniyatlar yaratib bersa, ikkinchi tomondan psixologik xavflarni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, nazoratsiz va tartibsiz foydalanish sharoitida o‘smirlarda konstruktiv coping strategiyalari emas, balki qochish, inkor etish yoki agressiv reaksiyalar kabi destruktiv shakllar ustunlik qilishi mumkin. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtiradi.

Shu bilan birga, raqamli muhitdan ongli va maqsadli foydalanish o‘smirlar uchun psixologik resursga aylanishi mumkin. Shu bois, zamonaviy psixologik yondashuvlar doirasida nafaqat o‘smirning o‘zini, balki uning raqamli muhit bilan o‘zaro munosabatini ham tizimli ravishda o‘rganish va boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Valkenburg P., Peter J. Social Consequences of the Internet for Adolescents. 2011.
2. Cyberbullying Research Center Report, 2023.
3. Kuss D., Griffiths M. Internet Addiction. 2021.
4. Twenge J. *iGen*. 2020.
5. OECD Report on Adolescent Behavior, 2022.

VIRTUAL OLAMDAGI G'OYAVIY POLIGON VA YOSHLAR: HIMOYA MEXANIZMLARI

Akbarov Soxodilla Yuldashboyevich
NamDU, Psixologiya kafedrasi dotsenti
Xolmirzayeva Diyora Fazliddin qizi
Namangan davlat universiteti
magistranti

ANNOTATSIYA: *XXI asr axborot asri deb butun dunyo jar solayotgan bugungi kunimiz har bir yosh va katta avlod uchun muhim o’zgarishlar davri bo’lmoqda desam, mubolag’a bo’lmaydi. Bugungi kunda axborot oqimining ta’riflab bo’lmas darajada tezlshgani har bir insonga ijobiy va salbiy ta’sir qilmoqda. Ushbu maqolada aynan mana shu mavzu erkin tarzda*

ochib beriladi. Axborotlarning inson ongiga ta'sirini va uning kelib chiqish sabablari va ulrni korreksiya qilish yo'llari mazkur maqolada bayon qilingan.

KALIT SO'ZLAR: *Axborot, ijtimoiy tarmoq, sun'iy intellekt, nomofobiya, g'oyaviy poligon, virtual dunyo, g'oyaviy xurujlar, feyk xabarlar, ommaviy madaniyat, "klipcha fikrlash", "to'daga ergashish" , manqurt.*

АННОТАЦИЯ: *Современная эпоха, которую по праву называют веком информации, стала периодом радикальных перемен для всех поколений. Невероятная скорость информационных потоков оказывает как положительное, так и отрицательное воздействие на формирование личности. В данной статье рассматриваются механизмы влияния информации на сознание человека, причины возникновения информационных угроз и способы их коррекции в условиях глобализации.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *информация, социальные сети, искусственный интеллект, номофобия, идеологический полигон, виртуальный мир, идеологические атаки, фейковые новости, массовая культура, клиповое мышление, эффект толпы, манкурт.*

ABSTRACT: *The 21st century, widely proclaimed as the Information Age, has become a period of profound transformation for both younger and older generations. The unprecedented speed of information flow today exerts both positive and negative influences on human consciousness. This article explores the impact of information on the human mind, identifying the root causes of digital threats and suggesting methods for their mitigation and correction.*

KEYWORDS: *information, social networks, artificial intelligence, nomophobia, ideological testing ground, virtual world, ideological attacks, fake news, mass culture, clip thinking, herd mentality, mankurt (loss of identity).*

Hozirgi rivojlanib kelayotgan dunyoyimizda kundan kunga yangi ilmiy yangiliklar kashf etilmoqda. Ushbu yangiliklar qatoriga ijtimoiy tarmoqlarimizning keskin rivojlanayotganini ham kiritishimiz mumkin. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, uyali aloqa vositalari rivojlanishi natijasida insonlarning ko'p vazifalari yengillashmoqda va vaqtlari tejalmoqda. Misol uchun, sun'iy intellektning rivojlanishi insonlar kunlab haftalab qidirgan narsalarni, sun'iy intellekt bir soniyada topib biz uchun kerakli holatda taqdim etmoqda. Natijada insonlar bir narsani qidirib ko'p vaqt sarflashmayapti, uning o'rniga boshqa vazifalari ustida ishlashmoqda. Xalqimiz aytganidek, " Bir yaxshining, bir yomoni bor". Ya'ni hech narsa mukammal bo'lmaganidek, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishining ham o'ziga yarasha salbiy tomonlari mavjud. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida yetti yoshdan yetmish yoshgacha insonlar telfonga qaramlik (nomofobiya) kasalligiga chalindi. Sun'iy intellekt tayyorlab bergan ma'lumotlar bilan cheklanadigan bo'lib qoldi yoshlar, boshqa narsa narsalardan o'qib izlanmasligi natijasida kutubxonalar bo'shab qolmoqda.

Bugun biz yashayotgan XXI asrda urushlar qurol bilan emas, balki axborot va g'oyalar bilan olib bormoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar shunchaki muloqot vositasi bo'lmay, haqiqiy " g'oyaviy poligon " ga aylanib ulgurdi. Bu mavzuda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham o'z asarlarida ta'kidlab o'tkanlar: " Bugun dunyo miqyosida beayov raqobat, manfaatlar to'qnashuvi va g'oyaviy qarama-qarshiliklar kuchayib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarimizning ongi va qalbiga hujum qilish, ularni o'z vataniga, milliy qadriyatlariga qarshi qo'yishga urinishlar to'xtagani yo'q" [1]. Dunyodagi har qanday xalqning kelajagi uning yoshlari qay darajada bilimli va ma'naviy baquvvat ekaniga bog'liq. Mashhur jadid bobomiz Ibrat juda o'rinli aytgan edi: "Ilm o'qing,

ilm hamma narsadan afzaldir, ilmsiz kishi mevasiz daraxt kabidir”[1]. Ammo bugun ilmni qayerdan va qanday shaklda olayotganimiz juda muhim. Sababi, virtual dunyodagi har bir ma’lumot ham ilm emas. Aksincha, yoshlarimizning hali shakllanib ulgurmagan dunyoqarashini “ zaharlashga” qaratilgan turli g’oyaviy xurujlar- feyk xabarlar, destruktiv oqimlar va ma’naviy qadriyatlarimizga zid kontentlar kundan – kunga ko’payib bormoqda. Afsuski, virtual olamda hali dunyoqarashi to’liq shakllanib ulgurmagan yoshlarimiz orasida “ ommaviy madaniyat” unsurlari va yot g’oyalarga ergashish holatlari juda ko’p uchramoqda. Shu o’rinda quyidagi sabablarni alohida ta’kidlashim lozim:

- “Klipcha fikrlash” muammosi ya’ni yoshlar uzoq va mazmunli matnlarni o’qishdan ko’ra, 15-30 soniyali, yuzaki va ko’ngil ochar videolar orqali axborot olishga o’rganib qolmoqda. Bu esa ularning chuqur tahlil qilish, voqealikning asl mohiyatini anglash qobiliyatini susaytirmoqda. Natijada, har qanday yaltiroq, ammo zararli narsalar yoshlar ongiga chiroyli o’ramda osonlikcha kiritilmoqda.
- Virtual “ to’daga ergashish” effekti ya’ni, ijtimoiy tarmoqlardagi “trend”lar yoki “layk”lar yoshlar ongiga no’to’g’ri ta’sir qilmoqda. Ko’p hollarda yoshlar o’z qadriyatlarini, milliyligini unutib dunyo mashhurligi ortidan quvib, o’z o’zligidan uzoqlashmoqda.

Agarda yoshlar shu tariqa davom etsa, Chingiz Aytmatov tasvirlagan “manqurt”lardan ya’ni o’z o’zligini, tarixini, nasabini va ma’naviy qadriyatlarini unutgan, mustaqil fikrlashdan mahrum bo’lgan, mutlaqo itoatkor qul insonlardek bo’lib qolishi achinarli[3]. Yosh tadqiqotchi sifatida shuni ta’kidlaymanki, agar yoshlarimizda “ axborotni saralash madaniyati shakllanmasa, ular bu ko’rinmas kurashning qurboniga aylanib qolishi hech gap emas. Ma’rifatlik jamiyat qurish yo’lida yoshlarning virtual makondagi faoliyatini cheklash emas, balki undan qanday foydlanish orqali ularni “ qurollantirish” ya’ni ilm va milliy g’oya bilan himoyalash eng to’g’ri yo’ldir. Shu nuqtayi nazardan, virtual olamdagi g‘oyaviy xurujlardan himoyalanish uchun quyidagi himoya mexanizmlarini amaliyotga joriy etish lozim deb hisoblayman:

- Media-savodxonlik va "Raqamli gigiyena": Yoshlarga nafaqat texnologiyadan foydalanishni, balki axborotning ishonchliligini tekshirish (fact-checking) usullarini o‘rgatish. Har bir xabarga tanqidiy ko‘z bilan qarash ko‘nikmasini shakllantirish — bu mafkuraviy immunitetning birinchi bosqichidir;
- Milliy kontent jozibadorligini oshirish: Virtual bo‘shliq hech qachon bo‘sh turmaydi. Agar biz yoshlarimiz uchun qiziqarli, zamonaviy va milliy manfaatlarga mos kontent yaratmasak, bu bo‘shliqni begona va yot g‘oyalar egallab oladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, virtual dunyodagi g‘oyaviy kurashlarda g‘olib bo‘lish — taqiqlash bilan emas, balki yoshlarning ongi va qalbida kuchli bilim hamda milliy g‘urur asosida shakllangan "ma’naviy qalqon"ni yaratish orqali amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari. Toshkent:” O’zbekiston” , 2020y
2. Mirziyoyev, Sh. M. Yoshlar siyosati va ularning ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. 2017

3. Salimov, M. Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar: Ta'sir va imkoniyatlar. Tashkent O'zbekiston Respublikasining Axborot texnologiyalari vazirligi. 2020
4. Abdullayev, A. T. Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar folligi va ularning ongiga ta'siri."Psixologiya va ta'lim" jurnalida. Toshkent. 2021
5. Ishoqxon Ibrat “ Ilmiy asarlar to’plami” Toshkent: “ Ma’naviy” 2005y.
6. Ch. Aytmatov “ Asrga tatigulik kun”
7. https://cyberleninka.ru/article/n/ijtmoiy-tarmoqlarni-yoshlar-xulq-atvoriga-tasiri
8. https://inlibrary.uz/index.php/mead/article/view/85972

SUN’IY INTELEKT KONSEPSIYALARI ORQALI O‘QUVCHILARGA MILLIY TARBIYA BERISH, ULARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna - p.f.f.d (PhD), dotsent,UBS Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri,
Mohidil Umarova - UBS magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarni milliy tarbiya orqali ijtimoiy faolligini oshirishda sun’iy intellektning o’rni, uni o’qitilishining ta’siri mavzusiga aloqador jahonda olib borilgan tajribalar, olg’a surilgan nazariyalar tahlil qilinib mavzu bo’yicha umumiy xulosalar va to’xtamlar berilgan hamda yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an’ana*lariga, *urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, milliy tarbiya, ijtimoiy faollik, pedagogik imidj, zamonaviy pedagog, texnolog, innavator, integratsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются мировые эксперименты, выдвинутые теории, связанные с ролью искусственного интеллекта в повышении социальной активности учащихся через национальное воспитание, влияние его преподавания, даются общие выводы и остановки по теме, а также даются эффективные организационные и методические рекомендации по духовно-нравственному воспитанию молодого поколения, основанные на богатых национальных, культурно-исторических традициях, обычаях и общечеловеческих ценностях., речь идет о разработке и внедрении в практику педагогических форм и средств.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, национальное воспитание, социальная активность, педагогический образ, современный учитель, технолог, новатор, интеграция.*

Annotation. *This article will talk about the role of artificial intelligence in increasing the social activity of students through National Education, the world's experiences related to the topic of the impact of its teaching, the analysis of advanced theories and general conclusions and stops on the topic, and the development and implementation of effective organizational, pedagogical forms and tools based on rich national, cultural*

Keywords: *artificial intelligence, national education, social activity, pedagogical image, modern teacher, technologist, innovator, integration.*

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar barcha sohalarga izchil tarzda kirib bormoqda va shu sohani jadal rivojlanishiga asos solmoqda. Endilikda biron-bir sohani pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish

qiyin. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash-dars jarayonini, ta’lim sifatini, kelajak mutaxassislarining nazariy va amaliy salohiyatini, kompetentligini oshirishni ta’minlovchi, zamonaviy o‘qitish texnologiyasining asosi, dasturi-amal bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirgi paytda har qanday kasb egasi pedagogik texnologiyalardan, turli-tuman usul va metodlardan foydalanib, darsni integratsiyalab, zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish kerak.

Hozirda dunyo hamjamiati o’sib kelayotgan o’quvchi yoshlarda XXI asrga doir ko’nikmalarni shakillantirishga va kelajak avlodni XXI asr talablariga mos ravishda tayyorlashga katta e’tibor qaratmoqda. Bu ko’nikmalar guruhi to’rtta asosiy ko’nikmalar: muloqot va tanqidiy fikrlash ko’nikmalari hamda ijodiylik va hamkorlik ko’nikmalaridan iborat. Bularni bir so’z bilan XXI asrning fenomenal ko’nikmalari deyish mumkun. Ushbu ko’nikmalar raqamli texnalogiyalar taraqqiyotining jadallashuvi va ijodiy fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirish hamda sun’iy intelekt konseptsiyalariga moslashishning markazidir. Ijodiy fikrlash yuqorida ko’rsatilgan fenomenal ko’nikmlar qatoridan joy oladi va ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi tomonidan asosiy e’tibor berilishini talab qiladi.

Xalqaro Ijtimoiy va Xulq-atvor Fanlari Ensiklopediyasi (2015) ijodiy fikrlash to‘g‘ri miqdorda ma’lumot mavjud bo‘lganda ko‘proq yuzaga kelishini ta’kidlaydi – ko‘proq bilim har doim ham yaxshiroq bilim emas balki shaxs ma’lumotni qanday ishlatishni bilishda. Bu shuningdek, shaxsga original g‘oyalar yaratish va ularni o‘ziga xos tarzda baholash imkonini beruvchi qobiliyatlar to‘plami sifatida ham ta’riflanadi. Ushbu qobiliyatlar doimiy mashq qilish asnosida rivojlanib mukammallikka tomon odimlab boradi, shuningdek, yangi va ijodiy g‘oyalar yaratish uchun zarur bo‘lgan fikrlash strategiyalaridan foydalanishni talab qiladi (Tabieh va boshq., 2021). Crumpler (2021) fikriga ko‘ra, ijodiy fikrlash yangi va yaxshilangan narsalarni kashf qilish uchun tushunchani yangi ma’lumotga aylantirish qayta modernizatsiyalash kabi ba’zi harakatlar va psixologik jarayonlarnini o‘z ichiga oladi. Muammoni aniqlash ijodiy fikrlash jarayonini tashkil etuvchi ilmiy faoliyatlarning dastlabki bosqichidir, undan keyin unga oid ma’lumotlarni yig‘ish, keyingi bosqichlar esa yechimning turli alternativalarini aniqlash, tushunchalarni birlashtirish orqali yangi bilim hosil qilish uchun alternativalarni sinash va nihoyat g‘oyalarni baholash hamda qaror qabul qilishdan iborat.

Dastlab siz bilan sun'iy intellekt tushunchasiga to’xtaladigan bo’lsak, sun'iy intellekt oldindan o'qitilgan va dastlabki dasturlashtirilgan vazifalarni avtomatik bajaradigan tizimlarga moslashtirilishi mumkin. Shuningdek, bu tizimlar o'z maqsadlariga erishishda turli algoritmlarni qo'llaydi. Sun'iy intellektni inson kabi bir necha jarayonlarda, masalan, o'rganish, moslashish, sintez qilish, o'z-o'zini tuzatish va murakkab ishlov berish vazifalari uchun ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga ega hisoblash tizimlari sifatida ta'riflashimiz mumkin (Popenici & Kerr, 2017). Mashina o'rganishi va chuqur o'rganish sun'iy intellektga katta ma'lumotlar to'plamlaridan mustaqil ravishda o'rganish va tahlil qilish imkonini berdi (Aggarwal, 2018). Shunday qilib, algoritmlar, mashina o'rganishi va sun'iy neyron tarmoqlar sun'iy intellektdagi eng muhim uchta asosiy fenomen hisoblanadi. Algoritmlar tushunchasi dastlab 1996 yilda, Google asoschilari hali Stanford universiteti talabasi

bo'lgan paytda paydo bo'lgan (Holmes va boshq., 2019). Yaqin davr ichida sun'iy intellekt texnologiyalari va ularning qo'llanilishi, shuningdek, SI tushunchalari va ular bilan bog'liq tushunchalar, masalan, sun'iy intellektning o'qitish va o'rganishga ta'sirini o'rganish kabi bir qator tendensiyalar paydo bo'la boshladi.

Bugungi kunda zamonaviy o‘qituvchi darsini o‘tishi bilan birga milliy urf-odatlarimiz, an’ana va qadriyatlarimizni o‘quvchi ongiga singdirib, darsni integratsiyalashgan tarzda tashkil etishi kerak.Shu jihatdan har tomonlama mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va ma’orifni yuksaltirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero-ki, istiqlol davrida ma’naviy merosimizni tiklashda amalga oshirilgan ulug‘vor ishlar, tariximizni xolisona o‘rganish, ulug‘ allomalar adabiy-ilmiy asarlarining tarjima va nashr qilinishi, ta’lim berishni takomillashtirish, adabiyot, san’at sohasidagi yutuqlar – bularning barchasi jamiyatda ma’naviy-ruhiy ko‘tarilishga olib keldi va iqtisodiyotimizning ustivor yo‘nalishlaridagi islohotlarga qo‘shimcha kuch bag‘ishladi.

Sharq allomalari va mutafakkirlari yosh avlodni tarbiyalash, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tengi yo‘q fikr, g‘oyalarni ilgari surganlar, ta’limotlar yaratganlar. Ilmiy merosni sinchkovlik bilan o‘rganish, tahlil qilish, tizimlashtirish hamda jahon fanining mazkur sohadagi yutuqlari bilan taqqoslash o‘zligimizni anglash imkonini kengaytirib, xalqimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborini yanada oshiradi. Milliy pedagogikamiz tarixini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha ajdodlarimizning asrlar davomida to‘plagan tajribalarini o‘rganish esa ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida “aktyor” emas, aksincha “rejissyor” bo‘lishi kerakligini bo‘lg‘usi o‘qituvchilar auditoriyadanoq anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Maktab o‘quvchisi, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, oliy ta’lim muassasalari talabalarining yuqori ta’lim sifat va samaradorlik ko‘rsatkichini namoyon qilishi uchun bo‘lg‘usi pedagog-o‘qituvchilarni kasbiy mahoratini innovatsion yondoshuvlar asosida takomillashtirib borishimiz kerak bo‘ladi. Bugungi zamonaviy ta’lim ham integratsiyalashgan darsni talab etadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar asosida o‘quvchi - talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishliklarini ta’minlaydi.

Zamonaviy o‘qituvchi ta’lim – tarbiya jarayonida innovatsion yondoshuvlardan foydalana bilishi va amalga oshira olishi lozim. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilarga quyidagi talablarni qo‘yiladi:

- ta’limda innovatsiya tushunchasini, uning mazmun mohiyatini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarning ta’lim maqsadini amalga oshirishdagi o‘rni va rolini bilishi;
- innovatsion texnologiyalarni fanlar bo‘yicha qo‘llash tamoyillarini bilishi;
- integratsiya asosida noan’anaviy dars tashkil eta olishi;
- o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta’minlash yo‘llarini bilishi;

- ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llab, na’munaviy imitatsiya o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishi;
- ta’lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilishi va egallashi kerak.

Uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qitishning interfaolligi-o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o‘zaro ta’sir asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir. Interfaol mashg‘ulot-o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot; jarayon hamkorlikda kechadi. Interfaol metodlarni o‘quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi esa – dars qaysi shaklda bo‘lmasin, qayerda o‘tkazilmasin, darsda o‘qituvchi bilan o‘quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o‘zlashtirishlarini ta’minlashi lozim. Bunda o‘qituvchi faqat fasilitator (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, kuzatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, faolligi oshadi, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi. Yuqoridagi nazariya va farazlardan xulosa qilgan holda raqamli texnalogiyalar va ta’limiy dasturlar orqali o’quvchi va talabalarni o’qitish ananaviy uslubdan ko’ra ancha samaraliroq degan to’xtamga kelish mumkun. Bunga sabab raqamli texnalogiyalar orqali o’qitilayotgan dastur ta’lim oluvchiga bir vaqtning o’zida ham visual ham audial ham kinestetik jihatdan infarmatsiya uzatadi va bu infarmatsiyani o’rganuvchi tomonidan yaxshiroq o’zlashtirishiga olib keladi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkunki ta’lim sohasiga raqamli texnalogiyalar va mashinalarning keng ko’lamda kirib kelishi ta’lim sohasi samaradorligini bevosita oshiradi, ammo ta’limdagi talim beruvchi omilining o’rnini to’la qonli qoplay olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –T.: 1997. 4-bo‘lim, 4-qism.
2. Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna, “Xalq pedagogikasi vositasida O‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari” Dis.Namangan-2023.
3. SH.X.Xonqulov, O‘quvchi-yoshlarda ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. Farg‘ona-2018
4. I.V.Xoldarova.Innovatsion yondoshuvlar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. Farg‘ona-2018
5. Abdullayeva, K. R. (2020). PEDAGOGICAL MECHANISMS OF INCREASING STUDENT SOCIAL ACTIVITY. Theoretical & Applied Science, (4), 709-712.

RAQAMLI IJTIMOIY MUHITNING TALABA PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA’SIRI: EMOTSIONAL ZO‘RIQISH VA ANKSIOZLIK MUAMMOSI

Toshpo‘latov Ibrohim Ikromjonovich,
Katta o‘qituvchi, Psixologiya kafedrasi
Namdu, O‘zbekiston
Sobirov Hamroxo‘ja Yusufjon o‘g‘li,
Pediatriya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi,
Namdu

Annotatsiya: *mazkur maqolada raqamli ijtimoiy makon sharoitida ta’lim olayotgan talabalarda emotsional zo‘riqish, anksiozlik holatlari hamda o‘zini baholash darajasining shakllanishi va o‘zgarish dinamikasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs psixikasiga ta’siri, virtual taqqoslash mexanizmlari, doimiy axborot oqimining psixologik salomatlikka ta’siri nazariy va tahliliy yondashuv asosida yoritiladi. Maqolada klassik va zamonaviy psixologik nazariyalar tahlil qilinib, talabalar orasida keng uchraydigan psixoemotsional muammolarning sabab va oqibatlari ochib beriladi. Shuningdek, emotsional barqarorlikni mustahkamlash, anksiozlikni kamaytirish va sog‘lom o‘zini baholashni rivojlantirishga qaratilgan amaliy psixologik tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalarida psixologik profilaktika ishlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *talabalar psixologiyasi, raqamli ijtimoiy makon, emotsional zo‘riqish, psixologik stress, anksiozlik (xavotir, bezovtalik), o‘zini baholash, ijtimoiy taqqoslash, psixologik salomatlik, emotsional barqarorlik, virtual muhit.*

Аннотация: *В данной статье проводится научный анализ эмоционального напряжения, тревожности и динамики формирования самооценки у студентов в условиях цифрового социального пространства. Рассматривается влияние социальных сетей, механизмы виртуального сравнения и воздействие постоянного информационного потока на психологическое здоровье личности. На основе классических и современных психологических теорий раскрываются причины и последствия психоэмоциональных проблем, характерных для студенческой среды. Представлены практические психологические рекомендации, направленные на укрепление эмоциональной устойчивости, снижение тревожности и формирование адекватной самооценки. Полученные результаты могут быть использованы в системе психологической профилактики в образовательных учреждениях.*

Ключевые слова: *Психология студентов, цифровое социальное пространство, эмоциональное напряжение, психологический стресс, тревожность (беспокойство, чувство тревоги), самооценка, социальное сравнение, психологическое здоровье, эмоциональная устойчивость, виртуальная среда.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of emotional tension, anxiety, and the dynamics of self-esteem formation among students in the context of the digital social environment. The psychological impact of social media, mechanisms of virtual comparison, and the influence of constant information flow on mental health are examined through theoretical and analytical approaches. Classical and modern psychological theories are analyzed, revealing the causes and consequences of psycho-emotional problems commonly observed among students. The article also offers practical psychological recommendations aimed at strengthening emotional stability, reducing anxiety, and developing healthy self-esteem. The findings can be effectively applied in psychological prevention programs within educational institutions.*

Key words: *Student psychology, digital social environment, emotional tension, psychological stress, anxiety (worry, restlessness), self-esteem, social comparison, mental health, emotional stability, virtual environment.*

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida inson hayotining deyarli barcha jabhalari, jumladan ta’lim tizimi ham raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanmoqda. Ayniqsa, talabalarning kundalik faoliyati, o‘qish jarayoni, muloqoti va bo‘sh vaqtini tashkil etishda ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va raqamli axborot manbalari muhim o‘rin egallamoqda. Ushbu jarayon bir tomondan ta’lim imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan shaxs psixikasiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Talabalik davri shaxs rivojining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda kasbiy o‘zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy identifikatsiya jarayonlari faol kechadi. Aynan shu davrda emotsional beqarorlik, psixologik stress va anksiozlik (xavotir, bezovtalik) holatlari ko‘proq namoyon bo‘lishi mumkin. Raqamli ijtimoiy makon esa ushbu holatlarni kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy ravishda boshqalar hayoti bilan solishtirish, virtual ideal obrazlarga intilish, axborotning haddan tashqari ko‘pligi talabalarda o‘zini baholash darajasining pasayishiga, ichki zo‘riqish va ruhiy charchoqqa olib kelmoqda. Shu bois, raqamli muhitning talaba psixologiyasiga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kun psixologiyasining dolzarb vazifalaridan biridir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi - raqamli ijtimoiy makon sharoitida talabalarda emotsional zo‘riqish, anksiozlik va o‘zini baholash dinamikasini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda psixologik salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Raqamli ijtimoiy makon tushunchasi zamonaviy psixologiya va sotsiologiyada shaxsning virtual muhitda olib boradigan ijtimoiy faoliyatini ifodalovchi muhim kategoriya hisoblanadi. Ushbu makon ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, onlayn ta’lim platformalari va raqamli axborot manbalari orqali shakllanadi. Talabalar uchun raqamli ijtimoiy makon nafaqat muloqot vositasi, balki o‘zini namoyon etish, bilim olish va shaxsiy identifikatsiyani shakllantirish maydoniga aylangan.

Raqamli muhitning asosiy xususiyatlaridan biri - axborotning uzluksizligi va tezkorligidir. Talabalar kun davomida katta hajmdagi axborotni qabul qiladi, bu esa psixik jarayonlarga sezilarli yuklama beradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, doimiy axborot oqimi diqqatning tarqoqlashuvi, kognitiv charchoq va emotsional zo‘riqishning kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, akademik yuklama bilan birgalikda raqamli faoliyatning ortishi talabalarda stress holatlarini kuchaytiradi. Ijtimoiy tarmoqlar talaba psixikasiga ikki yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, ular ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro aloqalarni mustahkamlash va o‘qish jarayonini yengillashtirish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan esa, virtual taqqoslash, idealizatsiyalangan obrazlar va doimiy baholanish hissi talabalarda psixologik bosimni kuchaytiradi.

Leon Festinger tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘zini baholash jarayonida boshqalar bilan solishtirishga moyil bo‘ladi. Raqamli muhitda bu jarayon yanada kuchayib, ko‘pincha real imkoniyatlardan uzoq bo‘lgan ideal obrazlar bilan taqqoslashga olib keladi.

Virtual makonda muvaffaqiyat, tashqi ko‘rinish va ijtimoiy faollikning namoyish etilishi talabalarda o‘zini baholash darajasining beqarorlashuviga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, o‘zini baholashi hali to‘liq shakllanmagan shaxslar bunday ta’sirlarga sezgir bo‘lib, o‘z qadr-qimmatini tashqi tasdiqqa bog‘lab qo‘yadi. Natijada, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy fikrlar yoki yetarli e’tibor ko‘rmaslik anksiozlik va emotsional tushkunlik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, raqamli muhitda vaqtni nazoratsiz o‘tkazish uyqu rejimining buzilishi, jismoniy faollikning kamayishi va ijtimoiy izolyatsiya kabi holatlarga olib keladi. Bu omillar esa psixologik salomatlikka bilvosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uyqu yetishmasligi va jismoniy faollikning kamayishi emotsional barqarorlikning pasayishiga hamda stressga chidamlilikning kamayishiga sabab bo‘ladi.

Raqamli ijtimoiy makon talaba psixikasiga murakkab va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sirni chuqur o‘rganish va salbiy oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Emotsional zo‘riqish va anksiozlik zamonaviy psixologiyada shaxsning psixologik holatini belgilovchi muhim kategoriyalar hisoblanadi. Ayniqsa, talabalik davrida ushbu holatlar o‘qish jarayoni, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Raqamli ijtimoiy makonning kengayishi mazkur psixologik holatlarning shakllanishi va kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Stress tushunchasi ilmiy muomalaga kanadalik olim Gans Selye tomonidan kiritilgan bo‘lib, u stressni organizmning turli tashqi va ichki ta’sirlarga nisbatan umumiy moslashuv reaksiyasi sifatida talqin qilgan.

G.Selye stressni uch bosqichda kechuvchi jarayon sifatida tavsiflaydi: xavotir, moslashuv va holdan toyish. Talabalarda akademik yuklama, vaqt tanqisligi, baholanish bosimi va raqamli axborotning ortiqligi ushbu stress bosqichlarining tezroq kechishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Emotsional zo‘riqish - bu shaxsning ichki resurslari talab qilinayotgan vazifalar hajmiga mos kelmagan holatda yuzaga keladigan psixologik holatdir. Talabalar orasida emotsional zo‘riqish ko‘pincha imtihonlar davrida, akademik muvaffaqiyatga bo‘lgan yuqori talablar fonida va ijtimoiy tarmoqlardagi doimiy taqqoslash jarayonlari natijasida shakllanadi. Bunday holatda diqqatning pasayishi, tez charchash, jahldorlik va motivatsiyaning susayishi kuzatiladi. Anksiozlik esa xavf yoki noaniqlik bilan bog‘liq bo‘lgan ichki bezovtalik holati bo‘lib, u real xavf mavjud bo‘lmagan sharoitlarda ham yuzaga kelishi mumkin.

Zamonaviy psixologiyada *anksiozlik* holati shaxsning kelajakdagi ehtimoliy muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning yetishmasligi va tashqi baholarga haddan tashqari bog‘liqligi bilan izohlanadi. Raqamli muhitda esa

bu holat doimiy onlayn nazorat, ijtimoiy tarmoqlardagi baholanish va virtual muvaffaqiyat mezonlari orqali kuchayadi.

Kognitiv yondashuvga koʻra, anksiozlikning asosida shaxsning notoʻgʻri fikrlash sxemalari yotadi. Talabalar oʻzlarini boshqalar bilan solishtirib, oʻz yutuqlarini kam baholashga moyil boʻladilar. “Men yetarlicha muvaffaqiyatli emasman”, “Boshqalar mendan yaxshiroq” kabi avtomatik salbiy fikrlar emotsional zoʻriqish va xavotirni kuchaytiradi. Ushbu fikrlar uzoq muddat davom etsa, oʻzini baholash darajasining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, emotsional zoʻriqish va anksiozlik oʻzaro chambarchas bogʻliq jarayonlardir.

Doimiy stress anksiozlik holatini kuchaytirsa, yuqori darajadagi anksiozlik esa stressga chidamlilikni pasaytiradi. Bu esa talabaning akademik samaradorligiga, ijtimoiy munosabatlariga va umumiy psixologik salomatligiga salbiy ta’sir koʻrsatadi.

Oʻzini baholash shaxs psixologik tuzilmasining markaziy komponentlaridan biri boʻlib, insonning oʻz qobiliyatlari, imkoniyatlari, ijtimoiy mavqei va shaxsiy sifatlariga nisbatan munosabatini ifodalaydi. Psixologiya fanida oʻzini baholash shaxsning oʻziga bergan umumiy bahosi sifatida talqin qilinadi va u shaxs xulq-atvori, motivatsiyasi hamda emotsional holatiga bevosita ta’sir koʻrsatadi. Talabalik davri esa oʻzini baholashning faol shakllanish va qayta koʻrib chiqilish bosqichi hisoblanadi.

Oʻzini baholashning shakllanishi bolalik davridan boshlansa-da, aynan yoshlik va talabalik davrida u nisbatan beqaror boʻladi. Bu davrda shaxs oʻzini mustaqil subyekt sifatida anglay boshlaydi, kasbiy yoʻnalishini belgilaydi va ijtimoiy muhitda oʻz oʻrnini topishga intiladi. Ushbu jarayonda tashqi baholar, atrofdagilarning fikri va ijtimoiy taqqoslash mexanizmlari muhim rol oʻynaydi. Raqamli ijtimoiy makon esa bu omillarning ta’sirini yanada kuchaytiradi.

Psixologiyada oʻzini baholashning bir necha turlari ajratiladi: adekvat, yuqori va past oʻzini baholash. Adekvat oʻzini baholash shaxsning oʻz imkoniyatlarini real baholashi bilan tavsiflanadi va psixologik barqarorlikning muhim koʻrsatkichidir. Yuqori oʻzini baholash shaxsda haddan tashqari ishonch, tanqidni qabul qilmaslik va real imkoniyatlarni inkor etish bilan namoyon boʻlishi mumkin. Past oʻzini baholash esa oʻziga ishonchsizlik, muvaffaqiyatsizlikdan qoʻrqish va tashqi baholarga kuchli bogʻliqlik bilan xarakterlanadi.

Raqamli muhitda oʻzini baholash jarayoni koʻpincha virtual taqqoslash asosida shakllanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etiladigan “ideal hayot”, muvaffaqiyat va tashqi koʻrinish obrazlari talabalarda oʻzini boshqalar bilan solishtirish ehtiyojini kuchaytiradi.

Ushbu taqqoslashlar koʻpincha real hayotdan uzilgan va selektiv xarakterga ega boʻlgani sababli, talabalarda oʻz qadr-qimmatini past baholashga olib keladi. Natijada, ichki norozilik, oʻzidan qoniqmaslik va anksiozlik holatlari kuchayadi. Shuningdek, raqamli muhitda “layk”, izoh va obunachilar soni kabi koʻrsatkichlar shaxsiy qiymat mezoniga aylanishi mumkin.

Bu holat talabaning oʻzini baholashini tashqi tasdiqqa bogʻlab qoʻyadi. Agar kutilgan ijtimoiy tasdiq olinmasa, shaxs oʻzini yetarli darajada qadrli deb his

qilmasligi mumkin. Bunday psixologik holat uzoq muddat davom etsa, emotsional zo‘riqish va psixologik tushkunlik holatlarini keltirib chiqaradi.

O‘zini past baholash talabalarda bir qator salbiy oqibatlarga olib keladi. Jumladan, akademik faoliyatda passivlik, tashabbuskorlikning pasayishi, ijtimoiy munosabatlardan chekinish va o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaslik kuzatiladi. Bundan tashqari, past o‘zini baholash stress va anksiozlikka nisbatan sezgirlikni oshirib, psixologik salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalarda emotsional zo‘riqish va anksiozlikning namoyon bo‘lishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit va ta’lim jarayonining o‘ziga xos jihatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Raqamli ijtimoiy makonning kengayishi ushbu omillarning ta’sirini kuchaytirib, psixoemotsional muammolarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Talabalar orasida olib borilgan kuzatuvlar va ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotsional zo‘riqish ko‘pincha quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi: imtihon va nazorat ishlari davrida, akademik natijalarga bo‘lgan yuqori talablar fonida, vaqtni to‘g‘ri rejalashtira olmaslik sharoitida hamda ijtimoiy tarmoqlarda doimiy faollik natijasida. Ushbu holatlar bir-biri bilan qo‘shilib, talabaning ichki psixologik resurslarini tezda kamaytiradi.

Emotsional zo‘riqishning asosiy psixologik belgilariga ichki taranglik, tez jahldorlik, diqqatning pasayishi, motivatsiyaning susayishi va ruhiy charchoq kiradi. Ko‘plab talabalar ushbu holatlarni oddiy charchoq sifatida qabul qiladi, biroq ularning uzoq davom etishi psixologik barqarorlikning buzilishiga olib keladi. Ayniqsa, raqamli muhitda uzluksiz axborot oqimi diqqatni tiklash jarayonini murakkablashtirib, emotsional tiklanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Anksiozlik holati esa talabalarda ko‘pincha kelajak bilan bog‘liq noaniqliklar fonida shakllanadi. O‘qishni tugatgandan keyingi kasbiy istiqbol, raqobat muhiti, o‘zini boshqalar bilan solishtirish anksiozlikni kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi. Raqamli ijtimoiy makonda bu jarayon yanada kuchayadi, chunki talabalar doimiy ravishda boshqalarning yutuqlari, muvaffaqiyatlari va “ideal hayoti” bilan to‘qnash keladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, anksiozlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda o‘zini baholash odatda past yoki beqaror bo‘ladi. Bunday talabalar o‘z imkoniyatlarini yetarlicha baholay olmaydi, muvaffaqiyatsizlikdan haddan tashqari qo‘rqadi va yangi vazifalarni bajarishdan qochishga moyil bo‘ladi. Natijada, akademik faollik pasayadi, ijtimoiy munosabatlar torayadi va psixologik izolyatsiya kuchayadi. Shuningdek, emotsional zo‘riqish va anksiozlikning uzoq muddat davom etishi psixosomatik belgilarni keltirib chiqarishi mumkin. Bular bosh og‘rig‘i, uyqusizlik, yurak urishining tezlashuvi, tez-tez charchash va umumiy holsizlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ushbu belgilar talabaning nafaqat psixologik, balki jismoniy salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahliliy qism natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli ijtimoiy makon sharoitida talabalarda emotsional zo‘riqish va anksiozlik ko‘pincha yashirin shaklda kechadi. Ko‘plab talabalar o‘z holatini normal deb qabul qiladi va professional psixologik yordamga murojaat qilmaydi. Bu esa muammolarning chuqurlashishiga va ularni bartaraf etish jarayonining murakkablashishiga olib keladi.

Talabalarda emotsional zo‘riqish va anksiozlikni kamaytirish masalasi faqat nazariy yondashuv bilan cheklanib qolmasligi, balki aniq va samarali amaliy choralar bilan qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Raqamli ijtimoiy makon sharoitida psixologik salomatlikni saqlash uchun individual, guruhiy va institutsional darajadagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi navbatda, raqamli gigiyena tushunchasini talabalarda shakllantirish zarur. Raqamli gigiyena - bu shaxsning raqamli texnologiyalardan ongli va me’yorida foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Talabalarga ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkaziladigan vaqtni cheklash, uyqudan oldin elektron qurilmalardan foydalanmaslik, axborot oqimini tanlab qabul qilish kabi oddiy, ammo samarali qoidalarni joriy etish emotsional zo‘riqishni sezilarli darajada kamaytiradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish - kognitiv-emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Talabalarga o‘z fikrlari va emotsiyalarini anglash, salbiy avtomatik fikrlarni aniqlash va ularni ijobiy, realistik fikrlar bilan almashtirish o‘rgatilishi lozim. Masalan, “Men boshqalardan kamman” kabi umumlashtirilgan salbiy fikrlarni “Har bir insonning rivojlanish sur’ati har xil” kabi konstruktiv fikrlar bilan almashtirish anksiozlikni kamaytirishga yordam beradi.

Uchinchi yo‘nalish sifatida emotsional barqarorlikni mustahkamlovchi psixologik mashqlarni keltirish mumkin. Nafas mashqlari, relaksatsiya texnikalari, diqqatni hozirgi holatga jamlash (mindfulness) usullari talabalarda ichki tinchlikni tiklashga yordam beradi. Ushbu mashqlarni muntazam bajarish stressga chidamlilikni oshiradi va emotsional zo‘riqishning oldini oladi.

To‘rtinchi muhim omil - o‘zini baholashni sog‘lomlashtirishdir. Talabalarda o‘z yutuqlarini tan olish, kichik muvaffaqiyatlarni qadrlash va o‘zini boshqalar bilan emas, o‘zining kechagi holati bilan solishtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Bu yondashuv shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, tashqi baholarga haddan tashqari bog‘liqlikni kamaytiradi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida psixologik maslahat va profilaktika xizmatlarini faollashtirish muhim ahamiyatga ega. Talabalar uchun psixologik treninglar, seminarlar va ochiq muloqot maydonlari tashkil etilishi psixoemotsional muammolarni erta aniqlash va ularning oldini olish imkonini beradi. Bunday tizimli yondashuv talabalarning umumiy psixologik farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Raqamli ijtimoiy makon sharoitida talabalarning psixologik salomatligini saqlash zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur maqolada raqamli muhitning talabalarda emotsional zo‘riqish, anksiozlik va o‘zini baholash dinamikasiga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar va doimiy axborot oqimi talabalarda psixoemotsional zo‘riqishni kuchaytirib, o‘zini baholashning beqarorlashuviga olib kelishi mumkin. Emotsional zo‘riqish va anksiozlikning shakllanishida akademik yuklama, ijtimoiy taqqoslash, kelajak bilan bog‘liq noaniqliklar hamda raqamli muhitda doimiy baholanish hissi muhim rol o‘ynaydi. Ushbu holatlar talabaning akademik samaradorligi, ijtimoiy faolligi va umumiy psixologik farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada keltirilgan amaliy psixologik tavsiyalar talabalarda emotsional barqarorlikni mustahkamlash, anksiozlikni kamaytirish va sog‘lom o‘zini baholashni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ularni ta’lim muassasalarida keng qo‘llash mumkin. Xususan, raqamli gigiyena, kognitiv-emotsional o‘zini boshqarish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Selye G. Stress bez distressa. – Moskva: Progress, 1982. (Stress va emotsional zo‘riqish nazariyasi).
2. Selye G. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976. (Stressning psixologik va fiziologik mexanizmlari).
3. Festinger L. A Theory of Social Comparison Processes. – Human Relations, 1954. (Ijtimoiy taqqoslash nazariyasining asosiy manbasi).
4. Festinger L. Conflict, Decision, and Dissonance. – Stanford: Stanford University Press, 1964. (Shaxs ichki ziddiyatlari va qaror qabul qilish jarayonlari).
5. World Health Organization (WHO). Mental Health in the Digital Age. – Geneva, 2020. (Raqamli muhit va psixologik salomatlik bo‘yicha rasmiy manba).

SUN’IY INTELLEKT DAVRIDA INSON SHAXSIYATI QANDAY O‘ZGARMOQDA?

NamDU Psixologiya kafedrasi katta o’qituvchisi
Rustamova Turdixon Ne’matjonovna
Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Tajaxmedova Madina Rustamjon qizi

Annotatsiya: *Sun’iy intellekt inson psixologiyasig, o‘zini baholashi va hatto shaxs sifatida shakllanishiga ham ta’sir etishi.*

Аннотация: *Искусственный интеллект может влиять на человеческую психологию, самооценку и даже на формирование личности.*

Abstract: *Artificial intelligence can affect human psychology, self-esteem, and even the formation of a person.*

Kalit so’zlar: *intellekt, Virtual “men”, manipulyatsiya , sun’iy*

Ключевые слова: *интеллект, виртуальное «Я», манипуляция, искусственный*

Key words: *intelligence, Virtual "I", manipulation, artificial*

Hozirgi kunda sun’iy intellekt hayotimizning deyarli barcha sohalariga kirib kelgan. Avvallari faqat oddiy dasturlar bilan ishlagan bo‘lsak, hozir esa aqlli tizimlar bizning qiziqishlarimizni tushunadi, nima yoqishini biladi va hatto qanday qaror qilishimizga ham ta’sir ko‘rsatadi. Menimcha, bu jarayon faqat texnologik o‘zgarish emas, balki inson psixologiyasiga ham kuchli ta’sir qiladigan hodisa. Ayniqsa, yoshlar ko‘p vaqtini internet va ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotganini hisobga olsak, sun’iy intellekt ularning fikrlashi, o‘zini baholashi va hatto shaxs sifatida shakllanishiga ham ta’sir qilmoqda. Shu sababli bu mavzuni o‘rganish juda muhim deb o‘ylayman.

Psixologiyada shaxsiyat insonning xulqi, fikrlashi va hissiyotlari bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror xususiyatlar deb qaraladi. Turli olimlar bu masalaga har xil yondashgan. Masalan, Zigmund Freyd inson xulqining asosida ong osti yotadi deb hisoblagan. Karl Rodjers esa inson o‘zini rivojlantirishga intiladi degan fikrni ilgari surgan. Oldin shaxsiyat ko‘proq oila, maktab va atrof-muhit ta’sirida shakllangan bo‘lsa, hozir bu jarayonga yana bitta kuchli omil — sun’iy intellekt qo‘shildi.

Sun’iy intellekt va insonning o‘zini anglashiga ta’siri. Hozir ijtimoiy tarmoqlarda biz ko‘radigan postlar tasodifiy emas. Ularning ko‘pi algoritmlar orqali tanlanadi. Ya’ni, biz nimani ko‘proq ko‘rsak, shunga o‘xshash narsalar yana ko‘proq chiqadi. Bu bir qarashda qulaydek korinadi. Lekin boshqa tomondan, inson faqat o‘ziga yoqadigan fikrlar ichida qolib ketadi. Bu holatni olimlar “filter bubble” effrekti deb atashadi. Natijada insonning dunyoqarashi kengaymaydi, balki faqat torayadi. Masalan, agar kimdir faqat bir xil turdagi videolarni ko‘rsa, vaqt o‘tib u shu narsani “to‘g‘ri” deb qabul qila boshlaydi. Bu esa uning shaxsiy fikrlashiga ta’sir qiladi.

Bugungi kunda ko‘pchilik ijtimoiy tarmoqlarda o‘zining eng yaxshi tomonlarini ko‘rsatadi. Kimdir faqat chiroyli rasmlarini qo‘yadi, kimdir muvaffaqiyatlarini ko‘rsatadi. Natijada odam o‘zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi. Bu esa Leon Festinger nazariyasiga ham mos keladi. Unga ko‘ra, insonlar doimo o‘zini boshqalar bilan taqqoslaydi. Masalan, kimdir boshqalarning “ideal” hayotini ko‘rib, o‘z hayotidan norozi bo‘lishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadigan yoshlarning katta qismida o‘z-o‘zini baholash pasaygan. Sun’iy intellektning kognitiv jarayonlarga ta’siri (fikrlash, xotira, diqqat). Sun’iy intellekt insonning fikrlash jarayoniga ham ta’sir qilmoqda. Masalan: Ko‘pchilik hozir ma’lumotni internetdan qidiradi, lekin yodlab qolmaydi. Diqqat tez chalg‘iydi (uzun matn, kitob o‘qish qiyinlashadi). Tayyor javoblarga o’rganib qolish kuchayadi. Ba’zi tadqiqotlarda aytilishicha, yoshlarning katta qismi kerakli ma’lumotni eslab qolishdan ko‘ra uni qayerdan topishni eslab qoladi. Bu esa “digital amnesia” effekti deb ataladi.

Sun’iy intellekt bilan emotsional bog‘liqlik. Hozirgi paytda ko‘plab insonlar sun’iy intellekt chatbotlari bilan gaplashadi. Ba’zilar ularga o‘z muammolarini ham aytadi. Bu bir tomondan yaxshi — chunki inson bunda o‘zini yengil his qiladi. Lekin boshqa tomondan, bu xavfli ham bo‘lishi mumkin. Chunki inson asta-sekin real odamlar bilan emas, sun’iy tizimlar bilan ko‘proq muloqot qilishni boshlaydi va oqibatda, real hayotdan uzilib qolish kuzatilishi mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, ayrim foydalanuvchilar chatbot bilan gaplashganda o‘zini “tushunilgan” deb his qilgan. Bu esa insonning emotsional ehtiyojlari sun’iy intellekt orqali qondirilayotganini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt bilan bog‘liq yana bir muhim masala — bu maxfiylik. Ko‘pchilik foydalanuvchilar o‘z ma’lumotlari qayerda va qanday ishlatilishini aniq bilmaydi. UNESCO tashkiloti ham bu masalaga e’tibor qaratib, sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiyalar bergan. Bundan tashqari noto‘g‘ri tavsiyalar, manipulyatsiya, ma’lumotlar xavfsizligi, kabi muammolar ham mavjud.

Shuni ham aytish kerakki, sun’iy intellekt faqat salbiy emas. Masalan: psixologik yordam ilovalari mavjud; o‘qishda yordam beradi; vaqtni tejaydi; yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ba’zi tadqiqotlarda hatto sun’iy intellekt yordamida stress kamaygani ham kuzatilgan.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt bugungi kunda inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda va bu jarayon inson shaxsiyatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Maqolada tahlil qilib chiqqanimizdek, sun’iy intellekt nafaqat texnologik qulayliklar yaratadi, balki insonning fikrlash jarayoni, o‘zini anglash darajasi, emotsional holati va ijtimoiy munosabatlariga ham bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va algoritmlar orqali shakllanayotgan axborot muhiti insonning dunyoqarashini o‘zgartirib, ba’zan uni cheklab qo‘yishi ham mumkin. Shuningdek, virtual muhitda shakllanayotgan “ideal obraz” va real hayotdagi shaxs o‘rtasidagi farq ko‘plab psixologik muammolarga sabab bo‘lishi ehtimoli mavjud. Inson o‘zini boshqalar bilan solishtirishga ko‘proq moyil bo‘lib qoladi, bu esa o‘z-o‘zini baholash darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayon Leon Festinger tomonidan ta’kidlangan ijtimoiy solishtirish nazariyasi bilan bog’liqdir. Bundan tashqari, sun’iy intellekt insonning kognitiv faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, ma’lumotni eslab qolish o‘rniga uni tez topishga o‘rganish, diqqatning qisqarishi va tayyor javoblarga suyanish holatlari tobora ko‘paymoqda. Bu esa uzoq muddatda insonning mustaqil fikrlash qobiliyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Emotsional jihatdan ham muhim o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ba’zi insonlar sun’iy tizimlar bilan muloqot qilish orqali o‘zini yengil his qilsa-da, bu holat real insoniy munosabatlarning ahamiyatini kamaytirib yuborishi mumkin. Inson asta-sekin murakkablashib boradigan, lekin tabiiy bo‘lgan insoniy munosabatlardan qochib, oson va boshqariladigan sun’iy aloqani afzal ko‘rish ehtimoli bor. Shu bilan birga, sun’iy intellekt ning ijobiy tomonlarini ham inkor etib bo‘lmaydi. U ta’lim jarayonini yengillashtiradi, psixologik yordam imkoniyatlarini kengaytiradi va insonning kundalik hayotini ancha qulaylashtiradi. Demak, muammo sun’iy intellektning o‘zida emas, balki undan qanday foydalanilishida. Menimcha, eng muhim jihat — bu muvozanatni saqlashdir. Inson texnologiyadan foydalanishi kerak, lekin unga to‘liq bog‘lanib qolmasligi zarur. Har qanday holatda ham inson o‘z fikrlash qobiliyatini, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini va real ijtimoiy munosabatlarini saqlab qolishi kerak.

Umuman olganda, sun’iy intellekt inson shaxsiyatiga ta’sir qiluvchi kuchli omilga aylanmoqda. Kelajakda bu ta’sir yanada kuchayishi mumkin. Shu sababli, psixologiya fanida bu masalani chuqur o‘rganish va inson hamda texnologiya o‘rtasidagi sog‘lom munosabatni shakllantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zigmund Freyd– Introductory Lectures on Psychoanalysis;
2. Karl Rodjers – On Becoming a Person;
3. UNESCO – Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence (2021);
4. Amerika Psixologlar Assotsatsiyasi(APA) – Digital media and mental health reports;

5. World Economic Forum – Artificial Intelligence and Human Behaviour Reports;
6. Oxford Internet Institute – sun'iy intellekt va jamiyat bo'yicha tadqiqotlar;
7. Google qidiruv– Algorithmic behavior and user interaction studies.

O'SPIRINLARDA IJTIMOIY TARMOQLARGA QARAMLIK SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Bozorboyeva Dilshoda Rahimjoqizi
Namangan davlat universiteti
magistranti
E-mail@dilwoda325@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik shakllanishining psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanishga olib keluvchi omillar, xuxusan, emotsional holat, shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya va ijyimoiy muhitning ta'siri ko'rib chiqildi. Shuningdek o'spirin yosh davriga xos psixologik ehtiyojlar va ularning virtual makon orqali qondirilishi masalalari yoritildi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning o'quv faoliyati, shaxslararo munosabatlar va ruhiy holatga ta'siri ham tahlil qilinadi. Olingan xulosalar o'spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning oldini olish va psixologik profilaktika ishlarini tashkil etishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *o'spirinlar, psixologik mexanizmlar, ijtimoiy muhit, psixologik ehtiyoj, shaxsiy xususiyatlar, xulq-atvor buzilishlari, internetga qaramlik.*

Аннотация*: В данной статье анализируются психологические механизмы формирования зависимости от социальных сетей у подростков. В исследовании рассматриваются факторы, приводящие к чрезмерному использованию социальних сетей, в частности эмоциональное состояние, личностные особенности, мотивация и влияние социальной среды. Также освещаются психологические потребности, характерные для подростково возраста, и особенности их удовлетворения в виртуальном пространстве. В статье анализируется влияние зависимости от социальных сетей на учебную деятельность, межличностные отношения и психическое состояние подростков. Полученные выводы имеют практическое значение для организации профилактической и психологической работы по предупреждению зависимости от социальных сетей у подростков.*

Ключевые слова*: подростки, психологические механизмы, социальная среда, психологические потребности, личностные особенности, нарушения поведения, интернет-зависимость.*

Annotation : *This article analyzes the psychological mechanisms of the formation of social media addiction in adolescents . The study examines the factors leading to excessive use of social networks, in particular emotional state, personality traits , motivations , and the influence of the social environment. It also highlights the psychological needs typical of adolescence and the ways they are satisfied in the virtual space. The article analyzes the impact of social media addiction on academic activity, interpersonal relationships , and the mental state of the adolescents. The findings have practical significance for organizing preventive and psychological interventions aimed at preventing social media addictions among adolescents.*

Keywords*: adolescents, psychological mechanismis, social environment, psychological needs, personality traits, behavioral disorders, internet addiction.*

So’nggi yillarda raqamli texnologiyalar va internetning jadal rivojlanishi inson hayot tarzini tubdan o’zgartirdi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar o’smirlar hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularning muloqoti, o’zini anglash jarayoni, qadriyatlari va xulq-atvoriga kuchli ta’sir ko’rsatmoqda. Bir tomondan, ijtimoiy tarmoqlar axborot olish, muloqot qilish va o’zini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda, boshqa tomondan esa, ulardan haddan tashqari foydalanish psixologik qaramlikning shakllanishiga olib kelmoqda.

O’spirinlik davri shaxs rivojlanishidagi eng muhim va sezgir bosqichlardan biri bo’lib, bu davrda emotsional beqarorlik, tengdoshlar fikriga yuqori bog’liqlik va o’zini tasdiqlashga bo’lgan ehtiyoj kuchayadi. Aynan shu omillar ijtimoiy tarmoqlarning psixologik jihatdan jozibadorligini oshirib, ularga bog’lanib qolish xavfini kuchaytiradi. Psixologiya fanida xulq-atvorni mustahkamlash mexanizmlari B.F.Skinner tomonidan, ijtimoiy o’rganish va moslashuv jarayonlari esa Leon Festinger tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Ushbu nazariyalar o’spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik shakllanishing psixologik mexanizmlarini tushuntirishda muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

Zamonaviy psixologiya va psixatriyada xulq-atvor bilan bog’liq qaramlik shakllari alohida muammo sifatida ko’rib chiqilmoqda. Jumladan, bu masala xalqaro miqyosda ham World Health Organization tomonidan muhokama qilinayotgan dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Shu nuqtai nazardan o’spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanish mexanizmlarini ilmiy asosda o’rganish, uning psixologik omillarini aniqlash va profilaktik yo’llarni ishlab chiqish bugungi kun psixologiya fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik muammosini tushuntirishda, avvalo, xulq-atvorning shakllanish mexanizmlariga oid klassik psixologik yondashuvlar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, B. F. Skinner ning operant o‘rganish nazariyasi va “The Behavior of Organisms” asarida bayon etilgan mustahkamlash g‘oyalari xulq-atvorning rag‘bat orqali barqarorlashishini izohlaydi. Ushbu yondashuv ijtimoiy tarmoqlardagi “layk”, izoh va e’tirof kabi omillarning odatga aylanish jarayonidagi rolini tushuntirishda qo‘llaniladi.

Ijtimoiy muhit va taqlid mexanizmlarining ahamiyati Albert Bandura ning ijtimoiy o‘rganish nazariyasida, xususan, “Social Learning Theory” asarida yoritilgan. Muallif shaxs xulq-atvori ko‘p jihatdan boshqalarni kuzatish va ularning modelini o‘zlashtirish orqali shakllanishini asoslab bergan. Bu yondashuv o‘spirinlarning ijtimoiy tarmoqlarda mashhur shaxslar va tengdoshlariga taqlid qilish jarayonini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

Shaxs rivojlanishining yoshga xos xususiyatlarini tahlil qilishda Erik Erikson ning psixosotsial rivojlanish nazariyasi, ayniqsa “Childhood and Society” asari muhim o‘rin tutadi. Unda o‘spirinlik davri identiklikni shakllantirish bosqichi sifatida talqin qilinadi, bu esa ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini namoyon etish va e’tirofga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishini ilmiy jihatdan izohlash imkonini beradi.

Raqamli muhit va internet bilan bog‘liq qaramlik muammosini empirik jihatdan o‘rgangan tadqiqotchilar orasida Kimberly Young alohida o‘rin tutadi. Uning “Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder” asari va keyingi tadqiqotlarida internetga qaramlik xulq-atvoriy addiksiya shakli sifatida

tavsiflangan bo‘lib, bu yondashuv ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni tahlil qilish uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda o‘spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik muammosi psixologik yondashuvlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Dastlab mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, monografiyalar, maqolalar va nazariy konsepsiyalar o‘rganildi. Ushbu manbalar asosida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik muammosining psixologik talqinlari, uning shakllanish omillari va mexanizmlari aniqlashtirildi. Tahlil jarayonida turli nazariy yondashuvlar o‘zaro taqqoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari ajratib ko‘rsatildi.

Shuningdek, mantiqiy-tahliliy yondashuv asosida o‘spirinlik davrining psixologik xususiyatlari hamda raqamli muhit ta’siri o‘rtasidagi bog‘liqlik izohlandi. Olingan nazariy xulosalar tizimlashtirilib, umumlashtirish metodi orqali yagona konseptual model doirasida bayon qilindi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot mavzusini empirik ma’lumotlarsiz, nazariy manbalar asosida chuqur tahlil qilish va o‘spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning psixologik mexanizmlarini ilmiy asosda yoritib berish imkonini berdi.

O‘spirinlik davri shaxs psixologiyasida o‘ziga xos va sezgir bosqich bo‘lib, unda identitetni shakllantirish, tengdoshlar bilan munosabatlarni rivojlantirish va o‘zini ijtimoiy kontekstda namoyon etish ehtiyoji kuchli bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘spirinlar emotsional barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy qabul qilinishni his qilish jarayonida turli tashqi vositalarga murojaat qilishga moyil bo‘ladi.

Zamonaviy o‘spirinlar orasida ijtimoiy tarmoqlar ushbu ehtiyojlarni tez va qulay qondirish imkonini beradi. Bu platformalar ularga ijobiy emotsional tajriba berish bilan birga, o‘zini namoyon etish va tengdoshlar bilan aloqa qilish imkonini yaratadi. Shu sababli, o‘spirinlarda virtual muhitga bo‘lgan e’tibor asta-sekin barqaror xulq-atvor shakliga aylanadi.

Psixologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarga bo‘lgan bog‘liqlik bir nechta asosiy mexanizmlar orqali shakllanadi. Birinchidan, xulq-atvorni mustahkamlash mexanizmi orqali takroriy ijobiy tajribalar — masalan, “layk”, izoh yoki obunachilar sonining ortishi — o‘spirinning virtual maydonda faoliyatini qayta-qayta takrorlashga undaydi (B. F. Skinner).

Ikkinchidan, ijtimoiy o‘rganish va taqlid mexanizmi o‘spirinlarning xulq-atvorida muhim rol o‘ynaydi. Tengdoshlar va ommabop shaxslarning onlayn xatti-harakatlarini kuzatish orqali o‘spirinlar o‘z xatti-harakatlarini shakllantiradi va virtual muhitdagi faollikni oshiradi (Albert Bandura).

Uchinchidan, shaxs identifikatsiyasi va o‘zini namoyon etish ehtiyoji o‘spirinlarni ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lishga undaydi. Ushbu platformalar ularga o‘zini baholash, jamiyatdagi o‘rnini anglash va e’tirof olish imkonini beradi (Erik Erikson).

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar emotsional kompensatsiya vositasi sifatida ham ishlaydi. Stress, yolg‘izlik yoki ichki zo‘riqish holatida o‘spirinlar virtual

muhitga murojaat qilib, vaqtincha emotsional yengillikni his qiladi, bu esa bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi (Abraham Maslow).

Natijada, o‘spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liqlikning shakllanishi xulq-atvorni mustahkamlash, ijtimoiy taqlid, shaxs identifikatsiyasi va emotsional ehtiyojlarni qondirish mexanizmlarining uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Ushbu mexanizmlar virtual muhitning shaxs hayotidagi ahamiyatini oshirib, uning hayotiy faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda olingan ijobiy fikrlar — layklar, izohlar, obunachilar — miya miqdoriy darajada dopamin tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan mukofot mexanizmini faollashtiradi. Bu jarayon odatda oziq-ovqat yoki ijtimoiy aloqalar orqali ham tetiklanadi, ya’ni bu ijobiy signal miya tomonidan «mukofot» sifatida qayta ishlanadi. Shuning uchun o‘spirinlar tezkor e’tibor olish uchun virtual faoliyatni yana-yana takrorlaydi, bu esa xulq-atvorni mustahkamlashga olib keladi.

Bu mexanizm ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni toza xulq-atvor odatidan farqlantiradi: odatdagi faoliyat vaqt o‘tishi bilan kamayib boradi, biroq neyrokimyoviy mukofot mexanizmlari faol bo‘lganida u kuchayib ketadi.

Tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlardan uzoq vaqt foydalanishning ijtimoiy solishtirish hissini kuchaytirishi bilan bog‘liqligini aniqlaydi. O‘spirinlar doimiy ravishda boshqalar hayotini virtual muhitda kuzatadi va o‘zini shu hayot bilan solishtiradi. Bu esa o‘ziga past baho berish, tanqid qilish istagi, o‘zini izolyatsiya qilish hissi kabi hissiyotlarni kuchaytiradi. Bu holatlar stress va xavotir darajasini oshiradi hamda o‘spirinlarni ijtimoiy tarmoqlardan ko‘proq «fikr olish» yo‘li bilan emotsional qo‘llab-quvvatlash izlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik – bu oddiy qiziqish yoki vaqt o‘tkazish emas, balki ularning shaxsiy ehtiyojlari va ichki motivlari bilan chambarchas bog‘liq jarayon. Ushbu qaramlik ko‘pincha o‘zini namoyon etish, tengdoshlar bilan muloqot qilish va o‘zini qabul qildirish istagi bilan kuchayadi. Shu bois, o‘spirinlar ijtimoiy tarmoqlarga ko‘proq vaqt sarflashga moyil bo‘lib, bu ularning xulq-atvori va hissiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shaxsiy tajribamga qaraganda, ijtimoiy tarmoqlar o‘spirinlar uchun nafaqat aloqada bo‘lish vositasi, balki o‘zini ifoda etish, o‘zini baholash va o‘ziga ishonch hosil qilish maydoni bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, bu qaramlikni to‘g‘ri nazorat qilish va muvozanatni saqlash juda muhim, aks holda u ijtimoiy va psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, o‘spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liqlik tabiiy jarayon bo‘lsa-da, uni ongli tarzda boshqarish va ularning shaxsiy rivojlanishiga zarar yetkazmasligini ta’minlash eng muhim vazifa ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Skinner, B. F. – Science and Human Behavior, 1953
2. Young, K. S. – Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder, 1998
3. Do’stmuhamedova, Sh. A., Tillashayxova, X. A., Baykunusova, G., Ziyavitdinova, G. – Umumiy psixologiya (Yosh davrlari va pedagogik psixologiya), 2020
library.samdpi.uz
4. Ibragimov, X. I., Yo‘ldoshev, U. A., Bobomirzayev, X. – Pedagogik psixologiya, 2009

RAQAMLI MUHITDA YOSHLARNI “IT” SOHASIDAGI KASBLARGA YO'NALTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turg'unova Hilola Xusnitdin qizi
Toshkent Kimyo Unversiteti
Namangan filiali Sirtqi ta'lim 3-bosqich talabasi

Annotatsiya:*Ushbu ilmiy maqolada raqamli transformatsiya davrida yoshlarni axborot texnologiyalari sohasidagi kasblarga yo'naltirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli muhitning yoshlar kasbiy o'zlikni anglashiga, motivatsion sohasiga va kasb tanlash xulq-atvoriga ta'siri o'rganilgan. Maqolada IT-kasblarning jozibadorlik omillari, raqamli platformalar orqali kasbga yo'naltirishning samarali usullari, shuningdek, yoshlarda uchraydigan psixologik to'siqlar (texnofobiya, kasbiy noaniqlik, raqamli charchash) va ularni bartaraf etish strategiyalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda kasbga yo'naltirish jarayoni nafaqat axborot yetkazish, balki yoshlarning ijtimoiy ehtiyojlari, qadriyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishiladi. Maqola oxirida pedagoglar, psixologlar va kasbga yo'naltirish mutaxassislari uchun amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli muhit, IT-kasblar, kasbga yo'naltirish, yoshlar psixologiyasi, motivatsiya, raqamli kompetensiyalar, kasbiy o'zlikni anglash, ijtimoiy tarmoqlar.*

Аннотация: *В данной научной статье анализируются социально-психологические механизмы профориентации молодежи в сфере информационных технологий в эпоху цифровой трансформации. Исследование рассматривает влияние цифровой среды на восприятие профессиональной идентичности, мотивационную сферу и поведение молодежи при выборе карьеры. В статье освещаются факторы привлекательности профессий в сфере ИТ, эффективные методы профориентации через цифровые платформы, а также психологические барьеры, с которыми сталкивается молодежь (технофобия, неопределенность карьеры, цифровое выгорание), и стратегии их преодоления. Результаты исследования показывают, что высокая эффективность достигается, когда процесс профориентации в цифровой среде организуется не только путем предоставления информации, но и с учетом социальных потребностей, ценностей и психологических особенностей молодежи. В заключение статьи даются практические рекомендации для педагогов, психологов и специалистов по профориентации.*

Ключевые слова: *цифровая среда, профессии в сфере ИТ, профориентация, психология молодежи, мотивация, цифровые компетенции, профессиональная идентичность, социальные сети.*

Abstract: *This scientific article analyzes the socio-psychological mechanisms of guiding young people to careers in the field of information technology in the era of digital transformation. The study examines the impact of the digital environment on the perception of professional identity, motivational sphere and career choice behavior of young people. The article highlights the attractiveness factors of IT professions, effective methods of career guidance through digital platforms, as well as psychological barriers encountered by young people (technophobia, career uncertainty, digital burnout) and strategies for overcoming them. The results of the study show that high efficiency is achieved when the process of career guidance in the digital environment is organized not only by providing information, but also taking into account the social needs, values and psychological characteristics of young people. At the end of the article, practical recommendations are given for educators, psychologists and career guidance specialists.*

Keywords: *digital environment, IT professions, career guidance, youth psychology, motivation, digital competencies, professional identity, social networks.*

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mehnat bozorining tuzilishini tubdan o'zgartirmoqda. Axborot texnologiyalari sohasi nafaqat iqtisodiy o'sishning drayveri, balki yoshlar uchun eng istiqbolli kasbiy yo'nalishlardan biriga aylanmoqda [1]. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida IT-sohani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va yosh mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Biroq, texnologik imkoniyatlarning kengayishi bilan birga, yoshlarni IT-sohasiga jalb qilish va ularda ushbu yo'nalishga barqaror motivatsiyani shakllantirish murakkab ijtimoiy-psixologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli muhit yoshlarning kasb tanlash xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi yangi omillarni – ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri, onlayn kontent iste'moli madaniyati, raqamli identifikatsiya va virtual hamjamiyatlarning rolini kuchaytirmoqda [2].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – raqamli muhitda yoshlarni IT-kasblarga yo'naltirish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, motivatsion mexanizmlarni aniqlash, psixologik to'siqlarni o'rganish va samarali yo'naltirish strategiyalarini ishlab chiqishdir. Tadqiqotda psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili, so'rovnoma, intervyu va kuzatish usullaridan foydalanildi.

Raqamli muhit – bu axborot almashinuvi, ijtimoiy o'zaro ta'sir va shaxsiy rivojlanishning virtual makoni bo'lib, u yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va kasbiy orientatsiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda o'sib ulg'aygan "digital native" avlodining kognitiv, emotsional va kommunikativ xususiyatlari an'anaviy muhitda shakllangan avlodlardan sezilarli farq qiladi [3].

Kognitiv jihatlar: Raqamli muhit yoshlarda tezkor axborot qayta ishlash, multitasking va vizual fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, bu shuningdek, diqqatning parchalanishi, chuqur tahlil qilish qobiliyatining pasayishi va "tezkor natija" kutish psixologiyasini shakllantirishi mumkin. IT-kasblar esa aksincha, tizimli fikrlash, muammolarni bosqichma-bosqich yechish va uzoq muddatli loyihalar ustida ishlashni talab qiladi. Bu qarama-qarshilik yoshlarda kasbiy moslashuv qiyinchiliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Emotsional-motivatsion jihatlar: Raqamli muhitda yoshlar doimiy rag'batlantirish (layklar, sharhlar, reytinglar)ga o'rganib qoladi. IT-sohasida esa natijaga erishish ko'pincha uzoq vaqt talab qiladi va darhol e'tirof etilmasligi mumkin. Bu motivatsion tushkunlikka olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli platformalar orqali IT-mutaxassislarning muvaffaqiyat hikoyalari, onlayn kurslar va gamifikatsiya elementlari yoshlarda ijobiy motivatsiyani shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy identifikatsiya: Yoshlar uchun kasb tanlash nafaqat shaxsiy qiziqishlar, balki ijtimoiy guruhga mansublik, status va e'tirof masalasidir. IT-sohasi raqamli muhitda "zamonaviy", "istiqbolli" va "global" kasb sifatida idrok etiladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi IT-bloggerlar, startap-asoschilar va dasturchilarning kontenti yoshlarda ushbu sohani tanlashga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Biroq, ba'zi hollarda bu "moda"ga ergashish haqiqiy qiziqish va qobiliyatlarni hisobga olmaslikka olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning IT-kasblarga qiziqishi ko'pincha tashqi motivlar (daromad, status)dan boshlanib, keyinchalik ichki motivlar (qiziqish, mazmunlilik) bilan mustahkamlanadi [4]. Shu sababli, kasbga yo'naltirish jarayonida nafaqat IT-sohasining afzalliklarini, balki uning qiyinchiliklari (doimiy o'rganish zarurati, yuqori intellektual yuklama, texnologik eskirish tezligi) haqida ham haqqoniy ma'lumot berish muhimdir.

Raqamli platformalar orqali kasbga yo'naltirishning psixologik mexanizmlari sifatida quyidagilarni keltirib o’tamiz.

Onlayn platformalarda o'yin elementlari (ballar, darajalar, mukofotlar) yoshlarning motivatsiyasini oshiradi. Masalan, kodlashni o'rgatuvchi ilovalar (Code.org, Scratch) dasturlashni o'yin orqali o'rgatish orqali yoshlarda dastlabki qiziqishni shakllantiradi. Gamifikatsiya nafaqat o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi, balki yutuqlarni ko'rish orqali o'ziga ishonchni oshiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda IT-mutaxassislarning shaxsiy brendlari, ularning muvaffaqiyat hikoyalari va kasbiy hayotidan lavhalar yoshlar uchun kuchli motivatsion manba bo'lib xizmat qiladi. "Agar u qila olsa, men ham qila olaman" printsipi yoshlarda o'ziga ishonchni shakllantiradi. Biroq, bu yerda haqiqiy va idealizatsiya qilingan tasvirlar o'rtasidagi farqni anglash muhimdir.

Raqamli platformalar sun'iy intellekt yordamida foydalanuvchining qiziqishlari, qobiliyatlari va o'zlashtirish sur'atlarini tahlil qilib, individual yo'l xaritalarini taklif qilishi mumkin. Bu yondashuv har bir yoshning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish imkonini beradi.

Onlayn forumlar, Telegram-kanallar va Discord-serverlar yosh IT-mutaxassislarga tajriba almashish, savollar berish va psixologik qo'llab-quvvatlash olish imkonini yaratadi. Bu ayniqsa qishloq joylaridagi yoshlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning professional izolyatsiyasini kamaytiradi [5].

Bugun IT-sohasiga yo'naltirish jarayonida yoshlar quyidagi psixologik to'siqlarga duch kelishlari mumkin:

Ba'zi yoshlar, ayniqsa qizlar va qishloq joylaridagi o'quvchilar, texnologiyalardan qo'rqish yoki "bu mening ishim emas" degan stereotiplarga ega bo'lishadi. Bu to'siqni bartaraf etish uchun dastlabki muvaffaqiyat tajribasini yaratish (oddiy loyihalar, tezkor natijalar), ijobiy rol modellarini taqdim etish (ayol dasturchilar, muvaffaqiyatli mahalliy mutaxassislar), "xato qilish – o'rganishning qismi" tamoyilini shakllantirish.

IT-sohasi juda keng (dasturlash, ma'lumotlar tahlili, kibermuxofaza va h.k.), bu yoshlarda "qaysi yo'nalishni tanlash kerak" degan savolni keltirib chiqaradi. Yechim sifatida kasbiy diagnostika va qiziqishlarni aniqlash testlarini raqamli formatda taqdim etish; turli yo'nalishlarni amaliy tanib ko'rish imkonini beruvchi mini-kurslar; kasb maslahatchilari bilan onlayn konsultatsiyalar tashkil etish.

Doimiy ekran oldida bo'lish, ma'lumotlar oqimi va tezkor o'zgaruvchan muhit yoshlarda charchash va motivatsion pasayishga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun raqamli gigiena qoidalarini o'rgatish (vaqtni boshqarish, tanaffuslar); offline faoliyat bilan muvozanatni saqlashga undash; uzoq muddatli maqsadlarni kichik bosqichlarga bo'lish va har bir yutuqni nishonlash.

IT-sohasi hali ham "erkaklar kasbi" deb qaralishi mumkin, bu qizlarning ushbu yo'nalishga qiziqishini pasaytiradi. Stereotiplarni buzish uchun ayol IT-mutaxassislarning ko'rinadiganligini oshirish; gender-tenglik tamoyillarini kasbga yo'naltirish dasturlariga integratsiyalash; qizlar uchun maxsus IT-lagerlar va mentorlik dasturlarini tashkil etish [6].

Yuqoridagi tahlillar asosida raqamli muhitda yoshlarni IT-kasblarga yo'naltirish uchun avallo yoshlarda biror kasbga qiziqishni uyg’otishimiz lozim. Raqamli muhitda yoshlarni IT-sohasidagi kasblarga yo'naltirish murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, u nafaqat axborot yetkazish, balki yoshlarning motivatsion sohasi, qadriyatlari, ijtimoiy ehtiyojlari va psixologik xususiyatlarini chuqur hisobga olishni talab qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar kasbga yo'naltirish uchun keng imkoniyatlar ochadi, ammo ularning samaradorligi gamifikatsiya, individualizatsiya, ijtimoiy ta'sir va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini to'g'ri qo'llashga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2020. – 28 b.
2. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, №5. – P. 1–6.
3. Twenge J.M. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy. – New York: Atria Books, 2017. – 352 p.
4. Lent R.W., Brown S.D. Social Cognitive Career Theory. // Career Development and Counseling: Putting Theory and Research to Work / Eds. S.D. Brown, R.W. Lent. – Hoboken: Wiley, 2013. – P. 115–146.
5. Sherzodbek, Nabiev. "TIL O'RGANISHDA MOTIVATSIYANING ROLI: ICHKI VA TASHQI OMILLAR." YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI 2.5 (2025): 470-474.
6. Nishonov A., Karimova D. Raqamli ta'lim muhitida yoshlarning kasbiy orientatsiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 164 b.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Abdullayeva Laylo Ravshanbek qizi,
KIUT "Namangan filiali" talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asosida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning zamonaviy usullari yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt, online ta’lim platformalari va virtual texnologiyalarning kasb tanlash jarayonidagi o‘rni tahlil qilingan. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar hamda davlat siyosati, xususan Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar asosida masalaning dolzarbligi olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, kasbga yo‘naltirish, yoshlar, sun’iy intellekt, onlayn ta’lim, virtual reallik, psixologik diagnostika.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются современные методы компьютерной профессиональной ориентации молодежи, анализируется роль*

искусственного интеллекта, онлайн-платформ обучения и виртуальных технологий в процессе профессиональной подготовки. Представлены идеи и государственная политика, проводимая в этом направлении в Узбекистане, разработанные и реализованные Шавкатом Мирзиёевым.

Ключевые слова: *цифровые технологии, профориентация, молодежь, искусственный интеллект, онлайн-образование, виртуальная реальность, психологическая диагностика.*

Abstract: *This article discusses modern methods of guiding young people to a profession based on digital technologies. It also analyzes the role of artificial intelligence, online learning platforms, and virtual technologies in the process of choosing a profession. The relevance of the issue is examined in light of the reforms being carried out in this direction in Uzbekistan and the state policy, in particular, the ideas put forward by Shavkat Mirziyoyev.*

Keywords: *digital technologies, career guidance, youth, artificial intelligence, online learning, virtual reality, psychological assessment.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib kelmoqda. Ayniqsa yoshlarni kasbga to‘g‘ri yo‘naltirishda ularning o‘rni beqiyosdir [4] Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek "Yoshlarni zamonaviy bilim va kasb-xunarlarni egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratish -- davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishidir" [1] Bu fikr yoshlarni zamonaviy kasblarga yo‘naltirishda innovatsion yondashuvlarning muhimligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda, axborot resurslaridan tez va oson foydalanishda, masofaviy ta’limni rivojlantirishda, o‘quvchilarni mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini oshirish bilan bir qatorda ularga moslashuvchan ta’lim jadvali yaratishda muhim omil bo‘lmoqda [4]

Raqamli texnologiyalar yoshlarni qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan onlayn psixologik testlar, suniy intellekt asosidagi tavsiyalar, masofaviy ta’lim platformalari kabi vositalar orqali yoshlar o‘zlariga mos kasbni ongli ravishda tanlashi mumkin.

Raqamli transformatsiyani o‘sishi va yaratgan imkoniyatlari raqamli texnologiyalarini omma orasida jadal rivojlanishi va kun sayin ommalashuvi ta’lim tizimida katta o‘zgarishlar va keskin burilishlarga turtki bo‘ldi. Buyuk Britaniya ta’lim vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar ta’lim samaradorligini o‘rtacha 25% ga oshirgan (Departamenti for education.2023). Bu ko‘rsatkich ayniqsa COVID-19 pandimiyasi davrida keskin o‘sdi va jarayonni yanada tezlashtirdi [4] Pandimiya davrida butun dunyo bo‘ylab masofaviy ta’lim yo‘lga qo‘yildi va o‘quvchilar onlayn tarzda ta’lim olishiga to‘g‘ri keldi. Mana shu vaqtdan boshlab butun dunyo bo‘ylab barcha jabhalarida, jumladan, ta’lim sohasida ham raqamlashtirish keskin avj oldi. Bizning o‘zbekistonimiz ham bu o‘zgarishdan chetda qolmagan holda " Raqamli O‘zbekiston - 2030 " strategiyasini ishlab chiqadi [2]

Shuningdek, ta’lim yo‘nalishini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng chora tadbirlar olib bormoqda. Mahalliy statistikalarga ko‘ra O‘zbekiston 2024 - yil hisobida aholini internetdan foydalanish ko‘rsatkichi 93,3% ga yetgan [4] (Uz daily. Com). Raqamli texnologiyalar yani kompyuterlar, internet, mobil qurilmalar, diniy intelekt va turli elektron platformalar ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqibgina qolmay, ko‘plab qulayliklarni vujudga keltirdi. Mana shunday raqamli texnologiyalar rivojlanmasidan oldin, darslar ananaviy tarzda olib borilib, dars

davomida o‘quvchiga asosiy ma’lumot beruvchi shaxs sifatida qaralgan. Ayni damda esa raqmlashtirilgan texnalogiyalar tufayli o‘quvchilar mustaqil ta’lim olishlari, uyda o‘tirgan holda individual ta’lim olishlari, cheksiz ma’lumotlar tizimiga tez va oson kirishlari, hamda ulardan foydalanish imkoniyatlariga egadir [3] Zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, Suniy intellekt asosida ishlovchi kasbga yo‘naltirish tizimlari, o‘quvchilarni qiziqishlari, shaxsiy xususiyatlari va bozor talablarini birlashtirib ancha aniq tavsiyalar beradi [5]. Shuningdek, virtual reallik (VR) texnologiyalari yordamida o‘quvchilar turli kasblarni "sinab ko‘rish" imkoniga ega bo‘lib, bu ularning kasb tanlashdagi ishonchini oshiradi [5].

Raqamli davrda ma'lum ko'nikmalar turli sohalarda martaba ko'tarilishi uchun zarur bo'lib qoldi. Ta'limdan tortib sog'liqni saqlash va moliyagacha bo'lgan sohalarda mutaxassislar o'z rollarida muvaffaqiyat qozonish va rivojlanish uchun zarur bo'lgan raqamli savodxonlikka ega bo'lishlarini ta'minlash uchun turli xil kompetentsiyalarga muhtoj. “Raqamli savodxonlik aslida ma’lumotlarni biroz chuqurroq o‘rganish imkoniyatini anglatadi”, deydi Ciarletta. “Shunday qilib, aksariyat mutaxassislar qaysi lavozimda bo‘lishidan qat’i nazar, ma’lumotlarni sharhlay va tahlil qila olishlari kerak.” Ilg'or ta'lim ushbu muhim raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ixtisoslashgan dasturlar talabalarni raqamli muhitda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan vositalar va bilimlar bilan ta'minlashi mumkin [6]

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar yoshlarni kasbga yo‘naltirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ular orqali har bir yoshning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri kasb tanlash imkoniyati kengaymoqda [4] Shu bois ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimiga keng joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Qo‘shimcha qilib aytadigan bo‘lsam raqamli texnologiyalar rivojlangan sari bizning O‘zbekiston yoshlari ham jadal ravishda o‘sib bormoqda, negaki har bir inson hozirda uyda o‘tirgan holda individual tarzda xoxlagan yo‘nalishida bepul ta’lim olmoqda. Masalan,"Ibrat Academy" o‘quv dasturida bepul xoxlagan tilni eng zo‘r o‘qituvchilar tomonidan o‘rganishimiz mumkin. Bu esa biz yoshlarga davlatimiz tomonidan berilgan yuksak imkoniyatlardan biri sanaladi. Shunday katta imkoniyatlardan foydalangan holda xoxlagan kasbni tanlab vatan uchun xizmat qilish biz yoshlarni burchimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Nutq va ma’ruzalar to‘plami. – Toshkent, 2020–2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
3. Coursera rasmiy sayti – https://www.coursera.org
4. Zamonaviy pedagogika va psixologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar (jumladan, Department for Education, UK, 2023; UzDaily ma’lumotlari).
5. Xashimova D.P. Ta’lim tizimida raqamli transformatsiya: muammolar, imkoniyatlar va istiqbollar.

ЖОМОКТОР АРКЫЛУУ МЕКТЕПКЕ ЧЕЙИНКИ КУРАКТАГЫ БАЛДАРДЫН БААЛУУЛУКТАРЫН КАЛЫПТАНДЫРУУ.

Мадалиева С.А.
Ош мамлекеттик педагогикалык университетинин улук окутуучусу

Аннотация: *Бул макалада жомоктор аркылуу мектепке чейинки куракгагы балдардын баалуулуктарын калыптандыруунун теориялык жана практикалык негиздери каралат. Жомоктордун баланын эмоционалдык, когнитивдик жана социалдык өнүгүүсүнө тийгизген таасири талданып, алардын тарбиялык мүмкүнчүлүктөрү көрсөтүлөт. Изилдөөдө жомокторду колдонуу ыкмалары, ролдук оюндар, талкуу жана чыгармачылык иштер аркылуу баалуулуктарды бекемдөө жолдору баяндалат. Ошондой эле тарбиячынын ролу жана педагогикалык шарттарга өзгөчө көңүл бурулат. Жыйынтыгында жомоктор балдардын моралдык сапаттарын калыптандырууда эффективдүү каражат экени негизделет жана алардын социалдык адаптациясына оң таасир берери көрсөтүлөт. Бул ыкма тарбия процессинин натыйжалуулугун жогорулатат жана баланын инсандык өнүгүүсүн колдойт келечектеги коомго даярдайт деп эсептелет бүгүнкү күндө илимий-педагогикалык мааниге ээ болот деп.*

Ачкыч сөздөр: *Жомоктор, мектепке чейинки курак, баалуулуктар, тарбиячы, жомок аркылуу тарбия.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования ценностей у детей дошкольного возраста посредством сказок. Анализируется влияние сказок на эмоциональное, познавательное и социальное развитие ребенка, показан их образовательный потенциал. В исследовании описаны методы использования сказок, способы укрепления ценностей посредством ролевых игр, дискуссий и творческой работы. Особое внимание уделяется также роли воспитателя и педагогическим условиям. В результате доказано, что сказки являются эффективным средством формирования нравственных качеств детей и оказывают положительное влияние на их социальную адаптацию. Этот метод считается повышающим эффективность образовательного процесса и поддерживающим личностное развитие ребенка, подготовку к будущему обществу, и имеет современное научно-педагогическое значение.*

Ключевые слова: *Сказки, дошкольный возраст, ценности, воспитатель, воспитание посредством сказок*

Abstract: *This article examines the theoretical and practical foundations of the formation of values in preschool children through fairy tales. The impact of fairy tales on the emotional, cognitive and social development of the child is analyzed, and their educational potential is shown. The study describes the methods of using fairy tales, ways to strengthen values through role-playing games, discussions and creative work. Special attention is also paid to the role of the educator and pedagogical conditions. As a result, it is proven that fairy tales are an effective means of forming children's moral qualities and have a positive effect on their social adaptation. This method is considered to increase the effectiveness of the educational process and support the child's personal development, preparing for the future society, and is considered to have scientific and pedagogical significance today.*

Key words: *Fairy tales, preschool age, values, educator, education through fairy tales.*

Мектепке чейинки курак – бул баланын инсандык өнүгүүсүнүн эң маанилүү этабы болуп эсептелет. Бул мезгилде бала айлана-чөйрө менен активдүү таанышып, чоңдордун жүрүм-турумун байкап, аларды тууроо аркылуу өзүнүн алгачкы социалдык тажрыйбасын топтойт. Дал ушул учурда баланын мүнөзүнүн пайдубалы түптөлүп, анын дүйнө таанымынын баштапкы багыты аныкталат. Ошондуктан мектепке чейинки тарбия берүүдө ар бир иш-аракет, ар бир колдонулган ыкма терең ойлонулуп, максаттуу жүргүзүлүшү зарыл.Баалуулуктар – бул адамдын жүрүм-турумун жөнгө салуучу ички багыт берүүчү түшүнүктөрдүн жыйындысы. Алар инсанга эмне жакшы, эмне жаман экенин айырмалоого жардам берип, туура чечим кабыл алууга өбөлгө түзөт. Мектепке чейинки куракта бул түшүнүктөр али толук калыптанып бүтө элек болгондуктан, балдар көбүнчө чоңдордун көрсөтмөсүнө жана мисалына таянат. Ошол себептен тарбиячынын милдети – балага боорукердик, чынчылдык, адилеттүүлүк, достук сыяктуу негизги адамдык сапаттарды жөнөкөй жана түшүнүктүү жолдор аркылуу жеткирүү керек.

Жомоктор бул процессте өзгөчө мааниге ээ. Алар баланын кабыл алуусуна ылайыкташкан, образдуу жана эмоционалдык таасири күчтүү каражат болуп саналат. Жомок угуп жаткан бала каармандардын окуясына аралашып, алардын сезимдерин башынан өткөргөндөй болуусу керек. Мындай ички катышуу баланын аң-сезиминде терең из калтырат. Оң каармандарга боор тартып, алардын аракетин колдосо, терс каармандардан алыстоону үйрөнөт. Бул болсо моралдык түшүнүктөрдүн табигый жол менен калыптанышына шарт түзөт. Элдик жомоктор, ырлар, табышмактар ритмикалык сүйлөө үлгүлөрүн берет, балдарды эне тилинин кооздугу жана образы менен тааныштырат. Баланын көркөм чыгарманы кабыл алуусу-мазмунду иштин өзгөчө формасы болуп саналат.

Жомоктор — балдардын эмоционалдык, интеллектуалдык жана моралдык өнүгүүсүнө чоң таасир тийгизет. Мектепке чейинки балдардын оң мүнөздүү адаттардын, моралдык баалуулуктардын жана дүйнө таанымын өрчүүшүнө таасир берет. Балдарга жакшы менен жаманды айрып билүүгө, моралдык баалуулуктарды өздөштүрүүгө байкоо жүргүзүүгө жомоктордо каармандардын адеп-ахлактык оң сапаттары менен көрсөтүлөт.Каармандардын кыйынчылыктарга кабылып, бирок акыл-эсти жана жакшы сапаттары аркылуу ийгиликке жетишүүнүн өзү балдарга эң чоң тарбиялардын бири. Мындай окуялардан сабак алып, балдар жашоосунда туура чечимди кабыл алууга үйрөнө алышат. Жомоктордун жардамы менен балдар жаңы сөздөрдү үйрөнүп, сөз байлыктарын арттырышат. Жаңы сөздөрдүн ар түрдүү айтылышы жана сүрөткө кароо жолу менен сөздөрдүн берилиши балдардын сөз байлыгын өстүрөт. Бала жомоктогу сөздөрү уга берсе, сүйлөм түзүмдөрү да кенейет.

Жомоктордо эмоционалдык тарбия берүү да маанилүү роль ойнойт. Балдар каармандар менен катар ар кандай эмоцияларды — кубанычты, кайгыны, коркууну, үмүттү жана башка сезимдерди таанып, аларды

бөлүшүүнү үйрөнүшөт. Мындай ыкмалар балдарга эмоционалдык интеллектисин өстүрүүдө жардам берет. [1. 29-б.].

Бала жомокто болгон нерселерди элестетип андан чыгарылган чыгармачыл ой-идеяларды таба алат. Жомоктор балдарга жаңы көз караш менен карап, ар түрдүү абалдарды түшүнүүгө жардам берет. Балдар каармандар аркылуу жашоого болгон көз караштары өзгөрөт.Жомоктор ар түрдүү элдердин маданияттарын, үрп-адаттарын жана каада-салттарын чагылдырат. Бул балдарга башка улуттун билими жөнүндө түшүнүү жана өз улуту менен сыймыктанууга, көптүрдүүлүктү да кабыл алууга үндөө болуп эсептелет. Жомоктордун бардык аспекттери ар түрдүү аймактарда балдарды тарбиялоодо маанилүү роль ойнойт. Балдарга гана көңүлдүү окуялар менен эрмек тартуулап койбостон, алардын жан дүйнөсүн байытып, моралдык, интеллектуалдык, эмоционалдык жана социалдык жактан өнүгүүсүн күчөтөт.

Мындан тышкары, жомоктор баланын ой жүгүртүүсүн, кыялдануу жөндөмүн жана тил байлыгын өнүктүрүүгө да жардам берет. Каармандардын ортосундагы мамилелерди түшүнүү аркылуу бала коомдук байланыштардын жөнөкөй моделин өздөштүрөт. Мисалы, жардам берүү, кечиримдүүлүк, жоопкерчилик сыяктуу сапаттар жомок аркылуу жеңил кабыл алынат.

Азыркы учурда бул теманын актуалдуулугу мурдагыдан да күчөдү. Себеби балдардын күнүмдүк жашоосунда санариптик каражаттардын үлүшү көбөйүп, жандуу баарлашуу жана китеп окуу азайып бара жатат. Көпчүлүк учурда даяр визуалдык маалымат баланын өз алдынча ой жүгүртүүсүн чектеп, терең эмоционалдык кабыл алууну төмөндөтүшү мүмкүн. Мындай шартта жомокторду максаттуу колдонуу баланын ички дүйнөсүн байытуу жана адамгерчилик баалуулуктарды бекемдөө үчүн натыйжалуу жол болуп саналат.

Ошентип, мектепке чейинки курakta жомокторду тарбиялык курал катары пайдалануу балдардын руханий өнүгүүсүнө, туура жүрүм-турум калыптандыруусуна жана коомго ылайыкташуу жөндөмүнүн жогорулашына кепилдик жаралат. Бул багыттагы иш тарбиячы тарабынан системалуу жана чыгармачылык менен уюштурулганда гана күтүлгөн жыйынтыкка жеткирери шексиз[2. 40-б]

Мектепке чейинки курактагы балдардын психологиялык өзгөчөлүктөрү алардын баалуулуктарды кабыл алуусуна түздөн-түз таасир этет. Бул курakta бала дүйнөнү көбүнчө эмоциялар аркылуу кабыл алат. Башкача айтканда, ал логикалык талдоого караганда сезим аркылуу тезирээк түшүнөт. Ошондуктан тарбия процессинде жылуу мамиле, түшүнүү жана колдоо негизги орунда турушу керек. Балдар бул мезгилде чоңдорду активдүү түрдө байкап, алардын жүрүм-турумун кайталай башташат. Тарбиячынын сүйлөгөн сөзү, үнүнүн ыргагы, башка адамдарга болгон мамилеси – баары бала үчүн үлгү болуп саналат. Эгер тарбиячы боорукер, сабырдуу жана адилеттүү болсо, бала да акырындык менен ушул сапаттарды өздөштүрөт. [3. 60-б] Тескерисинче, орой мамиле баланын жүрүм-турумуна терс таасирин тийгизиши мүмкүн.

Мектепке чейинки балдарда төмөнкү негизги баалуулуктар калыптана баштайт: боорукердик, достук, чынчылдык, эмгекчилдик жана урмат-сый. Мисалы, балага оюнчуктарды бөлүшүү аркылуу достук жана кең пейилдик

түшүндүрүлөт. Ал эми жөнөкөй тапшырмаларды аткаруу аркылуу эмгекчилдикке үйрөнөт. Мындай сапаттар күнүмдүк тарбия процессинде акырындык менен, кайталоо аркылуу бекемделет Ар бир бала индивидуалдуу экенин эске алуу маанилүү. Кээ бир балдар бат түшүнсө, айрымдарына көбүрөөк убакыт талап кылынат. Ошондуктан тарбиячы ар бир балага өзгөчө мамиле жасап, алардын мүмкүнчүлүктөрүн жана кызыгууларын эске алуу менен иш алып баруусу зарыл. Мектепке чейинки курakta баалуулуктарды калыптандыруу – бул үзгүлтүксүз жана максаттуу жүргүзүлүүчү процесс. Ал тарбиячынын туура багыт берүүсү, жеке үлгүсү жана бала менен болгон ишенимдүү мамилеси аркылуу ишке ашат.

Мектепке чейинки курактагы балдардын психологиялык жана эмоционалдык өнүгүүсү өзгөчө мүнөзгө ээ. Бул мезгилде бала дүйнөнү негизинен сезимдер аркылуу кабыл алат: ал кубанууну, капалануну, кызыгууну тез сезет жана ошол эмоциялар аркылуу айлана-чөйрөнү түшүнүүгө аракет кылат. Логикалык ой жүгүртүү али толук калыптана элек болгондуктан, бала үчүн абстракттуу түшүнүктөргө караганда образдуу, жандуу мисалдар алда канча түшүнүктүү болот. Тарбия процессинде жылуу сөз, мээримдүү мамиле, жандуу мисалдар жана кайталанма аракеттер өзгөчө мааниге ээ.

Баланын көңүл буруу убактысы салыштырмалуу кыска болот, бирок кызыккан нерсеге бат тартылат. Эмоционалдык таасири күчтүү окуялар (мисалы, жомок, ролдук оюн, сүрөт) баланын эсинде узак сакталат. Ушул өзгөчөлүктү эске алып, тарбиячы баалуулуктарды жөн гана айтып берүү менен чектелбестен, аларды көргөзмөлүү жана иш-аракет аркылуу көрсөтүүсү зарыл.

Мектепке чейинки курakta төмөнкү негизги баалуулуктар калыптана баштайт:

Боорукердик. Башкалардын абалын түшүнө билүү, жардам берүүгө умтулуу. Мисалы, курбусуна жардам бергенде же ыйлап жаткан баланы жубатканд а боорукердик сезими бекемделет.

Достук. Бирге ойноо, бөлүшүү, келишимге келүү сыяктуу жөндөмдөр аркылуу калыптанат. Достук мамиле конфликттерди тынч жол менен чечүүгө үйрөтөт.

Чынчылдык. Чындыкты айтууга көнүү, жасаган ишине жоопкерчилик алуу. Бул сапат мактоо жана ишеним көрсөтүү аркылуу бекемделет.

Эмгекчилдик. Жөнөкөй тапшырмаларды (оюнчуктарды жыйноо, өзүнө кам көрүү) аткаруу аркылуу пайда болот. Үзгүлтүксүз кайталоо жана колдоо бул сапатты туруктуу кылат.

Урмат-сый. Чоңдорго, теңтуштарына, айлана-чөйрөгө аяр мамиле кылуу. Сылык сөздөрдү колдонуу, кезек күтүү сыяктуу көндүмдөр аркылуу өнүгөт.

Бул баалуулуктар өз-өзүнчө эмес, бири-бири менен байланышта калыптанат. Достук мамиле боорукердик менен тыгыз байланышта болсо, урмат-сый чынчылдык жана жоопкерчилик менен бекемделет.[4. 55-б]

Тарбиячынын күнүмдүк жүрүм-туруму, сүйлөө маданияты – баары бала үчүн «тирүү сабак» болуп саналат. Эгер тарбиячы сабырдуу, адилеттүү жана

боорукер мамиле кылса, бала да ошол жүрүм-турумду нормалдуу деп кабыл алып, аны өзүндө калыптандыра баштайт.

Ошол эле учурда, ар бир бала индивидуалдуу өнүгөт. Айрымдары жаңы эрежелерди бат өздөштүрсө, башкаларына көбүрөөк убакыт жана кошумча түшүндүрүү талап кылынат. Тарбиячы балдардын өзгөчөлүктөрүн эске алып, ар кимисине ылайык ыкма тандашы керек: бирине көбүрөөк колдоо, экинчисине жоопкерчиликти күчөтүү, үчүнчүсүнө оюн аркылуу түшүндүрүү.

Мектепке чейинки куракта баалуулуктарды калыптандыруу – бул бир жолку иш эмес, системалуу, кайталоого негизделген жана чоңдордун жеке үлгүсү менен бекемделген үзгүлтүксүз процесс. [5. 5-б] Ушул шарттар сакталганда гана балада туруктуу жана туура жүрүм-турум адаттары калыптана баштайт.

Жомокторду тарбия процессинде туура жана максаттуу колдонуу балдардын баалуулуктарды терең өздөштүрүүсүнө чоң таасир этет. Жөн гана жомок окуп берүү жетишсиз, аны ар кандай ыкмалар менен коштоп иш жүргүзүү зарыл. Ошондо гана бала жомоктун мазмунун түшүнүп, андагы тарбиялык маанини өз жүрүм-турумуна колдонууга үйрөнөт.

Биринчи кезекте жомокту **маанилүү, түшүнүктүү жана эмоция менен окуп берүү** керек. Тарбиячынын үнүнүн өзгөрүшү,аралашып каармандарды айырмалап окушу баланын кыз ыгуусун арттырат. Бала окуяга аралашып, каармандар менен бирге жашагандай сезимде болот. Бул болсо жомоктун таасирин күчөтөт.

Жомоктон кийин **талкуу жүргүзүү** өзгөчө маанилүү. Балдарга жөнөкөй, бирок ойлондуруучу суроолор берилет. Мисалы: “Бул каарман эмне үчүн ушундай кылды?”, “Сен анын ордунда болсоң эмне кылмаксың?”, “Кайсы каарман сага жакты жана эмне үчүн?”. Мындай суроолор баланын ой жүгүртүүсүн өнүктүрүп, өз оюн айтууга үйрөтөт.

Дагы бир натыйжалуу ыкма – **ролдук оюндарды колдонуу**.Балдар жомоктогу каармандардын ролун аткарып, окуяны кайрадан жандандырат. Бул процесс аркылуу алар каармандардын сезимин жакшыраак түшүнөт. Мисалы, боорукер каармандын ролун аткарган бала ошол сапатты иш жүзүндө сезип көрөт.

Сүрөт тартуу жана чыгармачылык иштер орчунду орунду ээлейт. Балдар жомоктон алган таасирин сүрөт аркылуу чагылдырып, өз ойлорун эркин билдирет. Бул алардын элестетүүсүн жана чыгармачылыгын өнүктүрөт, ошол эле учурда жомоктун мазмунун бекемдөөгө жардам берет.[6. 15-б]

Жомокту кайталап окуу да чоң роль ойнойт. Биринчи жолу бала жалпы мазмунун түшүнсө, кийинки окууларда ал майда деталдарга көңүл бура баштайт. Ошол аркылуу баалуулуктар акырындык менен терең сиңет.

Мындан тышкары, жомокту күнүмдүк жашоо менен байланыштыруу керек. Мисалы, бала жакшы иш жасаганда: “Сен бүгүн жомоктогу каарман сыяктуу боорукер болдуң” деп белгилеп коюу тарбиялык эффектти күчөтөт.

Жомокторду ар түрдүү ыкмалар менен колдонуу балдардын баалуулуктарды түшүнүүсүн гана эмес, аны турмушта колдонуу жөндөмүн да өнүктүрөт. Тарбиячы чыгармачылык менен иш алып барганда, жомок

тарбиялоонун эң натыйжалуу куралына айланат. Мектепке чейинки билим берүү мекемелеринин тарбиячылары үчүн жомоктор аркылуу балага багыт берүү — бул эң натыйжалуу педагогикалык куралдардын бири.

Адабияттар:

1. Расулова Г.С, Р.Ш.Султанова, А.И.Фадина 3төн 6жашка чейинки балдарды өнүктүрүү ”Балалык” программасына методикалык сунуштар. Бишкек 2017ж. 48 б.
2. Сейдекулова К.С. Балдар бакчасындагы балдардын эне тилин өстүрүүнүн методикасы Бишкек 2012 ж 45б.
3. Ушакова О.С. Развитие речи и творчества дошкольников: игры, упражнения, занятия М.: ТЦ «Сфера», 2007 г. С. 59-65.
4. Гербова, В. В. Приобщение детей к художественной литературе. Программа и методические рекомендации / В. В. Гербова. – М.: Мозаика-Синтез, 2008. – 80 с.
5. Леонтьева, Л.В. Развитие связной речи в детском саду / Л.В. Леонтьева. — Текст: прямой // Вопросы дошкольной педагогики. - 8-13 стр. 2019 г.
6. Лыкова И.А. «Дидактические игры и занятия. Художественное образование и развитие детей 1-7 лет». Методическое пособие для специалистов дошкольных образовательных учреждений. «Карапузская дидактика». Творческий центр СФЕРА 25-35р.

МЕКТЕПКЕ ЧЕЙИНКИ КУРАКТАГЫ УЛУУ ТАЙПАНЫН БАЛДАРЫНА УБАКЫТ ТҮШҮНҮГҮН КЫРГЫЗ ЭЛИНИН БААЛУУЛУКТАРЫНЫН НЕГИЗИНДЕ КАЛЫПТАНДЫРУУ ЖАНА ӨНҮКТҮРҮҮ

Абдывасиева Зырапа
Педагогика илимдеринин кандидаты, доцент,
Ош мамлекеттик педагогикалык
университети

Аннотация. *Макаланын киришүү бөлүмүндө кыргыз улуттук баалуулуктар менен жуманын күндөрүнүн, айлардын, төрт мезгилдин, 12 циклдик жыл сүрүүлөр жөнүндө маалыматтар берилди. Киришүүдөгү бардык маалыматтардын мекепке чейинки курактагы улуу тайпанын балдарына убакыт түшүнүгүн калыптандыруу жана тереңдетүүгө колдоноору берилди. Ага карата бир нече тапшырмалар, алардын аткарылыш методикасы каралды. STEAM технологиясы боюнча сабактын иштелмеси иштелмелген. Мектепке чейинки курактагы улуу тайпанын балдарына убакыт түшүнүктөрүн калыптандырууда төмөнкү этаптарды бөлүп көрсөтүлдү: баланы термин жана түшүнүк менен тааныштыруу (сутка, жума, ай, жыл); үйрөнүлүп жаткан объектинин белгилери боюнча ал жөнүндө түшүнүктү калыптандыруу; алынган билимдерди окутуунун ар түрдүү каражаттарынын жардамы менен ишмердүүлүктүн ар кандай түрлөрүндө бекемдөө; алынган билимдин маанилүүлүгүн аныктоо; жыйынтык чыгаруу, убакыттын ырааттуулугу менен тааныштыруу, жаңы түшүнүккө өтүү. Этаптардын ырааттуулугу сабактын сюжетине жараша өзгөрүшү мүмкүн. Ошентип, убакыт боюнча билгичтиктерин сабактарда гана эмес, математикалык билимдерге балдардын ишмердүүлүгүнө органикалык түрдө кошулуп, бышыктала турган жана жалпылана турган ишмердүүлүктүн башка түрлөрүндө да өнүктүрүү зарыл. Бул макала МЧББУнун педагогдоруна, мектепке чейинки билим берүү адистигинде окуган студенттер жана ата энелер үчүн эң керектүү материал болуп саналат.*

Түйүндүү сөздөр: *мектепке чейинки курак, улуу тайпа, кыргыз, улуттук баалуулук, убакыт, дидактика, оюндар.*

Аннотация. *В вводной части статьи представлена информация о кыргызских национальных ценностях, днях недели, месяцах, четырех временах года и 12-летнем циклическом летоисчислении. Указано, что все сведения, приведенные во введении, используются для формирования и углубления представлений о времени у детей старшей группы дошкольного возраста. В связи с этим рассмотрен ряд заданий и методика их выполнения. Разработан план занятия по технологии STEAM. Выделены следующие этапы формирования временных представлений у детей старшего дошкольного возраста: ознакомление ребенка с термином и понятием (сутки, неделя, месяц, год); формирование представления об изучаемом объекте по его признакам; закрепление полученных знаний в различных видах деятельности с помощью разнообразных средств обучения; определение важности полученного знания; подведение итогов, ознакомление с временной последовательностью, переход к новому понятию. Последовательность этапов может варьироваться в зависимости от сюжета занятия. Таким образом, необходимо развивать временные умения не только на занятиях, но и в других видах деятельности, где математические знания органично включаются в деятельность детей, закрепляются и обобщаются. Данная статья является ценным материалом для педагогов ДОО, студентов специальности «Дошкольное образование» и родителей.*

Ключевые слова: *дошкольный возраст, старшая группа, кыргыз, национальные ценности, время, дидактика, игры.*

Abstract. *The introductory part of the article provides information about Kyrgyz national values, days of the week, months, four seasons, and the 12-year cyclic calendar. It is stated that all the information provided in the introduction is used to form and deepen the understanding of time in older preschool children. Accordingly, several tasks and the methodology of their implementation were considered. A lesson plan based on STEAM technology has been developed. The following stages of forming time concepts in older preschool children are highlighted: introducing the child to the term and concept (day, week, month, year); forming an idea of the object being studied based on its characteristics; consolidating the acquired knowledge in various types of activities using various teaching tools; determining the importance of the acquired knowledge; summarizing, introducing the time sequence, and transitioning to a new concept. The sequence of stages may vary depending on the plot of the lesson. Thus, it is necessary to develop time-related skills not only in classes but also in other types of activities where mathematical knowledge is organically integrated into children's activities, consolidated, and generalized. This article is an essential material for preschool educators, students majoring in "Preschool Education," and parents.*

Keywords: *preschool age, older group, Kyrgyz, national values, time, didactics, games.*

Киришүү. *Убакыт түшүнүгүн калыптандыруу*-бул балдарды убакытты өлчөө бирдиктери менен тааныштыруу менен «*убакытты сезүү*» көндүмүн калыптандыруу болуп саналат.

Мектепке чейинки улуу курактагы балдарда убакыт түшүнүктөрүн калыптандыруу күнүмдүк жашоо жана сабактар аркылуу ишке ашат.

Кыргыз улуттук баалуулуктарындагы убакыт түшүнүгүнө токтололу.

Кыргыз элинин *убакытты* кабыл алуусу мифологиялык, тарыхый, турмуш-тиричилик үч аспектте болгон. Мифологиялык аспект элдик чыгармачылыктын фольклордук-эпикалык жанрларында эң көп көрүнөт; тарыхый-өз календарын түзүүдө жана кошуна элдеринин бир нече календардык тутумдарын кабылдоодо жана алардын бардыгын бир убакта

колдонуу менен календарлык системалардын расмий *убакытка*; акыры, күнүмдүк аспект күнүмдүк жашоону чагылдырган кыргыз элинин көчмөн дүйнөсүнүн реалдуулуктарынын жардамы менен багыт алган. Кыргыздардын байыркы учурдагы мергенчилери, сезондук өзгөрүүлөргө, жыл мезгилдеринин өзгөрүшүнө байкоо жүргүзүп, табияттагы мезгилдүү кубулуштар менен салыштырууну үйрөнүшкөн. Адамзат дарыянын катуу суукта музга айланганын, ага чейин даректар жалбырактарын төккөнүн, чөптөр саргайганын, соолуганын жана күндөрдүн кыскарып баратканынан мезгилдин өзгөргөнүн айырмалашкан. Элдин турмушунун ыргагы, экономикасынын циклдик мүнөзү мезгилдердин алмашуусуна көз каранды болгон.

Циклондук, убакыттын жабык мүнөзү – көптөгөн байыркы маданияттарга мүнөздүү болгон дүйнө таанымдын негизги түшүнүктөрүнүн бири. Ал байыркы индиялык Ведаларга барып такалат жана Дүйнөлүк дөңгөлөк концепциясында чагылдырылган [1.]

Кыргыздарда (башка элдер сыяктуу эле) 12 жылдык календарлык цикл болгон, анда белгилүү бир жыл жаныбардын атынан аталган: *чычкан, уй, барс* (кээде жолборс), *коён, жаян* (кээде ажыдаар), *жылан, жылкы, кой, мечин* (кээде маймыл), *тоок, ит, доңуз*. Кыргыздардын 12 жылдык циклди кабыл алуусу, бир жагынан, белгилүү бир объективдүү негизди камтыса, экинчи жагынан, элдин каймана ой жүгүртүүсүн чагылдырып, ошол жылдын мүнөзүн атын алып жүргөн жаныбардын мүнөзү менен аныктайт. Маселен, кыргыздар жолборс жылында төрөлгөн адам күчтүү, кайраттуу, ийкемдүү, көздөгөн максатына жете турган болушу керек деп эсептешкен, бирок эркин, текебер, өзүмчүл болушу мүмкүн. Жылан жылында төрөлгөн эркектер өтө ышкыбоз, аялдары сулуу, романтик жана туруксуз болушат; ал ал эми кой жылында - жоош, жайбаракат, суукка жана ачкачылыкка чыдамдуу болот. Дүйнөгө аты таанымал болгон тарыхчы В.В.Бартольд Кытайлык Тан-шу династиясынын тарыхында (618-907 жж.) “...так кыргыздарда жылдар 12 циклди түзөт жана жаныбарлардын аты менен белгиленет деп айтылат” деп белгилеген.

Кыргыздар *он эки жылдык циклдин* ичинде жаратылыштагы өзгөчө көрүнүштөрдү (катуу суук, кургакчылык, ачарчылык, малдын жугуштуу оорудан кырылышы ж.б.) жана коомдук-саясий турмуштагы маанилүү тарыхый окуяларды (мисалы, ич ара согуштар же тышкы душмандардын кол салуулары ж.б.) эстеп калышкан. Бул цикл аркылуу жылдардын катаалдыгы же жумшактыгы салыштырылган [1.].

*Элдик календарь боюнча***,** жылдардын өзгөчөлүктөрү төмөнкүдөй болгон:

-*Ит жылында* кыш жумшак болот.

-*Доңуз жылында* тескерисинче, кыш катуу жана суук болот.

-*Чычкан жылы* кыш орточо, ал эми *Жолборс* жана *Коён* жылдарында кыш андан да жумшак болот.

-*Балык жылы* жай жаанчыл, кыш кардуу келет.

-*Жылан жылы* болсо, жай кургак, жаан-чачынсыз болуп, кыш орточо болот.

-*Кой жылы* чөп жакшы өсөт, кар калың түшпөйт.

-*Маймыл жылы* жай ысык, кыш кар аз болот.

-*Үй жылы* жай жаанчыл, кыш орточо.

-*Тоок жылы* жай ысык, кыш орточо жана башка.

Адамдар бул билимдерди күнүмдүк турмушунда карманышкан. Мисалы:

-*Мал чарбасында*: *Доңуз* жана *Балык* жылдарында кыш катуу болорун билип, малды токойго жакын жерде кармашкан. Себеби, суук кышта токойдо малга жем боло турган бадалдардын учтары, жаш чырпыктар ар дайым табылган [5.].

-*Дыйканчылыкта: Жылан* жана *маймыл* жылдары жай кургакчыл болорун алдын ала болжолдоп, дыйкандар сугарылбаган, кайрак жерлерге эгин айдоодон алыс болушкан.

Бул ыкма кыргыз элинин табият менен айкалышкан терең билимин жана алдын ала пландаштыруу жөндөмүн көрсөткөн.

Изилдөө методологиясы

Убакыт түшүнүгүн кыргыздын улуттук салттарынын элементтери менен калыптандыруу ыкмаларына токтололу. Бир нече тапшырмаларды берели.

Төмөнкү тапшырмаларда *өткөн-учур-келечек чактар, күндүн (сутка) бөлүктөрү, мезгилдердин ырааттуулугу* сыяктуу түшүнүктөр кыргыз элинин салты жана турмушу менен байланыштырылган. Биз мектепке чейинки улуу тайпадагы балдарга *убакытка багыт алууну* кыргыздын *улуттук маданий салттарын* жана *логикалык ырааттуулукту* тереңирээк камтыган, *түшүнүктүү жана практикалык* мүнөздөгү тапшырманы сунуштайлы.

Төмөнкү тапшырмалар убакытты салттык ишмердүүлүктөр аркылуу сезүүгө багытталган.

Убакытка улуттук салттын элементтери менен багыт алууга төмөнкү тапшырмалар сунушталат.

1. Күн нуру менен убакытты аныктоо (Сутка бөлүктөрү)

Жабдылышы: Боз үйдүн модели же сүрөтү, оюнчуктар.

Тарбиячы: «Эртең менен *таң атканда*, биздин боз үйдүн *түндүгүнөн* күн нуру кирип, кайсы тарапты (оңбу же солбу) жарык кылса, ошол тарапка *3 оюнчук* койгула. Күн эң *чокуга* келгенде (түшкө маал) күндүн нурлары ортодо турат. Күн *батарга* жакын, нур кайсы тарапты жарык кылса, ал жерге *2 тай же улак оюнчугуңарды* койгула. Эмнени байкадыңар?». (Балдар жоопторун айтышат)

- Сутка бөлүктөрүнүн ырааттуулугу, убакыттын өзгөрүшү боюнча иштөө.

Мектепке чейинки улуу тайпа курагындагы балдар үчүн *убакыт түшүнүгүн* кыргыздын улуттук каада-салттарынын элементтери аркылуу ***STEAM*** программасынын негизинде калыптандырууга арналган сабактын иштелмеси.

Бул иштелмеде *кыргыздын элдик календары* жана *күн саат (түндүк)* моделин түзүү аркылуу билим берүү, илим, инженерия, искусство жана математика бириктирилет.

Сабагынын иштелмеси: «Кыргыз салттарындагы убакыттын сыры»

Сабактын темасы: Убакыт түшүнүгүн кыргыздын улуттук маданий салттарынын элементтери менен *STEAM* аркылуу калыптандыруу

Тайпа: Мектепке чейинки улуу тайпа (5-6 жаш)

STEAM S (Илим), **T** (Технология), **E** (Инженерия), **A** (Искусство), **M** (Математика)

Максаты: Кыргыздын салттуу убакыт чендерин жана *күн саатынын (гномон)* иштөө принцибин тааныштыруу аркылуу балдарда *убакыт, саат, көлөкө, күн* жөнүндө түшүнүктөрдү калыптандыруу.

Керектүү каражаттар: Боз үйдүн *түндүгүнүн* сүрөтү, кичинекей *бутак/таякча, картон* же ак кагаз, фломастерлер, *пластилин* (таякчаны бекитүү үчүн), кыргыздын *12 жылдык календарынын* сүрөттөрү

Боз уйдун макети

Сабактын жүрүшү: I-кириш үү: Убакыт жана кыргыз элинин турмушу (A-искусство/S-илим) – 3 мүнөт.

1. *Мотивация жана суроо-жоп***:**

-*Тарбиячы:* Саламатсыңарбы! Биздин ата бабаларыбыз саат жок кезде убакытты кантип билишкен? (Балдардын жообун угуу: Күнгө, жылдыздарга карап).

-*Тарбиячы:* Туура! Кыргыздын үйү болгон *боз үйдүн төбөсүнө* карагыла (*Түндүк*). Түндүктөн түшкөн *күн нуру* жана андан *шоолалар* (саймалуу чийге түшкөн көлөкө) элибизге убакытты аныктоого жардам берген. Бул кыргыз элинин салттык сааты!

2. Элдик чендер (M – Математика):

-Кыргыздын убакытты өлчөөчү салттуу бирдиктерин эске салуу: *«Көз ирмемче убакыт*», «*Чай кайнам убакыт», «Койдун эти бышканча»* (3-3.5 саат убакыт) ж.б..

II. STEAM-Активдүүлүк: Күн саатын жасоо (E - Инженерия / T - Технология) – 6 мүнөт

1. *Маселе (E):* Кагаз бетинде көлөкө аркылуу убакытты кантип билүүгө болот?
2. *Моделдөө (A & E):*

-Ар бир балага картон же ак кагаз, пластилин жана кичинекей *таякча* берилет.

-*Нуска (Инструкция):* Балдар пластилиндин жардамы менен таякчаны (көлөкө түшүрүүчү) кагаздын ортосуна *тикесинен* (вертикалдуу) орнотушат. К*үн саатынын* негизги бөлүгү.

3. Күн менен иштөө (S):

-Эгер мүмкүнчүлүк болсо, сыртка же терезенин жанына барып, таякчанын *көлөкөсүн* кагазга түшүрүү.

-*Тарбиячы:* Күндүн нуру кандай түшсө (күн кандай тийсе), көлөкө да ошондой өзгөрөт.

III. Изилдөө жана байкоо: Көлөкөнүн узундугу жана багыты (S - Илим / M - Математика) – 5 мүнөт

1. *Көлөкөнүн өзгөрүшү* **(S):** Балдар таякчанын көлөкөсүнүн учтарын фломастер менен белгилешет.
2. *Салыштыруу (M):* Көлөкөнүн узундугун жана багытын салыштыруу.

-*Суроо:* Эмне үчүн көлөкө ар кайсы убакта ар кандай узундукта болот? (Күн асманга жогору көтөрүлгөндө көлөкө кыскарат).

-Балдар көлөкөнүн багытын чийип, анын сааттын жебесиндей жылып жатканын байкашат.

3. *Түндүк менен салыштыруу***:** Боз үйдүн түндүгүндөгү көлөкө да күндүн жылышына жараша түшүп, кыргыздар убакытты так ушундай жол менен билгендигин түшүндүрүү.

IV. Искусство жана дизайн: Саатты кооздоо (А - Искусство / Этномаданият) – 4 мүнөт

1. *Дизайн (А):* Балдар өздөрүнүн күн саат макетинин тегерегине кыргыздын *улуттук оймолорун* (мисалы, «кыял» же «мүйүз» оймолорун) же *12 жылдык жаныбарлардын сүрөттөрүн* жайгаштыруу менен кооздошот.
2. *Символизм:* Ар бир оймодо же жаныбардын сүрөтүндө убакыттын, мезгилдин же жашоонун циклдүүлүгүнүн маанисин айтып берүү.

V. Жыйынтыктоо жана корутунду (М / А) – 2 мүнөт

*Тарбиячы б*үгүн сабакта эмнени үйрөнүшкөнүн сурайт (Балдардын STEAM элементтерин колдонуу менен алган билимин жалпылоо).

Эскертүү: Педагог убакытты каалагандай тандап алуусу мүмкүн.

Корутунду: Кыргыз элинин маданий салттары *илимди, математиканы* жана *өнөрдү* үйрөтөөрү айтылат. Бүгүн элдик салты боюнча *күн саатын* жасадыңар. *Убакыт*-бул чоң байлык, аны дайыма *ынтымакта* жана пайдалуу иштерге жумшашыбыз керек [4.].

Бул иштелме STEAM методологиясын жана кыргыздын улуттук маданий салттарын ийгиликтүү интергациялап, балдардын билимге болгон кызыгуусун арттырат жана предметтер аралык байланыштарды түзүүгө жардам берет [3.].

Убакыт түшүнүгү боюнча балдарда калыптандыруучу билимдер.

Бул бөлүмдө балдарга мезгилдерди жана айларды кыргыз тилинде үйрөтүү каралган. Аларга:

-Жаз: *чын куран* - март, *бугу* – апрель (април), *кулжа* – май, *теке*-июнь (уйун)

-Жай: *теке*-июнь (уйун), баш оона-июль (уйул), *аяк оона* – август (агус),

-Күз *тогуздун айы – сентябрь* (сынтабир), *жетинин айы*-октябрь (өктөбүр), *бештин айы*-ноябрь (нойобир),

-Кыш: *үчтүн айы* -декабрь (декебир), жана *бирдин айы* -январь (жаныбар), *жалган куран* – февраль (бийпирал).

Жуманын күндөрүн атай билүү: Дүйшөмбү, шейшемби, шаршемби, бейшемби, жума, ишемби, жекшемби.

Иштин жүрүшүндө жыл мезгилдери жөнүндөгү билимдерди бышыктоо үчүн төмөнкү **дидактикалык оюндар** колдонулду.

«Ушундай болобу же жокпу» оюну жыл мезгилдеринин белгилерин бышыктайт, реалдуу эмес пикирлерди байкай билүүгө, өз оюн туура билдирүүгө жана айбанаттардын цикли боюнча ошол мезгилдин үч айын тең атай билүүгө тарбиялайт. Оюндун жүрүшүндө педагог кайсы бир жыл мезгили жөнүндө айтып берет, ал эми балдар кунт коюп угуп, бул аңгемедеги

бардык туура жана туура эмес нерселерди байкап, андан соң «*Ушундай болот*» же «*Ушундай болбойт*» деп, эмне болорун, эмне болбой турганын далилдеп беришет. Мисалы: «Жайында күн ачык тийип турганда, биз балдар менен сейилдөөгө чыктык. Кардан дөбөчө жасап, муз тебе баштадык» деген фразага бала: «Мындай болбойт. Жайында кар жок», - деп жооп бериши керек. Аңгеменин башка варианты: «Кыш келди. Көп кар жаады. Балдар кийинип алып, кар атышып ойноого кетишти». Баланын болжолдуу жообу: «Ушундай болот. Кышында кар атышып ойноого болот» [3.].

«Тирүү календарь» оюну айларды айбанаттардын цикли боюнча туура атоого үйрөтөт. Оюн үчүн 1ден 12ге чейинки цифралар колдонулат.

Оюндун жүрүшү: Цифралар (1ден 12ге чейин) аралаштырылып, сүрөтү төмөн каратылып столдун үстүнө коюлат. Оюнчулар каалаган карточкасын тандап алышат жана цифрага ылайык ирети менен тизилишет. Алар «жылдарга» айланышат. Сол жактагы биринчи бала бир кадам алдыга чыгып: «Мен – «чычканмын». Кийинки кайсы ай?» - дейт жана ушул тартипте уланат [4.].

Корутунду

Киришүү бөлүмүндө кыргыз улуттук баалуулуктар менен жуманын күндөрүнүн, айлардын, төрт мезгилдин, 12 циклдик жыл сүрүүлөр жөнүндө маалыматтар берилди. Киришүүдөгү бардык маалыматтардын мекепке чейинки курактагы улуу тайпанын балдарына убакыт түшүнүгүн калыптандыруу жана тереңдетүүгө колдоноору берилди. Мектепке чейинки курактагы улуу тайпанын балдарына убакыт түшүнүктөрүн калыптандырууда төмөнкү этаптарды бөлүп көрсөтүүгө болот:

-баланы термин жана түшүнүк менен тааныштыруу (сутка, жума, ай, жыл);

-үйрөнүлүп жаткан объектинин белгилери боюнча ал жөнүндө түшүнүктү калыптандыруу;

-алынган билимдерди окутуунун ар түрдүү каражаттарынын жардамы менен ишмердүүлүктүн ар кандай түрлөрүндө бышыктоо;

-алынган билимдин маанилүүлүгүн аныктоо; жыйынтык чыгаруу, убакыттын ырааттуулугу менен тааныштыруу, жаңы түшүнүккө өтүү.

Этаптардын ырааттуулугу сабактын сюжетине жараша өзгөрүшү мүмкүн. Ошентип, убакыт боюнча билгимдерин сабактарда гана эмес, математикалык билимдери балдардын ишмердүүлүгүнө органикалык түрдө кошулуп, бышыктала турган жана жалпылана турган ишмердүүлүктүн башка түрлөрүндө да өнүктүрүү зарыл. Бул макала МЧББУнун педагогдоруна, мектепке чейинки билим берүү адистигинде окуган студенттер жана ата энелер үчүн материал болуп саналат.

Адабияттар:

1. Байбосунов А./ Донаучные представления кыргызов о природе/ А. Байбосунов// Фрунзе. -1990. 29-35 бб.

2. Абдывасиева З./Мектепке чейинки курактагы улуу тайпанын балдарына жөнөкөй математикалык түшүнүктөрдү кыргыз элининбаалуулуктарынын элементтеринин негизинде калыптандыруу/ Абдывасиева З., // Ош.-2026. Усулдук колдонмо 45-46б.

3. Анаркулов Х.Ф. Кыргызские народные подвижные игры и физические упражнения / Анаркулов Х.Ф. // Бишкек. – 2003. – 284 б.

4. Сейтмеметова Л. Р. Методы и приемы формирования математических представлений у детей старшего дошкольного возраста // Форум молодых ученых. – 2019. – №4 (32).
5. Ондар Ч.М. Формирование элементарных математических представлений у детей старшего дошкольного возраста на основе этнокультурных традиций Тувинского народа, диссертация / Ч.М. Ондар - Тува. – 2009. – 219 с. (дата обращения: 10.01.2026)

SHAXC RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turaxanov Ummatali Davlatovich
NamDU, Psixologiya kafedrasi dotsenti
Qosimbekov Erkin Asqarbekovich
O'sh Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti

Annotatsiya: *Xozirgi kunda komil inson tarbiyasi dolzarb muammolardan sanalib keladi. Bashariyat avvaldan o‘z farzandlarini yuksak darajadagi tarbiyaga ega etib tarbiyalash uchun ko‘plab milliy qahramonlarni o‘ylab topib yoshlarga yetkazib kelgan. Bundan asosiy ko‘zlangan maqsad shuki shaxs tarbiyasi va uning muhim jihatlari xisoblangan. Jamiyat o‘z oldiga komil va yetuk shaxsni tarbiyalashni maqsad qilar ekan albatta ijtimoiy va ekologik muxitni hamda genetik zanjirlarni ham xisobga olinishi zarur. Mazkur maqolada asosiy urg‘u shaxs rivojlanishiga qaratilgan va taxlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Shaxs, inson, jamiyat, taraqqiyot, infratuzilma, innovatsiya, anatomiya, fiziologiya, individ, ruhiyat, ong, jins, irq, e’tiqod.*

Аннотация: *В наши дни воспитание целостной личности считается одной из самых актуальных проблем. С древних времен человечество создавало и представляло молодежи множество национальных героев, чтобы дать своим детям образование высокого уровня. Главная цель этого – рассмотреть воспитание личности и его важные аспекты. Когда общество ставит перед собой цель воспитания целостной и зрелой личности, необходимо учитывать социально-экологическую среду, а также генетические цепочки. В данной статье основное внимание уделяется развитию личности и проводится его анализ.*

Ключевые слова: *Человек, общество, развитие, инфраструктура, инновации, анатомия, физиология, индивидуум, психика, разум, пол, раса, вера.*

Annotation: *Nowadays, the upbringing of a complete person is considered one of the most pressing problems. Since ancient times, mankind has invented and presented many national heroes to the youth in order to educate their children with a high level of education. The main goal of this is to consider the upbringing of the person and its important aspects. When society sets itself the goal of raising a complete and mature person, it is necessary to take into account the social and ecological environment, as well as genetic chains. In this article, the main emphasis is placed on the development of the person and analyzes it.*

Keywords: *Person, human, society, development, infrastructure, innovation, anatomy, physiology, individual, psyche, mind, gender, race, faith.*

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalariga, jumladan, aholi daromadlarini oshirish, bandlikni ta’minlash va infratuzilmani yaxshilashga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Davlat rahbari har doim xudud rahbarlari bilan uchrashuvlarda ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha topshiriqlar berib boradilar. Shu bilan bir katorda xalqaro darajadagi, Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha Jahon sammiti kabi tadbirlarda ishtiroki

alohida e’tirof etiladi. Shuningdek, Shaxs va inson omili - jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanib, u insonning ma’naviy salohiyati, faolligi va ijodiy qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha boshqaruv, innovatsiyalar va ishlab chiqarishda shaxsning manfaatlari, ehtiyojlari hamda ma’suliyatiga ustuvorlik berishni anglatadi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muxit sharoitlari va tarbiya kerak buladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning uzi nima?

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual usishida namoyon buladigan mikdor va sifat uzgarishlar moxiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish moxiyatan oddiydan murakkabga, kuyidan yukrriga, eski sifatlardan yangi xolatlarga utish, yangilanish, yangining paydo bulishi, eskining yukolib borishi, mikdor uzgarishining sifat uzgarishiga utishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai kdrama-kdrashliklarni urtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi, inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaktda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining konuniyatlari ham muxim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baxolanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy konuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali xolatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi. Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jixatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maksadga muvofik, bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Chunki “RIVOJLANISH”, tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va behato baxolash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning hulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va xisobga olish maqsadga muvofiqdir. Shunday kilib, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Dunyoga kelgan go‘dak ma’lum yoshga qadar individ xisoblanadi. “Individ” lotincha "individium" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bo‘linmas”, “aloxida”, "yagona" ma’nolarini anglatadi. Individ biologik turga kiruvchi aloxida tirik mavjudotdir. Shaxsning shakllanishida harakat o‘ziga xos omil sanaladi. Go‘dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni qiladi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik shartli reflekslar bo‘lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo‘zg‘atuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Go‘dakda nutqning xosil bo‘lishi, shuningdek, uning tomonidan tashkil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo‘la boshlanishi va albatta, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokining ro‘y berishi shaxs shakllanishining dastlabki boskichi xisoblanadi. Shaxs deganda muayyan jamiyatning a’zosi tushuniladi. Odam-inson individi shaxsga aylanmog‘i uchun ruxiy jihatdan taraqqiy etgan, o‘z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qilishi lozim.

Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘ladi. U o‘zining xususiyati, qiziqishi, qobiliyati, aqliy jihatdan rivojlanganlik darajasi, extiyoji, mehnat faoliyatiga

munosabati bilan boshqalardan farklanadi. Bular shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, mazkur xususiyatlari rivojlanib ma’lum bir bosqichga yetsagina u kamol topgan shaxq sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxq ijtimoiy munosabatlar jarayonida qaror topadi.

Shaxsning rivojlanishi avvalo unda shaxsiy xislatlarning shakllanishi bilan boshlanadi. Rivojlanishi o‘zida shaxsning jismoniy, aqliy va boshqa xislatlarning takomilini namoyon etadigan jarayon bo‘lib, bunday xislatlarning tug‘ma, ba’zilariga keyinchalik erishgan bo‘ladi, ya’ni xayoti davomida. Shaxs nomini olish uchun nimalar kerak? - degan savolning tug‘ilishi tabiiydir. Odam ijtimoiy mavjudot sifatidan shaxsga aylanishi uchun unga ijtimoiy - iktisodiy hayot sharoitlari muxit va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular hamda shaxsning nasliy xususiyatlarining takomillashib borishi odamning rivojlanishi, shaxs sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishini, uning har tomonlama kamolga yetishi uchun pedagogika va psixologik fanlari shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, unga ta’sir etadigan omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador bosqichlarni aniqlashi kerak bo‘ladi. Shuningdek, bola shaxsining rivojlanishida, faoliyatning o‘rni va ahamiyatini ham o‘rganishi lozimdir. Biz yuqorida “rivojlanish” tushunchasini juda kup ishlatdik. Endi ushbu tushunchaga atroflicha yondoshib, ta’rif berishga harakat qilaylik. Odam biologik mavjudot sanaladi, tabiiy, biologik va ijtimoiy konuniyatlarga bevosita bo‘ysunadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs, inson tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo‘ysunadi. Bulardan tashqari odamning komil inson bo‘lib yetishuvida aniq maqsad asosida tashkil etilgan hatti-harakat, iroda sifatlarining kamol topishi asosida ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga bo‘lgan ishonchi ham muhim ahamiyatga egadir.

Ma’lumki, hayoti davomida inson jismoniy va psixik jihatdan o‘zgarib boradi. Lekin bolalik, o‘smirlik va uspirinlik davrida rivojlanish nixoyatda kuchli bo‘ladi.

Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruxiy jihatdan o‘sishi, o‘zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maksadga muvofiq ta’sir etishi natijasida bola jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi.

Anatomik va fiziologik harakterdagi o‘zgarishlar jismoniy rivojlanishga taalluqlidir. Odam bo‘yining o‘sishi, gavda og‘irligining ortib borishi, gavda tuzilishining o‘zgarishi, qon bosimi, o‘pka sig‘imi, tayanch-harakat apparatining xolati va boshqalar jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlaridir. Ruhiy jarayonlar va bola ruhiyatidagi o‘zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari, so‘z boyligi hamda nutqining rivojlanganlik darajasi va boshqalar ruhiy rivojlanishga taalluqlidir.

Shaxs rivojlanishida u yoki bu faoliyat turlari (o‘yin, o‘qish, mehnat va boshqalar)ning turli yoshdagi faoliyatlar mazmuni (maksadga yo‘naltirilganlik, harakatning ongli, rejali bo‘lishi, ularning samaradorligi va h.k.) shuningdek, aloqa, muomala hamda kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ijtimoiy-axloqiy me’yorlarga bo‘ysunish, ijtimoiy burchni anglash, unga nisbatan mas’ullik kabi xususiyatlar ham muxim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shaxsning shakllanishida shaxsiy xislat va sifatlarning rivojlanib, taraqqiy etib borishi muxim o‘rin tutadi. Shaxs sifatlarini to‘g‘ri aniqlash uchun turli munosabatlar jarayonida uni o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya tizimi kadrlarning yangi avlodi tafakkurini, ongini shakllantirishga xizmat qiladigan zarur bir soha sifatida namoyon bo‘layotgan ekan, shaxs ta’rifi ham birmuncha oydinlashadi.

Shunday qilib, “shaxs” - ijtimoiy munosabatlar maxsuli bo‘lib, ongli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatda **o‘**z o‘rniga ega individ xisoblanadi. Psixologik adabiyotlarda ya’na bir ta’rifga guvoh bo‘lishimiz mumkin. “Shaxs”- bu jinsi, irqi, e’tiqodidan qat’iy nazar, o‘z “MEN”iga ega bo‘lgan, jamiyatda biror bir faoliyat turi bilan shug‘ulllanadigan ongli mavjudodga shaxs deyiladi, deb ta’rif berilgan. Bunga asosiy sabab, agar individ o‘z meniga ega bo‘lmasa ya’ni shaxsiy fikriga ega bo‘lmasa uni shaxs deb atash mumkin emasligi nazarda tutilgan. Har bir so‘zning kelib chiqish tarixi, o‘zagi, mazmuni borligi kabi “Shaxs” so‘zining ham terminologik izohini qidirganimizda quyidagicha taxlilga duch keldik. Shaxs-so‘zi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib “Niqob” degan ma’noni anglatishi kuzatildi. Bu tarixiy kitoblarda ya’ni Qadimgi Gresiyaning Afina shahrida birinchi amfiteatr ochilgani va unda aktyorlar niqob taqib obrazlarni ochib berganligi ta’kidlangan va shox niqobini taqib shox shaxsining obrazini ochib berganligi va shundan kelib chiqib, ushbu yuqoridagi xulosaga kelinganligi ma’lum bo‘ldi.

Shaxsning rivojlanishi esa barcha tug‘ma va xosil kilingan xususiyatlar: organizmning anatomik tuzilishi, fiziologik va psixologik xususiyatlar, faoliyat va xatti-harakatning mikdoriy va sifati o‘zgarish jarayonidir. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri o‘rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko‘pdan buyon davom etib kelmoqda. Fanda biologik yo‘nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o‘rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo‘yadi. Ular tug‘ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o‘rnini belgilab bergan degan g‘oyalarni ham ilgari surganlar. Albatta insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy xodisalarning ta’siri kuchli bo‘ladi, yoki tabiiy omillar yetakchi o‘rin tutadi, tarbiyaning ta’siri yuqori bo‘ladi va bular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bevosita shaxs shakllanishiga ta’sir qilishi taxlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. Toshkent, 2023.
2. Zunnunov A. O‘zbek pedagogikasi tarixi.Toshkent, 2020.
3. Vasila Karimova “Psixologiya “, Toshkent, 2000.
4. Foziyev E. “Umumiy psixologiya “1-kitob, Toshkent, 2004.
5. Foziev E. «Umumiy psixologiya», 2 –kitob, Toshkent, 2004.
6. Davletshin M.G. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 2002.
7. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab oqituvchisi psixologiyasi. T., 1997

Petrovskiy A.V. «Umumiy psixologiya», Toshkent, 1992.

KASBIY TA’LIM SHAROITIDA YOSHLARDA O‘ZLIKNI ANGLASH VA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Aytniyazova Nargiza Amanbaevna,
assistent o‘qituvchi,
«Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim» kafedrasi
Innovatsion texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kasbiy ta’lim sharoitida yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishi, o‘zlikni anglash jarayonining psixologik qonuniyatlari hamda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari keng yoritiladi. O‘spirinlik davrining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit, ta’lim jarayoni va pedagogik ta’sirlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zlikni anglash, deviant xulq-atvor, kasbiy ta’lim, ijtimoiy-psixologik omillar, identifikatsiya, motivatsiya.*

Annotatsiya:*В данной статье широко освещаются развитие молодежи как личности в условиях профессионального образования, психологические закономерности процесса самосознания и социально-психологические детерминанты формирования девиантного поведения. Научно проанализированы специфические психологические особенности подросткового периода, социальная среда, образовательный процесс и педагогические воздействия.*

Ключевые слова: *самосознание, девиантное поведение, профессиональное бразование, социально-психологические факторы, идентификация, мотивация*

Abstract: *This article extensively examines the development of youth as individuals in professional education, the psychological patterns of the self-awareness process, and the socio-psychological determinants of deviant behavior formation. The specific psychological characteristics of adolescence, the social environment, the educational process, and pedagogical influences have been scientifically analyzed.*

Keywords: *self-awareness, deviant behavior, professional training, socio-psychological factors, identification, motivation*

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishi dolzarb masalalardan biridir. Kasbiy ta’lim jarayoni bu borada muhim o‘rin tutadi, chunki u nafaqat bilim berish, balki shaxsni kasbiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zlikni anglash jarayoni esa shaxsning ichki “Men” konsepsiyasining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, uning kelajakdagi xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zlikni anglash — shaxsning o‘zini anglash, baholash va ijtimoiy tizimda o‘z o‘rnini belgilash jarayonidir. Bu jarayon kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlardan tashkil topadi. Insonning o‘ziga hissiy munosabati va o‘zi haqidagi tasavvurlari uning "Men-obrazini" belgilaydi. Men obrazi asosida insonning o‘ziga beradigan bahosi shakillanadi. O‘zini-o‘zi anglash insonning o‘z xatti harakatlarini, fikrlarini, hislarini, jismoniy va irodaviy urinishlarini boshqarishga yordam beradi. O‘zini-o‘zi boshqarish o‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘ziga baho berish asosida o‘z xatti harakatlarini, fikrlarini jamiyat talablariga va muayyan faoliyatga, sharoitlarga muvofik o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. O‘zini-o‘zi ongli boshqarish tizimi toliq ravishda ijtimoiydir. U shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonida, butun xayot davomida yaratiladi.

Rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan, o‘spirinlik davri ushbu jarayonning eng faol bosqichi hisoblanadi. [1]

Kasbiy ta’lim sharoitida yoshlarning o‘zlikni anglash jarayoni ko‘p omilli va murakkab jarayon bo‘lib, u ijtimoiy hamda psixologik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Kasbiy ta’lim sharoitida o‘quvchi o‘z qiziqishlari va qobiliyatlarini tahlil qilish orqali kasbiy identifikatsiyani shakllantiradi. Mazkur jarayonda determinantlar shaxsning ichki rivojlanish xususiyatlari va tashqi muhit omillarini uyg‘unlashtiradi. [1] Ular orasida oila muhiti, ta’lim tizimi, tengdoshlar guruhi, pedagogik yondashuv va shaxsiy motivatsiya muhim o‘rin tutadi.

Oila shaxs ijtimoiylashuvining birlamchi bosqichi hisoblanadi. Oiladagi psixologik muhit va tarbiya uslubi yoshlarning o‘zlikni anglash jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Demokratik tarbiya uslubi bolada mustaqillik, o‘ziga ishonch va adekvat o‘zini baholashni shakllantiradi, avtoritar yoki befarq munosabat esa ichki ziddiyatlar va past o‘z-o‘zini baholashga olib keladi. [2]

Kasbiy ta’lim muassasalari yoshlar rivojlanishida muhim ijtimoiy muhit sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘qituvchining pedagogik mahorati bu jarayonda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ijobiy pedagogik muhit talabada ijobiy “Men-obrazini shakllantiradi. [3]

Pedagogik mahorat deganda nafaqat bilim berish, balki shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, samarali muloqot o‘rnatish, motivatsiya yaratish va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlari tushuniladi. Mashhur pedagog olim V.A. Suxomlinskiy ta’kidlaganidek, “O‘qituvchi shaxsining o‘zi tarbiya vositasidir”, ya’ni pedagogning shaxsiy namunasi talabaning ichki dunyosiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. [4] Shu boisdan o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy sifati, madaniyati va kasbiy kompetensiyasi yoshlarning o‘zlikni anglash jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega o‘qituvchi talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etadi. U o‘quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari va psixologik holatini inobatga olib, mos metod va uslublarni tanlaydi. Bu esa talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va o‘z imkoniyatlarini anglashiga xizmat qiladi. Z.T. Nishanova tadqiqotlarida ham shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va pedagogik ta’sirning o‘rni alohida ta’kidlanadi. [2]

Shuningdek, pedagogning kommunikativ kompetensiyasi — talabalar bilan ochiq, samimiy va hurmatga asoslangan muloqot olib borish qobiliyati — o‘zlikni anglash jarayoniga kuchli таъсир кўрсатади. O‘qituvchi tomonidan beriladigan ijobiy baho, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish talabaning “Men-obraz”ini ijobiy shakllantiradi. Aksincha, doimiy tanqid yoki e’tiborsizlik salbiy o‘z-o‘zini baholashga olib kelishi mumkin. Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi — refleksivlikdir. Ya’ni o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qila olishi, o‘z ustida ishlashi va doimiy ravishda takomillashib borishi lozim. A.S. Makarenko ham tarbiya jarayonida pedagogning faol pozitsiyasi va o‘z ustida ishlashi zarurligini alohida ta’kidlagan. Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ham pedagogik mahoratning ajralmas qismi hisoblanadi. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar yaratish va mustaqil fikrlashga undash yoshlarning faolligini oshiradi hamda o‘zlikni anglash jarayonini jadallashtiradi. Sh.A. Do‘stmuhamedova

tadqiqotlarida ham ta’lim jarayonida faol metodlardan foydalanish shaxs rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. [5]

Umuman olganda, pedagogik mahorat kasbiy ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish vositasi, balki yoshlarning shaxs sifatida shakllanishiga, o‘zini anglashiga va ijtimoiy moslashuviga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularning pedagogik mahoratini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘spirinlik davrida tengdoshlar guruhi yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Yoshlar o‘zini muayyan guruhga mansub deb his qilishga intiladi. Ijobiy ijtimoiy muhit o‘zlikni anglashni kuchaytirsa, salbiy muhit deviant xulq shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Deviant xulq-atvor jamiyatda qabul qilingan me’yor va qoidalardan chetga chiqish sifatida talqin qilinadi. Uning shakllanishi ko‘p omilli bo‘lib, biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq. M.G. Davletshin ta’kidlashicha, deviant xulq shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga keladi. [3]

Deviant xulq-atvor shakllanishida bir nechta psixologik mexanizmlar ishtirok etadi. Imitatsiya orqali yoshlar salbiy xulqni o‘zlashtirishi mumkin. Identifikatsiya jarayonida noto‘g‘ri referent guruh tanlanishi xavf tug‘diradi. Frustratsiya esa ehtiyojlar qondirilmasligi natijasida agressiv xulqni kuchaytiradi. Shuningdek, ijtimoiy nazoratning susayishi ham muhim omillardan biridir.

Kasbiy ta’lim muassasalari deviant xulqning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yerda psixologik xizmat, individual yondashuv, kasbiy yo‘naltirish va tarbiyaviy ishlar katta ahamiyatga ega. Shaxsda ijobiy motivatsiya va kasbiy qiziqish shakllantirish orqali deviantlik xavfini kamaytirish mumkin. [5]

Kasbiy ta’lim sharoitida yoshlarning o‘zlikni anglash jarayoni va deviant xulq-atvor shakllanishi o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Ijtimoiy-psixologik determinantlar ushbu jarayonning yo‘nalishini belgilaydi. Shu sababli ta’lim tizimida sog‘lom psixologik muhit yaratish, profilaktik ishlarni kuchaytirish va individual yondashuvni rivojlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘raeva S.N.,Sharafutdinova X.G.,Mamaradjabova B.A.Umumiy psixologiya – T.: 2022.
2. Nishanova Z.T. va boshqalar. Rivojlanish psixologiyasi. – T.: 2018.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: 2004.
4.Suxomlinskiy V.A. *Bolalarga qalbimni beraman*. – M.: 1977.
5. Do‘stmuhamedova Sh.A. va boshqalar. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya*. – T.: 2019.

O`SMIRLARNI KASBIY TA`LIMGA YO'NALTIRISHDA AXLOQIY O`ZINI O`ZI ANGLASHNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

M.A. Maxsudova
NamDU psixologiya kafedrasi professori
N.Voxidova
UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE
Pedagogika va psixologiya kafedrasi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smirlarni kasbga yo'naltirish omillari, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, o'smirlarda kasbiy madaniyatni shakllantirish, mas'uliyat va kasbga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirishga xizmat qilishi, axloqiy o'zini o'zi anglashning shakllanishi, ijtimoiy o'zaro ta'sirning turlari va roli to'g'risida psixolog olimlarning fikrlari tahlil qilingan.*

Kalit so`zlar. *Ijtimoiy o'zaro ta'sir, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, kasbiy motivatsiya, kasbiy muloqot, axloqiy ideallar, kasbiy madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы мнения ученых-психологов о факторах профессиональной ориентации подростков, самосознании, самооценке, формировании у подростков профессиональной культуры, ответственности и положительном отношении к профессии, формировании нравственного самосознания, видах и роли социального взаимодействия.*

Ключевые слова. *Социальное взаимодействие, самосознание, самооценка, профессиональная мотивация, профессиональное общение, нравственные идеалы, профессиональная культура.*

Annotation: *This article analyzes the views of psychologists on the factors influencing adolescents' career guidance, self-awareness, and self-assessment. It also examines the formation of professional culture in adolescents, the development of responsibility and a positive attitude toward a chosen profession, the formation of moral self-awareness, as well as the types and roles of social interaction.*

Keywords: *Social interaction, self-awareness, self-assessment, professional motivation, professional communication, moral ideals, professional culture.*

Respublikamizda so`nggi yillarda yoshlar davlat va jamiyat diqqat markazida bo`lganligi sababli mustahkam huquqiy asosga ega ijtimoiy faol yoshlar siyosati olib borilmoqda. Bu borada Yangi O`zbekiston yoshlarini "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi" nomli tamoyili asosida bunyodkorlik, ilm-fan, ta`lim va tarbiyaning konseptual g`oyalari asosida zarur me`yoriy-huquqiy baza yaratildi, "yoshlarni vatanparvarlik ruhida, fuqarolik tuyg`usi, bag`rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, zararli ta`sir va oqimlarga qarshi turish qobiliyati, hayotga qat'iy e`tiqod va qarashlarga ega bo`lish" ustuvor vazifasi belgilandi. [1]

Kasbiy o'zini o'zi anglash — professional faoliyatda inson taraqqiyotining eng yuqori bosqichidir. Shaxsning professional o'zini o'zi tanishi ushbu hayotda o'zi uchun nimani aniq belgilashga va ma'lum faoliyat turiga sa'y-harakatni yo'naltirishga yordam beradi. Shaxs o'zini o'zi anglashi tufayli emas, balki o'zida o'z-o'zini anglashga nisbatan ichki ehtiyoj, turtki, motiv kabi omillarning mavjudligi tufayli ham inson sifatida shakllanadi.Kasbiy faoliyat samaradorligining shartlaridan biri bo'ladigan mutaxassisning kasbiy tayyorligidir. "R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov va A.Pardaevlar kasbiy tayyorgarlik negizida

“bo‘lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi” aks etishi kerakligini ta’kidlaydilar. (3.452)
Shaxsning o‘zini o‘zi anglash muammosi turli psixologik yo‘nalishlar asosida o‘rganiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, nazariy tadqiqotlar ko‘pligiga qaramay, o‘z-o‘zini anglash nazariyasining yagona talqini shakllanmagan. Ushbu tushunchaning yagona ta’rifini ishlab chiqish ham qiyin. Mazmunga yaqin bo‘lgan tushunchalar — ichki psixologik nazariyadagi hayot strategiyasi, E. Erikson nazariyasida o‘ziga xoslik, A. Maslou nazariyasida o‘zini o‘zi anglash kabi yondashuvlar orqali o‘z-o‘zini anglashni izohlashga urinishlar mavjud.Gumanistik psixologiyada o‘z-o‘zini anglash inson hayotining ma’nosi sifatida talqin etiladi; bunda shaxsning o‘zini anglash darajasi va uning ijtimoiy hissasi o‘rtasidagi munosabatlar yaqin atrofdagilar va butun insoniyatga nisbatan belgilanadi. Bu determinantlar bo'lajak mutaxassislarda kasbiy madaniyat, mas'uliyat va kasbga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.
N.B.Drojjin fikricha, o`smirlik davrida axloqiy ongning shakllanishi insonning bevosita faoliyatining ob`ektiv jihatlarini baholash asosida sodir bo`ladi, bunda, odatda, tegishli individual - psixologik xususiyatlar aniqlanadi. Olimning ta`kidlashicha, axloqiy o`z-o`zini anglashni shakllanish jarayoni o`smir hayotning tegishli darajasiga, aqliy tajribaga yetganida samarali amalga oshiriladi, bu esa to`g`ri bilishni, axloqiy va psixologik pozitsiyani baholashni samarali ta`minlaydi. Shu bilan birga, o`zini o`zi anglashning barcha tarkibiy qismlarining faol o`sishi o`smirlarning shaxsiy ichki pozitsiyalarini shakllantirishda, erkin, mustaqil, o`zlari uchun, shaxsiy fazilatlari, o`z qarashlari uchun javobgarlik intilishi va o`z e`tiqodlarini mustaqil himoya qilish qobiliyati ularning ma`naviy mehnatini belgilaydi. Inson ongli ravishda mustaqil ravishda muayyan ixtiyoriy vazifalarini belgilash, ichki tashkil etilganlik, o`z harakatlarining yo`nalishini aniqlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish jihatidan o`smirlik davrining ahamiyatini aniqlashga qaratilgan nuqtai nazari juda muhim [2].
O'smirlarning kasbga yo’naltirishda axloqiy o'zini o'zi anglashini rivojlantirishda ijtimoiy o'zaro ta'sir muhim rol o'ynaydi, chunki bu davrda shaxsiyat shakllanadi, oila, tengdoshlar, maktab va media orqali axloqiy normalar, qadriyatlar, ideal g'oyalar o'zlashtiriladi va o'z harakatlarini baholash qobiliyati rivojlanadi; bu jarayon jamiyatning axloqiy me'yorlar, tamoyillar va tajribalarining o'smir shaxsiyatiga o'zlashishi orqali sodir bo'ladi.
Ijtimoiy o'zaro ta'sirning turlari va roli quyidagilarda ko’rinadi: Oila: Ota-onalarning axloqiy namunalari, tarbiya usullari va muloqotlari o'smirning dastlabki axloqiy tushunchalarini shakllantiradi. *Tengdoshlar guruhi*: Do'stlar bilan o'zaro munosabatlar, guruh normasi, ijtimoiy mavqeni qidirish axloqiy baholash va o'zini o'zi hurmat qilishga ta'sir qiladi. *Maktab va o'qituvchilar:* Axloqiy tarbiya darslari, maktab muhiti va o'qituvchining shaxsiy o'rnagi o'smirlarda ezgulik, adolat, vijdon kabi tushunchalarni rivojlantiradi.*Media va internet*: Axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlar va seriallar orqali ko'rilgan axloqiy qadriyatlar o'smirlarning dunyoqarashiga ta'sir qiladi, lekin bu ta'sir ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.
Axloqiy o'zini o'zi anglashning shakllanishi esa quyidagilar aks etadi: *Qadriyatlarni o'zlashtirish*: Jamiyatning umuminsoniy va milliy qadriyatlarini qabul qilish.

Axloqiy me'yorlarni tushunish: Qaysi xatti-harakatlar to'g'ri, qaysilari noto'g'ri ekanligini ajratish. *O'zini o'zi baholash:* O'z harakatlarini axloqiy me'yorlar asosida tahlil qilib, baholash (vijdon, or-nomus). *Axloqiy idealni shakllantirish:* Aqlga sig'dira oladigan ideal obrazni yaratish va unga intilish. *Axloqiy o`z-o`zini anglash* — bu hayotiy-amaliy va tarixiy tajribaning aksi bo`lgan insonning qadriyatlari, me’yorlari, ideal g‘oya.

V.I.Morosanovaning qoidalariga asoslanib, o`zini o`zi boshqaruv strategiyalari, shuningdek, maqsadga yo`naltirilganlik va ichki motivatsiya o`quvchilarning psixologik farovonligini ijobiy prognoz qiladi. O`smirlik davrida o`zini o`zi boshqarishni rivojlantirishning eng samarali psixologik mexanizmlarini aniqlash va o`rganish masalasi ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan masalalardan biridir. Bundan tashqari, insonning shakllanishining turli bosqichlarida o`zini o`zi boshqarish shakllanishining mohiyati, tuzilishi, mexanizmlari to`g`risida ishonchli ilmiy bilimlarga ehtiyoj turli xil faoliyat sohalari vakillari, jumladan, psixologlar, o`qituvchilar, ijtimoiy ishchilar tomonidan boshdan kechiriladi. Mazkur hodisaning murakkabligi va uni o`rganishga uslubiy yondashuvlarning xilma-xilligi tufayli o`zini o`zi boshqarishning keng qamrovli va to`liq ta`rifini topish oson emas. M.M.Poznerning qoidalariga asoslanib, o`zini o`zi boshqaruv xulq-atvorlarni o`zboshimchalik bilan vaziyat talablariga moslashtirish, ya`ni og`zaki yoki motorli xulq-atvorlarni boshlash yoki o`zgartirish qobiliyati sifatida belgilanadi. Bu ichki va tashqi talablarga samarali javob berish uchun zarur bo`lgan ta`sir, e`tibor va xulq-atvorlarni boshqaruv uchun ichki yo`naltirilgan qobiliyatdir. N.G.Savina fikricha, o`zini o`zi boshqarishning ta`riflari uning adaptiv xususiyatini qayd etadi (vaziyat talablariga muvofiq xulq-atvorni o`zgartirish): -boshqariladigan jarayonlar ko`rsatilgan (vosita va nutq xulq-atvorlari, his-tuyg`ular va e`tibor); -xulq-atvor o`zgarishining tabiati qayd etilgan (modulyatsiya yoki boshlash); -obrazli va og`zaki ifodalarning vositachilik roli ta`kidlanadi. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda inson hayotining beqaror ijtimoiy-iqtisodiy sharoitko`plab axloqiy ko`rsatmalarni qayta baholash, hayotning yuqori ritmi shaxsni tobora ortib borayotgan axborot va hissiy stresslarga duchor qilmoqda. Keyinchalik, shaxsiy o`zini o`zi boshqarishni rivojlantirishda yoshga xos xususiyatlarni ko`rib chiqamiz D.B.Petrovaning qoidalariga asoslanib, o`smirlik davrida shaxsiy o`zini o`zi boshqarishning barcha tarkibiy qismlarida dinamik progressiv o`zgarishlar ro`y beradi: -ichki faoliyat, asosiy qadriyatlar va refleksiya, bu uning rivojlanishidagi sifat o`zgarishlarini va boshqaruv nuqtai nazaridan o`smirlarning imkoniyatlarini oshirishni ko`rsatadi. Shaxsiy o`zini o`zi boshqarishning shakllanishi jarayonli xarakterga ega, uning ko`rsatkichlarining rivojlanish dinamikasi o`smirlik bosqichlari bilan bog`liqligini ko`rsatadi. K.N.Polivanovaning fikriga ko`ra, shaxsiy o`zini o`zi boshqarishni rivojlantirishda o`smirlik davrining xronologiyasiga mos keladigan barqaror davrni (11-12 yosh) va inqiroz davrini (13-16 yosh) ajratish mumkin. Shaxsiy o`zini o`zi boshqarish faoliyatning yetakchi ko`rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Jumladan, yosh o`smirlarning o`zlari bilan bo`lgan munosabatlarida ochiqlik, xulq-atvorni boshqarishda ijtimoiy ma`qullash uchun motivatsiya, ba`zi o`smirlarda esa o`ziyo`naltirish ustunlik qiladi. Biroq, yosh o`smirlar ko`pincha o`zlarini ishonchli, mustaqil va kuchli irodali his qilmaydilar, ular hali o`zini o`zi boshqarish va o`zini

o`zi boshqarishni to`liq amalga oshira olmaydilar va asosan atrof-muhit ta`siriga bog`liqdirlar. Shunday qilib, o`zini o`zi boshqarishning rivojlanishi bola ijtimoiylashuvining muhim jihatini ifodalaydi. Shuningdek, o`zini o`zi boshqaruv qanday rivojlanishini bilish normal va g`ayritabiiy rivojlanishni tushunish uchun juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, kasbga tayyorlashda ijtimoiy o'zaro ta'sir o'smirlarning axloqiy o'zini o'zi anglashini shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, ular jamiyat bilan aloqada bo'lish orqali o'z axloqiy kompasi yaratiladi. Kasbiy faoliyatga moslashtirishda shaxsning obyektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining mos kelishi maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchilik kasbini tanlashda nafaqat bu kasbni sevish, bolalar bilan muloqotga kirishish istagi, balki kasbiy faoliyatning shaxsga qo‘yadigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy talablar uning imkoniyatlari doirasida bo‘lishi kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bois, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining 14.09.2016 yildagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to`risida”gi Qonuni. № O`RQ-406 / http://lex.uz

2.Дрожжин Н.Б. Нравственно развитие как условие становления созидательно активности личности: Методическое пособи. - Ставрополь: Ставропольсервисшкола, 2003. - 116 с.

3. Andakulova S. Kasbiy o’zini anglash va o’zini rivojlantirish motivlari. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. 2025.

KASBIY TA’LIMDA O‘ZLIKNI ANGLASH SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI SIFATIDA OILAVIY PSIXOLOGIK MUHIT VA BOLALARNING KOGNITIV RIVOJI

Kurbanova Zarifa
NamDU Psixologiya kafedrasi dotsenti
Ashuraliyeva Tursunoy
Namangan davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi magistranti

Annotatsiya: *Mazkur tezisda kasbiy ta’lim jarayonida o‘zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari sifatida oilaviy psixologik muhit va bolalarning kognitiv rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda oiladagi emotsional iqlim, kommunikativ munosabatlar va tarbiya uslublarining bolalarda kognitiv jarayonlar — tafakkur, diqqat, xotira va muammo yechish qobiliyatlariga ta’siri ochib beriladi. Shuningdek, ushbu omillarning shaxsning o‘zlikni anglash jarayoniga ta’siri hamda kasbiy ta’limda muvaffaqiyatli shakllanishidagi roli asoslab beriladi. Tezisda zamonaviy jamiyat sharoitida oilaviy muhitning bolalarda mustaqil fikrlash, o‘zini baholash va kasbiy yo‘nalishni aniqlashdagi ahamiyati alohida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: o‘zlikni anglash, kasbiy ta’lim, oilaviy psixologik muhit, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-psixologik determinantlar, bolalar psixologiyasi, tafakkur, tarbiya uslublari, emotsional muhit, kasbiy yo‘naltirish.*

Аннотация*: в данном тезисе рассматриваются семейная психологическая среда и когнитивное развитие детей как важнейшие социально-психологические детерминанты формирования самосознания в процессе профессионального образования. В работе анализируется влияние эмоционального климата в семье, характера коммуникативных отношений и стилей воспитания на развитие когнитивных процессов у детей, таких как мышление, внимание, память и способность к решению проблем. Особое внимание уделяется роли этих факторов в формировании самосознания личности и их значению для успешной адаптации в системе профессионального образования. Подчеркивается значимость семейной среды в развитии самостоятельного мышления, адекватной самооценки и профессионального самоопределения в условиях современного общества.*

Ключевые слова*: самосознание, профессиональное образование, семейная психологическая среда, когнитивное развитие, социально-психологические детерминанты, детская психология, мышление, стили воспитания, эмоциональная среда, профессиональная ориентация.*

Abstract: *This thesis examines the family psychological environment and children’s cognitive development as key socio-psychological determinants of self-awareness formation in the process of professional education. The study analyzes the impact of family emotional climate, communication patterns, and parenting styles on the development of cognitive processes such as thinking, attention, memory, and problem-solving abilities. Special attention is given to the role of these factors in shaping self-awareness and their importance for successful adaptation within professional education systems. The research highlights the significance of the family environment in fostering independent thinking, adequate self-assessment, and professional self-determination in the context of modern society.*

Keywords *: self-awareness, professional education, family psychological environment, cognitive development, socio-psychological determinants, child psychology, thinking, parenting styles, emotional environment, career guidance.*

Kasbiy ta’lim jarayonida shaxsning o‘zlikni anglash darajasi uning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga moslashuvi, ijtimoiy integratsiyasi va professional muvaffaqiyatini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. O‘zlikni anglash– bu shaxsning o‘z qobiliyatlari, imkoniyatlari, qadriyatlari va ijtimoiy rolini anglash jarayoni bo‘lib, u ko‘p jihatdan ijtimoiy muhit, ayniqsa oilaviy psixologik muhit ta’sirida shakllanadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalik davrida shakllangan ijtimoiy-psixologik determinantlar keyinchalik shaxsning o‘zini baholash tizimi, motivatsiyasi va kasbiy yo‘nalish tanlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, oiladagi emotsional barqarorlik, ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi va ijobiy muloqot muhiti bolaning “Men” konsepsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [1, 112-bet].

O‘zbek psixologlarining ilmiy qarashlarida ham oilaning shaxs rivojidagi o‘rni markaziy o‘rinda turadi. Jumladan, E.G‘oziyev shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida oilani birlamchi muhit sifatida baholab, bolalik davrida shakllangan psixologik tajriba butun hayot davomida shaxsning faoliyat strategiyasiga ta’sir qilishini ta’kidlaydi [1, 115-bet]. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlarda o‘zlikni anglash jarayoni refleksiya, o‘zini baholash va ijtimoiy taqqoslash mexanizmlari orqali shakllanishi ilmiy asoslangan. Bu mexanizmlar esa bevosita oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan uzviy bog‘liqdir.

Oilaviy psixologik muhit bolaning kognitiv rivojlanishida eng muhim determinantlardan biri hisoblanadi. Bola aynan oilada dastlabki bilimlarni o‘zlashtiradi, nutq, tafakkur va muammo yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi.
B.R.Qodirov tadqiqotlariga ko‘ra, oiladagi ijobiy psixologik iqlim bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va intellektual faollikni shakllantiradi [2, 78-bet]. Bunday muhitda ulg‘aygan bolalar yangi bilimlarni faol o‘zlashtiradi, murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga moyil bo‘ladi. Aksincha, oiladagi nizolar, emotsional sovuqlik va e’tiborsizlik bolalarda xavotir, past o‘zini baholash va passivlikni yuzaga keltiradi. Bu esa ularning kognitiv rivojlanish sur’atini sekinlashtiradi hamda diqqat, xotira va tafakkur jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [3, 56-bet]. Kognitiv rivojlanishga ta’sir etuvchi asosiy mexanizmlar quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

- **Emotsional xavfsizlik mexanizmi** – bola o‘zini himoyalangan his qilganida yangi bilimlarni faol o‘zlashtiradi
- **Kommunikativ mexanizm** – ota-ona bilan muloqot tafakkur va nutqni rivojlantiradi
- **Kognitiv stimulyatsiya mexanizmi** – kitob o‘qish, savol-javob va o‘yinlar orqali intellektual rivojlanish kuchayadi
- **Ijtimoiy modellashuv mexanizmi** – bola ota-onaning xulq-atvorini kuzatib o‘rganadi

Mazkur mexanizmlar bolaning umumiy intellektual rivojlanish darajasini belgilaydi va keyinchalik uning kasbiy faoliyatiga tayyorgarligiga ta’sir qiladi.
Kognitiv rivojlanish va o‘zlikni anglash o‘rtasida mustahkam psixologik bog‘liqlik mavjud. Tafakkur darajasi rivojlangan shaxs o‘z imkoniyatlarini real baholay oladi, o‘z faoliyatini tahlil qiladi va ongli qaror qabul qiladi. Psixologiyada bu jarayon refleksiya orqali tushuntiriladi. Refleksiya – bu shaxsning o‘z faoliyati, fikrlari va hissiyotlarini tahlil qilish qobiliyatidir. Refleksiya rivojlangan shaxs o‘zini anglash darajasini yuqori darajada namoyon etadi. Mashhur psixolog L.S.Vygotsky nazariyasiga ko‘ra, bolaning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, “yaqin rivojlanish zonasi” orqali amalga oshadi. Ya’ni, bola kattalar yordamida yangi bilimlarni o‘zlashtirib, asta-sekin mustaqil fikrlashga o‘tadi [4, 86-bet]. Shu sababli, kognitiv rivojlanish nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki shaxsning o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini baholash va kasbiy yo‘nalishini aniqlashga ham asos yaratadi. Kasbiy ta’lim jarayoni shaxsning o‘zini anglashida muhim rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda shaxs o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini chuqurroq anglay boshlaydi hamda o‘zining kelajak kasbiy faoliyatiga nisbatan ongli munosabat shakllantiradi.

Kasbiy ta’lim jarayonida o‘zlikni anglashning shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi
- ta’lim muassasasidagi psixologik muhit
- shaxsning kognitiv rivojlanish darajasi
- ijtimoiy tajriba va muloqot faoliyati

Zamonaviy mehnat bozori shaxsdan yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni talab qilmoqda. Jumladan, tanqidiy fikrlash, kreativlik,

muammolarni hal qilish va moslashuvchanlik bugungi kunning asosiy talablariga aylangan. Bu kompetensiyalar esa bolalik davrida oilaviy muhit orqali shakllanadi va kasbiy ta’lim jarayonida yanada rivojlantiriladi [5, 23-bet].

Shu boisdan kasbiy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish, o‘zlikni anglashni rivojlantirishga qaratilgan psixologik dasturlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’lim jarayonida o‘zlikni anglash shakllanishi murakkab va ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, unda oilaviy psixologik muhit asosiy ijtimoiy-psixologik determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, bolalik davrida shakllangan emotsional barqaror muhit, ijobiy muloqot va demokratik tarbiya uslublari bolaning kognitiv rivojlanishini ta’minlaydi hamda uning o‘zini anglash darajasini sezilarli darajada oshiradi. Kognitiv rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar o‘z imkoniyatlarini real baholay oladi, kasbiy yo‘nalishni ongli tanlaydi va zamonaviy jamiyat talablariga moslashishda yuqori natijalarga erishadi.

Shu nuqtai nazardan quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- oilada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish
- ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish
- kasbiy ta’limda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish
- bolalarda kognitiv va refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish

Xulosa qilib aytganda, oilaviy muhit, kognitiv rivojlanish va o‘zlikni anglash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olgan holda, shaxsning kasbiy shakllanishiga kompleks yondashuv zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. G‘oziyev E. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 112–115-betlar.
2. Qodirov B.R. *Shaxs psixologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2009. – 78-bet.
3. Karimova V.M. *Oila psixologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2012. – 56-bet.
4. Vygotsky L.S. *Mind in Society*. – Harvard University Press, 1978. – 86-bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi. *Ta’lim va mehnat bozori integratsiyasi*. – Toshkent, 2023. – 23-bet.
6. Nishonova Z.T. *Rivojlanish psixologiyasi*. – Toshkent, 2011.
7. Bandura A. *Social Learning Theory*. – 1977.
8. Piaget J. *The Psychology of Intelligence*. – 2001.

ACHIEVING PROFESSIONAL EFFICIENCY THROUGH DIGITAL EDUCATION IN THE PEDAGOGICAL PROCESS

Latipova Khurshida Abdullaevna
PhD Student at Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz

Abstract: *This thesis explores enhancing the professional efficiency of teachers and further improving the quality of lessons through digital education in the modern pedagogical process.*

Keywords: *Digital education, Learning Management Systems, Artificial Intelligence (AI), Creative approach, Blended learning, Digital platforms.*

Аннотация: *В данном тезисе рассматриваются вопросы повышения профессиональной эффективности учителей и дальнейшего улучшения качества уроков посредством цифрового образования в современном педагогическом процессе.*
Ключевые слова: *Цифровое обучение, Системы LMS, Искусственный интеллект (ИИ), Креативный подход, Гибридное обучение, Цифровые платформы.*
Annotatsiya: *Ushbu tezisda hozirgi davrda pedagogik jarayonni olib borishda raqamli ta'lim orqali o'qituvchilarning kasbiy samaradorligini oshirish va dars sifatini yanada yaxshilash haqida yoritiladi.*
Kalit so'zlari: *Raqamli ta'lim, LMS tizimlari, sun'iy intelekt, kreativ yondashuv, gibrid ta'lim, raqamli platformalar.*

Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda. O'zbekistonda ham raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim strategik qarorlar qabul qilingan. Shu bilan birga, global tadqiqotlar raqamli pedagogikaning samaradorligini isbotlab, o'quv jarayonida innovatsion yondashuvlar orqali kasbiy samaradorlikni oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, balki uning samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [1; 45]. Raqamli ta'lim muhiti o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktivlikni kuchaytirib, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi [2; 27].

Raqamli vositalar o'qituvchi faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda samarali qiladi:

A. Vaqtni tejash va avtomatlashtirish

- LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom, Canvas): Vazifalarni tarqatish, yig'ish va baholash jarayonini avtomatlashtiradi.
- Sun'iy intellekt (AI): Dars ishlanmalarini tezkor tayyorlash va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilishda yordam beradi.

B. Shaxsiylashtirilgan ta'lim (Personalized Learning)

Raqamli platformalar har bir o'quvchining o'zlashtirish tezligiga moslashish imkonini beradi. Bu o'qituvchiga "ommaviy o'qitish"dan "individual yondashuv"ga o'tish imkonini beradi.

C. Vizualizatsiya va interaktivlik

Murakkab mavzularni (masalan, kimyoviy reaksiyalar yoki koinot tuzilishi) AR (Kengaytirilgan borliq) va VR (Virtual borliq) orqali tushuntirib kognitiv yuklamani kamaytiradi va dars sifatini oshiradi.

O'qituvchi o'z faoliyatida raqamli ta'limdan foydalanishda quyidagi to'rtta bosqichdan o'tadi:

1. Almashtirish (Sustitution): Qog'oz o'rniga PDF ishlatish;
2. Kengaytirish (Augmentation): Elektron testlar orqali tezkor qayta aloqa (Feedback) olish;
3. Modifikatsiya (Modification): Dars mazmunini jamoaviy onlayn loyihalar bilan boyitish;
4. Qayta belgilash (Redefinition): Texnologiyasiz imkonsiz bo'lgan yangi pedagogik vazifalarni amalga oshirish.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar faqat o'qituvchi tomonidan "fasilitator" (yo'naltiruvchi) sifatida to'g'ri qo'llanilsagina samaradorlikka erishiladi.

Kasbiy samaradorlikni oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- Gibrid ta’lim: An’anaviy va raqamli ta’limning eng yaxshi tomonlarini birlashtirish.
- Kreativ yondashuv: O‘quvchilarni shunchaki kontent iste’molchisi emas, balki raqamli mahsulot yaratuvchisiga aylantirish.
- Doimiy Monitoring: Raqamli vositalarning o‘quvchi natijalariga ta’sirini tahlil qilib borish.

Raqamli ta’limning pedagogik samaradorligi, avvalo, uning moslashuvchanligi va individuallashtirilgan ta’lim imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ya’ni, raqamli platformalar orqali har bir o‘quvchining bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojidan kelib chiqib ta’lim berish imkoniyati yaratiladi [3; 63]. Bu esa o‘z navbatida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida vizualizatsiya, multimedia vositalari va interaktiv metodlardan keng foydalanish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi [4; 89]. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Ta’lim to‘g‘risida qonunda ta’limning zamonaviy shakllari, xususan masofaviy ta’limni joriy etish zarurligi belgilab berilgan [5; 12]. Bundan tashqari, Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida ta’lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [6; 18]. Ilmiy tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’limdan samarali foydalanish o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bilan bevosita bog‘liq [7; 34]. Ya’ni, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ta’lim jarayonining samaradorligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda va uning pedagogik samaradorlikni oshirishdagi o‘rni beqiyosdir [1; 52]. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi [4; 93]. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida o‘qitish jarayonining interaktivligi va moslashuvchanligi ortib, bu esa har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali ta’limni tashkil etish imkonini beradi [3; 71]. Natijada, ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan Ta’lim to‘g‘risida qonun hamda Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi kabi muhim hujjatlar raqamli ta’limni rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlab, ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga zamin yaratmoqda [6; 22]. Shu bilan birga, raqamli ta’limdan samarali foydalanish ko‘p jihatdan pedagoglarning raqamli kompetensiyasiga bog‘liq ekanligi aniqlandi [7; 39]. Shu sababli, o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, raqamli ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoniga samarali joriy etish orqali nafaqat ta’lim sifati oshiriladi, balki

zamonaviy, raqobatbardosh va yuqori kasbiy salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashga erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bates, T. Teaching in a Digital Age. Vancouver, 2022.
2. Selwyn, N. Digital Education in Practice. Routledge, 2019.
3. Anderson, T. The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press, 2011.
4. Mayer, R. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" qonuni, 2020-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2020-yil.
7. Redecker, C. European Framework for the Digital Competence of Educators, 2017.

INTIZOMLILIK VA O'ZLIKNI ANGLASHNING KASBIY SHAKLLANISHGA TA'SIRI

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti
Xasanova Ozoda Faxretdin qizi
NamDU Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada kasbiy ta'lim jarayonida talabalarning professional o'zlikni anglash masalalari va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar tahlil qilingan. Tadqiqotda intizomlilik xislati shaxsning professional "Men" konsepsiyasini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zlikni anglash, professional identifikatsiya, intizomlilik, determinant, kasbiy ta'lim, ijtimoiy-psixologik omillar.*

Аннотация*: В данной статье анализируются вопросы профессионального самосознания студентов в процессе профессионального образования и влияющие на него социально-психологические детерминанты. В исследовании дисциплинированность рассматривается как основной фактор, формирующий профессиональную «Я-концепцию» личности.*

Ключевые слова*: самосознание, профессиональная идентификация, дисциплинированность, детерминант, профессиональное образование, социально-психологические факторы.*

Annotation: *This article analyzes the issues of professional self-awareness among students in the process of vocational education and the socio-psychological determinants affecting it. In the study, the quality of discipline is considered as a key factor in shaping the professional "Self-concept" of an individual.*

Key words*: self-awareness, professional identification, discipline, determinant, vocational education, socio-psychological factors.*

Hozirgi shiddatli globallashuv va mehnat bozoridagi texnologik o'zgarishlar sharoitida shaxsning professional kamoloti nafaqat uning bilimlari, balki o'zini kasbiy jihatdan qanchalik chuqur anglashiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Zamonaviy psixologiyada kasbiy o'zlikni anglash muammosi shunchaki ijtimoiy moslashuv jarayoni emas, balki shaxsning "Men-professional" obrazining ichki integratsiyasi sifatida talqin etilmoqda.

Bugungi kunda kasbiy ta’lim tizimi oldida nafaqat mutaxassis tayyorlash, balki o‘z kasbiy mas'uliyatini his qiladigan, ichki tartib-intizomga ega va o‘zgaruvchan mehnat sharoitlariga psixologik jihatdan tayyor bo‘lgan shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi. Shu ma’noda, intizomlilik tushunchasi tashqi majburiyatdan ichki psixologik ehtiyojga — ya'ni o‘zlikni anglashning muhim determinantiga aylanmoqda.

Kasbiy o‘zlikni anglash shakllanishida intizomlilik markaziy o‘rinni egallaydi. Psixologik nuqtayi nazardan, intizom — bu shaxsning o‘z xulq-atvorini ijtimoiy qabul qilingan kasbiy me'yorlarga muvofiqlashtirish qobiliyatidir. Kognitiv darajada: Talaba kasbiy tartib-qoidalarni anglab yetadi. Affektiv darajada: Ushbu qoidalarga nisbatan o‘z munosabatini (qabul qilish yoki inkor etish) shakllantiradi. Bixevioral darajada: Intizomlilik uning doimiy xulq-atvor xususiyatiga aylanadi.

Zamonaviy mehnat bozori mutaxassisdan nafaqat yuqori malaka, balki o‘z professional o‘rni va mas’uliyatini chuqur anglashni talab etmoqda. Kasbiy o‘zlikni anglash — bu shaxsning o‘zini muayyan kasbiy hamjamiyat a’zosi sifatida his qilishi, o‘zining professional sifatlari va imkoniyatlarini baholay olishidir [1, 112-b.]. Kasbiy ta’lim jarayonida talabalarda ushbu xislatning shakllanishi ularning kelajakdagi faoliyati samaradorligini belgilovchi strategik omil hisoblanadi. Psixologiya fanida o‘zlikni anglash muammosi E.G‘oziyev, V.M.Karimova va Sh.R.Barotov kabi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. E.G‘oziyev ta’kidlaganidek, talaba o‘zini kasbiy faoliyat subyekti sifatida anglar ekan, unda kasbiy identifikatsiya (o‘zini ma’lum kasb vakillari bilan tenglashtirish) jarayoni kechadi [1, 48-b.].

D.Super nazariyasiga ko‘ra, kasbiy o‘zlikni anglash — bu shaxsning o‘z xususiyatlarini tanlagan kasbi talablari bilan qiyoslashi va "Men" obrazini ish faoliyatiga moslashtirishidir. Bu jarayonda talaba "Hozirda kimman?" (Men-real) va "Kelajakda qanday mutaxassis bo‘lishim kerak?" (Men-ideal) degan savollarga javob izlaydi. Shunday qilib, kasbiy o‘zlikni anglash — bu shaxsning o‘zini kasbiy faoliyat subyekti sifatida his qilishi bo‘lsa, intizomlilik ushbu subyektning faoliyatini boshqaruvchi asosiy mexanizmdir.

Shaxsning kasbiy o‘zligini anglashiga ta’sir etuvchi determinantlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

Tashqi (ijtimoiy) determinantlar: Ta’lim muassasasidagi korporativ madaniyat, ustoz-shogird munosabatlari, jamiyatning kasbga bo‘lgan munosabati va mehnat jamoasining intizomiy talablari. Ichki (psixologik) determinantlar: Shaxsning qadriyatlari, motivatsiyasi, irodaviy sifatlari va o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish (boshqarish) darajasi [2, 72-b.]. V.M. Karimova yondashuviga ko‘ra, ijtimoiy determinantlar shaxsga "tashqi bosim" sifatida emas, balki "ijtimoiy ehtiyoj" sifatida ta’sir etgan taqdirdagina professional o‘zlik barqaror shakllanadi.

Intizomlilik — professional kamolot mexanizmi sifatida olinadi. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, intizomlilik kasbiy o‘zlikni anglashning tarkibiy qismi bo‘lgan "xulq-atvor (bixevioral)" komponenti bilan bevosita bog‘liq. A. Banduraning "o‘z-o‘zini samaradorligini anglash" nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, talaba o‘z ish faoliyatida intizom normalariga amal qila olishini anglagan

sari, unda o‘ziga bo‘lgan ishonch va professional g‘urur shakllanadi [5, 120-b.].Intizomlilik determinant sifatidagi roli quyidagi bosqichlarda namoyon bo‘ladi: Adaptatsiya (Moslashuv): Talaba ta’lim muassasasi va kasbiy etika qoidalarini o‘rganadi. Internalizatsiya (Ichkilashtirish): Tashqi intizomiy talablar shaxsning ichki ishonchiga aylanadi. Avtonomiya: Mutaxassis tashqi nazoratsiz ham o‘z faoliyatini professional darajada boshqara oladi [3, 94-b.].

Sh.R. Barotov tadqiqotlarida ta’lim tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi -talabada kasbiy refleksiya qobiliyatini oshirish ekanligi ta’kidlanadi. Intizomlilik aynan mana shu refleksiya jarayonini amaliyotga tatbiq etuvchi "irodaviy vosita" hisoblanadi. Ya’ni, talaba o‘zining bilimini bilsa-da, lekin uni ish faoliyatida tartibga soluvchi intizom bo‘lmasa, kasbiy o‘zlikni anglash nuqsonli bo‘lib qolaveradi.

Kasbiy o‘zlikni anglashning shakllanishi kognitiv, affektiv va bixevioral darajalarning birligi orqali amalga oshadi: Kognitiv darajada - kasbiy normalar va intizom talablari haqida aniq bilimlar shakllanadi. Affektiv darajada - ushbu tartib-qoidalarga nisbatan hissiy xayrixohlik va professional g‘urur uyg‘onadi. Bixevioral darajada - bilim va hissiyotlar real mehnat faoliyatida, ya'ni yuqori darajadagi intizomli xulq-atvorda namoyon bo‘ladi.

Buning amaliy ahamiyati shundaki, kasbiy ta’lim jarayonida talabalarda intizomlilikni irodaviy sifat sifatida rivojlantirish ularning kelajakda "kasbiy yonish" (burnout) va identifikatsiya inqirozlariga duch kelishining oldini oladi. O‘z-o‘zini boshqara oladigan mutaxassis har qanday murakkab mehnat sharoitida ham o‘z professional o‘zligini saqlab qola oladi. Kasbiy o‘zlikni anglashning kognitiv komponenti shaxsning o‘zi haqidagi bilimlari (Men-obrazining kognitiv qismi) va tanlangan kasbi haqidagi tasavvurlari majmuidir. Ushbu darajada talaba o‘zini kelajakdagi mutaxassis sifatida o‘qib chiqadi va kasbiy talablarni o‘zining intellektual salohiyati bilan qiyoslaydi.

1.Kasbiy "Men- obraz"ning shakllanishi:

Kognitiv darajada talaba o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini, kasbiy kompetensiyalarini va intellektual imkoniyatlarini tahlil qiladi. E. G‘oziyevning ta’kidlashicha, kognitiv rivojlanish talabada o‘z faoliyatini subyektiv baholashdan obyekti tahlil qilishga o‘tish imkonini beradi [1, 142-b.]. Ya’ni, talaba shunchaki "men yaxshi mutaxassis bo‘laman" deb emas, balki "mening qaysi sifatlarim bu kasbga mos?" degan savol orqali o‘zini anglaydi.

2.Intizomning kognitiv funksiyasi: Intizomlilik kognitiv darajada - bu shunchaki qoidani bilish emas, balki "kasbiy zaruriyatni anglash"dir. Axborotli qabul qilish: Talaba mehnat intizomi, mehnat qonunchiligi va korporativ etika haqida bilimlar to‘playdi. Ma’noni anglash: Talaba "Nima uchun intizomli bo‘lishim kerak?" degan savolga javob topadi. Bu bosqichda intizom tashqi nazoratdan (pedagog buyrug‘idan) ongli ravishda qabul qilingan kasbiy modelga aylanadi.

3. Determinant sifatida kognitiv jarayonlar: Kasbiy o‘zlikni anglashning shakllanishida kognitiv determinantlar quyidagilarda namoyon

bo‘ladi: Kasbiy stereotiplarni tahlil qilish: Jamiyatda mavjud bo‘lgan "ideal mutaxassis" obrazi bilan o‘z xulq-atvorini solishtirish. Kasbiy istiqbolni loyihalash: Talaba intizomlilik va o‘z-o‘zini boshqarish orqali qanday natijalarga erishishini kognitiv tarzda modellashtiradi.

4.Kognitiv dissonans va intizom: Agar talabaning kasb haqidagi tasavvurlari bilan real talablar to‘qnash kelsa, kognitiv dissonans yuzaga keladi. Ushbu muammoni hal qilishda intizomlilik determinant sifatida talabaning dunyoqarashini o‘zgartirishga va uni kasbiy voqelikka moslashtirishga xizmat qiladi [3, 102-b.]. Yani, kognitiv daraja professional o‘zlikni anglashning poydevori bo‘lib, u shaxsga o‘z intizomini ongli ravishda tartibga solish uchun zarur bo‘lgan intellektual bazani taqdim etadi.

Affektiv darajada esa, kasbiy qadriyatlarga hissiy munosabat tarzida bo’ladi. Kognitiv bilimlardan so‘ng, talabada kasbiy normalarga nisbatan ichki munosabat shakllanadi. Bu daraja o‘zlikni anglashning "yuragi" hisoblanadi. Hissiy qabul qilish: Talaba tanlagan kasbi va undagi tartib-qoidalardan qoniqish his etishi yoki aksincha, qarshilik ko‘rsatishi mumkin. Kasbiy g'urur: Intizomli mutaxassis o‘z ishining natijasidan faxrlanish hissini tuyadi. Bu hissiyot professional identifikatsiyani kuchaytiruvchi eng kuchli determinantdir [2, 78-b.]. Motivatsiya: Intizomlilik tashqi majburiyatdan ichki ehtiyojga aylanadi. Talaba tartibli bo‘lishni "majburiyat" emas, balki "professional zavq" manbai deb bila boshlaydi.

Bixevioral (Xulq-atvor) darajasida amaliy namoyon bo‘lishini olsak, bu darajada o‘zlikni anglash real harakatlarda va mehnat intizomida o‘z aksini topadi. Bu yerda nazariya amaliyot bilan birlashadi. O‘z-o‘zini boshqarish : Talaba har qanday vaziyatda, hatto tashqi nazorat (o‘qituvchi yoki rahbariyat) bo‘lmaganda ham professional normalarga amal qiladi.

A.G.Kovalyov talqiniga binoan shaxsni kasbga yo’nalganligi quyidagi tuzilishga ega:

Yo‘nalganlik – voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o‘zaro ta’sir etuvchi har xil xususiyatli, g‘oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo‘nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi. *Imkoniyatlar* – faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta’minlovchi tizim, o‘zaro ta’sir etuvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turlicha qobiliyatlar. *Xarakter* – ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. [6, 29-s.]

Intizom — xarakter xislati sifatida: Kognitiv bilim va affektiv xohish birlashib, talabaning doimiy xulq-atvoriga aylanadi. Bandura nazariyasiga ko‘ra, bu "o‘z-o‘zini samaradorligini anglash" hissini beradi [5, 130-b.]. Kasbiy adaptatsiya: Talaba ish jarayonidagi qiyinchiliklarni irodaviy intizom orqali yengib o‘tadi va bu uning professional o‘zligini yanada mustahkamlaydi. Professional o‘zlikni anglashning ushbu uchta darajasi o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lib, kognitiv tushunish affektiv qabul qilishga, hissiy yaqinlik esa bixevioral faollikka (intizomli xulq-atvorga) aylanadi. Aynan intizomlilik ushbu darajalarni birlashtiruvchi markaziy determinant bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, intizomlilik kasbiy o‘zlikni anglashning shunchaki natijasi emas, balki uni harakatga keltiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy omildir. Kasbiy ta’limda talabalarning o‘zligini anglash darajasini oshirish bevosita ularning o‘z-o‘zini boshqarish va mehnat intizomi sifatlarini shakllantirish bilan integratsiya qilinishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010. – 544 b.
2. Karimov V.M. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2010. – 180 s.
3. Barotov Sh.R. Ta’lim tizimida psixologik xizmat. Buxoro, 2012. – 430 s.
4. Sunnatova R.I. Shaxsning kasbiy o‘zligini anglashi muammolari. Ilmiy monografiya. Toshkent, 2015.
5. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. New York: Freeman, 1997.
6. Maxsudova M.A. Umumiy psixologiya. O’quv qo’llanma. Namangan. 2025 yil. “Sunrise-Pro” nashriyoti. 29-s

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING KASBIY FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING TUTGAN O‘RNI

Akbarov Soxodilla Yuldashboyevich
Psixologiya kafedrasi dotsenti
Namangan davlat universiteti, O‘zbekiston.
Email:soxodillaakbarov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ichki ishlar tizimidagi islohotlar, IIO xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik bilimlarning tutgan alohida o‘rni tahlil qilingan. IIO xodimlari faoliyatiga tatbiq etilayotgan profayling metodining kelib chiqish tarixi, qo‘llanilishi, faoliyat samarasiga ijobiy ta’siri yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik bilimlar, fuqarolar xavfsizligi, bilish jarayonlari, mantiqiy fikrlash, kuizatish metodi, profayling metodi, shaxs profili, verbal va noverbal muloqot, mimika, imo-ishoralar, gavda harakatlari, psixologik ta’sir.*

Аннотация: *В статье анализируются реформы в системе внутренних дел, особая роль психологических знаний в профессиональной деятельности сотрудников внутренних дел. Освещается история возникновения, применения и положительное влияние метода профилирования, применяемого к деятельности сотрудников внутренних дел, на эффективность их работы.*

Ключевые слова: *психологические знания, гражданская безопасность, познавательные процессы, логическое мышление, метод наблюдения, метод профилирования, личностный профиль, вербальная и невербальная коммуникация, мимика, жесты, движения тела, психологическое воздействие.*

Abstract: *This article analyzes reforms in the internal affairs system and the special role of psychological knowledge in the professional activities of internal affairs officers. It also explores the history, application, and positive impact of profiling on the effectiveness of internal affairs officers.*

Keywords: *psychological knowledge, civil security, cognitive processes, logical thinking, observation method, profiling method, personality profile, verbal and nonverbal communication, facial expressions, gestures, body movements, psychological influence.*

So‘nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasida islohotlarning amalga oshirilishi, O‘zbekiston Respublikasining nufuzli xalqaro tashkilotlarga a’zo bo’lishi, inson huquqlariga tegishli hujjatlarning ratifikatsiya qilinishi, fuqarolarning dahlsizligini ta’minlash, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishga nisbatan katta e’tiborning yorqin namunasidir. O‘tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari faoliyatini tizimli ravishda amalga oshirish bo‘yicha keng ko’lamli islohotlar joriy etildi, jumladan ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida tashkil etilgan quyi bo’g’inini har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlashga alohida urg‘u berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martda “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6196-son Farmoni[1], O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo’naltirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-10-son qarori qabul qilindi[2].

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida zamonaviy psixologik bilimlar alohida o‘rin egallaydi. Profayling metodi hozirgi kunda psixologiyaning yangi rivojlanib kelayotgan va amaliy ahamiyatga ega tarmog’idan biridir. Profayling metodining psixologik qonuniyatlari va mexanizmlari huquqni muxofaza qilish xizmati xodimlari faoliyatida muhim o’rin egallaydi. Profayling metodini qo‘llashda xodimning bilish jarayonlari (sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Ushbu jarayonlar mantiqiy fikrlash, holatni oldingi vaziyat bilan bog’lash, o’zaro taqqoslash va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukammal tarzda idrok etishga yordam beradi.

- «Profayling» ingilizcha «profile» so’zidan olingan bo’lib, profil, qiyofa ma’nosini anglatadi.
- **Profayling** – bu shaxsning noverbal xatti-harakatlari va o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali uning harakatlarini haqqoniy baholash, bashorat qilish metodikasi hisoblanadi.

Profayling yoki profayl metodi - shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning xulqidagi o’zgarishlarni tashqi ifoda va xatti-harakatlar asosida tahlil qilish kabi bir nechta psixologik usullardan foydalangan holda oldindan bashorat qilish imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usuli sanaladi.

Hozirgi kunda shaxsning taxminiy profilini yaratish orqali ko’plab zo’ravonlik, ko’p takrorlanadigan qotillik jinoyatlari fosh etiladi, profayling metodidan jinoiy ishlarni ochishda keng foydalaniladi. Psixolog olimlar P.Ekman, V.Frizen, M.Sukerman va B.Paulolar profayl metodining asoschilari hisoblanadilar. Profayling bilan shug’ullanuvchi shaxs *profayler* deb yuritiladi. Profaylerning o‘rganish obyektida quyidagilarga urg’u beriladi:

- mimika;
- Imo-ishoralar;
- xatti-harakatlarning o’ziga xos xususiyatlari;
- nutqning psixolingvistik qonuniyatlari;

- verbal muloqotning paralingvistik alomatlari va boshqalar.

Profayling atamasi ilk bor 1980 yillarda AQShda qo'llanila boshlagan. Ushbu sohada birinchilar qatori ish olib borgan mutaxassislar Djon Duglas va Robert Resslerlar boshchiligida 1984 yili Federal qidiruv byurosi (FBR) Akademiyasi qoshida tajovuzkorlik jinoyatlarini o'rganish markazi tashkil etilgan.

Ushbu markazda o'rta va og'ir jinoyatlarni tahlil qilish, jinoyatchilarning psixologik portretini yaratish borasida ilk izlanishlar olib borilgan, profayler xizmati yordamida bir qancha qotilliklar fosh etilgan. Jinoyatchining xulq-atvorini o'rganish, psixologik portretini yaratish, jinoyat sodir etish motivlarini o'rganish hamda kelgusidagi harakatlarini bashorat qilish orqali bu yutuqlarga erishganlar.

Sobiq ittifoqning maxsus xizmat xodimlari tomonidan ham profayling metodiga murojaat etish hollari kuzatilgan, unda asosan, xodimlarni tayyorlash masalasi: kasbiy va shaxsiy fazilatlarni uyg'unlashtirishga jiddiy e'tibor qaratilgan.

Profayling metodi O'zbekistonda endi tatbiq etilayotgan soha hisoblanadi. Ushbu metod ichki ishlar tizimida:

- gumon qilinuvchi, guvoh, jabrlanuvchi va boshqa toifadagi shaxslar bilan so'roq olib borishda ;
- tergovchi uchun, shubha uyg'otuvchi shaxslarni aniqlash va xavfsizlikni ta'minlashda alohida o'ringa ega.
- profilaktika inspektorlari uchun fuqarolar bilan psixologik aloqa o'rnatishda;
- PPX xodimlariga axoli osoyishtaligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlashda;
- ekspert kriminalistlarga jinoyat joyini tahlil qilishda muhim o'rin tutadi.

Huquqni muxofaza qilish xodimlari faoliyatida profayling usulidan foydalanishni o'rganishdan asosiy ***maqsad:***

- diniy ekstremizm oqimiga mansub bo'lgan shaxslar, huquqbuzarlar, jinoyatga moyil shaxslarni aniqlash, ularning alohida belgilarini verbal va noverbal muloqot vositalaridan foydalangan holda aniqlash va psixologik ta'sir etish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Ichki ishlar organlari xodimlari maqsadga erishish yo'lida quyidagi psixologik bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari zarur:

- vizual (ko'rish va kuzatish asosida) psixologik tashxis yordamida shaxslarning xatti-harakatlarini baholash ko'nikmasini egallash;
- shubhali shaxslarga ruhiy ta'sir eta olish;
- kutilmagan vaziyatlarda emotsional baraqarorlikni saqlash;
- xavfsizlikni ta'minlashda fuqarolarga ruhiy ta'sir o'tkazish;
- jamiyatga zid qarashlari mavjud, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni verbal profili va xulqidagi alohida belgilari asosida tanib olish;
- uzoq muddatga xorijga chiqib kelgan fuqarolar bilan muloqot jarayonida ularni o'rganish va ular haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lish;
- shubha uyg'otuvchi shaxslarning xatti-harakatlarini o'rganish;
- huquqbuzarlik harakatlarini sodir etishga moyil shaxslarning xatti-harakatlarini nazorat qilish;
- xizmat vazifalarini amalga oshirishda tezkor ma'lumotlarni olish va ulardan samarali foydalanish borasida tajribalarni o'zlashtirish.

- jamoatchilik uchun xavfli, jinoiy harakatlarga moyil shaxslar psixologiyasiga oid bilimlarni chuqur egallash;
- fuqarolarning individual xususiyatlarini farqlay olish, yuz ifodasi, imo-ishora, tana harakatlarini aniqlay olish qobiliyati;
- imkoniyatlarini to’g’ri taqsimlash, hissiy zo’riqishlarni yengib o‘tish.
- fuqarolar bilan psixologik aloqa o’rnatish, ularni vizual baholash va ruhiy ta’sir o’tkazish, qaltis vaziyatlarda o’z xatti-harakatlarini nazorat qilish.

Profayling metodining xususiyatlari:

- shubhali shaxslarning xatti-harakatini kuzatish, ularga savollar berish, ekspress tashxis, ularning xatti- harakatlaridagi normadan og’ishlarni qayd etish va ularni o’rganishga qaratilgan boshqa harakatlar;
- profaylingning mantiqiy chizmasida xavf tug’dirishi mumkin bo’lgan shaxslarning harakatlar modelini tuzish;
- shubhali harakat belgilarini aniqlash, xavf tug’dirishi mumkin bo’lgan tiplar(profillar)ni tasniflash;
- kuzatuv hududidagi har bir shaxsni noqonuniy harakatga aloqadorlik nuqtai-nazaridan aniqlash, shaxsni muayyan tipga (yoki profilga) kiritish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, huquqbuzarlik, jinoyat sodir etishga moyil shaxsini o‘rganish psixologiya, yuridik psixologiya, sud–tibbiy psixologiya, jinoyat huquqi, kriminalistika sohalari tomonidan amalga oshiriladi.

"Jinoyatchi shaxs" tushunchasi fanlararo bog’liqlik xususiyatiga ega bo‘lib, psixologlar, kriminalislar, huquqshunoslar tomonidan o'rganiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari, psixologlar bilan hamkorlikda o’zlaridagi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalari orqali jinoyatchilikka qarshi kurash olib borish tizimining umumiy ishiga salmoqli hissa qo'shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 06/21/6196/0240-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 10-сон Қарори. 2023 йил 20 январь. https://lex.uz/docs/ 6364837.
3. Ahrorov V.Y.Sotsial psixologiya.O‘quv qo‘llanma. SamDU.2020, 246 b.
4. Сирлиев Б.Н., Душанов Р.Х., Хорижга чиқиш, келиш ва фуқароликни расмийлаштириш хизмати фаолияти психологияси: Маърузалар курси / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016.

KASBIY TA’LIMDA O‘ZLIKNI ANGLASh ShAKLLANIShINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Axmedova Muyassar Xadimatovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Psixologiya kafedrasi prof. v/b., psixol.f.d.
Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi
Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi

Resume. *This article describes the importance and advantages of labor and professional skills in human life. It examines, based on scientific sources, the necessity and specific features of guiding the younger generation toward professions. The article analyzes the process of self-awareness development in vocational education, as well as the socio-psychological determinants influencing its formation. Furthermore, it highlights the role of the social environment, motivation, reflection, and professional identification in the development of self-awareness.*

Keywords: *self-awareness, vocational education, social environment, motivation, reflection, identification*

Hayotimizda texnika-texnologiyaning shiddat bilan rivojlanayotganligi aholining aksariyat qismi mexanika, kompьyuter sohasi bilan shug‘ullanayotganligi tufayli, uning tarmoqlariga oid mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbning pedagogik-psixologik xususiyatlari, mehnat ko‘nikmalari va malakalari bilan bo‘lg‘usi ixtisoslik egalarini qurollantirish muhim ijtimoiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Kelajak yoshlarni kasbiy tayyorlash, kasb-hunar oldiga qo‘yiladigan talablarga mutanosib insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo‘lib hisoblanadi. Inson - tabiat munosabatini o‘zida aks ettiradi, shaxs omili va uning hozirgi davrda ishlab chiqarishda hisobga olish, mehnat samaradorligini oshirish, kasb mahoratini takomillashtirish uchun negiz bo‘lib hisoblanadi.

Kasbiy ta’lim tizimida nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki shaxsning o‘zligini anglash darajasini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zlikni anglash insonning o‘z “Men”ini tushunishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi va kasbiy yo‘nalishini ongli ravishda tanlashiga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, o‘zlikni anglash insonning kasbiy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Xususan, Erik Erikson shaxs rivojlanishining bosqichlarida identifikatsiya muammosi markaziy o‘rin tutishini qayd etadi.

Shaxs kasb-hunarni o‘zlashtirishda o‘zlikni anglash tushunchasi va uning mohiyati psixologik nuqtai nazardan muhim hisoblanadi. O‘zlikni anglash – bu shaxsning o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlari va jamiyatdagi o‘rnini tushunish jarayonidir. Bu jarayon uzluksiz bo‘lib, ayniqsa kasbiy ta’lim bosqichida faol rivojlanadi. Carl Rogers fikricha, insonning “Men-konsepsiyasi” uning xulq-atvori va rivojlanishini belgilovchi asosiy omildir. U shunday yozadi:“Inson o‘zini qanday tasavvur qilsa, shunga mos ravishda harakat qiladi.” Ya'ni yoshlikdan bolani qanday kasb egasi bo‘lishga qiziqtirish, yo‘nalish berish jarayonida bolaning shu kasb mutaxassisi sifatida o‘zini tasavvur qila olishi, kasbga mos xatti-harakatlarni

o‘zlashtirishga mos ravishda harakat qilishi shu kasbni imkon qadar chuqurroq anglashga undaydi.

Shaxs psixologiyasini o‘rganish o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash demakdir. O‘quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo‘llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o‘quvchilarini ularning hohishi, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so‘ngra kasbga yo‘llash kerak.

Yoshlarning kasb-hunar tanlashi asosan o‘rta maktabdan boshlanadi, shunga ko‘ra o‘quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o‘quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish kabi muhim vazifa turibdi. Kasbiy ta’limda o‘zlikni anglash shakllanishiga quyidagi ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsatadi:

Ijtimoiy muhit – o‘quv muassasasi, oila, do‘stlar va ustozlar shaxsning o‘zini anglashiga bevosita ta’sir qiladi. Ijtimoiy muhit – o‘quv muhiti va oila muhim rol o‘ynaydi. Lev Vigotsky ta'kidlaganidek: “Shaxs rivoji ijtimoiy muhitdan tashqarida amalga oshmaydi”.

Ijtimoiy rollar – shaxs sifatidagi rolni anglash uning o‘ziga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi.

Muloqot va hamkorlik jarayoni – tengdoshlar va pedagoglar bilan samarali muloqot refleksiya jarayonini kuchaytiradi, o‘zaro ta'sir orqali shaxs o‘zini anglaydi.

Ijtimoiy tajriba – amaliy faoliyat va tajriba shaxsiy pozitsiyani shakllantiradi.

O‘zlikni anglashning shakllanishida psixologik omillar ham muhim o‘rin tutadi. Bunda motivatsiya kasbga bo‘lgan qiziqish va ichki ehtiyojlar shaxsning o‘zini anglashiga turtki beradi. Motivatsiya – Abraham Maslow nazariyasiga ko‘ra, insonning o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji uning o‘zligini anglashga olib keladi.

Psixologik omillar orasida refleksiya, o‘z-o‘zini baholash, kasbiy identifikatsiyalar alohida ahamiyatga ega. Refleksiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish orqali shaxs o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglaydi. Refleksiya haqida John Dewey: “Biz tajribadan emas, balki tajriba ustida fikrlash orqali o‘rganamiz” degan fikri kasb mahoratini o‘zlashtirishda tinimsiz mehnat muhim ekanligini ko‘rsatadi.

O‘z-o‘zini baholash – adekvat baholash o‘zlikni anglashning muhim tarkibiy qismidir. .U adekvat baholash shaxsning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. “O‘zini ro‘yobga chiqarish – inson ehtiyojlarining eng yuqori bosqichidir.

Kasbiy identifikatsiya – shaxsning o‘zini ma’lum bir kasb vakili sifatida tasavvur qilishi.

Psixologlar, bundan tashqari, o‘quvchilarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari shuningdek, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

Shuni alohida ta'kidlab o‘tish joizki, psixologiya fani bo‘yicha o‘quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam beradigan, yo‘l-yo‘riqlar va tavsiyalar, mukammal

qo‘llanmalar hali to‘liq ishlab chiqilgan emas. Lekin shaxs psixologiyasiga oid amaliy va nazariy materiallar yetarli miqdorda yaratilgan. Shaxs psixologiyasi masalalarini yoritish, ya'ni shaxsning bilish qobiliyatlari, aql-idroki, aql-zakovati, individual tipologik xususiyatlari, ruhiy holatlarini aniqlash yo‘li bilan uning nimalarga qodir, qanday kasb-hunarga yaroqligi to‘g‘risida aniq fikr bildirish va muayyan tavsiyalar berish mumkin.

“Dunyoga umid bilan qadam qo‘yib kelayotgan navnihol inson hayotda munosib o‘rnini topsa, u turmushidan, Vatanidan rozi bo‘lib yashaydi. Umr bo‘yi bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘ladi,” - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov [2.].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy va psixologik determinantlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda shaxsning o‘zlikni anglash darajasini belgilaydi. Masalan, ijobiy ta'lim, ijtimoiy muhit motivatsiyani oshiradi, bu esa refleksiya va o‘z-o‘zini anglash jarayonlarini faollashtiradi.

Mutaxassislar kasb tanlashning sabablari sifatida tanlangan kasbning e'tiborliligi, kasbiy malakalarni talab qilish darajasi, shaxsning kasbga da'vogarlik darajasi, kasbiy ustanovlarning realligini e'tirof etishadi [7.10].

Kasbiy ta’limda o‘zlikni anglashning shakllanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u ijtimoiy va psixologik omillar ta’sirida yuzaga keladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun ta’lim muassasalarida qulay psixologik muhit yaratish, o‘quvchilarni faol fikrlashga undash va ularning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ularning mustaqil fikrlashini qo‘llab-quvvatlash va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdullayeva R.M. Kasbiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T.2019.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. – T.: “Ma'naviyat” 2008.
3. Davlatov K., V.Chichkov “O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash” T.: 2008
4. Dushanov R.X, Farfiyev Yo.A. Kasbiy psixologiya.Darslik. T.2014.345 b
5. Xolyigitova N.H., Abdumadjidova D.R. Kasbiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T.2019. 544 b.
7. Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. – Blackwell Publishing Ltd, 2003. –p.10.

KASBIY TA’LIMDA O’ZLIKNI ANGLASH SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK KOMPETENTSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qambarov Musoxon Muxtorjanovich, NamDU
Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

Annotatsiya *Ushbu maqola kasbiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘zlikni anglash (self-awareness) qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalarni shakllantirish masalalarini o‘rganadi. Tadqiqotda pedagogik texnologiyalar, psixologik treninglar va interaktiv metodlar asosida o‘zlikni anglash kompetentsiyasini rivojlantirishning samarali yo‘llari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy ta’lim, o‘zlikni anglash, ijtimoiy-psixologik kompetentsiya, shaxsiy rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы формирования социально-психологических компетенций, направленных на развитие способности самосознания (self-awareness) у обучающихся в процессе профессионального образования. В исследовании анализируются эффективные пути развития компетенции самосознания на основе педагогических технологий, психологических тренингов и интерактивных методов.*

Ключевые слова: *профессиональное образование, самосознание, социально-психологическая компетенция, личностное развитие.*

Abstract: *This article examines the issues of developing socio-psychological competencies aimed at enhancing students’ self-awareness in the process of vocational education. The study analyzes effective approaches to fostering self-awareness competence based on pedagogical technologies, psychological training, and interactive methods.*

Keywords: *vocational education, self-awareness, socio-psychological competence, personal development.*

Kasbiy ta’limning asosiy vazifalaridan biri — o‘quvchilarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, balki ularning ijtimoiy va psixologik malakalarini rivojlantirishdir. Bugungi kunda global iqtisodiyot va ish bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun shaxsning o‘zini anglashi, o‘z qobiliyatlarini baholay olishi va samarali muloqot qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi (Bandura, 1997). O‘zlikni anglash — shaxsning o‘zining ichki dunyosi, qiziqishlari, kuchli va zaif tomonlarini idrok etishidir (Rogers, 1961). Kasbiy ta’lim jarayonida bu ko‘nikma o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun asosiy kompetentsiya hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy asoslari. Ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalar o‘zaro munosabatlar, jamoada ishlash, stressni boshqarish va shaxsiy maqsadlarni aniqlash kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi (Goleman, 1995). Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, o‘zlikni anglash yuqori bo‘lgan shaxslar o‘z maqsadlariga erishishda muvaffaqiyatli bo‘ladi va ishchi guruhlarida samarali faoliyat ko‘rsatadi (Schunk & Zimmerman, 2012).

Kasbiy ta’limda o‘zlikni anglashni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar tavsiya etiladi:

1. Reflektiv mashg‘ulotlar va kundaliklar (reflection journals).
2. Rol o‘yinlari va simulyatsiyalar.
3. Psixologik treninglar va stress boshqarish mashqlari.
4. Mentorlik va individual maslahatlar (Kolb, 1984).

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

- Sorovnoma va shaxsiy testlar orqali o‘zlikni anglash darajasini aniqlash.
- Guruh mashg‘ulotlari orqali ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalarning shakllanishini kuzatish.
- Kuzatuv va intervyular orqali pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash.

Tadqiqot ishtirokchilari — kasbiy ta’lim muassasalarining 2–3 kurs talabalari (n=120).

Natijalar va tahlil. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

-Reflektiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘zlikni anglash ko‘rsatkichlarini o‘rtacha 25–30% ga oshirdi.
-Rol o‘yinlari va simulyatsiyalar orqali ijtimoiy kompetentsiyalar rivojlandi, bu esa jamoaviy ishlash samaradorligini 20% ga ko‘paytirdi.
-Individual mentorlik va psixologik treninglar o‘zini baholash va shaxsiy maqsadlarni aniqlash qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi.

Bu natijalar kasbiy ta’lim jarayonida o‘zlikni anglash va ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalarni rivojlantirish pedagogik metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kasbiy ta’lim jarayonida o‘zlikni anglashni rivojlantirish shaxsning kasbiy muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvchanligi uchun muhimdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, reflektiv mashg‘ulotlar, rol o‘yinlari va mentorlik kabi metodlar ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalarni samarali shakllantirishga yordam beradi. Kelajakda pedagogik amaliyotda ushbu metodlarni tizimli joriy etish tavsiya etiladi. Kasbiy ta’limning asosiy maqsadi nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki shaxsning ijtimoiy-psixologik malakalarini rivojlantirishdir. Bugungi kunda global ish bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun shaxsning o‘zini anglashi, o‘z kuchli va zaif tomonlarini baholash va samarali muloqot qilish qobiliyati muhimdir (Bandura, 1997).

O‘zlikni anglash — shaxsning o‘z ichki dunyosi, qiziqishlari, shaxsiy va kasbiy imkoniyatlarini idrok etishidir (Rogers, 1961). Kasbiy ta’lim jarayonida o‘zlikni anglash yuqori bo‘lgan o‘quvchilar:
- Shaxsiy maqsadlarni aniq belgilaydi;
- Stressni boshqaradi;
- Jamoaviy ishda samarali qatnashadi.

2. Tadqiqotning nazariy asoslari

Ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalar shaxsning boshqalar bilan samarali munosabat o‘rnatishi, jamoaviy ishlash, stressni boshqarish va shaxsiy maqsadlarni aniqlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi (Goleman, 1995). Tadqiqotlarda shuni ko‘rsatadiki, o‘zlikni anglash yuqori bo‘lgan shaxslar ijtimoiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘ladi (Schunk & Zimmerman, 2012).
Kasbiy ta’limda o‘zlikni anglashni rivojlantirish metodlari:

1. Reflektiv mashg‘ulotlar va kundaliklar (reflection journals).
2. Rol o‘yinlari va simulyatsiyalar.
3. Psixologik treninglar va stress boshqarish mashqlari.
4. Mentorlik va individual maslahatlar (Kolb, 1984).

3. Tadqiqot metodikasi

Tadqiqot 2-3 kurs kasbiy ta’lim muassasalari talabalari (n=120) ishtirokida olib borildi. Metodlar:
- Sorovnoma va testlar orqali o‘zlikni anglash darajasini o‘lchash;
- Guruh mashg‘ulotlari orqali ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalarni kuzatish;
- Kuzatuv va intervyular orqali pedagogik metodlarning samaradorligini aniqlash.

3.1 O‘rganilgan ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Dastlabki	Tadqiqotdan so‘ng	O‘sish foizi
O‘zlikni anglash	45%	70%	25%
Jamoaviy ishlash	50%	70%	20%
Stressni boshqarish	40%	60%	20%

Jadval 1. O‘zlikni anglash va ijtimoiy kompetentsiyalarning o‘sish ko‘rsatkichlari

4. Natijalar va tahlil

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdi:

- Reflektiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘zlikni anglash ko‘rsatkichlarini sezilarli oshirdi.
- Rol o‘yinlari jamoaviy ishlash va ijtimoiy kompetentsiyalarni rivojlantirdi.
- Psixologik treninglar stressni boshqarish va shaxsiy maqsadlarni aniqlash qobiliyatini yaxshiladi.

4.1 Grafik ko‘rsatkich

Grafik 1. O‘zlikni anglash va ijtimoiy kompetentsiyalarning o‘sishi

*(*Bu joyda Excel yoki boshqa dastur yordamida ustunli diagramma kiritish mumkin: X-o‘qi – metodlar, Y-o‘qi – foiz ko‘rsatkichlari, ustunlar – “Dastlabki” va “Tadqiqotdan so‘ng”)

5. Xulosa Kasbiy ta’lim jarayonida o‘zlikni anglashni rivojlantirish shaxsning kasbiy muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvchanligi uchun muhim hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki:

- Reflektiv mashg‘ulotlar, rol o‘yinlari va mentorlik metodlari ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalarni samarali shakllantiradi.
- Bu metodlarni tizimli joriy etish o‘quvchilarni kasbiy va shaxsiy rivojlanishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. New York: W.H. Freeman.
2. Goleman, D. (1995). *Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ*. New York: Bantam Books.
3. Schunk, D. H., & Zimmerman, B. J. (2012). *Self-regulated learning: Theories, measures, and outcomes*. Springer.
4. Базаров Т.Ю., Ермина Б.Э. Управление персоналом. - М.: ЮНИТИ, 2002. 430 с.

KASBIY TA’LIM JARAYONIDA TALABA QIZLARDA O‘ZLIKNI ANGLASH SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA ULARNING OILAVIY HAYOTGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKKA TA’SIRI

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna
Namdu,psixologiya kafedrasi (PhD) katta o’qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kasbiy ta’lim jarayonida talaba qizlarda o‘zlikni anglash jarayonining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zlikni anglash darajasining ularning kelajakdagi oilaviy hayotga psixologik tayyorgarligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zlikni anglash, ijtimoiy-psixologik determinantlar, kasbiy ta’lim, talaba qizlar, oilaviy hayot, psixologik tayyorgarlik.*

Аннотация: *В данной статье анализируются социально-психологические факторы, влияющие на формирование процесса самосознания у студенток в ходе профессионального образования. Также научно обосновывается влияние уровня самосознания на их психологическую готовность к будущей семейной жизни.*

Ключевые слова: *самосознание, социально-психологические детерминанты, профессиональное образование, студентки, семейная жизнь, психологическая готовность.*

Abstract: *This article analyzes the socio-psychological factors influencing the formation of the process of self-awareness among female students in the course of professional education. It also scientifically substantiates the impact of the level of self-awareness on their psychological readiness for future family life.*

Keywords: *self-awareness, socio-psychological determinants, professional education, female students, family life, psychological readiness.*

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning shaxs sifatida shakllanishi, ayniqsa talaba qizlarning o‘zlikni anglash darajasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘zlikni anglash — bu shaxsning o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlarini baholash va jamiyatdagi o‘rnini belgilash jarayonidir[1].

Kasbiy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talaba qizlar nafaqat professional, balki shaxsiy va oilaviy hayotga ham tayyorlanadilar. Shu sababli, ularning o‘zlikni anglash darajasi kelajakdagi oilaviy munosabatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

1. O‘zlikni anglash tushunchasi va uning mohiyati

O‘zlikni anglash shaxs psixologiyasining markaziy kategoriyalaridan biri bo‘lib, u shaxsning o‘z “Men” obrazini shakllantirish jarayonini ifodalaydi[2]. Bu jarayon quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: kognitiv (o‘zini bilish), emotsional (o‘ziga munosabat), xulq-atvor (o‘zini namoyon etish). Talaba qizlarda o‘zlikni anglash ko‘pincha ijtimoiy muhit, ta’lim jarayoni va shaxsiy tajriba orqali rivojlanadi. [1] O‘zlikni anglash — shaxsning o‘zini idrok etish va baholash jarayoni.

2. O‘zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari

Talaba qizlarda o‘zlikni anglash shakllanishiga bir qator ta’sir qiluvchi asosiy determinantlar mavjud bo’lib, ular quyidagilardan iborat:

1) Oila muhiti. Oila — shaxs shakllanishining birlamchi ijtimoiy instituti hisoblanadi. Ota-ona bilan munosabatlar, oiladagi qadriyatlar va tarbiya uslublari qizlarning o‘zini baholashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. ma’rifatparvar pedagog, zamonaviy turdagi o‘zbek maktabining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan Abdulla Avloniy ta’biri bilan aytganda, Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur.Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo’ladur. «Qush uyasinda ko’rganin qiladur». Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go’zal xulqlarga odatlanub katta bo’lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo’lub chiqar. Agar oilada tarbiyatsiz,

axloqi buzulub o’ssa, Allohdan qo’rqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulog’iga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo’lub qolur.

2) Ta’lim muhiti. O’zliknin anglashning o’ziga xos ko’rinishlarini anglamasdan ma’naviy yuksalish, va taraqqiyot darajasini aniqlab bo’lmaydi. Chunki yuksak rivojlangan jamiyat o’zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. Odamzod ijtimoiy mavjudot sifatida talqin qilinganda, uning mustaqil tafakkuriga, ,e’tiqodga, bunyodkorlik qudratiga, o’zgalar va butun borliq oldidagi ma’suliyat tuyg’usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. Ayni paytda yurtimizda amalga oshirilayotgan “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” degan tamoyilni amaliy ifodasi bo’lib, ma’naviy hayotimizni yanada mustahkamlash, qizlarimiz ongi va tafakkurini zamonaviy asosda shakllantirish borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Sharq mutaffakirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo`lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo`yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o`rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo`naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo`lgan sifatlar — xalollik, poklik, mardliq, mehribonlik, xaqgo`ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo`yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo`ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o`tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko`rsatmalarni o`z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar”. (5.23-s)

Kasbiy ta’lim jarayonida pedagoglar bilan o‘zaro munosabat, o‘quv muhitining psixologik iqlimi va tengdoshlar guruhi muhim rol o‘ynaydi. Ijobiy ta’lim muhiti o‘zlikni anglashni mustahkamlaydi. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizni ertangi kuni qanday bo’lishi o’zligini anglagan qizlarimizning, ya’ni bo’lg’usi onalarimizni bugun qanday ta’lim-tarbiya olishiga bo’liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir qiz timsolida avvalo shaxsni ko’rishi zarur, Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg’un holda olib borishni talab etadi.

3) Ijtimoiy stereotiplar va gender rollari

Jamiyatda mavjud gender stereotiplari talaba qizlarning o‘z imkoniyatlarini baholashiga ta’sir qiladi. Ba’zan bu stereotiplar ularning o‘zini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi[4].

4) Shaxsiy tajriba va refleksiya. Talaba qizlarning o‘z ustida ishlashi, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishi (refleksiya) o‘zlikni anglashni rivojlantiradi. Axloqimizning binosining go’zal va chiroyli bo’lishiga o’zlikni anglashni, o’zini qayta tarbiyalashning g zo’r ta’siri bordur, ba’zilar «tarbiyaning axloqqa ta’siri yo’q, insonlar asl yaratilishida qanday bo’lsalar, shunday o’sarlar, tabiat o’zgarmas», –

demishlar. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, hasabi axloqindadur»

5) Sa'y va g'ayrat. Qur 'oni karim bizlarni sa'y qilmoqg'a amr etmishdur. Dangasalik har vaqt insonni xor, tama balosiga giriftor qilur. Bir ishga mashg'ul bo'lgan kishilar vaqtning o'tganini bilmas, yalqov kishilar uchun bir soat o'tkarmak qiyomatdan qiyindur. G'ayrat vujudimizga quvvati mas'ud va baxtiyor bo'lishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa'yqilub, o'z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo'lgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo'lmay rohat-rohat yashamoq lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog'lidur. Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lub xorlikda qolurlar.

Kishi yosh vaqtida ilm va ma'rifat, hunar va san'atga bo'yin qo'ymasa, taraddud qilmasa, albatta, qora ishchi bo'lub qolur. Shariatga ters, qonunga zid bo'lmagan xizmatlarni qilmak ayb emasdur. Agar bunga ham bo'yin qo'ymay bu ko'mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas deb, dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdur.

3. O‘zlikni anglash va oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlik o‘rtasidagi bog‘liqlik

O‘zlikni anglash darajasi yuqori bo‘lgan talaba qizlar: o‘z his-tuyg‘ularini boshqara oladi, muammolarni konstruktiv hal qiladi, sog‘lom kommunikatsiya o‘rnatadi. O‘zlikni anglash darajasi yuqori shaxslar ijtimoiy moslashuvchan bo‘ladi. Bu esa oilaviy hayotda quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi: barqaror munosabatlar, nizolarni samarali hal qilish, o‘zaro hurmat va ishonchning shakllanishi. Aksincha, o‘zlikni anglash darajasi past bo‘lsa: o‘ziga ishonchsizlik, hissiy beqarorlik, oilaviy nizolarning ko‘payishi kuzatiladi.

4. Kasbiy ta'lim jarayonida psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish yo‘llari

Talaba qizlarning oilaviy hayotga tayyorgarligini oshirish uchun quyidagilar muhim:

- psixologik treninglar tashkil etish,
- o‘zini anglashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar,
- kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish,
- gender tenglik va oilaviy qadriyatlar bo‘yicha ta'lim berish.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, kasbiy ta'lim jarayonida talaba qizlarda o‘zlikni anglash shakllanishi ko‘plab ijtimoiy-psixologik determinantlarga bog‘liq. Ushbu jarayonning samarali rivojlanishi ularning kelajakdagi oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.,Shu sababli, ta'lim muassasalarida o‘zlikni anglashni rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy Turkiy Guliston yoxud ahloq.www.ziyouz.com kutubxonasi. 2-tab'i, sana 1336 h./1917 m. Toshkent.
2. Axmetjanov M. M., Jumayev U. S. Kasbiy faoliyat psixologiyasi // Toshkent - 2020
3. Vaxabova N.A. "Gender munosabat"larning talaba qizlarni oilaviy hayotga

tayyorlashda tutgan o‘rni”. “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnal. № 5. Namangan, 2025. 991-998 b. (OAK 2024-yil 30-noyabrdagi №364/5)
4. Vaxabova N.A. The importance of ethical and moral education in preparing young girls for family life. Volume 5, Issue 11 of International Bulletin of Applied Sciences and Technology. Germany, 2025. Pp.174-179. (ISSN: 2750-3402, Impact factor:9,2 №23, CiteFactor №-16, Open Access № 25)
5. Maxsudova M.A. Oila psixologiyasi. O’quv qo’llanma. N.2025 yil.

KASBIY TA’LIMDA O’ZLIKNI ANGLASH SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
NamDU psixologiya kafedrasi dotsenti
Tojiddinova Dildora Bohodirjon qizi
Namangan davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA: *Mazkur tadqiqotda zamonaviy yoshlarning kasb olamida o‘zini anglashi masalasi ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Unda yoshlarning kasb tanlash jarayoniga ta’sir etuvchi omillar, jumladan, ijtimoiy muhit, ta’lim tizimi, shaxsiy qadriyatlar va raqamli texnologiyalarning roli yoritilgan. Shuningdek, globallashuv sharoitida kasbiy identifikatsiyaning shakllanish xususiyatlari va O‘zbekiston yoshlariga xos jihatlar ochib berilgan. Tadqiqot natijalari yoshlarning kasbiy o‘zini anglashini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi*

Kalit so‘zlar: *Kasbiy o‘zini anglash, yoshlar, kasb tanlash, kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy muhit, ta’lim tizimi, globallashuv, motivatsiya, raqamli muhit.*

АННОТАЦИЯ: *В данной работе рассматривается проблема самосознания современной молодежи в профессиональной сфере с социально-психологической точки зрения. Анализируются факторы, влияющие на выбор профессии, включая социальную среду, систему образования, личностные ценности и роль цифровых технологий. Также раскрываются особенности формирования профессиональной идентичности в условиях глобализации и специфические характеристики молодежи Узбекистана. Результаты исследования могут быть использованы для разработки научно-практических рекомендаций по развитию профессионального самосознания молодежи.*

Ключевые слова: *профессиональное самосознание, молодежь, выбор профессии, профессиональная идентичность, социальная среда, система образования, глобализация, мотивация, цифровая среда.*

ABSTRACT : *This study examines the issue of self-awareness of modern youth in the professional sphere from a socio-psychological perspective. It analyzes the factors influencing career choice, including social environment, education system, personal values, and the role of digital technologies. The paper also highlights the features of professional identity formation in the context of globalization, as well as specific characteristics of youth in Uzbekistan. The findings contribute to the development of scientific and practical recommendations aimed at improving professional self-awareness among young people.*

Keywords: *professional self-awareness, youth, career choice, professional identity, social environment, education system, globalization, motivation, digital environment.*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida yoshlarning kasb tanlashi va o‘zini anglash jarayoni tobora murakkablashib bormoqda. XXI asrda

mehnat bozori tez o‘zgarayotgan tizimga aylangan bo‘lib, yangi kasblar paydo bo‘lishi, ayrim an’anaviy kasblarning esa yo‘qolib borishi yoshlar oldiga yangi talab va mas’uliyatlarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi kasbiy identifikatsiya masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning kasb olamida o‘zini anglashi – bu nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Dunyo miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning katta qismi o‘z qobiliyatlari va qiziqishlariga mos kasbni tanlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Masalan, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab davlatlarda yoshlarning 30–40 foizi tanlagan kasbidan qoniqmaydi yoki faoliyatini tez-tez o‘zgartiradi. Bu holat kasbiy yo‘naltirish tizimining yetarli darajada samarali emasligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida ham mazkur masala o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, kasb-hunar maktablari va oliy ta’lim muassasalarining kengayishi yoshlar uchun imkoniyatlarni oshirayotgan bo‘lsa-da, ularning kasb tanlashdagi ongli qaror qabul qilish darajasi hali ham muammoli hisoblanadi. Respublikada yoshlar bandligi va kasbiy yo‘naltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Shu bois, yoshlarning kasb olamida o‘zini anglashi masalasini ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy yoshlarning kasb olamida o‘zini anglashi – bu shaxsning o‘z qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va ijtimoiy talablar o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglash jarayonidir. Ushbu tushuncha psixologiyada “kasbiy identifikatsiya” va “o‘zini anglash” kategoriyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Amerikalik psixolog D.Super kasbiy rivojlanishni shaxsning butun hayoti davomida kechadigan jarayon sifatida talqin etadi va u “o‘zini anglash”ni kasb tanlashning asosiy omili deb hisoblaydi.

Kasb tanlash jarayonida yoshlarning o‘zini anglashiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, ijtimoiy muhit – oilaning ta’siri, tengdoshlar va jamiyatdagi stereotiplar muhim rol o‘ynaydi. Chunki ko’plab ota-onalar farzandlari qaysi kasbni tanlashida erkinlik berishmaydi. Ya’ni o’zlari tanlagan yoki uddalay olmagan kasblarini farzandlari egallashini hohlashadi, bu esa ba’zan farzandlarining ichki qiziqishlariga zid keladi.

Ikkinchidan, ta’lim tizimi yoshlarning kasbiy o‘zini anglashida muhim institutlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuv yoshlarni mustaqil fikrlashga, o‘z imkoniyatlarini baholashga va kasbiy yo‘nalishini ongli ravishda tanlashga undaydi. [1]

Uchinchidan, raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning kasb haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Internet orqali turli kasblar haqida keng ma’lumot olish imkoniyati mavjud bo‘lsa-da, ba’zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tasavvurlar ham shakllanishi mumkin. Bu esa yoshlarning real imkoniyatlarini noto‘g‘ri baholashiga olib keladi.[2]

O‘zbekistonda yoshlarning kasbiy o‘zini anglash jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Milliy qadriyatlar, oilaviy an’analar va iqtisodiy sharoitlar bu

jarayonga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qishloq hududlarida yashovchi yoshlar ko‘proq an’anaviy kasblarni tanlashga moyil bo‘lsa, shaharlarda yashovchi yoshlar zamonaviy va innovatsion sohalarga qiziqish bildiradi.

Shuningdek, yoshlarning o‘zini anglashida psixologik omillar ham muhim rol o‘ynaydi. O‘ziga ishonch darajasi, motivatsiya, maqsad qo‘yish qobiliyati va shaxsiy qadriyatlar kasb tanlashda asosiy determinantlar hisoblanadi. E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, yoshlik davrida identifikatsiya inqirozi yuzaga keladi va aynan shu bosqichda shaxs o‘zini anglashga intiladi. [3]

Zamonaviy yoshlarning kasb olamida o‘zini anglashi masalasi faqat ta’lim tizimi yoki mehnat bozori bilan bog‘liq emas, balki kompleks yondashuvni talab qiladigan ijtimoiy-psixologik jarayondir. Bugungi kunda yoshlar uchun imkoniyatlar kengaygan bo‘lsa-da, tanlovlar ko‘pligi ba’zan ularda ikkilanish va noaniqlikni kuchaytiradi. Shu sababli, yoshlarni erta yoshdan boshlab kasbiy yo‘naltirish, ularning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhimdir. Ayniqsa, amaliy treninglar, psixologik diagnostika va mentorlik tizimini rivojlantirish bu borada samarali natija berishi mumkin.

Yosh mutaxassislarga pedagogik-psixologik bilimlar, uslubiy ko’rsatmalar berish bilan birgalikda, jamiyatda mavjud bo’lgan turli kasblar haqida ham keng qamrovli bilimlar berish maqsadga muvofiqdir. Kasblar to’g’risida keng malumotlar berish va kasbiy shakllanishni ta’minlashga to’siq bo’luvchi bir qator omillarni ham o’z o‘rnida yoshlarga singdirib borish lozim:

1. Mutaxassislarga qo’yiladigan kasbiy va shaxsiy talablarning o’sib borayotganligi;

2. Kasb tanlashga sabab bo’luvchi omillarning davriy tabiatga egaligi va kasblar to’g’risidagi ijtimoiy ideallar yagona me’yorining mavjud emasligi;

3. O’spirin kasbiy tasavvurlarining ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlarga va bozor munosabatlariga hamohang o’zgarayotganligi hamda kasb-hunar va tegishli mutaxassislik yo’nalishlari o’rtasidagi tafovutning keskin ortayotganligi;

4. Yoshlarning mutaxassislik yo’nalishlarini tanlashlarida aniq tasavvurga, maqsadga, faoliyat yo’nalishiga va istiqbol rejalarini belgilash qobiliyatiga ega emasligi va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy yoshlarning kasb olamida o‘zini anglashi bugungi kunning dolzarb ijtimoiy va ilmiy muammolaridan biridir. Bu jarayon shaxsning individual xususiyatlari, ijtimoiy muhit va global tendensiyalar ta’sirida shakllanadi. Dunyo va O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlarni to‘g‘ri kasbiy yo‘naltirish va ularning o‘zini anglash darajasini oshirish orqali nafaqat individual muvaffaqiyatga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham erishish mumkin. Shu bois, mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yo‘ldoshev J.G‘., Pedagogika nazariyasi, Toshkent, 2018
2. Qodirov B.R Kasb psixologiyasi 2015
3. G‘oziyev E.G‘. – Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010

PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF DECISION-MAKING PROCESSES IN CAREER CHOICE UNDER THE INFLUENCE OF INTERNET ADDICTION AND PSYCHOEMOTIONAL FACTORS

Otamuratov Rustam Uskanovich,
senior lecturer
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Uzbekistan.
Akimbaev Axmetjan Abdikadir o‘g‘li
Deputy Dean, Faculty of History and Pedagogy,
South Kazakhstan University named after Mukhtar Auezov, Kazakhstan

Abstract. *The article analyzes the relationship between Internet addiction and psycho-emotional state, as well as the importance of these factors in choosing a professional direction from a theoretical and practical perspective. It is argued that the emotional state of a person during the decision-making process, the level of self-confidence, and the increased influence of external information directly affect the quality of career choice.*

Keywords: *Internet addiction, psycho-emotional state, career choice, decision-making, adolescent psychology, cognitive processes.*

Annotatsiya. *Maqolada internetga qaramlikning psixoemotsional holat bilan o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, ushbu omillarning kasbiy yo‘nalish tanlashdagi ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Qaror qabul qilish jarayonida shaxsning emotsional holati, o‘ziga ishonch darajasi hamda tashqi axborot ta’sirining kuchayishi kasb tanlash sifatiga bevosita ta’sir etishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *internetga qaramlik, psixoemotsional holat, kasb tanlash, qaror qabul qilish, o‘smirlar psixologiyasi, kognitiv jarayonlar.*

Аннотация. *В статье анализируется взаимосвязь между интернет-зависимостью и психоэмоциональным состоянием, а также важность этих факторов при выборе профессионального направления с теоретической и практической точек зрения. Утверждается, что эмоциональное состояние человека в процессе принятия решения, уровень уверенности в себе и повышенное влияние внешней информации напрямую влияют на качество выбора профессии.*

Ключевые слова: *интернет-зависимость, психоэмоциональное состояние, выбор профессии, принятие решений, подростковая психология, когнитивные процессы.*

Introduction. In contemporary society, the rapid expansion of digital technologies has significantly reshaped human cognition and behavior, particularly among adolescents. The Internet has evolved into more than just an informational tool; it now functions as a central medium for communication, identity formation, and social interaction. However, excessive and uncontrolled use of digital platforms has led to the emergence of problematic patterns, commonly referred to as Internet addiction.

Adolescence represents a critical developmental stage during which individuals form their identity, regulate emotional responses, and make important life decisions, including career choices. These processes rely heavily on cognitive clarity, emotional stability, and self-awareness. When Internet use becomes excessive, it can disrupt these psychological mechanisms, leading to impaired decision-making and increased emotional vulnerability.

Psychoemotional factors such as anxiety, emotional instability, low self-esteem, and stress sensitivity play a crucial role in shaping how adolescents evaluate options and make career-related decisions. When combined with Internet addiction, these factors may intensify uncertainty, reduce analytical thinking, and promote impulsive or externally influenced choices.

The present study aims to examine the psychological characteristics of decision-making processes in career choice under the combined influence of Internet addiction and psychoemotional factors.

Literature Review. Recent psychological research has increasingly focused on the cognitive and emotional consequences of excessive Internet use. Studies indicate that prolonged engagement with digital environments leads to attentional fragmentation, reduced working memory capacity, and superficial information processing [8]. These cognitive shifts can negatively affect the quality of decision-making, particularly in complex and long-term contexts such as career planning.

Internet addiction is also closely associated with psychoemotional disturbances. Individuals with high levels of Internet dependency often exhibit increased anxiety, depressive tendencies, and emotional dysregulation [1]. These emotional states interfere with rational evaluation and reduce the ability to make balanced decisions [6].

From a cognitive perspective, decision-making involves both analytical reasoning and emotional input. According to dual-process theory, emotional overload can weaken reflective thinking and enhance impulsive responses [2]. This is especially relevant for adolescents, whose executive functions are still developing.

Furthermore, digital environments—especially social media—create idealized representations of success and career paths. This contributes to unrealistic expectations and distorted self-assessment, making career decisions less grounded in personal abilities and more influenced by external validation [7].

Research conducted in Uzbekistan also highlights the psychological impact of digital behavior on youth development. In particular, studies by Rustam Otamuratov emphasize that psychoemotional instability and digital dependency can significantly hinder the formation of professional motivation and independent decision-making skills [3].

Research Objective. The primary objective of this study is to analyze how Internet addiction and psychoemotional factors influence adolescents' decision-making processes in the context of career choice.

Conclusion. The findings suggest that excessive Internet use has a multidimensional impact on adolescents' psychological functioning. Internet addiction [5] contributes to emotional instability, increased anxiety, and reduced cognitive control, all of which negatively affect decision-making processes.

Adolescents experiencing psychoemotional difficulties are more likely to:

- make impulsive decisions
- rely on external opinions rather than internal preferences
- experience uncertainty in career selection

Additionally, constant exposure to fragmented information and social comparison in digital environments weakens deep analytical thinking and long-term planning abilities [4].

To mitigate these effects, several strategies are recommended:

- Regulation of Internet use: Limiting screen time to preserve cognitive resources
- Development of emotional resilience: Teaching stress management and emotional regulation skills
- Improvement of career guidance systems: Supporting informed and autonomous decision-making
- Promotion of digital literacy: Encouraging conscious and purposeful use of technology
- Enhancement of real-life engagement: Strengthening social interaction and practical experiences

In conclusion, the interaction between Internet addiction and psychoemotional factors plays a critical role in shaping adolescents' career decisions. Addressing this issue requires an integrated psychological and educational approach.

References

1. Griffiths, M. D. (2005). A components model of addiction within a biopsychosocial framework. *Journal of Substance Use, 10*(4), 191–197.

2. Kahneman, D. (2011). *Thinking, fast and slow*. Farrar, Straus and Giroux.

3. Otamuratov, R. (2021). Psychological factors in the formation of professional motivation among students. In *Problems of psychology development in Uzbekistan: Integration of theory and practice* (p. 282).

4. Otamuratov, R. U., & Otamuratova, S. A. (2023). Internetga qaram o'smirlar hissiy intellektining psixologik xususiyatlari. *BuxDU "Psixologiya*, (2).

5. Otamuratov, R. U. (2023). Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi. *MedUnion*, *2*(1), 177-182.

6. Uskanovich, O. R. (2022). Psixologiyada xavotirlanishning ilmiy-psixologik xususiyatlari. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.

7. Отамуратов, Р. У. (2021). Ўқувчиларда касбий мотивациялар шаклланишининг психологик омиллари. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғундиги, 282*.

8. Young, K. S. (1998). Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder. *CyberPsychology & Behavior*, *1*(3), 237–244.

KASBIY FAOLIYATDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH MOTIVATSIYASI

Akbarov Soxodilla Yuldashboyevich
NamDU, Psixologiya kafedrasi dotsenti
Muhammadmusayeva Munisa Doniyorjon qizi
Namangan davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining muhim o‘rni yoritilgan. Faoliyat motivatsiyasining mazmuni, ichki va tashqi turlari hamda ularning inson faoliyatiga ta’siri bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *motivatsiya, kasbiy faoliyat, muvaffaqiyat, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, rivojlanish, qiziqish, rag‘bat.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль мотивации в достижении успеха в профессиональной деятельности. Изложены понятие мотивации, ее внутренние и внешные виды, а также их влияние на деятельность человека.*

Ключевые слова: *мотивация, профессиональная деятельность, успех, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, развитие, интерес, стимул*

Abstract: *This article discusses the role of motivation in achieving success in professional activity. The concept of motivation, its intrinsic and extrinsic types, and their impact on human activity are explained in a simple and clear way.*

Keywords: *motivation, professional activity, success, intrinsic motivation, extrinsic motivation, development, interest, incentive*

Hozirgi kunda jamiyatda raqobat kuchayib borayotgani sababli har bir mutaxassisdan nafaqat bilim va ko‘nikma, balki ichki rag‘bat — motivatsiya ham talab etiladi. Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish turli omillarga bog‘liq bo‘lsa-da, ularning ichida motivatsiya eng muhim o‘rinlardan birini egallaydi.

Motivatsiya insonni harakatga undaydigan, maqsad sari yo‘naltiradigan ichki va tashqi omillar yig‘indisidir. U insonning kasbiy rivojlanishi va o‘z ustida ishlashida asosiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi inson faoliyatini rag‘batlantiruvchi ichki omillar tizimi bo‘lib, shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga yetishish, o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Kasbiy faoliyatni egallashda ichki motivatsiyasining shakllanishi, shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, qadriyatlar tizimi va tajriba orqali belgilanadi.

Motivatsiya psixologiya fanida keng o‘rganilgan tushunchalardan biridir. E.G‘. G‘oziev va M.G. Davletshin asarlarida motivatsiya inson faoliyatini harakatga keltiruvchi ichki psixologik mexanizm sifatida izohlanadi.

Z.T.Nishonova motivatsiyani shaxsning o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiruvchi omil sifatida ko‘rsatadi, V.M. Karimova esa motivatsiyani ijtimoiy muhit va shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq jarayon sifatida tahlil qiladi. Frederick Herzberg shaxsga oid motivatsiyani ikkita omil — gigiyenik va rag‘batlantiruvchi omillar orqali izohlaydi, unga ko‘ra, haqiqiy qoniqish va motivatsiya asosan ichki omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. D. Maclelland va J.Atkinson nazariyasiga ko‘ra, kasbiy faoliyatda insonlar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Muvaffaqiyatga intiluvchilar: Ular o‘rta darajadagi murakkab vazifalarni tanlaydilar, tavakkal qilishdan qo‘rqmaydilar va omadsizlikni tajriba deb biladilar.

2. Mag‘lubiyatdan qochuvchilar: Ular yo juda oson (xato qilmaslik uchun) yoki haddan tashqari qiyin (bajarolmasa ham ayb o‘zida emasligini isbotlash uchun) vazifalarni tanlaydilar, ularning asosiy maqsadi — tanqidga uchramaslik.

Ijtimoiy motivatsiya — bu shaxsning boshqa insonlar, guruhlar yoki jamiyat bilan aloqalaridan kelib chiqadigan motivatsiyadir.

Shaxsning ijtimoiy-psixologik rag'bat olishi, o‘ziga xos ijtimoiy statusni egallashga bo‘lgan intilishi, guruhning e'tirofi yuqori statusni qo‘lga kiritish ehtiyoji muvaffaqiyat motivatsiyasining tashqi katalizatorlari hisoblanadi.

Ijtimoiy ta’sir mexanizmlari shaxsni o‘zaro hamkorlik, tajriba almashish va yangilanishlarga undaydi, ammo Yerkes-Dodson qonuniga ga ko'ra, motivatsiya darajasining haddan ziyod ortib ketishi("gipermotivatsiya") faoliyat samarasining pasayishi, "emotsional yonish" sindromiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot ishida nazariy tahlil usuli qo‘llanildi: mavzuga oid psixologik va pedagogik adabiyotlar o‘rganilib, motiv va motivatsiya tushunchasi, kasbiy faoliyatni egallashda motivatsiyaning o‘rni tahlil qilindi:

- motivatsiya inson faoliyatining asosiy sabablarini ifodalaydi;
- motivatsiya ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar va rag‘batlar bilan bog‘liq xolda, insonni faol harakatga undaydi;
- motivatsiya, kasbiy faoliyatni egalashning faqat dastlabki bosqichida emas, balki kabiy mahoratni yuksaltirishda ham ko‘mak beradi;
- motivatsiya, faoliyat samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Motivatsiyaning asosiy tarkibiy qismlari:

- ehtiyojlar — shaxs faolligining asosiy manbai;
- maqsadlar — faoliyat yo‘nalishini belgilaydi;
- qiziqishlar — faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi;
- rag‘batlar — tashqi ta’sir vositalari.

Muvaffaqiyatga intilishda motivatsiyaning ichki va tashqi manbai:

- **ichki motivatsiya:** kasbiy faliyatining o‘zidan zavqlanish, qiziqish, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish va shaxsiy o‘sish ehtiyoji;
- **tashqi motivatsiya:** maosh, martaba pog‘onasi, boshqalarning tan olishi, rag‘batlar, mukofotlar yoki aksincha, jazolanishdan qo‘rqish.

Motivatsiya muammosini o‘rganishda David Macclelland olib borgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. U insonlarda muvaffaqiyatga intilish darajasini aniqlash maqsadida tajriba o‘tkazgan. Tadqiqot davomida ishtirokchilarga turli murakkablikdagi vazifalar taklif etilgan va ularning tanlovi kuzatilgan.

Natijalardan ma’lum bo‘lishicha, muvaffaqiyatga intilishi yuqori bo‘lgan shaxslar ko‘proq o‘rtacha murakkab vazifalarni tanlagan. Ular vazifalarni bajarishda faol bo‘lib, natija uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga intilgan. Bu esa motivatsiyaning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati muhim ekanligini hamda faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Nazariy tahlil va natijalar:

- motivatsiya kasbiy faoliyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi;
- ichki motivatsiya uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlaydi;

- tashqi motivatsiya rag‘batlantiruvchi rol o‘ynaydi;
- kasbiy muvaffaqiyat motivatsiya darajasiga bog‘liq;
- motivatsiya shaxsning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini oshiradi.

Kasbiy motivatsiya quyidagi omillar ta’sirida shakllanadi:

- **shaxsiy omillar:** qiziqish, qobiliyat, maqsad;
- **ijtimoiy omillar:** oila, ta’lim, jamiyat;
- **tashkiliy omillar:** ish muhiti, rahbar, jamoa.

Kasbiy faoliyat motivatsiyasini rivojlantirish usullari:

- aniq maqsad qo‘yish;
- o‘z ustida ishlash;
- ijobiy fikrlash;
- olingan natijalarni baholash;
- o‘z-o‘ziini rag‘batlantirish.

Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyaga bevosita bog‘liqdir. Ichki motivatsiya shaxsning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi, tashqi motivatsiya esa uni qo‘llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, ichki motivatsiya — ya’ni insonning o‘z ishiga qiziqishi, kasbga bo‘lgan muhabbati va o‘zini rivojlantirishga intilishi — uzoq muddatli muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi. Tashqi motivatsiya esa ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlab, qo‘shimcha rag‘bat vazifasini bajaradi. Xorijiy olimlar nazariyalari bu fikrlarni yanada chuqurlashtiradi. Jumladan, ehtiyojlar bosqichma-bosqich qondirilishi orqali inson yuqori natijalarga erishishi mumkinligi, shuningdek, haqiqiy motivatsiya ichki qoniqish bilan bog‘liqligi aniqlangan. Bundan tashqari, muvaffaqiyatga intilish ehtiyoji kuchli bo‘lgan shaxslar odatda yuqori natijalarga erishishi kuzatiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, motivatsiya faqat individual xususiyat emas, balki u shaxsiy, ijtimoiy va tashkiliy omillar ta’sirida shakllanadigan murakkab jarayondir, shu sababli motivatsiyani rivojlantirishda kompleks yondashuv zarur.

Har bir inson kasbiy motivatsiyasini shakllantirishi va rivojlantirib borishi zarur, bu kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
2. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
3. Herzberg F. The Motivation to Work. – New York: Wiley, 1959.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2007.
5. Andreeva G.M. Social Psychology. - M.: Aspect Press, 2001.
6. MacClelland D.C. The Achieving Society. – New York: Free Press, 1961.
7. Nishonova Z.T. Psixologiya asoslari. – Toshkent, 2010.

ANALYSIS OF APPROACHES TO THE HISTORY OF THE ORIGIN OF YOUTH SUBCULTURES

Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna
PhD student.,
Gulistan State University

Abstract: *This article analyzes approaches to the history of the origin of youth subcultures, which form the life strategies of young people, including adolescents, in connection with their appearance, language, jargon, value system, and are reflected in their individual personality traits.*

Keywords: *subculture, jargon, character, attitude, value, language, appearance.*

Аннотация: *В данной статье анализируются подходы к истории происхождения молодежных субкультур, формирующих жизненные стратегии молодых людей, включая подростков, в связи с их внешним видом, языком, жаргоном, системой ценностей и отражающихся в их индивидуальных чертах личности.*

Ключевые слова: *субкультура, жаргон, характер, отношение, ценности, язык, внешний вид.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlar submadaniyatlarining kelib chiqishi tarixiga doir yondoshuvlar tahlili olib borilgan bo‘lib, yoshlar submadaniyatlari yoshlar, jumladan, o‘smirlarning tashqi ko‘rinishi, til, jargon, qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq holda ularning hayotiy strategiyalarini shakllantiradi va ularning individual shaxs xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *submadaniyat, jargon, xarakter, munosabat, qadriyat, til, tashqi ko‘rinish.*

Introduction. Pluralistic ignorance can also be present when adolescents compare their attitudes toward their peers and parents. In a study by Lerner et al., college students were asked to compare their attitudes toward their peers and parents on several issues. Most students rated their attitudes as somewhere between the more conservative attitudes of their parents and the more liberal attitudes of their peers. The authors suggested that this was because students perceived their friends as more liberal than they were.

Sports, language, music, clothing, and dating are superficial ways of expressing autonomy that can be embraced without compromising one’s beliefs or values. Some areas in which adolescents assert autonomy, such as drug use and sexual activity, can have long-term consequences.

The influence of youth culture on deviant and sexual behavior is a controversial issue. More than 70 percent of American high school students report drinking alcohol. Similarly, two-thirds of adolescents have had sex before graduating from high school. Because drinking and sex are so common during adolescence, many researchers consider them aspects of youth culture. While engaging in these activities can have harmful consequences, most adolescents who engage in these risky behaviors do not experience long-term consequences. Drug addiction, pregnancy, incarceration, and other negative consequences are some of the potential negative effects of participating in youth culture. Research suggests that many factors can lead young people to engage in high-risk behaviors, including "a lack of stable role models, increased family stress, decreased family investment, weakened

emotional bonds between parents and their children, reduced levels of social capital and social control, and hopelessness about the future"[4].

Teen culture can also be beneficial for teens. Peer pressure can have a positive impact on teens' well-being; for example, many teens report that peer pressure stops them from using drugs or having sex.

Young people can make a difference in society, for example, through youth-led revolutions. Youth organizations, often based on student identity, were crucial to the American civil rights movement, including the Southern Student Organizing Committee, Students for a Democratic Society, and the Student Nonviolent Coordinating Committee. The Freedom Summer campaign relied heavily on college students; hundreds of students worked to register African Americans to vote, teach in "Freedom Schools," and organize the Mississippi Freedom Democratic Party.

American protests during the Vietnam War were also led by students. Many college campuses opposed the war with sit-ins and demonstrations. Organizations such as Young Americans for Freedom, the Student Libertarian Movement, and the Student Peace Union were youth-based and contributed to antiwar activism. Some scholars have argued that the values of activism during the Vietnam War were symbolic of a youth culture that was at odds with mainstream American culture [2].

The movement was largely organized by young people, mostly college students, who were dissatisfied with the opportunities they were given. The youth participation prompted Time magazine to include several young members of the movement in its list of the 100 most influential people of 2011. The movement also used social media (which is an aspect of youth culture) to plan, coordinate, and publicize events. Marxist theories explain some of the diversity, as they focus on classes and class factions rather than on young people as a whole. Stuart Hall and Tony Jefferson describe youth subcultures as symbolic or ritualistic attempts to resist the power of bourgeois hegemony, through the conscious adoption of behaviors that threaten consumerism. In contrast, Marxists of the Frankfurt School of Social Research argue that youth culture is an integral part of consumerism and capitalism's "divide and rule" strategy. They argue that this creates generational divides and pits youth groups against each other (e.g., moderates and rockers), especially since youth culture is the dominant culture in the West [1].

Interactionist theorist Stan Cohen argues that youth subcultures are not coherent social groups that emerge spontaneously in response to social forces, but rather that media labeling leads to the creation of youth subcultures by imposing an ideological framework within which people can find their own behavior. Poststructuralist theories of subculture draw on many ideas from other theories, such as hegemony and the role of the media. Dick Hebdige, in his book Subculture: The Meaning of Style, views subcultures as a reaction by subordinate groups to the hegemony of the dominant culture. This theory takes into account factors such as gender, ethnicity, and age [3].

Youth can be seen as a subordinate group in relation to the dominant, adult society. Historical theorist Stephen Mintz argues that until about 1955, youth subcultures did not exist. This was due to the physiological and psychological acceleration of adolescence. Marcel Danesi has since argued that the media,

advertisers, and others have made youth the dominant culture of Western societies, so much so that many people have maintained attitudes that others consider immature into adulthood. This is also supported by P. Lewis, who argues that youth culture did not emerge in the 1950s, with the development of rock and roll. However, other historians have suggested that youth culture may have developed earlier, especially between the wars. There are examples of new youth subcultures, such as flappers, emerging during this period.

In conclusion, it is worth noting that the early studies of subcultures were mainly conducted by functionalist sociologists and focused on youth as a single form of culture. They used the concept of anomie to explain the development of culture. The generalizations included in this theory ignore the existence of subcultures.

List of used literature

1. Adler, Judith (May 1982). "Subculture: The Meaning of Style by Dick Hebdige". American Journal of Sociology. 87 (6): 1458–1459.
2. Arnett, J. J. (2002). Adolescents in Western countries on the threshold of the 21st century. In B. Brown, R. Larson, & T. Saraswathi (Eds.), "The world's youth: Adolescence in eight regions of the globe"., New York: Cambridge University Press.
3. Hebdige, Dick (1979). *Subculture: The Meaning of Style*. London: Routledge. ISBN 0415039495.
4. Straw, Will (1991). "Systems of Articulation, Logics of Change: Communities and Scenes in Popular Music", Cultural Studies, 5, 3, pp. 273, 368-88

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY O'ZLIKNI ANGLASHNING SHAKLLANISHI

Rustamova Turdixon Ne'matjonovna
Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy hayotdan ma'no topish, mutaxassislik va ish joyini to'g'ri tanlash. Mehnatdan ma'no topish mas'uliyat hissini oshirish. Albatta, bu muhim kasbiy muammolar shaxs oldida butun hayoti davomida paydo bo'laveradi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы понимания профессиональной идентичности, поиска смысла в профессиональной жизни, выбора правильной специальности и места работы. Поиск смысла в работе предполагает повышение чувства ответственности. Конечно, эти важные профессиональные проблемы возникают перед человеком на протяжении всей его жизни.*

Abstract: *This article discusses the understanding of professional identity, finding meaning in professional life, choosing the right specialty and workplace. Finding meaning in work is an increase in a sense of responsibility. Of course, these important professional problems arise in front of a person throughout his life.*

Kalit so'zlar: *kasbiy o'zlikni anglash, konsepsiya, kasbiy qadr-qimmat.*

Ключевые слова: *профессиональная идентичность, концепция, профессиональное достоинство.*

Keywords: *professional identity, concept, professional dignity.*

Shaxs kasbiy shakllanishining sermahsulligi va anglay olishining muhim omili uning kasbiy mehnatda ma'no topishidadir, o'z kasbiy hayotini

loyihalashtirish, mas’uliyat bilan kasb mutaxassislik va ish joyini tanlash borasida qaror qabul qilishdadir. Albatta, bu muhim kasbiy muammolar shaxs oldida butun hayoti davomida paydo bo’laveradi. Shaxs esa doimo o’zgarib rivojlanib turadi. Demak, uning rivojlanishini turli bosqichlarida kasbiy anglash muammolari turlicha hal etiladi. Kasblar olamida o’z o’rnini to’g’ri tanlash, o’z ijtimoiy kasbiy rolini kasbiy mehnatga jamoaga va o’ziga bo’lgan munosabatini anglay olishi inson hayotining muhim komponentlari bo’lib qoladi. Gohida kishi kasbdan uzoqlashib, undan og’irlik seza boshlaydi unda o’z kasbiy holatidan qoniqmaslik hissi paydo bo’ladi. Shuningdek, insonlarda majburiy holatda kasbni va ish joyini almashtirish hollari uchrab turadi. Ta’kidlash mumkinki, shaxs oldida doimo undan kasbga bo’lgan munosabatni aniqlash, gohida o’z kasbiy yutuqlarini tahlil etish, kasb tanlovi yoki uni almashtirish qarorini qabul qilish, karerani aniqlash va korreksiyalash boshqa kasbga xos bo’lgan masalalarni hal etishni talab etadi.

Shaxsda kasbiy shakllanish konsepsiyasini tadqiqotchi psixologlar tomonidan turlicha tushuntirib berilgan. A. Maslou konsepsiyasi bo’yicha , di. Uning konsepsiyasida “Aniqlanish” tushunchasi “O’zini namoyon etish” tushunchasi yaqin atama sifatida e’tirof etiladi. P.G. Shedrovskiy “Aniqlanish” insonning o’zini-o’zi o’z individual tarixini yaratish qobiliyati sifatida, o’zligini aniqlay olishida ko’radi inson takomillashib borishiga, o’zini namoyon etishiga bo’lgan intilishi aks etadi.

E.A. Klimov kasbiy anglashni batafsil tahlil etib, uni “psixik rivojlanishning, nimadir foydali ishni qiluvchilar” professionallar ham jamiyatning to’laqonli ishtirokchisi sifatida o’zini shakllantirishning muhim ko’rinishidir. Kasbiy anglash bo’yicha E.A. Klimovning fikri qadrli hisoblanadi. Uning fikicha oson va qisqa muddatli hisoblangan kasb tanlovi aslida “Lahza qo’shuv butun kelgusi hayot ” formulasi asosida amalga oshiriladi. Shaxsda rivojlanish yo’llaridan avval turli mehnat sohalariga ma’lum munosabat, ko’p kasblar haqida tasavvur va o’z imkoniyatlarini baholash, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda to’g’ri yo’l tutishi kasb tanlovining “zaxira variantlari” va navbatdagi kasbiy anglash ichki tayyorgarlikka xos bo’lgan boshqa ko’p narsalar haqida tasavvur shakllangan bo’ladi. E.A. Klimovning fikrini mantiqiy umumlashtirib quyidagicha ta’kidlash mumkin. Kasbiy anglash kasbiy tanlovining bir lahzali akti bo’lib qolmaydi va tanlangan mutaxassislik bo’yicha kasbiy tayyorgarlik yakuni bilan tugatilmaydi, balki u butun kasbiy hayoti mobaynida davom etadi. Kasbiy va shaxsiy anglash N.S. Pryajnikovning tomonidan olib borilgan izlanishlarning predmeti hisoblanadi. Uning konseptual yondashuvi quyidagilardan iborat.

Adabiyotlar tahlili, amalga oshirilgan tajriba eksperimental tadqiqot N.S. Pryajnikovga kasbiy shakllanishning nazariyasi va amaliyotini boyitish imkonini beradi. Kasbiy anglash shaxsning boshqa muhim sohalarida o’zini namoyon eta olishi bilan uzilmas aloqasini doimo ta’kidlagan holda, u shunday yozadi. “Kasbiy anglashning mohiyati aniq madaniy-tarixiy vaziyatda bajariladigan ish va butun hayot mazmunini mustaqil va anglangan holda topishdadir”.

Shaxsning kasbiy anglashi bo’yicha o’tkazilgan tahlilini umumlashtirib, bu jarayonning asosiy nuqtalarini ajratishimiz mumkin:

1. Kasbiy anglash-individning kasblar olamiga va tanlangan aniq kasblar olamiga nisbatan bo’lgan tanlovli munosabati

2. O’z xususiyatlar va imkoniyatlarini, kasbiy faoliayt talablarini va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda kasbiy anglash yadrosi hisoblanadi.

3. Kasbiy anglash butun kasbiy hayoti davomida amalga oshiriladi, shaxs doim o’zgaradi, o’z kasbiy hayotini qayta anglaydi va kasbida o’zini namoyon etadi.

4. Shaxs kasbiy anglashning dolzarblashuvi, turli voqealar, ya’ni umumta’lim maktabini, o’quv yurtini tugatish malaka oshirish, yashash joyini almashtirish, attestatsiya, ishdan bo’shash va hokazolar bilan anglanadi.

5. Kasbiy anglash shaxs muhim ijtimoiy-psixologik yetukligini tavsifi hisoblanadi.

Shaxs kasbiy anglashni tadqiq etib, N.S. Pryajnikov uning quyidagi mazmunli prasessual modelini asoslab berdi:

1. Ijtimoiy foydali mehnatning qadr-qimmatini va kasbiy tayyorgarlikning zaruriyatini anglashning qadriyatli, ma’naviy asosi.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda o’z yo’nalishini topish va tanlanadigan faoliyatni kelajakda rivojalntira olish

3. Kasbiy mehnat olamida umumiy holda o’z yo’nalishini aniqlay olish va kasbiy maqsadni ajrata olish.

4. Yaqin oradagi kasbiy maqsadlarni keyingi maqsadga eltuvchi yo’llar va vositalari sifatida aniqlash.

5. Kasbiy o’quv yurtlari va ish o’rinlariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar haqida ma’lumot berish.

6. Kasbiy maqsadlarga erishishni muraakkablashtiruvchi to’siqlar haqida tasavvurga ega bo’lish, shuningdek. Mo’ljallangan rejalarni amalga oshirishga qo’l beruvchi o’z fazilatlarini bilish.

7. Anglashning asosiy varianti bo’yicha muvaffaqiyatsizlikka uchragan holda, tanlov zahira variantlarining mavjudligi.

8. Shaxs kasbiy istiqbollarining amaliy yuritilishini boshlanishi va mo’ljallangan rejalarni doimiy ravishda korrektirovka etish.

Shaxs o’zini namoyon eta olish imkoniyatlarini tahlil etib, N.S. Pryajnikov kasbiy anglash bo’yicha yettita turini taklif etadi:

1) Ma’lum bir mehnat vazifada o’zini anglash turi bajarilayotgan faoliyat doirasida o’zini namoyon eta olishini nazarda tutadi. Ishchi (ayrim) o’z faoliyat mazmunini ayrim mehnat vazifalarini sifatli bajarishda ko’radi. Tanlash erkinligi va insin harakatlarining diapazoni minimal darajada aks etishi bilan belgilanadi. Ko’p ishchilariga bu bir xil va bir maromda ishlash yomon ta’sir etadi. Shuning uchun ishlab chiqarish tashkilotlari bunday ishlarni bajariladigan ishlar turini almashtirish hisobiga qo’shimcha vazifalar bilan boyitishga harakat qiladilar. Ammo shuni ham ta’kidlash lozimki, ayrim kishilar bunday mehnatdan rohatlanadilar.

2) Ish o’rnida o’zini anglash turli xil vazifalar bajarishni nazarda tutadi. Ish o’rni ma’lum huquqlar va topshiriqlar mehnat vositalarini o’z ichiga oluvchi cheklangan ishlab chiqish muhiti bilan belgilanadi. Bajarayotgan faoliyat doirasida o’zini namoyon eta olish imkoniyati birinchi holatda yuqoriroq bo’lishi mumkin. Aniq ish joyini almashinuvi mehnat sifati va samaradorligiga yomon ta’sir etadi va ishchining qoniqmasligini keltirib chiqaradi.

3) Mutaxassislik bosqichida o’zini anglash turi ish o’rinlarini sezilarsiz

almashinuvi nazarda tutadi va shu ma’noda shaxsning o’zini namoyon eta olish imkoniyatini kengaytiradi. Masalan, avtotransport haydovchisi avtomashinalarning turli rusumini boshqara oladi.

4) Kasbda o’zini anglash turi bo’yicha ishchi mehnat faoliyatida bir-biriga yaqin kasblarni o’zlashtira olishi nazarda tutiladi. Ma’lumki, kasb bir qancha bir-biriga yaqin mutaxassislarni birlashtiradi. Shuning uchun avval anglash turiga nisbatan bunda ishchi faqat ish o’rnini, balki mutaxassisliklarni ham tanlaydi.

5) Hayotni o’zini-o’zi anglash turi kasbiy faoliyatdan tashqari o’zini hordiq chiqarishi, majburiy ishsizlik va hokazolar. Mazmun jihatdan bunday fikr insonning hayot tarzini tanlashi haqida bormoqda. Ta’kidlash kerakki, ko’p kishilar hayot mazmunini kasbdan tashqaridagi faoliyatda ko’rishadi. Hayotni anglash nafaqat insonning u yoki bu ijtimoiy rollarini bajarishini balki hayot tarzini tanlashini ham nazarda tutadi. Bunday holda kasb ma’lum hayot tarzini yuritish vositasi bo’lishi mumkin.

6) Murakkabroq tur-shaxs o’zini anglashi. Bu tur hayotda o’zini anglashning oily ko’rinishi bo’lib, bunda inson vaziyat va o’z hayotining egasi bo’ladi. Bunday hollarda shaxs kasb va ijtimoiy rollardan ko’tarilib turadi. Inson ijtimoiy rolni egallabgina qolmay, balki yangi rollarni yaratadi va qaysidir ma’noda hattoki jitimoiy-psixologik mezon yaratish bilan shug’ullanadi va atrofdagi odamlar u haqida yaxshi muhandis, shifokor, pedagog deb gapirib qolmasdan, balki takrorlanmas shaxs deb ta’riflashadi. Aytish mumkinki, shaxs o’zini anglashi bu o’ziga xos “Men tarzini” topishidir doimo shuni rivojlantirib atrofdagi odamlar orasida tasdiqlashdan iboratdir.

7) Nihoyat eng murakkabtur-shaxsning madaniyatda o’zini anglashi. Bunda qaysidir ma’noda insonning ijtimoiy adabiyligi to’g’risida gapirishga imkon beruvchi “o’zini boshqa odamlarda davom etishi”ga yo’naltirilgan ichki faollik seziladi o’zini anglashning oily turi shaxsning keng ma’noda tushuniladigan madaniyat rivojlanishiga qo’shgan hissasida namoyon bo’ladi.

Psixologik pedagogik adabiyotlarda kasbiy o’zini belgilash jarayoniga ta’sir etadigan omillarning 4 guruhi ajratiladi. Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy bo’lib u taraqqiyotning turli bosqichlarida jamiyat hayotiga kirib kelayotgan yoshlarga o’zlaridagi mavjud kuch va imkoniyatlarini sarflashga turli sohalarni taklif etadi. Birinchi navbatda bu kasblar spektri ularning o’zgarishi va rivojlanish istiqbollari jamiyatning u yoki bu mutaxassislarga ehtiyojiga daxldordir.

Ijitimoiy-psixologik omillar ikkinchi guruhni tashkil etadi. Avvalo inson maktab ta’limigacha va keyin o’sib tarbiya olgan muhit, oila, do’stlar davrasi, maktab jamoasi va shu kabilar. Ijtimoiy muhit ta’sirida shaxsning qadriyatli yo’nalganligi kasblarning turli guruhlariga munosabati o’ziga xos ijtimoiy kutishlar ustanovka va sterotiplar shakllanadi. Uchinchi guruh asl psixologik omillardan iborat bo’lib, bu shaxsiy qiziqish va moyilliklar umumiy va spesifik qobiliyatlar aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi xotira xususiyatlari, diqqat motorikasining o’ziga xosligi va shu kabilar.

Nihoyat to’rtinchi guruh individual psixofiziologik xususiyatlarni o’z ichiga olib, ulardan ko’p o’rganilgani asab tizimining asosiy xossalarini faoliayt turlariga munosabatini ta’siri masalasidir. Ular psixik jarayonlar keshishining dinamik

tavsifnomalarini belgilaydi turli temperamentlar ko'rinishida ifodalanadi va ma'lum faoliyat turini bajarishiga ko'maklashishi, yo aksincha uni qiyinlashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismoilova Z. Xodjayev A. Kasbiy shakllanish jarayonida kasbiy sifatlarning roli. Psixologiyaning dolzarb moammolari.Pespublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. T. 2009.346-349 betlar
2. Karimova V. Psixologiya. T, 2002
3.Jo'raev Q. O'smirlarni o'zini anglash va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishning pedagogik omillari. Pedagogik fanlar nomzodi dissertatsiyasi. T.:2006.
4.Klimov E.I. Ishlab chiqarish asoslari: Kasb tanlash. 2-qism T.1992

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ КОГНИТИВНОГО ДИССОНАНСА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Мансурова Гульмира Рафаэловна
преподаватель кафедры «Психология»
Наманганского государственного университета

Аннотация: *Целью настоящей работы является теоретический анализ и систематизация социально-психологических детерминант когнитивного диссонанса в условиях профессионального образования, а также определение педагогических стратегий их преодоления.*

Ключевые слова: *когнитивный диссонанс, профессиональное образование, социально-психологические детерминанты, студенческая идентичность, профессиональная социализация.*

Annotatsiya: *Ushbu ishning maqsadi kasbiy ta'lim sharoitida kognitiv dissonansning ijtimoiy-psixologik determinantlarini nazariy tahlil qilish va tizimlashtirish, shuningdek, ularni bartaraf etishning pedagogik strategiyalarini aniqlashdan iborat.*

Kalit so'zlar: *kognitiv dissonans, kasbiy ta'lim, ijtimoiy-psixologik determinantlar, talaba o'ziga xosligi, kasbiy ijtimoiylashuv.*

Annotation: *The purpose of this work is to theoretically analyze and systematize the socio-psychological determinants of cognitive dissonance in vocational education, as well as to determine pedagogical strategies for overcoming them.*

Keywords: *cognitive dissonance, vocational education, socio-psychological determinants, student identity, professional socialization.*

Профессиональное образование представляет собой сложную социально-психологическую систему, в которой обучающийся одновременно подвергается воздействию множества противоречивых ценностных, нормативных и когнитивных установок. Именно в этом противоречивом пространстве зарождается когнитивный диссонанс — феномен, впервые систематически описанный Л. Фестингером как состояние психологического дискомфорта, возникающего при столкновении несовместимых когниций [1]. В контексте профессиональной подготовки данный феномен приобретает особую актуальность, поскольку затрагивает ключевые аспекты

формирования профессиональной идентичности, учебной мотивации и психологического благополучия студентов.

Когнитивный диссонанс в образовательном пространстве рассматривается в ряду фундаментальных проблем социальной психологии и педагогики. Согласно классической модели Л. Фестингера [3], диссонанс возникает тогда, когда человек одновременно держит два и более взаимно несовместимых убеждения, и чем выше субъективная значимость диссонирующих элементов, тем интенсивнее переживаемый дискомфорт. В образовательном контексте такими элементами выступают: сложившиеся у студента донаучные представления о профессии, транслируемые преподавателями академические стандарты, требования рынка труда и собственный практический опыт.

Э. Аронсон, развивая теорию Фестингера, показал, что диссонанс особенно остро переживается тогда, когда затрагивает самооценку личности [2]. Применительно к студентам это означает, что рассогласование между «Я-реальным» и «Я-профессиональным» является мощным источником диссонанса, способным как дестабилизировать учебную деятельность, так и служить движущей силой профессионального роста при надлежащем педагогическом сопровождении.

Исследования в области педагогической психологии подтверждают: студенты с высоким уровнем диссонанса демонстрируют сниженную академическую вовлечённость, повышенную тревожность и склонность к применению поверхностных стратегий обучения [3]. Вместе с тем ряд авторов рассматривает управляемый диссонанс как ресурс критического мышления и профессиональной рефлексии [4].

На основе анализа литературы можно выделить четыре группы социально-психологических детерминант когнитивного диссонанса в профессиональном образовании.

Несоответствие ожиданий и академической реальности. До поступления в вуз студенты формируют идеализированные представления о будущей профессии, опираясь на медиаобразы, семейные нарративы и стереотипы. Столкновение этих представлений с академическими требованиями порождает первичный диссонанс, который P. Merton описывал как «разрыв между социально одобряемыми целями и институционально доступными средствами» [5]. В узбекских вузах данная проблема усиливается стремительной трансформацией рынка труда в условиях цифровизации экономики.

Нормативный конфликт образовательной среды. Образовательная организация является полем пересечения различных ценностных систем: традиционных академических ценностей, требований работодателей, государственных стандартов и субкультурных норм студенческого сообщества. Личность, включённая в несколько референтных групп с противоречивыми нормами, испытывает хроническое состояние когнитивной напряжённости. Студенты, ориентированные одновременно на одобрение со

стороны преподавателей, сверстников и родителей, оказываются в ситуации структурного диссонанса.

Педагогическое взаимодействие и стиль преподавания. Авторитарный стиль педагогического общения, при котором знание преподносится как абсолютная истина, не допускающая критического осмысления, создаёт условия для подавления, а не разрешения диссонанса. Дж. Хэтти в масштабном мета-анализе исследований показал, что открытый диалог и обратная связь являются ключевыми факторами учебной эффективности [2]. Напротив, закрытая образовательная среда вынуждает студентов прибегать к редукционистским стратегиям — тривиализации диссонирующей информации или избеганию проблемных ситуаций.

Преодоление деструктивного когнитивного диссонанса требует системного педагогического вмешательства. Во-первых, введение в учебные программы рефлексивных практик — портфолио, дневников профессионального роста, кейс-методов — позволяет студентам осознавать и конструктивно переосмыслять возникающие противоречия [3]. Во-вторых, создание «зон ближайшего развития предполагает дозированное предъявление проблемных ситуаций, при которых диссонанс выступает когнитивным стимулом, а не источником дезорганизации. В-третьих, психологическое сопровождение образовательного процесса, включающее тренинги саморегуляции и групповые дискуссии, снижает тревожность, сопряжённую с диссонансом, и формирует толерантность к неопределённости.

Таким образом, когнитивный диссонанс в профессиональном образовании детерминирован взаимодействием индивидуально-психологических и социальных факторов: рассогласованием ожиданий, нормативным конфликтом институциональной среды, кризисом профессиональной идентичности и характером педагогического взаимодействия. Осознание данных детерминант создаёт методологическую основу для проектирования образовательных программ, в которых диссонанс трансформируется из барьера в ресурс профессионального становления личности. Перспективным направлением дальнейших исследований представляется эмпирическое изучение указанных детерминант в условиях узбекской системы высшего профессионального образования с учётом социокультурной специфики региона.

Список литературы

1. Бурыкина М.Ю., Гладченкова С.В. и др. Влияние интеграции цифровых инструментов в образовательный процесс на развитие креативности и самостоятельности студентов // Управление образованием: теория и практика. 2024. № 9-2.

2. Мансурова Г. Р. Особенности я–концепции личности проявляющиеся в интернет–коммуникации //Ученый XXI века. – 2022. – №. 5-1 (86). – С. 52-54.

3. Festinger L. A Theory of Cognitive Dissonance. — Stanford: Stanford University Press, 1957. — 291 p.

4. Marcia J.E. Development and validation of ego identity status // Journal of Personality and Social Psychology. — 1966. — Vol. 3, № 5. — P. 551

KASB TANLASHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA KASBIY MOTIVATSIYA

Ergasheva Diloramxon Xamidullayevna
NamDU Psixologiya kafedrasi
Namangan davlat universiteti, O‘zbekiston

Anotatsiya: *ushbu maqolada kasb tanlash jarayonida shaxsning individual psixologik xususiyatlari yani shaxsning kasbiy extiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyalaritni inobarga olish, kasb tanlashga ta’sir etuvchi omillar, kasbiy maslahat, kasbiy saralash, kasbiy moslashish va kasbiy motivatsiyalar haqida yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *individual psixologik xususiyatlar, kasbiy maslahat, kasbiy saralash, kasbiy moslashish,kasbiy motivatsiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются индивидуальные психологические особенности человека в процессе выбора профессии, то есть с учетом профессиональных потребностей, мотивации, квалификации, интересов и способностей человека, факторы, влияющие на выбор профессии, профориентационное консультирование, выбор профессии, адаптация к профессии и мотивация к карьере.*

Ключевые слова: *индивидуальные психологические характеристики, профориентационное консультирование, выбор профессии, адаптация к карьере, мотивация к карьере.*

Abstract: *This article discusses the individual psychological characteristics of a person in the process of choosing a profession, that is, taking into account the person's professional needs, motivation, qualifications, interests and abilities, factors influencing career choice, career counseling, career selection, career adaptation and career motivation.*

Keywords: *individual psychological characteristics, career counseling, career selection, career adaptation, career motivation.*

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsada, lekin uning ortida jismoniy individual shaxs turadi. Xolbuki shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarurligini ko’rish mumkin. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb tanlashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy extiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish zarur. Aks holda umumiy xususiyatli yo‘llanma, ko‘rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o‘ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto oddiy kasb tanlashda ham turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin uni qondirmasdan turib tub maqsadga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun o’quvchilarda mutaxassisliklarni tanlashda kasbiy maslahatlar berish orqali ularda kasbiy saralash jarayonlari olib boriladi. Kasbiy maslahat – kasbga yo‘llashning mohiyatini inson ongiga chuqurroq singdirish uchun, shaxsning ishtiyoqi va qobiliyatlariga mos kasb – hunar tanlashi uchun muhim ob’ektiv va sub’ektiv shart – sharoit yaratish jarayonidir. Kasb egallovchi ehtiyoji, pedagogning kasbiy mas’uliyatidan kelib chiqqan holda ilmiy – amaliy xususiyatli yo‘llanmalar berish jarayonidir

Kasbiy saralash – muayyan kasbni muvaffaqiyatli ravishda egallab, o‘z oldig aqo‘ygan fuqarolik (xususiy) burchini yuqori saviyada ado eta biladigan shaxslarni ajrata olishdan iborat jarayondir. Kasbiy bilimlar, shakllangan ma’lum ko‘nikmalar, malakalarga asoslangan holda tekshirish mezonlariga suyanib omilkorlik bilan

oqilona saralash o‘tkaziladi. Saralash jarayoni o‘tkazilgandan keyin kasbiy moslashish davri boshlanadi. Odatda kasbiy moslashish deganda, yosh kasb egalarining va mutaxassislarning kasbiy faoliyatga, uning shart – sharoitlarga, talablarga muvaffaqiyatli ravishda moslashish jarayoni tushuniladi. Kasb mohiyatiga kirishish, bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar bilan tanishish, ularni egallash uchun oqilona usullar tanlash, ulardan amaliyotda unumli foydalanish, shart – sharoitlarga odatlanish, mahorat qirralarini o‘zlashtirish kabi muhim qismlar moslashish tarkiblarini tashkil qiladi.

Kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar mohiyati quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1) Ta’lim – tarbiya tizimida kasbga yo‘llash faoliyatining (tadbir va choralarning) mazmuni va metodikalari majmuasi mukammal ravishda mujassamlashganligi.
2) O‘quvchilarni kasb tanlashga o‘rgatishda o‘qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi.
3) Sinf rahbarining ota – onalar bilan hamkorligi ongli kasb tanlash negizi ekanligi.
4) Kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki.
5) Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko‘rsatilishi.
6) Maktablarda ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yilishi.
7) Maxsus muassasalar faoliyati.
8) Kasbga oid ko‘rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi.
9) ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchrashuvlar o‘tkazilishi.
10) Kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniening ishtiroki.

Kasb tanlash motivatsiyasi ham bo’lajak mutaxassislar uchun juda muhumdir. O‘qish motivlari muammosini tadqiqot qilgan jahon psixologlari ularni ikki kategoriyaga yoki guruhga ajratib tekshirishni lozim topadilar. Birinchi kategoriyaga taalluqli motivlar o‘quv faoliyatining mazmuni, mohiyati hamda uning jarayonlari, sharoitlari bilan bevosita uyg‘unlashganligidir. Ikkinchi kategoriyaga kiruvchi motivlar tizimi o‘quvchilarning atrof – muhit bilan keng ko‘lamdagi o‘zaro munosatlariga ularning begona o‘zga kishilar bilan muomalaga kirishish extiyojiga ijtimoiy turmush voqeligiga nisbatan shaxsiy qarashiga bog‘liqdir. O‘quv faoliyati mazmuni bilan uzviy bog‘liq motivlar tizimini shartli ravishda ikki guruhga ajratib ularni ijobiy (musbat, pozitiv) va salbiy (manfiy, negativ) deb nomlash mumkin. Bunda atamalarni qo‘llashdan asosiy maqsad mahalliy an’ana, ijtimoiy tajriba ekstremal holat ta’sirida keskin ruhiy burilishlar yasashga qodir psixologik mexanizmlarni aniqlashdan iboratdir.

Odatda salbiy (negativ) motivatsiya shunday vaziyatda vujudga kelishi mumkinki, qachonki o‘quvchi bilimlarni o‘zlashtirmasligi oqibatida qanday ko‘ngilsiz holatlarga olib kelishini anglab etsa (jazolonish, ota – onalar tanbehi, sinfdoshlar e’tirozi, yomon baho olish, jamoa a’zolari orasida obro‘sizlanish va boshqalar) va ana shunga muvofiq sa’yi – harakatlarni amalga oshirsa. Salbiy motivatsiya ega bo‘lgan o‘quvchi kamroq jarayonida qatnashishda davom etadi. Bunday o‘qish motivatsiyasiga aloqador o‘quvchilar yuqori ko‘rsatkichlarga muvaffaqiyatli o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar, chunki ishtiyoqsiz

darsga qatnashish tuyg‘usi, bilim va o‘quv predmetiga nisbatan qiziqishnin mavjud emasligi bunga ma’noviy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Buning natijasida o‘zlashtirmovchi, bo‘sh o‘zlashtiruvchi, sust o‘quvchilarning safi tobora kengayib boradi, bu narsa kundalik odatga aylanib borsa, u stereotip darajasiga o‘sib ketishi mumkin. Mustaqil va muvaffaqiyatli o‘qish esa shaxsdan faol, qat’iy, ijodiy izlanishlarni taqozo qiladi va shunga o‘xshash talablarni o‘zlashtiruvchi oldiga qo‘yadi. SHaxsning mazkur holatlarga tayyor emasligi, undagi imkoniyatlarning cheklanganligi sababli o‘zlashtirmovchilar qatorini to‘ldirishga, bir sinfda yoki kursda ikki yil o‘qishga olib keladi, o‘sha qiyinchiliklar bilan o‘z sinfi, kursini tamomlaydi. Bunday toifadagi o‘quvchilar yoki talabalar o‘quv faoliyati motivatsiyasini qayta qurish evaziga ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

O‘quvchilar va talabalarda o‘qishga nisbatan salbiy motivatsiya birdaniga vujudga kelmaydi, balki uni keltirib chiqaruvchi bir necha xususiyatli omillar ta’sir etishi ehtimoli bor.

Ma’lumki, birinchi sinf, kollej, akademik litsey o‘quvchilari, oliy maktab talabalari o‘ta kuchli xohish, qiziqish yuksak ezgu nyatlar bilan sinfga va auditoriyaga kiradilar. Ularning barchasida tevarak – atrof va ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini o‘quvchi va talaba sifatida egallash ehtiyoji mavjud bo‘lib, yangi vaziyatda muayyan faoliyatni amalga oshirish ishtiyoqini keltirib chiqaradi. Yangicha vaziyat, o‘ziga xos talab, qoidaar, munosabatlar muhitidagi xoh birinchi sinf o‘quvchisi, xoh kollej tinglovchisi, xoh tlaba bo‘lishidan qat’i nazar ularning har qaysisi o‘qishga qiziqib, mas’uliyat sezib, vijdonan, ijobiy munosabatda bo‘ladi. Ammo, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ayrimlarida o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat asta – sekin so‘na boshlaydi. YAngi muhit, ilm dargohidagi majburiyatlar, pozitsiyalar, qonun – qoidalar o‘z ahamiyati, nisbiy yangilik xususiyatini yo‘qota boradi, his – tuyg‘ularga serob, quvnoqlar davrasiday tasavvur etilgan sinf g‘ayri tabiiy ko‘rinish kasb etadi.

O‘qishga nisbatan saboq oluvchilar munosabatini aniqlashga harakat qilgan o‘qituvchi qanday o‘zgarishlar yuz berayotganligini qayd qilish uchun ayrim mezonlarni ta’kidlay boshlaydi: a) xayolparishonlik vujudga keladi; b) vijdonan yondashish yo‘qoladi; v) boshqalardan ko‘chirib olishni odat qiladi; g) yolg‘on so‘zlash bahona qidirishga o‘rganadi; d) darslarni qoldiradigan bo‘lib qoladi; e) mustaqil topshiriqlarni bajarmay qo‘yadi va boshqalar. O‘qituvchi yoki o‘quvchilar jamoasi yuqorida taxmin qilingan o‘quvchilardagi salbiy o‘zgarishlarga nisbatan an’anaviy tartib – intizom metodlarni tadbiq qiladi: a) kundaliklarga ogohlantirish yozish; b) ota – onlarga bu to‘g‘risida ma’lumot berish; v) sinf rahbari, maktab rahbariyatiga xabar berish; g) darsdan keyin olib qolib qattiq uyaltirish; d) bilim dargohidan haydash masalasini qo‘yish va hokazo. Bunday aniq voqelik har qanday maktab, kollej, akademik litsey, oliy ta’lim tizimida yuz berib turadi. Bizningcha jazo choralarini ko‘rishga shoshilinchdan ko‘ra, mazkur “Muammoni keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?”, “Nega shunday hodisa yuz beradi?” dgan savollarga javob qidirish odilona yondashishdir. Jumladan, “O‘quvchilar va talabalar xulq atvoridagi o‘zgarishlarning qanday motivlari mavjud?”, “O‘qishga nisbatan o‘zgaruvchan munosabatni yuzaga keltiruvchi sabablar nimalardan iborat?”,

“Sinfda va undan tashqari u yoki bu xatti xarakatlarni amalga oshirishga undovchi omil qaysi?” va boshqalar.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan munosabat va xulq atvor motivlarini chuqur va mukammal o‘rganmasdan turib, pedagogik ta’sir o‘tkazish chora va tadbirlarini qo‘llash mumkin emas, chunki motivni turtki sifatida namoyon qiluvchi ichki tashqi ta’sirini aniqlamasdan, unga ilmiy yondashib bo‘lmaydi. Hozirgi zamon psixologiya fani bilimlarni egallashga nisbatan ichki extiyojga katta ahamiyat beradi va bu bilan shaxs xulq atvorini birmuncha boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ta’kidlaydi. Shuning bilan birga o‘quvchi (talaba) da barqaror bilishga qiziqishni shakllantirish muammosiga alohida e’tibor qilinadi. Darhaqiqat barqaror bilishga qiziqishlar qo‘zg‘atuvchi turtki (kuch) sifatida o‘quv motivlarini vujudga keltiradi, muvaffaqiyatni ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quvchi yoki talabada bilimlarning muayyan sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug‘ilishi ko‘p jihatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi.

Ana shu boisdan o‘qituvchi o‘z o‘quv faniga nisbatan o‘quvchi va talabalarda qiziqishni o‘stirish tarafdori bo‘lishi shart, chunki xuddi shuning negizida o‘quv materiali va o‘quv dasturini yuksak darajada o‘zlashtirish muammosi yotadi. SHuni alohida ta’kidlash lozimki, bilishga qiziqish motiv doirasida o‘sadi, o‘zaro ta’sir etadi, ular bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Ma’lumki, o‘quvchi bilim dargohida ilm olishdan tashqari tengdoshlari jamoasi ichiga kirib boradi va hayotida qatnashadi, shu boisdan unda o‘z o‘rtoqlari, o‘qituvchilarga nisbatan muayyan munosabat shakli vujudga keladi. Uning o‘quv faoliyatiga undovchi motivlari bilan bir qatorda boshqacha xususiyatli xulq atvor motivlari ham mavjuddir, jumladan ijtimoiy motiv jamoa bilan bo‘lish istagini anglatib, uning hayotida ishtirok etish xohishini o‘zida aks ettiradi.

O‘quvchi va talabalar o‘quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirish ehtiyoji bilan uzviy bog‘liq bo‘lib ularni baholash, quvvatlash, tengdoshlar jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o‘z aksini topadi. Mazkur motivlar o‘quv faoliyatining mohiyati bilan bog‘liq bo‘lmay, balki unga yondash yordamchi faktorlarni bildiradi. Ammo ushbu motivlar o‘quvchi va talaba o‘qishiga jiddiy turtki vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy motivlarni tahlil qilishda davom etsak, ular bevosita jamoa burchi, qarindoshlar va yaqin kishilar, oldidagi burch, o‘qishni umuminsoniy kishilar oldidagi burch, o‘qishni umuminsoniy kishilar oldidagi burch, o‘qishni umuminsoniy madaniyat, qadriyat, ma’naviyatni egallash tasavvur bilan bog‘liq vosita, ushbu vosita odamlarga foydali shaxs tariqasida namoyon bo‘lish, o‘z imkoniyatini ro‘yobga chiqarish. Ezgu niyatini ushatishga intilish funksiyasini bajarish bajarish mumkin. Turtki, undovchi usul vazifasini bajaruvchi qo‘zg‘atuvchi yosh xususiyatlari davriga qarab u yoki bu darajada aks etadi, ammo ular har doim ham anglashilgan shaklga ega emas, shuning uchun ifodalanish darajasi nursizdir. O‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida ijtimoiy motivlar anglashilgan ahamiyat kasb etuvchi bosqichga o‘sib o‘tadi. Bunday motivatsiyasini har tomonlama qo‘llab quvvatlash, rag‘batlantirish bilan birga va har bir davrning o‘zida bilishga qiziqishga aloqador boshqa o‘quv faoliyati motivlari shakllantirish lozim. Maktab o‘quvchilarining, kasb – hunar kollejlarining tegishli kasb – hunar tanlashlariga

quyidagi omillar ta’sir qilishini xulosa qilib berish mumkin: o‘qituvchi, kasb – hunarga yo‘naltiruvchi, sinf rahbari, mahalla, mexnat ta’limi o‘qituvchisi, fan o‘qituvchilari, bolalar etakchisi, to‘garak rahbarlari, kutubxona, xududiy mehnat bozori, psixolog, defektolog, shifokor, ota – onlar, qarindosh – urug‘lar, qo‘ni – qo‘shniolar, ideal qahramon obrazlari, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari, yaqin korxonalar va boshqalardir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gary Thomas. The Role of Theore in Seience Education,2013.
2. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2014..
3. Ivanov P.I, Zufarova M.E Umumiy psixologiya Darslik.-Toshkent, 2008.
4. Jalilova S.X, Xaydarov F.I, Halilova N.I. Kasbiy psixologiya (o‘quv qo‘llanma)-Toshkent 2010.

PSYCHOEMOTIONAL STATE OF ADOLESCENTS WITH INTERNET ADDICTION AND PROBLEMS OF CHOOSING A PROFESSIONAL FIELD

Otamuratov Rustam Uskanovich,
senior lecturer
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Uzbekistan

Abstract: *In the current age of technology, all people feel the need to have information and exchange information with other people more than ever. They have various opportunities for this. In particular, smartphones and mobile phones are gaining importance in this regard. Using mobile communication devices, they can communicate with each other, watch various media, and search for information about their interests. This work focuses on the psycho-emotional state and professional orientation of adolescents in the context of Internet addiction.*

Keywords: *digital world, digital society, transformation, cybercrime, depressive, profession, phobia.*

Annotatsiya: *Hozirgi texnologiyalar asrida barcha kishilar ma’lumotga ega bo‘lish o‘zga kishilar bilan axborot almashinishga har doimgidan ham ko‘proq ehtiyoj sezmoqda. Buning uchun turli imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, smartfon va mobil telefonlarning bu boradagi salmog‘I ortmoqda. Mobil aloqa vositalari yordamida bir-birlari bilan muloqot qilishi turli xildagi mediyalarni tomosha qilishi, o‘zining qizishiga oid axborotlarni izlashi ulardan foydalanishi mumkin. Ushbu ishimizda Internetga qaramlik sharoitida o’smirlarning psixoemotsional holati va kasbiy yo’nalishlari haqida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli dunyo, raqamli jamiyat, transformatsiya, kiberjinoyat, depressive, kasb, fobiya.*

Аннотация: *В современную эпоху технологий все люди как никогда остро ощущают потребность в информации и обмене информацией с другими. Для этого у них есть множество возможностей. В частности, смартфоны и мобильные телефоны приобретают все большее значение в этом отношении. Используя мобильные средства связи, они могут общаться друг с другом, смотреть различные медиа и искать информацию по интересам. Данная работа посвящена психоэмоциональному состоянию и профессиональной ориентации подростков в контексте интернет-зависимости.*

Ключевые слова: *цифровой мир, цифровое общество, трансформация, киберпреступность, депрессивный, профессиональный, фобия.*

Introduction. In the context of a rapidly developing digital society, research at the intersection of Cyberpsychology and Psychology is becoming increasingly important. The Internet has become an integral part of human life, especially for adolescents, where its influence is particularly strong.

Adolescence is one of the most complex stages of personality development, during which emotional stability, self-awareness, and career orientation are actively formed. However, excessive use of the Internet—often conceptualized as Internet addiction—can negatively affect these processes.

Previous studies indicate that Internet addiction is associated with increased anxiety, depressive symptoms, and social isolation [1]. These psychoemotional disturbances, in turn, can significantly influence adolescents' ability to make informed career choices.

The aim of this article is to analyze the relationship between Internet addiction, psychoemotional state, and career choice among adolescents.

Main Part. Internet Addiction and Its Psychoemotional Impact.

Internet addiction is defined as excessive and uncontrolled use of the Internet, often classified as a behavioral addiction [2].

Research shows that adolescents with Internet addiction often experience:

- high levels of anxiety
- emotional instability
- reduced social interaction
- depressive symptoms

These effects are frequently explained by compensatory mechanisms, where unmet real-life needs are fulfilled in virtual environments [3].


Psychoemotional Development in Adolescence. Adolescence is characterized by active identity formation. During this stage, individuals construct their self-concept and define future goals. This process is often accompanied by emotional instability [4].

Internet addiction may disrupt this development by:

- lowering self-esteem
- creating uncertainty in life goals
- distorting social role perception

As a result, adolescents may struggle with forming a clear professional identity.

Career Choice and Psychological Factors. Career choice is a complex process influenced by internal psychological factors such as:



1-image. Career Choice and Psychological Factors

In adolescents with Internet addiction, these factors may be underdeveloped due to decreased attention span and weakened long-term planning ability [5].

Additionally, exposure to unrealistic ideals on social media can distort perceptions of professions.

Internet Environment and Career Self-Determination. The digital environment offers numerous opportunities:

- online education
- access to career information
- self-exploration tools

However, excessive use may reduce their effectiveness. Internet overuse consumes time and limits real-life engagement [6].

Psychoemotional State and Decision-Making. Decision-making processes in adolescence are not fully developed and are highly influenced by emotions. Internet addiction further complicates this by reducing cognitive control and increasing impulsivity.

Studies show that addicted individuals tend to:

- make quick but poorly analyzed decisions
- struggle with long-term planning
- misjudge risks

These issues are critical in career decision-making [7].

Social Influence of the Internet on Career Choice.

Social media exerts strong influence through:

- bloggers
- influencers
- trends

Adolescents may prioritize external influence over personal interests. This can be explained by Social Comparison Theory, which suggests individuals evaluate themselves by comparing with others.


Time Resource Disruption. Career planning requires time and attention. Internet addiction disrupts these resources, leading to:

- poor time management
- reduced academic engagement
- lack of career exploration

As a result, career decisions become delayed or superficial.

Psychological Defense Mechanisms.

Internet addiction may function as a defense mechanism:



2-image. Internet addiction may function as a defense mechanism

This leads to postponement of important decisions such as career choice [8].

Conclusion. The analysis leads to the following conclusions. Internet addiction negatively affects adolescents' psychoemotional state and complicates career choice. Emotional instability reduces decision-making quality and future planning ability. Social media influence creates unrealistic professional ideals. Internet addiction reduces time and cognitive resources needed for career development.

References

1. Kimberly S. Young (1998). Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder. *CyberPsychology & Behavior,* 1(3), 237–244.
2. Mark D. Griffiths (2005). A 'components' model of addiction within a biopsychosocial framework. *Journal of Substance Use*, 10(4), 191–197.
3. Uskanovich, O. R. (2022). Psixologiyada xavotirlanishning ilmiy-psixologik xususiyatlari. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.
4. OTAMURATOV, R., & OTAMURATOVA, S. (2024). O'SMIRLARDA TA'LIM JARAYONI BILAN BOG 'LIQ XAVOTIRLANISHNING O'ZIGA XOSLIGI. *News of the NUUz*, *1*(1.5. 2), 164-167.
5. Otamuratov, R. U., & Otamuratova, S. A. (2021). Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. In *МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИХДТЛАРИ Республика илмий-амалий конференция материаллари туплами* (Vol. 494).
6. Отамуратов, Р., Отамуратова, С., & Розикулова, Д. (2023). Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(1), 423-428.
7. Отамуратов, Р. У. (2021). Ўқувчиларда касбий мотивациялар шаклланишининг психологик омиллари. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғундиги*, *282*.
8. Sigmund Freud (1936). *The Ego and the Mechanisms of Defence*. London: Hogarth Press.

AXLOQIY DILEMMALAR ORQALI TALABA QIZLARDA KASBIY ONG VA QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Vaxabova Nasiba Abdulxamidovna,
katta o'qituvchi (PhD)
Namangan davlat universiteti,
psixologiya kafedrasi
Olimova Dilshoda Ravshanjon qizi
psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqolada zamonaviy ijtimoiy sharoitda talaba qizlar duch kelayotgan an'anaviy qadriyatlar va global madaniyat, oila talablari hamda shaxsiy orzular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar axloqiy dilemma sifatida tahlil qilinadi. Xususan, mas'uliyatlilik, sabr-toqat, oila qadriyatlariga sodiqlik kabi milliy fazilatlarning shaxs kamoloti va kasbiy rivojlanishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, "oilani tanlash yoki karerani ustuvor qo'yish", "an'anaviy kasb yoki*

zamonaviy IT yo‘nalishini tanlash” kabi dilemmalarning talaba qizlar qaroriga ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *milliy qadriyatlar, axloqiy dilemmalar, talaba qizlar, ma’naviy tarbiya, milliy fazilatlar, axloqiy ong, pedagogik yondashuv, zamonaviy va an’anaviy qadriyatlar uyg’unligi, Kasbiy ongni rivojlantirish, kasbiy yo‘naltirish, shaxs kamoloti.*

Abstract: *This article analyzes the contradictions faced by female students in modern social conditions between traditional values and global culture, family expectations, and personal aspirations as ethical dilemmas. In particular, the role of national virtues such as responsibility, patience, and devotion to family values in personal development and professional growth is highlighted. Furthermore, the impact of dilemmas such as “choosing between family and career” and “selecting a traditional profession or a modern IT field” on the decision-making of female students is examined.*

Keywords: *national values, ethical dilemmas, female students, moral education, national virtues, ethical awareness, pedagogical approach, harmony of modern and traditional values, development of professional awareness, career guidance, personal development.*

Аннотация: *В данной статье анализируются противоречия, с которыми сталкиваются студентки в современных социальных условиях, возникающие между традиционными ценностями и глобальной культурой, требованиями семьи и личными устремлениями, рассматриваемые как этические дилеммы. В частности, освещается роль национальных качеств, таких как ответственность, терпение и преданность семейным ценностям, в личностном становлении и профессиональном развитии. Кроме того, рассматривается влияние таких дилемм, как «выбор между семьёй и карьерой» и «выбор между традиционной профессией и современной сферой IT», на процесс принятия решений студентками.*

Ключевые слова: *национальные ценности, этические дилеммы, студентки, нравственное воспитание, национальные качества, нравственное сознание, педагогический подход, гармония современных и традиционных ценностей, развитие профессионального сознания, профессиональная ориентация, личностное развитие.*

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi, eng avvalo, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, talaba qizlarda milliy qadriyatlarga hurmat, axloqiy yetuklik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbek ayollariga xos bo‘lgan iffat, hayo, mehr-oqibat, sabr-toqat, vafodorlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar asrlar davomida xalqimizning ma’naviy merosi sifatida shakllanib, jamiyatning ma’naviy tayanchi bo‘lib kelgan. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, milliy qadriyatlar va ma’naviyatni asrash hamda yoshlar ongiga singdirish mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivoji va zamonaviy madaniy ta’sirlar talaba qizlar hayotida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda murakkab axloqiy tanlovlarni ham yuzaga keltirmoqda. An’anaviy milliy qadriyatlar va zamonaviy qarashlar, oila talablari va shaxsiy intilishlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar axloqiy dilemmalar sifatida namoyon bo‘lib, bu holat qizlarning axloqiy qarorlari, ruhiy holati va milliy o’zligini anglashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Prezidentimiz yoshlar tarbiyasida ongli tanlov, mustaqil fikrlash va mas’uliyatli qaror qabul qilish muhimligini alohida qayd etadi.

Shu bois, axloqiy dilemmalarni ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik vosita sifatida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Dilemmalar orqali talaba qizlarda

mustaqil fikrlash, vaziyatni tahlil qilish, axloqiy tanlov qilish va qarorlar uchun javobgarlikni his etish ko'nikmalari rivojlanadi. Mazkur maqolada o'zbek ayollariga xos milliy fazilatlarni talaba qizlar ongiga singdirishda axloqiy dilemmalarning o'rni va tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi.

O'zbek ayollari asrlar davomida milliy qadriyatlar va an'analarni asrab-avaylab, ularni avloddan avlodga yetkazib kelgan. Ularning hayot tarzida mujassam bo'lgan axloqiy va ma'naviy fazilatlar jamiyatning ma'naviy tayanchi hamda tarbiyaviy ustuni hisoblanadi. Ushbu fazilatlarni talaba qizlar ongiga singdirish kelajak avlodni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq zamonaviy ijtimoiy sharoitda mazkur jarayon turli axloqiy dilemmalar bilan to'qnash kelmoqda. Zamonaviy raqamli jamiyatda kasblarning tezkor transformatsiyasi yoshlarning kasb tanlash jarayonini murakkablashtirmoqda. Texnologik taraqqiyot natijasida yangi kasblar paydo bo'lib, mavjud kasblarning mazmuni tubdan o'zgarib bormoqda (). Shu sababli bugungi kunda yoshlarning, ayniqsa talaba qizlarning kasbiy ongini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda 700 mingga yaqin yoshlar ta'lim muassasalarini bitirgan bo'lsa-da, ularning atigi 360 ming nafari ish bilan ta'minlangan (1). Bu esa kasb tanlash jarayonida ongli yondashuv va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Axloqiy dilemmalar va ularning kasbiy qarorlarga ta'siri

Axloqiy dilemma — bu shaxs bir vaqtning o'zida bir-biriga zid bo'lgan qadriyatlar va tanlovlar o'rtasida qaror qabul qilishga majbur bo'lgan holatdir. Zamonaviy talaba qizlar ko'pincha quyidagi dilemmalarga duch keladilar:

- oila va karera o'rtasidagi tanlov;
- an'anaviy kasb va zamonaviy IT yo'nalishlari o'rtasidagi qaror;
- ijtimoiy stereotiplar va shaxsiy qiziqishlar o'rtasidagi ziddiyat.

Globalizatsiya sharoitida yoshlar ongida milliy va global qadriyatlar o'rtasida muvozanat izlash jarayoni kuchayib borayotgani ilmiy manbalarda ham ta'kidlangan (2).

O'zbek ayollariga xos milliy fazilatlar — mas'uliyatlilik, sabr-toqat, oila qadriyatlariga sodiqlik — shaxsning nafaqat ijtimoiy, balki kasbiy rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat professional bilimlar, balki "yumshoq ko'nikmalar" (soft skills) ham muhim hisoblanadi (3).

Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar: mas'uliyat hissini kuchaytiradi; uzoq muddatli maqsadlarga sodiqlikni shakllantiradi; kasbiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Kasbiy ongni shakllantirishda axloqiy dilemmalarning roli

Kasbiy ong — bu shaxsning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va mehnat bozoridagi talablar asosida ongli kasb tanlash qobiliyatidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar ko'pincha kasblar haqida yetarli ma'lumotga ega emasligi, ijtimoiy bosim va psixologik noaniqlik sabab noto'g'ri tanlov qiladilar ().

Axloqiy dilemmalardan foydalanish esa:

- tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;

- mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatadi;
- shaxsiy va kasbiy qadriyatlarni aniqlashtiradi.

Masalan, “oilani tanlash yoki karerani?” kabi savollar orqali talabalar o‘z ustuvorliklarini aniqlab boradilar.

Talaba qizlarda kasbiy ong va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- Axloqiy dilemmalar asosida muhokama va debatlar tashkil etish;
- Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan кейс-stadilarni qo‘llash;
- Psixologik diagnostika va kasbiy testlardan foydalanish;
- Mentorlik va ayol yetakchilar tajribasini o‘rganish;
- Milliy qadriyatlarni zamonaviy kasbiy talablar bilan integratsiya qilish.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy dilemmalar talaba qizlarda kasbiy ongni shakllantirish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozoridagi o‘zgarishlar sharoitida yoshlarning ongli kasb tanlashi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois, ta’lim tizimida axloqiy dilemmalarga asoslangan innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Qodirova, N.Vaxabova, D.Rahimova Oila pedagogikasi. //O’quv qo’llanma//Namangan-2023// b-68-69.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. To‘xtayeva U.R. Zamonaviy kasblar va mehnat bozori. – 2025// b-111-112
4. Mirzakarimova M. Industriya sharoitida kasblar transformatsiyasi. – 2025. b-92-98.
5. Mirzaxamdamova O. Globalizatsiya sharoitida yoshlarning milliy o‘zlikni anglash muammolari. – 2025.
6. Maxsudova M.A. Oila psixologiyasi. O’quv qo’llanma. N. “SUNRISE-PRO” nashriyoti. 2025. 235-s

STRESS VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI, SHAXSDAGI NEVROTIK BUZULISHLAR

Toshpo‘latov Ibrohim Ikromjonovich,
Katta o‘qituvchi,
Psixologiya kafedrasi
Namangan davlat universiteti, O‘zbekiston
Soliyeva Xusnidabonu Xusanboy qizi,
Davolash ishi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi,
Tibbiyot fakulteti,
Namangan davlat universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya: *ushbu maqolada hissiyotlarning psixologik tabiati, stressning kelib chiqish sabablari, uning turlari va inson ruhiy salomatligiga ta’siri yoritilgan. Stressni bartaraf etishning psixologik va fiziologik usullari, hayot tarzini o‘zgartirish orqali emotsional barqarorlikni oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, shaxsdagi nevrotik buzilishlarning asosiy turlari -*

tashvish nevrozi, obsessiv-kompulsiv nevroz, fobik, depressiv va isterik nevrozlar haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar beriladi. Maqola ruhiy salomatlikni mustahkamlash, hissiy o'zini boshqarish va psixologik profilaktika bo'yicha amaliy takliflarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *hissiyot, stress, eustress, distress, emotsional boshqaruv, nevroz, tashvish, depressiya, psixologik salomatlik, profilaktika.*

Аннотация: *в данной статье рассматривается психологическая природа эмоций, причины стресса, его виды и влияние на психическое здоровье человека. Приводятся психологические и физиологические методы снятия стресса, способы повышения эмоциональной стабильности посредством изменения образа жизни. Также представлена научно обоснованная информация об основных типах невротических расстройств у человека – тревожном неврозе, обсессивно-компульсивном неврозе, фобическом, депрессивном и истерическом неврозах. Статья также содержит практические рекомендации по укреплению психического здоровья, эмоциональному самоконтролю и психологической профилактике.*

Ключевые слова: *эмоция, стресс, эустресс, дистресс, управление эмоциями, невроз, тревога, депрессия, психологическое здоровье, профилактика.*

Abstract: *this article examines the psychological nature of emotions, the causes and types of stress, and its impact on mental health. It presents psychological and physiological methods for stress relief and ways to improve emotional stability through lifestyle changes. It also provides scientifically based information on the main types of neurotic disorders in humans: anxiety neurosis, obsessive-compulsive disorder, phobic, depressive, and hysterical neuroses. The article also contains practical recommendations for improving mental health, emotional self-control, and psychological prevention.*

Keywords: *emotion, stress, eustress, distress, emotion management, neurosis, anxiety, depression, psychological health, prevention.*

Inson psixik hayoti murakkab, ko‘p qirrali va dinamik jarayonlar majmuasidan iborat bo‘lib, unda hissiyotlar, kayfiyat, affektlar, stress holatlari va ruhiy barqarorlik kabi omillar o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Hissiyotlar insonning ichki kechinmalarini, ehtiyojlari va motivlarini aks ettiruvchi asosiy psixik jarayonlardan biri sifatida shaxsning xulq-atvori, qaror qabul qilishi, ijtimoiy munosabatlari hamda umumiy hayot sifati uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ular insonning voqea-hodisalarga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi, shu bilan birga, tashqi olamni idrok etish va unga moslashish jarayonida boshqaruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy hayotning o‘zgaruvchan ritmi, texnologik taraqqiyot, axborot oqimining keskin ko‘payishi, ijtimoiy bosimlar va shaxslararo munosabatlardagi murakkabliklar stress holatlarining kundalik hayotda tobora ko‘proq uchrashiga sabab bo‘lmoqda. Stress - inson organizmining tashqi yoki ichki bosimlarga fiziologik va psixologik javobi sifatida ta’riflanib, uning qisqa yoki uzoq muddatli davom etishi shaxsning ruhiy salomatligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Agar stress vaqtida boshqarilmasa, u xronik tus olib, shaxsda nevrotik buzilishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Nevrotik buzilishlar, odatda, funksional xarakterga ega bo‘lib, shaxs o‘z holatining muammoliligini anglasa-da, uni mustaqil ravishda yengish qiyin kechadi.

Psixologiya va psixiatriya sohalarida olib borilayotgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar hissiyotlarning neyrobiologik asoslarini, stressning psixofiziologik mexanizmlarini, nevrotik buzilishlarning shakllanish omillarini chuqur o‘rganishga

yo‘naltirilgan. Bunda markaziy asab tizimining, ayniqsa, limbik tizimning, miya po‘stlog‘i faoliyatining, gormonal o‘zgarishlarning roli alohida urg‘u bilan ta’kidlanadi. Shu bilan birga, psixososial omillar - oilaviy muhit, tarbiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, o‘qish va ish sharoitlari ham hissiy barqarorlikning shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy jamiyatda ruhiy salomatlik masalalari avvalgidan ko‘ra ko‘proq e’tiborni talab qilmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, turli yosh toifalaridagi insonlarda stress darajasi yil sayin oshib bormoqda. Ayniqsa, o‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadigan yoshlar o‘rtasida emotsional zo‘riqishlar, xavotir, tushkunlik holatlari tez-tez uchramoqda. Shuning uchun hissiyotlarni boshqarish, stressni yengish, nevrotik buzilishlarning oldini olishga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada hissiyot fenomenining psixologik mohiyati, stressning kelib chiqish sabablari va turlari, uni bartaraf etishning samarali mexanizmlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, shaxsdagi asosiy nevrotik buzilishlar, ularning klinik belgilari, shakllanish omillari va profilaktik choralari haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlar taqdim etiladi. Mazkur yondashuv nafaqat nazariy bilim beradi, balki amaliy jihatdan ham psixolog, pedagog, talaba yoki keng jamoatchilik faoliyatida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan yo‘riqnomalar sifatida xizmat qiladi.

Hissiyotlar inson psixikasining eng muhim tarkibiy qismidir va ular shaxsning ichki kechinmalari, ehtiyojlari, motivlari hamda voqea-hodisalarga bo‘lgan sub’ektiv munosabatini ifodalaydi. Inson hayotidagi har qanday faoliyat, qaror qabul qilish jarayoni, ijtimoiy munosabatlar hissiyotlar bilan chambarchas bog‘liq. Ular nafaqat ruhiy holatni aks ettiradi, balki organizmning fiziologik jarayonlariga, xulq-atvoriga va moslashish strategiyalariga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Hissiyotlar ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin, ammo har ikkisi ham shaxsning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ijobiy kechinmalar faoliyatni rag‘batlantirsa, salbiy hissiyotlar esa insonni ehtiyot bo‘lishga undaydi, tahdidni sezishga yordam beradi. Insonning o‘z hissiyotlarini anglash, nazorat qilish va boshqarish qobiliyati emotsional intellekt deb atalib, u shaxsning psixologik barqarorligi va ijtimoiy muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy hayotning tezkor sur’ati, texnologiyalar ta’sirining kuchayishi, axborot oqimining haddan ziyod ko‘pligi, kundalik vazifalar bosimi va ijtimoiy munosabatlardagi murakkabliklar inson organizmida stress holatlarining ko‘payishiga olib kelmoqda. Stress - bu organizmning ichki muvozanatini buzadigan yoki unga xavf tug‘diradigan omillarga nisbatan ko‘rsatadigan fiziologik va psixologik javobidir.

Organizm stressga uch bosqich orqali javob qaytaradi:

- tashvish bosqichida organizm xavfni sezib, o‘z resurslarini faollashtira boshlaydi;

- moslashuv bosqichida organizm ta’sirga qarshi turish uchun barcha kuchlarini ishga soladi;

- charchash bosqichida esa stress uzoq davom etgan taqdirda organizmning resurslari tugaydi va turli ruhiy hamda jismoniy buzilishlar yuzaga keladi.

Stress ijobiy va salbiy turlarga bo‘linadi. Eustress shaxsni faollashtiruvchi, rag‘batlantiruvchi kuch bo‘lsa, distress - ruhiy va jismoniy zarar yetkazuvchi holat bo‘lib, u insonning umumiy hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi.

Stressning kelib chiqishiga bir qator omillar ta’sir qiladi. Psixologik omillarga xavotir, qo‘rquv, o‘ziga ishonchsizlik, noaniqlikdan cho‘chish kiradi. Ijtimoiy omillar esa oila ichidagi nizolar, ish yoki o‘qish jarayonidagi bosimlar, jamoat fikrining bosimi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’sirini qamrab oladi. Fiziologik omillar uyqusizlik, ovqatlanish muammolari, jismoniy charchoq kabi holatlar bilan belgilanadi. Shaxsning individual xususiyatlari ham stressga chidamlilik darajasini belgilovchi muhim omillardandir. Temperament, xarakter, hayot tajribasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi stressga qarshi kurashish qobiliyatini belgilaydi.

Stress organizmga keng ko‘lamda ta’sir ko‘rsatadi. Fiziologik jihatdan yurak urishining tezlashuvi, nafasning o‘zgarishi, qon bosimining ko‘tarilishi, kortizol gormonining ortishi kabi o‘zgarishlar kuzatiladi. Uzoq davom etgan stress immunitetning pasayishiga, yurak kasalliklari xavfining ortishiga ham olib kelishi mumkin. Psixologik ta’sirlar xavotir, qo‘rquv, tushkunlik, diqqatning susayishi, motivatsiyaning kamayishi kabi holatlar bilan namoyon bo‘ladi. Stress xulqqa ham salbiy ta’sir qilib, tajovuzkorlik, ijtimoiy chekinish, zararli odatlar ortishiga sabab bo‘ladi.

Stressni bartaraf etish turli psixologik, fiziologik va ijtimoiy usullar orqali amalga oshiriladi. Psixologik usullar orasida kognitiv-behavioral terapiya salbiy fikrlarni aniqlash va ularni ijobiy fikrlash bilan almashtirishga yordam beradi. Meditatsiya, mindfulness va chuqur nafas olish mashqlari esa ongni tinchlantirib, stressni pasaytiradi. Shaxsning o‘z hissiyotlarini tushunish, nazorat qilish va ularni to‘g‘ri ifoda qilish ko‘nikmalari stressni kamaytiruvchi omillardandir. Fiziologik usullar - jismoniy mashqlar, massaj, mushaklarni bo‘shashtirish, sog‘lom uyqu, to‘g‘ri ovqatlanish stressning ta’sirini sezilarli kamaytiradi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, do‘stlar va oila bilan sog‘lom munosabatlarni saqlash ham stressni yengishda katta ahamiyatga ega.

Agar stress vaqtida boshqarilmasa, u turli nevrotik buzilishlarga olib kelishi mumkin. Nevrotik buzilishlar funksional ruhiy buzilishlar bo‘lib, ular shaxsning kundalik hayotiga, o‘zini tutishiga, emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng ko‘p uchraydigan nevrotik buzilishlardan biri tashvish nevrozidir. Bu holatda shaxsda sababsiz xavotir, ichki bezovtalik, tez charchash, uyqusizlik, qo‘rquv hissining kuchayishi kuzatiladi. Obsessiv-kompulsiv nevrozda esa tiqilinch fikrlar va ulardan xalos bo‘lish uchun takroriy majburiy harakatlar paydo bo‘ladi. Fobik nevrozda muayyan vaziyat yoki obyektga nisbatan haddan tashqari qo‘rquv kuchli bo‘ladi. Depressiv nevrozda shaxsda tushkun kayfiyat, energiya kamligi, kelajakka pessimist qarash paydo bo‘ladi. Isterik nevrozda esa hissiy beqarorlik, dramatik xatti-harakatlar, psixosomatik og‘riqlar kuzatiladi.

Nevrotik buzilishlarning kelib chiqishiga bolalik davridagi psixologik jarohatlar, oila muhitidagi nizolar, uzoq davom etuvchi stress, shaxsning temperamenti, gormonal o‘zgarishlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi kabi omillar sabab bo‘ladi. Bunday buzilishlarning oldini olish uchun psixogigiena

qoidalariga rioya qilish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, muntazam jismoniy faollik, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, hissiy barqarorlikni oshirish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va psixologik yordamga o‘z vaqtida murojaat qilish muhimdir.

Inson psixik hayoti murakkab va ko‘p omilli tizim bo‘lib, unda hissiyotlar, stress holatlari va nevrotik buzilishlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Hissiyotlar shaxsning ichki kechinmalarini ifodalaydigan fundamental psixik jarayon sifatida nafaqat xulq-atvorni boshqaradi, balki insonning ijtimoiy muloqoti, qaror qabul qilishi va shaxslararo munosabatlarida muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun hissiy barqarorlikni saqlash, hissiyotlarni boshqarish va ularni mos ravishda ifoda etish shaxsning ruhiy salomatligi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy hayotning tez sur’atlari, axborot yuklamasining ortishi, ijtimoiy bosim, o‘qish va mehnat jarayonlaridagi raqobat stress darajasining oshishiga olib kelmoqda. Stressning boshqarilmagan shakli esa shaxsning jismoniy va ruhiy holatiga salbiy ta’sir etib, xronik charchoq, xavotir, tushkunlik, uyqusizlik kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, uzoq davom etuvchi stress shaxsda nevrotik buzilishlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Nevrotik buzilishlar esa insonning kundalik faoliyatiga, o‘qish va mehnatdagi samaradorligiga, ijtimoiy munosabatlariga sezilarli darajada putur yetkazadi.

Ushbu tadqiqot doirasida hissiyotlarning psixologik mohiyati, stressning kelib chiqish sabablari va turlari, uni yengish va boshqarish mexanizmlari, shuningdek, nevrotik buzilishlarning kelib chiqish omillari atroflicha tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, hissiyotlarni ongli boshqarish ko‘nikmalari, sog‘lom turmush tarziga amal qilish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi, shaxsning o‘zini anglash darajasi va psixologik madaniyati stressni kamaytirishda hamda nevrotik holatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, profilaktika va psixoprofilaktika choralari - psixologik treninglar, relaksatsiya mashqlari, muvozanatli uyqu rejimi, muntazam jismoniy faoliyat, ijobiy fikrlash, stressga nisbatan moslashuvchan yondashuv kabi usullar ruhiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Nevrotik buzilishlarning erta aniqlanishi va o‘z vaqtida psixolog yoki psixoterapevt bilan ishlash esa ularning chuqurlashib ketishining oldini oladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, shaxsning hissiy farovonligi - uning umumiy hayot sifati, ijtimoiy moslashuvi va ruhiy sog‘ligining ajralmas qismidir. Hissiyotlarni boshqarish, stressni kamaytirish va nevrotik buzilishlarning oldini olish bo‘yicha keng jamoatchilikda psixologik savodxonlikni oshirish jamiyatning ruhiy salomatligini ta’minlashda ham muhim omil hisoblanadi. Shu sababli mazkur mavzuni chuqur o‘rganish, uni ilmiy va amaliy jihatdan rivojlantirish, ta’lim tizimi hamda sog‘liqni saqlash sohasida keng qo‘llash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамова, Г. С. Общая психология. – Москва: Академический проект, 2019.
2. Немов, Р. С. Психология. В 3-х томах. – Москва: Владос, 2020.
3. Карвасарский, Б. Д. Клиническая психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2018.

O‘SMIRLIK DAVRIDA KASBIY TA’LIMDA O‘ZLIKNI ANGLASH SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Turg‘unpo‘latova Musharraf Xusniddin qizi
NamDU doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur mavzuda o‘smirlik davrida kasbiy ta’lim jarayonida o‘zlikni anglash shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar, xususan ijtimoiy tarmoqlarning roli tahlil qilinadi. Raqamli muhit yoshlarning kasbiy qiziqishlarini shakllantirish, axborot olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda virtual rol modellar orqali motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy taqqoslash va noto‘g‘ri kontent ta’siri kabi salbiy jihatlar ham o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, kasbiy ta’lim, o‘zlikni anglash, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli muhit, motivatsiya, kasbiy yo‘nalish, ijtimoiy taqqoslash, virtual rol model.*

Аннотация: *В данной теме анализируются социально-психологические факторы формирования профессионального самоопределения в подростковом возрасте, особенно влияние социальных сетей. Цифровая среда расширяет возможности получения информации, способствует развитию профессиональных интересов и мотивации через виртуальные ролевые модели. Также рассматриваются негативные аспекты, такие как социальное сравнение и влияние недостоверного контента.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, профессиональное образование, самоопределение, социальные сети, цифровая среда, мотивация, профессиональная ориентация, социальное сравнение, виртуальная модель.*

Abstract: *This topic analyzes the socio-psychological factors influencing the formation of professional self-identity during adolescence, with a particular focus on the role of social media. The digital environment expands access to information, supports the development of career interests, and enhances motivation through virtual role models. At the same time, negative aspects such as social comparison and exposure to unreliable content are also considered.*

Keywords: *adolescence, vocational education, self-identity, social media, digital environment, motivation, career orientation, social comparison, virtual role model.*

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining eng muhim va murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda o‘zlikni anglash (identiklik) jarayoni jadal shakllanadi. Kasbiy ta’lim sharoitida esa ushbu jarayon yanada murakkablashadi, chunki o‘smir o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va kelajakdagi kasbiy yo‘nalishini aniqlash bosqichida bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, o‘zlikni anglashning shakllanishiga bir qator ijtimoiy-psixologik omillar (determinantlar) ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, oilaviy muhit muhim determinant sifatida ajralib turadi. Ota-onalarning kasbga bo‘lgan munosabati, ularning ta’limga bergan qadriyati hamda farzandga nisbatan qo‘llab-quvvatlovchi yoki bosim o‘tkazuvchi yondashuvi o‘smirning kasbiy identifikatsiyasiga bevosita ta’sir qiladi. Qo‘llab-quvvatlovchi muhit o‘smirda mustaqil qaror qabul qilish, o‘z qobiliyatiga ishonch va kasbiy motivatsiyani kuchaytiradi. Ikkinchi muhim omil — ta’lim muassasasi va pedagogik muhitdir. O‘qituvchilarning kasbiy yo‘naltirish faoliyati, individual yondashuvi hamda innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanishi o‘quvchining o‘z qobiliyatlarini real baholashiga yordam beradi. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha ishlari va kasbga yo‘naltiruvchi treninglar o‘smirda kasbiy o‘zlikni anglashni tezlashtiradi. Uchinchi determinant — tengdoshlar (peer group) ta’siridir. O‘smirlik davrida ijtimoiy guruh fikri juda kuchli ahamiyatga ega bo‘lib, do‘stlar orasidagi kasbiy orzular, muvaffaqiyat modellari va

ijtimoiy maqomga intilish shaxsning kasbiy qarorlariga ta’sir qiladi. Ba’zan bu ijobiy motivatsiya bersa, ba’zan noto‘g‘ri yo‘nalishga ham olib kelishi mumkin.
To‘rtinchi omil — shaxsiy psixologik xususiyatlar, ya’ni qiziqishlar, qobiliyatlar, temperament va motivatsiya tizimidir. Holland kasbiy yo‘nalish nazariyasiga ko‘ra, shaxsning qiziqish tiplari uning kasb tanlashida asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, Gardnerning ko‘p qirrali intellekt nazariyasi har bir o‘smirda turli intellekt turlari mavjudligini ko‘rsatadi va bu kasbiy yo‘nalish tanlashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Beshinchi determinant — ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar hisoblanadi. Jamiyatda muayyan kasblarning obro‘si, iqtisodiy daromadga bog‘liq stereotiplar ham o‘smirning kasbiy qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, IT, tibbiyot yoki iqtisodiy sohalarning nufuzli hisoblanishi yoshlarning shu yo‘nalishlarga ko‘proq intilishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, raqamli axborot muhitining kengayishi ham muhim omil sifatida qaraladi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn ta’lim platformalari o‘smirlarga turli kasblar haqida keng ma’lumot olish, real tajribalarni kuzatish va o‘z qiziqishlarini sinab ko‘rish imkonini beradi. O‘smirlik davrida shaxsning kasbiy o‘zlikni anglash jarayoni ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida sezilarli darajada o‘zgaradi. Raqamli muhitning kengayishi yoshlarning axborot olish, o‘zini namoyon qilish va kasbiy yo‘nalishlarni tanlash jarayoniga yangi omillarni kiritmoqda. Shu bois ijtimoiy tarmoqlar kasbiy identiklik shakllanishida muhim ijtimoiy-psixologik determinant sifatida qaraladi. Birinchi determinant — axborotga tezkor va keng kirish imkoniyati. Ijtimoiy tarmoqlar (YouTube, Instagram, TikTok, Telegram kanallari) orqali o‘smirlar turli kasblar haqida real hayotiy tajribalar, mutaxassislar faoliyati va mehnat sharoitlari bilan tanishadi. Bu esa kasb tanlash jarayonini boyitadi va ongli qaror qabul qilishga yordam beradi. Ikkinchi determinant — ijtimoiy taqqoslash (social comparison) jarayonidir. O‘smirlar boshqalarning muvaffaqiyati, daromadi yoki kasbiy yutuqlarini kuzatib, o‘zlarini ular bilan solishtiradilar. Bu jarayon motivatsiyani oshirishi yoki aksincha, past o‘z-o‘zini baholashga olib kelishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlar o‘zlikni anglashga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Uchinchi determinant — virtual rol modellarning ta’siri. Blogerlar, IT mutaxassislar, dizaynerlar va boshqa kasb egalarining ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati o‘smirlar uchun namuna vazifasini bajaradi. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, shaxslar kuzatish va taqlid qilish orqali xulq-atvor va qarorlarni shakllantiradi. Shu jihatdan, ijtimoiy tarmoqlardagi influencerlar kasbiy yo‘nalishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. To‘rtinchi determinant — raqamli identiklik (digital identity) shakllanishidir. O‘smirlar ijtimoiy tarmoqlarda o‘z qiziqishlari, yutuqlari va ijodiy ishlarini namoyish etish orqali o‘z “virtual men” obrazini yaratadilar. Bu jarayon kasbiy qiziqishlarning aniqlashuviga va mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Beshinchi determinant — informatsion bosim va noto‘g‘ri kontent ta’siri. Ijtimoiy tarmoqlarda ba’zan kasblar haqida noto‘g‘ri yoki idealizatsiyalangan ma’lumotlar tarqatiladi. Bu esa o‘smirlarning real kasbiy talablar va mehnat bozori haqidagi tasavvurini buzishi mumkin. Oltinchi determinant — ijtimoiy tarmoqlardagi motivatsion muhitdir. Onlayn kurslar, webinarlar, kasbiy maslahatlar va muvaffaqiyat hikoyalari o‘smirlarni yangi kasblarni o‘rganishga undaydi. Bu ayniqsa IT, dizayn, marketing va startap sohalariga qiziqishni oshiradi, ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlik davrida kasbiy

o‘zlikni anglash jarayoniga kuchli ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatadigan murakkab ijtimoiy-psixologik determinant hisoblanadi. Ular bir tomondan axborot va motivatsiya manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan noto‘g‘ri taqqoslash va idealizatsiya orqali kasbiy tanlovga salbiy ta’sir ham ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli o‘smirlarning raqamli savodxonligini rivojlantirish va media madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davrida kasbiy ta’lim jarayonida o‘zlikni anglash shakllanishi ko‘p omilli va murakkab jarayon bo‘lib, u oilaviy muhit, ta’lim tizimi, tengdoshlar ta’siri, shaxsiy psixologik xususiyatlar hamda ijtimoiy-madaniy sharoitlar bilan belgilanadi. Ushbu omillarni kompleks o‘rganish va to‘g‘ri boshqarish yoshlarning ongli kasb tanlashiga va kelajakda muvaffaqiyatli professional shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, A. Social Learning Theory. Prentice Hall, 1977.
2. Holland, J. L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. Psychological Assessment Resources, 1997.
3. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books, 2011.
4. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. UNESCO Publishing, 2021.
5. OECD. Skills for 2030: OECD Learning Compass. OECD Publishing, 2019.
6. World Economic Forum. The Future of Jobs Report. WEF, 2020.
7. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
8. Erikson, E. H. Identity: Youth and Crisis. W. W. Norton & Company, 1968.

KASBIY O’ZLIKNI ANGLASHDA MOTIV VA MOTIVATSIYANING RO’LI

Rustamova Turdixon Ne’matjonovna
NamDU Psixologiya kafedrasi
katta o’qituvchisi
Shuhratova Yodgora Shuhrat qizi
Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Motiv va motivatsiya insonning harakat qilishga bo‘lgan ichki va tashqi kuchlarini o‘rganadigan muhim psixologik tushunchalardir. Motiv – bu shaxsni ma’lum bir harakatga undaydigan ichki sabablar, ehtiyojlar yoki istaklar yig‘indisi bo‘lsa, motivatsiya – shaxsning maqsadlariga erishish uchun harakat qilish jarayonini tashkil etuvchi kuch va intilishdir. Maqolada motiv va motivatsiya tushunchalarining ta’rifi, ularning psixologik asoslari, turlari, shaxs rivojlanishidagi roli va samarali ishlash usullari yoritilgan. Maqola motivatsiya orqali shaxsning samarali faoliyatini oshirish va o‘z maqsadlariga erishish imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi.*

Аннотация: *Мотив и мотивация — важные психологические понятия, изучающие внутренние и внешние силы, побуждающие человека к действию. Мотив — это*

совокупность внутренних причин, потребностей или желаний, которые побуждают человека к определенному действию, а мотивация — это сила и стремление, организующие процесс действия для достижения целей человека. В статье рассматриваются определение понятий мотива и мотивации, их психологические основы, типы, роль в личностном развитии и методы эффективной работы. Статья помогает понять возможности повышения эффективности деятельности человека и достижения им своих целей посредством мотивации.

Annotation: *Motivation and motives are important psychological concepts that study the internal and external forces driving a person to act. A motive is a set of internal reasons, needs, or desires that prompt an individual to perform a certain action, while motivation is the force and drive that organize the process of acting to achieve one's goals. The article covers the definitions of motives and motivation, their psychological foundations, types, their role in personal development, and methods for effective functioning. The article helps understand how motivation can enhance a person's productive activity and support achieving their goals.*

Kalit so'zlar: *Motiv, Motivatsiya, Ichki motiv, Tashqi motiv, Maqsad, Harakat, Psixologiya, Shaxs rivojlanishi, Samardorlik, Ehtiyojlar ierarxiyasi.*

Ключевые слова: *Мотив, Мотивация, Внутренний мотив, Внешний мотив, Цель, Действие, Психология, Личностное развитие, Эффективность, Иерархия потребностей.*

Keywords: *Motive, Motivation, Intrinsic Motivation, Extrinsic Motivation, Goal, Action, Psychology, Personal Development, Efficiency, Hierarchy of Needs.*

Motivatsiya — bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma'lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to'xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda agent ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko'pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta'minlovchi paradigmatik ruhiy holat — bu istak . Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatlari haqidagi e'tiqodlar ham motivatsiyani ta'minlashi mumkin. Motivatsiya „motiv" so'zidan olingan bo'lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayonidir. Ish maqsadlari kontekstida odamlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar pulga bo'lgan xohishni o'z ichiga olishi mumkin. Z.Freyd (856-1939) motivning qonun -qoidalarini faqat dinamik energetik holat tariqasida talqin qiladi. Bir guruh chet el psixologlarining fikriga qaraganda, motiv - bu tajriba va reaksiyalarning energetik jabhasidan iboratdir.

S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to'g'risida quyidagi mulohazalarni bildiradi: motivatsiya - bu psixika orqali hosil bo'ladigan determinatsiyadir; motiv - bu shaxs xulq-atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi sub'ektiv tarzda aks etish demakdir. "Motiv inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqalar motivlar jumlasiga kiradi". Bizningcha, shaxs o'zining motivlari yordamida borliq bilan uzviy aloqada bo'ladi. Insonning xulq-atvori (xulqi)ni harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'luvchi motivlar shaxsning tuzilishida (tarkibida) yetakchi o'rin egallaydi. Motivning tuzilish (strukturaviy) tarkibiga shaxsning yo'nalishi, uning

xarakteri, emotsional holati (his-tuyg'usi), qobiliyati, ichki kechinmalari, faoliyati va bilish jarayonlari kiradi. Psixologiya fanida to'plangan nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, shuningdek, bir qator psixologlarning fikricha, xarakter shaxs motivlarining dinamik tomonlari asosini tashkil qiladi, degan ta'limot mavjud. Jumladan, xarakterning u yoki bu sifatlari sof dinamik xususiyatli tavsiflarni tashkil qilsa, qolganlari esa faqat dinamik tabiatinigina emas, balki uning ma'naviy va ma'noviy jabhalarini ham yuzaga keltiradi. Motivatsiya—harakatga turtki beradi. Motivatsiya insonning har qanday faoliyati orqali o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatidir. Motivatsiya—inson xatti-harakatlarini boshqaruvchi va uning tashkil etilishini, yo‘nalishini, barqarorligini va faolligini belgilaydigan dinamik psixofiziologik jarayondir.

Motivatsiyani 2 ga bo`lishimiz mumkin: ichki va tashqi. Ichki motivatsiyasi bor inson biror ishni shunchaki o`sha ish unga yoqqani uchun bajaradi. Tashqi motivatsiya esa shu ishdan biror manfaat bo`lganda yuzaga keladi.Masalan, matematikadan qaysidir masalani qiziquvchanligi sababli yechishga intilish bu ichki motivatsiya. O`sha masalani yaxshi baho olish yoki o`qituvchidan dakki eshitmaslik uchun yechish – bu tashqi motivatsiya.

Motiv va motivatsiya insonning harakatga kelishidagi ichki va tashqi sabablarni tushunishga yordam beradigan muhim tushunchalardir. Motiv – bu shaxsni biror ish qilishga undaydigan ichki istak yoki ehtiyoj, masalan, yangi til o‘rganish istagi yoki sog‘lom turmush tarziga rioya qilish istagi bo‘lishi mumkin. Motivatsiya esa bu istaklarni amalga oshirishga yo‘naltiradigan kuch va intilishdir. Psixologlar Maslov ehtiyojlar ierarxiyasini taklif qilgan, unda insonning asosiy ehtiyojlaridan boshlab, o‘z-o‘zini rivojlantirishgacha bo‘lgan motivatsiya bosqichlari yoritilgan. Shu bilan birga, Herzberg va Vrumning nazariyalari motivatsiya jarayonini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.Motivatsiyani to‘g‘ri yo‘naltirish shaxsning samarali faoliyatini oshiradi va maqsadlariga erishishni osonlashtiradi. Hayotda kichik maqsadlar qo‘yish va ularga erishgan sari o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, shuningdek, o‘z kuchli tomonlarini aniqlash shaxsning motivatsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. Ayrim o`qituvchilarning xatosi shuki, ular ta`lim jarayonida asosan tashqi motivatsiyaga suyanib qolishadi. Turli sovga`lar, stikerlar, maqtovlar ko`rinishidagi mukofotlash va jarima, qattiq tanbeh va hatto jismoniy choralar ko`rinishidagi jazolar asosiga o`qish jarayoni taskil etiladi. Ko`p sonli tadqiqotlar natijasiga ko`ra, tashqi motivatsiya shundoq ham ichki motivatsiyasi bor insonning ana shu ichki motivatsiyasini yo`qotishiga olib kelishi mumkin.

Motivatsiya rivojlanishining turli bosqichlari mavjud. Psixologik nazariyalar va tadqiqotlar asosida motivatsiyaning rivojlanish bosqishlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ma'lumot olish va ongli qaror qabul qilish: Bu bosqichda inson o'z maqsadlarini aniqlash va ular tomon harakat qilish uchun zarur ma'lumotlarni to'playdi. Motivatsiya boshlang'ich nuqtada bo'ladi, chunki inson maqsadga erishish uchun nima qilish kerakligini bilishga harakatqiladi. Bu jarayon ichki va tashqi omillarning ta'siri ostida rivojlanadi.
2. Ma'naviy motivatsiya: Inson o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ma'naviy yoki hissiy sabablarni izlaydi. Unga o'zining ichki ehtiyojlari, qiziqishlari yoki

hayotiy prinsiplarini amalga oshirish istagi yordam beradi. Ushbu bosqichda ichki motivatsiya asosiy omil hisoblanadi.
3. Tashqi ta'sirlar va mukofotlar: Maqsadlarga erishish yo'lida tashqi mukofotlar va ta'sirlar muhim rol o'ynaydi. Tashqi omillar, masalan, ish haqining o'sishi, ijtimoiy maqom va qadr-qimmat ko'payishi kabi faktlar, insonni harakatga undaydi. Bu bosqichda tashqi motivatsiya asosiy rolnio'ynaydi.
4. O'zgarish va yuksalish: Inson maqsadlariga erishgan sari, yangi va murakkab maqsadlarni qo'yishga kirishadi. Bu bosqichda ichki motivatsiya yana mustahkamlanadi, chunki inson o'zining shaxsiy o'sishiga va rivojlanishiga qiziqadi. Har bir muvaffaqiyat yangi qadamlar qo'yishga ilhom beradi.
5. Tenglik va muvaffaqiyat: So'nggi bosqichda, inson muvaffaqiyatga erishganini his qiladi va o'z harakatlarini, hayotini baholaydi. Bu bosqichda inson o'zini tasdiqlash va jamiyatga foydali bo'lish istagini oshiradi.

Motiv va motivatsiya shaxsning harakat qilishga bo‘lgan ichki va tashqi kuchlarini aniqlashda muhim tushunchalardir. Motiv – bu insonni ma’lum bir harakatga undaydigan ichki sabablar, ehtiyojlar va istaklar yig‘indisi bo‘lsa, motivatsiya esa ushbu motivlarga asoslanib shaxsning maqsad sari harakat qilishi jarayonidir. Ichki motivlar shaxsning qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘z-o‘zini rivojlantirish istagidan kelib chiqadi, tashqi motivlar esa mukofotlar, tan olinish yoki ijtimoiy talablar orqali shakllanadi. Motivatsiya va motivni to‘g‘ri aniqlash va qo‘llash shaxsning samarali ishlashini, maqsadlariga erishishini va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Shu sababli, har bir inson uchun o‘z motivlarini anglash va ulardan foydalangan holda maqsad sari harakat qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya (F. Xaydarov, N.Xalilova). https://n.ziyouz.com.
2. Turumbetova Z. Y., Srimbetova S. E. Pedagogical and psychologicalfeatures of the impact on children's behavior //Modern Science andResearch. – 2023.
3. Polatovna R. N. Oliy ta’limda innovatsion yondashuvlar asosida pedagogik va psixologik metodlarni tahlil qilishga asoslangan tadqiqotlar.
4. Shamsiyev, I. (2018). Psixologiya asoslari. Toshkent: Akademnashr.
5. Karimova, D. (2020). Motivatsiya va samaradorlik. Psixologiya va Pedagogika, 3(12), 45–52.

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI TARBIYACHILARIDA KASBIY O‘ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISH

Dexkonova Marg`uba Erkinovna
Namangan davlat universiteti o ‘qituvchisi
Mamasharipova Adolat Hamidullayevna
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarda kasbiy o‘zlikni anglash masalasi yoritilgan. Tarbiyachining o‘z kasbini tushunishi, o‘z ustida ishlashi va kasbiy rivojlanishga intilishi ta’lim sifatiga qanday ta’sir qilishi*

sodda va tushunarli tarzda bayon etilgan. Shuningdek, ushbu jarayonning amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Аннотация. *В данной статье рассматривается формирование профессионального самосознания у воспитателей дошкольных образовательных учреждений. Объясняется, как понимание своей профессии, работа над собой и стремление к развитию влияют на качество образования. Также показано практическое значение данного процесса.*

Abstract. *This article discusses the development of professional self-awareness among preschool educators. It explains how understanding one’s profession, self-improvement, and the desire for professional growth affect the quality of education. The practical importance of this process is also highlighted.*

Kalit so‘zlar: *Kasbiy o‘zlik, tarbiyachi, maktabgacha ta’lim, o‘z ustida ishlash, kasbiy rivojlanish, pedagogik faoliyat*

Ключевые слова : *Профессиональное самосознание, воспитатель, дошкольное образование, развитие, педагогическая деятельность*

Keyword. *Professional self-awareness, preschool educator, early childhood education, professional development, teaching activity*

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimi jamiyat rivojida muhim o‘rin tutmoqda. Chunki aynan shu davrda bolalarning dunyoqarashi, fikrlashi va xulq-atvori shakllanadi. Bu jarayonda esa tarbiyachining o‘rni juda katta hisoblanadi.

Tarbiyachi faqat bilim beruvchi emas, balki bolaga yo‘l ko‘rsatuvchi, uni tushunadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan shaxsdir. Shu sababli tarbiyachining o‘z kasbini qanday tushunishi va unga qanday yondashishi juda muhim.

Kasbiy o‘zlikni anglash deganda tarbiyachining o‘zini kasb egasi sifatida tushunishi, o‘z kuchli va zaif tomonlarini bilishi hamda o‘z ustida ishlashga intilishi tushuniladi. Ushbu maqolada aynan shu masala yoritiladi.

Olimlar kasbiy o‘zlikni anglashni shaxs rivojlanishining muhim qismi sifatida qaraydi.

Masalan, Vygotskiy inson rivojlanishida atrof-muhit va muloqot muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Bu fikrga ko‘ra, tarbiyachi o‘z faoliyatida boshqalar bilan muloqot jarayonida o‘zini anglay boshlaydi.

Piaget esa bilim va tajriba orqali rivojlanish g‘oyasini ilgari suradi. Bu shuni anglatadiki, tarbiyachining kasbiy o‘zligi ham uning ish tajribasi davomida shakllanadi.

Rogers shaxsning o‘zini anglashiga katta e’tibor bergan. Unga ko‘ra, inson o‘zini tushunsa va o‘zini baholay olsa, uning faoliyati ham samarali bo‘ladi.

O‘zbek olimlari ham bu mavzuga alohida e’tibor qaratgan. Ular tarbiyachining o‘z ustida ishlashi, o‘zini rivojlantirishi va bolalarga individual yondashuvi muhim ekanligini ta’kidlaydi.

Shu asosda aytish mumkinki, kasbiy o‘zlikni anglash — bu faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy faoliyatda shakllanadigan muhim jarayondir.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida men bir nechta ilmiy metodlardan foydalandim. Eng avvalo, kuzatish metodi orqali tarbiyachilarning kundalik faoliyatini o‘rgandim. Ularning bolalar bilan qanday ishlashi, darsni qanday tashkil etishi va muomala uslublariga e’tibor qaratdim.

Suhbat metodi yordamida tarbiyachilarning o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatini aniqladim. Ularning o‘z ishidan qanchalik mamnunligi, o‘zini qanday baholashi va kelajakdagi maqsadlari haqida ma’lumotlar oldim.

Bundan tashqari, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali umumiy xulosalar chiqardim. Turli tarbiyachilar faoliyatini solishtirib, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqladim.

Bu metodlar menga mavzuni chuqurroq tushunish va aniq xulosalarga kelish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida shuni kuzatdimki, o‘z kasbini yaxshi tushunadigan tarbiyachilar ishiga boshqacha yondashadi. Ular bolalar bilan ishlashda sabrliroq, e’tiborliroq va ijodkor bo‘ladi.

Bunday tarbiyachilar har bir bolaga alohida e’tibor qaratadi, ularning qiziqishlarini hisobga oladi va darsni qiziqarli o‘tkazishga harakat qiladi. Ular o‘z ishini tahlil qiladi, xatolarini tan oladi va ularni tuzatishga intiladi.

Shuningdek, bunday tarbiyachilar yangi bilimlarni o‘rganishga qiziqadi va o‘z ustida ishlashni davom ettiradi. Bu esa ularning kasbiy mahoratini oshirib boradi.

Aksincha, kasbini chuqur anglamagan tarbiyachilarda sustlik kuzatiladi. Ular ko‘pincha bir xil usulda ishlaydi, yangilikka qiziqmaydi va o‘z ustida ishlashga yetarli e’tibor bermaydi. Bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qiladi.

Shu sababli kasbiy o‘zlikni anglash tarbiyachi faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omil ekanligi aniqlandi.

Men olib borgan tadqiqotlar asosida shuni aytishim mumkinki, tarbiyachi o‘z kasbini anglab ishlasa, uning faoliyati ancha samarali va mazmunli bo‘ladi. Ya’ni u ishini shunchaki bajarib qo‘ymaydi, balki unga ongli ravishda yondashadi va har bir ishining ahamiyatini tushunadi.

Kuzatishlarim davomida shuni aniqladimki, o‘z kasbini yaxshi tushungan tarbiyachilar bolalar bilan ishlashda ko‘proq e’tiborli, sabrli va ijodkor bo‘ladi. Ular har bir bolaga individual yondashadi, dars jarayonini qiziqarli tashkil etadi va bolalarda qiziqish uyg‘ota oladi.

Bunday tarbiyachilar o‘z ustida ishlashni odatga aylantirgan bo‘ladi. Ular yangi bilimlarni o‘rganishga intiladi, o‘z xatolarini tan oladi va ularni tuzatishga harakat qiladi. Shu orqali ularning kasbiy mahorati oshib boradi.

Shuningdek, kasbiy o‘zlikni anglash tarbiyachining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu esa uning ish faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, kasbiy o‘zlikni anglash tarbiyachining kasbiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uni o‘z ishiga yanada mas’uliyat bilan yondashishga undaydi.

Shu sababli menimcha, maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachilarni tayyorlashda ularga faqat bilim berish yetarli emas. Ularning o‘z kasbini anglashiga, o‘z ustida ishlashiga va kasbiy rivojlanishiga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Chunki aynan shu omil kelajakda ta’lim sifatini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR.

1. Psixologiya metodologiyasi O‘quv qo‘llanma. E.G‘oziyev. T-2013,
2. Psixologiya metodologiyasi. G‘oziyev E.G‘., Xolmuxamedov M., Ibrohimov X. – T.: O‘z MU, 2002.

3. Психология обшения. Леонтьев.А.А. 1997 г.
4. “Мотивация поведения и формирование личности” Асеев.В.Г. М.,“Мысл” 2011 г.
5. Nishanova.Z.T. “PSIXOLOGIK XIZMAT”, –T.:2007.
6. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”, –T.:2013.

SCIENTIFIC EVOLUTION OF THE CONCEPT OF SUBCULTURE

Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna
PhD student.,
Gulistan State University

Abstract. *This article describes youth culture as the social norms of children, adolescents, and young adults, and in particular, youth subcultures include processes and symbolic systems shared by young people that differ from those of adults in society.*

Keywords: *youth, subculture, race, nationality, flapper, mod, morality, status, “Who am I?”, value.*

Аннотация. *В данной статье описывается молодежная культура как социальные нормы детей, подростков и молодых людей, и, в частности, молодежные субкультуры включают процессы и символические системы, разделяемые молодыми людьми, которые отличаются от таковых у взрослых в обществе.*

Ключевые слова: *молодежь, субкультура, раса, национальность, флэппер, мод, мораль, статус, «Кто я?», ценности.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlar madaniyati bolalar, o'smirlar va yosh kattalarning ijtimoiy normalari haqida bayon etilgan bo‘lib, xususan, yoshlar submadaniyatlari yoshlar tomonidan baham ko'riladigan va jamiyatdagi kattalarnikidan farq qiladigan jarayonlar va ramziy tizimlarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, submadaniyat, irq, millat, flapper, mod, axloq, status, “Men kimman?”, qadriyat.*

Introduction. Youth subcultures typically distinguish young people from other age groups by emphasizing clothing, popular music, sports, vocabulary, and dating. They may be divided and differentiated by race, ethnicity, economic status, public appearance, or other factors.

There is a variety of debate about the existence and origins of youth culture. Some researchers argue that youth culture is not a distinct culture, since their values and morals are no different from those of their parents and that they inherit these values from them. In addition, peer influence varies greatly by gender, age, and social status, which can make it difficult to define a single "youth culture."

Schwartz and Merten conclude in their research that they use the language of adolescents to distinguish youth culture from the rest of society.

Schwartz noted that high school students used their vocabulary to construct meanings that were specific to adolescents. In particular, adolescent status terminology (the words adolescents use to describe hierarchical social positions) includes qualities and characteristics that are not present in adult status judgments. Schwartz argues that this reflects differences in social structures and the ways in which adults and adolescents experience social reality. This difference indicates

cultural differences between adolescents and adults, which can be said to indicate the existence of a separate youth culture [3].

During the twentieth century, youth had a strong influence on lifestyle and culture. Two examples of the influence of youth subcultures on society are the Flappers and Mods. Flappers were young women who were confident in their future after World War I. This was reflected in their new relationships, which included drinking, smoking, and sometimes associating with gangster-type men. The fashionable clothing of the time also reflected the flapper's new lifestyle.

The Mods emerged during a period of war and political and social unrest, and emerged from a group called the Modernists. They were young men and women from all youth subcultures who believed that their fashion choices would "make them accessible everywhere" and that this would give them power. The Mods' style and adoption of modern technology spread from the United Kingdom to North America and other countries [4].

Other scholars argue that some cultures promote the development of youth culture, while others may do the opposite. The basis of this difference is the presence of universalistic or private norms. Private norms are guidelines for behavior that differ from one individual to another. In contrast, universalistic norms apply to all members of society. Universalistic norms are more common in industrialized societies. The modernization of the last century has encouraged universalistic norms, since interaction in modern societies requires that everyone learn the same set of norms. Modernization and universalistic norms enhance the growth of youth culture. The need for universalistic norms has made it practically impossible for youth to socialize primarily through close family members, which leads to significant changes in the norms communicated. Therefore, many societies use age groups, for example in schools, to educate their children in the norms of society and prepare them for adulthood; Youth culture is a byproduct of this tactic. Because children spend so much time together and learn the same things as other age groups, they develop their own culture [5].

Psychological theorists have emphasized the role of youth culture in the formation of personality. Youth culture can be a means of finding one's identity when one's path in life is not always clear. Erik Erikson suggests that a major psychological conflict of adolescence is the confusion between identity and role. The goal of this stage of life is to answer the question "Who am I?"[2].

In many societies, adolescents are expected to behave like children and play adult roles. Some psychologists have theorized that the formation of youth culture is a stage of identity acceptance that reconciles these two conflicting expectations.

Fasick links youth culture as a way of developing personality to the simultaneous extension of childhood and the need for independence during adolescence. According to Fasick, adolescents face conflicting societal pressures. Compulsory schooling makes them socially and economically dependent on their parents, while young people need to achieve some degree of independence in order to participate in the market economy of modern society. As a means of coping with these conflicting aspects of adolescence, young people create freedom through behavior, particularly through leisure-oriented activities with their peers.

For decades, adults have worried that youth subcultures are at the root of moral decline and value shifts in younger generations. Researchers have described youth culture as embodying values that are “in conflict with those of the adult world”[1].

In conclusion, we can note that common concerns about youth subculture can include a lack of interest in education, involvement in risky behaviors such as drug use and sexual activity, and extensive leisure activities. These perceptions have led many adults to believe that adolescents have different values from older generations and to perceive youth culture as an attack on the morality of current society.

List of used literature

1. Otamuratova S.A. Analysis of research results of scientists in studying the personal characteristics of representatives of youth subcultures Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. 37. Часть 1. /Под ред. В.В.Козлова, Ш.Р. Баратова, М.Н.Усмановой. - Ярославль: МАПН, 2025. –322-326 с.
2. Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna., Submadaniyat vakillari shaxs xususiyatlarining tahlili olimlar talqinida., Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2025-yil 8-son B seriya., 43-48 b.
3. Fasick, Frank A. (1984). Parents, Peers, Youth Culture and Autonomy in Adolescence., Adolescence, 19(73) p.143-157
4. Meyer, David S. 2007. The Politics of Protest: Social Movements in America. New York: Oxford University Press.
5. Harrison, Benjamin T. (2000) Roots of the Anti-Vietnam War Movement,' in Hixson, Walter (ed) the Vietnam Antiwar Movement. New York: Garland Publishing.

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ДЕТЕРМИНАНТА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ СТУДЕНТОВ

Акбаров Соходилла Юлдашбаевич
доцент кафедры Психологии,
Наманганский государственный университет, Узбекистан
Расулова Имона Расуловна,
магистрант,
кафедра Психологии,
Наманганский государственный университет, Узбекистан

Аннотация: *В статье представлено теоретико-эмпирическое исследование эмоционального интеллекта как внутриличностной детерминанты становления профессионального самосознания студентов. Рассматриваются психологические механизмы, посредством которых способность к осознанию, пониманию и регуляции эмоций влияет на формирование профессиональной идентичности, самооценку и рефлексивную составляющую Я-концепции будущего специалиста.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, профессиональное самосознание, Я-концепция, профессиональная идентичность, рефлексия, эмоциональная регуляция, индивидуально-психологические различия*

Annotatsiya: *Maqolada talabalarning kasbiy o‘zini anglashining shakllanishida ichki shaxsiy determinant sifatida emotsional intellektning nazariy-empirik tadqiqoti taqdim etilgan. Emotsiyalarni anglash, tushunish va ularni boshqarish qobiliyatining bo‘lajak mutaxassisning*

kasbiy identifikatsiyasi, o‘z-o‘zini baholashi hamda Men-konsepsiyasining refleksiv tarkibiy qismini shakllantirishga ta’sir etuvchi psixologik mexanizmlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, kasbiy o‘zini anglash, Men-konsepsiyasi, kasbiy identifikatsiya, refleksiya, emotsional regulyatsiya, individual-psixologik farqlar.*

Abstract: *The article presents a theoretical and empirical study of emotional intelligence as an intrapersonal determinant in the formation of students’ professional self-awareness. The psychological mechanisms through which the ability to recognize, understand, and regulate emotions influences the development of professional identity, self-esteem, and the reflective component of the future specialist’s self-concept are examined.*

Keywords: *emotional intelligence, professional self-awareness, self-concept, professional identity, reflection, emotional regulation, individual psychological differences*

Проблема формирования профессионального самосознания занимает центральное место в психологии профессионального развития личности. Профессиональное самосознание выступает интегративным образованием, определяющим способность субъекта к осознанию своих профессиональных качеств, мотивов, ценностных ориентаций и места в профессиональной среде. При этом механизмы, обеспечивающие становление этого сложного психического образования, остаются недостаточно изученными, что обусловливает необходимость обращения к его внутриличностным детерминантам. Эмоциональный интеллект представляет собой многокомпонентное психологическое явление, включающее способности к восприятию, пониманию, управлению собственными эмоциями и эмоциями других людей. В контексте профессионального становления эмоциональный интеллект рассматривается не только как предиктор профессиональной эффективности, но и как существенный фактор развития самосознания, поскольку эмоциональная сфера обеспечивает тонкую регуляцию процессов самопознания и самооценки. Существующие исследования демонстрируют связь эмоционального интеллекта с различными аспектами самосознания, однако специфика его роли в структуре профессионального самосознания студентов — на этапе интенсивного профессионального становления — требует специального рассмотрения. Недостаточная разработанность данной проблемы определяет цель настоящего исследования: выявить психологические механизмы влияния эмоционального интеллекта на становление профессионального самосознания студентов вуза.

Теоретические основания изучения эмоционального интеллекта как фактора профессионального самосознания заложены в работах Д. Гоулмана [3]. Автор концептуализирует эмоциональный интеллект не просто как набор социальных навыков, но как фундаментальную основу **самопознания** (*self-awareness*), определяющую способность индивида распознавать собственные эмоциональные паттерны и их влияние на мышление и поведение. Гоулман подчёркивает, что развитие эмоционального интеллекта предшествует формированию зрелого профессионального самосознания, поскольку эмоциональная саморегуляция обеспечивает основу для реалистичной самооценки и целеполагания в профессиональной сфере. При этом автор отмечает, что профессионалы различных областей — от управленцев до

специалистов технических профессий — демонстрируют различные профили эмоционального интеллекта, что определяет специфику их профессиональной идентичности.

В педагогической психологии развиты идеи о роли эмоционального интеллекта в **профессиональном самоопределении** преподавателя. Д.Р. Карузо, Л.Т. Рис и Д. Адамс [4] рассматривают эмоциональный интеллект как внутренний ресурс формирования профессионального «Я» педагога, обеспечивающий способность к рефлексии собственной эмоциональной деятельности в учебном процессе. Авторы показывают, что осознание собственных эмоциональных триггеров и их влияния на студентов составляет ядро профессионального самосознания педагога, позволяя ему конструировать адекватную профессиональную идентичность. К. Плант и Дж. Стил [8] вводят понятие «эмоционально интеллектуального педагога», характеризуя его через призму **саморефлексивных способностей** — способности анализировать эмоциональные аспекты собственного преподавания и на основе этого корректировать профессиональное самовосприятие.

Особый интерес представляет анализ эмоционального интеллекта в профессиях с высокой когнитивной нагрузкой, где традиционно доминировала логико-рациональная модель самосознания. Э.М. Лудовино [5] в исследовании IT-специалистов обосновывает тезис о необходимости **пересмотра профессиональной идентичности** в технических сферах. Автор показывает, что успешные профессионалы IT демонстрируют развитое метакогнитивное осознание собственных эмоциональных состояний, что позволяет им конструировать адекватное самосознание в условиях неопределённости и командной работы. Лудовино вводит понятие «технической эмпатии» как компоненты профессионального самосознания IT-специалиста, обеспечивающей понимание пользовательского опыта и эффективное взаимодействие в команде. Это свидетельствует о том, что даже в профессиях, ассоциирующихся с чисто рациональной деятельностью, эмоциональный интеллект становится интегральной частью профессионального самосознания.

К. Норман и Р. Комбс-Ричардсон [7] исследуют механизмы формирования **профессиональной идентичности студентов** естественнонаучных направлений через развитие эмоционального интеллекта. Авторы показывают, что освоение научной деятельности требует не только когнитивных навыков, но и эмоциональной рефлексии — способности осознавать эмоциональные барьеры в процессе исследовательской работы и интегрировать этот опыт в представление о себе как о будущем специалисте. Эмоциональный интеллект выступает здесь посредником между академическим знанием и профессиональным самосознанием, обеспечивая внутреннюю готовность к профессии.

Л.Ф. Барретт и П. Саловей [2] развивают идеи о **психологических механизмах** связи эмоционального интеллекта и самосознания. Исследователи показывают, что способность к дифференцированному

осознанию эмоций (эмоциональная гранулярность) обеспечивает более точное и дифференцированное самопознание, что критично для формирования реалистичной профессиональной идентичности. Авторы обосновывают, что эмоции служат источником информации о себе, и развитие эмоционального интеллекта расширяет возможности рефлексивного самоисследования в профессиональном контексте.

Исследование носит теоретический характер и базируется на сравнительном анализе научной литературы по проблеме эмоционального интеллекта и профессионального самосознания. Сравнительный анализ позволил выявить универсальные механизмы влияния эмоционального интеллекта на профессиональное самосознание в различных сферах деятельности. На основе синтеза теоретических положений смоделированы психологические механизмы данной взаимосвязи.

Сравнительный анализ показал, что эмоциональный интеллект выступает универсальной детерминантой профессионального самосознания независимо от сферы деятельности. В педагогике и социальных науках эмоциональный интеллект обеспечивает формирование рефлексивной идентичности через осмысление эмоциональных взаимодействий, тогда как в IT и точных науках он способствует интеграции когнитивной экспертизы с метакогнитивным осознанием собственных эмоциональных состояний. Выявлено, что профессиональное самосознание в «эмоционально насыщенных» профессиях (педагогика) формируется преимущественно через межличностный компонент ЭИ, в то время как в «рациональных» сферах (IT, математика) — через внутриличностный компонент, обеспечивающий эмоциональную регуляцию и стрессоустойчивость. Предложена модель, где эмоциональный интеллект функционирует как механизм трансляции эмоционального опыта в структуру профессиональной идентичности, что определяет индивидуальную траекторию профессионального становления.

Проведённое исследование позволяет заключить, что эмоциональный интеллект действительно функционирует как внутриличностная детерминанта профессионального самосознания, при этом механизмы его влияния варьируются в зависимости от профессиональной сферы. В педагогике и социальных науках ключевую роль играет развитие межличностного компонента ЭИ, обеспечивающего профессиональную идентичность через эмоциональное взаимодействие, тогда как в IT и точных науках приоритетным становится внутриличностный компонент, интегрирующий эмоциональную регуляцию с когнитивной деятельностью. Полученные результаты расширяют понимание психологических механизмов профессионального становления и могут быть использованы при разработке программ сопровождения студентов на этапе профессионального самоопределения.

Список литературы

1. Бар-Он Р. и Паркер Дж.Д.А. Справочник по эмоциональному интеллекту: Теория, развитие, оценка и применение дома, в школе и на рабочем месте. Сан-Франциско-2000-528 с.

2. Барретт Л.Ф. и Саловей П. Мудрость в чувствах: Психологические процессы эмоционального. Нью-Йорк-2002-444 с.
3. Гоулман, Д. Эмоциональный интеллект. Почему он может значить больше, чем IQ. 2003-400 с.
4. Карузо Д.Р., Рис Л.Т. и Адамс Д. Практическое руководство педагога по эмоциональному интеллекту. Нью-Йорк-2026-256 с.
5. Лудовино Э.М. Эмоциональный интеллект для IT-специалистов. Бирмингем-2017-326 с.
6. Мортибойс А. Преподавание с эмоциональным интеллектом: Пошаговое руководство для профессионалов высшего и дополнительного образования (2-е изд). Лондон-2012-208 с.
7. Норман, К., & Комбс-Ричардсон, Р. Эмоциональный интеллект и социальные навыки: Эффективное преподавание в научном классе. Шарлоттсвилл-2020-192 с.
8. Плант К. и Стил Дж. Становление эмоционально интеллектуальным педагогом. Таузанд-Оукс-2010-184 с.

TALABA YOSHLARDA STRESSGA BARDOSHLILIKNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Sobirjonova Nilufar SHovkatjon qizi
Namangan davlat universiteti
magistranti

Annotatsiya*: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimidagi shiddatli o'zgarishlar va axborot yuklamasining ortishi sharoitida talaba yoshlarning psixologik holati hamda ularda stressga bardoshlilikni shakllantirish mexanizmlari tizimli ravishda tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi talabalar o'rtasida kognitiv distress va emotsional toliqish holatlarining ko'payayotgani bilan izohlanadi. Maqolada stressga bardoshlilikni shakllantirishning uchta asosiy darajasi — individual-psixologik, kognitiv va ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari ochib berilgan. Muallif tomonidan talabalarning akademik muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi asosiy stressorlar tasniflanib, ularni bartaraf etishda qo'llaniladigan "koping-strategiyalar" tahlil qilingan. Maqola yakunida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ruhiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan amaliy takliflar va psixoprofilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.*
Kalit so'zlar*: talaba yoshlar, stressga bardoshlilik, rezilyentlik, akademik adaptatsiya, koping-mexanizmlar, emotsional barqarorlik, kognitiv qayta baholash, psixologik trening, oliy ta'lim.*
Аннотация: *Данной статье системно исследуется психологическое состояние студенческой молодежи в условиях интенсивных изменений в современной системе образования и увеличения информационной нагрузки, а также механизмы формирования их стрессоустойчивости. Актуальность исследования обусловлена ростом случаев когнитивного дистресса и эмоционального выгорания среди студентов. В статье раскрываются три основных уровня формирования стрессоустойчивости: индивидуально-психологический, когнитивный и социально-педагогический механизмы. Автором классифицированы основные стрессоры, влияющие на академическую успеваемость студентов, и проанализированы "копинг-стратегии", используемые для их преодоления. В завершение статьи разработаны практические предложения и психопрофилактические меры, направленные на обеспечение психологической устойчивости студентов в высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *Студенческая молодежь, стрессоустойчивость, резильентность, академическая адаптация, копинг-механизмы, эмоциональная устойчивость, когнитивная переоценка, психологический тренинг, высшее образование.*
Abstract: *This article provides a systemic study of the psychological state of student youth and the mechanisms for developing their stress resistance in the context of rapid changes in the modern educational system and increasing information overload. The relevance of the research is explained by the growing incidence of cognitive distress and emotional burnout among students. The article outlines three main levels of forming stress resistance: individual-psychological, cognitive, and socio-pedagogical mechanisms. The author classifies the primary stressors affecting students' academic performance and analyzes the "coping strategies" used to overcome them. The article concludes with the development of practical recommendations and psycho-prophylactic measures aimed at ensuring the psychological stability of students within higher education institutions.*
Keywords: *student youth, stress resistance, resilience, academic adaptation, coping mechanisms, emotional stability, cognitive reappraisal, psychological training, higher education.*

Insoniyat rivojlanishining hozirgi bosqichi axborot oqimining tezlashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning murakkabligi va ta'lim tizimidagi kuchli raqobat muhitiga ega. Bunday holatda jamiyatning intellektual qatlamini tashkil etuvchi talaba yoshlar o'ziga xos psixologik bosimga duch kelmoqda. Talabalik davri inson hayotidagi eng faol va shu bilan birga qiyinchiliklarga to'la davrlardan biri bo'lib, u nafaqat akademik bilimlarni o'rganish, balki yangi ijtimoiy sharoitga moslashish, kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish va mustaqil hayotga mas’uliyatni o'z zimmalariga olish bilan bog'liqdir. So‘nggi yillarda olib borilgan psixologik tadqiqotlar talabalarning o‘quv jarayonida doimiy charchoq, "akademik toliqish" va turli darajadagi stress holatlarini his qilayotganini ko‘rsatmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlarning ruhiy salomatligiga zarar yetkazibgina qolmay, ularning ta'lim samaradorligi va ijtimoiy faollik darajasining pasayishiga ham sabab bo'lmoqda.Stress — bu organizmning har qanday tashqi talabga nisbatan o‘ziga xos bo‘lmagan javobi bo‘lishiga qaramay, talabalar hayotida u ko‘pincha salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli, zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlari oldida talaba yoshlarda stressga chidamlilik (rezilyentlik) xususiyatini rivojlantirish, ularning psixologik immunitetini kuchaytirish masalasi dolzarb muammo hisoblanadi. Stressga bardoshlilik faqatgina tashqi muammolarga qarshi turish emas, balki kutilmagan vaziyatlarda ruhiy barqarorlikni tezda qayta tiklash, muammolarni ijobiy yo‘l bilan hal etish va qiyinchiliklarni shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyat sifatida qabul qilish qobiliyatidir. Ushbu maqolada talabalarda stressga bardoshlilikni ta’minlovchi kognitiv, emotsional va ijtimoiy mexanizmlar tahlil qilinadi hamda ularning barqarorligini oshirish uchun nazariy va amaliy yondashuvlar ko‘rsatiladi. Talabalarning stressga nisbatan javob berish darajasini pasaytirish va ularda foydali koping-strategiyalarni rivojlantirish usullarini o‘rganish, kelajakda raqobatbardosh va ruhiy jihatdan sog‘lom kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Stressga bardoshlilik va shaxsning ekstremal hamda o‘quv sharoitlaridagi chidamliligi masalasi psixologiya fani asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ko‘p yillar davomida o‘rganilib kelinmoqda. Stress tushunchasining asoschisi G. Selye o‘z nazariyasida stressni organizmning tashqi muhit talablariga umumiy moslashuv sindromi sifatida ta’riflagan, keyinroq R. Lazarus va S. Folkman stressni kognitiv

jarayonlar bilan bog‘lab, "koping-strategiyalar" (engib o‘tish mexanizmlari) nazariyasini taklif etdilar. Ularning fikriga ko‘ra, talabadagi stress darajasi vaziyatning qiyinligiga emas, balki shaxsning ushbu vaziyatni qanchalik baholashiga va unga qarshi qanday vositalarni jalb qila olishiga bog‘liqdir.

G‘arb psixologiyasida stressga chidamlilik masalasi "rezilyentlik" (resilience) tushunchasi konteksida chuqur o‘rganilgan. S. Kobasa va S. Maddi kabi olimlar shaxsning "chidamliligi" (hardiness) xususiyatini o‘rganib, bu sifat nazorat, tavakkalchilik va o‘z zimmasiga mas'uliyat olish kabi elementlardan iborat ekanligini isbotlashgan. Ularning nazarida, talabalik davrida stressni boshqarishda shaxsning ichki iroda xususiyatlari tashqi yordamdan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida talabalik davri identifikatsiya inqirozi bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa yoshlarda stressga nisbatan yuqori sezgirlikni ilmiy tarzda isbotlaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan F. Berezin, n. Vodopyanova va S. Bondarenko akademik stress va emotsional toliqishning talabalardagi o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishdi. Xususan, N. Vodopyanova stressga bardoshlilikni shaxsning psixologik resurslari (o‘ziga ishonch, optimizm, ijtimoiy yordam) jami sifatida ko‘rib chiqadi.

O‘zbekistonlik psixologlar olimlardan E. G‘oziyev, G‘. Shoumarov va V. Karimova talaba yoshlarning shaxsiy xususiyatlari, muloqot madaniyati hamda ijtimoiy moslashuvi masalalariga alohida e’tibor berishgan. E. G‘oziyev talabalarning o‘quv jarayonidagi intellektual va emotsional barqarorligini o‘rganar ekan, talabaning mustaqil fikrlashi stressli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishda asosiy omil bo‘lishini ta’kidlagan. Shuningdek, R. Sunnatova va M. Rasulova kabi olimlar tomonidan talabalarning o‘quv motivatsiyasini va ularda stressga qarshi kognitiv mexanizmlarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan.

Tadqiqotda ob'ekt va sub'ekt: Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida kunduzgi ta’lim olayotgan [masalan, 1-4 kurs] talabalari tanlandi. Tadqiqot obyekti ushbu talabalarning o‘quv jarayonidagi stressga qarshi turish xususiyatlari va ularni rivojlantirishga yordam beruvchi psixologik mexanizmlardan tashkil topadi.

Ishlatilgan usullar: Tadqiqot jarayonida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun kompleks usullar tizimi qo‘llanildi:

Teorik tahlil: Mavzuga doir falsafiy, psixologik va pedagogik asarlarni solishtirib o‘rganish, mavjud ilmiy metodlarni birlashtirish.

Psixodiagnostik usullar: Talabalarning stress darajasini va chidamliligini aniqlash maqsadida quyidagi standart testlardan foydalanildi: S. Maddining "Chidamlilik testi" (Hardiness Test): Shaxsning hayotdagi qiyinchiliklarga qarshi bardosh berishini aniqlash maqsadida. R. Lazarusning "Koping strategiyalari" so‘rovnomasi: Talabalar stressli vaziyatlarda qanday xulqiyat usullarini tanlayotganlarini o‘rganish maqsadida. Ch. Spilbergerning "Xavotir darajasi" testi: Shaxsiy va vaziyatli xavotirni o‘lchash uchun mo‘ljallangan.

Empirik usullar: Talabalar orasida o‘tkazilgan anonim anketalar va monitoring faoliyatlari.

Tadqiqot jarayonini rejalashtirish bosqichlari: Izlanish uch bosqichda kechdi:

Tayyorgarlik bosqichi: Muammoni aniqlash, gipotezani ishlab chiqish va metodik vositalarni tanlab olish. Asosiy bosqich (Eksperimental): Talabalar orasida test sinovlarini amalga oshirish, ularning stressga bardoshlilik darajasini belgilash va yig‘ilgan ma’lumotlarni tasniflash. Yakuniy bosqich: Olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish (masalan, Styuydent t-kriteriyidan yoki korrelyatsion tahlildan foydalanib) va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot davomida kasbiy tayyorgarlikda psixologik kreativlikni oshirishga mo‘ljallangan turli usullar va intervensiyalar sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot ishtirokchilari oliy ta’lim muassasalarining bakalavr talabalaridan iborat bo‘lib, ular eksperiment va trening mashg‘ulotlarida faollik bilan ishtirok etishdi. Empirik natijalar kvantitativ (so‘rovlar va testlar) va kvalitativ (tekshirish va fikr bildirish) ma’lumotlar asosida o‘rganildi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim, aqliy hujumlar va loyiha faoliyati talabalarining kreativ fikrlash darajasini ancha oshirishga yordam beradi. Masalan, Torrance Creativity Testga ko‘ra o‘rganilgan talabalarda divergent fikrlash, moslashuvchanlik va original yechimlarni topish darajasi eksperimentdan oldin o‘rtacha 55%, eksperimentdan so‘ng esa 78%ga yetdi. Ushbu o‘sish 23% ni tashkil etib, kasbiy tayyorgarlik jarayonida interfaol metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Talim mashg‘ulotlari va reflektiv tahlil orqali talabalarning o‘z fikrlash jarayonini tushunish va boshqarish imkoniyati oshdi. So‘rovnoma natijalari ko‘rsatdi-ki, talabalarning 82% ijodiy qarorlarini tahlil qilishni boshladi va ularni takomillashtirish uchun strategiyalar ishlab chiqdi. Bu esa metakognitiv yondashuvning psixologik ijodkorlikni rivojlantirishdagi o‘rnini tasdiqlaydi.

Motivatsiya va ruhiy xavfsizlik. Tadqiqot jarayonida pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratish (psixologik xavfsizlik, konstruktiv tanqid o‘rniga rag‘bat, subyekt-subyekt munosabatlari) talabalarning ichki motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Interfaol mashg‘ulotlarda faollik ko‘rsatgan talabalar psixologik kreativliklarini oshirishga katta motivatsiya bildirdilar — 87% respondentlar ijodiy jarayonda ishtirok etishdan mamnun ekanliklarini ta’kidladi.

4. Fanlararo yondoshuvning samarali natijalari. Psixologik kreativlikni oshirishda fanlararo integratsiya usuli ham muvaffaqiyatli bo‘ldi. Talabalar boshqa fanlardan orttirilgan bilimlarni psixologik sharoitlarda qo‘llash orqali yangi yechimlar yaratdi. Masalan, psixologiya + IT yoki psixologiya + san’at integratsiyasi asosida yaratilgan loyihalarda original g‘oyalar 35% ko‘proq paydo bo‘ldi.

5. Sifatli kuzatish natijalari. Tadqiqot va o‘yinlar davomida talabalar muammoli vaziyatlarda turli strategiyalarni sinab ko‘rishdi, xatolardan o‘rganib ijodiy qarorlar ishlab chiqdilar. Ushbu jarayonlar talabalarning moslashuvchan fikrlash qobiliyatini oshirdi va ularni mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorladi.

Talaba yoshlarda stressga bardoshlilikni shakllantirish mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ushbu tadqiqot quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Stressning muqarrarligi va adaptatsiya: Talabalik davri intellektual va psixologik bosimning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, stress har doim ham salbiy natijaga olib kelmaydi; agar talabada stressga bardoshlilik

mexanizmlari shakllangan bo‘lsa, u shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun turtki (evstress) bo‘lib xizmat qiladi. Mexanizmlarning o‘zaro aloqadorligi: Stressga bardoshlilik faqat bitta omil bilan belgilanmaydi. U kognitiv (vaziyatni to‘g‘ri baholash), emotsional (hissiyotlarni boshqarish) va ijtimoiy (atrofdagilarning qo‘llab-quvvatlashi) mexanizmlarning integratsiyalashgan majmuasidir. Ayniqsa, talabalarning o‘z-o‘zini baholash darajasi va ulardagi optimistik dunyoqarash stressni yengishda asosiy tayanch hisoblanadi. Koping-strategiyalarning ahamiyati: Muvaffaqiyatli talabalar stressli vaziyatlarda muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan konstruktiv strategiyalarni tanlaydilar. Aksincha, passiv va vaziyatdan qochishga moyil strategiyalar talabaning akademik o‘zlashtirishi pasayishiga va ruhiy tushkunlikka olib keladi. Tizimli yondashuv zarurati: Talabalarda bardoshlilikni oshirish faqat ularning individual harakati emas, balki oliy ta’lim muassasalaridagi muhitga ham bog‘liq. Universitetlarda psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmati, vaqtni boshqarish (time-management) ko‘nikmalarini o‘rgatish va ustoz-shogird tizimini takomillashtirish stress darajasini sezilarli darajada kamaytiradi.

Amaliy takliflar: Kelgusida talabalarning ruhiy barqarorligini ta’minlash uchun o‘quv dasturlariga "Shaxsiy samaradorlik va stress-menejment" kabi qisqa muddatli kurslarni kiritish, talabalar turar joylarida dam olish va psixologik yengillik xonalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Stressga bardoshli talaba — bu nafaqat imtihonlarni muvaffaqiyatli topshiradigan o‘quvchi, balki kelajakda murakkab hayotiy vaziyatlarda ham to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, jamiyat uchun foydali va raqobatbardosh mutaxassisdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Selye, H. (1976). The Stress of Life. McGraw-Hill Education. (Stress nazariyasining asosi).
2. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). Stress, Appraisal, and Coping. Springer Publishing Company. (Koping-strategiyalar bo‘yicha asosiy manba).
3. Maddi, S. R. (2002). The Story of Hardiness: Twenty Years of Theorizing, Research, and Practice. Consulting Psychology Journal: Practice and Research. (Bardoshlilik va chidamlilik nazariyasi).
4. G‘oziyev, E. G‘. (2010). Umumiy psixologiya. Toshkent: "Universitet". (Talabalar psixologiyasi va intellektual rivojlanish).
5. Karimova, V. M. (2000). Psixologiya. Toshkent: "Sharq". (Ijtimoiy moslashuv va shaxs psixologiyasi).
6. Shoumarov, G‘. B. (2008). Oila psixologiyasi. Toshkent: "Sharq". (Ijtimoiy muhitning stressga ta’siri).
7. Vodopyanova, N. E. (2009). Psixologiya stressa. Piter. (Stress menejmenti va profilaktikasi).

GENDER OMILLARINING KASB TANLASHGA TA'SIRINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yakubova Madina Bozorboy qizi
Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti
Namangan filiali Sirtqi ta`lim
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *mazkur maqolada gender omillarining yoshlarning kasb tanlash jarayoniga ta'siri keng qamrovda o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender stereotiplari, ijtimoiy rollar, oilaviy qarashlar va mehnat bozori talablarining o'ziga xosligi yoshlarning kasb tanlashida muhim ro'l o'ynaydi. Ayniqsa, an'anaviy qarashlar natijasida ayrim kasblar "erkaklar kasbi" yoki "ayollar kasbi" sifatida shakllanib qolgan. Bu esa shaxsning qobiliyati va qiziqishlariga mos kelmaydigan tanlovlarga olib kelishi mumkin.*

Kalit so'zlar*: gender, kasb tanlash, stereotip, ijtimoiy rol, mehnat bozori, tenglik.*

Abstract: *this article examines in detail the role of gender factors in career choice among young people. Research shows that gender stereotypes, social roles, family influence, and labor market structures significantly shape career decisions. Traditional perceptions often classify certain professions as "male" or "female", which may limit individuals from choosing careers based on their true interests and abilities.*

Keywords*: gender, career choice, stereotype, social role, labor market, equality.*

Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biridir. U nafaqat kelajakdagi ijtimoiy mavqe va iqtisodiy barqarorlikni belgilaydi, balki shaxsiy rivojlanish va farovonlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi zamonaviy jamiyatda kasb tanlash jarayoni turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanadi. Shu omillardan biri eng muhim bo'lib, u — gender omillaridir. Gender tushunchasi faqat biologik jins bilan cheklanmaydi; u jamiyat tomonidan erkak va ayollarga yuklangan ijtimoiy rollar, kutishlar va stereotiplar majmuasini ham o'z ichiga oladi. Aynan shu ijtimoiy qarashlar yoshlarning kasb tanlash qarorlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab jamiyatlarda erkaklar texnik, rahbarlik va yuqori daromadli kasblarga yo'naltiriladi, ayollar esa g'amxo'rlik, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy sohalarda faoliyat yuritishga undiriladi.

Natijada kasblarning gender bo'yicha ajralishi kuchayadi, bu esa jamiyatdagi gender stereotiplarini mustahkamlashga va shaxsning kasbiy imkoniyatlarini cheklashga olib keladi. Shu sababli gender omillari va ularning kasb tanlashdagi roli masalasi nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Statistikaga ko'ra,ayollar ko'proq ta'lim sogliqni saqlash xizmat ko'rsatish kabi "an'anaviy ayollar" sohalarida , erkaklar esa qurilish, transport, texnologiyalar kabi "erkaklar sohalarida to'planishmoqda [1]

Ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, gender stereotiplari inson ongida juda erta yoshdan shakllana boshlaydi. Ya'ni, bolalik davridan boshlab qiz va o'g'il bolalarga turlicha munosabatda bo'linadi, ulardan turli xil xulq-atvor va fazilatlar kutiladi. Masalan, qizlardan muloyimlik, sabr-toqat va g'amxo'rlik talab qilinsa, o'g'il bolalardan jasorat, mustaqillik va yetakchilik kutiladi. Bu esa ularning dunyoqarashi va o'zini tutishiga ta'sir qilib, keyinchalik

hayotiy qarorlarida, xususan kasb tanlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, jamiyatda ayrim kasblar an’anaviy tarzda erkaklar yoki ayollarga mos deb qaraladi [2]. Masalan, muhandislik, IT, qurilish, harbiylik kabi sohalar ko‘proq erkaklarga xos deb hisoblanadi. Aksincha, pedagogika, tibbiyot, xizmat ko‘rsatish yoki san’at yo‘nalishlari ko‘pincha ayollar bilan bog‘lanadi. Bunday qarashlar yoshlarning kasb tanlashiga bevosita ta’sir qilib, ularni o‘z qiziqishidan ko‘ra jamiyat fikriga ko‘proq tayanishga majbur qiladi.

Bundan tashqari, ayrim ilmiy tadqiqotlarda shuni ham ko‘rish mumkinki, gender stereotiplari nafaqat kasb tanlashga, balki insonning o‘z qobiliyatlarini qanday baholashiga ham ta’sir qiladi. Masalan, qizlar texnik fanlarda o‘zini past baholashi yoki bu sohalarga qiziqmasligi mumkin, hatto ular bu yo‘nalishda yaxshi natijalarga ega bo‘lsa ham. O‘g‘il bolalar esa aksincha, ijtimoiy yoki g‘amxo‘rlikka asoslangan kasblarni kamroq tanlaydi.

Shuningdek, olimlar fikricha, bunday stereotiplar mehnat bozorida kasblarning jinsga qarab bo‘linishiga olib keladi G. Baker o’zining “Oilaviy iqtisodiyot konsepsiyasida ayollarning haq to’lanmaydigan uy mehnati tufayli rasmiy mehnat bozorida kamroq ishtiroq etishini asoslab beradi. Bu holat ularning iqtisodiy faolligini cheklaydi va uzoq muddatli bandlik salohiyatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.[3]. Natijada ayrim sohalarda faqat erkaklar yoki faqat ayollar ustunlik qiladi. Bu holat esa mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanmaslikka sabab bo‘ladi. Chunki har bir inson o‘z qiziqishi va qobiliyatiga mos kasbni tanlamaydi, balki ijtimoiy stereotiplarga moslashishga harakat qiladi. Shuningdek, ko‘pchilik talabalar kasb tanlashda faqat o‘z qiziqishi yoki qobiliyatiga emas, balki jamiyat fikriga ham e’tibor berishini bildirgan. Ya’ni, ular atrofdagilar qanday baho berishini, tanlagan kasbi boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishini hisobga oladi. Bu holat esa erkin tanlov qilishga ma’lum darajada to‘sqinlik qiladi. Tadqiqot natijalari yana shuni ko‘rsatdiki, inson o‘z qobiliyatlarini baholash jarayonida ham ijtimoiy stereotiplardan ta’sirlanadi. Masalan, ayrim talabalar o‘z imkoniyatlarini past yoki yuqori baholashda jamiyatdagi mavjud qarashlarga tayanadi.Kasb tanlovi – har doim motivatsiyalangan harakat.Inson ko’plab alternativlar ichidan o’zi uchun eng jozibador deb bilgan birini tanlaydi.[4]

Kasb tanlash jarayonida oila ham muhim o‘rin tutadi. Ko‘pincha ota-onalar farzandlariga o‘z qarashlariga mos keladigan kasblarni tavsiya qiladi. Masalan, qizlarga “yengilroq” yoki “mosroq” deb hisoblangan kasblar, o‘g‘illarga esa daromadli va nufuzli kasblar tavsiya etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onaning fikri yoshlarning qaror qabul qilishida katta rol o‘ynaydi [5]. Biroq ba’zi hollarda bu ta’sir salbiy bo‘lishi ham mumkin, chunki yoshlar o‘z qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqib emas, balki ota-onaning istagiga qarab kasb tanlashi mumkin.

Gender stereotiplari o‘z-o‘zini baholashga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda kuzatilishicha:

- qizlar ko‘pincha texnik va murakkab yo‘nalishlardan chekinishga moyil bo‘ladi

- o‘g‘illar esa ijtimoiy va g‘amxo‘rlikka asoslangan kasblarga kamroq qiziqadi

Bunday holatning asosiy sababi — jamiyatda shakllangan “qaysi kasb kimga mos” degan qarashlardir. Natijada ayrim yoshlar o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olmaydi va o‘z salohiyatidan to‘liq foydalanmaydi.

So‘nggi yillarda jamiyatda gender stereotiplari asta-sekin kamayib, ijobiy o‘zgarishlar ham kuzatilmoqda. Avvallari “erkaklar kasbi” yoki “ayollar kasbi” degan qat’iy qarashlar kuchli bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu fikrlar asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Xususan, ayollar ilgari kam uchragan texnika, IT, muhandislik va boshqa aniq fanlar yo‘nalishlariga tobora ko‘proq kirib kelmoqda. Ular bu sohalarda yaxshi natijalarga erishib, o‘z salohiyatini namoyon qilmoqda. Shu bilan birga, erkaklar ham an’anaviy ravishda “ayollarga xos” deb qaralgan ijtimoiy sohalar — pedagogika, tibbiyot, psixologiya va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlariga qiziqish bildira boshlamoqda.

Bu jarayon jamiyatda gender tenglik haqidagi tushunchalar kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bunday o‘zgarishlar yoshlarning kasb tanlashda erkinroq bo‘lishiga va stereotiplardan kamroq ta’sirlanishiga yordam bermoqda [6].

Umuman olganda, bu ijobiy tendensiyalar kelajakda mehnat bozorida muvozanatni yaxshilashga va har bir insonning o‘z qobiliyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tahlil va tadqiqot natijalari gender stereotiplari yoshlarning kasb tanlash jarayoniga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Jamiyatda mavjud “erkaklar kasbi” va “ayollar kasbi” degan qarashlar ko‘plab yoshlarning qaroriga bevosita yoki bilvosita ta’sir qilib, ularning erkin tanlov qilish imkoniyatini ma’lum darajada to’siqlar qo’yadi. Bunday stereotiplar natijasida ba’zi vaziyatlarda yoshlar o‘z qiziqishi va qobiliyatiga mos bo‘lmagan kasbni tanlashlari mumkin. Bu esa kelajakda ularda qoniqmaslik, salohiyatning to‘liq namoyon bo‘lmasligi va mehnat bozorida yetuk kadr bo’la olmaslik kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida ijobiy o‘zgarishlar ham kuzatildi. Ya’ni, so‘nggi yillarda yoshlar kasb tanlashda asta-sekin stereotiplardan uzoqlashib, ko‘proq o‘z qiziqishi va qobiliyatiga tayanishga harakat qilmoqda. Masalan, erkaklar dizaynerlik bilan keng faoliyat olib bormoqda, ayollar esa muhandislik sohalarida ham o’z qobilyatlarini namoyon qilmoqda.

Shuning uchun yoshlarni erkin fikrlashga, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashga va kasb tanlashda faqat ijtimoiy stereotiplarga emas, balki shaxsiy qiziqish va qobiliyatga tayanishga yo‘naltirish muhim hisoblanadi. Gender tengligini rivojlantirish esa jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.R. Gulyamov va b. Bolalarning gender o’ziga xosliklari bilish jarayonini faollashtirish omili sifatida. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Navoiy bo’limi. ISSN 2992-9024 2024, №8

2. Shoumarov G. *Psixologiya*. – Toshkent, 2016. https://staff.tiiame.uz/storage/users/164/books/mgIFnR5DUyB7uoKeX4sME7pa2Sx4baj2rX1kEGSy.pd
3. L.Sh. Rahimova “Mehnat bozorida ayollarning ijtimoiy faolligi va raqobatbardoshligini baholash”-“Raqamli iqtisodiyot” ilmiy electron jurnali 11-son. www.INFOCOM.UZ
4. S.M Sadullayeva. Kasb egallash bilan bog’liq xavotirlar va ularni tadbiq qilishning zaruriyati.-Oriental Renaissance:Innovative, educational, natural and sciences. ISSN:2181-1784 5(6) 2025
5. Qurbonov M. *Oila sotsiologiyasi*. – Toshkent, 2018.
6. Nishonova S. *Pedagogika nazariyasi*. – Toshkent, 2020

YOSHLARNING KASB TANLASHIDA MOTIVATSIYASI VA QADRIYATLARNING ROLI

Kuldasheva Lobaroy Baxtiyor qizi
NamDU Psixologiya yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarning kasbiy o’zligini anglash jarayonida motivatsiya va shaxsiy qadriyatlarning tutgan o’rni yoritiladi. Tadqiqotda mavjud ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, gender farqlari, qadriyatlar tizimi va motivatsiya yetishmovchiligining salbiy oqibatlari yoritib beriladi. Noto’g’ri kasb tanlash, motivatsiya yetishmasligidan yuzaga keladigan psixologik va pedagogik muammolar ochib berilib, ularni oldini olish masalasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu maqoladan o’qituvchilar, talabalar va kasb tanlashga qiziquvchi shaxslar foydalanishlari mumkin.*

Kalit so’zlar: *Kasb tanlash, motivatsiya, qadriyatlar, ichki motivatsiya, gender farqlari, psixodiagnostika, kasbiy moslashish, motivatsion defitsit.*

Abstract: *This article examines the role of motivation and personal values in the process of young people's professional identity. The study analyzes existing scientific approaches, highlights gender differences, value systems, and the negative consequences of lack of motivation. It reveals psychological and pedagogical problems arising from the wrong choice of profession and lack of motivation, and develops practical recommendations for their prevention. This article can be used by teachers, students and individuals interested in choosing a profession.*

Keywords: *Career choice, motivation, values, intrinsic motivation, gender differences, psychodiagnostics, professional adaptation, motivational deficit.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль мотивации и личностных ценностней в процессе формирования профессиональной идентичности молодых людей. В исследовании анализируются существующие научные подходы, выделяются гендерные различия, системы ценностей и негативные последствия недостатка мотивации. Выявляются психолого-педагогические проблемы, возникающие из-за неправильного выбора профессии и недостатка мотивации, и разрабатываются практические рекомендации, по их предотвращению. Данная статья может быть полезна преподавателям, студентам и лицам заинтересованным в выборе профессии.*

Ключевы слова: *выбор карьреры, мотивация, ценности, внутренняя мотивация, гендерные различия, психодиагностика, профессиональная адаптация, дефицит мотивации.*

Hozirgi rivojlanayotgan davrda to'g'ri kasb tanlash iqtisodiy zaruriyat hisoblanib, balki shaxsning o’zligini namoyish qilish vositasi hamdir. Yoshlarni

to’g’ri kasbga yo’naltirish ularning hayot sifatini oshirishning muhim omilidir, chunki inson o’z faoliyatidan qanchalik qanoat hosil qilsa, uning umumiy hayotdan mamnunlik darajasi shunchalik yuqori bo’ladi. Bugungi kunda ko'plab yoshlar mustaqil tanlovdan ko'ra ota-ona tavsiyasini afzal deb bilishadi.[1]Shuningdek, hayot sifati faqat moddiy boylik bilan o’lchanmaydi. Inson o’zining sevimli kasbi, mashg’uloti bilan shug’ullangandagina o’zini baxtli his qiladi va jamiyatga chinakam foyda keltira oladi. Shuning uchun kasb tanlash bu shunchaki daromad manbai emas, balki kasbi orqali o'z hayot yo'lini qurish demakdir. Bu mashaqqatli yo'lda yuqori cho'qqilarga erishish uchun har bir faoliyat yo'lida izlanishlar, tadqiqotlar olib borish joiz hisoblanadi. Kasb tushunchasi - bu har bir shaxsning individual ichki salohiyati, qiziqishi, ehtiyojlari va motivatsiyasi hamda bilim darajasiga qarab o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga erishish yo’lidagi ilk qadamlari hisoblanadi. Kasbni insonning " ichki men" i va tashqi dunyo o’rtasidagi ko’prik deb bilamiz. Agar bu ko’prik mustahkam (bilim va qiziqishga asoslangan) bo’lmasa, shaxs o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga yetishda qiyinchiliklarga duch kelaveradi. Kasbiy motivatsiya shaxsni ma‘lum bir faoliyat turiga yo’naltiruvchi kuchdir. H. Heckxausen tadqiqotlariga ko’ra, motivatsiya shaxsning maqsadiga erishish ehtiyoji bilan bevosita bog’liqdir [2]. Motivatsiya kasb tanlashda shaxsning ichki va sabab va maqsadlarini anglash jarayoni bo'lib, ongli ravishda insonni faoliyatga yo'naltiradi. Agar tanlov faqat tashqi motivlar (moddiy manfaat yoki ota-ona bosimi) asosida bo'lsa, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish oson bo'lmaydi. Shu o'rinda: Kasb tanlashda qadriyatlar hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. M. Rokich qadriyatlarni ikki turga ajratib bo'lib, terminal (hayotiy maqsadlar) va instrumental(bu maqsadlarga erishish vositalari) qadriyatlarga ajratadi.[3] Ushbu tasnif shaxsning kasb tanlashda ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi. Yoshlar o'z kasbini tanlaganda qadriyatlarga mos bo'lsa, ularda "Kasbiy yo'nalish" holati ozroq kuzatiladi. Kasb tanlash jarayonida yo'naltirishning muhim vazifalaridan biri bu - yoshlarning individual tipologik xususiyatlarini, yoshi va jinsiga ahamiyat berish muhim vazifasidir. E. A. Klimovning fikricha, shaxsning psixologik xususiyatlari kasbiy o'zlikni aniqlash bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir.[4] Bugungi kunda raqamli axborot texnologiyalari va iqtisodiyot rivojlanishi yoshlar motivatsiyasini oshirmoqda. Ko'plab yoshlarimiz IT sohasiga qiziqib, yuqori natijalarga erishishmoqda. Bundan tashqari zamonamiz rivojlangani sari ta'limda katta o'zgarishlar kiritilgan. Shu jumladan, ishlab o'qish istagida bo'lgan yoshlar va harbiylarimizga masofadan turib o'qish imkoniyatlar eshigi ochib berildi. Kasb tanlash jarayonida yoshlarning qadriyatlar tizimi va motivatsiyasi ularning gender xususiyatlari bilan chambarchas bog’liqdir. Bugungi kunda gender chegaralarida o'zgarishlar kiritilgan bo'lib, qizlarimiz ham texnika va IT sohasi va matonat talab etadigan kasblarni ham tanlashmoqda. Klimovning "Kasbiy o'zlikni anglash" nazariyasi shaxsning jinsidan qat‘i nazar asosiy omil hisoblanib, har bir insonning "Men" ini anglashda juda keng qo‘llaniladi.[4] Biroq bu farqlar har bir shaxsning individual xususiyatlariga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Ushbu qadriyatlar tizimi yoshlarning jinsiga qarab tasniflanishi quyidagicha:

1. Qiz bolalarda kasb tanlash xususiyatlari:

Qizlar uchun kasb tanlashda quyidagilar muhim hisoblanadi:

*** Insonparvarlik :** Ta'lim va tibbiyot va tikuvchilik sohalariga moyillik.

*** Muloqot va muhit:** Insonlar bilan yaxshi muloqotda bo'lish va jamoada emotsional muhitning zarurligi.

*** Estetika:** Ijodkorlik bilan bog'liq sohalar: San'at, raqs, gimnastika va go'zallik.

*** Barqarorlik va xavfsizlik:** Ko'pincha qizlarimiz kamroq xavf tug'diradigan barqaror ishlarni tanlashadi.

2. Yigitlarda kasb tanlash xususiyatlari: Instrumental va statusli qadriyatlar esa ularda aksincha ustunlik beradi.

*** Muvaffaqiyat va tan olinish:** Nufuzli kasb egasi bo'lish va jamiyatda yaxshi mavqega ega bo'lishga harakat qilish.

*** Moddiy farovonlik:** Kasbning daromad darajasi qoniqarli va iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashi.

*** Texnik amaliy yo'nalish:** Mehnat talab qiladigan sohalarga qiziqish: Texnika, texnologiya, boshqaruv va jismoniy faoliyat.

*** Raqobat va mustaqillik:** Raqobat holatda ham o'zini rivojlantirish istagi, o'z qarorlarini mustaqil qabul qila olish. Garchi gender farqlari mavjud bo'lsa-da, har qanday kasbda insoniylik va professionallik birinchi o'rinda bo'lishi lozim. Yigitlarning natijaga yo'naltirilganligi sohaning rivojlanishini ta'minlasa, qiz bolalarning ijtimoiy muhitga e'tibori jamoada sog'lom muhitni yaratadi.

Motivatsiya yetishmasligining salbiy oqibatlari:

Motivatsiyaning yetishmasligi kasb tanlash jarayonida bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi:

*** Kasbiy adekvatlikning yo'qolishi:** Yoshlar o'z qobiliyatlarini seza olmay, tasodifiy sohalarga kirib qoladilar.

*** Psixologik tushkunlik:** Ichki turtkisiz tanlangan kasb yillar o'tishi bilan surunkali charchoq va o'z faoliyatidan qoniqmaslik, tushkunlikni (emotsional yonish) yuzaga keltiradi.

*** Ijtimoiy loqaydlik:** Jamiyatda o'z sohasining yetuk kadri bo'lmagan o'z kasbini tushunmaydigan, faqat moddiy manfaat uchun ishlaydigan sifatsiz kadrlar qatlami shakllanadi.[5] K. Zamfir tadqiqotlariga ko'ra, shaxsning motivatsiyasi mehnatdan qoniqish darajasi o'zaro uzviy bog'liqdir.[5] Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida yoshlarning qiziqishlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, kasbga yo'naltirish ishlari olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda barcha bilim dargohlarida: Maktab va oliy dargohlarda shuningdek, ota-onalar yoshlarni to'g'ri kasbga yo'naltirishda ularning fikrlari, motivatsiyasi, qiziqishlari va qadriyatlariga e'tibor berish muhim. Psixologik testlar (Maslou, Klimov, Rokich, Holland), eksperiment (tajriba), so'rovnoma (anketa), test, suhbat (intervyu), kuzatish metodlari yordamida qiziqish, ichki motivatsiya va qadriyatlarni aniqlash, va ularga shaxsiy yo'nalish berish tavsiya etiladi.[6] Shu bilan birga amaliy mashg'ulotlar, seminarlar va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirish, kasb turlari haqida ma'lumotlar berish orqali yoshlar ongli ravishda o'z qiziqishlari orqali barqaror kasbni tanlay olishadi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, yoshlarning kasb tanlashida motivatsiya va qadriyatlarning o'rni beqiyos. Motivatsiya va qadriyatlar tizimi o'zaro uzviy

bog’liqlikda harakat qilish natijasida yaxshilanadi. Kasbni tanlov qilishda faqatgina tashqi omillar emas, balki shaxsning ichki ehtiyoji, qiziqishlari inobatga olinishi lozim. Yoshlarni to’g’ri kasbga yo’naltirish ularda jamiyatning ertangi kuniga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, hayot mazmunini anglashga undaydi. Maqola orqali ko’zlangan maqsadimiz - yoshlarga to’g’ri kasb tanlashga ko’maklashishdir. Shu o’rinda, yoshlarni to’g’ri yo’lga chorlash, begona yo’llarga chalg’imasliklari uchun ota-onalar va bilim dargohlari hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Zeroki, to’g’ri tanlangan kasb - baxtli kelajak, farovon hayot, sog’lom turmush, rivojlanayotgan jamiyat demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdullayeva R. M. Yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish hayot sifatini oshirishning omili sifatida. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.-2023. - Volume 3, Issue 2.- P. 171-178 betlar.
2. Хекхаузен В. Психология мотивации. 2-е издание.- Санк-Петербург: Питер, 2003.- 864 с.
3. Rokich M. The Nature of Human Values - New York : Free Press, 1973.-483p
4. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения: Учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений.- Москва: Издательский центр " Академия", 2010.- 304 с.
5. Замфир К. Удовлетворенность трудом. Мнение социолога. / Перевод с румынского.- Москва: Политиздат, 1983.- 142 с.
6. G’oziyev E. G’. Umumiy psixologiya. 1-kitob.- Toshkent: Universitet, 2010.- 544 b.

PSYCHOLOGICAL BARRIERS AND STRATEGIES FOR GUIDING UZBEK IMMIGRANT YOUTH ABROAD TOWARD MODERN PROFESSIONS

Ganiev Akhrorjon
Doctoral student of Kangwon National University Chuncheon, South Korea

Abstract: *This paper examines the key psychological barriers faced by Uzbek immigrant youth abroad in accessing and pursuing modern professions. It focuses on acculturative stress, foreign language anxiety, and socio-cultural adaptation challenges that hinder career development. The study also proposes practical strategies, including psychological support systems, mentorship programs, and career guidance interventions, to facilitate more effective professional orientation and integration into the global labor market.*

Keywords*: immigrant youth, acculturative stress, career guidance, psychological barriers, foreign language anxiety, socio-cultural adaptation, professional development*

Annotatsiya: *Ushbu maqola xorijda yashayotgan o‘zbek immigrant yoshlarning zamonaviy kasblarni tanlash va ularni egallash jarayonida duch keladigan asosiy psixologik to‘siqlar tahlil qilingan. Unda akkuturatuv stress, chet tilida so‘zlashishdagi xavotir (foreign language anxiety) hamda ijtimoiy-madaniy moslashuv muammolarining kasbiy rivojlanishga salbiy ta’siri yoritiladi. Shuningdek, tadqiqot doirasida psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari, mentorlik dasturlari va kasbiy yo‘naltirishga qaratilgan amaliy aralashuvlar kabi samarali strategiyalar taklif etilib, yoshlarning global mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlash yo‘llari ko‘rsatib beriladi.*

Aslida kasbiy tanlovning mohiyati – bu shaxsning individual xususiyatlari (qobiliyatlari, qiziqishlari, imkoniyatlari) hamda ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, o‘zini anglayotgan inson uchun eng maqbul bo‘lgan mehnat yo‘li yoki kasbiy faoliyat variantini topishdan iborat bo‘lib ko‘pincha bitiruvchilar yo‘l qo‘yadigan asosiy xatolar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

• ish joyi yoki ta’lim muassasasini tanishlar, do‘stlar yoki o‘ziga yoqadigan shaxslarning fikri ta’sirida tanlash;

• “qayerga o‘qishga kira olsam o‘sha yerga o‘qiyman”, “boshqa joyga kira olmayman” degan tamoyil asosida o‘qishga kirish;

• barcha e’tiborni mutaxassislikka emas, balki oliy ta’lim muassasasini tanlashga qaratish. Bu holat odatda “eng muhimi – o‘qishga kirish, keyin hammasi o‘z-o‘zidan bo‘lib ketadi” degan noto‘g‘ri ishonch bilan kechadi;

• kasbning tashqi jozibadorligiga ortiqcha e’tibor qaratish, tanlangan mutaxassislikning murakkab tomonlarini yetarlicha baholamaslik, kasb nufuzini o‘ziga avtomatik tarzda ko‘chadi degan ichki (ko‘pincha anglanmagan) tasavvurga ega bo‘lish;

• modaga ergashish natijasida ayni paytda eng ommabop va talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklardan birini tanlash.

O‘spirinlarni kelajakdagi kasbiy tanlovga tayyorlash ushbu xatolarning oldini olishga yordam beradi. Bu jarayon nafaqat bitiruvchining qaysi oliy ta’lim muassasasiga hujjat topshirishini aniqlash, balki tanlangan faoliyat sohasiga nisbatan ijobiy kasbiy motivatsiyani shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Aynan shu motivatsiya yosh insonning kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, bugungi kunda ko‘pchilik talabalar, ya’ni go‘yoki o‘z kasbiy qiziqishlarini aniqlab olgan shaxslar ham, mutaxassislik bo‘yicha ish izlashni “diplomdan keyin”ga qoldirishni afzal ko‘radilar. O‘qish jarayonida esa faqat juda kam sonli talabalar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha qo‘shimcha ish (amaliy tajriba) izlaydilar. Shu bilan birga, yoshlar samimiy ravishda o‘zlari uchun eng muhimi – bu karyera qilish deb hisoblaydilar, ko‘pincha yuqori darajadagi daromadga nisbatan ortiqcha kutishlarga ega bo‘ladilar va oliy ta’limni tugatgandan so‘ng ham amaliy faoliyat uchun yetarli darajadagi malakaga ega bo‘lmaydilar. Natijada, ish beruvchilar yosh mutaxassislarni ishga qabul qilgach, ularni yana qo‘shimcha ravishda 1–2 yil davomida o‘qitish va moslashtirish uchun vaqt hamda mablag‘ sarflashga majbur bo‘ladilar. O‘spirinlarning kasbiy tanlovga tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan ishlar maktab o‘quvchilariga keyingi ta’lim yo‘nalishini tanlashda ham, kasbiy ta’lim olish jarayonida ham ongli va mas’uliyatli yondashuvni shakllantirish uchun zarur. Ushbu jarayon, avvalo, o‘quvchilarning e’tiborini oldinda turgan muhim tanlov muammosiga jalb etishga xizmat qiluvchi faollashtiruvchi metodlardan boshlanadi.

Bu metodlar orqali o‘quvchilar kasb tanlash muammosining turli jihatlari bilan tanishtiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarga shuni tushuntirish kerakki ular keyingi ta’lim yo‘nalishini tanlash – bu ularning hayotiy va kasbiy yo‘lida amalga oshiriladigan ko‘plab tanlovlarning faqat dastlabki bosqichi ekanligini tushunib yetishsin. Bu jarayon faqatgina kasbni bir marta tanlash bilan cheklanib qolmaydi. Balki inson faoliyati davomida kasbini o‘zgartirishi, yangi yo‘nalishlarni o‘zlashtirishi yoki kasbiy o‘sish orqali yangi lavozimlarga ko‘tarilishi mumkin. Masalan, dastlab amaliy faoliyat bilan shug‘ullangan mutaxassis keyinchalik tajriba orttirib, rahbarlik yoki ma’muriy lavozimga o‘tishi mumkin. Bu esa kasbiy rivojlanishning tabiiy bosqichi bo‘lib, insondan doimiy ravishda o‘z ustida ishlashni, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashni talab etadi. Buning uchun bitiruvchilarni kasbiy tanlovga yo‘naltirishda quyidagi shakl va metodlardan foydalanish mumkin:

• individual suhbat-konsultatsiyalar – bunda faollashtiruvchi savollar, o‘zini anglash va o‘z taqdirini belgilash bilan bog‘liq vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish texnologiyalari qo‘llaniladi;

• treninglar – o‘quvchilarning o‘zini anglash, qaror qabul qilish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar;

• kasbga yo‘naltiruvchi o‘yinlar va mashqlar – o‘yin shaklida tashkil etilib, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, turli kasblar haqida tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi;

• maxsus tashkil etilgan munozaralar – kasb tanlashning turli jihatlari, qadriyatlar va hayotiy maqsadlar yuzasidan fikr almashish imkonini beradi;

• faollashtiruvchi so‘rovnomalar – o‘zini anglashning murakkab qadriyatli-ma’noviy jihatlari haqida chuqur o‘ylashga undovchi maxsus savollarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur metod va shakllar o‘spirinlarning kasbiy o‘zini anglashini rivojlantirishga, ularni mustaqil fikrlashga undashga hamda ongli va asoslangan kasbiy tanlov qilishga tayyorlashga xizmat qiladi. Maktab o‘quvchilarining o‘z kelajagi haqida chuqur o‘ylashga intilmasligi sharoitida ularning e’tiborini kasbiy tanlov muammosiga qaratish bilan bir qatorda, faollashtiruvchi metodikalardan foydalanish yana bir muhim vazifani bajaradi. Xususan, N.S. Pryajnikov tomonidan ishlab chiqilgan metodikalar nafaqat o‘quvchilarni faollashtiradi, balki boshqa bir ekstremal holat-diagnostika natijalarini haddan tashqari jiddiy, mutlaq haqiqat sifatida qabul qilishning oldini olishga ham xizmat qiladi. Shu bois, pedagogik va psixologik ish jarayonida o‘spirinlarga quyidagi muhim jihatlarni muntazam ravishda eslatib borish zarur: tanlangan kasb bo‘yicha faoliyat yuritish, ayniqsa raqobat kuchli bo‘lgan zamonaviy mehnat bozorida, aynan ularning o‘ziga bog‘liq bo‘ladi. Demak, kasb tanlashda tashqi bosimlar yoki tasodifiy omillarga emas, balki shaxsiy qiziqishlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar va ichki motivatsiyaga tayanish muhimdir. Xulosa qilib aytganda, faollashtiruvchi metodikalardan foydalanish o‘spirinning kasbiy o‘zini anglash jarayonini muvozanatlashtiradi: bir tomondan, ularni tanlov haqida o‘ylashga undasa, ikkinchi tomondan, diagnostika natijalarini tanqidiy va ongli tarzda qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida, mas’uliyatli, mustaqil va asoslangan kasbiy qaror qabul qilishning muhim sharti hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoda yuz minglab kasblar mavjud bo‘lib, har

yili ularga yana yuzlab yangi kasblar qo‘shilmoqda. Kasblarning “hayot davomiyligi” odatda 5 yildan 15 yilgacha bo‘lib, shundan so‘ng ular yo butunlay yo‘qoladi, yoki tubdan o‘zgarib, yangi mazmun kasb etadi. Bu esa shuni anglatadiki, inson o‘z mehnat faoliyati davomida bir necha bor kasbini o‘zgartirishga yoki mavjud kasb doirasida yuz berayotgan o‘zgarishlarga moslashishga majbur bo‘ladi. Bunda asosiy vazifa – o‘zining kasbiy layoqatini saqlab qolish va rivojlantirib borishdan iborat.

Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda kasb haqidagi tasavvurlar ham sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Ilgari jamiyat va individual ongda “ideal mutaxassis” obrazi muayyan shaxslar, ularning kasbiy faoliyati va hayot yo‘li bilan bog‘liq holda shakllangan edi. Ya’ni, odamlar aniq bir kasb egasining namunasi asosida o‘z yo‘lini tanlashga intilganlar.

Natijada, kasb tanlash jarayonida u shaxs hayotining muhim va ajralmas qismi sifatida emas, balki ko‘zlangan hayot tarziga erishish uchun xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, kasbiy motivatsiya va kasbga sodiqlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вершинин С.И., Сурудина Е.А. Как осуществить профессиональный выбор. Методические рекомендации. – М., 2001.
2. Ориббоева, Д. Д., Мирзаахмедова, Д. М. (2024). Болаларда ижтимоий кўникмаларни ривожлантиришнинг аҳамияти. *Science and Education*, *5*(2), 595-599.
3. Oribboyeva, D. D. (2020). Social competence as an integral part of the teacher's professional maturity. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(11), 347353.
4. Ориббоева, Д. Д. (2019). The influence of social competens on professional choice. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(9), 256-261.

O‘QUV JARAYONIDA TALABALARDA QAROR QABUL QILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

(O’zbek oilalari misolida**)**

Turg’unboyeva Azizaxon G’ulomovna
NamDPI Kreativ pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasbiy ta’lim jarayonida shaxsda o’zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari tahlil qilingan. Tadqiqotda shaxsning kasbiy o’zini-o’zi belgilashida oilaviy muhit, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy kutilmalar va etnopsixologik omillarning ta’siri ilmiy asoslangan. Empirik natijalarga tayangan holda yoshlarda o’zlikni anglash darajasining kasb tanlashga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, kasbiy ta’lim tizimida o’zlikni anglashni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so’zlar: *kasbiy ta’lim, o’zlikni anglash, ijtimoiy-psixologik determinantlar, shaxs, qadriyatlar, oilaviy muhit, etnopsixologik omillar, gender rollar, motivatsiya, kasbiy yetuklik, psixologik diagnostika, identifikatsiya, ijtimoiy ta’sir.*

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические детерминанты формирования самосознания личности в процессе профессионального образования. В исследовании научно обосновано влияние семейной среды, системы ценностей, социальных ожиданий и этнопсихологических факторов на профессиональное самоопределение личности. На основе эмпирических результатов раскрыто влияние уровня самосознания молодежи на выбор профессии. Также разработаны научно-практические рекомендации, направленные на развитие самосознания в системе профессионального образования.
Ключевые слова: профессиональное образование, самосознание, социально-психологические детерминанты, личность, ценности, семейная среда, этнопсихологические факторы, гендерные роли, мотивация, профессиональная зрелость, психологическая диагностика, идентификация, социальное влияние.
Abstract: This article analyzes the socio-psychological determinants of the formation of self-awareness in an individual during the process of vocational education. The study scientifically substantiates the influence of the family environment, the value system, social expectations, and ethnopsychological factors on an individual's professional self-determination. Based on empirical results, the influence of the level of self-awareness in young people on career choice is revealed. Additionally, scientific and practical recommendations aimed at developing self-awareness within the vocational education system have been developed.
Keywords: professional education, self-awareness, socio-psychological determinants, personality, values, family environment, ethnopsychological factors, gender roles, motivation, professional maturity, psychological diagnostics, identification, social influence.

Bugungi globallashuv va raqamli muhit sharoitida mehnat bozoridagi keskin o’zgarishlar, yangi kasblarning paydo bo’lishi va mavjud kasblarning transformatsiyasi yoshlarning kasb tanlash jarayoniga yangidan - yangi talablar qo’ymoqda. Bunday sharoitda shaxsning o’zligini anglash darajasi uning kasbiy o’zini-o’zi belgilashi va kelgusida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining muhim psixologik asosi hisoblanadi.

Ushbu jarayonida yoshlarning o’z “Men”ini anglashi, o’z qobiliyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini to’g’ri baholay olishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki o’zlikni anglashning yetarli darajada shakllanmaganligi yoshlarda kasb tanlashda ikkilanishlar, tashqi ta’sirlarga ortiqcha bog’liqlik, shuningdek, kasbiy nomuvofiqlik holatlarini keltirib chiqaradi.

Mazkur muammo, ayniqsa, o’zbek oilalari misolida yanada o’ziga xos xususiyatlarga ega. Milliy qadriyatlar, an’anaviy oilaviy munosabatlar, gender rollar va ijtimoiy kutilmalar yoshlarning kasb tanlash jarayoniga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Ko’p hollarda yoshlar shaxsiy qiziqish va qobiliyatlaridan ko’ra, ota-ona tanlovi yoki jamiyat tomonidan belgilangan “maqbul” kasblarga yo’naltiriladi. Bu esa o’zlikni anglash jarayonining to’liq shakllanmasligiga olib kelishi mumkin.

Kasbiy ta’lim jarayonida shaxsning o‘zligini anglash masalasi bugungi kunda dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning kasb tanlashi jarayonida ularning o‘z “Men”ini anglash darajasi, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy muhit ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zlikni anglash – bu shaxsning o‘z imkoniyatlari, qiziqishlari, ijtimoiy roli va kelajakdagi kasbiy yo‘nalishini anglash jarayoni bo‘lib, u ko‘plab ijtimoiy-psixologik omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu jarayonda oila instituti yetakchi determinant sifatida namoyon bo‘ladi.

Xususan, o‘zbek oilalarida an’anaviy qadriyatlar, ota-onaning kasbga oid qarashlari, gender rollari va turli ijtimoiy omillar yoshlarning o‘zlikni anglashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab yoshlar kasb tanlashda shaxsiy qiziqishlaridan ko‘ra oilaviy bosim yoki ijtimoiy stereotiplarga ko‘proq tayanadi. Bu holat esa o‘zlikni anglash jarayonining yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi. Natijada, kasbiy moslashuv muammolari, motivatsiya pasayishi va psixologik qoniqmaslik yuzaga kelishi mumkin.

Ma’lumki, o‘zlikni anglashning shakllanishida ta’lim muassasalari, tengdoshlar guruhi hamda ommaviy axborot vositalari ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, zamonaviy axborot makonida yoshlarning kasb haqidagi tasavvurlari tez o‘zgarib bormoqda, bu esa ularning ichki qaror qabul qilish jarayoniga murakkab ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, kasbiy ta’lim tizimida yoshlarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o’zlikni anglashni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar yetarli darajada samarali yo’lga qo’yilmaganligi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu bois, kasbiy ta’limda o’zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlarini o’rganish, ularning yoshlar kasbiy yo’nalishiga ta’sirini tahlil qilish va ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu sababdan, kasbiy ta’limda o’zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlarini o’rganish va tahlil qilish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Kasbiy ta’lim muassasalarida psixologik diagnostika tizimini joriy etish
2. Yoshlarning qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy asoslangan psixodiagnostik metodikalar (masalan, shaxsiyat testlari, motivatsiya va qadriyatlar diagnostikasi)dan muntazam foydalanish zarur.
3. Talaba va o’quvchilar uchun maxsus psixologik treninglar (o’z-o’zini anglash, maqsad qo’yish, qaror qabul qilish, kasbiy identifikatsiya)ni tashkil etish orqali ularning ichki imkoniyatlarini ochib berish lozim.
4. Oilalarda yoshlarning mustaqil kasb tanlashini qo’llab-quvvatlash maqsadida ota-onalar uchun seminar va treninglar o’tkazish, an’anaviy stereotiplarni yumshatish muhim.
5. Kasbga yo’naltirishda individual yondashuvni kuchaytirish
6. Har bir yoshning shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda individual kasbiy maslahat (konsulьtatsiya) berish tizimini yo’lga qo’yish zarur.
7. Maktab, OTM va oila o’rtasida uzviy hamkorlikni yo’lga qo’yish orqali yoshlarning ongli kasb tanlashiga sharoit yaratish lozim.
8. Milliy-etnopsixologik xususiyatlarni hisobga olish
9. Kasbga yo’naltirish jarayonida milliy qadriyatlar, gender rollar va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda differentsial yondashuvni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
10. Raqamli platformalar orqali kasbiy yo’naltirishni rivojlantirish
11. Onlayn testlar, kasblar bazasi va interaktiv maslahat platformalarini yaratish

orqali yoshlarga qulay va zamonaviy imkoniyatlar taqdim etish mumkin.
Amaliy jihatdan, kasbiy ta’lim tizimida psixologik diagnostika va trening dasturlarini joriy etish, ota-onalar bilan ishlashni kuchaytirish, individual yondashuvni ta’minlash hamda milliy-etnopsixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda kasbga yo’naltirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Shu nuqtai nazardan yondashilganda, kasbiy ta’lim tizimi doirasida o‘zlikni anglash jarayonini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus psixologik dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bunday dasturlar yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va ichki motivatsiyasini aniqlashga xizmat qilib, ularning kasbiy yo‘nalishini ongli ravishda tanlashiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, individual yondashuv asosida kasbga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish, har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda maslahat va yo‘naltirish ishlarini tashkil etish zarur hisoblanadi.
Ayniqsa, oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash bu jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Chunki yoshlarning kasb tanlash jarayonida ota-ona qadriyatlari, oilaviy muhit hamda ta’lim muassasasidagi pedagogik yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashganda, ular yanada ongli, asoslangan va mustaqil qaror qabul qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa kasbiy o‘zini anglashning barqaror shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Har bir jamiyatning betakror qadriyatlari, o`lmas merosi, avloddan avlodga o`tib boradigan an’analari bo`ladi. Fuqarolik holatlari, madaniy o`sish, ma’naviy yuksalishga xizmat qiluvchi qadriyatlarning saqlanib kelayotganligi ham oila tufaylidir. Masalan, shunday oilalar sulolasi borki, ular asrlar osha u yoki bu muqaddas qadriyatlarni kasb-kori, turmush tarzi orqali saqlab keladi (rassomchilik, san’atshunoslik, hunarmandchilik, gulchilik, kulolchilik, ilmiy meroslar, agrar sohada va h-zo). Umuman odamlar jamiyatining saqlanib qolishida ham oila ayrim alohida olingan shaxs bilan yaxlit jamiyat o`rtasida o`ziga xos “bufer” – ko`prik rolini o`ynab kelmoqda. (6.10-s)

Xulosa qilib aytganda, o‘zlikni anglashning ijtimoiy-psixologik determinantlarini chuqur va tizimli o‘rganish yoshlarning kasbiy yo‘nalishini to‘g‘ri belgilashda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan yondashuvlar zamonaviy kasblarga yo‘naltirish samaradorligini oshirishga, shuningdek, mehnat bozorida raqobatbardosh va o‘z kasbini ongli tanlagan mutaxassislarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletshin M.G., Shoumarov G.B. Zamonaviy o‘zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari / O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari qisqacha bayoni. – Toshkent, 1993. – B. 3-7
2. Turg‘unboyeva A.G’. Ijtimoiy munosabatlar etnopsixologiyasi. Monografiya. – « MASHRAB». 2025. – 155 b. UO’K: 821.512.133-9. KBK: 84(O’zb)7. ISBN 978-9910-593-03-1. 2025.
3. Egamberdiyeva N.M. Madaniy–insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida). – T., 2010. – 24 b.

4. Ismailova N. Ta’lim jarayonida tolerant munosabatni shakllantirishning stressga bardoshlilikni oshirishdagi roli // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2022. – 3-jild, 10/S-son. – B. 213–217.
5. Карабанова О.А. Психология семейних отношений и основы семейного консультирования: Учебное пособие. – М., 2005. – 320 с.
6. Maxsudova M.A. Oila psixologiyasi. O’quv qo’llanma.”SUNRISE-PRO” nashriyoti. N.2025 yil.

FAKULTETLARARO JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA, SPORT PSIXOLOGIYASINING AHAMIYATI

Ne’matjon Xolyigitovich Karimov
Namangan davlat universiteti
San’at va Sport Fakulteti dekani, Dotsent

Annotatsiya *Mazkur ilmiy maqolada fakultetlararo jismoniy tarbiya darslarida sport psixologiyasining o‘rni va ahamiyati kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda talabalar jismoniy faolligini oshirish, ularning motivatsiyasini kuchaytirish, stressga chidamliligini rivojlantirish hamda jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini yanada shakllantirishda psixologik omillarning roli yoritilgan. Shuningdek, sport psixologiyasining asosiy yo‘nalishlari — motivatsiya, emotsional barqarorlik, diqqatni boshqarish va irodaviy sifatlarni rivojlantirish jarayonlari fakultetlararo mashg‘ulotlar misolida ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada nazariy tahlil, kuzatuv hamda qiyosiy metodlar orqali sport psixologiyasini jismoniy tarbiya darslariga integratsiya qilishning samaradorligi keng va batafsil asoslab berilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, psixologik yondashuvlardan foydalanish talabalar faolligini oshiradi, ularning sport faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, sport psixologiyasi, fakultetlararo mashg‘ulotlar, talabalar motivatsiyasi, emotsional barqarorlik, psixologik tayyorgarlik, irodaviy sifatlar, stressga chidamlilik, jamoaviy hamkorlik, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik yondashuv, psixologik omillar, oliy ta’lim tizimi.*

Kirish Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida oliy ta’lim tizimida talabalarning nafaqat intellektual, balki jismoniy va psixologik salomatligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, fakultetlararo jismoniy tarbiya darslari talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularning jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiylashuv jarayonini kuchaytirishda muhim pedagogik vosita bo’lib hisoblanadi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur darslarda faqat jismoniy mashqlarni bajarish bilan cheklanib qolish yetarli natijalarni bermaydi. Bu esa, talabalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishi, faolligi va natijadorligi ko‘p jihatdan ularning psixologik holati bilan bevosita bog‘liq hissoblanadi. Sport psixologiyasi aynan ushbu jarayonlarni chuqur o‘rganadigan muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lib, u sport faoliyatida shaxsning ruhiy jarayonlari, holatlari va xulq-atvorini tahlil qiladi. Fakultetlararo jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida sport psixologiyasi elementlaridan foydalanish talabalar motivatsiyasini oshirish, ularning emotsional

barqarorligini ta’minlash, stress va tashvishlarni kamaytirish, shu bilan bir qatorda, jamoaviy muhitda samarali hamkorlik qilish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, turli fakultetlardan kelgan talabalar o‘rtasida ijtimoiy-psixologik moslashuvni ta’minlash borasida sport psixologiyasining o‘rni beqiyosdir. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda psixologik omillar yetarli darajada inobatga olinmayapti. Natijada ayrim talabalar mashg‘ulotlarga befarq bo‘lib qolmoqda yoki o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmayapti psixologik jihatdan o’zini erkin his qilish hamda jamoaviylikni qabul qilish yengil kechmayapti. Shu bois, sport psixologiyasining nazariy va amaliy jihatlarini jismoniy tarbiya darslariga integratsiya qilish masalasi ilmiy tadqiq etishni talab etadi. Ushbu maqolaning maqsadi — fakultetlararo jismoniy tarbiya darslarida sport psixologiyasining ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish, shu bilan bir qatorda, talabalarning jismoniy hamda psixologik rivojlanishiga ta’sirini aniqlash va mazkur yo‘nalish bo’yicha samarali pedagogik yondashuvlarni taklif etishdan iborat.

Asosiy qism Fakultetlararo jismoniy tarbiya darslari oliy ta’lim tizimida talabalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning ijtimoiy va psixologik shakllanishida ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur mashg‘ulotlar turli yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarni birlashtirib, ularda jamoaviylik, hamkorlik va sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltiradi. Biroq ushbu jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan sport psixologiyasi elementlarining qanchalik to‘g‘ri qo‘llanilishiga bog‘liqdir.

- Sport psixologiyasi jismoniy faoliyat jarayonida shaxsning ruhiy holati, motivatsiyasi, emotsional kechinmalari hamda xulq-atvorini o‘rganadi. Fakultetlararo jismoniy tarbiya darslarida bu yo‘nalishning ahamiyati, avvalo, talabalarni mashg‘ulotlarga jalb etish hamda ularning qiziqishini oshirish bilan belgilanadi. Motivatsiya sport faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanib, u ichki va tashqi omillar orqali shakllanadi. Ichki motivatsiya talabaning o‘zini rivojlantirish, sog‘lom bo‘lish va muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan intilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya rag‘batlantirish, baholash va ijtimoiy e’tirof kabi omillar orqali yuzaga keladi. Shu bois, o‘qituvchi tomonidan psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning faolligini sezilarli darajada oshiradi.
- Shuningdek, emotsional barqarorlik sport faoliyatida muhim omillardan biri hisoblanadi. Turli fakultetlardan kelgan talabalar o‘rtasida raqobat va o‘zaro ta’sir jarayonida stress, hayajon va diqqatni jamlay olmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Sport psixologiyasi metodlari — autogen mashqlar, relaksatsiya usullari, diqqatni boshqarish texnikalari orqali talabalar o‘z emotsiyalarini boshqarishni o‘rganadilar. Natijada ular mashg‘ulotlarda yanada samarali ishtirok etib, yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- Irodaviy sifatlarni rivojlantirish ham fakultetlararo jismoniy tarbiya darslarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sport faoliyati qat’iyat, sabr-toqat, o‘zini boshqara olish va maqsadga intilish kabi sifatlarni shakllantiradi. Ayniqsa, jamoaviy o‘yinlar jarayonida talabalar o‘zaro hamkorlik qilish, liderlik qobiliyatlarini erkin

namoyon etish hamda mas’uliyatni his qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularning nafaqat sport faoliyatida, balki kelajak kasbiy faoliyatida ham o’z ta’sirini ko’rsatadi.

- Bundan tashqari, fakultetlararo mashg‘ulotlar ijtimoiy-psixologik moslashuv jarayonini tezlashtiradi. Turli muhitdan kelgan talabalar o‘zaro muloqot orqali yangi ijtimoiy aloqalarni o‘rnatadi, bu esa ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Sport psixologiyasi bu jarayonda ijobiy psixologik iqlim yaratish, nizolarni bartaraf etish va samarali jamoa muhitini shakllantirishga xizmat qiladi va bu borada katta imkoniyat yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sport psixologiyasini jismoniy tarbiya darslariga integratsiya qilish talabalarning nafaqat jismoniy ko‘rsatkichlarini, balki ularning psixologik holatini ham yaxshilashga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim jarayonining umumiy samaradorligini yanada oshiradi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda sport psixologiyasining ilmiy asoslariga tayangan holda yondashish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fakultetlararo jismoniy tarbiya darslarida sport psixologiyasining qo‘llanilishi talabalarning jismoniy hamda psixologik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Sport psixologiyasi elementlarini mashg‘ulot jarayoniga tatbiq qilish orqali talabalar motivatsiyasini oshirish, ularning emotsional barqarorligini ta’minlash, stressga chidamliligini kuchaytirish hamda irodaviy sifatlarini yetarli darajada rivojlantirish mumkinligi ilmiy asoslandi. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, psixologik yondashuvlar asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya darslari talabalarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi, ularning faolligini kuchaytiradi va sport faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi. Fakultetlararo mashg‘ulotlar jarayonida ijobiy psixologik muhitni yaratish esa talabalar o‘rtasida samarali muloqot, o‘zaro hurmat va jamoaviy hamkorlikni shakllantirishda muhim turtki bo’lib hizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini samarali va uzluksiz tashkil etish uchun sport psixologiyasining nazariy va amaliy jihatlariga tayangan holda kompleks yondashuvni joriy etish zarur. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda sport psixologiyasiga oid metodik tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.N.Shopulatov, F.M.Yaqubov. Jismoniy Tarbiya va Sport Sotsiologiyasi (O‘quv qo‘llanma) CHIRCHIQ – 2021y.
2. X.X.Jabborov, O.R.Avezov, N.Z.Jumayev. Sport Psixologiyasi (O‘quv qo‘llanma) “Durdona” nashriyoti 2014y.
3. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya.T.: 2010y.
4. Gapparov G.Z. Sport psixologiyasi. T. “Mexridaryo” 2011y.
5. “Jismoniy Tarbiya va Sport Sohasida Mutaxassislarni Qayta Tayyorlash va Malakasini Oshirish Tizimini Rivojlantirish Muammolari va Istiqbollari” Jismoniy Tarbiya Va Sport Bo‘yicha Mutaxassislarni Qayta tayyorlash va Malakasini oshirish Instituti. TOSHKENT – 2024y.
6. M.X.Mirjamolov, N.Y. Valiyeva, Adaptiv Jismoniy Tarbiya va Sport Nazariyasi va Uslubiyati. Darslik. Toshkent 2022y.

ЎЗБЕКИСТОНДА МАҲАЛЛИЙ ВАКИЛЛИК ҲОКИМИЯТИНИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЗАРУРИЯТИ

Рахмонов Шерзод Толибович
Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: *Ўзбекистонда маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилишнинг ижтимоий-фалсафий зарурияти таҳлил қилинган. Тадқиқотда маҳаллий вакиллик органларининг давлат ва жамият ўртасидаги муносабатлардаги ўрни, уларнинг фуқаролар манфаатларини ифода этишдаги аҳамияти очиб берилган. Шунингдек, трансформация жараёнининг назарий асослари, жумладан, ижтимоий шартнома, иштирокчи демократия ва коммуникатив ҳаракат назариялари нуқтаи назаридан ёритилган. Мақолада тизимли, институционал ва компаратив ёндашувлар асосида маҳаллий бошқарув тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар таҳлил қилинган. Ушбу жараёнда рақамли технологияларнинг ўрни, шаффофлик ва жавобгарлик механизмларининг аҳамияти ҳам кўрсатиб ўтилган. Тадқиқот натижалари маҳаллий вакиллик ҳокимиятининг самарадорлиги фуқароларнинг сиёсий фаоллиги ва ижтимоий адолатни таъминлаш билан узвий боғлиқ эканлигини кўрсатади.*

Калит сўзлар: *маҳаллий вакиллик ҳокимияти, трансформация, ижтимоий-фалсафий таҳлил, демократия, иштирокчи демократия, ижтимоий адолат, институционал таҳлил, рақамли бошқарув, фуқаролик жамияти*

Аннотация: *В данной статье анализируется социально-философская необходимость трансформации местной представительной власти в Узбекистане. В исследовании раскрывается роль местных представительных органов в системе взаимоотношений государства и общества, а также их значение в выражении интересов граждан. Особое внимание уделяется теоретическим основам трансформации, включая теорию общественного договора, концепцию партисипаторной демократии и теорию коммуникативного действия. В статье на основе системного, институционального и сравнительного подходов рассматриваются проводимые реформы в сфере местного управления. Также освещается значение цифровых технологий, механизмов прозрачности и подотчётности. Результаты исследования показывают, что эффективность местной представительной власти тесно связана с уровнем политической активности граждан и обеспечением социальной справедливости.*

Ключевые слова: *местная представительная власть, трансформация, социально-философский анализ, демократия, партисипаторная демократия, социальная справедливость, институциональный анализ, цифровое управление, гражданское общество*

Annotation:*This article analyzes the socio-philosophical necessity of transforming local representative власти in Uzbekistan. The study examines the role of local representative bodies in the system of state-society relations and highlights their importance in representing and protecting citizens' interests. The theoretical foundations of transformation are discussed, including social contract theory, participatory democracy, and communicative action theory. The paper also applies systemic, institutional, and comparative approaches to analyze ongoing reforms in local governance. Special attention is given to the role of digital technologies, as well as transparency and accountability mechanisms. The findings indicate that the effectiveness of local representative власти is closely linked to the level of citizens' political participation and the обеспечение of social justice.*

Keywords: *local representative власти, transformation, socio-philosophical analysis, democracy, participatory democracy, social justice, institutional analysis, digital governance, civil society*

Ўзбекистонда маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилиш масаласи замонавий ижтимоий-фалсафий таҳлил доирасида ўта долзарб мавзулардан бири ҳисобланади. Чунки давлат ва жамият муносабатлари тизимида маҳаллий вакиллик органлари фуқаролар манфаатларини ифода этиш, уларни ҳимоя қилиш ва ижтимоий адолатни таъминлашда муҳим институционал механизм сифатида намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан, мазкур ҳокимият шаклининг трансформацияси нафақат сиёсий-ҳуқуқий, балки чуқур ижтимоий-фалсафий зарурият сифатида юзага келади. Ижтимоий-фалсафий нуқтаи назардан қараганда, ҳар қандай давлат тизими ўзгариши, энг аввало, жамият эҳтиёжлари, қадриятлари ва онгининг ўзгариши билан боғлиқ. Ўзбекистонда сўнгги йилларда амалга оширилаётган ислоҳотлар, хусусан, “Янги Ўзбекистон” ғояси доирасидаги янгиланишлар, маҳаллий бошқарув тизимини ҳам қайта кўриб чиқишни тақозо этди. Бу жараёнда маҳаллий вакиллик ҳокимиятининг мазмуни, функциялари ва жамиятдаги ўрнини қайта англаш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев “Аҳолимиз, фуқароларнинг сиёсий-ҳуқуқий савиясини ошириб бориш билан ҳокимларни тўғридан-тўғри сайлаш тизимига ўтилади. Ҳокимларнинг тегишли вакиллик ҳокимиятини бошқариш ваколати бекор қилинади. Шу муносабат билан “Халқ депутатлари Кенгашлари тўғрисида” ва “Ҳокимнинг мақоми тўғрисида”ги қонунларни қабул қилиш зарур”[1], - деб айтади.

Маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилишнинг ижтимоий-фалсафий заруриятини тушуниш учун, аввало, “трансформация” тушунчасининг моҳиятига эътибор қаратиш лозим. Трансформация оддий ўзгариш эмас, балки тизимнинг сифат жиҳатдан янгиланиши, унинг ички мазмуни ва функционал йўналишларининг қайта шаклланиши демакдир. Шу маънода, маҳаллий вакиллик органларининг трансформацияси уларнинг фақат ташқи тузилиши эмас, балки фуқаролар билан муносабатлари, қарор қабул қилиш жараёнлари ва жавобгарлик механизмларининг тубдан ўзгаришини англатади.

Ўзбекистон шароитида мазкур трансформациянинг зарурияти бир нечта омиллар билан изоҳланади.

Биринчидан, глобаллашув жараёнлари ва ахборот жамиятининг шаклланиши фуқароларнинг давлат бошқарувида иштирок этишга бўлган талабини кучайтирмоқда. Илгари марказлашган бошқарув устун бўлган бўлса, бугунги кунда децентрализация, очиқлик ва шаффофлик асосий тамойилларга айланмоқда. Бу эса маҳаллий вакиллик органларидан янги сифат даражасини талаб қилади.

Иккинчидан, ижтимоий адолат ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш масалалари маҳаллий даражада самарали ҳал этилиши мумкин. Чунки маҳаллий кенгашлар вакиллари тўғридан-тўғри аҳоли билан мулоқотда бўлади ва уларнинг реал муаммоларини яхши билади. Аммо амалда айрим ҳолатларда бу органларнинг ваколатлари чекланганлиги, мустақил қарор қабул қилиш имкониятлари етарли эмаслиги кузатилган. Шу боис, уларнинг институционал имкониятларини кенгайтириш ижтимоий-фалсафий заруратга айланди.

Учинчидан, инсон омилининг ролини ошириш — замонавий давлат бошқарувининг асосий тенденцияларидан бири ҳисобланади. Фалсафий жиҳатдан бу “инсон — олий қадрият” тамойили билан боғлиқ. Маҳаллий вакиллик ҳокимияти айнан шу тамойилни амалда таъминлайдиган механизм бўлиши керак. Яъни, ҳар бир фуқаро ўз манфаатларини ҳимоя қилишда маҳаллий вакиллар орқали давлат бошқарувида иштирок этиш имкониятига эга бўлиши лозим.

Мазкур жараённинг илмий-назарий асослари бир нечта фундаментал концепцияларга таянади. Жумладан, ижтимоий шартнома назариясига кўра, давлат ҳокимияти халқ иродасига асосланиши керак. Бу эса вакиллик институтларининг ривожланишини тақозо этади. Маҳаллий вакиллик органлари эса ушбу ироданинг энг қуйи, яъни фуқарога энг яқин даражадаги ифодаси ҳисобланади. Шунингдек, демократия назарияси доирасида "иштирокчи демократия" концепцияси алоҳида аҳамиятга эга. Бу концепцияга кўра, фуқаролар фақат сайловларда иштирок этиб қолмасдан, балки доимий равишда қарор қабул қилиш жараёнларида қатнашиши керак. Ўзбекистонда маҳаллий кенгашлар фаолиятини кучайтириш орқали айнан шу мақсадга эришиш кўзда тутилмоқда.

Методологик жиҳатдан эса мазкур жараённи таҳлил қилишда тизимли ёндашув, институционал таҳлил ва компаратив усуллардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Тизимли ёндашув маҳаллий вакиллик ҳокимиятини давлат бошқаруви тизимининг ажралмас қисми сифатида кўриб чиқиш имконини беради. Институционал таҳлил эса ушбу органларнинг ҳуқуқий мақоми, ваколатлари ва амалий фаолиятини ўрганишга хизмат қилади. Мисол сифатида, сўнгги йилларда Ўзбекистонда маҳаллий кенгашларнинг назорат функцияларини кучайтириш бўйича бир қатор ислоҳотлар амалга оширилди. Масалан, ҳокимларнинг ҳисобот бериш амалиёти жорий этилди, бюджет маблағларидан фойдаланиш устидан депутатлик назорати кучайтирилди. Бу эса маҳаллий вакиллик органларининг ролини оширишга хизмат қилмоқда. Рақамли технологияларнинг жорий этилиши ҳам трансформация жараёнининг муҳим қисми ҳисобланади. Электрон ҳукумат тизимлари орқали фуқароларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш, очиқ маълумотлар платформалари орқали шаффофликни таъминлаш — буларнинг барчаси маҳаллий вакиллик ҳокимиятининг я нги босқичга кўтарилаётганидан далолат беради.

Мазкур жараённи чуқурроқ англаш учун, маҳаллий вакиллик ҳокимияти трансформациясининг ижтимоий-фалсафий заруриятини фақат институционал ўзгаришлар билан чеклаб қўймасдан, балки унинг онг, қадриятлар ва ижтимоий муносабатлар тизимидаги ўзгаришлар билан узвий боғлиқлигини ҳам кўриб чиқиш лозим. Чунки ҳар қандай институционал ислоҳот, агар у жамият аъзоларининг дунёқараши ва сиёсий маданиятида акс этмаса, самарали натижа бермаслиги мумкин. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистонда маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилиш жараёни, аввало, фуқароларнинг сиёсий онги ва фаоллигини ошириш билан боғлиқ. Илгари кўп ҳолларда аҳоли давлат бошқарувида пассив иштирок этган бўлса, бугунги кунда фуқаролар ўз манфаатларини ҳимоя қилишда фаол позицияни эгалламоқда. Бу эса маҳаллий вакиллик органларидан фақат расмий функцияларни бажаришни эмас, балки ҳақиқий мулоқот майдонига айланишни талаб этади.

Фалсафий жиҳатдан бу жараённи "субъект-субъект муносабатлари"нинг шаклланиши сифатида талқин қилиш мумкин. Яъни, давлат ва фуқаро ўртасидаги муносабатлар энди "буюрувчи–бажарувчи" моделида эмас, балки

тенг ҳуқуқли ҳамкорлик асосида қурилмоқда. Маҳаллий вакиллик ҳокимияти эса айнан шу ҳамкорликни таъминлайдиган кўприк вазифасини бажаради. Бу ерда яна бир муҳим жиҳат — ижтимоий адолат концепциясидир. Ижтимоий-фалсафий назарияларда адолат жамият барқарорлигининг асосий шарти сифатида қаралади. Агар ресурслар тақсимоти, қарорлар қабул қилиниши ва имкониятлар тенглиги таъминланмаса, жамиятда норозилик кайфияти кучаяди. Маҳаллий вакиллик органлари эса айнан шу адолатни таъминлашда муҳим роль ўйнайди. Масалан, маҳаллий бюджетларни шакллантириш ва тақсимлашда депутатларнинг фаол иштироки аҳоли манфаатларини ҳисобга олиш имконини беради.

Маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилиш замонавий жамият тараққиётида муҳим ўрин тутади. Унинг зарурати қуйидаги асосий омиллар билан изоҳланади:	**1. Аҳоли манфаатларини самарали ифода этиш зарурати.** Анъанавий бошқарув моделлари кўп ҳолларда аҳоли эҳтиёжларини тўлиқ акс эттира олмайди. Трансформация орқали маҳаллий кенгашлар аҳоли манфаатларини тўғридан-тўғри ва самарали ифода этадиган институтга айланади.
	2. Демократик жараёнларни чуқурлаштириш. Маҳаллий вакиллик органлари фаолиятини янгилаш демократик тамойилларни кучайтиришга хизмат қилади. Бу эса фуқароларнинг қарор қабул қилишдаги иштирокини оширади.
	3. Давлат бошқарувини децентрализация қилиш. Марказлашган бошқарув самарадорлиги чекланган. Шунинг учун ваколатларни маҳаллий даражага бериш орқали ҳудудий муаммоларни тезкор ҳал қилиш имкони яратилади.
	4. Жамоатчилик назоратини кучайтириш. Трансформация жараёни маҳаллий кенгашлар фаолияти устидан жамоатчилик назоратини таъминлайди. Бу эса шаффофлик ва ҳисобдорликни оширади.
	5. Ижтимоий-иқтисодий ривожланишни рағбатлантириш. Маҳаллий ҳокимият органлари ҳудудий ривожланиш дастурларини мустақил ишлаб чиқиш ва амалга ошириш имкониятига эга бўлади. Бу эса иқтисодий ўсишни тезлаштиради..
	6. Рақамли бошқарувга ўтиш эҳтиёжи. Замонавий ахборот технологиялари шароитида электрон бошқарув (e-government) тизимларини жорий этиш зарур. Бу хизматлар сифатини ошириш ва бюрократияни камайтиришга хизмат қилади.
	7. Фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорликни кучайтириш. Нодавлат ташкилотлар, фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлик маҳаллий бошқарув самарадорлигини оширади. Трансформация бу ҳамкорликни институционал даражада мустаҳкамлайди.

Ижтимоий-фалсафий заруриятни белгилайдиган яна бир омил идентификация ва жамоавийлик ҳиссининг кучайиши билан боғлиқ. Маҳаллий даражада фуқаролар ўзларини муайян ҳудуд, маҳалла ёки жамоа аъзоси сифатида англайди. Бу эса уларнинг маҳаллий бошқарувда иштирок этишга бўлган қизиқишини оширади. Шу маънода, маҳаллий вакиллик ҳокимияти нафақат сиёсий институт, балки ижтимоий бирлашув ва ҳамжиҳатликни таъминловчи механизм сифатида ҳам намоён бўлади. Илмий-назарий жиҳатдан қараганда, мазкур жараённи тушунтиришда коммуникатив ҳаракат назарияси ҳам муҳим аҳамиятга эга. Ушбу назарияга кўра, жамиятдаги қарорлар очиқ мулоқот ва келишув асосида қабул қилиниши керак. Маҳаллий кенгашлар эса айнан шу мулоқотни ташкил этувчи платформа бўлиши лозим. Депутатлар ва аҳоли ўртасидаги мунтазам учрашувлар, жамоатчилик муҳокамалари ва очиқ эшитувлар буларнинг барчаси коммуникатив демократиянинг амалий кўринишларидир. Методологик нуқтаи назардан, бу жараённи таҳлил қилишда тарихийлик ва ворисийлик тамойилларини ҳам инобатга олиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:
1. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. 1-том. Миллий тараққиёт йўлимизни қатьият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б.592.
2. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. 2-том. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.508.
3. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. 3-том. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – Б.400.
4. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. 4-том. Миллий тикланишдан-миллий юкланиш сари. М 54 – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2020. – Б.408.
5. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. 5-том. Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик. М 54 – Тошкент: “Ozbekiston” нашриёти, 2023. – Б.408.
6. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. 6-том. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. М 54 – Тошкент: “Ozbekiston” нашриёти, 2023. – Б.536.
7. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. 7-том. Халқчил ислоҳотлар халқимиз манфаатларига хизмат қилади. М 54 – Тошкент: “Ozbekiston” нашриёти, 2023. – Б.408.
8. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Инсон қадри, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатлари учун. М 54 – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2022. – Б.416.
9. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. Тўлдирилган иккинчи нашри. –Тошкент: “O’zbekiston” нашриёти, 2023. – Б.440.
10. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон [Матн] / Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: “0‘zbekiston” нашриёти, 2024. - 560 б.
11. Мирзиёев, Шавкат Миромонович. Бир бўлсак – ягона халқмиз, бирлашсак – Ватанмиз. 8-жилд [Матн]/ Ш.Мирзиёев. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2024. – 376 б.

YENGIL ATLETIKACHILAR SPORTDA YUQORI NATIJALARGA ERISHISHINING TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xudoynazarov Q. A.
QarshiDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada **ye**ngil atletikachilar sportida yuqori natijalarga erishishning tarbiyaviy-psixologik xususiyatlari haqida so‘z boradi.*

Tayanch so‘zlar: *Sport, yengil atletika, jismoniy tayyorlik, psixologik tayyorlik, irodaviy sifatlar, dadillik, matonat, barqarorlik, g‘alaba, faxr.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются образовательные и психологические аспекты достижения высоких результатов в легкой атлетике.*

Ключевые слова: *Спорт, легкая атлетика, физическая подготовка, психологическая подготовка, сила воли, мужество, стойкость, стабильность, победа, гордость.*

Abstract: *This article discusses the educational and psychological characteristics of achieving high results in track and field athletics.*

Keywords: *Sport, track and field athletics, physical fitness, psychological fitness, willpower, courage, fortitude, stability, victory, pride.*

Jahonda yengil atletika sport turi eng kuchli rivojlangan Angliya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Gollandiya, Rossiya, Braziliya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda yengil atletikachilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish orqali g‘alabani ta’minlashga qaratilgan omillarni mashg‘ulot va musobaqa jarayonida chidamkorlikni oshirish, hissiy-emotsional barqarorligini ta’minlash, texnik harakatlar dinamikasini doimiy monitoringini olib borish, musobaqa oldi psixologik tayyorgarligi hamda jismoniy yuklamalarni oqilona rejalashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bois yengil atletikachilarning o‘z imkoniyatlarini yuqori darajada namoyon etish muammosi yuzasidan psixologik ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini tug‘dirmoqda.

Dunyoda yengil atletika sport sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda, yengil atletikachilarning individual-psixologik xususiyatlari, irodaviy-motivatsion va hissiy-emotsional sohasini o‘rganish yuzasidan psixodiagnostik metodiklarni yaratish hamda g‘alabani ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadigan ijobiy sifatlarni rivojlantirish, mag‘lubiyatga sabab bo‘ladigan salbiy sifatlarni me’yorlashtirishga qaratilgan psixokorreksiya amaliyotini tadbiq etish hamda shaxsiy sifatlarga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillarni aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yengil atletikachilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantiruvchi psixologik treninglarni va salbiy sifatlarini psixokorreksiyalash amaliyotini joriy etishga yo‘naltirilgan masalalarni ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va bolalar sportini qo‘llab-quvvatlash orqali barcha sport turlari singari yengil atletikani rivojlantirishga qaratilgan institutsional hamda huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi. Bu borada «...engil atletikani aholi o‘rtasida eng muhim ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish...» ustuvor vazifa etib belgilanganligi, yosh avlodning sportga bo‘lgan qiziqishi va salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarurati talab etiladi.

Hozirgi kunda yengil atletikachilarning sport sohasi bo‘yicha mutaxassis va murabbiylar sportchi tayyorgarligining muvaffaqiyatini, uzoq muddatli tayyorgarlik jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish samaradorligiga bevosita bog‘liq ekanligiga shubha qilmaydilar.

Yengil atletikachilarni psixologik tayyorlash jarayonining har tomonlama ko‘rib chiqilishi zarur bo‘lgan asosiy tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon yaratadi: jismoniy tayyorgarlik – asosiy tarkib sportchining jismoniy qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish; texnik tayyorgarlik – uning mohiyati shundan iboratki, sportchi o‘z faoliyatining yuqori texnikasini egallagan bo‘lib, unga jismoniy qobiliyat va sifatlardan tejamli va o‘rinli foydalanishni ta’minlaydi; taktik tayyorgarlik – uning asosiy mazmuni sport faoliyatining muayyan vaziyatlarida texnik ko‘nikma va malakalarni qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat; psixologik tayyorgarlik – sportchi o‘z faoliyatining tez o‘zgaruvchan sharoitlarida natijalarning darajasi va zichligini doimo oshirib borishiga qaramay,

mashg‘ulotlarda va musobaqalarda jismoniy qobiliyatlari, taktik tushunchalari, texnik qobiliyatlari; shaxsiy fazilatlari – muvaffaqiyatli sport faoliyatini amalga oshirish va yuqori sport natijalarga erishish maqsadida, bir sportchi shaxsiy rivojlanish darajasi sezilarli darajada rivojlangan bo‘lishini taqozo etadi.

N.B. Stambulova sportchining ruhiy xususiyatlari tuzilishida axborotni qabul qilish va qayta ishlashni, zarur qarorlar qabul qiladigan ruhiy xususiyatlar, mator harakatlar sifatini belgilovchi psixomotor xususiyatlar, irodaviy, axloqiy, faoliyat motivatsiyasi, maqsad, vosita hamda natijalarni axloqiy me’yorlarga muvofiqligini aniqlagan. [5; 65-69-b]

P.V. Trutnev sport natijalariga ta’sir etuvchi salbiy omillarga quyidagilarni kiritgan: sport faoliyatidagi hissiy beqarorlik; psixoemotsional holatini boshqara olmaslik; sportchining muvaffaqiyatsizliklarga uchrashi; olingan jarahotlari; haddan tashqari stressga berilishi. [6; 60-b]

Musobaqa jarayonida paydo bo‘ladigan his-tuyg‘ularning quyidagi turlari aniqlangan: musobaqalashuv qo‘zg‘alishi; jangovor ko‘tarinki ruh; sportcha qizg‘inlik; agressivlik; sport jahldorligi; sportchilik sha’ni; shaxsiy ustunlik tuyg‘usi; sportchilikdan faxrlanish tuyg‘usi; burch va mas’ulyat tuyg‘usi. [1; 82-85-b]

G.D. Gorbunov sportchining musobaqadan keyingi psixologik holatlari ularning salbiy yoki ijobiy sifatlarini rivojlanishiga ta’sir etishini quyidagicha tahlil qiladi. G‘alaba hamda mag‘lubiyat sportchilarda salbiy sifatlarni ham namoyon qilishi mumkin, masalan: manmanlik; o‘ziga yuqori baho berish; o‘z-o‘ziga ortiqcha ishonish; bundan keyingi mashg‘ulotlarga loqaydlik; ruhiy siqilish, o‘z kuchiga ishonmaslik; befarqlik; omadi kelgan do‘stlaridan hafa bo‘lish; omadli sportchilarga hasad bilan qarash. [2; 115-117-b]

A.V. Rodionov fikricha sportchining o‘ziga xos ijobiy jihatlari quyidagilarda ko‘rinadi: emotsional barqarorlik; xarakter mustahkamligi; o‘ziga ishonch; o‘z-o‘zini nazarot qila olish; mustaqqiligi; qat’iyat va matonat; tashabbuskorlik va harakatlardagi jasorat; yetakchilik; tavakkalga moyillik; navotorlik; kashfiyotga o‘chlik; samimiy muloqot qilish. [3; 40-b]

A.V. Radionova hamda V.G. Siviskolarning yuqori malakali sportchilarning individual xususiyatlarini o‘rganishi shuni ko‘rsatadiki, onglilik, maqsad sari intilish, halollik, mehnatsevarlik, matonatlilik, oriyatlilik hamda mas’ulyat kabi shaxsiy sifatlar ularda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. [4; 13-b]

Biz yengil atletikachilarni musoboqalarga tayyorlash va g‘alabaga erishishlari sohasida olib borgan tadqiqotimiz natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirdik:

yengil atletikachilarning g‘alabaga erishishida muvaffaqiyatga intilish motivi asosiy omil ekanligiga ko‘ra raqib «ta’siri»ga tushib qolmaslik, ekstremal vaziyatdan oqilona chiqish bilan bog‘liq ijobiy ustanovkalarni emotsional turg‘unlikka ustuvorlik berish orqali shakllantirish natijasida ulardagi potesial imkoniyatlarni mobilizatsiya qilish muhimligi aniqlandi;

yengil atletikachining musobaqa jarayonidagi natijadorligini oshirishda start oldi psixofiziologik holatini barqarorlashtirish muhim omil ekanligiga ko‘ra kuchli stressni ijtimoiy tafakkur egiluvchanligining irodaviy komponentini kuchaytirish orqali bartaraf etishga qaratilgan «Hozir va shu yerda» mualliflik psixorelaksatsion mashqlarni qo‘llash asosida jismoniy va ruhiy ishchanlik qobiliyatini optimal holatda ta’minlanishi asoslandi;

yengil atletikachining musobaqa jarayonidagi ekstremal vaziyatlarga psixologik tayyorgarligini oshirishda «maqsadga yo‘nalganlik», «sabotlilik va qat’iyatlilik», «jur’at va mardlik», «vazminlik va o‘zini tuta bilish» sifatlarini rivojlanishiga ustuvorlik berish orqali qabul qilingan qaror mas’uliyatidan qo‘rqmaslik hissining ta’minlanganligi dalillandi;

«Sportchilarning mashg‘ulot hamda musobaqa jarayonlaridagi shaxsiy sifatlari model»i yengil atletikachilarda intellektual-taktik va hissiy-irodaviy sohani shakllantirish muhimligiga ko‘ra, shaxs xususiyatlarining autopsixologik komponentiga «strategik novatorlik», «stressga barqarorlik» sifatlarini biriktirish asosida takomillashtirildi.

Shaxsning irodviy sifatlariga maqsadga yo‘nalganlik, sobitqadamlik, tashabbuskorlik, qat’iylik, o‘zini tuta bilish, mustaqillik, chidamlilik, jasurlik, ishbilarmonlik kiradi. Shaxs irodasizligi quyidagi tushinchalar orqali tavsiflanadi: chidamsizlik, yalqovlik, qo‘rqoqlik, qaysarlik, shafqatsizlik.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ijobiy irodaviy sifatlarni takomillashuvi sportchining yuqori natijalarni qo‘lga kiritishida asos bo‘ladi. G‘olib sportchilarda o‘ziga xos yuksak shaxsiy va kasbiy sifatlar rivojlanib boradi.

Adabiyotlar

1. Гаппаров З.Г. Спорт психологияси: Жисмоний тарбия институти талабалари учун дарслик. –Т.: 2011 – 345 б.

2. Горбунов.Г.Д. Психопедагогика спорта. Учебний пособине. //Г.Д. Горбунов – 4 е-изд. Испр. Доп. – М.: 2012. – 312 б.

3. Родионов А.В. Психология спорта высших достижений. – М.: ФиС, 1979. – 144 б.

4. Родионов В.А, Радионова А.В, Сивицкого В.Г. Спотивная психология. Учебник для СПО //под. Общ. Ред. Родионов В.А., Радионова А.В. Сивицкого В.Г. – М.: 2019. – 367 б.

5. Стамбулова Н.Б. Психология спортивной карьеры: Учебное пособие. СПб, 1999. – 239 б.

6. Трутнев П. В. Основы теории тренировки в дзюдо: [учеб. Пособ] /П.В. Трутнев, Г.А. Козлов. – Красноярск.: 2004. – 240 б.

PSIXOLOGIYA YO‘NALISHI BITIRUVCHILARINING ZAMONAVIY MEHNAT BOZORIGA MOSLASHUVI: HR KASBLARI MISOLIDA QIZIQISH VA KOMPTENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI

Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya*: Mazkur maqolada psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining zamonaviy mehnat bozoriga moslashuvi muammosi tahlil qilinadi. Xususan, psixologiya mutaxassisligini tamomlagan yoshlarning katta qismi bevosita o‘z sohasida faoliyat yuritmayotgani sababli, ularning kasbiy yo‘nalishini qayta ko‘rib chiqish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqotda zamonaviy kasblar, ayniqsa HR (inson resurslarini boshqarish) sohasi psixologiya bitiruvchilari uchun muqobil va istiqbolli yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yoshlarning kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash (diagnostika qilish), ularni rivojlantirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari yoritiladi. Maqola yakunida psixologiya bitiruvchilarini zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilari, zamonaviy mehnat bozori, kasbiy moslashuv (adaptatsiya), kasbiy identifikatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy qiziqish va qobiliyatlar diagnostikasi, inson resurslarini boshqarish (HR), soft skills (yumshoq ko‘nikmalar), kasbiy diversifikatsiya, bandlik strategiyalari, kasbiy rivojlanish mexanizmlari*

Аннотация : *В данной статье анализируется проблема адаптации выпускников направления психологии к современному рынку труда. В частности, обосновывается необходимость пересмотра профессиональной ориентации молодых специалистов, поскольку значительная часть выпускников, окончивших специальность психологии, не работает непосредственно по своей профессии. В исследовании современные профессии, особенно сфера HR (управление человеческими ресурсами), рассматриваются как альтернативное и перспективное направление для выпускников психологии. Также освещаются основные направления определения (диагностики) профессиональных интересов и способностей молодежи, их развития, а также формирования современных компетенций. В заключении статьи представлены практические рекомендации по подготовке выпускников психологии в соответствии с требованиями современного рынка труда.*

Ключевые слова: *выпускники направления психологии, современный рынок труда, профессиональная адаптаци, профессиональная идентификация, компетентностный подход, диагностика профессиональных интересов и способностей, управление человеческими ресурсами (HR), мягкие навыки (soft skills), профессиональная диверсификация, стратегии занятости, механизмы профессионального развития*

Abstract: *This article analyzes the issue of adaptation of psychology graduates to the modern labor market. In particular, it substantiates the need to reconsider the professional orientation of young specialists, as a significant proportion of psychology graduates do not work directly in their field of study. The study considers modern professions, especially the HR (Human Resource Management) field, as an alternative and promising direction for psychology graduates. It also highlights the main approaches to diagnosing and developing young people’s professional interests and abilities, as well as forming modern competencies. In conclusion, the article provides practical recommendations for preparing psychology graduates in accordance with the requirements of the modern labor market.*

Keywords: *psychology graduates, modern labor market, professional adaptation, professional identity, competency-based approach, diagnosis of professional interests and abilities, human resource management (HR, soft skills, professional diversification, employment strategies, mechanisms of professional development*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda kechayotgan globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi mehnat bozori tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada yangi kasb va mutaxassisliklar paydo bo‘lib, mavjud kasblarga qo‘yiladigan talablar ham sifat jihatidan yangilanmoqda. Bunday sharoitda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga moslashuvi, ularning zamonaviy mehnat bozori

talablariga javob beruvchi kompetensiyalarni egallashi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyati masalasi ushbu kontekstda alohida e’tiborni talab qiladi. Amaliy kuzatishlar va mavjud ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur yo‘nalish bitiruvchilarining muayyan qismi bevosita o‘z mutaxassisligi doirasida faoliyat yuritmaydi. Bu holat bir qator omillar, jumladan, mehnat bozorida tor ixtisoslashgan psixolog mutaxassislariga bo‘lgan talabning cheklanganligi, shuningdek, bitiruvchilarda amaliy ko‘nikmalar va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Natijada, yosh mutaxassislarning kasbiy moslashuvi va qayta yo‘naltirilishi zarurati yuzaga keladi.

Bugungi kunda inson kapitaliga bo‘lgan e’tiborning ortib borishi inson resurslarini boshqarish (HR) sohasining strategik ahamiyatini kuchaytirmoqda. Mazkur yo‘nalish o‘z mohiyatiga ko‘ra psixologik bilim va yondashuvlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Xususan, xodimlarni tanlash, ularning kasbiy salohiyatini baholash, motivatsiyasini oshirish, jamoaviy munosabatlarni boshqarish va nizolarni hal etish jarayonlari psixologik kompetensiyalarni talab etadi. Shu bois, psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilari uchun HR sohasi zamonaviy va istiqbolli kasbiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni zamonaviy kasb-hunarlarga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbus va g‘oyalarda yoshlarning kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini erta aniqlash, ularni amaliy ko‘nikmalar asosida rivojlantirish hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar sifatida tayyorlash zarurligi alohida ta’kidlanadi[1]. Mazkur yondashuv psixologiya yo‘nalishi talabalarini ham zamonaviy kasblarga yo‘naltirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini kengaytirish muhimligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining zamonaviy mehnat bozoriga moslashuvi, ularning kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlantirish, xususan HR sohasiga yo‘naltirish masalalarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada psixologiya bitiruvchilarining kasbiy moslashuvi muammosi tahlil qilinib, ularni zamonaviy kasblar tizimiga integratsiya qilishning samarali yo‘llari yoritiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy mehnat bozori globallashuv, raqamli transformatsiya va iqtisodiy jarayonlarning tezkor o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Ushbu sharoitda kasbiy faoliyatga qo‘yiladigan talablar ham murakkablashib, mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy kompetensiyalari ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining kasbiy moslashuvi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda kasbiy rivojlanish turli nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi. Donald Super kasbiy rivojlanishni inson hayoti davomida uzluksiz kechadigan jarayon sifatida ko‘rib, kasb tanlash shaxsning o‘zini anglash darajasi va hayotiy tajribasi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi[2,115-b]. Ushbu yondashuv psixologiya bitiruvchilarining kasbiy yo‘nalishi faqat ta’lim jarayoni bilan emas, balki shaxsiy rivojlanish jarayoni bilan ham belgilanishini ko‘rsatadi. John Hollandning kasbiy moslik nazariyasiga ko‘ra, shaxsning kasb tanlovi uning

psixologik xususiyatlari va muhitga mosligi asosida shakllanadi[3,48-b]. Bu yondashuv psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining inson bilan ishlashga yo‘naltirilgan HR sohasiga tabiiy moslashuvini asoslab beradi. Albert Bandura kasbiy rivojlanish jarayonini ijtimoiy o‘rganish bilan bog‘lab, shaxsning o‘ziga ishonchi va tajribasi kasbiy qaror qabul qilishda muhim rol o‘ynashini qayd etadi[4,90-b]. Bu esa talabalarning amaliy muhitda faol ishtirok etishi ularning kasbiy yo‘nalishini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Karl Rogers shaxs rivojlanishida o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtiyoji asosiy motivatsion omil ekanligini ta’kidlaydi[5,205-b]. Ushbu nazariya psixologiya bitiruvchilarining faqat tor klinik yo‘nalishda emas, balki HR kabi keng ijtimoiy sohalarda ham o‘z salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega ekanligini asoslaydi. Erik Erikson kasbiy identifikatsiyani shaxs rivojlanishining muhim bosqichi sifatida ko‘rib, yosh davrida kasb tanlash ichki psixologik jarayonlar bilan bog‘liqligini izohlaydi[6,136-b]. Bu esa psixologiya bitiruvchilarining turli kasbiy yo‘nalishlarga o‘tishini tabiiy jarayon sifatida tushuntiradi. Lev Vygotsky shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit va ta’lim jarayonining hal qiluvchi rolini asoslab beradi[7,60-b]. Bu yondashuv psixologiya talabalarining HR muhitida amaliy tajriba orttirishi ularning kasbiy kompetensiyalarini tezlashtirishini ko‘rsatadi. Donald Krumboltz kasbiy qarorlar nafaqat rejalashtirilgan, balki tasodifiy hayotiy tajribalar va ijtimoiy ta’sirlar natijasida ham shakllanishini ta’kidlaydi[8,70-b]. Bu holat psixologiya bitiruvchilarining HR kabi yangi sohalarga yo‘naltirilishini tabiiy jarayon sifatida izohlaydi. David McClelland motivatsiya nazariyasida insonning yutuqqa intilishi va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji kasbiy tanlovda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi[9,120-b]. Bu psixologiya bitiruvchilarining HR kabi natijaga yo‘naltirilgan sohalarni tanlashiga asos bo‘ladi. Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining zamonaviy mehnat bozoriga moslashuvi murakkab, ko‘p omilli jarayon ekanligi aniqlandi. Global iqtisodiy o‘zgarishlar va raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy kompetensiyalarning ahamiyati ortib borayotganligi psixologiya mutaxassislarining nafaqat an’anaviy yo‘nalishlarda, balki HR (inson resurslarini boshqarish) kabi zamonaviy sohalarda ham faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kasbiy moslashuv jarayoni shaxsning motivatsiyasi, kasbiy identifikatsiyasi, ijtimoiy tajribasi hamda amaliy ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, psixologiya ta’limi mazmunini mehnat bozori talablariga moslashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar:

1. Ta’lim jarayonida amaliy komponentni kuchaytirish

Psixologiya yo‘nalishi o‘quv dasturlariga HR, kadrlar menejmenti va tashkilot psixologiyasi bo‘yicha amaliy modullarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

2. Kasbiy yo‘naltirish tizimini takomillashtirish

Talabalarning qiziqish va qobiliyatlarini erta bosqichda aniqlash uchun psixologik diagnostika metodlaridan tizimli foydalanish zarur.

3. HR amaliyot platformalarini yaratish

Oliy ta’lim muassasalari va tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirib, talabalarni HR bo‘limlarida amaliyot o‘tash imkoniyatini kengaytirish lozim.

4. Soft skills rivojiga e’tibor qaratish

Kommunikativlik, jamoada ishlash, konfliktlarni boshqarish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida urg‘u berish kerak.

5. Kasbiy qayta yo‘naltirish dasturlarini ishlab chiqish

Psixologiya bitiruvchilarining HR va boshqa zamonaviy kasblarga o‘tishini qo‘llab-quvvatlovchi maxsus trening va sertifikat dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi.

6. Ilmiy-tadqiqot va amaliyot integratsiyasi

Talabalarni real tashkilotlar bilan bog‘lovchi ilmiy-amaliy loyihalarni ko‘paytirish ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

Umuman olganda, psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining zamonaviy mehnat bozorida, xususan HR sohasida samarali faoliyat yuritishi ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim jarayonini amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga bevosita bog‘liqdir. Taklif etilgan tavsiyalarni amalga oshirish psixolog mutaxassislarining bandligini oshirish hamda ularni raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi nutqidan. – 2023 yil, https://president.uz
2. Super D. E. The Psychology of Careers. New York: Harper & Row, 1957. 112–115-betlar.
3. Holland J. L. Making Vocational Choices. Odessa: PAR, 1997. 44–48-betlar.
4. Bandura A. Social Learning Theory. New York: Prentice Hall, 1986. 83–90-betlar.
5. Rogers C. R. On Becoming a Person. Boston: Houghton Mifflin, 1961. 200–205-betlar.
6. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. New York: Norton, 1968. 130–136-betlar.
7. Vygotsky L. S. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press, 1978. 55–60-betlar.
8. Krumboltz D. A Social Learning Theory of Career Decision Making. Stanford University, 1979. 64–70-betlar.
9. McClelland D. C. The Achieving Society. Princeton: Van Nostrand, 1961. 115–120-betlar.

YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLARGA QIZIQTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

M.A.Maxsudova
NamDU dotsenti

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada ijtimoiy taraqqiyotni ro`yobga chiqarish uchun mamlakatda yoshlarni yuqori malakali mutaxassis sifatida tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko`tarishning bugungi kundagi ahamiyati, yoshlarni kasbga qiziqtirishning asosiy yo‘nalishlarining turlari batafsil yoritilgan.*

KALIT SO’ZLAR: *Kasbga qiziqtirish, psixologik-pedagogik diagnostika, qiziqishlar, layoqatlar, kasbga yo‘naltirish tizimi, motivatsiya, qobiliyat.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье подробно освещается значение подготовки молодежи как высококвалифицированных специалистов для обеспечения социального*

развития страны и их вывода на уровень мировых стандартов. Также рассматриваются основные направления и виды формирования профессионального интереса у молодежи.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Профессиональная ориентация, психолого-педагогическая диагностика, интересы, способности, система профориентации, мотивация, одаренность.*

ANNOTATION: *This article подробно examines the importance of training young people as highly qualified specialists in order to ensure social development in the country and raising them to the level of international standards. It also elaborates on the main directions and types of motivating youth toward professional orientation.*

KEYWORDS: *Career motivation, psychological and pedagogical diagnostics, interests, aptitudes, career guidance system, motivation, ability.*

Psixologik ilmiy manbalardan ma’lumki, sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarida o‘z asarlarida, she`r va g’azallarida, adabiy meroslarida halol mehnatni, kasb-hunar egallash muqaddasligini va zarurligini ta`kidlab, ulug’lab o‘tganlar. [3.16.]

Ijtimoiy taraqqiyotni ro`yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko`tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o`z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og`ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatsharvar, iymon-e’tiqodli insonlar bo`lib voyaga yetishadi. Buning uchun uzluksiz ta`lim tizimining barcha jabhalarida yoshlarni kasbga yo`naltirishning ahamiyati kattadir. Yoshlarni kasbga yo`naltirishda faoliyat masalasi muhim masala hisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo`nalishda harakat qilishga undaydigan ehtiyojlar shaxsning faolligi manbai bo`lib hisoblanadi. Ehtiyoj – jonli mavjudotning hayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir.

Mustaqil O`zbekistonda o`quvchilarni tarbiyasiga nisbatan qo`yayotgan eng muhim talablardan biri ularda mehnat qilish ehtiyojini tarbiyalashdan iboratdir. Mehnat qilishga bo`lgan ehtiyojning yanada rivojlanishi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ko`pgina ishlab chiqarish jarayonlarini maksimal darajada avtomatlashtirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish vaqtini qisqartirish natijasida, faqat ijtimoiy foydali mehnatdagina o`zini namoyon eta oladigan bunyodkorlik kuchlarini jonlantirish oqibatida yuz beradi. [1.1120.]

*Kasbga yo`naltirish* - bu ilmiy asoslangan va o`zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida,shuningdek, o`zini qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olib, turg`un kasb tanlash uchun hayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir. [2.19.]

Bu tadbirlar jamiyat va shaxs qiziqishlarini umumlashtiradi. Kasbga yo`naltirish tizimi har bir o`zining vazifalariga va yechish metodlariga ega bo`lgan tizimlar va boshqichlardan iborat. Bular kasb-hunar maktablari, oliy o`quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo`jaligi, transport va aloqa tizimi, kasbga

yo`naltirish shaxs uchun idividual, shuningdek, jamiyat uchun ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, psixologlar yoshlarning aql-idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

Yoshlarni kasbga yo‘naltirish ularning qiziqish, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turg‘un kasb tanlashga tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon maktab davridan boshlanib, ichki motivatsiya (o‘zini rivojlantirish) va tashqi omillar (maosh, obro‘) ta’sirida shakllanadi.

Yoshlarni kasbga qiziqtirishning asosiy yo‘nalishlari:

Psixologik-pedagogik diagnostika: O‘quvchilarning qiziqish va layoqatlarini 5-7 sinflardan boshlab tashxislash va ularga o‘zlarini anglashda ko‘maklashish.

Kasbga yo‘naltirish tizimi: Maktablarda kasb-hunar o‘rgatish tizimini qo‘llash orqali to‘g‘ri kasb tanlashga ko‘maklashish.

Motivatsiya shakllantirish: Yoshlarda nafaqat tashqi (moddiy), balki ichki (qiziqish, ijodkorlik) motivatsiyani uyg‘otish.

Qobiliyat va ehtiyoj muvozanati: Shaxsning individual qobiliyatlarini jamiyatning kasbga bo‘lgan ehtiyojlari bilan moslashtirish.

Professor R.X.Jo‘raevning asosli ta’rifi bo‘yicha, “kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining asosiy maqsadi, eng avvalo, individga o‘z qiziqish, qobiliyat va imkoniyatlarni to‘liq anglash, hohish-istaklarini amalga oshirish, vosita usullarini to‘g‘ri belgilash hamda mustaqil qarorga kelish uchun imkoniyat va zarur shartsharoitlarni yaratishdan iborat”. [4.141.]

Kasbga yo’naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashining ilmiy-amaliy tizimi sifatida qaralishi lozim. Bunda har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish, xalq xo’jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat zahiralari bilan to’laqonli ta’minlash zarurati kabi omillarni e’tiborda tutish joiz.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo`lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo`lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko`p hollarda kattalarning maslahatlari va tavisyalarini hisobga olgan holda qat’iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin. Yoshlarni kasbga yõnaltirishning psixologik asoslarini yaxshi tushunish ularning potentsialini to'liq ochishga va o'zlarining orzu qilgan kasblariga erishishga yordam beradi. O'zlarining qiziqishlarini, qobiliyatlarini va shaxsiyatini anglab yetgan yoshlar o'zlarini baxtli va muvaffaqiyatli his qilishlari mumkin.

Kasbga to’g’ri yo’naltirish yoshlarining kelajakda o’z sohasining yetuk mutaxassisi bo’lib yetishishlariga va hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishda ota-onalar bilan ishlash, farzandining kasbiy moyillik, qiziqish va qobiliyatlaridan ularni xabardor qilish, har bir insonning o’z hayot yo’li borligi, shuning uchun ham farzandlarini o’zi yoqtirgan va qoniqtiradigan kasblarga yo’naltirish lozimligini tushuntirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR
1. Bekchanova K.R. Ismailova A. R. Yoshlarni kasbga yo`naltirishning psixologik xususiyatlari. Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 5 | (2021).
2. Карандашев В.Н. Психология введение в профессию. 2- е изд - М.: Смысл, (2003). - 19 с. 2.
3. Ashuraliyeva G.N. Yoshlarni kasbga yo'naltirishning psixologik asoslari ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. (2024). Наука и инновация, 2 (35), 15-18.
4. Pardayeva G.S. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda t'alim jarayonining uzviyligini ta'minlash. Journal of new century innovation. Volume–29_Issue-5_May_2023. 140-145

HISSIYOT VA AQLIY TARAQQIYOT NOMUTANOSIBLIGI

Yo.Djumanazarov
Namangan davlat universiteti,
Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi.
G.Jumanazarova
Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali Pedagogika va
psixologiya kafedrasi v.b.dotsenti.

Annotatsiya: *Hozirgi kunda yosh avlodni hissiy rivojlanish mexanizmi muhitning bevosita ta'siri ostida sodir bo'lmoqda. Bunday zararli ta'sirlardan asrash, oldini olish borasidagi ishlarning samarasini belgilaydigan psixoprofi-laktik ishlar xaqida ota-onalarni, o'qituvchilarni, tarbiyachilarni,trenerlarni psixologik bilimlarini oshirish davr talabiga aylanib qolmoqda.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim va tarbiya , individual xususiyatlar, real profilaktika, submadaniyat, multitasking,telefon.*

Аннотация*: Эмоциональный механизм молодого поколения в настоящее время находится под прямым влиянием окружающей среды. Процесс формирования такого вредного воздействия приобретает все большее значение для своевременного лечения родителей, учителей и педагогов в области психопрофилактики.*

Ключевые слова: *Образование и воспитание, индивидуальные особенности, реальная профилактика, субкультура, многозадачность, телефон.*

Abstract: *Nowadays, the mechanism of emotional development of the younger generation is taking place under the direct influence of the environment. Increasing the psychological knowledge of parents, teachers, educators, and trainers about psychoprophylactic work, which determines the effectiveness of work on protec-tion and prevention from such harmful influences, is becoming a requirement of the times.*

Keywords: *Education and upbringing, individual characteristics, real prevention, subculture, multitasking, telephone.*

Odamlarning jamiyat va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarida insoniylik tamoyillariga amal qilishi lozimligi haqida eski zamonlarda ham, hozir ham ko'p yozilgan va yozilmoqda, bundan ham ko'proq miqdorda gapirilgan va gapirilmoqda. Kishilik jamiyati hech vaqt insoniylik g'oyalarini targ'ib etgan va rivojlantirgan arboblar, a'yonlar, fozilu-fuzalolar tanqisligidan aziyat chekmagan. Ammo hamma vaqt, shu jumladan bizning davrimizda ham amalda kishilarning kundalik turmushida ham, bir muncha yuqoriroq darajadagi ijtimoiy munosabatlarda ham,

xalqaro munosabatlarda ham mazmunan yoki pirovard natijasi bo'yicha insonparvarlikdan yiroq bo'lgan asoslar va maqsadlar tez-tez ko'zga tashlanmoqda.

Buning sabablari ehtimolki, bir tomondan xalqlar va millatlar o'rtasida amal qilayotgan mafkuraviy qarashlarning nomutanosibligida bo'lsa, ikkinchi tomondan axloqiy-ma'naviy tushunchalar, ijtimiy foydali va oqilona axloq meyorlaridan chetlanishlar va umuman ular bilan hisoblashmaslik hollari tobora ko'payib bormoqda.

Natijada kundalik turmushdagi axloqning tubanlashib borishi butun dunyo bo'yicha kuzatilmoqda. Ehtimol, uncha ko'p bo'lmasada, mafkuraviy-g'oyaviy hamda axloqiy-ma'naviy jihatdan bekamu-ko'st bo'lgan shunday oilalar uchrab turadiki, ularda oilaning navbatdagi vakili (farzandlar) o'zining fe'l-atvori bilan atrofidagilarning o'rinli e'tiroziga sababchi bo'ladi, ba'zan tuban, qabih ishlarga qo'l uradi, hattoki jinoyat qilishi ham mumkin. SHu yerda ta'lim va tarbiya tizimining mavjud va hammaga yaxshi ma'lum bo'lgan ayrim xususiyatlarini ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi. Maktab amaliy faoliyati bolalarni nafaqat o'qitishni, balki ularni tarbiyalashni ham nazarda tutadi. (lekin xozirgi kundagi xususiy bog'chalar,maktablar,oliy dargoxlarning asosiy maqsadi o'qitishga qaratilgan). Xozirgacha jamiyatda umum tomonidan so'zsiz qabul qilingan shunday qarashlar mavjudki, unga ko'ra bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy ishtirokchilari (ota-onalar, o'qituvchilar, lavozimdagi tarbiyachilar) ayni vaqtning o'zida yetuk tarbiyachilardir, deb hisoblanadi.(milliy qadriyatlarimizda "bitta bolaga yetti maxalla ota" kabi yondashuvlar qaerda qoldi.)

Maktab ta'lim-tarbiya dasturlarida logika, psixologiya va sotsiologiya fanlariga taalluqli bo'lgan hamda har qanday kishiga kundalik turmushda asqotadigan ayrim muhim tushunchalar, e'tiroflar, ta'riflar yetarli darajada yoritilmagan. Jumladan, o'quvchilarda fikrlash va mantiq qonunlari, kategoriyalari, qoidalari haqida tushunchalar yo'q yoki bo'lsa ham juda yuzaki, insonga xos bo'lgan asosiy shaxsiy va ijtimoiy hislatlarning genezisi, dinamikasi, dialektikasi, ahamiyati batafsil yoritilmagan. Ayni paytda shaxsga kundalik turmushda doimo kerak bo'ladigan individual va ijtimoiy fazilatlar, xususiyatlar, qobiliyatlar yuzasidan tushunchalar juda sayoz. Ko'pincha bolalar oilada ham yetarli darajada ijtimoiy tarbiya olishmaydi,(Jumladan,ota oylab,yillab safarda,mexr instinktlari qondirilmaydi) shunga ko'ra ko'pincha ularda ko'zga tashlanib turgan shaxsiyatparastlik, manfaatparastlik xususiyatlari mavjud.

SHaxsni biror yo'nalishda tarbiyalash uchun shu yo'nalishga mos keladigan moddiy va ma'naviy muhit yoki sharoitni yaratish lozim. Qanday bo'lmasin, yoshlikda shakllanib bo'lgan shaxsiyatni keyin kishi ulg'aygach korrektsiya qilish qiyin yoki umuman mumkin emas. Bolalikdan singdirilgan, his etilgan va o'rganilgan quyidagi tuyg'ular va malakalar bir umrga qoladi – vatan tuyg'usi, ona tili, milliy madaniyat, diniy e'tiqod, shug'ullanilgan biror kasb, hunar yoki aqliy faoliyatning biror turi.

Insonning jismoniy, aqliy va hissiy xususiyatlari mavjud. Ular kishining muayyan hislatlarini, qobiliyatlarini va imkoniyatlarini belgilaydi, kishi hayotining o'ziga xos xususiyatlari, jamiyatda tutgan o'rni va pirovard natijada uning taqdiri mana shu shaxsiy jihatlarining bir tomondan qay darajada va mazmunda namoyon

bo’lishiga, ikkinchi tomondan esa ularning o’zaro qanchalik bir-biriga mutanosib holda mos kelishiga bog’liq. SHaxsning individual rivojlanishida undagi jismoniy, aqliy va hissiy xususiyatlarining eng yuqori potentsial darajaga yetadigan davrlari turlicha va odatda o’zaro mutanosib emas. Bolada hissiyot eng avval jadal sur’atlarda rivojlanishni boshlaydi va balog’atga yetish va ilk yoshlik yillarida kishining hissiyotlari eng kuchli rivojlangan bo’ladi. Keyinchalik hissiyotlar asta-sekin susaya boradi va kishi hayotining ohirida hissiyotlar deyarli qolmaydi.

Jismoniy qobiliyatlar va xususiyatlar deyarli bir maromda yoshlik davrigacha o’sadi va undan keyingi davrlarda sekinlik bilan pasaya boradi. Odamning aqliy qobiliyati bir muncha sekinroq rivojlanadi va hayotining ohirgi davrlaridagina o’zining eng yuqori darajasida namoyon bo’ladi. Bunday nomutanosiblikning sababi shundaki, kishining jismoniy rivojlanishi asosan uning genotipiga asoslangan holda muhitning bevosita ta’siri ostida sodir bo’ladi, jismoniy rivojlanish uchun tashqi olamdan yoki ongning ichki tafakkur mahsuli bo’lgan qo’shimcha axborotlar talab etilmaydi. Hissiy rivojlanish mexanizmi ham huddi jismoniy rivojlanishniki kabi, u ham asosan genotipga mos tarzda hamda muhitning bevosita ta’siri ostida sodir bo’ladi, faqat bunda cheklangan miqdordagi tashqi va ichki axborot talab etiladi. Bugungi kunda cheklangan axborot tizimi bormi?

1. Televideniyada “Aqlvoy”, “Bolajon” ko’rsatuvlari uzluksiz ko’rsatiladi. CHeklov yo’q.

Multfilmlardagi shavqatsiz jazolashlar,xarakatlarning tezligi,fantaziyalarning xayotdan uzoqligi bola ruxiyatiga salbiy ta’sir ko’rsatmaydi deb kim kafolat bera oladi. Bir soat televizor tomosha qilish bolada “diqqat” qilish muammolarining paydo bo’lish ehtimolini 10% ga oshiradi. Kuniga 3 soat televizor tomosha qiladigan bolalarda umuman televizor ko’rmaydigan bolalarga nisbatan diqqatni jamlash muammolarining paydo bo’lish ehtimoli 30% ko’proqdir (Christakis, 2004). CHaqaloq va yosh bolalar qanchalik televizor, tablet, telefon va xokazolarni tomosha qilishsa, ularda Giperfaoliyatli E’tibor Yetishmasligi Sindromi (GEES) “Attention deficit hyperactivity disorder (ADHD)”, ya’ni dastlabki maktab yillarida ularda diqqat qilish va e’tiborni jamlashga muammolar bo’lishini ehtimoli shunchalik katta bo’ladi (Christakis, 2004). Masalan: multfilmlar, video o’yinlarda vaqt shunchalik tez o’tib ketadiki, hayot va darsda esa juda sekin o’tganday tuyuladi.

2. Bugungi kunda telefonga bog’lanib qolish ya’ni “Nemofobiya” kasalligi xar bir yosh bosqichida ustun.Ayniqsa ota onalar bolalarni telefon kasaliga bog’lab qo’ymoqda. O’zlari bunga sababchi deb xisoblaymiz. Bugungi kunda ayrim ishbilarmonlar pul deb “kompyuter o’yinlarini”tashkil qilib bolalarni ruxiy istiroblarga,o’g’rilikka va oilaviy nizolarga pinxona sababchi bo’lmoqda.

Tadqiqotchi Qozog’ Milliy Universiteti professori Azamat Akbarovning bergan ma’lumotlariga qo’ra, inson bosh miyasi bir vaqtning o’zida bir narsaga diqqatni e’tibor berishga mo’jallangan, va u ma’lumot bilan ko’p o’qlariga tutilsa (ya’ni ko’plab vazifa yuklash- Multitasking) bosh miya ishini sekinlashtiradi (Ults, 2015). Ko’plab vazifa yuklash stress gormoni bo’lmish kortizol ishlab chiqarishni kuchaytiradi va bizni aqlan horishimizga olib keladi (Kim, 2016). Natijada aqliy zaharlanish ta’siriga tushish bizning xotiramizga va eslab qolish qobiliyatimizga yomon ta’sir qilar ekan.(Rosenfield,1988; Kiefer, 2007; Akbarov, 2017).

Tadqiqotlarning ko’rsatishicha, sinflarida telefon ishlatish ta’qiqlangan o’quvchilar telefon ishlatish erkin bo’lgan maktablardagi o’quvchilardan o’zlashtirish ko’rsatkichi yuqori turar ekan. (Uhls, 2015).

Eng qiziq ma’lumot shuki “Yuqori texnologiya asoschilari Google, Apple va Yahoo kompaniyasi xodimlari” o’zlarining bolalarini Silikon vodiysida joylashgan Valdorf (Waldorf) maktabiga berishar ekan.CHunki u yerda Amerikaning raqamli dunyo markazida joylashganiga qaramay, iPad, smartfon yoki birorta ekran topilmas ekan. (The guardian, 2 dekabrь, 2015; M. Jenkin)

SHarq mutaffakirlarining noyob o’gitlari va qarashlarida shaxs kamolotida oilaviy tarbiyaning o’rni yuqori baholangan, ota-ona va yaqin kishilarning vazifalariga alohida e’tibor berilgan, aynan oilada halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, rostgo’ylik kabi bir qator yuksak insoniy fazilatlar taraqqiy etishi haqidagi qimmatli fikrlarni o’zlarining falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik qarashlarida ifodalab berganlar. Zardushtiylikning qadimiy kitobi - «Avesto»da oila muqaddas dargohligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas’ulligi, farzand tarbiyasi xususidagi fikrlar bayon etilgan. Oilada ota yetakchi bo’lgani ma’qul, deb ko’rsatilgan, oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo’lgan, ahamiyatli jihati shundaki, unda er-xotinni o’zaro sodiq, g’amxo’r, mehribon bo’lishlari zarurligi aytib o’tilgan.

Abu Nasr Forobiy ta’limotida keltirilishicha, haqiqiy baxt bir odamning boshqasiga nisbatan g’ayirligi, zulmi yo’qolgandagina bo’ladi, oila a’zolarining bir-birlariga samimiy munosabati, mehr-muruvvati, oqibatlari aynan shu oila a’zolarining to’laqonli baxtini tashkil qiladi. Har bir ota-ona o’z farzandlari uchun birlamchi ustoz, yo’l ko’rsatuvchi ekanligi va katta ta’sirga ega ekanligi to’g’risida aytib o’tgan. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy «ozodalik va orastalik olijanoblikning o’zagi» bo’lishi kerakligini uqtirib, insonning tashqi yoqimli qiyofasi bilan uning axloqiy qiyofasi o’rtasidagi bog’liqligi haqida gapirib, salomatlik va ruhiy pokligining asosidir, deb ta’kidlaydi. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sinoning tarbiyaga oid qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo’lib, tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq tana jazosidan ko’ra, shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma’qulligini uqtirgan. Uning fikricha, tarbiyachi, ya’ni ota-ona «nafaqat so’z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta’sir ko’rsatmog’i lozim».

“Hissiyot bizning tuyg‘ularimizning o‘ziga xos aks ettirish jarayoni bo‘lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug‘iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o‘z-o‘zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta’siri bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Emotsional jarayonlar, holatlar yoki tor ma’noda emotsiyalar hissiy kechinmalarining o‘ziga xos xususiyatli shakllaridan bittasidir. Emotsiya – u yoki bu hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishishi) jarayonidan iboratdir Masalan, shaxs tomonidan musiqani sevish emotsiyani vujudga keltirmaydi, balki buning uchun musiqani eshitish, ijrochi mahoratiga tasanno bildirish, undan hayajonlanish yoki asar ijrosi yoqmasa g‘azabli hissiy kechinma hosil bo‘lishi ijobiy, salbiy emotsiya deyiladi. qo‘rqinch, dahshat hissiy kechinma sifatida ob’ektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib turlicha shaklda namoyon bo‘lishi mumkin: odam dahshatdan qochadi, qo‘rquvdan serrayib qoladi, o‘zini

idora qila olmay har tomonga uradi, hatto xavf-xatarga o‘zini tashlashi ham mumkin”. (5.125-s)

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o’zining «Qutadg’u bilig» - «Saodatga boshlovchi bilim» - asarida o’zining axloq-odobga va hayotga oid qarashlarini bayon etadi.SHoirning fikricha, «agar bolaning xulqi yomon bo’lsa, bunda bolaning aybi yo’q, hamma ayb - otasida».

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Президента Шавкат Мирзиёев 2017—2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йуналиши буйича харакат стратегияси. 7 январ 2017 йил.
2. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. -T . Fan va texnologiyalar markazi. 2020.
3. Sog’inov.N.«Ta`lim tizimida psixologik xizmatni amalga oshirishda psixodiagnostik vositalardan foydalanish», T., 2015.y
4. Azamat Akbarov. Qozoq Milliy Universiteti professori. Aqlning zaharlanishi (ifloslanishi) va uning yosh avlod ongiga salbiy ta'siri: 2017 y.
5. Maxsudova M.A.Umumiy psixologiya. O’quv qo’llanma. N.2025 yil.

KASBIY QIZIQISH VA MOYILLIKLARINI TASHXIS QILISH USULLARI

Kurbanova Zarifa Bokijanovna
Namangan davlat universiteti
psixologiya kafedrasi dotsenti, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Maqolada kasbiy faoliyat, kasb, professonalizm, ixtisoslik tushincalarinig mohiyati ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyati, maqsad va vazifalari, kasbiy mahorat shakllanishining asosiy bosqichlari, uni tashxis qilish usullari va psixodiagnostik vositalari haqida fikr- mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy qisiqish, kasbiy moyillik, kasb, kasbiy faoliyat, kasbiy layoqat, ixtisoslik, psixodiagnostik vositalar, testlar, kasbiy maslahat, kasbiy diagnostika*

Аннотация: В статье представлена сущность понятий профессиональной деятельности, профессии, профессионализма, специализации, их специфические особенности, значение, цели и задачи, основные этапы формирования профессиональных навыков, методы их диагностики и психодиагностические инструменты.

Abstract: *The article presents the essence of the concepts of professional activity, profession, professionalism, specialization, their specific features, significance, goals and objectives, the main stages of the formation of professional skills, methods of its diagnosis and psychodiagnostic tools.*

Keywords: *professional orientation, professional inclination, profession, professional activity, professional competence, specialization, psychodiagnostic tools, tests, professional advice, professional diagnostics*

Psixologiya fani uchun fundamental tabiatga ega bo‘lgan kadrlar tanlash masalasi bugungi kunda o‘ta dolzarb hisoblanadi. Har bir kasbiy faoliyat – mehnat faoliyati sinfi bo‘lib, maqsadlar yig‘indisiga erishish uchun mo‘ljallangan hamda ma’lum xususiyatlar va miqdoriy tavsiflariga ega. Zamonaviy bosqichda “kasbiy faoliyat”, “kasb”, “ixtisoslik” tushunchalarining o‘zaro aloqadorligini kompleks holda ko‘rib chiqish va tadqiq etishni talab etadi.

E.A.Klimov tomonidan talqin etilgan “kasb” tushunchasi boshqa mualliflar yondashuviga nisbatan kengroq tavsiflanadi. Uning fikricha kasb bu:

- shunday sohaki, unda inson mehnat subyekti sifatida o‘z vazifalarini amalga oshiradi;
- ma’lum turdagi mehnat vazifalarini amalga oshiruvchi kishilar jamoasi;
- insonga xos tayyorgarlik (bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar), ular tufayli inson ma’lum turdagi mehnat vazifalarini bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- faoliyat, professional ishi, ya’ni mehnat va kasbiy bajariladigan vazifalarni amalga oshirish. [1]

Har qanday kasbiy faoliyat tahlili professionalizm (kasbiy mahorat) tushinchasini qo‘llashni taqozo etadi. A.K.Markova professionalizm talqinining bir nechta jabhalarini ko‘rsatib o‘tadi.

Birinchisi – bu “me’yoriy professionalizm” bo‘lib, mehnatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan insondagi shaxslilik xususiyatlari yig‘indisi sifatida qaraladi.

Boshqa ma’noda professionalizm tushuncha sifatida psixik sifatlar zaruriy me’yoriy to‘plamiga ega bo‘lgan mehnat subyekti tavsifnomasi aks ettiradi.

Va nihoyat, professionalizm mehnat subyekti yuqori bahoga loyiq bo‘lgandagi me’yoriy vazifalarini bajarish sifati tushuniladi.

A.K.Markova shaxs professionalizmining ikki tomoni va yettita mezon guruhlari, o‘ziga xos bosqichlari va pog‘onalarini, shuningdek, ichki o‘zaro aloqadorligi kasbiy faoliyatning obyektiv jarayonlari sifatida shartlangan beshta professionalizm darajasini ajratib ko‘rsatadi. Bu darajalar quyidagilar:

- professionalizmgacha bo‘lgan daraja;
- professionalizm;
- superprofessionalizm;
- professional bo‘lmagan yoki qalbaki professionalizm;
- professionalizmdan keyingi daraja.

Professionalizmning keyingi darajalarida mutaxassis faoliyatning individual maromiga ega bo‘ladi va ijtimoiy kasbiy jihatdan tan olinadi, shaxsning o‘zini o‘zi dolzarblashtirishga, kasbiy “akme”ga erishishga intilishiga mos keladi. O‘z kasbiy salohiyatini ochgan kadr, xattoki nafaqa yoshiga yetganda ham professionalizmdan keyingi bosqichdagi faoliyatning turli ko‘rinishlarida to‘plangan ajoyib kasbiy, shaxslilik salohiyatini amalga oshirishga imkoniyat topadi (maslahat, konsiliumlarda ishtirok etish, o‘qituvchilik faoliyati va boshqalar).

Kasbiy faoliyatga moslashuvning individual shakllarini tahlil etish kengligi va kasbiy noprofessionalizm fenomeni psixologik jabhasi kasbiy dezadaptatsiya, shaxsdagi deformatsiya yoki “yonish” shuningdek, uzluksiz kasbiy ta’lim jarayonidagi ma’lum nuqsonlar, kasbiy tajribaning yetishmovchiligi sifatida qarash mumkin. [3]

Ye.A.Klimov tadqiqotlarida inson taraqqiyoti yosh davrlari va uning professionalizatsiya jarayonining o‘zaro aloqadorligi asoslangan, “optant”, “adept”, “adaptant”, “internal”, “usta”, “obro”, “murabbiy” tushunchalarini ham kiritiladi. [1]

Bevosita professionalizm kategoriyasi bilan psixik sifatlar yig‘indisi, mustaqil va mas’uliyat bilan harakat qilish imkoniyatini beruvchi psixik holat, inson

tomonidan ma’lum mehnat vazifalarini bajarish malakasiga ega bo‘lish” sifatida ta’riflanuvchi professional kompetentlik tushunchasi bog‘liq. Binobarin, shaxslilik tayyorgarligining bunday darajasi kasbni qabul qilish, ma’lum tadqiqotlarga tayangan holda individual-shaxslilik moslashuvining yuqori darajasi ta’minlanar ekan, professional kompetentlikni mehnat sub’ektining mustaqil va mas’uliyat bilan harakat qilishi, sub’ektni faoliyatga kasbiy-shaxslilik moslashuvining yuqori darajasini saqlagan holda ma’lum mehnat vazifalarini bajarish qobiliyati va malakasiga ega bo‘lish imkon beruvchi psixik sifatlari yig‘indisi, psixik holati sifatida ta’riflaymiz. Har qanday kasb faoliyati tahlili faoliyatni tadqiq etish metodologiyasida shakllangan ma’lum talablarni hisobga olgan holda quriladi.

Xodimlarni psixologik saralash metodikalari tasnifi bugungi kunga kelib juda turli-tuman ko‘rinishga ega bo‘lib, asosan shaxsni, uning psixik xususiyatlari, qobiliyatlari, ko‘nikma va malakalarni egallashga layoqatlari va x.k.ni o‘rganishga qaratilgan. Shaxsni o‘rganuvchi testlar – psixodiagnostikaning shunday metodlariki, ular yordamida shaxsning turli tomonlari: ustanovkalar, qadriyatlar, emotsional, motivatsion va shaxslararo munosabatlar, shuningdek xulq-atvorning tipik shakllari ham o‘rganiladi. Bunday testlarning asosiy vazifasi individning motivatsiyasi, qiziqishlari, emotsional munosabatlarining namoyon bo‘lishini aniqlashdan iborat, shuningdek uning ma’lum vaziyatlardagi xulq-atvor xususiyatlari ham aniqlanadi. Bunday psixologik xususiyatlarni bilish har bir insonga o‘z ishida maksimal darajaga erishishi uchun ishni qanday tashkil etilishi mumkinligiga ko‘rsatma ham berishi mumkin.

Odatda kadrlarni saralash birgina emas, balki ularni atroflicha o‘rganishga mo‘ljallangan bir necha usullari mavjud. Nomzodlarni saralashning kompleks metodlari o‘zida quyidagilarni qamrab oladi:

-oldindan saralash (belgilangan shaklda nomzod haqidagi axborotlar to‘plash, dastlabki suhbat va intervьyu);

-nomzod haqida axborot to‘plash (o‘zga kishilar yordamida);

-shaxslilik so‘rovnomalari;

-testlar: intellekt, maxsus qobiliyatlar, qiziqishlar, kasbsha yaroqlilik va boshqalar;

-guruhiy metodlar;

-muammoni hal etish;

-ishni sinab ko‘rish;

-o‘zini o‘zi qayd etish;

-suhbat, interv’yu.

Metodlar mazkur kasbiy faoliyatga nomzodni tanlashga yondashuvga bog‘liqdir.

O‘quvchi - yoshlarning kasbiy yo‘nalishini aniqlash maqsadida YA.Xolland testidan foydalanish maqsadga muvofiqdir [2]. O’quvchilarga oldindan tayyorlangan savolnoma, javob varaqalari va kasbiy lug‘at tarqatiladi. Ushbu metodika o‘quvchilarning qaysi kasb sohasini afzal ko‘rishini aniqlashga imkon beradi. Kasbiy muhit sohalari olti turga ajratiladi: realistik yoki amaliy; intellektual; ijtimoiy; konventsional yoki standart, uddaburon; artistik.

Ключевые слова*. Креативность, профессиональная деятельность, профессиональная компетентность, личностные качества, мотивация в процессе оказания услуг, коллективная среда, педагогическая деятельность.*

Key words*. Creativity, professional activity, professional competence, personality traits, motivation in the service process, collective environment, pedagogical activity.*

Ta’lim jarayonini faollashtirish va intensifikatsiyalash yo‘llarini izlash konstruktiv faoliyatning ajralmas qismidir. Bu bilan bog‘liq holda ko‘pgina o‘qituvchilar darsda muammoli o‘qitish va muammoli vaziyatlarni tashkillashtirildi. Taajjubki, o‘qituvchi har qanday qo‘llanmalarni (dastur, metodik adabiyotlar) qo‘llamasin, har bir dars uning bilimlariga, uning ijodiyotiga, tafakkurning o‘ziga xosligiga bog‘liq, hamda pedagogning analitik faoliyati muhim ahamiyatga egadir.

O‘qituvchining o‘ziga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlari bilan bog‘liqdir. O‘qituvchi faoliyati o‘zaro komponentlardan iborat. Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashkilotchilik.

Konstruktiv komponenti. O‘qituvchining ishida konstruktiv dars katta o‘rin egallaydi, ya’ni sinfdan tashqari ishlar maktab dasturlari bilan bog‘liq o‘quv materiallarni ta’lim oluvchilar uchun turli metodik ishlanmasi va uni ta’lim oluvchilarga ifodasini qamrab olgan. Ushbu barcha ishlar dars konspekti tarkibida uz ifodasini topadi, ya’ni: o‘z faoliyatining tartibi va tizimi ta’lim oluvchilarning faoliyat tartibi va tizimi (yaxlit sinfni va alohida o‘quvchilarni).

Ayni vaqtda pedagogik faoliyatning ushbu komponenti maktab oldida turgan asosiy vazifasi o‘sib kelayotgan avlodning faol fuqarolik holatida tarbiyalash o‘qituvchi shaxsiga ma’lum bir talablarni qo‘yadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga intilishi kerak, buning uchun esa u eng qiyin nazariy savollarni oson o‘zlashtirilishi uchun o‘quv materialni tanlash va qayta ishlashi lozim.

Birinchi navbatda ta’lim oluvchilarning faoliyati faol bo‘lmasa, chuqur bilim va o‘zlashtirish jarayoni amalga oshirilmaydi.

Tashkilotchlik komponenti. Pedagogik faoliyat strukturasida tashkilotchilik faoliyati ham muhim o‘ringa ega. Uni konstruktivdan ajratish qiyin bo‘lib, ular ajralmas yaxlitlikni tashkil qiladi. O‘qituvchi dars davomiyligini rejalashtirishda uning butun o‘quv va tarbiya jarayonini tashkillashtirishni bilishga bog‘liqdir. Faqatgina shunda o‘quvchilarni bilim bilan qurollashtirish mumkin.

Tashkilotchilik komponentida 3 yo‘nalish mavjud: o‘z tabassumining ifodasi: darsdagi tashkilotchilik xulq-atvori; bolalarni faollashtirish tashabbusi, ularning bilish sohasini doimiy ravishda faollashtirish.

Agar o‘qituvchi o‘z mahoratini tashkilotchilik faoliyatining birgina aspektida ifodalasa, masalan: o‘quv jarayonini yaxshi ifoda eta oldi, lekin bolalarni fikrlash faoliyatini faollashtira olmadi, bunda bilimlar o‘zlashtirmay balki dars ko‘ngil ochar xarakterda bo‘ladi.

Agar o‘qituvchi sinfni butunlay o‘zining tashkilotchilik xulq-atvor bilan qo‘lga olsa-yu, lekin o‘quvchilarga materiallarni, aniq ifoda etib bera olmay, materiallni ifoda etayotgan vaqtda o‘quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javobni aniqlashtirilgani oqibatida hali yuqoridagidek kamchilikni ya’ni bilimlarni chuqur o‘zlashtirmaslik yuzaga keladi.

Bu o‘quvchilarning muloqotiga, o‘yin va mehnat faoliyatini tashkilashtirishga ham bog‘liqdir.

O‘qish va bilish faoliyatidagi tashkilotchilik jarayoni albatta bir qator vazifalarni bajarishi kerak. Tashkilotchilik mahoratiga ega malakali o‘qituvchi

avvalo ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirib, ularni yil boshidagi o‘qishlari III sinfga borib, jamoaga munosabatlarni shakllantirishga olib keladi. Ta’lim oluvchilarning yakka tartibdagi tashabbuskorlik faoliyati muhim bo‘lib, u jamoaning har bir a’zosining ta’siri, ota-onalarning bolalarga ta’siri, yuqori sinf sardorining sinf tadbirlari sardoriga ta’sirida ifodalanadi. Mazkur barcha aloqa va sinflar munosabatida o‘qituvchining ta’lim oluvchilarning faoliyatining nazorati, tashabbusi muhim o‘ringa egadir.

Kommunikativ komponent. U o‘z ichiga o‘quvchilar bilan, ota-onalar bilan, ota-onalar bilan ma’muriyat bilan, o‘qituvchilar bilan munosabatlarini oladi.

Aynan o‘qituvchining o‘quvchi bilan munosabatida tashkilotchilik va konstruktiv faoliyatidagi yutuqlarini va ta’lim jarayoniga nisbatan o‘quvchilarda emotsional birdamlikni hosil qiladi. Shuning uchun o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat boshlang‘ich sinflarda asosiy diqqatni ta’lim oluvchilarga qaratiladi. O‘quvchilar o‘qish boshida o‘qituvchining bilimini yoki uning darsini tashkillashtirish emas, balki uning mehribonligini, e’tiborligini, kuchli emotsionalligini baholashadi. Bu esa kichik yoshdagi o‘quvchilarda bu munosabatlar katta taassurot qoldiradi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga o‘qituvchining kommunikativ sifatlari ta’siri shunchalik yuqoriki, u jamoa sinfida yuzaga keladigan ko‘pgina munosabatlarni aniqlash usulidir.

O‘qituvchilarning ta’lim oluvchilarga nisbatan 5 xil emmotsional munosabatni o‘z ichiga oladi: ijobiy emotsionallikning sustligi, salbiy emotsionallikning aktivligi, salbiy emotsionallikning sustligi va har xilligi.

O‘qituvchidagi emotsional xilma-xillik o‘quvchilarga nisbatan shubhali va salbiy yo‘naltirilgan bo‘ladi, bu sentimental va o‘quvchilarni asossiz kengaytiradi, bu esa sinfda bir-biriga nisbatan asabiy va va notekis munosabatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik faoliyatning kommunikativ tomoni barcha pedagogik jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Darsda yangi materialni tushuntirishda o‘qituvchining emotsional uzatishi o‘quvchilarda bilimni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Yakka tartibdagi yondoshuv insonning kommunikativ faoliyatining bir tomoni bo‘lib uning ishdagi yutug‘ini belgilab beradi. O‘qituvchi o‘quvchidagi o‘ziga xos xususiyatlarini sezishi va bilishi kerak, unga nima yordam beradi-yu, nima xalaqit qiladi. O‘quvchining sustligi uning temperamenti bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchidan takt va sabr-bardoshlikni va anatomo-fiziologik xususiyatlarning o‘ziga xosligi, nutqdagi kamchiliklar mavjud bo‘lgan o‘quvchilarga alohida e’tiborni talab etadi.

O‘quv faoliyatidagi har bir dars jarayonining bosqichi va ayniqsa so‘roq o‘tkazilishida oldindan o‘ylangan rejalashtirilgan muloqot imkoniyatlarini talab qiladi. Gapni bo‘lmay tinglashni bilish, o‘z vaqtida yuzaga kelgan savolni berish, javobni haqqoniy baholash, ta’lim oluvchilarga subektiv munosabatda bo‘lmaslik, pedagog shaxsining o‘quvchiga nisbatan ijobiy ta’sirini belgilab beradi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, boshlang‘ich sinfda o‘qituvchining faoliyatida konstruktiv va tashkilotchilik komponentlari emas, balki kommunikativ komponentlari muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘qituvchida o‘quvchilarga nisbatan

ijobiy yoki salbiy stereotiplarni munosabatlarini keltirib chiqarib, bu o‘qituvchida xulq-atvorini o‘zgartirish va analiz qilishni talab qiladi.

A.I. Sherbakov yuqorida sanab o‘tilgan komponentlardan tashqari, pedagogik faoliyatning quyidagi to‘ldiruvchi tomonlarini ochib bergan. Bu axborotli tomoni (materialga ega bo‘lish va uni mahoratini yetkazish); rivojlantiruvchi (o‘quv shaxsining yaxlit holda rivojlanishiga yo‘naltirish); harakatlantiruvchi (ta’lim oluvchilarga aqliy faoliyatlarini faollashtirish va ularni mustaqilligini rivojlantirish mo‘ljallangan (shaxsni motiv va ideallariga yo‘naltirish); izlanuvchan (pedagogik jarayondagi ijodiy izlanishlar), o‘z malakasini oshirish va o‘z mahoratini joimiy ravishda takomillashtirish.

Pedagog kasbi uchun shaxsiy xususiyatlar ko‘lami juda muhim hisoblanib, o‘qituvchida pedagogik faoliyatida va xuddi shu vaqtning o‘zida uning yutuqlarini ta’minlashda anglash va faoliyat yuritish birligi shakllangan bo‘lishi kerak.

Pedagogik faoliyat motivlari. Ko‘pgina motivlar orasidan o‘qituvchi shaxsi uchun bosh motiv sifatida kasbiy motiv hisoblanadi.

O‘qituvchining kasbiy motivi har qanday motivatsiya singari murakkab tuzilishiga egadir. Uning tarkibiga pedagog kasbni tanlash motivi, o‘qituvchining Tashkilotchlik komponenti. Pedagogik faoliyat strukturasida tashkilotchilik faoliyati ham muhim o‘ringa ega. Uni konstruktivdan ajratish qiyin bo‘lib, ular ajralmas yaxlitlikni tashkil qiladi. O‘qituvchi dars davomiyligini rejalashtirishda uning butun o‘quv va tarbiya jarayonini tashkillashtirishni bilishga bog‘liqdir. Faqatgina shunda o‘quvchilarni bilim bilan qurollashtirish mumkin.

Tashkilotchilik komponentida 3 yo‘nalish mavjud: o‘z tabassumining ifodasi: darsdagi tashkilotchilik xulq-atvori; bolalarni faollashtirish tashabbusi, ularning bilish sohasini doimiy ravishda faollashtirish.

Agar o‘qituvchi o‘z mahoratini tashkilotchilik faoliyatining birgina aspektida ifodalasa, masalan: o‘quv jarayonini yaxshi ifoda eta oldi, lekin bolalarni fikrlash faoliyatini faollashtira olmadi, bunda bilimlar o‘zlashtirmay balki dars ko‘ngil ochar xarakterda bo‘ladi.

Agar o‘qituvchi sinfni butunlay o‘zining tashkilotchilik xulq-atvor bilan qo‘lga olsa-yu, lekin o‘quvchilarga materiallarni, aniq ifoda etib bera olmay, materiallni ifoda etayotgan vaqtda o‘quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javobni aniqlashtirilgani oqibatida hali yuqoridagidek kamchilikni ya’ni bilimlarni chuqur o‘zlashtirmaslik yuzaga keladi.

Bu o‘quvchilarning muloqotiga, o‘yin va mehnat faoliyatini tashkilashtirishga ham bog‘liqdir.

O‘qish va bilish faoliyatidagi tashkilotchilik jarayoni albatta bir qator vazifalarni bajarishi kerak. Tashkilotchilik mahoratiga ega malakali o‘qituvchi avvalo ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirib, ularni yil boshidagi o‘qishlari III sinfga borib, jamoaga munosabatlarni shakllantirishga olib keladi. Ta’lim oluvchilarning yakka tartibdagi tashabbuskorlik faoliyati muhim bo‘lib, u jamoaning har bir a’zosining ta’siri, ota-onalarning bolalarga ta’siri, yuqori sinf sardorining sinf tadbirlari sardoriga ta’sirida ifodalanadi. Mazkur barcha aloqa va sinflar munosabatida o‘qituvchining ta’lim oluvchilarning faoliyatining nazorati, tashabbusi muhim o‘ringa egadir.

Kommunikativ komponent. U o‘z ichiga o‘quvchilar bilan, ota-onalar bilan, ota-onalar bilan ma’muriyat bilan, o‘qituvchilar bilan munosabatlarini oladi.

Aynan o‘qituvchining o‘quvchi bilan munosabatida tashkilotchilik va konstruktiv faoliyatidagi yutuqlarini va ta’lim jarayoniga nisbatan o‘quvchilarda emotsional birdamlikni hosil qiladi. Shuning uchun o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat boshlang‘ich sinflarda asosiy diqqatni ta’lim oluvchilarga qaratiladi. O‘quvchilar o‘qish boshida o‘qituvchining bilimini yoki uning darsini tashkillashtirish emas, balki uning mehribonligini, e’tiborligini, kuchli emotsionalligini baholashadi. Bu esa kichik yoshdagi o‘quvchilarda bu munosabatlar katta taassurot qoldiradi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga o‘qituvchining kommunikativ sifatlari ta’siri shunchalik yuqoriki, u jamoa sinfida yuzaga keladigan ko‘pgina munosabatlarni aniqlash usulidir.

O‘qituvchilarning ta’lim oluvchilarga nisbatan 5 xil emmotsional munosabatni o‘z ichiga oladi: ijobiy emotsionallikning sustligi, salbiy emotsionallikning aktivligi, salbiy emotsionallikning sustligi va har xilligi.

O‘qituvchidagi emotsional xilma-xillik o‘quvchilarga nisbatan shubhali va salbiy yo‘naltirilgan bo‘ladi, bu sentimental va o‘quvchilarni asossiz kengaytiradi, bu esa sinfda bir-biriga nisbatan asabiy va va notekis munosabatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik faoliyatning kommunikativ tomoni barcha pedagogik jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Darsda yangi materialni tushuntirishda o‘qituvchining emotsional uzatishi o‘quvchilarda bilimni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Yakka tartibdagi yondoshuv insonning kommunikativ faoliyatining bir tomoni bo‘lib uning ishdagi yutug‘ini belgilab beradi. O‘qituvchi o‘quvchidagi o‘ziga xos xususiyatlarini sezishi va bilishi kerak, unga nima yordam beradi-yu, nima xalaqit qiladi. O‘quvchining sustligi uning temperamenti bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchidan takt va sabr-bardoshlikni va anatomo-fiziologik xususiyatlarning o‘ziga xosligi, nutqdagi kamchiliklar mavjud bo‘lgan o‘quvchilarga alohida e’tiborni talab etadi.

O‘quv faoliyatidagi har bir dars jarayonining bosqichi va ayniqsa so‘roq o‘tkazilishida oldindan o‘ylangan rejalashtirilgan muloqot imkoniyatlarini talab qiladi. Gapni bo‘lmay tinglashni bilish, o‘z vaqtida yuzaga kelgan savolni berish, javobni haqqoniy baholash, ta’lim oluvchilarga subektiv munosabatda bo‘lmaslik, pedagog shaxsining o‘quvchiga nisbatan ijobiy ta’sirini belgilab beradi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, boshlang‘ich sinfda o‘qituvchining faoliyatida konstruktiv va tashkilotchilik komponentlari emas, balki kommunikativ komponentlari muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘qituvchida o‘quvchilarga nisbatan ijobiy yoki salbiy stereotiplarni munosabatlarini keltirib chiqarib, bu o‘qituvchida xulq-atvorini o‘zgartirish va analiz qilishni talab qiladi.

A.I. Sherbakov yuqorida sanab o‘tilgan komponentlardan tashqari, pedagogik faoliyatning quyidagi to‘ldiruvchi tomonlarini ochib bergan. Bu axborotli tomoni (materialga ega bo‘lish va uni mahoratini yetkazish); rivojlantiruvchi (o‘quv shaxsining yaxlit holda rivojlanishiga yo‘naltirish); harakatlantiruvchi (ta’lim oluvchilarga aqliy faoliyatlarini faollashtirish va ularni mustaqilligini rivojlantirish

mo‘ljallangan (shaxsni motiv va ideallariga yo‘naltirish); izlanuvchan (pedagogik jarayondagi ijodiy izlanishlar), o‘z malakasini oshirish va o‘z mahoratini joimiy ravishda takomillashtirish.

Pedagog kasbi uchun shaxsiy xususiyatlar ko‘lami juda muhim hisoblanib, o‘qituvchida pedagogik faoliyatida va xuddi shu vaqtning o‘zida uning yutuqlarini ta’minlashda anglash va faoliyat yuritish birligi shakllangan bo‘lishi kerak.

Pedagogik faoliyat motivlari. Ko‘pgina motivlar orasidan o‘qituvchi shaxsi uchun bosh motiv sifatida kasbiy motiv hisoblanadi.

O‘qituvchining kasbiy motivi har qanday motivatsiya singari murakkab tuzilishiga egadir. Uning tarkibiga pedagog kasbni tanlash motivi, o‘qituvchining

ADABIYOTLAR.

1. Psixologiya metodologiyasi O‘quv qo‘llanma. E.G‘oziyev. T-2013,
2. Psixologiya metodologiyasi. G‘oziyev E.G‘., Xolmuxamedov M., Ibrohimov X. – T.: O‘z MU, 2002.
3. “Мотивация поведения и формирование личности” Асеев.В.Г. М.,“Мысл” 2011 г.
4. Nishanova.Z.T. “PSIXOLOGIK XIZMAT”, –T.:2007.
5. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”, –T.:2013.

“YOSHLARNING SHAXSIY SALOHIYATINI NAMOYON QILISH VA RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PARADIGMALARI”

G‘aniyeva Nargizaxon Odiljonovna
NamDU Psixologiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: *Maqolada o‘smirlarda shaxsiy salohiyatni namoyon qilishning dolzarbligi, shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, shaxsiy salohiyat haqida tushuncha, L.S.Vigotskiyning* ***“yaqin rivojlanish zonasi”*** *nazariyasiga ko‘ra, bola o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi usullari, shaxsiy salohiyat shakllanishining ta’lim tizimi bilan chambarchas bog‘liqligi embirik isbotlanganligi bayon etilgan. Shu bilan birgalikda maktab amaliyotchi psixologlari uchun o‘smir shaxsiy salohiyatni rivojlantirishga tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘smir, biologik rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, shaxsning o‘zini-o‘zi rivojlantirish, shaxsiy salohiyat, ichki resurs, investor, rigidlik, o‘zini anglash, o‘zini-o‘zi faollashtirish.*

Аннотация: *В статье рассматривается актуальность проявления личностного потенциала у подростков, факторы, влияющие на формирование личности, понятие личностного потенциала, пути наиболее полной реализации ребенком своего потенциала согласно теории «зоны ближайшего развития» Л.С. Выготского, а также приводятся эмпирические данные, свидетельствующие о тесной связи формирования личностного потенциала с системой образования. В то же время даются рекомендации школьным психологам по развитию личностного потенциала подростков.*

Ключевые слова: *Подростковый возраст, биологическое развитие, социальное развитие, саморазвитие личности, личностный потенциал, внутренние ресурсы, инвестор, ригидность, самосознание, самоактивация.*

Abstract: *The article describes the relevance of the manifestation of personal potential in adolescents, the factors influencing the formation of personality, the concept of personal potential, the ways in which a child can fully realize his potential according to L.S. Vygotsky's theory of the "zone of proximal development", and the empirical evidence that the formation of personal potential is closely related to the education system. At the same time, recommendations are made for school psychologists to develop adolescent personal potential.*

Keywords: *Adolescence, biological development, social development, self-development of the individual, personal potential, internal resources, investor, rigidity, self-awareness, self-activation.*

O‘smir yoshda shaxsiy salohiyatni aniqlash, rivojlantirish va uni namoyon eta olish nafaqat individual taraqqiyot, balki ijtimoiy resurslar samaradorligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchilarning o‘zini anglash, o‘zini faollashtirish, o‘ziga adekvat baho berish, ichki motivatsiya kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Shu sababli, o‘smirlarning shaxsiy salohiyatini tizimli asosda tadqiq qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

O‘rta Osiyoning mutafakkiri va qomusiy olimi Abu Nasr Farobiy bilimdon, ma’rifatli yetuk shaxs obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘–salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin». Bu fikrlardan Farobiyning ta’lim–tarbiyada yoshlarni salohiyatli qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada alohida e’tibor berganligi ko‘rinib turibdi, uning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatilmog‘i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola komillikka yetishmaydi[1]. Komillik esa aynan bolada o‘z shaxsiy salohiyatni anglash va namoyon etishdan boshlanadi.

Shaxsni shakllanishiga ta’sir etuvchi omil, mexanizm va shaxs dinamik rivojlanishini hisobga olib, taraqqiyotning uchta turini ko‘rishimiz mumkin [2].

1. Biologik rivojlanish. Biologik dastur asosida har bir individ o‘zini-o‘zi faollashtirib, atrof – muhit bilan doimiy munosabat o‘rnata oladigan ya’ni moslashish qobiliyatiga egaligi.

2. Ijtimoiy rivojlanish. Ijtimoiy mavjudot sifatida butunlay mustaqillikka erisha olmaydigan, ijtimoiy guruhlar bilan uyg‘unlikka erisha oladigan individdir. Ijtimoiy rivojlanishning asosiy vazifasi shaxslararo munosabatlarga moslashishga imkon beradi.

3. Shaxsni o‘zini – o‘zi rivijlantirish omili. Bu har bir individga individual ta’sir qiladi. Ya’ni inson o‘z taqdirini o‘zi belgilovchi, o‘zini-o‘zi bosqichma – bosqich rivojlantirish qobiliyatiga ega avtonom subyekt hisoblanadi. Bu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi va asosiy maqsadi shaxsiy salohiyatni rivojlantirishdir.

1 – bosqich o‘smirlik davrigacha.

2 – bosqich o‘smirlik va undan keying davr.

Mana shu rivojlanishning uch turdagi o‘lchovi bir-birini to‘ldirish bilan bog‘liqdir[3]. Aynan mana shu jarayonlarda rivojlanishning psixologik qonuniyatlari qanday amalga oshirilishi shaxsiy salohiyat shakillanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu o‘rnda shaxsiy salohiyat tushunchasiga to‘xtalamiz.

Shaxsiy salohiyat bilim, ko‘nikma, malaka yoki qobiliyatlar majmui sifatida tushunilmaydi, balki anashu o‘z imkoniyatlaridan foydalanish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Insondagi layoqat va qobiliyatlar butun hayoti davomida yashirinib yotishi ham mumkin. Shaxsiy salohiyat esa shu ichki resurslarni ochib berish, rivojlantirish, namoyon etish vazifasini bajaradi.

Shaxsiy salohiyat intellektdan ko‘ra muvaffaqiyat olib keluvchi va uning barqarorligini ta’minlovchi mabadir[4]. Yani, shaxsiy salohiyat qobiliyatlarning to‘plami emas, balki o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlaridan foydalanish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Aynan shaxsiy salohiyat “investor” hisoblanadi. Bizda qancha ichki resurslarimiz borligi muhim emas, balki ularni o‘z vaqtida anglab, qanday foydalanishni bilishimiz muhim. Shaxsiy salohiyat bo‘lmasa, ichki resurslari behuda ketadi yoki boshqalar tomonidan ishlatiladi[5].

Shunga ko‘ra, shaxsiy salohiyat hayot davomida o‘zini-o‘zi rivojlantirish jarayonidagi tizimli shakllanishdir.

Shaxsiy salohiyat darajasi yuqori bo‘lgan odamlar faollik, muvaffaqiyatlilik, mas’uliyatlilik, chidamlilik va o‘z taqdirini hal qilish, o‘zini – o‘zi boshqarish, maqsadga muvofiqlik va moslashuvchanlik kabi psixologik xususiyatlar bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, shaxsiy salohiyatini rivojlantirmagan odamlar passivlik, qaramlik, tebelik, zaiflik, muvaffaqiyatsizlik va rigidlik bilan ajralib turadi[6].

Shaxsiy salohiyat darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida akademik muvaffaqiyat va psixologik farovonlikka erisha olishlarida namoyon bo‘ladi. Shaxsiy salohiyat darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar muvaffaqiyatga erishishlari mumkin, ammo ular buning uchun yuqori kuch sarflaydilar. Ular bir vaqtning o‘zida muvaffaqiyatli va o‘zlarini baxtli his etaolmaydilar. Yo subyektiv farovonlikni yoki muvaffaqiyatni his qiladilar. Shaxsiy salohiyat to‘g‘ridan-to‘g'ri farovonlikni bashorat qilmaydi, balki qiyin hayotiy vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqishini ta’minlovchi vosita bo‘la oladi.

L.S.Vigotskiyning **“yaqin rivojlanish zonasi”** nazariyasiga ko‘ra, bola o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi uchun ijtimoiy va madaniy tajriba bilan boyitilgan muhitga ehtiyoj sezadi. Bunday sharoitlarda bolaning rivojlanishi nafaqat tabiiy jarayon sifatida, balki qo‘llab-quvvatlovchi tashqi omillar ta’sirida tezlashgan shaklda amalga oshadi. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va ilg‘or pedagogik yondashuvlar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashadi va o‘zlarini aniq kasbiy rol doirasida tasavvur qila boshlaydilar.

Biz tomonimizdan olib borilgan “O‘smirlarda shaxsiy salohiyatni namoyon qilishning psixologik xususiyatlari” mavzusidagi disertatsiya ishining empirik tahlillari shuni ko‘rsatadiki, 9-sinf o‘quvchilari orasida umumiy o‘rta ta’lim maktab

o‘quvchilaridan ko‘ra ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilar shaxsiy va kasbiy salohiyat namoyon qilish turlari bo‘yicha ustunlikka ega. Bu ustunlik ta’lim muassasasining maqsadli yo‘nalishida tashkil etilgan muhiti, shaxsiy salohiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyasi hamda raqobatbardosh ijtimoiy-psixologik atmosfera bilan izohlanadi. Shuningdek, bu natijalar o‘smirlik davrida shaxsning o‘zini anglash, kasbiy fikrlash va ijtimoiy moslashuv jarayonlari maktab muhiti va ta’lim tizimi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Maktab amaliyotchi psixologlari uchun o‘quvchi shaxsiy salohiyatni rivojlantirishda quyidagilarni tavsiya etamiz:

- ✓ **individual psixokorreksion va rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqish va** har bir o‘smirning ehtiyoj va shaxsiy imkoniyatlariga mos yondashish kerak;
- ✓ **psixologik treninglar orqali ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar va** o‘zini anglash, qaror qabul qilish, empatiya, konfliktni hal qilish va boshqalarni **rivojlantirish lozim;**
- ✓ **ota-onalar va o‘qituvchilar bilan muntazam hamkorlik olib borish.** O‘smirni tushunish va to‘g‘ri yo‘naltirishda integrativ yondashuv zarur;
- ✓ **o‘smirning ichki resurslarini faollashtirishga qaratilgan motivatsion suhbatlar tashkil qilish maqsadga muvofiq**.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, shaxs salohiyatini ochish va namoyon qilishni rag‘batlantiruvchi psixologik-pedagogik yondashuvlar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Shaxsiy salohiyat – bu kompleks psixologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarning salohiyatini baholashda uni faqat bitta omil orqali emas, balki bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan emotsional, ijtimoiy, intellektual, kasbiy, motivatsion va kommunikativ komponentlar majmui sifatida ko‘rish lozim. Ushbu komponentlarning uyg‘unligi o‘smir shaxsining o‘zini qanday anglashi, maqsadlariga qanday intilishi va ijtimoiy muhitda o‘zini qanday tutishi bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D.U.Aliyeva, M.A.Esonova “Sharq mutafakkirlarining ma’rifatli inson kamolati haqidagi fikrlari” INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES IN PRESCHOOL EDUCATION” 15 MAY, 2024 B.15-16

2. Леонтьев Д.А. Личностное изменение человеческого развития // Вопросы психологии. 2013. № 3. С. 67−80.

3.Леонтьев Д.А. Личностный потенциал как потенциал саморегуляции // Учёные записки кафедры общей психологии МГУ им. М. В. Ломоносова, вып. 2 / под ред. Б. С. Братуся, Е. Е. Соколовой. — М.: Смысл, 2006. С. 85−105.

4.Duckworth A.L., Seligman M.E.P. Self-discipline outdoes IQ predicting academic performance in adolescents. // Psychological Science, 2005, 16(12), 939−944.

5. G‘aniyeva N.O. O‘smirlarda shaxsiy salohiyatni namoyon qilishning psixologik tadqiqotlarda o‘rganilganligi // O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari- Toshkent. 2025. 1/6. №4 B. 66-68. ISSN 2181-7324 2025. (19.00.00 №10)

6. G‘aniyeva N.O. O‘quvchilar shaxsiy salohiyatidagi farqlar: maktab turlari kesimidagi tahlil // Bola va zamon-Toshkent. 2025. №2 B. 32-35. ISSN 21891-5496 2025. (19.00.00 №1)

KASBIY FAOLIYATNING DASTLABKI BOSQICHIDA YOSH PEDAGOGLARNING STRESSGA BARDOSHLILIGINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

M.A. Maxsudova
NamDU dotsenti,
Z.A. Sotvoldiyeva
NamDU doktoranti,
Qo'qon universiteti Andijon filiali ,
pedagogika , psixologiya va jismoniy
madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh pedagoglarning kasbiy faoliyati boshlanishidagi psixologik inqirozlar va ularni bartaraf etishning kompleks mexanizmlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi — yosh o'qituvchilarda stress-tolerantlikni rivojlantirishda subyektiv va obyektiv omillarning o'rni hamda o'zaro ta'sirini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqotda kognitiv-bixevioral yondashuv va ijtimoiy adaptatsiya nazariyalari qo'llanilgan.*

Kalit so'zlar: *Kasbiy identiklik, psixologik rigidlik, frustratsiya, emotsional labillik, koping-strategiyalar.*

Аннотация: *В данной статье исследуются психологические кризисы молодых педагогов в начале профессиональной деятельности и комплексные механизмы их преодоления. Цель исследования — научно обосновать роль и взаимодействие субъективных и объективных факторов в развитии стрессоустойчивости у молодых учителей. В исследовании использованы когнитивно-бихевиоральный подход и теории социальной адаптации.*

Ключевые слова*: Профессиональная идентичность , психологическая ригидность , фрустрация, эмоциональная лабильность, копинг-стратегии.*

Abstract: *This article explores the psychological crises of young teachers at the beginning of their professional career and the complex mechanisms for overcoming them. The purpose of the study is to scientifically substantiate the role and interaction of subjective and objective factors in the development of stress tolerance in young teachers. The research uses a cognitive-behavioral approach and social adaptation theories.*

Keywords*: professional identity , psychological rigidity, frustration, emotional lability, coping strategies.*

Zamonaviy ta'lim tizimining transformatsiyalashuv jarayoni pedagogik faoliyatga qo'yiladigan talablarning ortishiga va o'qituvchi shaxsiga nisbatan psixofiziologik yuklamaning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, kasbiy faoliyatining dastlabki bosqichida turgan yosh pedagoglar uchun bu jarayon nafaqat amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish, balki murakkab psixologik adaptatsiya davri bilan ham xarakterlanadi. Yosh pedagogning kasbiy shakllanish jarayoni ko'p hollarda "kutilmalar va voqelik o'rtasidagi to'qnashuv" bilan kechadi. Oliy ta'lim muassasasida olingan nazariy modellar amaliyotdagi murakkab ijtimoiy-pedagogik vaziyatlar bilan to'qnashganda, mutaxassisda kasbiy "Men" konsepsiyasining beqarorligi yuzaga keladi. Bu holat yosh o'qituvchining o'z salohiyatiga bo'lgan ishonchini pasaytirib, emotsional labillikni keltirib chiqaradi.

L.M. Mitina o'zining ko'p yillik tadqiqotlarida ta'kidlashicha, pedagogik faoliyatning adaptatsiya bosqichida o'qituvchi o'zining kasbiy "Men" obrazini qayta

qurishga majbur bo‘ladi, bu esa kuchli psixofiziologik resurslarni talab qiladi. [1,120-b]

Stress-tolerantlik — bu shaxsning shunday xususiyatiki, u tashqi bosim ostida ham faoliyat samaradorligini saqlab qolishga imkon beradi.

Koping-strategiyalar: Yosh pedagog muammodan qochish o‘rniga uni hal qilishga yo‘naltirilgan konstruktiv strategiyalarni egallashi shart. N.E. Vodopyanova bo‘yicha, kognitiv qayta baholash ko‘nikmasiga ega bo‘lgan pedagoglar "yonish" sindromiga kamroq moyil bo‘ladilar [2, 85-b].

Emotsional barqarorlik: O‘z hissiyotlarini anglash va ularni ijtimoiy maqbul shaklda ifodalash. D. Goleman fikricha, pedagogning emotsional intellekti uning dars berish mahoratidan ko‘ra muhimroq adaptiv ahamiyatga ega [3, 158-b].

Pedagogning stressga chidamliligi faqat uning o‘ziga bog‘liq emas, balki u faoliyat yuritayotgan mikro-ijtimoiy guruhga ham bog‘liq:

Korporativ madaniyat: Maktab ma’muriyati va jamoasidagi qo‘llab-quvvatlash tizimi. E.G‘. G‘oziyev tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, yosh pedagogning jamoaga "moslashuvi" uning keyingi 10 yillik faoliyatidagi barqarorligini belgilab beradi. [4, 214-b] Mentorlik instituti: "Ustoz-shogird" tizimi orqali tajriba uzatish nafaqat bilim, balki psixologik himoya mexanizmlarini ham o‘z ichiga oladi. N.A. Muslimov bu jarayonni pedagogik deontologiya (kasbiy burch)ning asosi deb hisoblaydi.[5, 67-b] Zamonaviy pedagogikada stressni kamaytirish uchun vaqtni to’g’ri boshqarish va neyropedagogik yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi. Axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi (infostress) sharoitida pedagog o‘zining raqamli gigiyenasini ta’minlashi zarur. B. Ziyomuhammadov qayd etganidek, pedagogik mahorat — bu nafaqat dars o‘tish, balki o‘zining ruhiy quvvatini tejash san’ati hamdir [6, 142-b].

Yosh pedagoglarda stressga bardoshlilikni shakllantirish uchun maxsus psixologik treninglar, mashg‘ulotlar o‘tkazish zarur. N.S. Safayev ta’kidlashicha, kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichida tashkil etilgan psixologik monitoring yosh kadrlar qo‘nimsizligini 25-30% ga kamaytiradi [7, 108-b].

H. Selye klassik nazariyasiga tayanib aytish mumkinki, pedagog "eustress" (ijobiy stress) darajasida ishlashni o‘rganishi, lekin "distress" (halokatli stress) chegarasidan o‘tmasligi kerak [8, 45-b].

Yosh pedagoglarning kasbiy faoliyati boshlang‘ich davridagi stressga bardoshliligi — bu nafaqat shaxsiy iroda, balki murakkab psixologik mexanizmlar va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri natijasidir. Tadqiqotda keltirilgan nazariy qarashlar shuni tasdiqlaydiki, yosh mutaxassis o‘zining ideal kutilmalari va real pedagogik voqelik o‘rtasidagi nomuvofiqlikni (frustratsiyani) yengib o‘tishi uchun unda kognitiv qayta baholash va emotsional intellekt ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi shart. Zamonaviy axborot xuruji sharoitida pedagogik mahorat faqat bilim berish bilan cheklanmay, o‘z ruhiy salomatligini asrash va "distress" holatlariga tushmaslik san’atini ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, yosh o‘qituvchilarda stress-tolerantlikni shakllantirish,ta’lim tizimidagi kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishning eng muhim strategik omilidir. Bu jarayonni

tizimli monitoring qilish va maxsus psixologik treninglar orqali qo'llab quvvatlab turish jamiyat uchun sifatli kadrlar zaxirasini yaratishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Митина Л. М. Психология профессионального развития учителя. – Москва: Флинта: МПСИ, 2014. – 394 с.
2. Водопьянова Н. Е. Психодиагностика стресса. – СПб.: Питер, 2013. – 336 с.
3. Goleman D. *Emotional Intelligence.* – New York: Bantam Books, 2005.
4. G'oziyev E.G'. *Umumiy psixologiya.* – Toshkent: Universitet, 2010.
5. Muslimov N.A. *Bo'lajak o'qituvchini kasbiy shakllantirish metodikasi.* – Toshkent: Fan, 2014.
6. Ziyomuhammadov B. *Pedagogika.* – Toshkent: Turon-Iqbol, 2016.

ZAMONAVIY KASBLAR KONTEKSTIDA YOSHLARNING QOBILIYATLARINI TASHXIS QILISH VA RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

G'aniyeva Gulandon Ibragimovna
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya*:Mazkur tezisda zamonaviy kasblar rivoji sharoitida yoshlarning qobiliyatlarini aniqlash (diagnostika qilish) va ularni maqsadli rivojlantirishning metodik asoslari tahlil etiladi. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, individual ta'lim trayektoriyalari, kasbiy yo'naltirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar (STEAM, raqamli ta'lim vositalari, sun'iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlari)ning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yoshlarning kasbiy qiziqishlarini aniqlashda psixologik-pedagogik diagnostika usullari, testlar, kuzatuv va amaliy faoliyatga asoslangan baholash mexanizmlarining samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar*:zamonaviy kasblar, qobiliyat, diagnostika, metodik asoslar, kompetensiya, kasbiy yo'naltirish, STEAM, innovatsion ta'lim, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, individual rivojlanish, ta'lim strategiyalari.*

Аннотация *:В данном тезисе анализируются методические основы диагностики и целенаправленного развития способностей молодежи в условиях развития современных профессий. В исследовании раскрывается значение компетентностного подхода, индивидуальных образовательных траекторий, профессиональной ориентации, а также инновационных педагогических технологий (STEAM, цифровые образовательные средства, системы диагностики на основе искусственного интеллекта). Кроме того, обоснована эффективность психолого-педагогических методов диагностики, включая тестирование, наблюдение и оценивание на основе практической деятельности, при выявлении профессиональных интересов молодежи.*

Ключевые слова *:современные профессии, способности, диагностика, методические основы, компетенции, профессиональная ориентация, STEAM, инновационное образование, цифровые технологии, искусственный интеллект, индивидуальное развитие, образовательные стратегии*

Abstract *:This thesis analyzes the methodological foundations for diagnosing and purposefully developing youth abilities in the context of modern professions. The study highlights the importance of a competency-based approach, individualized learning trajectories, career guidance, and innovative pedagogical technologies such as STEAM, digital learning tools, and artificial intelligence-based diagnostic systems. In addition, the effectiveness of psychological and pedagogical diagnostic methods, including testing, observation, and performance-based assessment, is substantiated in identifying the professional interests of youth.*

Keywords*:modern professions, abilities, diagnostics, methodological foundations, competencies, career guidance, STEAM, innovative education, digital technologies, artificial intelligence, individual development, educational strategies*

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida mehnat bozori keskin o‘zgarib, yangi kasblar va kompetensiyalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, muhandislik, xizmat ko‘rsatish va kreativ industriyalar rivoji yosh avloddan zamonaviy kasblarga moslashuvchanlik, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va innovatsion yondashuvni talab etmoqda. Shu bois yoshlarning qobiliyatlarini erta aniqlash, ularni to‘g‘ri kasbiy yo‘naltirish hamda tizimli ravishda rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish va zamonaviy kasblarga yo‘naltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Harakatlar strategiyasi”da ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ularni zamonaviy kasblarga tayyorlash muhim vazifalardan biri etib belgilangan[1]. Mazkur hujjatda ta’lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash zarurati alohida ta’kidlangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, talabalarning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga jalb etish hamda zamonaviy kasblarga mos kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan[2].

Bundan tashqari, 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham Prezidentimiz tomonidan yoshlarni zamonaviy bilim va kasblarga o‘rgatish, ularning iste’dod va qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan. Bu esa yoshlarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshiradi[3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, zamonaviy kasblar kontekstida yoshlarning qobiliyatlarini tashxis qilish va rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish, bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar hamda kompetensiyaviy yondashuvdan samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tezis aynan ushbu dolzarb masalalarga bag‘ishlanib, yoshlarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni ilmiy jihatdan asoslashni maqsad qiladi.

Zamonaviy kasblar kontekstida yoshlarning qobiliyatlarini tashxis qilish va rivojlantirish jarayoni ko‘p bosqichli hamda kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur jarayon, avvalo, shaxsning individual psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, moyilliklari hamda intellektual salohiyatini aniqlashdan boshlanadi. Shu nuqtai

nazardan, psixologik-pedagogik diagnostika metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, testlar (qobiliyat testlari, kasbiy yo‘naltirish testlari), kuzatuv, suhbat, portfolioga asoslangan baholash hamda amaliy faoliyat natijalarini tahlil qilish yoshlarning qobiliyatlarini aniqlashda samarali vositalar sifatida e’tirof etiladi[4;105-b.]

Bugungi kunda diagnostika jarayonini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, adaptiv test tizimlari, onlayn diagnostika platformalari va ma’lumotlar tahliliga asoslangan algoritmlar orqali yoshlarning qobiliyatlari, bilim darajasi va kasbiy qiziqishlarini aniqlash yanada aniq va tezkor amalga oshirilmoqda. Bu esa individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlarning qobiliyatlarini rivojlantirishda esa kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodik negiz sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish, muammolarni hal etish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Ayniqsa, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi yoshlarning kompleks fikrlashini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib, turli fanlar integratsiyasi orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar – loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), muammoli ta’lim (Problem-Based Learning), tadqiqotga asoslangan ta’lim (Inquiry-Based Learning), kvest texnologiyasi hamda raqamli o‘quv platformalaridan foydalanish yoshlarning qobiliyatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarga yaqin muammolarni hal etishga jalb etilib, ularning mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi[5].

Bundan tashqari, yoshlarni kasbiy yo‘naltirish tizimini takomillashtirish ham muhim metodik yo‘nalishlardan biridir. Bu borada ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va mehnat bozori o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, dual ta’lim tizimini rivojlantirish, mentorlik va stajirovka dasturlarini joriy etish orqali yoshlarning kasbiy qobiliyatlarini amaliy muhitda rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Umuman olganda, yoshlarning qobiliyatlarini tashxis qilish va rivojlantirish jarayoni uzluksiz, tizimli va ilmiy asoslangan metodik yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta’limning mazmuni, metodlari va vositalarini zamonaviy talablar asosida yangilash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy kasblar kontekstida yoshlarning qobiliyatlarini tashxis qilish va rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning individual qobiliyatlarini aniqlashda psixologik-pedagogik diagnostika metodlaridan tizimli foydalanish, ularni rivojlantirishda esa kompetensiyaviy va integrativ yondashuvni qo‘llash samarali natijalar beradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlarini ta’lim jarayoniga joriy etish yoshlarning qobiliyatlarini aniqlashda aniqlik va tezkorlikni oshiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash esa ularning ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelish mumkin:

– yoshlarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish jarayoni tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi lozim;

– kasbiy yo‘naltirish jarayonida ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega;

– innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish zarur;

– zamonaviy kasblar talablariga mos kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Natijada, yoshlarning qobiliyatlarini samarali rivojlantirish orqali raqobatbardosh, yuqori malakali va zamonaviy fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmon. – Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmon. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnoma. – Toshkent, 2020.
4. To‘raev Sh., Muhammadieva O. Pedagogika nazariyasi va innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2020. – 256 b.
5. OECD. “Future of Education and Skills 2030” (Ta’lim va ko‘nikmalar kelajagi 2030). – Paris: OECD Publishing, 2018.

YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLARGA QIZIQTIRISH ORQALI DEVIANT XULQ ATVORGA MOYIL O‘QUVCHILAR SHAXSINI RIVOJLANTIRISH

Maxsudova Mutabarxon
NamDU Psixologiya kafedrasi dotsenti
Saidikromova Mohigul
NamDU Psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari, ularning shakllanish mexanizmlari hamda pedagogik-psixologik yondashuvlar tizimi ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarning emotsional beqarorligi, motivatsion sohasidagi o‘zgarishlar va ijtimoiy moslashuv jarayonidagi muammolar chuqur yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *deviant xulq-atvor, o‘quvchi shaxsi, psixologik xususiyatlar, emotsional beqarorlik, motivatsiya, ijtimoiy moslashuv*

Аннотация: *В данной статье анализируются индивидуальные психологические особенности учащихся, склонных к девиантному поведению, а также факторы их формирования и педагогико-психологические методы работы.*

Ключевые слова: *девиантное поведение, личность учащегося, психологические особенности, мотивация.*

Annotation: *This article examines individual psychological characteristics of students prone to deviant behavior, factors influencing its formation, and pedagogical-psychological approaches.*

Keywords: *deviant behavior, student personality, psychological characteristics, motivation.*

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularni kasbga qiziqtirshda intellektual salohiyat bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda axborot oqimining tezlashuvi sharoitida o‘smirlar xulq-atvorida turli xil o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Shu jumladan, deviant xulq-atvor muammosi bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanlarining eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida qaralmoqda. Deviant xulq-atvor jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar majmuasini ifodalaydi. Bunday xulq-atvor ko‘pincha o‘smirlik davrida, shaxsning emotsional va ijtimoiy rivojlanish jarayoni hali to‘liq shakllanmagan bosqichda yaqqol namoyon bo‘ladi. Aynan shu davrda shaxsning o‘zini anglash, o‘zini baholash, ijtimoiy rollarni qabul qilish va atrof-muhit bilan munosabat o‘rnatish jarayonlari shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishida bir qator psixologik xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, emotsional beqarorlik, impulsivlik, past o‘zini baholash, motivatsiyaning sustligi hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ularning xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatlar nafaqat individual rivojlanishga, balki ta’lim jarayonining samaradorligiga ham salbiy ta’sir etadi. Shu bilan birga, deviant xulq-atvorning shakllanishi faqat individual psixologik omillar bilan cheklanib qolmaydi. Oilaviy muhit, maktabdagi pedagogik yondashuv, tengdoshlar guruhi, shuningdek, zamonaviy axborot muhitining ta’siri ham ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, noto‘g‘ri ijtimoiy model va salbiy namunalarning kuchayishi o‘quvchilarda xulqiy og‘ishlarning shakllanishiga zamin yaratishi mumkin. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, o’quvchilarni kasbga qiziqtirshda deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilar shaxsining individual psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqali ularni erta aniqlash, profilaktika qilish hamda korreksion pedagogik-psixologik ishlarni samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi – deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Deviant xulq-atvor muammosi ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy yo‘nalishlar doirasida keng o‘rganilgan. Ushbu muammoni tadqiq etishda sotsiologik, psixologik va pedagogik yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llaniladi. Deviant xulq-atvor tushunchasining sotsiologik asoslari ilk bor Robert K. Merton tomonidan ishlab chiqilgan anomiya nazariyasida yoritilgan. Unga ko‘ra, jamiyatda mavjud ijtimoiy maqsadlar va ularga erishish vositalari o‘rtasidagi nomutanosiblik shaxsning deviant xulq-atvorga moyilligini keltirib chiqaradi. Merton deviantlikni ijtimoiy tizimdagi muvozanat buzilishi natijasi sifatida talqin etadi. Psixologik yondashuv doirasida Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, shaxs xulq-atvori kuzatish, taqlid qilish va mustahkamlash mexanizmlari orqali shakllanadi. Bu esa o‘quvchilarda deviant xulq-atvorning shakllanishida ijtimoiy muhit, ayniqsa tengdoshlar va ommaviy axborot vositalarining ta’siri katta ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, psixologiyada shaxs rivojlanishining ichki mexanizmlarini o‘rgangan Zigmund Freyd nazariyasida xulq-atvorning buzilishlari shaxs ichki ziddiyatlari, ya’ni “id”, “ego” va “superego” o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi bilan izohlanadi. Bu yondashuv deviant xulq-atvorni tushunishda psixodinamik omillarning ahamiyatini ko‘rsatadi. (3)

Mahalliy olimlar orasida E.G‘. G‘oziev va V.M. Karimovalarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular o‘quvchi shaxsining rivojlanishi, motivatsion sohasi va ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘rganish orqali deviant xulq-atvorning psixologik ildizlarini ochib berganlar. Xususan, ularning tadqiqotlarida o‘smirlik davrida emotsional beqarorlik va o‘zini anglash jarayonining murakkabligi deviant xatti-harakatlarning asosiy sabablaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Yosh psixologiyasi sohasida M.G. Davletshin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham muhim o‘rin tutadi. U o‘smirlik davrini “o‘tish davri” sifatida tavsiflab, aynan shu bosqichda shaxsda qarama-qarshi xulqiy tendensiyalar kuchayishini ta’kidlaydi. Bu esa deviant xulq-atvorning tabiiy psixologik zaminini tushuntirishga yordam beradi. (3)

Zamonaviy tadqiqotlarda deviant xulq-atvorni kompleks yondashuv asosida o‘rganish zarurligi ta’kidlanmoqda. Ya’ni, ushbu muammoni faqat bitta omil bilan izohlash yetarli emas, balki biologik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi lozim. Shu nuqtai nazardan, o’quvchilarni kasbga qiziqtirshda deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilar bilan ishlashda integrativ yondashuv, ya’ni pedagogik, psixologik va ijtimoiy choralarni uyg‘unlashtirish muhim hisoblanadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvor muammosi ko‘p qirrali bo‘lib, uni samarali hal etish uchun o‘quvchi shaxsining individual psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va ular asosida maqsadli pedagogik-psixologik ta’sir choralarini ishlab chiqish zarur.

Mazkur tadqiqot o’quvchilarni kasbga qiziqtirshda deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilar shaxsining individual - psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy hamda empirik metodlari uyg‘unlashtirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini deviant xulq-atvor, shaxs rivojlanishi va o‘smirlik psixologiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari tashkil

etdi. Nazariy tahlil jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Empirik bosqichda esa o‘quvchilarning xulq-atvori va psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida quyidagi metodlar qo‘llanildi: kuzatish metodi – o‘quvchilarning dars jarayonidagi xulq-atvori, tengdoshlar bilan munosabati va pedagogik vaziyatlardagi reaksiyalari o‘rganildi. Test metodlari – shaxsning emotsional barqarorligi, agressivlik darajasi va o‘zini baholash ko‘rsatkichlarini aniqlashga yo‘naltirilgan psixodiagnostik testlardan foydalanildi. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida qayta ishlanib, natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, empirik natijalarni interpretatsiya qilishda psixologik tahlil va umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi hamda deviant xulq-atvorni kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko‘rib chiqish tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning deviant xulq-atvorga moyilligi va ularning individual psixologik xususiyatlari empirik usullar asosida o‘rganildi. Kuzatish, so‘rovnoma va suhbat natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning xulq-atvorida bir qator umumiy psixologik tendensiyalar mavjud. Olingan natijalarga ko‘ra, deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilarning katta qismida emotsional beqarorlik darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Ular stressli vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini boshqarishda qiyinchilikka duch keladilar, tez jahli chiqish va agressiv reaksiyalar berish holatlari tez-tez kuzatiladi. Bu holat ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini murakkablashtiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari o‘quvchilarning o‘zini baholash darajasida sezilarli nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatdi. Respondentlarning bir qismi o‘z imkoniyatlarini haddan tashqari past baholasa, ayrimlarida esa asossiz yuqori o‘zini baholash holati kuzatildi. Bunday nomutanosiblik shaxsning ichki psixologik barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, deviant xulq-atvor ehtimolini oshiradi. Motivatsion soha tahlili natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi past darajada ekanligi aniqlandi. Ular ko‘proq tashqi nazorat va majburlash asosida faoliyat yuritadilar. Maqsad qo‘yish va unga erishish strategiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligi ularning o‘quv faoliyatidagi sustlikka sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari ham o‘rganilganda, deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilarda tengdoshlari bilan munosabatlarda nizoli holatlar tez-tez uchrashi, jamoaviy faoliyatda passivlik yoki qarama-qarshilikka moyillik mavjudligi qayd etildi. Bu esa ularning ijtimoiy integratsiyasini qiyinlashtiradi. Tadqiqot davomida olingan natijalarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorning shakllanishida eng muhim psixologik omillar sifatida emotsional beqarorlik, past motivatsiya, impulsivlik va o‘zini baholashdagi nomutanosibliklar yetakchi o‘rin tutadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilar bilan ishlashda faqat tashqi intizomiy choralar emas, balki ularning ichki psixologik tuzilmasini korreksiyalashga qaratilgan kompleks yondashuv zarur. Jumladan, emotsional barqarorlikni oshirish, motivatsiyani shakllantirish hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik treninglar samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilar shaxsining individual - psixologik xususiyatlari murakkab va ko‘p omilli tuzilishga ega bo‘lib, ularning shakllanishida bir qator ichki va tashqi omillar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarda emotsional beqarorlik, impulsivlik, past yoki nomutanosib o‘zini baholash, motivatsiyaning sustligi hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kabi psixologik xususiyatlar ustun ekanligi aniqlandi. Ushbu holatlar deviant xulq-atvorning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir etishini ko‘rsatdi.

O‘tkazilgan tahlillar asosida shunday xulosaga kelindiki, deviant xulq-atvorga moyil o‘quvchilar bilan ishlashda psixologik korreksiya, individual yondashuv, motivatsiyani oshirish hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, kasbga qiziqtirishda ham samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
2. Freud S. The Ego and the Id. – London: Hogarth Press, 1923.
3. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va psixologik yondashuvlar. – Ilmiy maqolalar to‘plami, 2022.

ALTRUSTIK XULQ-ATVORNING SHAXSIY DETERMINANTLARI: EMPATIYA, DINDORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Abdullayeva Nilufar
Saydullayevna psixologiya fanlari nomzodi dotsent
Alijonova Shaxzoda Husanboy
qizi Namangan Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA*. Mazkur ish altruistik xatti-harakatlarning psixologik tabiatini yoritishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda empatiya boshqalar dardini his qilish mexanizmi sifatida, dindorlik esa axloqiy qadriyatlar tizimi sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, shaxsning ekstraversiya, xushmuomalalik va hissiy barqarorlik kabi individual xususiyatlari yordam ko‘rsatish strategiyasiga qanday ta’sir etishi ko‘rib chiqiladi. Xulosalar shaxsning ijtimoiy foydali xulq-atvorini prognozlashda xizmat qiladi.*

KALIT SO`ZLAR*: Altruizm, empatiya, dindorlik, shaxsiy determinantlar, pro-sotsial xulq-atvor, individual xususiyatlar.*

ABSTRACT: *This work is devoted to shedding light on the psychological nature of altruistic actions. In the study, empathy is analyzed as a mechanism for perceiving the suffering of others, while religiosity is examined as a system of moral values. Additionally, the article explores how individual traits such as extraversion, agreeableness, and emotional stability influence helping strategies. The findings serve to predict an individual's socially beneficial behavior.*

KEY WORDS: *Altruism, empathy, religiosity, personal determinants, pro-social behavior, individual traits.*

Shaxsiy determinantlar altruistik xatti-harakatning "motivatsion yadrosi"ni tashkil etadi. Koʻpgina psixologik tadqiqotlar (M. Hoffman, C. Batson, R. Hogan) shuni koʻrsatadiki, insonning yordam berishga moyilligi uning vaziyatni qanday his qilishi va qanday qadriyatlarga ega ekanligi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliqdir.

Empatiya — altruizmning emotsional-kognitiv asosi sifatida.

Empatiya shunchaki boshqasining dardini tushunish emas, balki bu murakkab shaxsiy konstrukt boʻlib, u altruizmni "yoquvchi" asosiy mexanizmdir. Martin Xoffmanning (M. Hoffman) ta'kidlashicha, empatiya ontogenezda bir necha bosqichda rivojlanadi:

Affektiv empatiya: Boshqasining hissiyotini "yuqtirib olish" (emotional contagion).

Kognitiv empatiya: Boshqasining pozitsiyasini intellektual darajada anglash (perspective-taking).

Talabalarda empatiya darajasi yuqori bo'lishi, ularning ijtimoiy adolatga bo'lgan sezgirligini oshiradi. Bizning nazariy farazimizga koʻra, kognitiv empatiya (oʻzini boshqaning oʻrniga qoʻyish) talabalarda sof altruizmni shakllantiruvchi eng barqaror prediktordir [1]

Dindorlik (Religiosity) — altruizmning qadriyatlar tizimidagi oʻrni

Dindorlik omili altruizmning "axloqiy kompas"i vazifasini oʻtaydi. G. Allport nazariyasiga tayanib, dindorlikni altruizm bilan bogʻlaganda ikki xil yoʻnalishni farqlaymiz:

Ichki dindorlik (Intrinsic): Din inson hayotining barcha sohalarini boshqaruvchi motivga aylanadi. Bunday talabalar "begʻaraz yordam"ni ilohiy buyruq va ichki ehtiyoj sifatida qabul qiladilar. Ularda altruizm barqaror boʻladi.

Tashqi dindorlik (Extrinsic): Din ijtimoiy munosabatlarda foydali bo'lish yoki jamiyatda yaxshi nom orttirish vositasi. Bu holatda altruistik harakat koʻproq "egoistik" xarakterga ega boʻlishi mumkin.

Empatiyaning koʻp oʻlchovli strukturasi va “perspektivani qabul qilish” mexanizmi

Zamonaviy ijtimoiy psixologiyada empatiya fenomeni altruistik xulq-atvorning fundamental determinanti sifatida talqin etiladi. Mark Devis (M. Davis) o'zining ko'p o'lchovli modelida (Interpersonal Reactivity Index - IRI) empatiyani to'rtta mustaqil, ammo o'zaro dialektik bog'liqlikda bo'lgan komponentlarga ajratadi. Devisning fikricha, altruizmning tabiati shaxsda aynan qaysi komponentning ustuvorligiga bog'liqdir [2]

Perspektivani qabul qilish (Perspective Taking) — bu shaxsning boshqa insonning psixologik holati, niyatlari va his-tuyg'ularini ongli ravishda tushunishga qaratilgan kognitiv qobiliyatidir. J.Piage va M.Xoffman nazariyalariga ko'ra, bu qobiliyat egotsentrizmni yengib o'tishning natijasi bo'lib, talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantiradi...Empatiyaning koʻp komponentli modeli: nazariy asos

Empatiyaning strukturaviy tahlilida Mark Davis tomonidan ishlab chiqilgan koʻp oʻlchovli model alohida oʻrin tutadi. Ushbu model (IRI) asosida empatiyani toʻrtta mustaqil, ammo oʻzaro bogʻliq komponentlarga ajratadi:

Perspektivani qabul qilish (Perspective Taking). "Perspektivani qabul qilish jarayonida 'self-other merging' (men va boshqaning qo'shilishi) hodisasi yuz beradi. Bu kognitiv transformatsiya shaxsga boshqasining ehtiyojini xuddi o'ziniki kabi ustuvor deb bilish imkonini beradi (Cialdini et al., 1997)."

Bu komponent kognitiv empatiyaning asosini tashkil etadi. Shaxs boshqa insonning nuqtai nazarini ongli ravishda tushunishga harakat qiladi. Bu yerda asosiy mexanizm — “o‘zingni boshqaning o‘rniga qo‘yish” emas, balki boshqaning ichki holatini ratsional tahlil qilishdir.

Perspektivani qabul qilish altruistik xatti-harakatlar uchun eng barqaror prediktor hisoblanadi, chunki u vaziyatga bog‘liq emotsional tebranishlarga kamroq ta’sirlanadi.

Bu affektiv komponent bo‘lib, boshqalarga nisbatan rahm-shafqat, iliqlik va g‘amxo‘rlik hissini ifodalaydi. Ushbu holat Daniel Batson tomonidan ta’riflangan sof altruistik motivatsiyaning asosiy manbai hisoblanadi. Empatik g‘amxo‘rlik yordam berishga kuchli turtki beradi, ammo u ko‘pincha vaziyatga bog‘liq bo‘ladi.

Bu komponent boshqalarning azobini kuzatayotganda yuzaga keladigan o‘ziga yo‘naltirilgan salbiy hissiyotlarni anglatadi (xavotir, qo‘rquv, bezovtalik). Bu holatda motivatsiya egoistik xarakterga ega bo‘lib, shaxs o‘z noqulayligini kamaytirishga intiladi. Bu komponent ko‘pincha altruizmni emas, balki vaziyatdan qochishni kuchaytiradi [3].

Ushbu komponent shaxsning badiiy obrazlar yoki tasavvuriy qahramonlar bilan identifikatsiya qilish qobiliyatini bildiradi. Fantaziya empatiyaning rivojlanishida bilvosita rol o‘ynab, boshqalarning hissiyotlarini tushunish imkoniyatini kengaytiradi.

Mazkur to‘rt komponent empatiyaning murakkab tizimini tashkil etadi va altruistik xatti-harakatlarning turli shakllarini tushuntirishga yordam beradi. Ayniqsa, kognitiv va affektiv empatiya o‘rtasidagi farq altruizmning barqarorligi va vaziyatga bog‘liqligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Empatiya insonda tug‘ma emas, balki rivojlanib boruvchi psixologik jarayon sifatida shakllanadi. Bu jarayon Martin Hoffman tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish modeli orqali tushuntiriladi. Unga ko‘ra, empatiya quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

Global empatiya (chaqaloqlik davri) — bola boshqalarning his-tuyg‘ularini o‘zining hissiy holati bilan farqlay olmaydi.

Egotsentrik empatiya — bola boshqalarning azobini tushuna boshlaydi, lekin uni o‘z tajribasi bilan tenglashtiradi.

Boshqalarga yo‘naltirilgan empatiya — bola boshqalarning mustaqil hissiyotlarga ega ekanligini anglaydi.

Umumlashtirilgan empatiya — shaxs ijtimoiy guruhlar va abstrakt toifalarga nisbatan ham empatik munosabat bildira oladi.

Ushbu bosqichlar empatiyaning oddiy affektiv reaksiyadan murakkab kognitiv jarayonga aylanishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, oxirgi bosqichlarda perspektivani qabul qilish qobiliyati shakllanib, bu altruistik xatti-harakatlarning ongli va barqaror shakliga asos yaratadi [4]

Perspektivani qabul qilish: barqaror altruizmning kognitiv prediktori

Nazariy jihatdan, aynan kognitiv empatiya — ya’ni perspektivani qabul qilish — talabalarda barqaror altruistik xulq-atvorni ta’minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. Buning bir necha sabablari mavjud:

Birinchidan, perspektivani qabul qilish emotsional holatlardan kamroq bog‘liq bo‘lib, vaziyatga qarab o‘zgarib turmaydi. Bu esa altruistik xatti-harakatning davomiyligini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, bu komponent shaxsning axloqiy qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs boshqalarning ehtiyojlarini ongli ravishda tahlil qilib, yordam berishni maqsadli ravishda tanlaydi.

Uchinchidan, perspektivani qabul qilish ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantiradi. Bu jarayonda altruistik harakatlar tashqi bosim emas, balki ichki anglangan zarurat sifatida yuzaga keladi.

To‘rtinchidan, ushbu mexanizm bilan uyg‘unlashib, altruizmni intrinsiv motivatsiya darajasiga olib chiqadi. Ya’ni, yordam berish shaxsning ichki qadriyatiga aylanadi [5].

Milliy mentalitetimizda altruistik motivatsiyaning shakllanishi bevosita islomiy qadriyatlar tizimi bilan determinatsiyalashgan. Xususan, "Xolislik" tushunchasi psixologik nuqtai nazardan altruizmning eng oliy darajasi bo‘lmish — "identifikatsiyalashgan motivatsiya"ga mos keladi. Bu holatda talaba yordam berish jarayonida hech qanday moddiy yoki ijtimoiy dividend (maqtov, obro‘) kutmaydi, aksincha, o‘z niyatining sof bo‘lishini asosiy maqsad deb biladi.

Shuningdek, "Savob" tushunchasi talabalarda "prosotsial intilish"ni kuchaytiruvchi emotsional-ma’naviy rag‘bat vazifasini o‘taydi. Bu esa zamonaviy yoshlarda altruistik tendensiyalarni shunchaki ijtimoiy norma emas, balki hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilinishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Hoffman M.L. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. – Cambridge University Press, 2000. – P. 63-85.
2. Davis M.H.Measuring individual differences in empathy : Evidence for a multidimensional approach // Journal of Personality and Social Psychology. – 1983. – Vol. 44, No. 1.- P. 113-126.
3. Batson C.D. The Altruism Question: Toward a Social-Psychological Answer. – Hillsdale, NJ: Erlbaum, 1991. – P. 72-95.
4. Hoffman M.L. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – P. 210-235.
5. Hoffman M.L. Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – P. 210-235.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA CHIROYLI YOZISH TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MANBALARNING ILMIY TAHLILI

Raximov Ilhomjon Abdullayevich
pfn dotsent
Usmonova Gulnoza Abdurashid qizi
Namangan davlat universiteti 2-bosqich
tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish masalasi xorijiy va milliy ilmiy manbalar asosida yaxlit tizim sifatida tahlil qilingan. Qo‘lyozma ko‘nikmalarining bola shaxsi intellektual rivoji, nutqiy kompetensiyasi, diqqat barqarorligi, xotira jarayonlari, mayda motorikasi va estetik didiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslangan. Turli mamlakatlar ta’lim tajribalari qiyosiy o‘rganilib, milliy ta’lim tizimi uchun amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, chiroyli yozish, kalligrafiya, grafomotorika, savodxonlik, ta’lim texnologiyalari, kognitiv rivojlanish.*

АННОТАЦИЯ. *В данной статье вопрос развития технологий красивого письма у учащихся начальных классов анализируется как целостная система на основе зарубежных и национальных научных источников. Научно обосновано влияние навыков рукописного письма на интеллектуальное развитие личности ребенка, речевую компетенцию, устойчивость внимания, процессы памяти, мелкую моторику и эстетический вкус. Сравнительно изучен образовательный опыт разных стран и разработаны практические выводы для национальной системы образования.*

Ключевые слова: *начальное образование, красивое письмо, каллиграфия, графомоторика, грамотность, образовательные технологии, когнитивное развитие*

ANNOTATION. *This article analyzes the development of beautiful writing technologies in primary school students as a holistic system based on foreign and national scientific sources. The influence of handwriting skills on the intellectual development of the child's personality, speech competence, attention stability, memory processes, fine motor skills, and aesthetic taste has been scientifically substantiated. The educational experience of various countries was studied comparatively, and practical conclusions for the national education system were developed.*

Keywords: *primary education, beautiful writing, calligraphy, graphomotor science, literacy, educational technologies, cognitive development*

KIRISH. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish mavzusi bugungi kunda pedagogika fani va ta’lim amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki global raqamlashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta’lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanishi sharoitida bolalarning yozma nutq madaniyatini shakllantirish yangi mazmun kasb etmoqda. Ko‘p hollarda elektron qurilmalardan foydalanishning ortishi qo‘l bilan yozish ahamiyati kamaygan degan tasavvurni yuzaga keltirmoqda. Biroq xalqaro tadqiqotlar va ilmiy kuzatishlar qo‘lyozma faoliyati bolaning intellektual rivojlanishi, xotira jarayonlari, diqqat barqarorligi, mustaqil fikrlashi va nutqiy kompetensiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Shu jihatdan chiroyli yozish ko‘nikmasini shakllantirish masalasi nafaqat an’anaviy

kalligrafiya muammosi, balki shaxs kamoloti va sifatli ta’limning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan bir qatorda boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining keyingi o‘quv faoliyati uchun asos yaratadigan eng muhim davrdir. Aynan shu bosqichda shakllangan yozish malakasi keyinchalik barcha fanlarni o‘zlashtirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Agar bolada harflarni noto‘g‘ri yozish, satrga joylashtira olmaslik, yozuv tezligining pastligi yoki matnni o‘qib bo‘lmas darajada ifodalash kabi muammolar saqlanib qolsa, bu uning umumiy akademik natijalariga salbiy ta’sir etadi. Yozish texnikasiga ortiqcha kuch sarflagan o‘quvchi fikr mazmuniga to‘liq e’tibor qarata olmaydi. Shuning uchun ham chiroyli yozish texnologiyalarini ilmiy asosda tashkil etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Zamonaviy psixologiya va neyropedagogika sohasidagi tadqiqotlar qo‘l bilan yozish jarayoni miyaning bir vaqtning o‘zida bir nechta funksional sohalarini faollashtirishini ko‘rsatmoqda. Bu esa xotirani mustahkamlash, ma’lumotni chuqur qayta ishlash va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, chiroyli yozish ko‘nikmasi faqat tashqi estetik talab emas, balki kognitiv taraqqiyot mexanizmi hamdir. Shu nuqtai nazardan mazkur mavzuda olib boriladigan tadqiqotlar ta’lim psixologiyasi, neyropedagogika va metodika fanlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu mavzuning yana bir jixati estetik tarbiya va shaxs madaniyati bilan bog‘liqdir. Chiroyli yozish bolada ozodalik, tartib-intizom, sabr-toqat, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi shaxsiy sifatlarni shakllantiradi. Daftarni toza tutish, harflarni aniq va mutanosib yozish, ishni oxirigacha e’tibor bilan bajarish kabi odatlar keyinchalik shaxsning umumiy mehnat madaniyatiga ko‘chadi. Shu sababli yozuv madaniyati tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ham qaralishi lozim.

Bugungi kunda dunyo ta’lim tizimlarida handwriting instruction, fine motor skills development, early literacy kabi yo‘nalishlarga bo‘lgan qiziqish yana ortib bormoqda. AQSH, Finlyandiya, Yaponiya, Germaniya, Singapur va boshqa mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yozuv ko‘nikmalarini innovasion usullar bilan rivojlantirish o‘quvchilarning umumiy ta’lim natijalarini yaxshilaydi. Xalqaro tajribani o‘rganish va uni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish O‘zbekiston uchun ham muhim strategik vazifadir. Chunki mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

O‘zbekistonda yangi tahrirdagi ta’lim standartlari, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan darsliklar va boshlang‘ich ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu esa chiroyli yozish texnologiyalarini ham zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. An’anaviy usullarni saqlab qolgan holda raqamli platformalar, interaktiv mashqlar, individuallashtirilgan o‘qitish vositalari va zamonaviy psixologo-pedagogik yondashuvlarni joriy etish zaruriyati ortib bormoqda. Shu ma’noda mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish nazariy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarbdir.

Shuningdek, mazkur muammoning ijtimoiy ahamiyati ham yuqori. Chiroyli yozish va savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan avlod jamiyatning intellektual

salohiyatini belgilaydi. Yozma nutq madaniyati rivojlangan shaxs fikrini aniq, mantiqiy va ta’sirchan ifodalay oladi. Bu esa kelajakda kasbiy faoliyat, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy muvaffaqiyat uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish mavzusi bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy, ham ijtimoiy nuqtai nazardan dolzarb ilmiy muammo sifatida baholanadi.

Yozish jarayonini faqat harflarni qog‘ozga tushirish sifatida baholash to‘g‘ri emas. U fikrni belgilar orqali ifodalash, ma’noni kodlash, harakatni rejalashtirish, ko‘z-qo‘l muvofiqligini ta’minlash va natijani nazorat qilish kabi bir qator intellektual hamda psixomotor operatsiyalarni qamrab oladi. Shu jihatdan yozish bolaning aqliy rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. L.S. Vыgotskiy yozishni tashqi harakatdan ichki nutqiy jarayonga o‘tish shakli sifatida izohlaydi va uning bola tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [1]. J. Piaje esa yozishni kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan bog‘lab, harf shakllarini anglash, ularni taqqoslash va tizimlashtirish uchun bolada muayyan intellektual operatsiyalar shakllangan bo‘lishi kerakligini qayd etadi [2].

Boshlang‘ich sinf yoshida bolalar organizmida mayda motorika, diqqat barqarorligi va harakat koordinatsiyasi jadal rivojlanadi. Shu bois mazkur bosqich yozuv ko‘nikmasini shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Agar shu davrda ruchkani noto‘g‘ri ushlash, harflarni nomutanosib yozish, satrga joylashtira olmaslik kabi nuqsonlar bartaraf etilmasa, ular keyingi sinflarda ham saqlanib qolishi mumkin. Demak, chiroyli yozish texnologiyalari profilaktik va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega. Xorijiy mamlakatlar tajribasi mazkur sohada turli yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. AQSh ta’lim tizimida handwriting instruction alohida didaktik yo‘nalish sifatida rivojlangan bo‘lib, bosma yozuv va bog‘lama yozuv bosqichma-bosqich o‘rgatiladi. Ilmiy tadqiqotlarda grafomotor avtomatizm shakllangan o‘quvchilarda matn yaratish sifati yuqori bo‘lishi aniqlangan. Buning sababi shundaki, bola harf shaklini yozishga ortiqcha kuch sarflamaydi va diqqatini mazmunga qarata oladi [3].

Finlyandiya ta’lim tizimida esa yozuv ko‘nikmasi funksional savodxonlikning bir qismi sifatida qaraladi. Bu yerda bolaga ortiqcha bosim o‘tkazilmaydi, ijodiy matnlar orqali erkin yozish muhiti yaratiladi. Baholash jarayonida faqat tashqi ko‘rinish emas, balki fikr mustaqilligi, mazmun va mantiqiylik ham e’tiborga olinadi [5]. Bu yondashuv yozishni formal mashqdan hayotiy kompetensiyaga aylantiradi.

Yaponiya tajribasida kalligrafiya milliy madaniyat va shaxsiy intizom vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shodo deb ataluvchi yozuv san’atida harakat aniqligi, diqqatni jamlash, sabr-toqat va estetik did muhim o‘rin tutadi. Cho‘tka bilan yozish jarayoni bolaning nafaqat grafik ko‘nikmasini, balki ichki tartib va ma’naviy barqarorligini ham mustahkamlaydi [6]. Bu holat yozish madaniyatining tarbiyaviy qimmatini ko‘rsatadi.

Germaniyada so‘nggi yillarda bolaga yagona standart yozuvni majburlashdan ko‘ra, tushunarli va barqaror shaxsiy yozish uslubini shakllantirishga e’tibor kuchaygan. Bu yondashuv individualizatsiya tamoyiliga asoslanadi. Janubiy Koreya va Singapurda esa yuqori akademik natijalarga erishish maqsadida daftar yuritish madaniyati, harf nisbatlari, sahifa dizayni va yozuv tozaligiga katta talab qo‘yiladi.

Demak, har bir mamlakat o‘z ijtimoiy-madaniy ehtiyojidan kelib chiqib yozish texnologiyalarini shakllantiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham chiroyli yozish savod o‘rgatish jarayonining muhim qismi sifatida qaraladi. Milliy metodikada harf elementlarini bosqichma-bosqich o‘rgatish, chiziqli daftardan to‘g‘ri foydalanish, satrga joylashtirish, harf o‘lchami va nisbatini saqlash kabi jihatlarga katta e’tibor qaratilgan. T. G‘afforova, R. Safarova, N. G‘ulomova kabi olimlarning ishlarida savod o‘rgatish jarayonida grafik ko‘nikmalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan [7]. Ayniqsa, o‘zbek alifbosining grafik xususiyatlari, ayrim harf elementlarining o‘xshashligi va diakritik belgilar mavjudligi maxsus mashqlar tizimini talab qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar mazkur sohada yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Interaktiv taxtalarda harf trayektoriyasini ko‘rsatish, planshetlarda stylus orqali yozish, xatolarni avtomatik tahlil qiluvchi ilovalar, o‘yinlashtirilgan mashqlar va sun’iy intellekt asosida individual tavsiyalar berish kabi usullar o‘quvchilar qiziqishini oshirish bilan birga ta’lim samaradorligini ham kuchaytiradi. Biroq ilmiy nuqtai nazardan raqamli texnologiyalar an’anaviy yozuv muhitini to‘liq almashtirmasligi lozim. Chunki qo‘l mushaklari harakati, taktil sezgi va real yozish amaliyoti grafomotor rivojlanishning asosiy sharti bo‘lib qolmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirishda universal yagona model mavjud emas. Biroq samarali tizimlarga xos umumiy qonuniyatlar mavjud: erta bosqichda mayda motorikani rivojlantirish, harakatlarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish, ijobiy motivasion muhit yaratish, individual farqlarni hisobga olish, estetik talablarni mazmunli savodxonlik bilan uyg‘unlashtirish va raqamli hamda an’anaviy usullarni integratsiya qilish. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun xorijiy tajribani mexanik ko‘chirish emas, balki milliy qadriyatlar, alifbo xususiyatlari va zamonaviy pedagogik ehtiyojlar asosida moslashtirish eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

XULOSA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotida ko‘p qirrali pedagogik fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda. U faqat harflarni grafik jihatdan to‘g‘ri ifodalash yoki daftarni ozoda yuritish bilan cheklanmay, balki umumiy savodxonlik, kognitiv taraqqiyot, estetik tarbiya, shaxsiy intizom va ijtimoiylashuv jarayonlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu ma’noda chiroyli yozish texnologiyalari boshlang‘ich ta’lim mazmunida fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan kompleks didaktik tizim sifatida baholanishi lozim.

Qo‘lyozma faoliyati bola shaxsining intellektual rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yozish jarayonida diqqatni jamlash, harakatni rejalashtirish, ko‘z-qo‘l muvofiqligini ta’minlash, xotirani faollashtirish va fikrni tizimli ifodalash kabi bir qator psixik jarayonlar bir vaqtning o‘zida amalga oshadi. Bu esa yozishni oddiy mexanik ko‘nikma emas, balki yuqori darajada tashkil etilgan kognitiv faoliyat sifatida talqin etish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlar qo‘lyozma mashqlari muntazam tashkil etilgan o‘quvchilarda nutqiy kompetensiya, mustaqil fikrlash, matn tuzish qobiliyati va ta’limiy natijalar yuqoriroq bo‘lishini tasdiqlamoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi mazkur sohada universal yagona model mavjud emasligini, ammo samarali yondashuvlarga xos umumiy qonuniyatlar borligini

koʻrsatadi. Jumladan, erta bosqichda mayda motorikani rivojlantirish, harakatlarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish, oʻquvchining individual xususiyatlarini hisobga olish, ijodiy va motivasion muhit yaratish, yozuv estetikasini mazmunli savodxonlik bilan uygʻunlashtirish kabi omillar yuqori natijalarni taʼminlaydi. AQSHda funksional yozish tezligi va matn sifatiga, Finlyandiyada erkin va mazmunli yozishga, Yaponiyada intizom va estetikaga, Germaniyada individual uslubga, Singapur hamda Janubiy Koreyada yuqori akademik standartlarga eʼtibor qaratilishi bu fikrni tasdiqlaydi.

Oʻzbekiston milliy taʼlim tizimi uchun mazkur tajribalarni toʻgʻridan-toʻgʻri koʻchirish emas, balki ularni milliy qadriyatlar, ona tili grafikasi, oʻquv dasturlari va bolalar psixologiyasi xususiyatlariga moslashtirgan holda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv sharoitida chiroyli yozishni faqat kalligrafik mashq sifatida emas, balki muloqot, axborot bilan ishlash, mustaqil fikrlash va ijodiy ifoda kompetensiyalarini rivojlantiruvchi vosita sifatida qayta talqin qilish zarur.

Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalar mazkur yoʻnalishni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Interaktiv platformalar, sunʼiy intellekt asosida individual tahlil, grafomotor mashqlarga moʻljallangan ilovalar va adaptiv oʻqitish vositalari taʼlim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq ular anʼanaviy qoʻlyozma mashqlarini inkor etmasdan, balki ularni boyituvchi va qoʻllab-quvvatlovchi omil sifatida qoʻllanilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish mamlakat intellektual salohiyatini oshirish, taʼlim sifatini yuksaltirish va har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur sohada yangi oʻquv-metodik majmualar yaratish, oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va innovasion pedagogik texnologiyalarni joriy etish kelgusi taraqqiyotning ustuvor vazifalaridan biri boʻlib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vыgotskiy L.S. Mыshleniye i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 45-b.
2. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969. – 118-b.
3. Berninger V. Understanding the Writing Brain. – Journal of Learning Disabilities, 2009. – 214-b.
4. Graham S. Handwriting and Writing Development. – Educational Psychology Review, 2010. – 97-b.
5. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum. – Helsinki, 2016. – 61-b.
6. Saito Y. Japanese Calligraphy and Child Development. – Tokyo University Press, 2018. – 84-b.
7. Gʻafforova T. Boshlangʻich taʼlim metodikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2020. – 56-b.
8. Safarova R. Savod oʻrgatish texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2021. – 74-b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH.

Dexkonova Marg`uba Erkinovna
Namangan davlat universiteti o ‘qituvchisi
Mamasharipova Adolat Hamidullayevna
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur asoslari shakllanadi va keyingi intellektual rivojlanish uchun poydevor yaratiladi.Bu davrlarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish hamda o‘yin va didaktik vositalar orqali aqliy faollikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Аннотация.*У детей дошкольного возраста формируются основы мышления и закладывается фундамент для дальнейшего интеллектуального развития. В этот период важное значение имеет развитие логического мышления, а также повышение умственной активности посредством игровой деятельности и дидактических средств.*

Abstract.*In preschool children, the foundations of thinking are formed, creating the basis for further intellectual development. During this period, the development of logical thinking and the enhancement of cognitive activity through play activities and didactic tools are of great importance.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yosh, tafakkur, tafakkur rivojlanishi, bilish jarayonlari, kognitiv rivojlanish,*

Ключевые слова: *дошкольный мышление, развитие мышления, познавательные процессы, когнитивное развитие*

Keywords: *preschool age, thinking, development of thinking, cognitive processes, cognitive development*

Bola tug’ilgan kunidan boshlab, ba’zi narsalarni sezish va ba’zi hislarni kechirish qobilyatiga ega bo‘ladi. Lekin hali bu davrda fikr qilish bo'lmaydi, bola o'sgan sari, tajriba to‘playdi va keyin nutq orqali aloqa qilish imkoniyati kengayib, faoliyati o‘sib borgan sari ta’lim va tarbiya jarayonida uning tafakkuri ham o‘sib boradi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, maktabgacha yosh davrida bolalarda qiziquvchanlikning ortishi, atrof muhitni faol o‘rganishga intilish va yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyoj tafakurning tez rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Xalqaro tashkilotlar ma’lumotlariga ko‘ra, inson miyasining taxminan 80-90% aynan 5-6 yoshgacha bo‘lgan davrda shakllanadi va bu jarayon bolalarning tafakkurini rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining ortib borishi va bolalarni qamrab olish darajasining oshishi bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan bolalarda keyingi bosqichlarda o‘qish, fikrlash ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi.

Chunki, aynan shu davrda berilgan tog’ri psixologik va pedagogik ta’sirlar bolaning kelajakdagi intelektual salohiyatini belgilab beradi.

Jean Piaget - bolalar tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab, maktabgacha yoshda ko‘rgazmali-obrazli tafakkur ustunligini ta’kidlaydi.

Lev Vyotskiy - tafakkur rivojlanishida ijtimoiy muhit va ta’limning rolini muhim deb hisoblab, ’’yaqin rivojlanish zonasi’’ nazaryasini ilgari suradi.

Sergei Rubintein esa tafakkurni muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayoni sifatida izohlaydi

O’zbek olimlari - Eshniyoz G'oziyev, Zuhra Nishonova va Mavluda Davletshinlar ham bolalarda tafakkur rivojlanishi ta’lim, tarbiya va nutq bilan uzviy bog’liq ekanligini takidlaydilar.

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish muammosini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida Lev Vygotskiyning ijtimoiy - madaniy rivojlanish nazariyasi, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari haqidagi qarashlari medologik asos sifatida qabul qilindi.

Ushbu nazariyalar bolalarda tafakkur rivojlanishining qonuniyatlarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Mazkur metodlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganildi va uni rivojlantirishning samarali usullari aniqlandi.

Meni olib borgan tahlillarim shuni ko‘rsatayaptiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur rivojlanishi avvalo, yashayotgan muhitiga, berilayotgan tarbiyaga va ayniqsa, o‘yin faoliyatlari bilan uzviy bog’liqdir.

Kuzatuvlarim natijasida, bolalarga erkin fikrlash imkonini berganimda ular o‘z fikrlarini ifodalashga va muammolarga duch kelishsa, o‘zlari yoshlariga mos holda yechim topishga harakat qilishayotganliklarini guvohi bo‘ldim.

Mening fikrimcha, bugungi kunda eng muhim muammolardan bir desak mubolag’a bo‘lmaydigan bu-bolalar ko‘p vaqtini telefon va boshqa texnologiyalarga sarflashayotganlaridir. Bu holat bolalarda muloqotni kamaytirib, fikrlashlarini susaytiradi.

Men shuni chuqur his qildimki, maktabgacha yosh bu oddiy davr emas, balki tafakkurlarining rivojlanishini poydevori hamdir.Aynan shu davrlarida bolajonlarimizga mustaqil fikrlashlarini, o‘zlari mustaqil qarorlar qabul qilishlariga va barcha tushunmagan narsalarini qo‘rqmasdan savol berishlari orqali o‘rganishlarini o‘rgatsak ertaga bu ishlarimiz nafaqat bolalarimiz kelajaki uchun yana jamiyatimiz uchun ham foydali bo‘ladi. Chunki, bunday bolalardan ongli, ijodkor, vatanparvar shaxslar kamol topadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirish — ularning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida asosiy omillardan biridir. Bu davrda bola atrof-muhitni faol o‘rganadi, savollar beradi, kuzatadi va o‘z tajribasi asosida xulosalar chiqarishga harakat qiladi. Shuning uchun aynan maktabgacha yosh tafakkur, ya’ni fikrlash jarayonining eng tez va samarali rivojlanadigan bosqichi hisoblanadi.

Bolalarda tafakkur rivoji bevosita nutq, idrok, xotira va tasavvur bilan uzviy bog‘liq. Bola qanchalik ko‘p muloqot qilsa, savollarga javob olsa va o‘z fikrini ifodalashga imkon topa olsa, uning fikrlash doirasi shunchalik kengayadi. Ayniqsa, kattalar bilan mazmunli suhbatlar, ertak va hikoyalarni tinglash hamda ularni qayta hikoya qilish tafakkurni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon bolada

sabab-oqibat aloqalarini tushunish, voqealarni tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Rolli o‘yinlar, konstruktiv o‘yinlar va didaktik o‘yinlar orqali bolalar turli vaziyatlarni tasavvur qiladi, muammolarni hal etishga urinadi va mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi.

Kuzatish va tajriba faoliyati ham tafakkurni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bola tabiat hodisalarini, atrofdagi buyumlarni va ularning o‘zgarishini kuzatib, ularga nisbatan savollar bera boshlaydi va javob izlaydi. Bu esa unda tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Rasm chizish, loydan buyumlar yasash, musiqa tinglash va sahnalashtirish faoliyatlari orqali bola o‘z tasavvurini kengaytiradi va yangicha fikrlashga o‘rganadi. Bu esa kelajakda uning muammolarga noodatiy yondasha olish qobiliyatini shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida pedagog va ota-onalarning roli beqiyosdir. Ular bolaga tayyor bilim berishdan ko‘ra, uni mustaqil fikrlashga undashi, savollariga sabr bilan javob berishi va izlanishga rag‘batlantirishi lozim. Qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, bolaning qiziqishlarini inobatga olish va uning fikrini hurmat qilish tafakkur rivojining muhim shartlaridan biridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkurni rivojlantirish tizimli, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni talab qiladi. O‘yin, muloqot, kuzatish va ijodiy mashg‘ulotlar uyg‘unligi orqali bolalarda mantiqiy, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Bu esa ularning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishi va hayotda o‘z o‘rnini topishiga mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytilganda, maktabgacha yoshdagi nihollarimizni to‘g’ri rivojlanishlari ildizlari baquvvat bo‘lishlari va kelgusida uzoq muddat ko‘karishlari uchun to‘g’ri yo‘nalishlar belgilashimiz kerak. Zeroki, har bir bolalar jamiyatimizning mustahkam poydevoridir.

ADABIYOTLAR.

1. Psixologiya metodologiyasi O‘quv qo‘llanma. E.G‘oziyev. T-2013,
2. Psixologiya metodologiyasi. G‘oziyev E.G‘., Xolmuxamedov M., Ibrohimov X. – T.: O‘z MU, 2002.
3. Психология обшения. Леонтьев.А.А. 1997 г.
4. “Мотивация поведения и формирование личности” Асеев.В.Г. М.,“Мысл” 2011 г.
5. Nishanova.Z.T. “PSIXOLOGIK XIZMAT”, –T.:2007.
6. Safaev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”, –T.:2013.

YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLARGA QIZIQISH VA QOBILIYATLARINI TASHXIS QILISH HAMDA RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MASALALARI

Sharipova Umidaxon
Namanga davlat universiteti stajo'r o'qituvchi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarni zamonaviy kasblarga qiziqishini shakllantirish, ularning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, kasbiy yo‘naltirish jarayonida psixologik diagnostika metodlari, xususan, Holland kasbiy yo‘nalish nazariyasi va Gardnerning ko‘p qirrali intellekt nazariyasi asosida yoshlarning individual xususiyatlarini aniqlash imkoniyatlari yoritilgan. Ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar, STEAM texnologiyasi, raqamli ta’lim muhitining ahamiyati ochib berilgan. Bundan tashqari, yoshlarning kasbiy rivojlanishida oila, ta’lim muassasalari va ijtimoiy muhitning o‘rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yoshlarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlashning samarali yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.*
Kalit so‘zlar: *yoshlar, zamonaviy kasblar, kasbiy yo‘naltirish, qobiliyat, diagnostika, Holland nazariyasi, ko‘p qirrali intellekt, STEAM ta’lim, innovatsion texnologiyalar, mehnat bozori, soft skills, ta’lim tizimi.*
Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования интереса молодежи к современным профессиям, а также диагностики и развития их способностей. Особое внимание уделено применению психолого-педагогических диагностических методов, в частности теория профессиональных типов Холланда и теория множественного интеллекта Гарднера, позволяющих выявить индивидуальные особенности личности и профессиональные склонности. Раскрывается значение инновационных подходов в образовании, включая STEAM-технологии и цифровую образовательную среду. Кроме того, обоснована роль семьи, образовательных учреждений и социальной среды в процессе профессионального становления молодежи. Результаты исследования направлены на определение эффективных направлений подготовки молодых специалистов в соответствии с требованиями современного рынка труда.*
Ключевые слова: *молодежь, современные профессии, профессиональная ориентация, способности, диагностика, теория Холланда, множественный интеллект, STEAM-образование, инновационные технологии, рынок труда, soft skills, система образования.*
Abstract: *This article examines the theoretical and practical aspects of developing young people’s interest in modern professions, as well as diagnosing and enhancing their abilities. Special attention is given to psychological and pedagogical diagnostic methods, particularly Holland’s theory of vocational personality types and Gardner’s theory of multiple intelligences, which help identify individual characteristics and professional inclinations. The study highlights the importance of innovative approaches in education, including STEAM-based learning and digital educational environments. In addition, the role of family, educational institutions, and the social environment in shaping career development is analyzed. The findings aim to define effective directions for preparing young people in accordance with the demands of the modern labor market.*
Keywords: *youth, modern professions, career guidance, abilities, diagnosis, Holland theory, multiple intelligences, STEAM education, innovative technologies, labor market, soft skills, education system.*

Maxsudova Mutabarxon
NamDU Psixologiya kafedrasi dotsenti
Sobirova Feruza
1-kurs Psixologiya magistranti

Annotatsiya*: ushbu maqolada yuqori sinf o‘quvchilarining intellektual iqtidorini rivojlantirishda ijtimoiy-psixologik omillarning tutgan o‘rni va ahamiyati tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda iqtidor fenomenining faqat genetik omillar bilan emas, balki bevosita ijtimoiy muhit — oiladagi muloqot stili, maktabdagi pedagogik yondashuv va tengdoshlar guruhidagi ijtimoiy normalar ta’sirida shakllanishi ko‘rsatib o'tilgan. Maqolaning asosiy urg‘usi o‘smirlik davridagi kognitiv jarayonlar (agglyutinatsiya, giperbolizatsiya, aksentuatsiya) va ularning ijtimoiy adaptatsiyadagi roli masalalariga qaratilgan. Maqola yakunida yuqori sinf o‘quvchilari bilan ishlovchi pedagog-psixologlar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *intellektual iqtidor, yuqori sinf o‘quvchilari, ijtimoiy-psixologik omillar, kognitiv rivojlanish, motivatsiya, oilaviy muhit, ijtimoiy nazorat, kreativ tasavvur, hamkorlik pedagogikasi.*

Аннотация. *В данной статье систематически анализируются роль и значение социально-психологических факторов в развитии интеллектуальной одаренности учащихся старших классов. В исследовании показано, что феномен одаренности формируется не только под влиянием генетических факторов, но и непосредственно в социальной среде — через стиль общения в семье, педагогический подход в школе и социальные нормы в группе сверстников. Основной акцент в работе сделан на когнитивных процессах подросткового возраста (агглютинация, гиперболизация, акцентуация) и их роли в социальной адаптации. В завершение статьи разработаны практические рекомендации для педагогов-психологов и родителей, работающих со старшеклассниками.*

Ключевые слова: *интеллектуальная одаренность, учащиеся старших классов, социально-психологические факторы, когнитивное развитие, мотивация, семейная среда, социальный контроль, креативное воображение, педагогика сотрудничества.*

Abstract. *This article systematically analyzes the role and significance of socio-psychological factors in developing the intellectual giftedness of high school students. The research demonstrates that the phenomenon of giftedness is formed not only by genetic factors but is directly shaped by the social environment—including family communication styles, school pedagogical approaches, and social norms within peer groups.The main focus of the article is directed toward cognitive processes during adolescence (agglutination, hyperbolization, accentuation) and their role in social adaptation. The study scientifically proves that the formation of giftedness is a product of social interaction rather than an exclusively hereditary factor.*

Keywords: *intellectual giftedness, high school students, socio-psychological factors, cognitive development, motivation, family environment, social control, creative imagination, pedagogy of cooperation.*

Zamonaviy psixologiya va pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri — bu yuqori sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatini aniqlash va uni tizimli ravishda rivojlantirishdir. Globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida jamiyatning intellektual resurslarga bo‘lgan ehtiyoji ortib bormoqda, bu esa o‘z navbatida iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning yangi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Yuqori sinf o‘quvchilari (15-17 yosh) shaxs sifatida shakllanishning muhim bosqichida turadilar. Bu davrda intellektual

qobiliyatlar nafaqat o‘quv faoliyatida, balki kasbiy tanlov va ijtimoiy o‘zlikni anglash jarayonlarida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, intellektual iqtidor faqatgina irsiy omillar natijasi emas; u ko‘p jihatdan shaxs kamol topayotgan ijtimoiy muhitning mahsulidir. Ijtimoiy-psixologik omillar (oila, maktab, tengdoshlar) iqtidorning "katalizatori" yoki, aksincha, uni to‘suvchi "to‘siq" bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Intellektual iqtidor fenomenini o‘rganishda G‘arb va Sharq olimlarining qarashlari o‘ziga xos ahamiyatga ega. Xususan, L.S. Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi iqtidorning ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligini asoslab bergan bo‘lsa, A. Eynshteyn va boshqa buyuk mutafakkirlar tasavvur hamda kreativlikning intellektual yuksalishdagi o‘rnini alohida ta’kidlashgan. Shuningdek, kognitiv psixologiyada tasavvur mexanizmlari bo‘lmish — agglyutinatsiya (turli xususiyatlarni birlashtirish), giperbolizatsiya (bo‘rttirish) va aksentuatsiya (muhim jihatlarni bo‘rtirib ko‘rsatish) jarayonlari intellektual faoliyatning asosi sifatida ko‘riladi. Yuqori sinf o‘quvchilarining intellektual iqtidori shakllanishida ijtimoiy normalar, ijtimoiy nazorat va muloqot tizimining ta’sirini tahlil qilish hamda ushbu jarayonni optimallashtirish bo‘yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bizningcha, yuqori sinf o‘quvchisining intellektual iqtidori quyidagi hollarda samarali rivojlanadi:

- oilada intellektual qadriyatlar qo‘llab-quvvatlansa;
- ta’lim jarayonida interaktiv va sub’yekt-sub’yekt munosabatlariga asoslangan metodlar qo‘llanilsa;

O‘quvchining kreativ tasavvuri ijtimoiy-psixologik treninglar va rolli o‘yinlar orqali rag‘batlantirilsa.15–17 yoshli o‘smirlarda intellektual faollik ularning kelajakdagi kasbiy tanlovi va ijtimoiy mavqeyini belgilab beradi. Iqtidor rivojlanishi — bu murakkab dinamik jarayon bo‘lib, u tashqi sotsial stimullar va ichki psixologik ehtiyojlarning sintezidan iborat.Bu davrda intellektual iqtidor nafaqat yuqori IQ ko‘rsatkichi, balki shaxsning kreativligi va ijtimoiy moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Iqtidorli o‘quvchining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarni quyidagicha guruhlash mumkin: Oila va pedagogik muloqot: O‘quvchining mustaqil fikrlashi uchun yaratilgan demokratik muhit. J. Renzulli ta’riflaganidek, iqtidor faqat yuqori intellekt emas, balki "vazifaga sadoqat" (task commitment) bilan oziqlanadi, bu esa ijtimoiy rag'batga bog'liq.

Tadqiqotda yuqori sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanish darajasini aniqlash uchun quyidagi metodikalar majmuasidan foydalanildi:
D.Veksler testi (WAIS): Intellektning umumiy va verbal ko‘rsatkichlarini o‘lchash uchun. E.Torrensning kreativlik testi: Tasavvur mexanizmlari (agglutinatsiya, aksentuatsiya) va original fikrlashni baholash uchun. Sotsiometriya: Sinf jamoasidagi ijtimoiy munosabatlar iqlimini o'rganish uchun.

O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, intellektual iqtidorli o‘quvchilarning 65% qismida ijodiy tasavvur mexanizmlari yuqori rivojlangan bo‘lib, ular muammoli vaziyatlarda agglutinatsiya (yangi obrazlar yaratish) usulidan samarali foydalanadilar. Biroq, ijtimoiy nazorat kuchli bo'lgan (avtoritar) muhitda o'quvchilarning kreativlik ko'rsatkichlari 20-25% ga pasayishi kuzatilgan.Iqtidor rivojlanishini tushunish uchun Jozef Renzulli tomonidan taklif etilgan modelni qo‘llash samarali hisoblanadi. Unga ko‘ra, iqtidor quyidagi uch xalqaning

kesishmasida hosil bo‘ladi: o‘rtachadan yuqori intellektual qobiliyat, kreativlik (ijodkorlik), vazifaga sadoqat (qat’iyatlilik).

Konferensiya materiallari uchun xulosa sifatida quyidagilar taklif etiladi: Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi: iqtidorli o‘quvchilar uchun nafaqat bilim berish, balki ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlovchi treninglar o'tkazish zarur. Kognitiv rivojlantirish: o‘quv jarayoniga ijodiy tasavvurni va mantiqiy tahlilni birlashtiruvchi interaktiv metodlarni (keys-stadi, loyihaviy ta'lim) yanada kengroq tatbiq etish. Individuallashtirish: har bir iqtidorli o‘quvchi uchun uning sotsial ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda individual rivojlanish trayektoriyasini yaratish. Yuqori sinf o‘quvchilarining intellektual iqtidorini rivojlantirish masalasi zamonaviy psixologiyaning ko‘p qirrali muammolaridan biri bo‘lib, o‘tkazilgan tahlillar quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: iIjtimoiy-psixologik determinizm: intellektual iqtidor shunchaki tug‘ma qobiliyat emas, balki shaxs va ijtimoiy muhitning o‘zaro dinamik munosabati mahsulidir. Yuqori sinf o‘quvchisi uchun oiladagi intellektual stimulyatsiya va maktabdagi kreativ muhit iqtidorning real yutuqlarga aylanishi uchun asosiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtidor rivojida tasavvur jarayonlari — agglyutinatsiya, giperbolizatsiya va aksentuatsiya kabi kognitiv operatsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘quvchida nostandart fikrlashni shakllantirish uchun ushbu mexanizmlarni pedagogik jarayonda maqsadli faollashtirish lozim. Muloqot va ijtimoiy normalar: O‘quvchi kamol topayotgan guruhdagi (sinf va tengdoshlar) ijtimoiy normalar intellektual faollikni yo rag‘batlantiradi, yoki "ijtimoiy izolyatsiya" qo‘rquvi orqali uni cheklaydi. Binobarin, ta’lim muassasalarida "bilimga intilish — eng yuqori nufuz" degan ijtimoiy normani shakllantirish strategik vazifadir.

Amaliy ahamiyat: iqtidorli yoshlar bilan ishlashda an’anaviy "reproduktiv" (qayta tiklovchi) o‘qitishdan voz kechib, interaktiv va loyihaga asoslangan metodlarga o‘tish zarur. Ijtimoiy-rolli o‘yinlar va mustaqil tadqiqotchilik faoliyati o‘quvchining nafaqat intellektini, balki ijtimoiy moslashuvchanligini ham oshiradi.

Umumiy xulosa shundan iboratki, yuqori sinf o‘quvchilarining intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun oila, maktab va keng jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro bog‘langan "Ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi" yaratilishi shart. Faqatgina ana shunday kompleks yondashuv iqtidorli shaxsni jamiyatning yetuk va raqobatbardosh kadriga aylantira oladi.

Yuqoridagi xulosadan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- pedagoglar uchun: Har bir iqtidorli o‘quvchi uchun individual rivojlanish xaritasini (kuzatuv varaqalari asosida) shakllantirish.
- ota-onalar uchun: uyda "demokratik munozara" muhitini yaratish va bolaning intellektual qiziqishlarini moddiy-ma'naviy rag‘batlantirish.o
- psixologlar uchun: o‘smirlarda o‘z-o‘zini baholash va stressga chidamlilik darajasini oshirishga qaratilgan treninglar o‘tkazish.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Safarov, A. (2022). Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. "Psixologiya" ilmiy jurnali.

2. G‘oziyev, E. G‘. (2010). Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet. (O‘zbekiston sharoitida o‘smirlar psixologiyasi va intellektual rivojlanish masalalari).
3. Shoumarov, G‘. B. (2023). Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq. nashr.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NUTQ RIVOJLANISHIDA O‘QISH FANINING AHAMIYATI.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali
Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi
4-kurs talabasi
Karimova Gulmira Nasimovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning nutqini rivojlantirishda o‘qish fanining o‘rni va ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. O‘qish jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, lug‘at boyligini oshirish, mustaqil fikrlash va matnni anglash qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali nutq rivojlanishini samarali tashkil etish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, nutq rivoji, o‘qish fani, og‘zaki nutq, yozma nutq, lug‘at boyligi, matnni anglash, pedagogik texnologiyalar, kommunikativ kompetensiya, o‘quv jarayoni.*

Аннотация: *В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются роль и значение предмета чтения в развитии речи учащихся начальных классов. Освещены вопросы формирования навыков устной и письменной речи учащихся в процессе чтения, обогащения словарного запаса, развития навыков самостоятельного мышления и понимания текста. Также на уроках чтения будут показаны способы эффективной организации развития речи с использованием современных педагогических технологий.*

Ключевые слова: *начальное образование, развитие речи, предмет чтения, устная речь, письменная речь, словарный запас, понимание текста, педагогические технологии, коммуникативная компетенция, учебный процесс.*

Abstract: *This article analyzes the role and significance of reading in the development of primary school students' speech from a scientific and pedagogical perspective. The issues of forming students' oral and written speech skills, expanding vocabulary, developing independent thinking and text comprehension abilities during the learning process are highlighted. Additionally, ways to effectively organize speech development through the use of modern pedagogical technologies in reading lessons are demonstrated.*

Keywords: *primary education, speech development, reading science, oral speech, written speech, vocabulary, text comprehension, pedagogical technologies, communicative competence, educational process.*

Bizga ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini rivojlanish bosqichida bolaning shaxs sifatida shakllantirishida eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quvchilarning nutqi, tafakkuri va dunyoqarashi fikrlay jarayonlarida rivojlanadi. O‘qish fani esa nafaqat savodxonlikni shakllantiradi, balki o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qish darslari esa bu jarayonda alohida o‘rin tutadi, chunki matn bilanishlasho‘quvchilarning lug‘at zaxirasini boyitish, fikrlash doirasini kengaytirish, o‘zaro muloqot qilishva axborotni tahlil etish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [3].

O‘qish fanining nutq rivojidagi o‘rni boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari orqali o‘quvchilar matnni to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qishni o‘rganadilar. Bu jarayon ularning so‘z boyligini oshiradi, nutqiy ifoda vositalaridan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatadi. Har bir o‘qilgan matn o‘quvchining fikrlash qobilyatini kengaytiradi va o‘z fikrini mustaqil bayon qilishga yordam beradi.

O‘qish darslarida to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z boyligini kengaytirish, gap tuzish va fikrni aniq bayon qilish va tinglab tushunish va qayta hikoya qilish nutqiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish hamda ularda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri shakllantirish, ularning fikrni aniq, ravon va mantiqiy izchillikda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biridir [1].

Matn ustida ishlash nutqiy rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. O‘quvchilar matnni o‘qib, uning mazmumini tushunadilar, asosiy g‘oyani ajratib olishni o‘rganadilar. Qolaversa, qayta hikoya qilish esa ularning xotirasini mustahkamlaydi va og‘zaki nutqini rivojlantiradi.

Bundan tashqari savol-javob usuli, muhokama, rolli o‘yinlar kabi metodlar o‘quvchilarning nutqini faollashtiradi. Ayniqsa, o‘qilgan asar yuzasidan fikr bildirish o‘quvchini erkin gapirishga o‘rgatadi.

Ifodali o‘qish o‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘naydi. Intonatsiya, urg‘u va pauzalarni to‘g‘ri qo‘llash orqali o‘quvchilar nutqni jonlantiradilar. Bu esa ularning nafaqat o‘qish, balki gapirish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi [2].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nurqiy rivojlanishda nutqiy rivojlanishda muhim o’rin tutadi. U o‘quvchilarga to‘g‘ri yo‘l ko’rsatib, nutqiy faoliyatni tashkil etadi. O‘qituvchisi namuna sifatida to‘g‘ri va ravon nutqdan foydalanadi. O‘quvchilarga faol suhbatga jalb qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir o‘quvchining fikr bildirishiga imkon yaratib beradi.

Biroq bir xil usulda o‘qish bolalarni zeriktirib yuboradi, ular tezda toliqib qolishadi. Buning oldini olish maqsadida tanlab o‘qishning yana bir qator turlaridan foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini shakllantirishda sinfdan tashqari o‘qish o‘qish darslari bilan bog‘lab olib boriladi.

Boshlang‘ich sinflarda o’qish fani o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. U nafaqat savodxonlikni, balki fikrlash, nutq madaniyati va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.B.Uzaqbayeva. Boshlang‘ich sinflarda o’qish darsliklarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish tamoyillari.// Akademiya -2023, 175-178 b.

2. G.P.Narkabilova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishida an’anaviy va innovatsion usullar. //Образование и наука вчера и сегодня международный науuно-исследовательский журна. 2021- 123-126 с.
3. T.G‘afforova. O‘qish darslari metodikasi// O‘quv qo‘llanma// T. 2012 -156 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Namangan davlat universiteti doktoranti
Otabek Abduraxmonov

Annotatsiya: *Kommunikativ ko‘nikmalar bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to‘g‘ri keladi. Kommunikativ ko'nikmalar — bu insonlarning bir-birlariga ma'lumot etkazish, axborot almashish, tushunish, xulq-atvorni boshqarish, turli vaziyatlarda moslashish va muvaffaqiyatli ijtimoiy muloqot o'rnatish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar majmuasidir.*

Kalit so’zlar: *Kommunikatsiya, rivojlantirish, shakllantirish, integratsiya, muloqot, jamoa, hamkorlik, emotsional, kognitiv, ijtimoiy, ob'ekt, kompleks, bog‘liqlik, kombinatsiya, sezgilar, empatiya, aloqa, o'yin, faoliyat, axloq, sabr-toqat, ishonch ijodkorlik, qo‘llab-quvvatlash, muvaffaqiyat, raqobatbardoshlilik, muammolar.*

Annotation: *Communicative skills open the way for a child to all the achievements of human culture. The most important stages of developing communicative skills correspond to the preschool age. Communicative skills are a set of abilities necessary for people to convey information to one another, exchange data, understand each other, manage behavior, adapt to various situations, and establish successful social interaction.*

Аннотация: *Коммуникативные навыки открывают ребёнку путь ко всем достижениям человеческой культуры. Самые важные этапы развития коммуникативных навыков приходятся на дошкольный возраст. Коммуникативные навыки — это совокупность способностей, необходимых для передачи информации друг другу, обмена сведениями, взаимопонимания, управления поведением, адаптации к различным ситуациям и успешного социального взаимодействия.*

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma’naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog‘liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, har bir jamiyatning, ayniqsa, ta’lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifasi bo‘lishi lozim. Zero, bugungi kunda yoshlarga berilayotgan bilim, tarbiya va ma’naviy ko‘mak ertangi kunimizning poydevorini belgilaydi. Shu boisdan, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni milliy g‘urur va yuksak axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalash, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish – davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimi sharoitida bolalarda til va nutq rivojiga e’tibor qaratish, ularni boshqalar bilan muloqotga kirishishga o‘rgatish, fikrini erkin ifoda eta olishiga sharoit yaratish orqali ularning kommunikativ ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkin. Bu ko‘nikmalar esa bola tomonidan

nutqiy vositalar yordamida fikr bildirish, eshitish va tushunish, o‘zaro aloqaga kirishish, shuningdek, ijtimoiy muhitda erkin harakat qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanishi nafaqat bolaning nutqiy salohiyatini, balki uning tafakkur darajasi, shaxslararo munosabatlardagi muvaffaqiyati va kelajakdagi ta’lim jarayonidagi faolligini belgilab beradi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim tizimining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, maktabgacha ta’lim yoshdagi bola kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida nafaqat so‘z boyligini oshiradi, balki ijtimoiy munosabatlar, fikrlarni tartibga solish va o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish ko‘nikmalarini ham egallaydi.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati: Bolalar jamiyatdagi o'zgaruvchan sharoitlarga, turli guruhlar va madaniyatlarga moslashish uchun kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak. Misol uchun, turli muloqot uslublari, tilni to'g'ri va samarali ishlatish ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishni ta'minlaydi. Bola o'zining hissiy holatini, ijtimoiy kontekstni va boshqalarning ehtiyojlarini tushunib, ularga mos ravishda javob bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Kommunikativ qobiliyatlar bolalarga turli odamlar bilan samarali muloqot qilish, fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalash, boshqalar bilan hamjihatlikda ishlash, balki do'stlik, oilaviy munosabatlar, kelajakdagi ish faoliyatida va muammolarni hal qilishda ham katta rol o'ynaydi. O'z fikrini aniq va tushunarli ifodalash, tinglash va boshqalar bilan to'g'ri muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bu bilan birga, yaxshi kommunikatsiya bolalarga o'zaro hurmatni, sabr-toqatni va boshqalar bilan samarali ishlashni o'rgatadi.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ota-ona, tarbiyachilar, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishlari, ularga o'z fikrlarini ifodalash va boshqalarni tinglashni rag'batlantirishi kerak. Ular bolalarni suhbatlarga jalb qilish, savollar berish, turli hil o'yinlar va birlamchi boshlang’ich faoliyatlar orqali ijtimoiy aloqalarni yaxshilashga yordam berishidan tashqari, bolalarga o'zaro hurmat, jamoa bilan ishlash qobiliyati, empatiya, va o'zini ifoda etishdagi ishonchni oshirishga yordam beradi. Bu ko'nikmalar, ularning sog'lom ijtimoiy munosabatlar o'rnatishiga va jamiyatda faol ishtirok etish uchun zarurdir. Bola uchun bu jarayon juda muhim, chunki ularning fikrlash, hissiyotlarini ifodalash va o'zaro muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, bu o'z-o'zini hurmat qilish, boshqalar bilan muloqotda bo'lishda o'zini ishonchli his qilishga yordam beradi. Muloqot orqali bolalar o'zlarining ehtiyojlarini, istaklarini va fikrlarini to'g'ri va aniq ifodalashni o'rganadilar, bu esa ular uchun sog'lom ijtimoiy aloqalar o'rnatishda muhimdir.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, bolalarga boshqa odamlar bilan samarali va muammosiz aloqa qilish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy, emotsional va intelektual rivojlanishi hamda bolaning keyingi rivojlanish davrlari uchun juda zarur. Bu ijtimoiy jarayonlar bolalarda ko'pincha, kattalarning muloqot qilish tarzini kuzatib, o'zlari ham shu tarzda gapirishni va o'z fikrlarini ifodalashni o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:
1. Yusufov, N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish. Toshkent: O'zbekiston psixologlar uyushmasi 2016.
2. Mirzayeva, N. Bolalar psixologiyasida kommunikativ rivojlanish. Toshkent: Ta'lim va ma'naviyat - 2017.
3. Raxmonov, D. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik yondashuv. Toshkent: Ta'lim va rivojlanish - 2018.
4. Jabborov, F. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish. Toshkent: Maktab - 2012.
5. Toshpulatova, F. Maktabgacha ta'limda o'quvchilarni kommunikativ ko'nikmalar bilan ta'minlash. Toshkent: Fan va ta'lim – 2013.

O‘SMIRLIK DAVRIDA KOPING STRATEGIYALARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Samatova Nigora Davlataliyevna
nsamatva82@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola o‘smirlik davrida koping strategiyalarining rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada o‘smirlarning stressli vaziyatlarga moslashuvi, ularning emotsional va xulqiy reaksiyalari hamda koping strategiyalarining shakllanish mexanizmlari ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy muhit va psixologik omillarning koping strategiyalariga ta’siri aniqlangan. Natijada o‘smirlar orasida emotsiyaga yo‘naltirilgan koping strategiyalar ustunligini ko‘rsatadi. Ushbu ishning ilmiy ahamiyati shaxs rivojlanishi nazariyasini boyitishda, amaliy ahamiyati esa o‘smirlar bilan psixologik ishlash samaradorligini oshirishda namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, koping strategiya, stress, moslashuv, emotsional reaksiya, shaxs rivojlanishi, psixologik himoya, ijtimoiy muhit.*

Asosiy qism: O‘smirlik davri inson ontogenezining eng murakkab va ziddiyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda biologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar intensiv tarzda kechadi. Ayniqsa, shaxsning o‘zini anglash jarayoni, ijtimoiy rollarni egallashi va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatining shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o‘smirlar turli stressli vaziyatlarga duch keladilar. Ushbu vaziyatlarda shaxsning koping strategiyalari — ya’ni muammolarni hal qilish, stressni yengish va moslashuv mexanizmlari asosiy rol o‘ynaydi.

Koping strategiyalar — bu shaxsning stressli yoki muammoli vaziyatlarga nisbatan ongli yoki ongsiz tarzda qo‘llaydigan xulqiy va emotsional reaksiyalari majmui hisoblanadi. Psixologiyada ushbu tushuncha keng o‘rganilgan bo‘lib, ayniqsa Richard Lazarus va Susan Folkman tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar asosiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘smirlik davrida koping strategiyalari hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, ular ko‘pincha situativ va beqaror xarakterga ega. Bu esa o‘smirlarning stressli vaziyatlarga turlicha va ba’zan samarasiz javob berishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘smirlar duch kelayotgan psixologik muammolar soni ortib bormoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi, ta’lim tizimidagi raqobatning kuchayishi hamda oilaviy muhitdagi o‘zgarishlar o‘smirlarning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada xavotirlanish, stress, depressiv holatlar va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar keng tarqalmoqda. Shu sababli o‘smirlik davrida samarali koping strategiyalarini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu muammoni o‘rganish orqali yosh avlodning psixologik salomatligini mustahkamlash mumkin.

O‘smirlik davrida tengdoshlar bilan munosabatlar ham koping strategiyalarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Do‘stlar tomonidan qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lgan hollarda o‘smirlar o‘z muammolarini ochiq muhokama qilishga va ijobiy yechim topishga moyil bo‘ladilar. Aksincha, ijtimoiy izolyatsiya yoki rad etilish holatlarida o‘smirlar ichki kechinmalarni yashirishga, stressni ichki tarzda boshdan kechirishga majbur bo‘ladilar. Koping strategiyalarining samaradorligi ularning moslashuvchanligi va vaziyatga mos ravishda qo‘llanishiga bog‘liq. Samarali koping strategiyalari o‘smirning psixologik barqarorligini oshiradi, stressga chidamliligini kuchaytiradi va ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Shu bois o‘smirlik davrida konstruktiv koping strategiyalarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

O‘smirlik davrida koping strategiyalarining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish hamda samarali koping mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

- koping strategiyalarining nazariy asoslarini o‘rganish;
- o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini tahlil qilish;
- o‘smirlar orasida koping strategiyalarining ustun turlarini aniqlash;
- shaxsiy va ijtimoiy omillarning kopingga ta’sirini baholash.

O‘smirlar orasida emotsiyaga yo‘naltirilgan koping strategiyalar muammoga yo‘naltirilgan strategiyalarga nisbatan ustunlik qiladi. Bu esa o‘smirlarning hissiy jihatdan barqaror emasligi bilan izohlanadi. O‘z-o‘zini baholashga ega o‘smirlar muammoga yo‘naltirilgan, ya’ni konstruktiv koping strategiyalarini ko‘proq qo‘llaydi. Xavotirlanish darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlar passiv va samarasiz strategiyalarga - qochish, inkor etish, izolyatsiya kabi reaksiyalarga moyil bo‘ladi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash (oila, do‘stlar, ustozlar) mavjud bo‘lgan o‘smirlarda ijobiy koping strategiyalar shakllanishi yuqori darajada kuzatildi.

O‘smirlik davrida koping strategiyalarining rivojlanish mexanizmlarini chuqurroq ochib beradi va shaxs rivojlanishi nazariyasini boyitadi. Bu esa ushbu natijalar ta’lim tizimi va psixologik xizmatlar faoliyatida keng qo‘llanilishi mumkin. Xususan:

- maktab va kollej psixologlari uchun diagnostik va korreksion dasturlar ishlab chiqishda;
- o‘smirlar bilan stressni boshqarish treninglarini tashkil etishda;
- ota-onalar uchun psixologik maslahatlar berishda muhim ahamiyatga ega.

Samarali koping strategiyalarini shakllantirish orqali o‘smirlarning psixologik barqarorligi oshadi, ularning ijtimoiy moslashuvi yaxshilanadi va ruhiy

salomatligi mustahkamlanadi. O‘smirlik davrida koping strategiyalarining rivojlanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u shaxsning individual xususiyatlari, emotsional holati va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. O‘smirlar orasida emotsiyaga yo‘naltirilgan strategiyalar ustun ekanligini ko‘rsatdi. Shu bois ularda muammoga yo‘naltirilgan samarali koping strategiyalarini rivojlantirish zarur. Bu esa o‘smirlarning psixologik salomatligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Psixologik amaliyotda o‘smirlar bilan ishlashda koping strategiyalarni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, psixokorreksion mashg‘ulotlar va maslahatlar muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvlar orqali o‘smirlar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, emotsiyalarni boshqarish va ijobiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. O‘smirlik davrida koping strategiyalarining rivojlanishi murakkab va dinamik jarayon bo‘lib, u shaxsning individual xususiyatlari va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Ushbu jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali o‘smirlarning psixologik salomatligini mustahkamlash, ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko‘maklashish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salixova M.A. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasi. — Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
2.Nazarova Z.N. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash psixologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3.Samatova, N., Nuraliyeva, S. va Salayeva, M. (2025). SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA MANIPULYATSIYANING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI: https://doi. org/10.5281/zenodo. 15545378. *Xalqaro fan tarmoqlari jurnali , 1* (5), 71-75.
5.Davlataliyevna, S. N. (2025). OILAVIY MUHITNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISHGA TA'SIRI. *TADQIQOTLAR , 73* (3), 317-320.
6.Davlataliyevna, S. N., Sevinch, H., & Maftuna, A. (2025). STRESSNI BOSHQARISHNING SAMARALI USULLARI. *TADQIQOTLAR , 73* (3), 309-312.

OILA MUXITINING KASB TANLASHGA TA'SIRI

Boymirzayeva Gulira’no Ikromjon qizi
Namangan Davlat Universiteti Sport va Sa’nat fakulteti
Psixologiya yo’nalishi 1-kurs talabasi (masofaviy ta’lim)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarning kasb tanlash jarayonida oilaning, ayniqsa ota-onaning ta’siri yoritilgan. Ota-onalar farzandlarning qobiliyati va qiziqishlarini aniqlashda muhim rol o‘ynashi, ularni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirishi zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, kasb tanlashda bozor talablari, global kasblar va ruhiy salomatlikning ahamiyati ham ko‘rib chiqilgan. Xulosa qilib aytganda, ota-onalar farzandlarini ongli va to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirishlari muhimdir.*

Kalit so'zlar*: Oila, ota-onalar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, yoshlar, qobiliyatlar, iste'dodlar, mehnat bozori, shaxsiy rivojlanish, ruhiy salomatlik*

Abstract: *This article examines the influence of the family, especially parents, on the career choice of young people. It emphasizes the importance of parents in identifying their children's abilities and interests and guiding them towards the right career. It also examines the importance*

of market demands, global careers, and mental health in career choice. In conclusion, it is important for parents to guide their children towards a conscious and correct career choice.

Keywords: *Family, parents, career choice, career guidance, youth, abilities, talents, labor market, personal development, mental health.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается влияние семьи, особенно родителей, на выбор профессии молодыми людьми. Подчеркивается важность роли родителей в выявлении способностей и интересов своих детей и направлении их к правильной карьере. Также рассматривается важность рыночных требований, глобальной карьеры и психического здоровья при выборе профессии. В заключение, важно, чтобы родители направляли своих детей к осознанному и правильному выбору профессии.*

Ключевые слова: *Семья, родители, выбор профессии, профориентация, молодежь, способности, таланты, рынок труда, личностное развитие, психическое здоровье.*

Bizni urf odatlarimizda bir yigitag qirq xunar oz deb aytishadi,albatta bir shaxs ko’plab ishlarning uddasidan chiqa olgani yaxshi jixat lekin hammasidan yarim bilganidan ko’ra bitta yoki ikkita xunar yoki kasbni mukammal bilgani maqul.xalqda shunday kinoyali gaplar bor yani u hamma narsani biladi lekin birortasidan usta emas degan.shunday bo’lib qolmasligi uchun yoshlarda qanday qobiliyati va imkoniyatlari bor ekanligini aniqlash uning oilasi xususan ota onasining masuliyatli vazifasidir.ota onalar farzandlarini kelajakda moddiy qiyinchiliksiz yashashlarini istashadi,shuning uchun chet ellarda ham bizda ayni kunda qaysi kasbga talab ko’p bo’lsa shu soxa bo’yicha talim olishiga yoki shogird tushib xunar orgatilishiga xarakat qilishadi.bazi oilalarda kasblar avloddan avlodga o’tib keladi bunday oilalarda kasb tanlash muammosi biroz yengilroq.G’arbda avloddan avlodga o’tadigan kasblar shifokorlik yuristlik injenerlik bo’lsa,bizni mintaqalarda bular qassoblik duradgorlik kulolchilik va hokazolardir.biroq ota onalar faqat shu bn cheklanib qolmasliklari kerak, bolaning iqtidori va layoqatligini aniqlagan xolda sport togaraklari musiqa mashqlari xisob kitob ilmlarini organishlariga yordam berishlari zarur.yana bir zamonaviy muxim narsalardan biri yoshlarimiz chet ellarda o’qishmoqda va yashashmoqda kasb tanlashda faqat tor doirada fikrlamasdan global miqyosida kerak bo’ladigan kasblarni ko’rib chiqishlari zarur.Bir yirik tadbirkorni intervyusini ko’rgandim unda bizga juda malakali mutaxassis emas ishonchli mutaxassis kerak ishini o’zimiz ham o’rgatamiz lekin ishonchli va halol bo’lishni faqat oilada o’rganadi degan edi.shu fikrdan kelib chiqib ota onalar yoshlarga qaysi kasbni tanlashlaridan qatiy nazar ishonchli va halol bolishi kerakligini o’z misollarida korsatib berishlari zarur.

Psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd oila va yoshlar masalasi boyicha aytgan bu fikriga ko’ra, muvaffaqiyatli martaba qurish uchun ruhiy salomatlik zarur. Ruhiy salomatlik, aniqlanganidek, sog'lom martaba kalitidir. Bu, shuningdek, insonning oilasi va do'stlari bilan munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi. Bu hissiy munosabatlarga ham tegishli.[1] yoshlarning kasb tanlashi va qaysidir kasbga qiziqishlari ota onasining kasbi va yoki yaqin do’stlaring qiziqishlari ular o’rtasidagi bo’ladigan suhbatlarga xam bog’liq.bolaning sog’ligi uning yosh ekanidan qanday narsalarga qiziqqanini ota onadan yaxshiroq biladigan odam yo’q. Biroq, yoshlarning bo‘lajak kasbini tanlashda ota-onaning bu muammoga bevosita yondashishiga bog‘liqmi yoki ota-onaning bilvosita ta’siri, ularning o‘z kasbiga

fidoyiligi natijasidir. Biroq, yoshlarning bo‘lajak kasbini tanlash ota-onalarning bu muammoga bevosita yondashishiga yoki ota-onalarning bilvosita ta’siriga, ularning o‘z kasbiga fidoyiligi bilan bog‘liq.[2]

Ota-onaning ishi ularga katta mamnuniyat baxsh etsa yoki qulay turmush tarzini ta'minlasa, otasi yoki kasbini tanlashning yana bir sababidir. Boshqa tomondan, agar ota-onalar o'zlarining ish joylaridan qoniqmasalar, shuningdek, daromadlarning etarli emasligi natijasida oilaning moddiy ta'minotida yuzaga keladigan qiyinchiliklar bo’lsa, bolalar buni ko’rishadi va o’zlaricha xulosa qilib bunday kasblardan qochishadi va ko'proq yuqori haq to'lanadigan lavozim va kasblarni qidirishadi.[3]

Ota-onalar o'z farzandlari uchun psixologik jihatdan eng muhim odamlardir.ular uchun hayotdagi eng birinchi ideal insonlardir. Ularning fikrlarini tinglash, ularning roziligini izlash va ularni xafa qilishdan qo'rqish - bularning barchasi bolalar uchun mutlaqo normal va tabiiydir. Bu ota-onalarga, ayniqsa, agar ular qat'iy niyatlari yoki afzalliklari bo'lmasa, o'z farzandlariga kasb tanlashda turtki berish imkoniyatini beradi.[4] shuning uchun ota ona bolasini imkoniyata bozor talablaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashdan tanlovlardan birini tanlashga yordam berishi kerak.

Kasbga yo‘naltirishning amaliy aspekti egallagan bilimlarni hayotiy faoliyatning ma’lum bir sohasida qo‘llashni o‘rganishdan iboratdir. Bu esa yoshlarni biror kasbni tanlashga ongli munosabatda bo‘lishga tayyorlaydi. O‘quvchilar kasblar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, bilimlarni faqat maktabda emas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari, qarindoshlardan ham bilib oladilar. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda yoshlarni kasbga yo‘naltirishda quyidagilarga e’tibor berish lozim bo‘ladi:[5]

Hozirgi kunda Mamlakatamizda ayol va qizlarga juda kata etibor berilyapti va o’zlarini namoyon qilishlari uchun xulay sharoitlar yaratilib berilyapti.shuning natijasida sport sanat va koplab soxalarda qizlarimiz yurtimizni va oilalarni dunyoalarga tanitishmoqda. Ota onalarimiz bundan imkoniyatlardan foydalangan xolda bundan keyin ham qiz farzandlari kelajaki va kamoli uchun bu imkoniyatldan oqilona foydalanishlari zarurdir.

Xulosa o’rnida shuni ayta olamizki, ota-onalar yoshlarni intelektual va jismoniy imkoniyatlarini aniq bilishlari va xisobga olishlari,bozor talablari va global miqyosdagi kasblarga ehtiyojlar qanday ekanlini bilishlari,bolaning haqiqiy iqtidorlarini aniqlash koplab soxalarda sinab korishiga imkoniyat yaratib berishlari, maktab psixoglari bilan aloqada bo’lishlari kerak.

Foydalinga adabiyotlar

1.Aba Psikoloji. *Aile İlişkilerinin Kariyer Tercihi Üzerinde Nasıl Bir Etkisi Var?* https://www.abapsikoloji.com/aile-iliskilerinin-kariyer-tercihi-uzerinde-nasil-bir-etkisi-var

2. Markoski, G. (2023). *Young People and the Influence of Parents on Their Career Development*. Euroguidance Network. https://euroguidance.eu/young-people-and-the-influence-of-parents-on-their-career-development

3. **Euroguidance Network.***Young People and the Influence of Parents on Their Career Development.* https://euroguidance.eu/young-people-and-the-influence-of-parents-on-their-career-development
4. Влияние семьи на выбор профессии детей. https://xn--80aidamjr3akke.xn--p1ai/articles/vliyanie-semi-na-vybor-professii-detei
5. Yusupova Sh. X. Kasb tanlash jarayonida oila ta'sirining maktab o'quvchilari misolida ijtimoiy va psixologik jihatdan tahlil etilishi.

YUSUFXON ESHON MAJMUASI VA UNING FARG'ONA VODIYSI MADANIY MEROSIDAGI AHAMIYATI

Saxodillo Akbarov
Namangan davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti
Baxtiyor Asqarovich Ruzinov
Namangan davlat universiteti Tasviriy san'at va dizayn kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Namangan viloyati Kosonsoy tumanining Soycha mahallasida joylashgan XVIII asrga mansub Yusufxon Eshonto'ra majmuasining me'moriy-badiiy xususiyatlari hamda tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Majmua Farg'ona vodiysi me'morchiligiga xos an'anaviy qurilish uslubi, peshtoq-gumbazli kompozitsiyasi, ganch o'ymakorligi va ornamental bezaklari bilan diqqatga sazovordir. Tadqiqot jarayonida yodgorlikning konstruktiv tuzilishi, dekorativ elementlari, shuningdek, uning mahalliy aholi ma'naviy hayotidagi o'rni o'rganildi. Shu bilan birga, Yusufxon Eshon shaxsiyati bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar va xalq orasida saqlanib kelayotgan rivoyatlar tahlil qilindi. Maqolada yodgorlikni muhofaza qilish, restavratsiya ishlarini amalga oshirish va uni ziyorat turizmi ob'ekti sifatida rivojlantirish masalalariga ham e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari mazkur majmuaning Farg'ona vodiysi madaniy merosi tizimida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Yusufxon Eshon, Kosonsoy, Soycha mahallasi, Farg'ona vodiysi, me'moriy yodgorlik, ziyoratgoh, ganch o'ymakorligi, islimiy va girix naqshlar, madaniy meros, maqbara arxitekturasi.*

Kirish: O'zbekiston hududi Markaziy Osiyodagi eng boy tarixiy va madaniy meros markazlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi hududida joylashgan me'moriy yodgorliklar xalqimizning ko'p asrlik madaniy an'analari, diniy qarashlari va badiiy didini aks ettiruvchi noyob manbalar hisoblanadi. Bu yodgorliklar nafaqat arxitektura jihatidan, balki tarixiy, madaniy va ma'naviy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega.

Farg'ona vodiysidagi ziyoratgoh va maqbaralar me'morchiligi mahalliy qurilish an'analari, dekorativ bezak san'ati va islom arxitekturasining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllangan. Peshtoq-gumbazli kompozitsiya, ganch o'ymakorligi, girix va islimiy naqshlardan foydalanish kabi badiiy yechimlar mazkur hudud me'morchiligida keng tarqalgan.

Namangan viloyati Kosonsoy tumanining Soycha mahallasida joylashgan Yusufxon Eshonto'ra majmuasi ana shunday noyob me'moriy yodgorliklardan biri

hisoblanadi. XVIII asrga mansub ushbu majmua Farg‘ona vodiysi me’morchiligiga xos kompozitsion tuzilishi va badiiy bezaklari bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada ushbu majmuaning me’moriy xususiyatlari va uning madaniy meros sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida muhim madaniy va ma’naviy markazlardan biri sifatida shakllangan. Bu hududda turli davrlarda qurilgan me’moriy yodgorliklar, ziyoratgohlar va diniy-ma’rifiy markazlar xalqning ma’naviy hayotida alohida o‘rin tutadi. Vodiydagi bunday ob’ektlar nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki mahalliy aholi ma’naviyati, diniy an’analar va ijtimoiy hayot bilan bog‘liq madaniy makon sifatida ham ahamiyatga egadir. Shulardan biri Kosonsoy tumani hududida joylashgan Yusufxon Eshon majmuasi hisoblanadi.

Farg‘ona vodiysida tasavvufiy an’analar va mahalliy shayxlar faoliyati haqidagi ma’lumotlar ayrim qo‘lyozma manbalarda ham uchraydi. Xususan, XVII asrning o‘rtalariga taalluqli qo‘lyozma risolalardan birida (hijriy 1050 yil atrofi) vodiydagi sufiy ulamolar va shayxlar silsilasi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu manbada shayxlar faoliyati, muridlar tarbiyasi, chillaxona va zikr an’analari haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan bo‘lib, bu holat Farg‘ona vodiysida tasavvufiy markazlar va ziyoratgohlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qo‘lyozma matnlarda shayxlarning ilm-ma’rifat tarqatishdagi o‘rni, aholiga ma’naviy va ba’zan tabobatiy yordam ko‘rsatgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu esa vodiydagi ayrim ziyoratgohlar, jumladan Kosonsoy hududidagi shayxlar majmualari mahalliy aholi orasida katta e’tiborga ega bo‘lganini tasdiqlaydi. Tasavvuf an’anasida shayxlar chillaxonada riyozat qilishi, muridlarga irshod berishi va muhtojlarga yordam ko‘rsatishi haqidagi ma’lumotlar Yusufxon Eshon haqidagi xalq rivoyatlari bilan hamohangdir.

Shu jihatdan qaraganda, Kosonsoy tumanidagi Yusufxon Eshon ziyoratgohi Farg‘ona vodiysidagi tasavvufiy muhit va shayxlar an’anasi bilan bog‘liq bo‘lgan mahalliy ruhoniy markazlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Yusufxon Eshon majmuasi Farg‘ona vodiysi me’morchilik an’analariga xos tarzda shakllangan arxitektura ansamblidir. U Kosonsoy tumanining Soycha mahallasida joylashgan bo‘lib, ziyoratxona, qabrlar va atrof muhit bilan birgalikda yaxlit me’moriy majmuani tashkil etadi.

Majmua tuzilishida ziyoratxona asosiy arxitektura elementi hisoblanadi. U peshtoq-gumbazli kompozitsiya asosida barpo etilgan bo‘lib, bu uslub Markaziy Osiyo me’morchiligida keng tarqalgan an’anaviy qurilish shakllaridan biridir. Ziyoratxona eshiklari o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Oddiy rangdagi girix va islimiy naqshlar somon suvoqning navvotrang tusi bilan uyg‘unlashib, yodgorlikka o‘ziga xos shinamlik bag‘ishlaydi. Ushbu majmua xalq orasida muqaddas ziyoratgoh sifatida ham mashhur. Rivoyatlarga ko‘ra, Yusufxon Eshon ilmli va taqvodor inson bo‘lgan. U kishi xalq orasida “Oshiq Yusuf” nomi bilan tanilgan. Uning nomi bilan bog‘liq ziyoratgoh asrlar davomida mahalliy aholi tomonidan e’zozlanib kelinmoqda.

Hozirgi kunda mazkur yodgorlik davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, uning tarixiy qiyofasini saqlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ziyoratxonaning me’moriy tuzilishida gumbazli konstruksiya alohida ahamiyat kasb

etadi. Gumbaz qismi ko‘p qirrali poygumbaz ustiga o‘rnatilgan bo‘lib, bu usul qadimiy me’moriy an’analarning davomiyligini namoyon etadi. Arxitekturada bunday yechim nafaqat konstruktiv barqarorlikni ta’minlaydi, balki yodgorlikning tashqi ko‘rinishiga badiiy ta’sir ham bag‘ishlaydi.

Majmua burchaklarida joylashgan ko‘p qavatli sharafa yacheykalari arxitektura kompozitsiyasini mustahkamlab, gumbazga o‘tish qismini bezakli shaklda tashkil etadi. Bu elementlar Markaziy Osiyo me’morchiligida keng tarqalgan dekorativ-konstruktiv usullardan biri hisoblanadi. Bunday me’moriy detallar yodgorlikning umumiy kompozitsiyasiga muvozanat va nafosat bag‘ishlaydi. Peshtoq qismida qo‘llangan bezaklar ham yodgorlikning badiiy qiymatini oshiradi. Peshtoq panolari ganch o‘ymakorligi bilan bezatilgan bo‘lib, ularda asosan geometrik va islomiy naqsh elementlari qo‘llangan. Bu naqshlar an’anaviy girix kompozitsiyalaridan tashkil topgan bo‘lib, ular islom me’morchiligida keng tarqalgan bezak uslublaridan biri hisoblanadi. Naqshlarning somon suvoq ranglari bilan uyg‘unlashishi yodgorlikka o‘ziga xos estetik ko‘rinish beradi.

Yusufxon Eshon majmuasi arxitekturasi Farg‘ona vodiysidagi boshqa tarixiy yodgorliklar bilan ham uslubiy jihatdan uyg‘unlikka ega. Xususan, Marg‘ilon shahrida joylashgan Pir Siddiq maqbarasi bilan ayrim kompozitsion o‘xshashliklar kuzatiladi. Har ikki yodgorlikda ham peshtoq kompozitsiyasi, panolarga ajratilgan fasad tuzilishi va ganch o‘ymakorligi bilan bezatilgan arxitektura elementlari mavjud. Bu holat vodiy me’morchiligida muayyan uslubiy an’analar saqlanganini ko‘rsatadi. Majmua joylashgan hudud ilgari Eshonbobo qabristoni nomi bilan ma’lum bo‘lgan. Manbalarga ko‘ra, bu yerda avval Shayx Nosiriddin nomli ruhoniy shaxs bilan bog‘liq majmua mavjud bo‘lgan. Keyinchalik bu maskan Yusufxon Eshon nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Yusufxon Eshon Shayx Nosiriddinning farzandlaridan biri bo‘lib, ilm va taqvo sohasida tanilgan shaxs sifatida xalq orasida obro‘qozongan.

Mahalliy an’analarga ko‘ra, Yusufxon Eshon tasavvufiy riyozat va ma’naviy tarbiya bilan shug‘ullangan. U kishi chillaxonada zikr va ibodat bilan mashg‘ul bo‘lgani, muridlarga ma’naviy yo‘l ko‘rsatgani haqida ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, xalq orasida Yusufxon Eshonning tabobat bilan ham shug‘ullangani haqida rivoyatlar saqlanib qolgan. Bunday holat tasavvuf namoyandalari faoliyatida ko‘p uchraydi, chunki ular nafaqat diniy bilimlar tarqatgan, balki aholining ijtimoiy va ma’naviy muammolariga ham yechim topishga harakat qilgan.

Ziyoratgoh hududida joylashgan hovuz haqida ham xalq orasida turli rivoyatlar mavjud. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, bu hovuz suvi shifobaxsh hisoblangan va odamlar turli dardlarga davo izlab bu yerga kelganlar. Bunday rivoyatlar Farg‘ona vodiysidagi ko‘plab ziyoratgohlarga xos bo‘lib, ular xalqning diniy va ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi. Farg‘ona vodiysida tasavvufiy an’analar keng tarqalgani haqida qo‘lyozma manbalarda ham ma’lumotlar uchraydi. Ayrim qo‘lyozma risolalarda shayxlar silsilasi, muridlar tarbiyasi va chillaxona an’analari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu manbalar vodiyda ruhoniy markazlar va ziyoratgohlar faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Yusufxon Eshon

majmuasi ham vodiydagi tasavvufiy muhitning bir qismi sifatida baholanishi mumkin.

Hozirgi kunda mazkur majmua davlat muhofazasiga olingan tarixiy yodgorliklardan biri hisoblanadi. Respublika Madaniy meros agentligi tomonidan uni saqlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Yodgorlikni asrab-avaylash, uning arxitektura qiyofasini saqlab qolish va ziyoratchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish borasida turli tadbirlar olib borilmoqda.

Majmuani saqlashda mahalliy aholi va jamoatchilikning ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Mahalla faollari va nuroniylar tashabbusi bilan ziyoratgoh hududida muntazam ravishda hasharlar o‘tkazilib, uning obodligi ta’minlanmoqda. Bu esa xalqning tarixiy merosga bo‘lgan hurmatini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Yusufxon Eshon majmuasi Farg‘ona vodiysidagi muhim tarixiy va me’moriy yodgorliklardan biri hisoblanadi. U nafaqat arxitektura namunasi, balki vodiyda shakllangan tasavvufiy an’analar, mahalliy diniy muhit va xalq ma’naviyatini o‘rganishda muhim manba sifatida ham ahamiyatga ega.

Yusufxon Eshonto‘ra majmuasi Farg‘ona vodiysi me’moriy merosining muhim namunalaridan biri hisoblanadi. Unda XVIII asr arxitektura an’analari, mahalliy qurilish usullari va badiiy bezak san’atining uyg‘unlashgan namunasi namoyon bo‘ladi. Majmuaning arxitektura xususiyatlari Farg‘ona vodiysida shakllangan me’moriy maktab an’analarini namoyon etadi. Shuningdek, mazkur yodgorlik xalqimizning diniy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu majmuani ilmiy jihatdan tadqiq etish, uni muhofaza qilish va restavratsiya ishlarini amalga oshirish milliy madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur ziyoratgohni turizm ob’ektlari qatorida rivojlantirish ham madaniy merosni keng targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қориев О. Ал-Марғиноний машҳур фиқҳшунос.- Тошкент: Мерос, 2000.
2. Исмоилов Ю., Рўзинов Б. Ахсикент-қадимги фарғона пойтахти.- Наманган: Наманган нашриёти, 2013. Исҳоқхон тўра Ибрат. Тарихи Фарғона.-Тошкент: Маънавият, 2005.
3. 19. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий.- Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
4. Муҳаммад муфтий Оҳангароний. Мавлоно Лутфуллоҳ маноқиби.- Тошкент: Имом ал-Бухорий жамғармаси, 2002.
5. Нуриддинов А. Махдуми Аъзам Косоний.-Тошкент: Фан, 2008.
6. Ртвеладзе Э.В. Узбекистан в эпоху Ахмада ал-Фергани и Имама ал-Бухари: вехи политической истории // ОНУ. №12. С. 3– 10.
7. Қозоқов Т. Ахси – Фарғона шаҳарларининг онаси.- Тошкент: Наврўз, 2018.

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA HISSIYOTLARNI AKS ETTIRISHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Soliyev Hakimjon Zokirjanovich
Namangan davlat universiteti
San’at va Dizayn kafedrasi mudiri, Dotsent

Annotatsiya *Mazkur maqolada tasviriy san’at darslarida hissiyotlarni aks ettirishning psixologik ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarning emotsional holati, temperament tipidan kelib chiqib, ichki kechinmalari va individual psixologik xususiyatlarini san’at orqali ifodalash jarayoni o‘rganilgan. Muallif tasviriy faoliyatning shaxs rivojidagi o‘rni, xususan, emotsional intellektni shakllantirish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda psixologik barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini asoslab beradi. Shuningdek, maqolada tasviriy san’at darslarida qo‘llaniladigan metod va usullar orqali o‘quvchilarning hissiy ifodasi va o‘zini anglash darajasini oshirish imkoniyatlari ham yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, san’at orqali hissiyotlarni erkin ifodalash o‘quvchilarda stressni kamaytiradi, erkin ijod qilishni ta’minlaydi, ijtimoiy moslashuvni yaxshilaydi hamda ularning shaxsiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur ish pedagoglar va psixologlar uchun tasviriy san’at darslarini tashkil etishda keng qamrovli va samarali yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, hissiyot, emotsional ifoda, psixologik ahamiyat, emotsional intellekt, ijodiy tafakkur, shaxs rivoji, o‘quvchilar psixologiyasi, temperament tipi, pedagogik jarayon, san’at terapiyasi, psixologik barqarorlik, o‘zini anglash, ijtimoiy moslashuv, didaktik metodlar*

Kirish Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa uning emotsional va psixologik jihatlarini qo‘llab-quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda ijtimoiy muhitning murakkablashuvi o‘quvchilarning ichki kechinmalari va hissiy holatlariga o’zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning hissiyotlarini anglash, ifodalash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san’at darslari o‘quvchilarning ichki dunyosini ochib berish, ularning emotsional holatini aks ettirish va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. San’at orqali shaxs o‘z kechinmalarini ramziy va obrazli shaklda ifodalash imkoniga ega bo‘ladi, bu esa uning psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘quvchilarning hissiyotlarini ranglar, shakllar va tasviriy vositalar orqali ifodalashi ularning o‘zini anglash darajasini oshiradi hamda ichki ziddiyatlarni bartaraf etishga yordam beradi. Mazkur maqolaning maqsadi tasviriy san’at darslarida hissiyotlarni aks ettirishning psixologik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash, uning o‘quvchilar shaxsiy rivojiga ta’sirini tahlil qilish hamda samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, kuzatuv va pedagogik tajriba usullaridan foydalanildi. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, tasviriy san’at orqali hissiy ifodani rivojlantirish o‘quvchilarda emotsional intellektni shakllantirish, stressni kamaytirish ichki kechinmalarini erkin ifodalashiga va ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib

borish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi ta’lim tizimi uchun muhim omil bo’lib hisoblanadi.

Tasviriy san’at darslarida hissiy ifodaning namoyon bo‘lish mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning psixologik holati ularning tasviriy faoliyatida bevosita aks etadi. Tasvir yaratish jarayoni nafaqat estetik faoliyat, balki murakkab psixik jarayon bo‘lib, unda idrok, tasavvur, diqqat, emotsiya va tafakkur o‘zaro integratsiyalashgan holda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, tasviriy faoliyat o‘quvchilarning ichki kechinmalarini diagnostika qilish va ularni ijobiy yo‘naltirish vositasi sifatida ham qaraladi. Hissiyotlarning tasviriy ifodasi, avvalo, rang va shakl tanlash orqali yuzaga chiqadi. Psixologik nuqtai nazardan, ranglar emotsional holatning muhim indikatori hisoblanadi: iliq ranglar (qizil, sariq, to‘q sariq) ko‘pincha faollik, hayajon va ijobiy kechinmalarni ifodalasa, sovuq ranglar (ko‘k, yashil, binafsha) sokinlik, mulohazalilik yoki ba’zan ichki tortinishni bildiradi. Shuningdek, chiziqlarning keskin yoki yumshoq bo‘lishi, kompozitsiyaning dinamik yoki statik tuzilishi ham o‘quvchining emotsional holati haqida muhim ma’lumot beradi.

- ❖ Mazkur jarayonni chuqurroq tahlil qilishda o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, xususan temperament tipi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Temperament shaxsning tug‘ma psixodinamik xususiyatlarini belgilab, hissiyotlarning kuchi, tezligi va barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan,
- ✓ xolerik tipdagi o‘quvchilar tasviriy faoliyatda keskin chiziqlar, kontrast ranglar va dinamik kompozitsiyalarga moyillik bildiradi, bu ularning tezkor va kuchli emotsional reaksiyalari bilan izohlanadi.
- ✓ Sangvinik o‘quvchilar esa rang-baranglik va erkin ifoda orqali ijobiy va faol kayfiyatni aks ettiradi.
- ✓ Flegmatik tip vakillari ko‘proq barqaror, tartibli va sokin tasvirlarga moyil bo‘lsa, melanxolik o‘quvchilar nozik detallar, chuqur mazmun va sokin ranglar orqali ichki kechinmalarini ifodalashga intiladi.
- ✓ Melanxolik tipdagi o‘quvchilar esa yuqori sezgirlik va chuqur emotsional kechinmalar bilan ajralib turadi. Ular tasviriy faoliyatda nozik detallar, mayin ranglar va ramziy obrazlar orqali o‘z ichki dunyosini ifodalashga intiladilar. Ko‘pincha bunday o‘quvchilarning ishlarida ichki kechinmalar, mulohazalilik va emotsional teranlik yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu bois, tasviriy san’at darslarida differensial yondashuvni qo‘llash muhim metodik talab hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning temperament va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda topshiriqlarni moslashtirishi, ularning erkin ijod qilishiga sharoit yaratishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va psixologik qulay muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.Shuningdek, tasviriy faoliyat elementlarini san’at-terapevtik yondashuvlar bilan boyitish ham yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Erkin rasm chizish, ranglar bilan eksperiment qilish, mavhum tasvirlar yaratish kabi usullar o‘quvchilarning ichki zo‘riqishini kamaytiradi va ularning emotsional holatini muvozanatlashtiradi. Natijada, bu jarayon o‘quvchilarda nafaqat ijodiy tafakkurni, balki emotsional

intellektni ham rivojlantiradi. Umuman olganda, tasviriy san’at darslarida hissiyotlarni ongli ravishda ifodalashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat o‘quvchilarning psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning eng samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tasviriy san’at darslarida hissiyotlarni aks ettirish o‘quvchilarning psixologik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. San’at orqali emotsional holatlarni ifodalash o‘quvchilarga o‘z ichki kechinmalarini anglash, ularni boshqarish va ijobiy yo‘naltirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning emotsional barqarorligi va psixologik salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, tadqiqot davomida aniqlanishicha, tasviriy faoliyat o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashini kuchaytiradi kreativlikni oshiradi hamda ularning ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtiradi. Ayniqsa, hissiy ifodaning erkinligi o‘quvchilarda stress va ichki zo‘riqishni kamaytirib, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, tasviriy san’at darslarida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish, o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olish hamda ularning hissiy ifodasini qo‘llab-quvvatlash ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, tasviriy san’atni nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki psixologik rivojlantiruvchi omil sifatida keng qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, tasviriy san’at orqali hissiyotlarni aks ettirish o‘quvchilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishida, ularning emotsional intellekti va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova “UMUMIY PSIXOLOGIYA”. Toshkent 2010y.
2. To‘liyeva Ruxsora Yo‘ldoshboy qizi “Tasviriy San’at asarlarini psixoterapiya vositasi sifatida o‘rganish”. Development of pedagogical technologies in modern sciences international scientific-online conference
3. Saidova Nargiza Ismatulla qizi “Tasviriy San’at Va Psixologiya: Ruhiy Muvozanat Manbai Yangi O‘Zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnali” December 2025y.
4. Jo‘rayev Hamza Hamroqulovich “Inson Kamolotida Tasviriy San'atning Ahamiyati” https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/index
5. Axmad Baxriyev “KASBIY PSIXOLOGIYA “Toshkent 2019y

РАНГТАСВИРДА ИНСОН ҲИССИЙ КЕЧИНМАЛАРИНИ ОЧИБ БЕРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Жаббаров Ботиршер Ғуломович
НамДУ доценти
Усмонова Малика Юнусхон қизи
НамДУ 3 курс талабаси

Аннотация: *Ушбу мақолада тасвирий санъатда, хусусан уни рангтасвир жанрида яратилган бадиий асарларида инсон ҳиссий кечинмаларини ўзига хос тарзда очиб беришни*

улкан аҳамияти ҳақида сўз боради. Бунга далил сифатида етук рассомларни айрим асарлари мисол тариқасида келтирилган.

Калит сўзлар: *Борлиқ, воқеа-ҳоисалар, қувонч, ғазаб, важоҳат, нафрат, ҳатти-ҳаракат, ҳиссиёт, имо-ишора, инсонларни ички кечинмалари, рассом асарлари, Помпей, Везувий, табиат кучлари, портрет, тарихий, маиший жанрлар.*

Аннотация: В данной статье рассматривается огромное значение уникального способа выражения человеческих эмоциональных переживаний в изобразительном искусстве, особенно в произведениях живописи. В качестве доказательства приводятся примеры работ известных художников.

Ключевые слова: Бытие, события, радость, гнев, печаль, ненависть, поведение, эмоции, жесты, внутренние переживания людей, произведения искусства, Помпеи, Везувий, силы природы, портрет, исторический, повседневные жанры.

Abstract: This article discusses the great importance of revealing human emotional experiences in a unique way in the visual arts, especially in works of art created in the genre of painting. As evidence of this, some works of prominent artists are cited as examples.

Keywords: Being, events, joy, anger, sadness, hatred, behavior, emotion, gesture, internal experiences of people, works of art, Pompeii, Vesuvius, forces of nature, portrait, historical, everyday genres.

Инсон қўлида сайқал топган буюмлар ўзининг бежиримлиги, ёқимли ранги билан, одамлар эса хушмуомилалиги, яхши характери билан, содир бўлаётган воқеа - ҳодисалар эса такрорланмаслиги билан бизни қувонтирса, бошқалари эса уни бутунлай акси бўлиб, одамни хафа қилади, ғазабини келтиради, нафратини уйғотади. Одам хавф остида қолганида қурқувни хис қилади, душман устидан ғалаба қозониши ёки ҳаётнинг оғир синовлари ва қийинчиликларини енгиб ўтиши эса унга завқ бағишлайди. Буларнинг барчаси инсонни хиссиёти билан боғлиқ бўлган психологик жараён ҳисобланади.

Профессор Э. Ғозиев ”Умумий психология” китобида хиссиётга қуйидаги таърифни беради: “*Хиссиёт – одамда, тирик мавжудотлар миясида, яъни шахснинг эҳтиёжларини қондирувчи ёки унга моньелик қилувчи объектларга нисбатан муносабатларини акс эттириш ҳисобланади*”.

Юқоридаги таърифдан кўриниб турибдики, хиссиёт туйғуларимизнинг ўзига хос акс эттириш жараёни бўлиб, унда нарса ва ҳодисаларни акс эттириш жараёнида туғиладиган ички кечинмалар ва муносабатлар акс эттирилади. Демак, хиссиётлар ўз-ўзидан юзага келмайди, балки ташқи оламдаги нарса ва ҳодисаларнинг инсонга таъсири натижасида юзага келади.

Одамнинг ички хиссий ҳис-туйғуларини ташқи оламга нисбатан бўлган муносабатларини ташқи ифодаси уни юз-кўзининг ўзгаришида, мимикасида, имо-ишорасида, важоҳатида, қадди-қоматини ўзгаришида, ҳатти-ҳаракатида, юрак уриши тезлашганда, нутқи ва овозини ўзгаришида кўзга ташланади. Рассомлар эса одамларни хиссий ҳолатнинг ушбу ташқи кўринишини тасвирлаш орқали ички кечинмаларини очиб беришга ва тамошабин қалбига етказишга ҳаракат қиладилар.

Тарихдан маълумки, рассомлар томонидан инсонларнинг хиссий кечинмаларини очиб беришга бағишланган жуда кўплаб бебаҳо санъат асарлари яратилган. Аввалари рассомлар асосан диний, афсонавий, мифологик мавзулардаги асарлари орқали инсонларнинг эмоционал ҳолатини

очиб беришга интилишган. Бу борада Антик давр намуналари ва Уйғониш даври рассомларининг ижодини мисол қилиб келтириш мумкин.

Кейинчалик эса оддий халқ турмуш тарзи ва табиатнинг қудратли кучи олдидаги одамзоднинг ожизлиги орқали инсонларни борлиққа бўлган ички кечинмаларни акс эттириш бошланган. Жумладан, К. П. Брюллов (1799-1852) "***Помпейнинг сўнгги куни***" асарида эрамизнинг 79 йили Везувий вулқонининг отилиб чиқиши натижасида антик даврнинг гуллаган шаҳарларидан бири бўлган Помпей ва уни аҳолиси бошига тушган кулфат жуда ҳам ифодали тасвирланган.

Рассом дўсти Юрия Павловна Самойлова ҳамроҳлигида Помпей ва Геркуланум ҳаробаларини кўришга боради. Саёҳатдан олдин у ҳатто, бу саёҳат ижодининг энг юксак чўққиси бўлишини тасаввур ҳам қилмайди. У ерда кўрганларидан қаттиқ ҳаяжонланган рассом тасаввурида "***қўққисдан одамлар ҳаётини тўхтатган даҳшатли вулқон гавдаланади ва қадимги Помпей шаҳри аҳолиси ўзларининг фожеали ўлимлари билан мангуликка эришганлар"***-деган фикр уйғонади.

Вулқон отилиши натижасида ер кучли ларзага келиб, чор тарафга отилган лава биноларни вайрон қилмоқда, ҳайкаллар қулаб тушяпти. Бундай табиий офатдан ваҳимага тушган одамлар ўлим чангалидан қочиб қутилиш ва яқинларини қутқаришга бўлган ҳаракати жуда ҳам ёрқин акс эттирилган.

Рассом табиат кучларининг нақадар қудратли эканини талқин этгани ҳолда, одамлар орасидаги ўзаро муносабатларни ҳам таъсирчан гавдалантиради. Асарда инсонларнинг ички хиссиётларини деярли икки хил кўринишда намоён бўлганини хис қилиш мумкин. Биринчиси шундай оғир дамда ҳам бир-бирларига ёрдам қўлини чўзаётган, маънан гўзал одамлар бўлса, иккинчи тоифаси эса ўз жонини сақлаш учун одамлар устига от солаётган, бостириб келаётган, фурсатдан фойдаланиб бошқалар мулкини ўғирлашга ҳаракат қилаётган тубан одамларни акс эттиради.

Брюллов тарихий воқеага бағишланган ушбу асарида одамларнинг табиий офатга бўлган эмоцияларини, хис-туйғуларини ваҳимага тушган юз-кўзларида, важоҳатларида, қадди-қоматларини ўзгаришларида, ҳатти-ҳаракатларида жуда ҳам ишонарли очиб бераолган.

А. А. Ивановнинг "***Исонинг халққа кўриниши***" (1837-1857) асари диний сюжет асосида ишланган бўлишига қарамасдан, рассом уни тарихий жанрда яратилган асари деб ҳисоблайди. И. Е. Репин таъбири билан айтганда, бу асар "***энг гениал, энг халқчил рус картинасидир***". Рассом ушбу бебаҳо асари устида 20 йилдан ортиқ вақт ишлайди. Бу даврда асари учун 600 дан ортиқ хомаки тасвир, қоралама ва ранглавҳалар ишлайди. Композицияга киритилган ҳар бир образнинг анатомик жиҳатдан аниқлиги, психологик жиҳатдан ишонарли бўлишига, теварак атрофдаги нурларнинг асосий образларга таъсирини ўрганади.

Федотовнинг ҳаётга бўлган танқидий муносабатлари, инсонларни ички кечинмаларини ўзига хос тарзда талқин қилиши сатирик асарларида ўз ифодасини топади. Рассомни "***Янги кавалер***" (1846) асарида калтабин, такаббур, мақтанчоқ чиновник кўп йиллик хизматлари учун орден билан

тақдирланганидан кейинги ҳолатни акс эттиради. Чиновникни такаббур, мақтанчоқлиги, калтабинлиги уни ҳатти – ҳаракати, кийиниши, кўз, лаб ва маъносиз боқишида намоён бўлади.

"***Майорнинг уйланиши***" (1848) асари учун рассом академик унвонига эга бўлади. Ушбу картинада камбағаллашиб бораётган савдогар бой зодогонлар сафига кириш учун ёш гўзал қизини ёши ўтиб қолган майорга бойлик илинжида турмушга бераётгани акс эттирилган. Ўша вақтларда ҳарбийларга жуда кўплаб имтиёзлар берилган ва катта маблағ ажратилган. Асарда такаббур майорни кибр билан келинни уйига келган саҳнаси жуда ҳам таъсирчан акс эттирилган.

XIX асрининг иккинчи ярмида инсонларнинг кундалик турмуш тарзини, ички кечинмаларини акс эттирган портрет, маиший ва тарихий жанрдаги асарлар кўплаб ишланган. Бу борада 1863 йили 9 ноябрида "***Ўн тўртлар ғалаёни***"ни ўрни беқиёс саналади. Россия Бадиий Академиясини тугатаётган 14 нафар талаба мифологиядан олинган мавзуда диплом иши яратишдан бош тортиб, эркин мавзуда халқ ҳаётидан олинган сюжетлар асосида сурат ишлашга рухсат сўрашади .

Ушбу воқеа сабаб рассомлар И. Н. Крамской бошчилигидаги "***Артел***"га бирлашади. Кейинчалик эса Г. Мясоедов, В. Перов ва Н. Крамскойларнинг фаол ҳаракати билан "***Кўчма кўргазмалар биродарлиги***" уюшмаси тузилади. Улар халқ ҳаётига, оғир турмуш тарзига, уларни ички кечинмаларини очиб беришга бағишланган асарлар яратишни ўзларининг бош мақсадлари деб ҳисоблашади. Улар асарларида халқнинг оғир турмуш тарзини ҳаққоний тасвирлашга, жамият унсурларини рўйи рост очиб беришга ҳаракат қилишади.

70-80-йиларида уларнинг сафида таниқли рус рассомларидан И. Репин, В. Суриков, В. Васнецов, К. Савицкий, Н. Касаткин, И. Левитан, В. Поленов ва шу каби бошқа кўплаб ижодкорлар бўлган. Улар ҳаётий – маиший жанрда, уни дастгоҳли шаклида халқ ҳаётини атрофлича акс эттирган асарлар яратишган. Портрет жанрида эса ахлоқ муаммоларини ёритишган ва инсонни ички кечинмаларини очиб беришга ҳаракат қилишган.

Рус танқидий реализмининг асосчиси В. Г. Перов халқнинг оғир аҳволини ачиниш ва изтироб билан тасвирлайди. Уни "***Уччовлон***" (1866) асарида қаҳратон қишнинг изғирин кунида оғир юк ортилган чанани тортиб кетаётган уч нафар ёш бола ва уларга ёрдам бериб чана итариб келаётган катта ёшли одам ҳамда улар ёнида чопиб кетаётган ит тасвирланган. Асарда акс эттирилган болаларнинг жулдур кийимлари, оғир меҳнатдан қотган кичик жуссалари, озғин ва сўлғин юзлари замонасининг оғир ва машаққатли кунлари ҳақида сўзлаётгандек бўлади.

Уюшманинг йўлбошчиси ва ташкилотчиси, рассом ва назариётчи И. Н. Крамской (1837-1887) портрет, тарихий, маиший жанрларда кўплаб асарлар яратади. Айниқса, инсонни ички хиссиётларини очиб берган портретлари уни ўзига хос бўлган истеъдодини ёркин намойиш этади. Крамскойни тасвири ишланаётган инсонга диққат билан қараши, образнинг ички дунёсини очиб бериши уни замонасининг энг машхур портретчи рассомларидан бирига айлантиради.

У нафақат зиёли инсонларни, балки оддий кишиларларни, айниқса, кўплаб деҳқонларнинг портретларини ишлагани билан алоҳида ажралиб туради. Деҳқонларнинг оғир меҳнат натижасида қадоқ бўлган қўллари ҳаракатида, кулиб турган кўзларида уларнинг ички кечинмалари, самимий муносабатлари намоён бўлади. Рассомлар рус халқининг қашшоқ ва аянчли аҳволини ҳукмрон синфнинг фаровон ва дабдабали ҳаёти билан таққослаш орқали кўрсатишади.

И. Е. Репин (1844-1930) ҳам тарихий, маиший ва портрет жанрларида самарали ижод қилган рассомлар ҳисобланади. У "***Запарожьеликлар***" асарини яратиш учун икки йил давомида Запрожьега бориб, аҳолининг урф-одатини, ҳатти-ҳаракатини, мимикасини ўрганади. XVIII асрда турк султони Муҳаммад IV Запорожьелик казакларни жанг майдонида енгишга кўзи етмагач, уларга таслим бўлишни таклиф қилиб нома юборади. Казаклар ҳам ўз навбатида Султонга жавоб хати ёзиб, унда босқинчиларга пичинг, аччиқ киноя билан ўз нафратларини изоҳ қилишади. Хатга запорожьеликлар қўшини номидан атаман Иван Дмитриевич Серко қўл қўяди. Картинада запарожьеликларнинг атаман бошчилигида турк султонига жавоб хати ёзаётгани тасвирланган. Асардаги ҳар бир иштирокчининг ҳатти-ҳаракати, юз ифодаси, ҳаттоки тана ва қўл ҳаракати орқали уларни ҳиссий кечинмалари жуда ҳам таъсирчан кўринишда очиб берилган.

В. И. Суриков тарихий жанрда кўп қоматли композиция устида ишлаб бадиий асар яратар экан, уни кўз олдида содир бўлган ўша воқеа-ҳодисалар намоён бўлади. У содир бўлган воқеликнинг энг таъсирчан ҳисоблаган, маълум бир кўринишини акс эттиришга ҳаракат қилади. Асарларида тасвирлаган ушбу кўриниш орқали ўша давр рухини очиб беришга, тарихга холисона баҳо беради. Мисол учун, "***Бояр аёл Морозова***" картинасида ўша даврда содир бўлган воқеликнинг энг юқори нуқтаси сифатида пойтахтдан қувғин қилинаётган бояр хотин ва уни тарафдорлари томонидан кузатиш жараёнини акс эттирган. Рассом асар қаҳрамони сифатида тасвирлаган бояр аёли сиймоси орқали христиан динидаги тарихий бўлинишни акс эттиради. Асар динамикасини кўрсатиш учун рассом от қўшилган арава ёнида югуриб кетаётган ёш бола образидан унумли фойдаланган.

В. А. Серов (1865-1911) рус рангтасвир санъати анъаналарини пленер ютуқлари билан бойитади, асарларини мазмунан бойитади, эстетик – эмоционал кучини оширади. Рассом портрет жанрини мукаммал даражада ўрганади ва тасвири ишланаётган сиймонинг ички дунёсини ҳаққоний очиб беришга эришади. У шу мақсадда атрофдаги мавжуд буюм ва каби шу бошқа деталлардан унумли фойдаланади. "***Қиз ва шафтоли***" (1887), "***Офтобда ўтирган қиз***" (1888) каби асарлари шулар жумласига киради.

М. В. Врубель (1856-1910) эса ҳаёт фожеаси олдида ўзини кучсиз хис этади. Рассомнинг маҳорати ошиб боргани сари, у ёлғиз яшаб, изтироб чекаётган, касалманд, дунёга умидсизлик билан боқаётган шахснинг ички изтиробларини ўз асарларида аниқ ифодалашга эришади. Рассомнинг "***Ўтирган иблис***" (1890) асарида жамиятдан ажралиб, руҳий тушкинликка

тушиб қолган ва ундан чиқиш йўлини кўра олмаган шахс фожеаси кўрсатилади.

Талаба ижод йўлига кирар экан, у портрет жанрида ижод қиладими ёки маиший, тарихий жанр бўладими, қатъий назар инсонни ички кечинмаларини, хиссиётини очиб бериши, рухий ва жисмоний оғриқ, завқ – шавқни ўзига хос тарзда ифодалашни ўрганиши зарур. Акс ҳолда уни асари тамошабин қалбидан жой ололмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдурахмонов Ғ. М. Композиция асослари. –Т.: “Иқтисод-молия”, 2010
2. Абдуллаев Н. У. Санъат тарихи. 2/1.Т.: 2001
3. Жабборов Э. Композиция. -Қ.: “Фан ва таълим”, 2021
4. Жаббаров Б. Ғ. Рангтасвир. 2-босқич учун. –Т.: 2024
5. Жаббаров Б. Ғ. Карл Павлович Брюллов ҳаёти ва ижоди. –Н.: 2017
6. Худайберганов Р. А. Рангшунослик ва композиция асослари. –Т.; 2019

M U N D A R I J A

1 SHO'BA: YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI ILM-FAN VA INNOVATSIYALARGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY KASBLARGA YO'NALTIRISHNING ASOSIY TENDENSIYALARI			
1.	Tuychiyeva Saodat	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy rivojlanishida adaptiv intellekt muammosi	3
2.	Nargiza Xalilova	Kasbiy niyat bo'lajak mutaxassis kasbiy kamolotining asosi sifatida	7
3.	Tursunov Lutfullo	Yoshlarni zamonaviy kasbga yo'naltirishda uquvchanlilkning yangi bilimlarni o'zlashtirishiga ta'siri	12
4.	Касымбеков Эркин Касымбекова Айгүль Исмаилова Суусаркан	Болочок кесиптик окутуу педагогдорунун дидактикалык компетенттүүлүгүн калыптандыруунун педагогикалык шарттары	16
5.	Jabborov A. M. Xudoynazarov Q. A.	Ilk o'spirin yoshlar (16-18 yosh) dunyoqarashidagi noilmiy tasavvurlarning ijtimoiy- psixologik xususiyatlari	22
6.	Tursunov Lutfullo	Yangi o'zbekistonda shaxs filogenezisiga etnopsixologik yondoshuv	26
7.	Raxmatova Xayrixon	Yoshlarni kasb tanlashida oilaning o'rni	32
8.	Kurbanova Zarifa	Kasbiy maslahat zamonaviy kasblarga yo'naltirishning muhim bosqichi sifatida	35
9.	Vaxabova Nasiba Abdullayev Komronbek	Shaxs kamolotida hayotiy maqsad va ma'noga intilishning psixologik jihatlari va ularning yoshlarni zamonaviy kasblarga yo'naltirishdagi roli	38
10.	Kurbanova Zarifa Xolmatjonova Muattarxon	Nogironligi bo'lgan o'spirinlarni kasb-hunarga yo'naltirish	42
11.	Vaxabova Nasiba Po'latov Jaxongir	Yangi o'zbekistonda talabalarni ilm-fan va innovatsion kasblarga yo'naltirishda o'quv motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik asoslari	45
12.	Mansurova Gulmira Jaloldinova Nigina	Psixologlarni o'qitishda zamonaviy yo'nalishlar	49
13.	Sotvoldiyeva Zebuniso	Yosh o'qituvchilarda emotsional barqarorlik va kasbiy identifikatsiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik xususiyatlari	51

14.	Urayimova Muqaddam	Talabalarning oliy ta’lim tizimidagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalari	54
15.	Ashuraliyeva Tursunoy	Zamonaviy kasblar evolyutsiyasi fonida oiladagi psixologik muhitning bolalar kognitiv rivojiga ta’sir etuvchi mexanizmlari	58
16.	Abduvohidova Malika	Zamonaviy kasblarga yo‘naltirishda o‘smirlarning moslashuv strategiyalarining psixologik ahamiyati	62
17.	Mamataliyev Bobirmirzo	Yoshlarning kasbiy qiziqishlarini aniqlashda psixodiagnostik metodlarning o‘rni	65
18.	Isaqova Shohista	Yoshlar bandligi va kasbga yo‘naltirish o‘rtasidagi bog‘liqlik	68
19.	Uzoqova Nigora	Yoshlarni erta yoshdan kasbga yo’naltirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari	70
20.	Muroddillayeva Mahliyoxon	Kasb tanlashdagi stress va noaniqlik muammolari.	73
2- SHO‘BA. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBLAR TRANSFORMATSIYASI			
21.	Ablakulov Sh.D.	Smartfonlar davri: Shakllanishi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	76
22.	Kurbanova Zarifa Toshpo‘latova Ra'no	Raqamli transformatsiya jarayonida o‘smirlarning kasbiy intilishlariga ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta’siri	78
23.	Мансурова Гульмира	Влияние цифровых технологий на профессиональный образовательный процесс вузов и преодоление когнитивного диссонанса у студентов	81
24.	Rustamova Turdixon	Raqamli texnologiyalar davrida kasbiy ko’nikmalar	85
25.	Axrorov Zohidjon	Kiberbullingning bolalarga psixologik ta’sirining xususiyatlari	87
26.	Maxsudova Mutabar Raximjanova Dilshoda	IT kasblarga yo'naltirilgan yoshlarda internet-deviantlik xavfini kamaytirish strategiyalari	90
27.	Maxsudova Mutabar Abduvohidova Malikajon	Raqamlı muhıtnıng og‘ıshgan xulqlı o‘smırlar psıxologıyası va copıng xulq-atvorıga ta’sırı	93
28.	Akbarov Soxodilla Xolmirzayeva Diyora	Virtual olamdagi g'oyaviy poligon va yoshlar: himoya mexanizmlari	97

29.	Abdullayeva Kibriyo Mohidil Umarova	Sun’iy intelekt konsepsiyalari orqali o‘quvchilarga milliy tarbiya berish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish	100
30.	Toshpo‘latov Ibrohim Sobirov Hamroxo‘ja	Raqamli ijtimoiy muhitning talaba psixologik salomatligiga ta’siri: emotsional zo‘riqish va anksiozlik muammosi	104
31.	Rustamova Turdixon Tajaxmedova Madina	Sun’iy intellekt davrida inson shaxsiyati qanday o‘zgarmoqda?	110
32.	Bozorboyeva Dilshoda	O’spirinlarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik shakllanishining psixologik mexanizmlari	113
33.	Turg'unova Hilola	Raqamli muhitda yoshlarni “it” sohasidagi kasblarga yo'naltirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	117
34.	Abdullayeva Laylo	Raqamli texnologiyalar yordamida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning zamonaviy usullari	120
3-SHO’BA: KASBIY TA’LIMDA O‘ZLIKNI ANGLASH SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI			
35.	Мадалиева С.А.	Жомоктор аркылуу мектепке чейинки курактагы балдардын баалуулуктарын калыптандыруу.	123
36.	Абдывасиева Зырапа	Мектепке чейинки курактагы улуу тайпанын балдарына убакыт түшүнүгүн кыргыз элинин баалуулуктарынын негизинде калыптандыруу жана өнүктүрүү	128
37.	Turaxanov Ummatali Kasimbekov Erkin	Shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	135
38.	Aytniyazova Nargiza	Kasbiy ta’lim sharoitida yoshlarda o‘zlikni anglash va deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari	139
39.	Maxsudova Mutabar Voxidova Nilufar	O‘smirlarni kasbiy ta‘limga yo‘naltirishda axloqiy o‘zini o‘zi anglashni rivojlantirishning ahamiyati	142
40.	Kurbanova Zarifa Ashuraliyeva Tursunoy	Kasbıy ta’lımda o‘zlıknı anglash shakllanıshınıng ıjtımoıy-psıxologık determınantları sıfatıda oılavıy psıxologık muhıt va bolalarnıng kognıtıv rıvojı	145

41.	Latipova Khurshida	Achieving professional efficiency through digital education in the pedagogical process	148
42.	Kurbanova Zarifa Xasanova Ozoda	Intizomlilik va o‘zlikni anglashning kasbiy shakllanishga ta’siri	151
43.	Akbarov Soxodilla	Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida psixologik bilimlarning tutgan o‘rni	155
44.	Axmedova Muyassar Maqsudboyeva Dilbar	Kasbiy ta’limda o‘zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	159
45.	Qambarov Musoxon	Kasbiy ta’limda o’zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik kompetentsiyalarini takomillashtirish	161
46.	Vaxabova Nasiba	Kasbiy ta’lim jarayonida talaba qizlarda o‘zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari va ularning oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlikka ta’siri	164
47.	Kurbanova Zarifa Tojiddinova Dildora	Kasbiy ta’limda o’zlikni anglash shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar	168
48.	Otamuratov Rustam Akimbaev Axmetjan	Psychological analysis of decision-making processes in career choice under the influence of internet addiction and psychoemotional factors	171
49.	Akbarov Soxodilla Muhammadmusayeva Munisa	Kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	174
50.	Otamuratova Sarvinoz	Analysis of approaches to the history of the origin of youth subcultures	177
51.	Rustamova Turdixon	Bo’lajak pedagoglarda kasbiy o’zlikni anglashning shakllanishi.	179
52.	Мансурова Гульмира	Социально-психологические детерминанты когнитивного диссонанса в профессиональном образовании	183
53.	Ergasheva Diloramxon	Kasb tanlashga ta’sir etuvchi omillar va kasbiy motivatsiya	186
54.	Otamuratov Rustam	Psychoemotional state of adolescents with internet addiction and problems of choosing a professional field	190

55.	Vaxabova Nasiba Olimova Dilshoda	Axloqıy dılemmalar orqalı talaba qızlarda kasbıy ong va qaror qabul qılısh ko'nıkmalarını rıvojlantırısh	193
56.	Toshpo'latov Ibrohim Soliyeva Xusnidabonu	Stress va ularni bartaraf etish usullari, shaxsdagi nevrotik buzulishlar	196
57.	Turg'unpo'latova Musharraf	O'smirlik davrida kasbiy ta'limda o'zlikni anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari	201
58.	Rustamova Turdixon Shuhratova Yodgora	Kasbiy o'zlikni anglashda motiv va motivatsiyaning ro'li	203
59.	Dexkonova Marg`uba Mamasharipova Adolat	Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarida kasbiy o'zlikni anglashni shakllantirish	207
60.	Otamuratova Sarvinoz	Scientific evolution of the concept of subculture	209
61.	Акбаров Соходилла Расулова Имона	Эмоциональный интеллект как детерминанта профессионального самосознания студентов	211
62.	Sobirjonova Nilufar	Talaba yoshlarda stressga bardoshlilikni shakllantirish mexanizmlari	215
63.	Yakubova Madina	Gender omillarining kasb tanlashga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	220
64.	Kuldasheva Lobaroy	Yoshlarning kasb tanlashida motivatsiyasi va qadriyatlarning roli	223
4 SHO'BA: YOSHLARNI ZAMONAVIY KASBLARGA QIZIQISH VA QOBILIYATLARINI TASHXIS QILISH HAMDA RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI			
65.	Ganiev Akhrorjon	Psychological barriers and strategies for guiding uzbek immigrant youth abroad toward modern professions	227
66.	Akramova Feruza	Sharq va g'arb ilmiy-ma'naviy merosida axloqiy qadriyatlar va tarbiya masalalari	231
67.	Kulaxmetov Abdusattor	Ilk o'spirinlik davrida qobiliyatlarni tashxis qilishning o'ziga xos psixologilk xususiyatlari	236
68.	Касымбеков Эркин	Мультимедиялык окутуу каражаттарынын негизинде башталгыч класстын окуучуларынын көркөм чыгармачылык жөндөмдөрүн өнүктүрүү	240
69.	Молдошева Канykей	Өспүрүмдөрдөгү жалгыздык менен агрессиянын өз ара байланышы:	247

		теориялык талдоо жана автордук концептуалдык модель	
70.	Майрамкан Мусаканова Мирзаева Эльнура	Ааламдын алп жазуучусу чыңгыз айтматовдун чыгармаларынын окурмандарга тийгизген таасири	256
71.	Танаева Нургуль	М. Гапаровдун чыгармаларындагы вербалдык эмес каражаттардын коммуникативдик өзгөчөлүктөрү	261
72.	Көлбаева Гүлбара	Тил илиминдеги терминологиянын калыптануу жолдору жана функционалдык өзгөчөлүктөрү	267
73.	Oribboyeva Dilafruz	Kasbiy tanlov-kelajak uchun muhim qadam	274
74.	Turg’unboyeva Azizaxon	O‘quv jarayonida talabalarda qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish	278
75.	Karimov Ne’matjon	Fakultetlararo jismoniy tarbiya darslarida sport psixologiyasining ahamiyati	282
76.	Рахмонов Шерзод	Ўзбекистонда маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформациясининг ижтимоий-фалсафий зарурияти	285
77.	Xudoynazarov Q. A.	Yengil atletikachilar sportda yuqori natijalarga erishishining tarbiyaviy-psixologik xususiyatlari	289
78.	Akbaraliyeva Asilaxon	Psixologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining zamonaviy mehnat bozoriga moslashuvi: hr kasblari misolida qiziqish va komptensiyalarini rivojlantirish yo’llari	292
79.	M.A.Maxsudova	Yoshlarni zamonaviy kasblarga qiziqtirishning psixologik omillari	296
80.	Yo.Djumanazarov G.Jumanazarova	Hissiyot va aqliy taraqqiyot nomutanosibligi	299
81.	Kurbanova Zarifa	Kasbiy qiziqish va moyilliklarini tashxis qilish usullari	303
82.	Теңишова Клара	Башталгыч класстарда көркөм тексттерди талдоо аркылуу окуучулардын окуу компетенттүүлүгүн калыптандыруу	307
83.	Turaxonov Ummatali Obidova Sevinch	Kognitiv "terapiya"ning pedagogikada o'z-o'zini anglashni rivojlantirishdagi roli	315

84.	Maxsudova Mutabarxon Orifova Saboatxon	O’quvchi yoshlarni maqsadli kasb tanlashga o‘rgatishda psixologik trening mashg`ulotlarining ahamiyati	318
85.	Dexkonova Marg`uba	Zamonaviy o`qituvchilarda kreativlik qobiliyatini ahamiyati	321
86.	G‘aniyeva Nargizaxon	Yoshlarning shaxsiy salohiyatini namoyon qilish va rivojlantirishning zamonaviy paradigmalari	326
87.	M.A.Maxsudova Z.A. Sotvoldiyeva	Kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichida yosh pedagoglarning stressga bardoshliligini shakllantirishning psixologik omillari	330
88.	G‘aniyeva Gulandon	Zamonaviy kasblar kontekstida yoshlarning qobiliyatlarini tashxis qilish va rivojlantirishning metodik asoslari	332
89.	Maxsudova Mutabarxon Saidikromova Mohigul	Yoshlarnı zamonavıy kasblarga qızıqtırısh orqalı devıant xulq atvorga moyıl o‘quvchılar shaxsını rıvojlantırısh	336
90.	Abdullayeva Nilufar Alijonova Shaxzoda	Altrustik xulq-atvorning shaxsiy determinantlari: empatiya, dindorlik va individual-psixologik xususiyatlar	339
91.	Raximov Ilhomjon Usmonova Gulnoza	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy manbalarning ilmiy tahlili	343
92.	Dexkonova Marg`uba Mamasharipova Adolat	Maktabgacha yoshdagi bolalarni tafakkurini rivojlantirish.	348
93.	Sharipova Umidaxon	Yoshlarni zamonaviy kasblarga qiziqish va qobiliyatlarini tashxis qilish hamda rivojlantirishning asosiy masalalari	351
94.	Maxsudova Mutabarxon Ismatova Maftuna	Intelektual xususiyatlarning shaxs kasbiy shakllanishiga ta'siri	353
95.	Таабалдиева А.А.	Элдик музыкалык аспаптар жана ырлар аркылуу баланын музыкалык жөндөмдөрүн өнүктүрүү	356
96.	Samatova Nigora	Ijtimoiy tarmoqlarda manipulyatsiya	361
97.	Rayimxo‘jayeva Barnoxon	Qizlarning kasbiy orzulari va qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari.	365
98.	Maxsudova Mutabarxon Sobirova Feruza	Yuqori sinf o‘quvchilari intellektual iqtidorining rivojlanishida ijtimoiy-psixologik omillarning o‘rni	367
99.	Karimova Gulmira	Boshlang‘ich sinflarda nutq rivojlanishida o‘qish fanining ahamiyati.	370

100	Otabek Abduraxmonov	Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlanish bosqichlari	372
101	Samatova Nigora	O‘smirlik davrida koping strategiyalarining rivojlanish xususiyatlari	374
102	Boymirzayeva Gulira’no	Oila muxitining kasb tanlashga ta'siri	376
103	Soxodillo Akbarov Baxtiyor Asqarovich	Yusufxon eshon majmuasi va uning farg‘ona vodiysi madaniy merosidagi ahamiyati	379
104	Soliyev Hakimjon	Tasviriy san'at darslarida hissiyotlarni aks ettirishning psixologik ahamiyati	382
105	Жаббаров Ботиршер Усмонова Малика	Рангтасвирда инсон ҳиссий кечинмаларини очиб беришнинг ўзига хос жиҳатлари	385

“YOSHLARNI ILM-FAN VA INNOVATSIYALARGA ASOSLANGAN ZAMONAVIY KASBLARGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

24-25 APREL 2026-YIL

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ “ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ОРИЕНТАЦИИ МОЛОДЕЖИ НА СОВРЕМЕННЫЕ ПРОФЕССИИ, ОСНОВАННЫЕ НА НАУКЕ И ИННОВАЦИЯХ”

2026-ГОД 24-25 АПРЕЛЬ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON “PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF GUIDING YOUTH TOWARD MODERN PROFESSIONS BASED ON SCIENCE AND INNOVATION”

2026 YEAR 24-25 APRIL



NAMANGAN-2026